O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“HARBIY PSIXOLOGIYANI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi

respublika ilmiy-amaliy konferensiya

TO‘PLAMI



Toshkent - 2026

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“Harbiy psixologiyani rivojlantirish istiqbollari: muammo va yechimlar” mavzusidagi

respublika ilmiy-amaliy konferensiya

TO‘PLAMI

2026-yil 27-fevral



TOSHKENT – 2026

F-13

“Harbiy psixologiyani rivojlantirish istiqbollari: muammo va yechimlar” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2026. - 671 bet.

Ushbu konferensiya to‘plami Harbiy psixologiyani rivojlantirishning istiqbollari, muammo va yechimlari borasida harbiy xizmatchilarning o‘quv, xizmat hamda jangovar faoliyatidagi psixologik bilimlarning tutgan o‘rni, shuningdek, ulardagi mavjud muammo va yechimlar bo‘yicha keng jamoatchilik bilan o‘tkazilgan muhokama natijalarini o‘z ichiga qamrab olgan.

To‘plamda berilgan ilmiy maqola va tezislar O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar turli bo‘linmalari, Milliy gvardiyaning hududiy boshqarmalari psixologlari, oliy harbiy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, harbiy soha bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar, kursant va tinglovchilar uchun mo‘ljallangan.

Tashkilotchi:	O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi
Mas’ul muharrir:	“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi boshlig‘i p.f.b.f.d., dotsent, podpolkovnik Z.Sh.Alimardonov
Tahrir hay’ati:	katta leytenant N.U.Zohirov

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi va aniqligi uchun mualliflar mas’ulligi belgilangan.

©O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, 2026

KIRISH SO‘ZI

Assalomu alaykum, hurmatli konferensiya ishtirokchilari, aziz hamkasblar!

Bugungi geosiyosiy o‘zgarishlar, global xavfsizlik muhitining murakkablashuvi hamda harbiy faoliyat xarakterining transformatsiyalanib borishi sharoitida inson omilining strategik ahamiyati tobora ortib bormoqda. Harbiy tizim samaradorligi endilikda nafaqat texnik ta’minot yoki tashkiliy boshqaruv darajasi bilan, balki shaxsning psixologik barqarorligi, stressga chidamliligi, tezkor qaror qabul qila olish qobiliyati hamda jamoaviy moslashuvchanligi bilan ham belgilanmoqda. Shu bois harbiy psixologiyani rivojlantirish masalasi milliy xavfsizlikni ta’minlashning muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Zamonaviy harbiy xizmat faoliyatida yuzaga kelayotgan yangi tahdidlar – axborot bosimi, psixologik ta’sir vositalari, gibrid mojarolar, favqulodda vaziyatlar hamda yuqori psixoemotsional zo‘riqish sharoitlari – harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligiga nisbatan mutlaqo yangi talablarni qo‘ymoqda. Mazkur jarayonlar harbiy xizmatchilarni tanlash, tayyorlash, motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlash hamda xizmat davomida psixologik barqarorlikni ta’minlash mexanizmlarini ilmiy asosda takomillashtirishni dolzarb vazifaga aylantirmoqda.

Shu nuqtai nazardan, harbiy psixologiya shaxsning psixologik resurslarini aniqlash, stress omillarini boshqarish, jamoaviy muhitni barqarorlashtirish va harbiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi kompleks ilmiy-amaliy tizim sifatida alohida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Harbiy psixologiyani rivojlantirish istiqbollari esa mavjud muammolarni chuqur ilmiy tahlil qilish, zamonaviy psixodiagnostika vositalarini joriy etish, trening texnologiyalarini takomillashtirish hamda amaliyotga yo‘naltirilgan psixologik yondashuvlarni ishlab chiqish bilan uzviy bog‘liqdir.

Harbiy faoliyat jarayonida harbiy shaxsini psixologik o‘rganish, uning xulq-atvorini prognoz qilish hamda vaziyatga mos psixologik ta’sir mexanizmlarini ishlab chiqish harbiy boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Bu jarayonda harbiy xizmatchining bilish jarayonlari – xotira, diqqat, idrok, tafakkur va tahliliy kuzatuvchanlik kabi psixik funksiyalar faol ishtirok etadi. Aynan ushbu psixologik

resurslar vaziyatni tezkor tahlil qilish, avvalgi tajribalar bilan qiyoslash, ehtimoliy xavf omillarini aniqlash hamda asosli qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy harbiy faoliyat sharoitida inson omilining psixologik xususiyatlari xizmat samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlardan biriga aylanmoqda. Shu bois harbiy psixologiyani rivojlantirish, psixologik bilimlarni amaliy faoliyatga keng joriy etish hamda harbiy xizmatchilarning kasbiy-psixologik kompetensiyalarini muntazam takomillashtirib borish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biridir.

Bugun tashkil etilayotgan **“Harbiy psixologiyani rivojlantirish istiqbollari: muammo va yechimlar”** mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya aynan shu dolzarb masalalarni chuqur ilmiy jihatdan muhokama qilish, innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga yo‘naltirilgan taklif va tavsiyalarni shakllantirish uchun muhim ilmiy maydon vazifasini bajaradi.

Fursatdan foydalanib, konferensiyada ishtirok etayotgan barcha hamkasblarimiz, hurmatli mehmonlarimiz va hamkor tashkilotlar vakillariga samimiy minnatdorlik bildiraman. Barchangizga samarali ilmiy muloqot, yangi g‘oyalar va natijador hamkorlik tilagan holda, **konferensiyani ochiq deb e’lon qilaman hamda uning ishiga muvaffaqiyatlar tilayman.**

AXBOROT-PSIXOLOGIK HURUJLARGA QARSHI KURASHISHDA HARBIY XIZMATCHILARNI ASAB-PSIXIK BARQARORLIGINI TA‘MINLASHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Saydjanov Farxod Madraximovich

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va Harbiy aloqa instituti Gumanitar fanlar sikli boshlig‘i, podpolkovnik, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarning har xil axborot xurujlariga munosabati va axborot-psixologik xurujlar sharoitida ruhiy o‘zgarishlarda kuzatiladigan stressni boshdan kechirishlari empirik o‘rganilganligi yoritilgan. Maqola axborot-psixologik xurujlari sharoitida asab-psixik barqarorlik darajasini o‘rganish natijalari, qo‘rsatkichlari va psixik barqarorligini rivojlantirish bo‘yicha psixokorreksiya dasturining samaradorligi tahlili ko ‘rsatilgan.

Kalit so’zlar: suggestivlik, muxitga tobelik, semantik differensial, psixologiya, ilmiy muammolar, Qurolli Kuchlarining harbiy tuzilmalari, harbiy xizmatchilar, asab-psixik barqarorlik, psixokorreksiya, Kraskel-Uolles H-mezoni, psixologik omil va empirik natijalar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ НЕРВНО-ПСИХИЧЕСКОЙ СТАБИЛЬНОСТИ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ В БОРЬБЕ С ИНФОРМАЦИОННО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИМИ АТАКАМИ

Аннотация. В данной статье освещается эмпирическое изучение реакции военнослужащих на различные информационные атаки и переживания стресса, наблюдаемого при психических изменениях в условиях информационно-психологических атак. В статье представлены результаты исследования уровня нервно-психической устойчивости в условиях информационно-психологических атак, показатели и анализ эффективности психокоррекционной программы по развитию психической устойчивости.

Ключевые слова: суггестивность, зависимость от среды, семантический дифференциал, психология, научные проблемы, воинские формирования

Вооруженных Сил, военнослужащие, нервно-психическая устойчивость, психокоррекция, Н-критерий Краскела-Уоллеса, психологический фактор и эмпирические результаты.

PSYCHOLOGICAL FACTORS OF ENSURING THE NERVO-PSYCHOLOGICAL STABILITY OF MILITARY PERSONNEL IN THE FIGHT AGAINST INFORMATION AND PSYCHOLOGICAL ATTACKS

Abstract. This article highlights the empirical study of military personnel's response to various information attacks and their experience of stress observed in mental changes under conditions of information-psychological attacks. The article presents the results of studying the level of neuropsychic stability in the context of information-psychological attacks, indicators, and analysis of the effectiveness of the psychocorrection program for the development of psychological stability.

Keywords: suggestiveness, dependence on the environment, semantic differential, psychology, scientific problems, military structures of the Armed Forces, military personnel, neuropsychic stability, psychocorrection, H-criterion of Kraskel-Whalles, psychological factor and empirical results.

Zamonaviy urush tabiati tubdan o‘zgardi. Endi qaysi davlat faqat tank, samolyot yoki askarlar soniga tayanib g‘alaba qozonaman desa, qattiq adashadi. Hozirgi janglar sun’iy intellekt, raqamli boshqaruv, uzoq masofaga yuqori aniqlikda zarba beruvchi vositalar, kiber va robot texnologiyalar, siyosiy-iqtisodiy bosim, axborot maydoni bugungi asosiy frontlarga aylangan.

SH.Mirziyoyev

Hozirda axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya vositalarining yuqori suratlarda rivojlanishi, jamiyat va davlat hayotida keskin o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, axborot texnologiyalari yordamida, nafaqat, ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va uzatish, balki jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, harbiy va boshqa sohalarini boshqarish, ta’sir etish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Axborot makonida harbiy xizmatchilarga katta ma’lumotlar oqimi natijasida shakllangan stressning diagnostik usullarining omilkor, oqilona vositalarini ishlab chiqish, ularni an’anaviy holatlardan, hodisalardan, metodlar ta’siridan foydalaniladi,

jumladan shaxsda mustaqil va tanqidiy fikrlashni baholashni ta’minlaydi. Shuning uchun axborot ta’siri natijasidagi stress jarayoniga yangicha yondashuvda - inson imkoniyatini ro‘yobga chiqarish, tanqidiy fikrlash darajasini tahlil qilish, o‘zini o‘zi nazorat qilish va boshqarishni talab etadi. Jumladan oldimizda turgan ushbu fikr va g‘oyani amaliy ifodalash uchun puxta negiz hozirlaydi. Shuning uchun har qanday vaziyatlarda o‘z xizmat faoliyati davomida harbiy xizmatchilardagi salbiy axborot-psixologik xurujlarni aniqlash va ularni yuzaga keladigan axborot ta’siridagi stressga bardoshliligini aniqlash samara beradi.

Harbiy xizmatchilarning stressini diagnostika qilishning ko‘plab metodikalari uchraydi, ammo ularga xususiyat berishdan oldin, ular nimalarni o‘lchayotgani va qanchalik adekvat ekanligini tadqiqotda aniqlab olish zarur.

Biz tadqiqotda harbiy xizmachilarning bir qator xususiyatlari, ya’ni: ma’naviy qadriyatlarni, suggestivlikni va muxitga tobelik baholashga e’tibor qaratganmiz.

1. Ma’naviy qadriyatlarni baholash metodikasi – keltirilgan 16 ta xalq og‘zaki ijodi maqollaridan iborat bo‘lgan fikrlarga qo‘shilish darajasi orqali, harbiy xizmatchilarning ma’naviy-ahloqiy darajasini baholash imkonini beradi.Bunda “-” ballar hisoblanadi. Ballar yig‘indisi qanchalar yuqori bo‘lsa axloqiylik darajasi shuncha yuqori bo‘ladi. 8 ball va undan past bo‘lsa ma’naviy-axloqiy darajasi yaxshi sanaladi.

2. Suggestivlikni baholash metodikasi – belgilangan 5 ta savolga zudlik bilan vaqtga bajarish orqali, ya’ni empatiya kishilarda shaxslararo kirishish imkonini beradigan ma’lum bir ta’sirchanlikni taqozo etadi va darajasini aniqlaydi. Biroq bu metodikada ta’sirchanlik past bo‘lsa ham, empatik qobiliyatlarga tayanib insonning jamiyatga moslashishi imkonini yetarli bo‘lishini aniqlaydi. Ta’sirchanlikning qo‘lga kiritilgan baholari kishining faolligi xarakteri bilan bog‘liq bo‘ladi.

3. Muxitga tobelik so‘rovnomasi – respondentlarga murakkab shakldagi tasvirlarni aniqlash va mos shaklni joylashtirib yechish bilan vaqt o‘lchanadi. Olingan natijada esa umumiy yig‘ilgan ballar, vazifaga berilgan vaqt (minut)ga bo‘linadi. Agar $I > 2,5$ - tashqi omillar qarorlar qabul qilishga ta’sir ko‘rsatmasligi to‘g‘risida fikr yuritish mumkin (qarorlar xolisligi yuqori).

Agar I < 2,5 - qarorlar qabul qilishga ta’sir ko‘rsatadigan tashqi omillar mavjudligi to‘g‘risida fikr yuritish mumkin (qarorlar xolis bo‘lmaydi). Muhitga tobyelik yuqori bo‘lganlar ko‘rgan narsalariga ishonishga moyil bo‘lib, vaziyatni tartiblashtirishga qiynalishadi.

Yuqorida sanab xususiyatlarni baholashga mos metodikalardan ham foydalanildi. Ushbu metodikalarning natijalari ham normal taqsimotga mosligi tekshirilgan (3.1-jadval).

3.1-jadval

Metodikalarining normal taqsimot qonuniga mosligi (Kolmogorov-Smirnov mezoni)

Статистик мезонлар	Суггестивлик	Маънавий	Мухит
N	250	250	250
X	3.34	3.88	3.87
σ	2.00	1.99	1.99
Z	0.149	0.127	0.110
p	0.000	0.000	0.000

Mazkur metodika natijalari noparametrik mezonlar bo‘yicha farqlar ko‘rsatkichi statistik qayta ishlashga olib keldi. Tadqiqotdagi foydalanilgan ushbu metodika natijalari harbiy xizmatchilarning bir qator xususiyatlariga ko‘ra empirik o‘rganilganda biror bir tafovutlanuvchi empirik ko‘rsatkichlar kuzatilmadi. Shunday bo‘lsa-da, ahamiyatga ega bo‘lmagan qiymatlar yuzasidan ham psixologik tahlilni amalga oshirish lozim topildi va ularni qisqacha tavsiflandi.

Ushbu tahlilda harbiy xizmatchilar turli kasbiy yo‘nalishlari bo‘yicha axborot-psixologik xurujlar sharoitidagi sugestivlik, ma’naviylik va muhit bilan bog‘liqlik darajalari Kruskal–Uollis H-mezoni orqali solishtirildi. H va p-qiymatlari guruhlar o‘rtasida statistik farqning mavjud yoki mavjud emasligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalarida barcha shkalalarda $p>0.05$ bo‘lgani uchun turli mutaxassisliklar kesimida ko‘rsatkichlar orasida statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi. Biroq o‘rtacha ranglar psixologik xususiyatlarning qaysi kasbiy yo‘nalishlarda nisbatan yuqoriroq yoki pastroq namoyon bo‘lishini xavola etadi.

1. Sugestivlik (ishonuvchanlik, ta’sirga berilish) tahlili bo‘yicha statistik natijalarda H = 5.657, p = 0.580 → farq statistik jihatdan ahamiyatli emas.Bu esa harbiy xizmatchilarning sugestivlik tufayli tashqi axborot ta’siriga qay darajada berilishi, manipulyativ ma’lumotni qanday qabul qilishi va emotsional ta’sirga moyilligi bilan bog‘liq. Bu borada yuqori o‘rtacha ranglar Chegara (187.50) va IT (155.69) yo‘nalishlarda kuzatildi. Ushbu sohalarda xizmat qiluvchi shaxslar tashqi axborot ta’sirini tez qabul qilishi, xavf-hatarni ko‘p ko‘rishi tufayli emotsional hushyorlikning ortishi, noaniq axborotga ortiqcha reaktivlik ko‘rsatishi mumkin.

Past o‘rtacha ranglar esa Kiber (89.86) va Razvedka (116.75) sohasidagi xizmatchilarda kuzatildi. Bu mutaxassisliklardagi xizmatchilar odatda tahlil qilish qobiliyati yuqori, faktlar va manbalarni tekshirish odatlangan, axborot manipulyatsiyalariga kamroq beriladi.

Sugestivlik bo‘yicha mutaxassisliklar o‘rtasidagi farq kuchli emas, ammo qaysi bo‘limning axborot ta’siriga nisbatan ehtiyoj sezish ehtimoli yuqoriroq ekani to‘g‘risida shartli tasavvur beradi.

2. Ma’naviylik (qadriyatlar, burch, vatanparvarlik) tahlilida esa statistik natijalarda H = 6.780, p = 0.452 kuzatilib, statistik ahamiyatli farq yo‘q. Harbiy xizmatchilar ma’naviylik, ya’ni harbiy xizmatchining ichki qiymatlar tizimi, burch hissi, milliy g‘urur, xizmatga sadoqat va ma’naviy barqarorlik darajasini aks ettiradi.

Yuqori o‘rtacha ranglar 8-bo‘lim (148.25), UQT (147.63) va HHM (135.08) sohadagi harbiy xizmatchilarda kuzatilib, bu yo‘nalishlarda jamoaviy munosabatlar mustahkam, xizmat intizomi va burch hissi kuchli, vatanparvarlik tuyg‘usi yuqori.

O‘rtacha ranglari past bo‘lgan yo‘nalishlar Chegara (81.50), Razvedka (86.25) va IT (87.63) dan iborat bo‘ldi. Bu holat quyidagi omillar bilan, ya’ni yuksak xavf va o‘ta individual vazifalar tufayli emotsional charchoq, maqsad va harakat motivlarida ichki tanqidiylik, xizmat spetsifikasiga xos ehtiyotkorlik kuzatilar ekan.

Har bir kasbiy guruhda ma’naviy barqarorlik darajasi barqaror, ammo ayrim yo‘nalishlarda ma’naviy resurslar himoya vositasi sifatida kuchliroq namoyon bo‘ladi.

3. Muhit bilan bog‘liqlik (ijtimoiy muhit ta’siri va moslashuv) tahlilida esa statistik natijalar H = 2.751, p = 0.907, ya’ni farq statistik jihatdan ahamiyatsiz bo‘ldi. Muhit

bilan bog‘liqlik xizmatchining atrof-muhit, jamoa, rahbariyat bilan o‘zaro ta’siri, ijtimoiy moslashuvi va psixologik muhit ta’siriga sezgirligini anglatadi. shunga muvofiq yuqori o‘rtacha ranglar Kiber (159.21), Razvedka (155.00) va IT (139.00) yo‘nalishlarida kuzatildi. Bu guruhlarda jamoa dinamikasi kuchli, o‘zaro hamkorlik va kommunikatsiyaning o‘ziga xosligi mavjud, ijtimoiy muhit ta’siriga nisbatan hushyorlik yuqori.

Past o‘rtacha ranglar esa 8-bo‘lim (111.50), Chegara (112.33) va UQT (119.04) aniqlandi. Holat quyidagi psixologik omillarga bog‘liq ekan, ya’ni ichkariga yo‘naltirilgan ish faoliyati, shaxsiy mas’uliyat darajasining yuqoriligi, jamoa munosabatlari cheklangan yoki qat’iy qoidalashgan.

Harbiy xizmatchilarning sugestivlik, ma’naviylik va muhit bilan stress turlari o‘rtasidagi korrelyatsiya (CH.Spirmen korrelyatsiya koeffitsiyenti).

Шкала	Суггестия	Маънавият	Муҳит
Интеллектуал стресс	0.997^{**}	0.956^{**}	0.956^{**}
Эмоционал стресс	0.958^{**}	0.997^{**}	0.996^{**}
Хулқий стресс	0.957^{**}	0.997^{**}	0.997^{**}
Физиологик стресс	0.935^{**}	0.951^{**}	0.950^{**}

Izoh:**- $p < 0.01$

Harbiy xizmatchilarning sugestivlik, ma’naviylik va muhit bilan turli turdagi stress reaksiyalari o‘rtasidagi korrelyatsion tahlil amalga oshirildi. Tahlil natijalariga ko‘ra, sugestivlik, ma’naviylik va muhit bilan bog‘liq psixologik ko‘rsatkichlar hamda intellektual, emotsional, xulqiy va fiziologik stress o‘rtasida juda yuqori darajadagi bog‘liqlik aniqlangan. Jadvaldagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari (r=0.935–0.997p oralig‘ida) ushbu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi munosabatning mustahkamligini ko‘rsatadi.

Korrelyatsiya belgisi musbat, demak, harbiy xizmatchida sugestivlik yoki ma’naviy va muhitga moslashuv xususiyatlari oshgan sari, unda intellektual, emotsional, xulqiy va fiziologik stress darajasi ham oshish tendensiyasiga ega.

Xulosa o‘rnida quyidagilarni bildiramiz:

1. Axborot-psixologik xurujlar sharoitida sugestivlik, ma’naviylik va muhitga bog‘liqlik ko‘rsatkichlari turli kasbiy yo‘nalishlar bo‘yicha statistik jihatdan farqlamadi

(p>0.05). Bu holat harbiy muhitda psixologik xususiyatlar kasbiy yo‘nalishdan ko‘ra umumiy harbiy intizom, standartlashgan talablar va jamoaviy muhit ta’sirida shakllanishini ko‘rsatdi.

2. Mutaxassislik toifalari kesimida sugestivlik, ma’naviylik va muhit bilan bog‘liqlik darajalari ham o‘zaro farqlamadi (p>0.05). Bu esa psixologik barqarorlik va axborotga reaksiya individual tajriba yoki toifaga emas, balki umumiy xizmat muhitidagi bir xil talablar va intizomga bog‘liq ekanini tasdiqlaydi.

3. Xizmat staji (1-32 yil) sugestivlik, ma’naviylik va muhit bilan bog‘liqlik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmadi (p>0.05). Shu bilan birga, o‘rtacha ranglardagi tendensiyalar tajriba oshishi bilan ehtiyotkorlik, mas’uliyat va stressni qayta ishlashda muayyan o‘zgarish bo‘lishini ko‘rsatsa-da, bu farqlar statistik jihatdan ishonchli emasligi aniqlandi.

4. Sugestivlik, ma’naviylik va muhitga bog‘liqlik stressning barcha turlari bilan o‘ta yuqori darajada bog‘liq ekanligi aniqlandi ($r = 0.935–0.997$; $p < 0.01$). Bu holat xizmatchilarda ma’lum bir psixologik xususiyat qoliblanishi stressor vaziyatlarda kompleks reaksiyalarni keltirishini, ya’ni kognitiv, emotsional va xulqiy stress bir vaqtda kuchayishi mumkinligini ko‘rsatdi.

5. Yosh guruhlari kesimida asab-psixik barqarorlik darajasida ahamiyatli farq aniqlandi ($H = 12.033$; $p < 0.05$). 18–28 yoshlilar yuqori barqarorlikka ega bo‘lgani, 29–38 yosh oralig‘ida barqarorlik pastlash tendensiyasi va 44 yoshdan yuqori xizmatchilarda qayta oshish kuzatilgani o‘rta yoshda stress yukining ko‘payishi bilan izohlandi.

6. Harbiy unvonlar bo‘yicha barqarorlikda farq chegaraga yaqin ahamiyatga ega bo‘ldi ($H = 15.154$; $p = 0.057$). 3-darajali serjantlar, kursantlar va polkovniklarda barqarorlik yuqori, mayor va katta leytenantlarda past bo‘lgani lavozim bosimi, o‘tish davrlari va mas’uliyat yuki bilan izohlandi.

7. Rag‘batlantirish turlari asab-psixik barqarorlikka statistik ta’sir qilmadi ($p = 0.338$). Biroq o‘rtacha ranglar ma’naviy rag‘bat (faxriy yorliq, esdalik nishoni) moddiy rag‘batga nisbatan ruhiy barqarorlikni kuchliroq oshirishini ko‘rsatdi.

8. Xizmat staji (1–32 yil) kesimidagi “Chaqadar” ko‘rsatkichi orqali asab-psixik barqarorlikda ahamiyatli farqi aniqlandi ($H = 11.337$; $p < 0.05$). 1–10 yil va 25–32 yil

stajlilar yuqori barqarorlikka ega ekani, 15–25 yilda esa charchoq, mas’uliyat va yuklamalar tufayli pastlash tendensiyasi paydo bo‘lishi aniqlandi.

9. Psixokorreksiya dasturi (“Psixik barqarorlikni rivojlantirish” dasturi) stressning barcha turlarida hom axamiyatli ijobiy o‘zgarish berdi ($p < 0.01$). Natijada intellektual stress kamaydi, emotsional stress sezilarli kamaydi, xulqiy stress kamaydi va fiziologik stress barqarorlashdi. Bu dastur sug‘urta rolida ishlagani, kognitiv, emotsional va irodaviy funksiyalarni bir vaqtda mustahkamlaganini ko‘rsatdi.

10. “Jangovor chaqiriq” psixokorreksion dasturi asab-psixik barqarorlikni juda kuchli darajada oshirdi ($T = –14.413$; $p < 0.001$). 243 nafar xizmatchida barqarorlik oshgani (97.6%) dasturning samaradorligini isbotladi. Bu dasturning kompleks ko‘rinishi — kognitiv tahlil, emotsional nazorat, stressga moslashuv, jamoaviy birlik va irodaviy resurslarni birgalikda rivojlantirgani bilan izohlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Janis, I. L. Victims of groupthink: A psychological study of foreign-policy decisions and fiascoes [Text]. – Boston: Houghton Mifflin, 1972. – 252 p.

2. Аш, С. Ye. Мнение и социальное давление [Текст] / пер. с англ. – М.: Праксис, 1990. – 40 с.

3. Folkman S., Lazarus R., Dunkel-Schetter C., DeLongis A., Gruen R. Dynamics of stressful encounter: Cognitive appraisal, coping, and encounter outcomes // Journal of Personality and Social Psychology. 1986. V.50. P.992-1003.

4. Cannon, W. B. The wisdom of the body [Text]. – New York: W. W. Norton & Company, 1932. – 420 p.

BO‘LAJAK OFITSERLARDA KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH TALABLARI

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti
Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti
Milliy iftixor va harbiy vatanparvarlik kafedrasi
katta o‘qituvchisi t.f.f.d (PhD), podpolkovnik N.T.Xolikov

Kompetentli yondashuv g‘oyasi barcha ta’limni modernizatsiya qilishning yehtimoliy yo‘nalishlarini belgilash chog‘ida xorij amaliyotidan tajriba sifatida olingan va joriy qilingan.

XX- asrda tadqiqotchilar kompetensiya va kompetentlik atamalarini turlicha talqin yetishgan. Ingliz tilida competence kontekstdan kelib chiqib quyidagilarni anglatadi: qobiliyat, ko‘nikma, kompetentlik, kompetensiy. Ba’zi ilmiy izlanishlarda kompetentlik va kompetensiya tushunchalarini o‘zaro tenglashtiradilar, ya’ni ular aynan bir ma’no beradi deb hisoblashadi, boshqa bir tomon yesa ulardagi tafovutni mavhumroq ta’rif beradilar, uchinchi bir guruh yesa bu tushunchalarni bir biridan farqli holda tavsiflaydilar.

XX- asrning oxirlarida kasbiy kompetentlik komponentlari, uning ma’nosi hamda oliy harbiy ta’lim sharoitida rivojlanish jarayonining alohida mavzulariga aniqlik kiritildi.

XXI- asrda yesa kompetentli yondashuv rivojlanishining barcha tomonidan oliy harbiy ta’limning ixtiyoriy natijasi sifatida qarab chiqilishi kerak bo‘lgan kompetensiyalar majmuini ajratib olish bilan tavsiflanadi. Ta’lim tayanishi mumkin bo‘lgan to‘rt ustun: bilishni o‘rganish, bajarishni o‘rganish, birgalikda yashashni o‘rganish, hayot kechirishni o‘rganish ilmiy tahlil qilib berilgan. Mazmunan asosiy global kompetentliklar belgilab berilib, kompetentlik tushunchasi salmog‘iga malaka tushunchasi ham kiritilgan.

Kasbiy kompetentlik muammosini bir xil tushunish va kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonini tadqiq yetish uchun kompetensiya, kompetentlik, harbiy tayyorgarlik, oliy habiy kasbiy tayyorgarlik, kasbiy kompetentlik, qobiliyat kabi izohlanish talab qiluvchi ilmiy terminlarni tahlil yetish zarur bo‘ladi.

Tadqiqotlarda kompetensiya tushunchasi (lotinchada sotpetentia — huquqiy tomondan mansublik) mansabdor shaxsning vakolatlari, huquqlari va majburiyatlari doirasi sifatida, kompetentlik yesa savodxonlik darajasi, vjudga keluvchi muammolarni mustaqil hal yetish uchun yyetarli zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar yig‘indisiga yega bo‘lish tushuniladi.

Kompetensiya tushunchasini mutaxassisning huquq va majburiyatlar majmuasi, uni hal etishga vakolatli bo‘lgan kasbiy masalalar sohasi sifatida ochib berilib, mutaxassisning

kompetensiyasi tashkilot yoki korxonaning nizomlari, meyoriy hujjatlari bilan belgilab beriladi hamda lavozim yo‘riqnomasida o‘z aksini topadi. Bu kasbiy faoliyatni unumdor bajarishga sharoit yaratuvchi xatti-harakatlarning umumlashma usullari hamda insonning o‘z kompetentligini amalda ro‘yobga chiqarishga qodirligidir. Faoliyatga layoqatli bo‘lish - xatti-harakatlar usullari yig‘indisi kompetensiya sanaladi.

Kompetensiyani faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilganda, kompetensiya - shunday predmet sohasiki, u haqda individ yaxshi xabardor hamda faoliyatni bajarishga tayyor ekanini namoyon etadi.

Kompetensiya deyilganda inson ongi strukturasidagi bilimlar komponentlari yig‘indisi, kishilik jamiyati a’zosining ijtimoiy ahamiyatli huquq va majburiyatlarini yuzaga chiqarish paytida kasb etadigan ijtimoiy funksiyalar majmuasi ko‘zda tutiladi. Kompetensiya va kompetentlik o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri va aks bog‘liqlik mavjud.

Kompetensiya mazmuni bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar, faoliyatning umumlashma usullari yig‘indisi sanaladi. Kasbiy faoliyatda zaruriy kasbiy kompetentlikka erishish bo‘lajak ofitserlarning

kasbiy ta’limi jarayoniga tegishli bo‘lgan tayanch va maxsus kompetensiyalar majmuasini egallashini taqozo etadi, bunda:

Tayanch kompetensiyalar - ancha keng qo‘llanish spektriga mos keluvchi va barcha kasblarda bo‘lishi talab etiladigan kompetensiyalar;

umumkasbiy tayanch kompetensiyalar - kasbiy faoliyatnining asosiy turlarini amalga oshirish uchun negizni tashkil etuvchi, kasblar guruhiga mansub kompetensiyalar;

kasbiy maxsus kompetensiyalar - aniq kasbiy faoliyat turini amalga oshirish uchun zarur tayanch kompetensiyalarga nisbatan xos kompetensiyalar. Ular muayyan kasbga talluqli va mutaxassisning kasbiy kompetensiyalari variativ qismini tashkil etadi.

Bo‘lajak ofitserlar kasbiy kompetentligini rivojlantirish umumkasbiy (harbiy-kasbiy) fanlarni o‘zlashtirish jarayonida boshlanadi, shu bois kasbiy bazaviy kompetensiyalar haqida gapirish o‘rinli.Kasbiy tayanch kompetensiyalar - muayyan kasbiy faoliyat turlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kasbiy faoliyatning o‘xshash tavsifini o‘zida jamlagan kompetensiyalar majmuidir. Ular mutaxassisning maxsus kasbiy kompetensiyalari komponentini tashkil etadi va muayyan kasb yoki kasblar guruhi mutaxassisiga zaruriy tayanch bilim, ko‘nikma, malaka, umumlashgan kasbiy faoliyat usullari tizimiga tayanadi.

Olib borilgan psixologik va pedagogik tadqiqot ishlarida kompetensiya va kompetentlik atamalari quyidagicha farqlanadi: kompetensiya - aniq kasbiy yoki funksional tavsiflar majmui,

kompetentlik - shaxsga xos tavsif, fazilatni anglatadi.

Kompetentlik tushunchasiga berilgan ta’riflari turfa-xil bo‘lgani holda tadqiqotchilardan hech biri munozara qila olmaydigan pozitsiyalar hanuzgacha saqlanib qolgan. Kompetentlik shaxsning integrativ sifati - insonning intellektual va shaxsiy shartlangan ijtimoiy-kasbiy hayotiy faoliyati bo‘lib, mazkur integrativ sifatning asosi bo‘lib bilim, malaka, tajriba, qadriyatlar va shaxsning ijtimoiy-kasbiy faoliyatni amalga oshirishga qobiliyati maydonga chiqadi.

Kompetentlikni shaxs sifatlarining integratsiyalangan xarakteristikasi, muayyan kompetensiyalarda faoliyatni bajarish uchun bilim yurti bitiruvchisini tayyorlash natijasi sifatida ham ko‘riladi. (Kompetentlik - situativ kategoriya, negaki u aniq kasbiy muammoli vaziyatlarda qandaydir faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik holatida) namoyon bo‘ladi.

Tahlillar asosan, kompetentlik deyilganda shaxsning integrativ sifatini - faoliyatni va uning turlarini samarali bajarishga qobiliyati hamda tayyorligni tushunamiz. Kompetentlik kompetensiyaga yondashuvchi tushuncha hisoblanib va uni o‘z qamroviga qo‘shib oladi.

Keltirilgan fikrlar kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini umumiy holda o‘xshash deb qaramaslik kerakligini tasdiqlashga asos bo‘ladi. Shu bilan birga qayd etishimiz joizki, mazkur tushunchalar orqali tasvirlangan fenomenlar o‘zaro bog‘lanishda bo‘lib, bir vaqtning o‘zida u yoki bu jarayonda namoyon bo‘lishi mumkin.

Kasbi kompetentlikni yangi vaziyatlarda, sharoitlar tasodifan o‘zgargan bir paytda kasbiy majburiyatlarni bajarish imkoniyatini chamalovchi shaxs xususiyati o‘laroq tavsif etiladi. Ba’zi tadqiqotchilar kasbiy kompetentlikni kasbiy faoliyatning turli algoritmlarini yuzaga chiqarishga tayyorlik sifatida tavsiflashadi.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish tushunchasi uning integral qismlari - yaxlitlashtirish harakati integrativ jarayoni sifatida ko‘riladi. Bu jarayon yaxlit rivojlanishiga, ya’ni natijaga olib keladi.

Kasbiy kompetentlik yuzaga kelgan vaziyatni to‘g‘ri baholash qobiliyatli, malakali bo‘lish va shu bilan bog‘liq holda amaliy-kasbiy yoki boshqa muhim natijaga erishishga imkon beruvchi munosib qaror qabul qilishga tayyor ekanida ifodalanadi. Kasbiy kompetentlik nafaqat yetarlicha bilim, malaka va ko‘nikmaga ega bo‘lishini, balki o‘z kasbiy funksiyalarini bajarish jarayonida ularni faollashtirish va barcha hatti-harakatlari uchun shaxsiy javobgarlikni zimmasiga olish malakasini egallashi lozimligini ham nazarda tutadi. Kasbiy kompetentlikning komponentlari tarkibiga motivatsion-qadriyatli, kognitiv va emotsional-irodaviy komponentlaridan tashkil topganligi namoyon bo‘ladi.

Bo‘lajak ofitser kompetentligiga tavsif berilarkan, uni kognitiv, faoliyatli va qadriyatli

komponentlarni o‘z ichiga olgan integrativ kasbiy-shaxsiy sifat bo‘yicha ta’rifi berilgan. Bo‘lajak ofitserning (muhandislik kompetentligi mohiyati kasbiy faoliyati natijalari uchun shaxsiy javobgarlikni va ijtimoiy ahamiyatni, doim kamolotga intilishi va kasbiy muvaffaqiyat sari harakat qilish zaruratini anglagan holda uning dolzarb va istiqbolli muhandislik muammolarini hal etishga tayyorligidir).

Yuqorida qayd etilgan mualliflarning pozitsiyalarini tahlil etib, tadqiqot ishimizning asosiy jihatlarini belgilab olamiz. Ilmiy psixologik va pedagogik nazariya va amaliyotda kasbiy kompetentlik tushunchasiga quyidagicha ta’riflar beriladi:

- kompetensiya bu bilim, ko‘nikma, malaka, kasbiy faoliyatning umumlashgan usullari, shaxsiy va kasbiy muhim sifatlarni o‘z ichiga olgan mazmuniy tavsif];

- motivatsion - qadriyatli, kognitiv, emotsilnal-irodaviy komponentlardan tarkib topgan tarkibiy tavsif;

- integral tavsif, shaxsning yangi integrativ sifatini yuzaga chiqaruvchi kompetensiyalar yig‘indisini bildiradi;

- shaxsning holat tavsifi - kasbiy faoliyatni amalga oshirishga tayyorligi.

Mazkur ajratib ko‘rsatilgan fikrlarni umumlashtirib Kasbiy kompetentlik – bo‘lajak mutaxassisning namoyon bo‘lgan kompetensiyalari, shaxsiy va kasbiy ahamiyatli sifatlari, kasbiy faoliyatni samarali bajarishga tayyorlik, qodirlik va shaylik kasbiy kompetentlik deya ta’kidlaymiz. Har bir kompetensiya mos bilim, ko‘nikma, malakani, kasbiy faoliyatni amalga oshirishning o‘zlashtirilgan umumlashma usullarini o‘z ichiga oladi.

Kasbiy kompetentlikni faoliyatni bajarishga tayyorlik, qodirlik va shaylik tushunchalari mohiyatini ochib berish zarurati paydo bo‘ladi.

Shaxs qobiliyatlarini tadqiqotchilar odatda ikki jihatini ko‘rib chiqishadi. Birinchidan, ong va faoliyat birligi tamoyiliga asoslangan bo‘lib, inson kasbiy faoliyati muhitining tashqi reaksiyalar majmuasi sifatida ko‘riladi. Ikkinchidan, qobiliyatlarning tabiatan namoyon bo‘lishi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Bu jarayon shaxsning iste’dodi va individual xususiyatlari bilan bog‘liq. Ushbu yondashuvlarda qarama-qarshiliklar mavjudligiga qaramasdan, qobiliyatlar real hayotda kasbiy, amaliy ijtimoiy faoliyat mobaynida namoyon bo‘ladi hamda rivojlanib boradi. Bu esa qobiliyatlarni obyektiv o‘rganish va faoliyat asnosida ularni faol rivojlantirishga asos bo‘ldi. Qobiliyatlar - insonning shaxsiy xususiyatlaridir va bu xususiyatlar allaqanday bir yoki bir qancha kasbni muvaffaqiyatli bajarishning sharti sanaladi. Kasbiy qobiliyatlar bajarilishi uchun kerak bo‘lgan kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga chiqadi va sayqallanadi. Kasbiy qobiliyatlar deganda – kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi shaxsning xususiyatlari tushuniladi.

Qobiliyatlar – faoliyatni yoki qator yumushni a’lo darajada ado etishni kafolatlovchi individual - psixologik xususiyatlardir. Ular bilim, ko‘nikma va malakalarga borib taqalmaydi, biroq faoliyatning yangi usullari va yo‘riqlarini o‘rganishning oson va tez bo‘lishiga sharoit yaratadi.

Shu tariqa, bayon qilinganlarni umumlashtirib qarashlarga asoslanib, qobiliyat deganda insonning yumushni amalga oshirishning yangi usul va yo‘riqlarini o‘rganish oson va tez bo‘lishiga sharoit yaratuvchi individual xususiyatlarini - faoliyatga layoqatini tushunamiz. Psixologik va pedagogik adabiyotlar, ilmiy tadqiqot ishlari tahlili ham kasbiy tayyorlik muammosiga ikki xil yondashuvni ko‘rsatishga imkon beradi.

Tayyorgarlik yoki hozirlik ko‘rish - shaxs va faoliyatning barqaror xarakteristikasi, motavitsion, intellektual, emotsional hamda egallangan bilim, ko‘nikma, malakalar asosida kasbiy muhim sifatlarni kasb etgan holda amalga oshirish mumkin bo‘lgan faoliyatning mazmuni talablari va sharoitlariga munosib o‘zgaruvchan miqdorlarni o‘z ichiga oluvchi majmua o‘laroq tavsiflanadi. Bu yerda tayyorlik qandaydir ishga, yumushga shaylikni mavjudligi, ishga hozirlik ko‘rgan inson holati sifatida idrok etiladi.

Harbiy ta’limga kelganda tayyorlikni mutaxassisning intilishini ifodalovchi, mavjud kasbiy bilimlar, malakalar, kasbiy ixtisoslik va shaxsiy sifatlar, kasbiy masalalarni a’lo darajada hal eta olishga asoslangan murakkab, barqaror shaxs ta’limi o‘laroq ko‘riladi.

Tayyorlik yoki tayyorgarlik atamasi bir qancha ma’noga ega: 1) tayyor holga keltirish, hozirlash yoki tayyorlanish, hozirlanish uchun ko‘riladigan chora tadbir, harakat; hozirlik. 2) tayyorlik, hozirlik, shaylik darajasi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishni ta’lim muassasalari tahsili jarayonida boshlash mumkin. Mazkur nuqtai nazar bo‘lajak ofitserlarni kasbiy tayyorlash borasidagi qarashimizni refleksiyalaydi, shu sababli kasbiy kompetentlikni Oliy harbiy bilim yurti bo‘lajak ofitserlarini kasbiy faoliyatga tayyorlashni kasbiy shaylik bilan bir butun holda va o‘zaro aloqadorlikda ko‘rib chiqish zarur. Shunday qilib, kasbiy shaylik deyilganda biz shaxsning holatini tushunamiz. Bu holat kasbiy faoliyatga tayyorgarlik natijasi hisoblanadi, motivatsiyani belgilab beradi hamda mavjud bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy - kasbiy muhim sifatlar asosida kasbiy faoliyatni amalga oshirish muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi.

Mutaxassisning kasbiy jihatdan ilg‘or bo‘lishiga shart-sharoit yaratuvchi o‘ziga xos hislatlari tahlili orqali kasbiy kompetentlik mohiyatini ta’riflash bo‘yicha pedagogikadagi mavjud an’anaviy va noan’anaviy metodlarni inobatga olib, oliy harbiy aviatsiya kursantlarining kasbiy

faoliyatini tahlil etish zarurati yuzaga keldi.

Kasbiy faoliyat - kasbiy tayyorgarlikning kasbiy tahsil yo‘li bilan egallangan umumiy va maxsus bilimlar, malakalar yig‘indisiga, shuningdek, mutaxassis shaxsining kasbiy va ijtimoiy tajribasiga asoslanib maxsus yumushni bajarishidir. Kasbiy tayyorgarlik kasbiy tahsil jarayonida umumiy va maxsus bilimlar hamda malakalarni kasb etish orqali amalga oshiriladi. Bu bilim va malakalar muayya faoliyat sohasidagi yumushni bajarishga imkon beradi, ushbu amallar kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida takomillashib boradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy harbiy ta’lim muassasasi bitiruvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashga qo‘yiladigan malaka talablariga muvofiq (oliy kasbiy ta’limning davlat ta’lim standartiga qo‘shimcha) quyidagilar bo‘lajak ofitserlarning kasbiy faoliyati asosiy turlaridir:ekspluatatsion-jangovar, tashkiliy-boshqaruv; harbiy; pedagogik: o‘quv-tarbiyaviy.

Harbiy mutaxassisning kasbiy kompetetntligi tushunchasini shunday ifoda etamiz - mutaxassisning integrativ sifati, harbiy va pedagogik kasbiy faoliyatni samarali amalga oshirishga tayyorlik, qodirlik va shaylikdir, ushbu sifatlar namoyon bo‘lgan kompetensiyalar tizimidan iborat.

Harbiy mutaxassisning professiogrammasi hamda bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo‘yiladigan malakaviy talablarning funksional tahlili shuni ko‘rsatdiki, harbiy-kasbiy vazifalar mutaxassisning yetakchi va ustuvor kasbiy vazifalari sanaladi. Ular harbiy xizmat davomida hal etiladi va yuzaga chiqariladi.

Qat’iy meyorlar bilan tartibga solinadigan kasbiy vazifalarni bajarishning aniqligi, ishonchliligi, xavfsizligi va operativligi ofitser faoliyati muvaffaqiyatli ekanini, ya’ni uning kompetentligini tavsiflovchi asosiy belgi-alomatlar sanaladi.

Kasbiy kompetentlik tarkibiga motivatsion, kognitiv, qadriyatli, emotsional-irodaviy kabi komponentlar kiradi. Kasbiy kompetentlik kognitiv, operatsional-texnologik, motivatsion-qadriyatli, axborotli va kommunikativ komponentlarning majmuidir. Kasbiy kompetentlik tarkibiga kognitiv, motivatsion-qadriyatli va emotsional-irodaviy komponentlari kiritilgan. Kompetentlikning bu taxlit mazmuniy salmog‘i unda kasbiy kompetentlikning bizga kerakli turi kompetentligini rivojlantirish jarayonini qurish uchun umuman yetarli emas.

Kasbiy kompetentlikning komponentli tarkibi va mazmuniy xarakteristikalari haqida ilgari surgan nuqtai nazarlarni umumlashtirib, kompetentligigni tarkibida quyidagi komponentlarni ajratib olamiz: 1) kognitiv komponent; 2) operatsional-faoliyatga doir komponent; 3) shaxsga oid komponent (shaxsiy va kasbiy muhim sifatlarni egallash).

Bo‘lajak ofitserning kasbiy kompetentligini tadqiq yekanmiz, har bir kompetensiya adekvat

bilim, ko‘nikma, malaka, kasbiy faoliyatining o‘zlashtirilgan umumlashma usullari tizimini o‘z ichiga oladi. Harbiy-kasbiy bilim, ko‘nikma, malaka, ixtisoslig, kasbiy sifatlar oliys harbiy ta’lim muassasalaridagi kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga chiqadi.

Bo‘lajak ofitserlar kasbiy faoliyatini amalga oshirishga imkon beruvchi va uni yuzaga chiqarish jarayonini kompetentligni rivojlantirish deb, ta’kidlash mumkin. Kasbiy kompetentligni rivojlanishi bo‘lajak ofitserlar tarkibini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida sodir bo‘ladi. Ushbu tayyorgarlik nazariy va amaliy tahsilni o‘z ichiga oladi. Amaliy tahsil ikki turdan iborat bo‘lib, bo‘lajak ofitserlik kasbiga o‘qitish va harbiy tayyorgarlig o‘z ichiga oladi. Trening - bilim olishning o‘ziga xos metodi bo‘lib, o‘z muqobillaridan shu bilan farq qiladiki, uning barcha ishtirokchilari hozirgi lahzaning shaxsiy tajribasi asosida o‘qiydi. Bu maxsus yaratilgan muhit bo‘lib, unda har kim osonlik bilan o‘z ijobiy va salbiy jihatlari, yutuqlari, kamchiliklari va nuqsonlarini ko‘rishi mumkin. Atrofdagi insonlarning yordami va diqqati qanday shaxsiy va kasbiy muhim sifatlar zarur va qaysilarini rivojlantirish kerakligini tezroq tushunishga yordamlashadi. Trening vaziyati mazmuniy jihatdan kasbiy bo‘lgani tufayli ishtirokchilarning hech biri shakllangan munosabatlar va qarashlar bilan tavakkalchilikkaa qo‘l urmaydi, aksincha yangi tajriba orttiradi va uni qo‘llaydi. Real kasbiy vaziyatda shunga o‘xshash tajriba va amaliyotlar kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ta’lim jarayonida har qanday ko‘nikma yoki malakalar aniq vaziyatarda modellashtiriladi va tahlil qilinadi hamda maksimal darajada reallikka yaqinlashtirilgan tajribaviy holatida tekshirib ko‘riladi.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan tushunchalar kasbiy amaliy tahsilning bir turi sifatida talqin etiladi. Ushbu tahsil jarayonida trenirovka, mashq metodi, shuningdek, ularning kompleksi - harbiy-amaliy dan foydalanib, shu jumladan, tahsilning turli texnik vositalarini qo‘llab maxsus kasbiy malaka va ko‘nikmalar shakllantiriladi.

Harbiy tayyorgarlik tizimida kasbiy kompetentligni rivojlantirish metodikasi bo‘lajak ofitserlik ta’limi metodikasiga asoslanadi, bu esa yuqori darajali harbiy-kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayoniga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ta’lim berish asosan yuqori, o‘rta, past qiyinlik darajasida sodir bo‘ladi.

Harbiy-kasbiy tayyorgarlikni olib borish imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

kasbga xavfsiz o‘qitishga va yuqori qiyinlik darajasida harbiy kasbiy kompetentligini rivojlantirishga;

bo‘lajak kasbiy faoliyatning shartlariga o‘xshashlikning yuqori miqyosini imitatsiya qilish, shu orqali kursantinng bilim olish faoliyatini faollashtirishga;

tahsilni yuqori mustaqillik darajasi, bo‘lajak ofitserlarning individual qobiliyatlarini

hisobga olib tashkil etishga.

Xulosa o‘rnida aytish joyizki, bo‘lajak mutaxassisning kasbiy faoliyati normativ-huquqiy intizomiy qoidasiga rioya etishga va rahbariyatning talablari va qoidalarni bekamu ko‘st bajarish majburiyatini yuklaydi, negaki bu o‘qitish xavfsizligini ta’minlaydi, kursant oldida turgan muammoli o‘quv-kasbiy vazifalarning darajasi va real ko‘lami esa shakillangan kasbiy kompetenligining ancha yuqori darajasini egallashni majburiy talab qiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Кадочников А.И. Формирование навигаторской компетентности курсантов в процессе подготовки: дис. канд. пед. наук: Челябинск. 2009.-209 с.

2. Алимардонов З.Ш. Олий ҳарбий таълим муассасаларида бўлажак офицерларнинг касбий компетентлигини такомиллаштириш. Пед.фан.номз..дисс. автореферати. Самарқанд. 2019.-53 б.

3. Кадочников А.И. Формирование навигаторской компетентности курсантов в процессе подготовки: дис. канд. пед. наук: Челябинск. 2009.-209 с.

4. Давидов В.В. Развиваюшие обучение. - М., 1996. -168 с.

5. Болотов В.А. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе // Педагогика. 2003. - № 10. - С. 3-7.

HARBIY XIZMATCHILARDA JANGOVAR KASBIY TAYYORGARLIK VA SHAXS INDIVIDUAL XUSUSIYATLARNING ALOQADORLIGI

Shermatov Fayzullo Toshtillayevich

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instiuti boshlig‘ining o‘rinbosari, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, podpolkovnik (Tel:90 288 56 57)

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarning jangovar kasbiy tayyorgarligi va shaxsiy xususiyatlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilingan. Harbiy xizmatning o‘ziga xos jihatlari hisoblangan jismoniy tayyorgarlik, jangovar ko‘nikmalar, psixologik barqarorlik va intizom shaxsiy fazilatlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Maqolada qat’iyat, jasorat, mas’uliyat, tezkor fikrlash va jamoada ishlash kabi fazilatlarning harbiy kasbiy tayyorgarlik darajasiga ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, shaxsiy fazilatlarning jangovar shaylik va harbiy samaradorlikni oshirishdagi o‘rni yoritilgan. Natijada, harbiy tayyorgarlik nafaqat texnik va jismoniy bilimlarga, balki shaxsiy xususiyatlarning rivojlanganligiga ham bog‘liq ekani ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Harbiy xizmatchi, jangovar tayyorgarlik, kasbiy tayyorgarlik, shaxsiy fazilatlar, intizomlilik, jasorat, chidamlilik, psixologik barqarorlik, jismoniy tayyorgarlik, tezkor qaror qabul qilish, yetakchilik, jamoada ishlash, strategik tafakkur, harbiy intizom, stressga chidamlilik

Annotation: This article analyzes the relationship between combat professional training and the personal qualities of military personnel. Key aspects of military service, such as physical training, combat skills, psychological resilience, and discipline, are examined in connection with personal characteristics. Special attention is given to qualities such as determination, courage, responsibility, quick thinking, and teamwork. The article emphasizes that successful military training requires not only technical and physical knowledge but also the development of personal traits that enhance combat readiness and overall effectiveness in military service.

Keywords: Military personnel, combat training, professional training, personal qualities, discipline, courage, endurance, psychological resilience, physical training, quick decision-making, leadership, teamwork, strategic thinking, military discipline, stress resistance.

Аннотация: В данной статье анализируется взаимосвязь между боевой профессиональной подготовкой и личными качествами военнослужащих. Рассмотрены ключевые аспекты военной службы, такие как физическая подготовка, боевая выучка, психологическая устойчивость и дисциплина, а также их связь с личностными характеристиками. Особое внимание уделяется таким качествам, как решительность, мужество, ответственность, быстрота мышления и способность работать в коллективе. В статье подчеркивается, что успешная военная подготовка требует не только технических и физических знаний, но и

развития личных качеств, способствующих повышению боевой готовности и эффективности военной службы.

Ключевые слова: Военнослужащий, боевая подготовка, профессиональная подготовка, личностные качества, дисциплина, мужество, выносливость, психологическая устойчивость, физическая подготовка, быстрое принятие решений, лидерство, работа в коллективе, стратегическое мышление, военная дисциплина, стрессоустойчивость.

Jahon hamjamiyatida harbiy xizmat sohasiga zamonaviy bilim, ilg‘or xorijiy tajribalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida harbiy xizmatchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Har bir davlatning xalqaro maydonda kuchli armiyaga ega bo‘lishi muhim hisoblanadi. Dunyo mamlakatlari tomonidan tinchlikni mustahkamlash, hamkorlikda xalqaro xavfsizlikni ta’minlash va harbiy kuch-qudratlarni yuksaltirish borasida “Xalqaro armiya o‘yinlari tashkil etildi”. Bu esa, davlatlarning do‘stona munosabatlarini o‘rnatishda va harbiy xizmatchilarning kasbiy salohiyatini belgilashda asosiy omil hisoblanadi.

Ma’lumki, insonga xos barcha faoliyat turlari motivlar orqali amalga oshib, faoliyatning qay darajada bajarilishi sabablari motivatsiya fenomenida aks etadi. Hozirga qadar psixologiya fanida motivatsiya masalasiga oid ko‘plab nazariy qarashlar, ilmiy yondoshuvlar, konsepsiyalar mavjud bo‘lib, ularda motivatsiya tushunchasi turli mazmunda ta’riflangan. Ayrim tadqiqotlar inson motivatsion sohasini biologik ehtiyojlar bilan tushuntirsa, boshqasi esa, qiziqish, yo‘nalganlik, ishtiyoq va munosabat kabi tushunchalar bilan tavsiflaydi.

Harbiy xizmat o‘ziga xos kasb bo‘lib, unda jangovar tayyorgarlik darajasi va shaxsiy fazilatlar muhim o‘rin tutadi. Harbiy xizmatchining nafaqat jismoniy va kasbiy tayyorgarligi, balki uning shaxsiy xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada jangovar kasbiy tayyorgarlik va shaxs xususiyatlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilinadi [1].

Jangovar kasbiy tayyorgarlik – bu harbiy xizmatchining xizmat vazifalarini samarali bajarish uchun kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish jarayoni. Bu tayyorgarlik quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Jismoniy tayyorgarlik – harbiy xizmatchining chidamliligi, kuchi va harakatchanligini oshirish.

Taktik va jangovar ko‘nikmalar – qurol ishlatish, jangovar taktikalar, harbiy texnikadan foydalanish bo‘yicha bilim va amaliyot.

Psixologik barqarorlik – stressga bardosh berish, sharoitga moslashish va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlari.

Yetakchilik va jamoada ishlash – harbiy intizom va hamkorlikni ta’minlash.

Harbiy xizmat qat’iyatlilik, mardlik va mas’uliyat talab qiladi. Quyida jangovar kasbiy tayyorgarlikka ta’sir qiluvchi muhim shaxsiy fazilatlar ko‘rsatilgan:

Jasorat va qat’iyatlilik – murakkab jangovar sharoitlarda ishonchli harakat qilishga yordam beradi.

Intizomlilik – harbiy tartibga rioya qilish va buyruqlarni aniq bajarish uchun zarur.

Sabr-toqat va chidamlilik – uzoq muddatli jismoniy va ruhiy yuklamalarga bardosh berish imkonini beradi.

Tezkor fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyati – jang maydonida yoki favqulodda holatlarda tez va aniq qaror qabul qilish uchun muhimdir.

Hamkorlik va jamoada ishlash – harbiy jamoaning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur.

Harbiy xizmatchining muvaffaqiyati uning kasbiy bilim va shaxsiy xususiyatlarining uyg‘unligiga bog‘liq. Quyida bu bog‘liqlikning ba’zi asosiy jihatlari keltirilgan:

Jismoniy va psixologik tayyorgarlik uyg‘unligi – kuchli jasorat va chidamlilik jismoniy tayyorgarlik bilan mustahkamlanadi.

Yetakchilik va intizomning muvozanati – harbiy xizmatchilar nafaqat buyruqlarni bajarishi, balki og‘ir sharoitlarda boshqalarga namuna bo‘lishi ham lozim.

Texnik bilim va strategik tafakkur – jangovar texnika va taktik bilimlarni o‘zlashtirish bilan birga tezkor strategik fikrlash ham zarur.

Stressga chidamlilik va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati – ekstremal sharoitlarda mustahkam irodaga ega bo‘lish zarur [2].

Kasb tanlashning psixologik muammolari. Kasb tanlashning tarkibiy qismlari va bosqichlari: kasb maorifi, kasbga oid maslahatlar, kasb tanlashga yo‘naltirish, kasbga yarog‘lilikni aniqlash va professiogramma kasb tanlashga yo‘naltirish metodlar va formalari. Kasb tanlashda mahsus bilim, ko‘nikma va malakalarning roli. Kasbga oid predmetlarni o‘zlashtirish darajasi. Kasb tanlashning diagnostik va prognostik metodlari. Davlat va jamiyat ta’lim olishga, kasbiy yo‘lni tanlashga, kasbga o‘qish va kasb egallashga bo‘lgan yoshlarning huqularini amalga oshirishga kafolat beradi. “Eng muhimi, yoshlarga biror-bir mutaxassislikni egallashga imkon bermaiz, hayotga ishonchli yo‘llanma bilan ta’minlaymiz. Agar, hayotga ishonch bilan qadam qo‘yayotgan yosh inson hayotda o‘z o‘rnini topa olsa, o‘z-o‘zidan ma’lumki u o‘z ishidan, taqdiridan qoniqadi”. Ilmiy-amaliy nuqtai-nazardan kasb tanlash, kasbga yo‘naltirish, kasbiy tayyorlanish, yosh mutaxassisni ishga joylashishi va ishdan qoniqishi o‘qish va mehnat motivatsiyasining shakllanishiga bog‘liqdir.

Kasb-hunarga yo‘naltirilish vazifasi kimning zimmasida degan savolga to‘xtalib o‘tsak. Bu vazifalar maktab jamoasi va ota-oanalar hamkorligida insonlarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazlari rahbarligida amalga oshiriladi.

Ular insonlarning qobiliyatlari va moyilliklarini aniqlashda;

Воля не является врожденным качеством, а представляет собой сложную систему, формирующуюся в процессе деятельности личности. Для развития этой системы у военнослужащих необходимо перейти от «абстрактных понятий» к «конкретным алгоритмам действий».

Как подчеркивали восточные мыслители, воля — это средство обуздания нафса (эго) и достижения духовного совершенства. Наш эмпирический анализ

показывает, что для формирования волевой устойчивости у военнослужащего необходимо:

1. Создать четкую психологическую карту выполнения задачи (пошаговое движение);
2. Повышать скорость принятия решений через кейсы «нравственного выбора» в экстремальных ситуациях.

Проведенные исследования показывают, что воля — это качество, подобное «мышце», которое поддается тренировке. Нравственно-волевые качества в личности военнослужащего являются фундаментом, объединяющим его профессиональное мастерство и духовный облик. Результаты исследования подтвердили, что при наличии четкой цели воля активизируется, вследствие чего такие факторы, как усталость и страх, отходят на второй план.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. **Ильин Е.П.** Психология воли. – Питер: СПб, 2011.
2. **Выготский Л.С.** Собрание сочинений в 6-ти томах. Том 3. – М.: Педагогика, 1983.
3. **Рубинштейн С.Л.** Основы общей психологии. – СПб: Питер, 2002.
4. **Газиев Э.Г.** Общая психология. – Ташкент: Университет, 2010.
5. **Baumeister, R. F., & Tierney, J.** Willpower: Rediscovering the Greatest Human Strength. – Penguin Press, 2011.
6. **Duckworth, A. L., & Seligman, M. E.** Self-discipline outdoes IQ in predicting academic performance. – Psychological Science, 2005.

GENDER TENGLIGINI TA’MINLASHNING HUQUQIY VA PSIXOLOGIK OMILLARI

Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi
ISFT instituti «Psixologiya va pedagogika»
kafedrasi o‘qituvchisi

Allonova Ra’noxon Qobiljon qizi
ISFT institutining 2-kurs talabasi
*el.pochta:*ranoxonallonova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada gender tengligi tushunchasi va uni ta’minlash bo‘yicha huquqiy - psixologik omillari tahlil qilinadi. Gender tengligini ta’minlashning xalqaro huquqiy hujjatlari, xususan BMTning CEDAW konvensiyasi va Barqaror rivojlanish maqsadlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasidagi milliy qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar ko‘rib chiqiladi. Gender tengligini ta’minlashning dolzarb muammolari, jumladan ish joyida ayollarning yetarli vakilligi, ijtimoiy stereotiplar va ta’lim sohasida teng imkoniyatlar masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: *Gender tengligi, normativ-huquqiy asoslar, CEDAW, inson huquqlari, diskriminatsiyasi.*

LEGAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS OF ENSURING GENDER EQUALITY

Annotation: This article analyzes the concept of gender equality and the legal and psychological factors involved in ensuring it. It examines international legal instruments aimed at promoting gender equality, in particular the United Nations Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination against Women (CEDAW) and the Sustainable Development Goals (SDGs), as well as national laws and regulatory frameworks of the Republic of Uzbekistan. The article also discusses current challenges in ensuring gender equality, including the underrepresentation of women in the workplace, the persistence of social stereotypes, and the issue of equal opportunities in the field of education.

Keywords: *Gender equality, normative-legal foundations, CEDAW, human rights, discrimination.*

ПРАВОВЫЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА

Аннотация: В данной статье анализируется понятие гендерного равенства и нормативно-правовые основы его обеспечения. Рассматриваются международные правовые документы по обеспечению гендерного равенства, в частности Конвенция ООН о ликвидации всех форм дискриминации в отношении женщин (CEDAW) и Цели устойчивого развития, а также национальные законы и нормативно-правовые акты Республики Узбекистан. В статье также обсуждаются актуальные проблемы обеспечения гендерного равенства, включая недостаточную представленность женщин на рабочих местах, социальные стереотипы и вопросы равных возможностей в сфере образования.

Ключевые слова: *Гендерное равенство, нормативно-правовые основы, CEDAW, права человека, дискриминация.*

Gender tengligi - bu jamiyatda ayol va erkaklar, shuningdek boshqa gender guruhlari huquqlari, imkoniyatlari va ijtimoiy mavqei bo‘yicha teng muomala qilinishini ta’minlash prinsipidir. Gender tengligi nafaqat inson huquqlari, balki iqtisodiy barqarorlik, siyosiy rivojlanish va jamiyatning adolatli rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Gender tengligi quyidagi sohalarda o‘z aksini topadi: Ta’lim: ayol va erkaklarga teng bilim olish imkoniyatlari yaratish; Ish joyi: ish haqi, lavozim, kasbiy rivojlanish imkoniyatlarida tenglik; Siyosat: qaror qabul qilish jarayonida ayol va erkaklarning teng vakilligi; Ijtimoiy va madaniy hayot: stereotiplar va genderga asoslangan kamsitishning oldini olish [4]. Gender tengligi masalasi xalqaro miqyosda keng qo‘llab-quvvatlanadi va bir qancha asosiy hujjatlar bilan mustahkamlangan: CEDAW (Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination Against Women) - ayollarga nisbatan barcha shakldagi kamsitishlarni bartaraf etish bo‘yicha BMT Konvensiyasi; BMTning 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) - 5-maqsad «Gender tengligini ta’minlash va ayollarni kuchaytirish», Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) konvensiyalari -

ish joyida teng ish haqi va gender adolatini ta’minlash; Xalqaro konstitutsion va inson huquqlari normativlari - inson huquqlarini himoya qilish, kamsitishni taqiqlash, teng imkoniyatlarni yaratish.

O‘zbekistonda gender tengligi qonuniy jihatdan quyidagi hujjatlar bilan himoyalangan: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - barcha fuqarolar huquqlari va erkinliklari tengligini kafolatlaydi; «Ayollar va erkaklar teng huquqliligi to‘g‘risida» Qonun - ish joyida, ta’lim va boshqa sohalarda gender tengligini ta’minlashga qaratilgan; Mehnat Kodeksi - ish haqi va lavozimlarda diskriminatsiyani taqiqlaydi; Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunlar - ta’lim jarayonida ayol va erkaklarga teng imkoniyatlar yaratish. Milliy va xalqaro huquqiy bazaga qaramay, quyidagi masalalar mavjud: Ayollarning yetarli vakilligi: siyosiy va rahbar lavozimlarda ayollarning yetarli ishtirok etishi; Ijtimoiy stereotiplar: jamiyatda gender rollariga oid qadriyatlarni yangilash; Ta’lim va kasbga yo‘naltirishda teng imkoniyatlar: qizlar va o‘g‘il bolalarga teng ta’lim va kasbiy yo‘nalishlar berish; Ish haqi va kasbiy rivojlanishdagi adolat: erkak va ayol ishchilarga teng ish haqi va lavozim berish; Madaniy va ijtimoiy masalalar: genderga oid kamsitish va zo‘ravonlikning oldini olis [8].

Gender tengligi faqat huquqiy yoki siyosiy masala emas, balki jamiyatning madaniy va ijtimoiy rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liq. Gender stereotiplari va qadriyatlar jamiyatda ba’zi guruhlarning imkoniyatlarini cheklaydi, shu bilan birga iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni zaiflashtiradi. Masalan, qizlar va ayollar kasb-hunar sohasida cheklangan imkoniyatlarga ega bo‘lsa, bu jamiyat resurslarining samarali ishlatilishiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli, gender tengligi faqat huquqiy kafolatlar bilan emas, balki ijtimoiy ongni oshirish, madaniy qadriyatlarni yangilash va stereotiplarni yo‘qotish bilan ham ta’minlanadi. Gender tengligini ta’minlash masalalari xalqaro huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan. Bular orasida: CEDAW (Convention on the Elimination of All Forms of Discrimination Against Women) - ayollarga nisbatan barcha shakldagi kamsitishlarni bartaraf etish va ayollarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotda teng huquqini ta’minlashga qaratilgan hujjat; BMT 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) - 5-maqsad «Gender tengligini ta’minlash va ayollarni kuchaytirish» bo‘lib, bu maqsad jahon davlatlari uchun strategik vazifa sifatida

belgilangan; Xalqaro Mehnat Tashkiloti (ILO) konvensiyalari - ish joyida teng ish haqi, teng ish sharoitlari va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kafolatlaydi. Xalqaro inson huquqlari hujjatlari - jinsga asoslangan diskriminatsiyani taqiqlash va har bir insonga teng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan. Ushbu hujjatlar nafaqat davlatlarni, balki nodavlat tashkilotlar va jamiyatning barcha qatlamlarini gender adolatini ta’minlashga chorlaydi.

Qonuniy kafolatlar va normativ hujjatlar samarali ishlaganda ayollar siyosiy va iqtisodiy sohalarda faol ishtirok etadi, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik kuchayadi [11]. O‘zbekistonda gender tengligi milliy huquqiy bazasi bilan ham mustahkamlangan. Eng asosiy hujjatlar quyidagilar: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - barcha fuqarolar huquqlari va erkinliklarini teng kafolatlaydi. «Ayollar va erkaklar teng huquqliligi to‘g‘risida» Qonun - ish joyida, ta’limda va boshqa sohalarda gender tengligini ta’minlashga qaratilgan; Mehnat Kodeksi - ish haqi, lavozim va kasbiy rivojlanishda diskriminatsiyani taqiqlaydi; Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunlar - ta’lim jarayonida qizlar va o‘g‘il bolalarga teng imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, O‘zbekiston hukumatining strategik dasturlari va chora-tadbirlari, jumladan «Ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish dasturi», gender adolatini mustahkamlashga yo‘naltirilgan [3].

Normativ-huquqiy bazaga qaramay, gender tengligi sohasida hali hal etilmagan masalalar mavjud. Siyosiy va rahbar lavozimlarda ayollarning yetarli vakilligi - ko‘plab davlatlarda ayollar siyosiy qaror qabul qilish jarayonida kam ishtirok etadi; Ijtimoiy stereotiplar va qadriyatlar - jamiyatda genderga oid qadriyatlar va stereotiplar kuchli bo‘lib, bu qizlar va ayollarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi; Ta’lim va kasbga yo‘naltirishdagi teng imkoniyatlar - qizlar va o‘g‘il bolalarga teng yo‘nalishlar va resurslar taqdim etish muhim; ish haqi va kasbiy rivojlanishdagi tenglik - ayol va erkak ishchilarga teng ish haqi va lavozim berilishini ta’minlash zarur; ijtimoiy himoya va gender zo‘ravonligi masalalari - zo‘ravonlik va kamsitishning oldini olish uchun huquqiy va ijtimoiy chora-tadbirlar kuchaytirilishi kerak [2].

Jamiyatda gender tengligini ta’minlashning muvaffaqiyati faqat qonunlar bilan chegaralanmaydi. Ijtimoiy ong, madaniy qadriyatlar va oilaviy tarbiya ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, ota-onalar, o‘qituvchilar va jamiyat yetakchilari qizlar va o‘g‘il

bolalarga teng imkoniyatlar yaratishi, stereotiplardan xoli muhitni shakllantirishi muhimdir. Shu tarzda, gender tengligi jamiyatning barqaror rivojlanishi, iqtisodiy samaradorligi va inson huquqlarining to‘liq ta’minlanishini kafolatlaydi [1].

Gender tengligi tushunchasi insonning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik bilan bevosita bog‘liq. Gender tengligini ta’minlagan jamiyatlarda: ayollar va erkaklarning ish samaradorligi oshadi; oilaviy va ijtimoiy muhit barqaror bo‘ladi; bolalarning psixologik va intellektual rivojlanishi yanada tezlashadi. Oilada va maktabda gender tengligi ta’minlanganda farzandlar o‘rtasida stereotipik xatti-harakatlar kamayadi, ijtimoiy moslashuv va o‘z-o‘zini anglash darajasi oshadi. Shu sababli gender tengligi nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy va psixologik masala sifatida ham muhimdir [5]. Xalqaro miqyosda gender tengligini ta’minlash borasida turli tajribalar mavjud. Masalan: Skandinaviya davlatlari - ayollar siyosiy qaror qabul qilish jarayonida va ish bozorida yetarli vakillikka ega; bu esa jamiyatda gender stereotiplarini kamaytiradi va iqtisodiy barqarorlikni oshiradi; Kanada va Avstraliya - gender tengligini oshirish maqsadida qonuniy me’yorlar bilan birga ijtimoiy dasturlar ishlab chiqilgan, jumladan ayollarning tadbirkorligini rag‘batlantirish, rahbar lavozimlarga nomzodlarni qo‘llab-quvvatlash; Jahon banki va BMT dasturlari - gender tengligini monitoring qilish va statistik tahlil qilish orqali davlatlar uchun strategik tavsiyalar ishlab chiqadi. Bu tajribalar shuni ko‘rsatadiki, gender tengligini faqat qonun bilan kafolatlash yetarli emas. Ijtimoiy dasturlar, iqtisodiy rag‘batlar va siyosiy tashabbuslar ham muhim rol o‘ynaydi [11].

O‘zbekistonda gender tengligi qonuniy asoslar bilan himoyalangan bo‘lsa-da, amaliyotda ularni kengaytirish va kuchaytirish zarur. Qo‘shimcha chora-tadbirlar: Ish beruvchilarga gender tengligi bo‘yicha treninglar va seminarlarga majburiy qatnashish; Ta’lim muassasalarida gender adolatini targ‘ib qilish va o‘quv dasturlarini gender nuqtai nazaridan yangilash; Ayollar va qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, kredit va moliyaviy resurslarga teng kirish imkoniyatini yaratish; Ijtimoiy reklama va media orqali gender stereotiplarni kamaytirish va ijtimoiy ongni oshirish. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gender tengligi iqtisodiy rivojlanishga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ayollarning ish bozorida faol ishtirok etishi, rahbar lavozimlarga ko‘tarilishi va tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi. Shu bilan birga, oilaviy daromadlar

va ijtimoiy barqarorlik darajasi ham oshadi. Gender tengligi bo‘lmagan jamiyatlarda iqtisodiy resurslar samarali ishlatilmaydi va ijtimoiy muammolar kuchayadi [6].

Ta’lim sohasida gender tengligini ta’minlash, ayniqsa qiz bolalarga ta’lim berish, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Qizlarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi, texnologiya va ilmiy fanlarga qiziqishi oshirilishi zarur. Shu bilan birga, o‘quv dasturlarida gender stereotiplarga qarshi ta’lim metodikalari joriy etilishi kerak [3]. Gender tengligi jamiyat va davlat rivojida faqat ijtimoiy masala sifatida emas, balki iqtisodiy va siyosiy barqarorlik nuqtai nazaridan ham muhim omil hisoblanadi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gender tengligi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda: iqtisodiy o‘sish sur’ati tezlashadi, ayollar mehnat bozorida faol ishtirok etadi; siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoni yanada demokratik va inklyuziv bo‘ladi; ijtimoiy barqarorlik va oilaviy daromadlar darajasi oshadi. Shu bilan birga, gender tengligi bo‘lmagan jamiyatlarda iqtisodiy resurslar samarali ishlatilmaydi, qizlar va ayollar uchun bilim olish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari cheklangan bo‘ladi. Zamonaviy davrda texnologiya va raqamli iqtisodiyot sohasida gender tengligini ta’minlash muhim hisoblanadi. Qizlar va ayollar STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) sohalarida faol ishtirok etishi iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshiradi. Shu sababli, ta’lim muassasalarida STEM fanlarini qizlar uchun rag‘batlantirish dasturlari joriy etilishi, ayollarni raqamli ko‘nikmalar bilan ta’minlash bo‘yicha treninglar va kurslar tashkil etilishi, raqamli tadbirkorlik va startaplarni rivojlantirishda ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish zarur [1].

Sog‘liqni saqlash sohasida gender tengligini ta’minlash jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun muhimdir. Ayollar va erkaklar uchun teng tibbiy xizmatlar, reproduktiv huquqlar va psixologik yordam tizimi jamiyatdagi ijtimoiy adolatni mustahkamlaydi. Masalan: Qizlar va ayollarga yetarli tibbiy xizmat ko‘rsatish; Gender asosida tibbiy xizmatlardan cheklanishlarni bartaraf etish; Psixologik va ijtimoiy yordamga teng kirish imkoniyatlarini yaratish zarur. Jamiyatda gender tengligini ta’minlash uchun madaniy qadriyatlar va stereotiplarni yangilash muhim ahamiyatga ega.

Bu jarayon quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Ota-onalar, o‘qituvchilar va jamiyat yetakchilari tomonidan gender tengligini targ‘ib qilish;
- Media va madaniyat orqali gender stereotiplarni kamaytirish;
- Oilaviy va ijtimoiy muhitda qizlar va o‘g‘il bolalarga teng imkoniyatlar yaratish.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. UNESCO. Gender Equality and Education. Paris: UNESCO Publishing, 2020.

2. Sadker, M., & Sadker, D. Failing at Fairness: How Our Schools Cheat Girls. New York: Scribner, 1994.

3. Leaper, C., & Friedman, C. K. Социализация гендера // B: Grusec, J. E., & Hastings, P. D. (ред.), Handbook of Socialization: Theory and Research, стр. 561–587. New York: Guilford Press, 2007.

4. OECD. The ABC of Gender Equality in Education: Aptitude, Behaviour, Confidence. Paris: OECD Publishing, 2015.

5. Eagly, A. H., & Wood, W. Теория социальных ролей // B: Van Lange, P. A. M., Kruglanski, A. W., & Higgins, E. T. (ред.), Handbook of Theories of Social Psychology, т.2, стр. 458–476. London: Sage, 2012.

6. Tannen, D. You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. New York: Ballantine Books, 1990.

7. LeVine, R. A., & LeVine, S. E. Гендерная социализация в образовательной среде. Cambridge: Cambridge University Press, 2004.[7]

8. UNESCO. Cracking the Code: Girls’ and Women’s Education in STEM. Paris: UNESCO Publishing, 2016.

9. Bampton, R., & Maclagan, P. “Does a care orientation explain gender differences in ethical decision making? A critical analysis and fresh findings”, Business Ethics: A European Review, Vol.18 No.2, стр. 179–191, 2009.[9]

10. Conroy, S., & Emerson, T. “Business ethics and religion: Religiosity as a predictor of ethical awareness among students”, Journal of Business Ethics, Vol.50, стр. 383–396, 2004.

11. Beaman, L., Duflo, E., Pande, R., & Topalova, P. “Female Leadership Raises Aspirations and Educational Attainment for Girls: A Policy Experiment in India”, Science, Vol.335, стр. 582–586, 2012.

HARBIY BOSHQARUV TIZIMIDA SHAXSLARARO MUNOSABATLAR VA MULOQOT

Tursunov Burxon Saydaxmatovich

Harbiy-vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash kafedrasi boshlig‘i, psixol.f.b.f.d. (PhD), dotsent, podpolkovnik

Xizmat xizmat o’tashning o‘ziga xos jihatlari mavjud bo’lib, jamoat tartibini saqlashda fuqarolar, huquqbuzarlar bilan munosabatga kirishishda murakkab vaziyatlarning kopligi, ayniqsa tunda ro’y berishi mumkin bo’lgan to’qnashuvlarga ruhan tayyorlash o‘ta muhim vazifalar sanaladi va avvalo harbiy xizmatchilarni tanlash va tayyorlashga psixologik yondashuv talab qilinadi.

Harbiy xizmatchining ruhiyati, boshqa har qanday odam kabi, juda harakatchan va dinamikdir. Insonning har qanday vaqt oralig’idagi xatti-harakati, bu holda psixik jarayonlarning o’ziga xos xususiyatlari va shaxsiyatning aqliy xususiyatlari qanday namoyon bo’lishiga bog’liq.

Davlat tashkilotlarida rahbarning orni va ahamiyati juda muxim sanaladi. Rahbar kundalik faoliyatining asosiy qismi muloqot jarayonidan iborat desak mubolag’a bo’lmaydi. Rahbar tashkilotdagi faoliyatini, xodimlar faoliyatini, qabul qilingan qarorlarning ijrosini tashkil etish, nazorat qilish hamda xodimlar faoliyatini rag‘batlantirish muloqot jarayoni orqali amalga oshiriladi.

Muloqot insonning jamiyatda hayot faoliyatining asosiy usulidir. Inson o‘zining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish davomida muloqotga kirishish orqali ishlab chiqarish, siyosiy, iqtisodiy, g‘oyaviy, axloqiy va turli munosabatlarga kirishadi. Ishlab chiqarish jarayonida rejalashtirish, tashkil etish, rag’batlantirish va nazoratni ko‘zda

tutadigan boshqaruv ko‘rinishidagi faoliyatga ehtiyoj vujudga keladi. Bu vazifalarni bajarish rahbarlik muloqoti bilan chambarchas bog‘liq.

Rahbarlik muloqoti – bu boshqaruv vazifalarini amalga oshirish zarurati bilan yuzaga keladigan muloqot sanaladi.

Biz harbiy rahbarlik muloqotining bir necha shakllariga ajratamiz:

1.Muloqotning subordinazasiya shakli. Bu rahbar bilan bo‘ysunuvchilarning o‘rtasidagi ma'muriy va huquqiy normalarga asoslangan muloqot shaklidir. Bunday muloqot rahbar bilan bo’ysinuvchi, shuningdek, yuqori darajadagi rahbarlar o‘rtasida sodir bo‘ladi.

2. Xizmat va o'rtoqlik muloqot shakli. Bu ma'muriy va axloqiy me'yorlarga asoslangan hamkasblar o'rtasidagi o’zaro muloqotdir.

3. Muloqotning do'stona shakli. Bu rahbarlar, rahbarlar va bo'ysunuvchilar o'rtasidagi o’zaro muloqotdir. Bunday muloqot o'zaro munosabatlarning axloqiy va psixologik normalariga asoslanadi.

Takidlash joizki bunday muloqot shakllari albatta rahbarga bo’ysinuvchilar bilan o’zaro muloqot o’rnatish hamda ishni tug’ri tashkil etishga salmoqli yordam beradi.

Takidlash joizki, boshqaruv muloqotining tamoyillariga quyidagilar kiradi:

Xodimlarning shaxsiy potensialini, ularning kasbiy bilimlari, tajribasi va qobiliyatlarini namoyon etishi uchun shart-sharoitlarni yaratish tamoyili. Bunga asosan rahbarning vakolatlarini topshirishi, ya'ni rahbarning faoliyat doirasidan bir qator vazifalarni yoki muayyan faoliyat turlarini bo'ysunuvchilarga o'tkazishi kiradi. Vakolatlarni topshirish texnikasi tegishli xodimlarni tanlash, mas'uliyatni taqsimlash, berilgan vazifalarni tog’ri bajarishni muvofiqlashtirish, bo'ysunuvchilarni rag'batlantirish va maslahat berishni, ularning faoliyatini nazorat qilish va baholashni o'z ichiga oladi.

Bo‘ysunuvchilarga ixtisoslashgan faoliyatni, alohida masalalarni, tayyorgarlik ishlarini topshirish kerak. Maqsadlarni belgilash, to’g’ri qarorlar qabul qilish, natijalarni kuzatish, ishchilarni boshqarish va ularning faoliyatini rag'batlantirish, maqsadlarni, rejalarni yakuniy shakllantirish kabi boshqaruv funktsiyalari, alohida ahamiyatga ega va yuqori darajadagi xavfga egadir.

Vakolat va mas’uliyat tamoyili. Har bir xodim o'z ish qobiliyatini, ya'ni vazifalarini, majburiyatlarini va ularni amalga oshirish qoidalarini aniq bilishi kerak. Vakolat katta bo‘lganda mas'uliyat yanada katta bo‘ladi..

Rag'batlantirish va jazolash tamoyili. Rahbar nafaqat eng faol va vijdonli xodimlarni ko'ra olishi, balki har bir bo'ysunuvchining kichik bo'lsa ham, individual muvaffaqiyatlarini qayd etishi va omma oldida uni namuni qilishi muhim axamiyat kasb etadi.

Rahbar faoliyati davomida jamoadagi xodimlarning yutuqlarini o'z vaqtida va yetarli darajada baholamaslik uning adolatni tiklash istagini uyg'otadi, agar xodimlardan birining xizmatlari kam baholansa, uning mehnat yutuqlari darajasining pasayishiga olib kelshi mumkin. Unda norozilik va xafachilik kabi hissi paydo bo'lishi mumkin.

Rahbarning ish vaqtidan oqilona foydalanish tamoyili. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, har 100 ta menejerdan faqat bittasi yetarli ish vaqtiga ega. Ushbu tamoyil yana ikkita qoidani o'z ichiga oladi.

Ustuvorlik qoidasi: ishlarni muhimligi bo'yicha tartiblang va eng muhimidan boshlang.

Pareto qoidasi: italiyalik iqtisodchi V.Pareto printsipiga ko'ra, ish jarayonida sarflangan vaqtning 20% uchun menejer 80% natijaga erishadi, qolgan 80% sarflangan vaqt esa umumiy natijaning faqat 20% ni beradi.

Harbiy rahbar faoliyatida muloqot qilish va undan samarali foydalanish jamoada mehnat samaradorligini oshiradi.

Bir qator olimlar muloqotning quyidagi bosqichlarini ajratganlar: Birinchi bosqich - muhitda orientatsiya. Uchrashuv joyini tanlash, odamlarning joylashishi, o'zaro ta'sir qilish masofasini. Vaqt bo'yicha orientatsiya (muloqotni qachonga belgilash, unga qancha vaqt ajratish kerak), ijtimoiy yo'nalish (muloqot ishtirokchilarining qarashlari va qadriyatlari qanday, muloqotda qanday psixologik masofani saqlash kerak) kabilarni bilishi va qo’llash muxim.

Ikkinchi bosqich - suhbatdoshning diqqatini jalb etish. Bunda suhbatdoshiga oxangli va maqul keladigan so’zlar bilan suhbatlashish nazarda tutiladi.

Uchinchi bosqich - suhbatdoshlarning muloqot hajmi (kim va qancha gapiradi), muloqot tezligi (so'zlarning chastotasi, mavzularni, fikrlarni, tasvirlarni o'zgartirish tezligi), kayfiyat bo'yicha muvofiqligini qidirish bosqichi. Bu uch bosqich tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi.

To'rtinchi bosqichda- faktlar almashinuvi va ularni baholash, muloqot mavzusining har ikki tomoni uchun maqbul bo'lgan umumiy nuqtai nazarni izlash ro‘y beradi. O'zaro qiziqish uyg'onadi. Suhbatdosh tomonidan kutilgan shaxsiy xususiyatlar, uning odatlari, fikrlari, kayfiyatlari namoyish etiladi.

Beshinchi bosqichda muammoli vaziyat, ziddiyat, fikrlar to'qnashuvi paydo bo'lishi mumkin. Bu ijodiy o'zaro ta'sir, suhbatdoshlarning hech biri tomonidan taklif qilinmagan yangi yechimni izlash bosqichi.

Oltinchi bosqichda suhbatdoshlar beshinchi bosqichda ishlab chiqilgan narsalar asosida tezkor qaror qabul qiladilar. Topilgan yechimni amalga oshirishning qo'shma rejasi belgilanadi, muloqot natijalari qayd etiladi, suhbatdoshlar aloqadan chiqadilar.

Muloqotda yana bir axamiyatli jixat borki bu shaxslararo munosabatda suhbatdoshning savollari va ularning mohiyatini bilish.

Binobarin, shaxslararo munosabatda ma'lumot bizga o'z-o'zidan kelmaydi, uni olish uchun avvalo savol berish lozim. Suhbatdoshning savollaridan qo'rqmaslik kerak, chunki ular suhbat ishtirokchilarini faollashtirishga va ma'lumot uzatish jarayonini to'g'ri yo'nalishga yo'naltirishga yordam beradi.

Biz bilamizki beshta asosiy savollar guruhi mavjud. Bular quyidagilar:

Yopiq savollar. Bu «Ha yoki yo'q» javobi kutilayotgan savollardir. Bunda suhbatda keskin atmosferani yaratishga olib kelishi mumkin, shuning uchun bunday savollarni qat'iy belgilangan maqsad bilan ishlatish kerak. Bunday savollarni berishda suhbatdoshda so'roq qilinayotgandek taassurot paydo bo'lishi mumkin. Shuning uchun, yopiq savollar biz ma'lumot olishimiz kerak bo'lganda emas, balki tezda kelishuv yoki oldingi kelishuvni tasdiqlashni xohlaganimizda so'ralishi kerak.

Ochiq savollar. Bu savollarga «ha» yoki «yo'q» deb javob berib bo'lmaydi, aksincha ular qandaydir tushuntirishlarni talab qiladi. Bular «nima?», «kim?», «qanday?», «qancha?», «nima uchun?» kabi savollardan iborat bo’lishi mumkin. Bunday

savollar bizga qo'shimcha ma'lumot olish imkonini beradi yoki suhbatdoshning motivlari va pozitsiyasini bilmoqchi bo'lganimizda bu kabi savollar beriladi.

Ritorik savollar. Bu savollarga to'g'ridan-to'g'ri javob berilmaydi, chunki ularning maqsadi yangi savollarni ko'tarish va hal etilmagan muammolarni ko'rsatishdir. Bunday savollarni berishdan maqsad nima? Ritorik savol berib, ma'ruzachi suhbatdoshning fikrlashini «yoqishga» va uni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirishga qaratiladi.

Fikrlash uchun savollar. Ular jamoada suhbatdoshni fikr yuritishga, diqqat bilan o'ylashga va aytilgan narsalarni sharhlashga majbur qiladi. Ushbu savollarning maqsadi o'zaro tushunish muhitini yaratishdir .

Suhbatdoshlarning so'zlarini qaytarish:

Suhbatdoshning so'zlari, u sizni faol ravishda tinglayotganini sizning gapirishingizni kuzatib borayotganini, dalilingizni sinchkovlik bilan tekshirib, hamma narsani o'ylab ko‘rayotganini anglatadi. Izohlari bo‘lmagan suhbatdosh o'z fikriga ega bo'lmagan odam hisoblanadi. Shuning uchun ham suhbatdoshning mulohazalari va dalillariga suhbat jarayonida to'siq sifatida qaralmasligi shart. Ular suhbatni osonlashtiradi, chunki ular suhbatdoshning yana nimaga ishonch hosil qilishi kerakligini va umuman, masalaning mohiyati haqida nima deb o'ylashini tushunish imkoniyatini beradi .

Izohlarning quyidagi turlari mavjud:

- aytilmagan izohlar;
- noto'g'ri fikr yuritish;
- istehzoli gaplar;
- axborot olish maqsadidagi izohlar;
- o‘zini ko‘rsatish uchun izohlar;
- subektiv mulohazalar;
- xolis mulohazalar;
- qarshilik ko'rsatish maqsadidagi izohlar.

Bu kabilar suhbatdoshning ichki imkoniyatlarini to’rgi ochish hamda samarali muloqot va fikr yuritishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak harbiy rahbarlar uchun muloqot juda muhim ahamiyatga ega. Bu rahbarlardan muloqot davomida muloqotga kirishish va muloqotga kirishgan shaxsga e'tiborili bo‘lishni talab etadi. Chunki rahbarning muloqoti atrofdagilar, ularning ish faoliyati va ish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. D.A.Turaxanova. Boshqaruv psixologiyasi. Darslik. Toshkent. O‘R JXU. 2022 yil.
2. Maxmudov I.I. Boshqaruv psixologiyasi: O‘quv qo‘llanma. Mas’ul muxarrir: A.Xolbekov. - T.:DJKD “Rahbar” markazi, “YUNAKS-PRINT” MCHD, 2006.
3. Boymurodov N. Rahbar psixologiyasi. Oliy ta’lim, xalk ta’limi soglikni saklash, urta maxsus kasb-xunar ta’limi boshkdrmalarining ma’muriy xodimlari uchun kullanma,- T.: “Yangi asr avlodi”, 2007.

O‘QITUVCHILARNING GENDER KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR

Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi
ISFT instituti «Psixologiya va pedagogika»
kafedrasi o‘qituvchisi

Jabborova Shirina Mamasodikva
ISFT institutining 2-kurs talabasi
*el.pochta:*jabborovashirina@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘qituvchilarning gender kompetentligini rivojlantirishda pedagogik-psixologik yondashuvlar tahlil qilinadi. Gender kompetentlik tushunchasi, uning ta’lim jarayonidagi ahamiyati, shuningdek pedagogik va psixologik strategiyalar orqali o‘qituvchilar malakasini oshirishning samarali usullari ko‘rib chiqilgan. Pedagogik yondashuvlar sifatida differensial, faol, integratsiyalashgan va

refleksiv yondashuvlar ta’kidlangan, psixologik yondashuvlar esa stereotiplarga qarshi treninglar, hissiy-intellektni rivojlantirish va ijtimoiy psixologik mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ta’lim jarayonida gender tengligini mustahkamlash va o‘quvchilarning individual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *Gender kompetentlik, o‘qituvchi, pedagogik-psixologik yondashuvlar, ta’lim, stereotiplar, tenglik.*

DEVELOPING TEACHERS’ GENDER COMPETENCE THROUGH PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL APPROACHES

Annotation: This article analyzes pedagogical and psychological approaches to the development of gender competence of teachers. The concept of gender competence, its significance in the educational process, as well as effective methods of improving teachers' qualifications through pedagogical and psychological strategies are considered. Differential, active, integrated, and reflexive approaches are emphasized as pedagogical approaches, while psychological approaches include training against stereotypes, development of emotional intelligence, and socio-psychological training. It is also aimed at strengthening gender equality in the educational process and supporting the individual development of students.

Keywords: *gender competence, teacher, pedagogical-psychological approaches, education, stereotypes, equality.*

РАЗВИТИЕ ГЕНДЕРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ УЧИТЕЛЕЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ

Аннотация: В данной статье анализируются педагогико-психологические подходы к развитию гендерной компетентности учителей. Рассмотрены понятие гендерной компетентности, ее значение в образовательном процессе, а также эффективные методы повышения квалификации учителей посредством педагогических и психологических стратегий. В качестве педагогических подходов выделяются дифференцированный, активный, интегрированный и рефлексивный подходы, а психологические подходы включают тренинги против стереотипов,

развитие эмоционального интеллекта и социально-психологические занятия. Она также направлена на укрепление гендерного равенства в образовательном процессе и поддержку индивидуального развития учащихся.

Ключевые слова: *Гендерная компетентность, преподаватель, педагогико-психологические подходы, образование, стереотипы, равенство.*

O‘qituvchilarning gender kompetentligini rivojlantirish jarayonida bir qator pedagogik yondashuvlar samarali hisoblanadi. Differensial yondashuv - bu yondashuv har bir o‘quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari, qobiliyatlari va jinsiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini moslashtirishni nazarda tutadi. Masalan, dars materiallarini o‘quvchilarning qobiliyatlariga mos ravishda tanlash, guruh ishlarini tashkil etish va sinf ichidagi rollarni adolatli taqsimlash. Faol pedagogika - interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar, rol o‘yinlari va guruh muhokamalari orqali o‘quvchilarning gender masalalariga oid qarashlarini shakllantirish. Bu yondashuv o‘quvchilarni faollashtiradi va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Integratsiyalashgan yondashuv - gender mavzularini fanlararo tarzda o‘quv dasturiga kiritish. Masalan, tarixda ayollarning jamiyatdagi rolini, adabiyotda ijtimoiy stereotiplarni, ijtimoiy fanlarda esa gender tenglikka oid statistik ma’lumotlarni o‘rganish. Refleksiv yondashuv - o‘qituvchilarning o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, o‘z stereotip va noto‘g‘ri qarashlarini aniqlash va tuzatishga qaratilgan yondashuv. Bu o‘qituvchiga o‘z pedagogik uslublarini doimiy ravishda takomillashtirish imkonini beradi[4]. Pedagogik yondashuvlarni to‘ldiruvchi psixologik yondashuvlar ham muhim ahamiyatga ega. Ular o‘qituvchilarga o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish, o‘quvchilarning psixologik holatini tushunish va samarali muloqot o‘rnatish imkonini beradi. Hissiy-intellektni rivojlantirish - o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan munosabatda empatiya ko‘rsatish qobiliyatini oshiradi, shuningdek, stressli vaziyatlarda xotirjamlikni saqlashga yordam beradi. Stereotiplarga qarshi psixologik treninglar - gender stereotiplarini aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha maxsus mashg‘ulotlar. Masalan, o‘qituvchilar guruhida stereotiplarga oid vaziyatlarni muhokama qilish, rolli o‘yinlar orqali noto‘g‘ri qarashlarni aniqlash. Motivatsion yondashuv - o‘qituvchilarning gender

kompetentligini oshirishga bo‘lgan motivatsiyasini uyg‘otadi. Bu yondashuv orqali o‘qituvchilar o‘z kasbiy rivojlanishlariga qiziqish uyg‘otadi va faol o‘rganishga intiladi.

O‘qituvchilarning gender kompetentligini rivojlantirishda quyidagi chora-tadbirlar tavsiya etiladi: Ta’lim dasturlarida gender mavzularini integratsiyalash va dars materiallariga kiritish. Kasbiy rivojlanish kurslari va seminarlar orqali gender psixologiyasi bo‘yicha bilimlarni oshirish. Refleksiv mashg‘ulotlar va muammoli vaziyatlar orqali o‘qituvchilarni o‘z stereotiplarini aniqlashga o‘rgatish. Sinf ichida gender tengligini qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratish. Pedagogik faoliyatda bolalarning individual qobiliyat va ehtiyojlarini hisobga olish [8]. O‘qituvchilarning gender kompetentligini shakllantirishda pedagogik yondashuvlar doimiy ilmiy tadqiqotlarga tayangan bo‘lishi kerak. Masalan, o‘quvchilarning individual rivojlanish xususiyatlarini baholashda psixometriya va diagnostika metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Bu orqali o‘qituvchi: O‘quvchilarning o‘ziga xos qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlaydi; Darsda jinsiy stereotiplarga asoslangan noto‘g‘ri qarashlarni aniqlaydi va tuzatadi; Sinf ichidagi o‘zaro ta’sir va ijtimoiy munosabatlarni optimallashtiradi.

O‘qituvchilarning gender kompetentligini rivojlantirishda interaktiv metodlar muhim rol o‘ynaydi. Bu metodlarga quyidagilar kiradi: Rol o‘yinlari: o‘qituvchi va o‘quvchilar turli ijtimoiy va gender vaziyatlarini rolli o‘yin orqali boshdan kechiradilar, bu stereotiplarni aniqlash va ularni bartaraf etishga yordam beradi. Muammoli mashg‘ulotlar: o‘quvchilarga gender tengligi bilan bog‘liq muammolarni tahlil qilish va yechim topishga imkon beradigan vazifalar beriladi. Fanlararo integratsiya: masalan, tarix darslarida ayollar va erkaklarning jamiyatdagi roli, biologiya darslarida jinsiy rivojlanish xususiyatlari, adabiyot darslarida esa gender stereotiplari va ijtimoiy qadriyatlar ko‘rib chiqiladi [11]. Pedagogik yondashuvlarni to‘ldiruvchi psixologik yondashuvlar o‘qituvchilarning professional rivojlanishida muhim ahamiyatga ega: Emotsional barqarorlik va stressni boshqarish treninglari: o‘qituvchilar dars jarayonida yuzaga keladigan stressli vaziyatlarda o‘z hissiy barqarorligini saqlashni o‘rganadi, bu esa gender masalalarini murosasiz va xolis qarash bilan hal qilishga yordam beradi. Stereotiplarga qarshi psixologik mashg‘ulotlar: o‘qituvchilar o‘z qarashlaridagi gender stereotiplarini aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha maxsus treninglarda qatnashadi.

Ijtimoiy kommunikatsiya va konfliktlarni hal qilish: gender asosidagi nizolar va tushunmovchiliklarni sinf ichida samarali hal etish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

O‘qituvchilarda refleksiv yondashuv ularning o‘z pedagogik faoliyatini doimiy tahlil qilish va takomillashtirishga qodir bo‘lishini ta’minlaydi. Shu orqali: O‘qituvchi o‘z xatti-harakatlarida gender stereotiplardan xoli bo‘lishini kuzatadi; Dars strategiyalarini o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtiradi; O‘quvchilarning hissiy va ijtimoiy rivojlanishining samarali usullarini aniqlaydi. Metakognitiv yondashuvlar esa o‘qituvchining o‘zi va o‘quvchilar fikrlash jarayonini tahlil qilishga imkon beradi, shunda ular gender masalalarini yanada chuqurroq tushunadi va stereotiplardan xoli qarorlar qabul qiladi.

Zamonaviy ta’limda o‘qituvchilarning gender kompetentligini oshirishda texnologiyalardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega: Onlayn kurslar va vebinarlar: gender psixologiyasi, stereotiplardan xoli pedagogik yondashuvlar bo‘yicha malaka oshirish. Simulyatsion va virtual mashg‘ulotlar: o‘qituvchilar turli gender vaziyatlarini simulyatsiya orqali boshdan kechiradilar, bu esa ularning tajribasini kengaytiradi. O‘qituvchilar o‘z faoliyatini va dars jarayonidagi gender masalalarini kuzatib, tahlil qilishi mumkin bo‘lgan platformalar. O‘qituvchilarning gender kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi strategiyalar samarali: Ta’lim dasturini gender nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqish va gender tengligini ta’minlaydigan mavzularni kiritish. Pedagogik faoliyatni rejalashtirishda har bir o‘quvchining individual qobiliyatini hisobga olish. O‘qituvchilar uchun refleksiv va ijtimoiy psixologik treninglarni muntazam tashkil etish. Innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlardan keng foydalanish. O‘qituvchilarning gender masalalarida doimiy o‘z-o‘zini rivojlantirishini rag‘batlantirish, seminarlar va ilmiy tadqiqotlarda ishtirokini ta’minlash [5].

Transformatsion pedagogika yondashuvi o‘qituvchining shaxsiy va professional o‘sishini ta’minlaydi. Bu yondashuvda o‘qituvchi: o‘z qarashlarini tahlil qiladi, stereotip va genderga oid old qabul qilingan fikrlarni aniqlaydi, o‘quvchilarning hissiy, ijtimoiy va kognitiv ehtiyojlarini hisobga oladi Transformatsion pedagogika orqali o‘qituvchi o‘zining kasbiy identifikatsiyasini va shaxsiy qadriyatlarini yanada moslashtiradi, bu esa

gender tengligini ilgari surishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar raqamli texnologiyalarni qo‘llash bilan boyitilgan. Masalan: Onlayn treninglar va interaktiv modullar orqali o‘qituvchilar gender psixologiyasi, stereotiplarga qarshi strategiyalar va inkluziv ta’lim metodikalarini o‘rganadi. Virtual simulyatsiyalar yordamida o‘qituvchilar turli gender vaziyatlarini boshdan kechiradi va real hayotdagi qarorlarni qabul qilish tajribasini oladi. Digital refleksiv platformalar o‘qituvchilarga o‘z pedagogik jarayonlarini monitoring qilish va gender masalalariga oid statistikani tahlil qilish imkonini beradi.

O‘qituvchilar uchun ijtimoiy va emotsional kompetentlikni rivojlantirish gender kompetentlikning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu yondashuv quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: Empatiya va hissiy intellektni rivojlantirish: o‘qituvchilar o‘quvchilarning hissiy holatini tushunish va ularga mos pedagogik strategiyalarni tanlash qobiliyatini rivojlantiradi. Stressni boshqarish va konfliktlarni hal qilish: gender bo‘yicha yuzaga keladigan nizolarni sinfda samarali hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Ijtimoiy mas’uliyatni oshirish: o‘qituvchilar gender adolatini targ‘ib qilish orqali sinfda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi. Ilg‘or pedagogik amaliyotlar o‘qituvchilarni gender kompetentlikni rivojlantirishda mentorlik tizimini tatbiq etishni tavsiya qiladi. Mentorlik jarayonida: yangi o‘qituvchilar tajribali mutaxassislar bilan birga ishlaydi, gender masalalarida real vaziyatlarda yechim topishni o‘rganadi, refleksiv tahlil va konstruktiv fikr almashish orqali o‘z pedagogik strategiyasini yaxshilaydi.[3]

O‘qituvchilar gender kompetentligini rivojlantirishda faqat individual yondashuv bilan cheklanmay, kollektiv va professional hamkorlik orqali ham samarali natijaga erishadi. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Pedagogik jamoalar va ishchi guruhlar orqali gender masalalarini muhokama qilish, Stereotiplarga qarshi innovatsion metodlarni sinf va maktab darajasida qo‘llash, Ta’lim muassasalarida gender tengligi bo‘yicha strategik rejalarni ishlab chiqish. Ta’lim dasturlarida gender masalalarini ilmiy asosda integratsiyalash va darslar davomida muntazam muhokama qilish. O‘qituvchilarning gender bo‘yicha doimiy kasbiy rivojlanishini rag‘batlantirish: kurslar, treninglar, vebinarlar va seminarlar orqali. Sinf ichidagi ijtimoiy muhitni gender adolatini ta’minlashga moslashtirish: guruhlar, rollar va o‘quv faoliyati tenglik tamoyiliga muvofiq

tashkil etilishi. Pedagogik refleksiya va metakognitiv mashg‘ulotlar orqali o‘qituvchilarning o‘z faoliyatini tahlil qilishini ta’minlash. Innovatsion texnologiyalar, virtual simulyatsiyalar va interaktiv platformalar yordamida gender kompetentlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash [8]. Kritik pedagogika o‘qituvchilarga jamiyatdagi gender tengsizligini tanqidiy tahlil qilish, stereotip va diskriminatsiyani aniqlash va bartaraf etishga imkon beradi. Bu yondashuv o‘qituvchining faqat o‘quv jarayonida emas, balki ijtimoiy kontekstda ham gender masalalariga faol aralashishini ta’minlaydi.

Inkluziv pedagogika har bir o‘quvchining individual xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga oladi, shu jumladan gender bo‘yicha ham. O‘qituvchilar: o‘quvchilarning jinsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda darslarni rejalashtiradi, o‘quv muhitida diskriminatsiya va stereotiplardan xoli sharoit yaratadi, hamma o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlar ta’minlaydi. O‘qituvchilarni gender kompetentligini rivojlantirishda multikultural pedagogika ham muhim. Bu yondashuv: turli ijtimoiy va madaniy guruhlarning gender stereotiplari bilan ishlashga imkon beradi, o‘quvchilarda empatiya va ijtimoiy xabardorlikni rivojlantiradi, gender va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushunishga yordam beradi. O‘qituvchilarni gender kompetentlik bo‘yicha tayyorlashda shaxsiy o‘sish va o‘z-o‘zini rivojlantirish yondashuvi samarali. Bu yondashuv: o‘qituvchilarga o‘z qadriyatlari va stereotiplarini aniqlash imkonini beradi, o‘z qarashlarini tahlil qilish va yaxshilashga rag‘batlantiradi, professional va shaxsiy o‘sish jarayonini uyg‘unlashtiradi [1].

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

12. UNESCO. Gender Equality and Education. Paris: UNESCO Publishing, 2020.

13. Sadker, M., & Sadker, D. Failing at Fairness: How Our Schools Cheat Girls. New York: Scribner, 1994.

14. Leaper, C., & Friedman, C. K. Социализация гендера // B: Grusec, J. E., & Hastings, P. D. (ред.), Handbook of Socialization: Theory and Research, стр. 561–587. New York: Guilford Press, 2007.

15. OECD. The ABC of Gender Equality in Education: Aptitude, Behaviour, Confidence. Paris: OECD Publishing, 2015.

16. Eagly, A. H., & Wood, W. Теория социальных ролей // В: Van Lange, P. A. M., Kruglanski, A. W., & Higgins, E. T. (ред.), Handbook of Theories of Social Psychology, т.2, стр. 458–476. London: Sage, 2012.

17. Tannen, D. You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation. New York: Ballantine Books, 1990.

18. LeVine, R. A., & LeVine, S. E. Гендерная социализация в образовательной среде. Cambridge: Cambridge University Press, 2004.[7]

19. UNESCO. Cracking the Code: Girls' and Women's Education in STEM. Paris: UNESCO Publishing, 2016.

20. Bampton, R., & Maclagan, P. "Does a care orientation explain gender differences in ethical decision making? A critical analysis and fresh findings", Business Ethics: A European Review, Vol.18 No.2, стр. 179–191, 2009.[9]

21. Conroy, S., & Emerson, T. "Business ethics and religion: Religiosity as a predictor of ethical awareness among students", Journal of Business Ethics, Vol.50, стр. 383–396, 2004.

22. Beaman, L., Duflo, E., Pande, R., & Topalova, P. "Female Leadership Raises Aspirations and Educational Attainment for Girls: A Policy Experiment in India", Science, Vol.335, стр. 582–586, 2012.

HARBIY PSIXOLOGIYANI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI: MUAMMO VA YECHIMLARI

Nahalboyeva Nigora

nigora3177074@icloud.com

Parvina Baxronova

JDPU

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy psixologiyaning bugungi kundagi dolzarb muammolari, harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini ta’minlashdagi mavjud kamchiliklar, shuningdek, harbiy psixologiya tizimini takomillashtirish bo‘yicha amaliy yechimlar tahlil qilinadi. Maqolada stress, travma, jangovar tayyorgarlik, psixologik saralash, xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash hamda harbiy psixologning kasbiy kompetensiyalari masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy psixologiya, stress, psixologik barqarorlik, psixologik saralash, psixoprofilaktika, travma, psixologik xizmat.

Bugungi globallashuv sharoitida harbiy va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining psixologik barqarorligi, davlat xavfsizligi, jamoat tartibi va jamiyat tinchligining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Harbiy xizmat faoliyati shaxsdan yuqori mas’uliyat, kuchli irodaviy tayyorgarlik, tezkor qaror qabul qilish, stressga chidamlilik hamda emotsional barqarorlikni talab etadi. Harbiy xizmatchilar doimiy ravishda xavf, zo‘riqish, jismoniy va ruhiy yuklama, turli ziddiyatli vaziyatlar, xizmat intizomi va ijtimoiy cheklovlar sharoitida faoliyat yuritadi. Shuning uchun harbiy psixologiya nafaqat nazariy yo‘nalish, balki amaliy jihatdan ham dolzarb soha hisoblanadi.

Harbiy psixologiyani rivojlantirishdagi muammolarni aniqlash hamda amaliy yechimlar taklif etishdan iborat. Harbiy psixologiya — harbiy xizmat jarayonida shaxs psixikasida yuz beradigan holatlar, psixologik omillar, xizmatdagi stress va zo‘riqish, jangovar tayyorgarlik, intizom, jamoa psixologiyasi, rahbar-xodim munosabatlari kabi masalalarni o‘rganadigan fan hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida harbiy psixologiya yo‘nalishi rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash bo‘yicha kafedralar, psixologik xizmat bo‘linmalari hamda

psixolog mutaxassislar tayyorlash tizimi kengaymoqda. Ammo shunga qaramay, harbiy psixologiyaning rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan bir qator muammolar mavjud.

Kadrlar yetishmovchiligi — bu nafaqat mutaxassislar sonining kamligi, balki ularning kasbiy tayyorgarligi va amaliy kompetensiyasining ham yetarli darajada emasligi bilan bog‘liq murakkab muammo hisoblanadi.

Harbiy psixologlar soni ko‘plab tuzilmalarda yetarli emas. Ba’zan psixolog lavozimida faoliyat yuritayotgan xodimlar boshqa vazifalar bilan ham band bo‘lib, psixologik ishlar ikkinchi darajaga tushib qoladi.

Amaliy metodikalar yetishmasligi : Ko‘plab holatlarda harbiy psixologik xizmatda: zamonaviy diagnostik testlar, psixoprofilaktik treninglar, stressni boshqarish dasturlari, travma bilan ishlash protokollari yetarli darajada tizimlashtirilmagan bo‘ladi.

Psixologik yordamga nisbatan stereotiplar: Harbiy xizmatchilar orasida “psixologga borish — zaiflik belgisi” degan noto‘g‘ri tushuncha mavjud. Bu esa muammolarni yashirish, emotsional portlashlar, konfliktlar, xizmat intizomi buzilishi va motivatsiyaning pasayishiga olib keladi.

Stress va professional kuyish (burnout). Harbiy xizmatchilar orasida: uzoq muddatli stress, uyqu buzilishi, xavotir, tajovuzkorlik, depressiv holatlar, professional kuyish sindromi kabi holatlar ko‘paymoqda.

Psixologik saralashning to‘liq yo‘lga qo‘yilmaganligi :Harbiy xizmatga qabul jarayonida shaxsning: stressga chidamliligi, tajovuzkorlik darajasi, emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi, xavfli xatti-harakatga moyilligi chuqur baholanmasligi , keyinchalik xizmat jarayonida muammolarni keltirib chiqaradi.

Harbiy psixologiyani rivojlantirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim: Harbiy psixologlarni tayyorlash tizimini kuchaytirish — harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligini ta’minlash, xizmat samaradorligini oshirish va professional xavflarni kamaytirishning muhim omilidir. Tizimli va zamonaviy yondashuv harbiy psixologik xizmat sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.

Harbiy psixologiya bo‘yicha maxsus magistratura yo‘nalishlarini ko‘paytirish — bu nafaqat ta’lim tizimini rivojlantirish, balki milliy xavfsizlikni mustahkamlashga xizmat

qiluvchi muhim omildir. Yuqori malakali harbiy psixologlar tayyorlash orqali xizmat samaradorligi va jamoaviy barqarorlikni ta’minlash mumkin.

Amaliyotga yo‘naltirilgan kurslar va stajirovkalar tashkil etish — harbiy psixologlarni nazariy bilim bilan cheklanib qolmasdan, real xizmat sharoitida samarali ishlay oladigan mutaxassis sifatida shakllantirishga qaratilgan muhim yo‘nalishdir. Harbiy psixolog faoliyati ekstremal, stressli va mas’uliyatli vaziyatlarda kechishini inobatga olsak, amaliy tayyorgarlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Psixologlar uchun malaka oshirish tizimini joriy etish — bu harbiy psixologlarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini muntazam ravishda yangilab borish, zamonaviy ilmiy yondashuvlar hamda innovatsion metodikalarni amaliyotga tatbiq etish jarayonidir. Harbiy xizmat sharoitining o‘zgaruvchan va murakkabligi mutaxassislardan doimiy ravishda professional rivojlanishni talab qiladi.

Psixologik xizmatda: raqamli diagnostika platformalari, anonim so‘rovnomalar, onlayn maslahat tizimlari, mobil psixologik yordam guruhlari kabi zamonaviy yondashuvlar yo‘lga qo‘yilishi kerak. Harbiy xizmatchilar uchun muntazam ravishda: stressni boshqarish treninglari, konfliktologiya mashg‘ulotlari, emotsional intellektni rivojlantirish, kommunikativ kompetensiya treninglari, jamoaviy birdamlik mashg‘ulotlari o‘tkazilishi zarur.

PTSD va travma bilan ishlash tizimini yaratish. Xizmat davomida og‘ir holatlarga duch kelgan xodimlar bilan: travmadan keyingi stress buzilishi (PTSD), o‘tkir stress reaksiyasi, yo‘qotish sindromi bo‘yicha professional yordam protokollari ishlab chiqilishi lozim.

Rahbarlarning psixologik savodxonligini oshirish. Rahbarlar psixologik bilimga ega bo‘lsa: jamoa ichidagi konfliktlar kamayadi, motivatsiya oshadi, xizmat intizomi mustahkamlanadi, xodimning ruhiy holati nazorat qilinadi.

Harbiy psixologiyani rivojlantirish bugungi kunda dolzarb vazifa hisoblanadi. Harbiy xizmatning murakkab sharoitlari, stress omillari, professional kuyish holatlari va psixologik muammolar harbiy psixologik xizmatni kuchaytirishni talab qiladi. Maqolada ko‘rsatilgan muammolar — kadrlar yetishmovchiligi, metodik bazaning sustligi, stereotiplar, psixologik saralashdagi kamchiliklar va stress bilan ishlashning

tizimlashmaganligi — harbiy psixologiyani rivojlantirishda asosiy to‘siqlar sifatida baholandi. Taklif etilgan yechimlar esa harbiy psixologik xizmat samaradorligini oshirish, harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligini ta’minlash va xizmat sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bandura, A. (1997). Self-Efficacy: The Exercise of Control. New York: Freeman.

2 . Leontyev, A.N. (1975). Deyatelnost. Soznaniye. Lichnost. Moskva: Politizdat.

3. Rubinshteyn, S.L. (1957). Osnovy obshchey psixologii. Moskva: Pedagogika.

4. Vygotskiy, L.S. (1982). Sobranie sochineniy (6 tomlik). Moskva: Pedagogika.

5. Klimov, E.A. (1996). Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya. Moskva.

6. Maslach, C., & Jackson, S.E. (1981). The measurement of experienced burnout. Journal of Occupational Behavior, 2(2), 99–113.

7. Freud, S. (1915). Introductory Lectures on Psychoanalysis. London.

8. Rogers, C. (1961). On Becoming a Person. Boston: Houghton Mifflin.

9. Frankl, V.E. (1946). Man’s Search for Meaning. Vienna.

OTA-ONA MUNOSABATIDA GENDER TENGLIK VA ULARNING BOLALAR TARBIYASIGA PSIXOLOGIK TA’SIRI

Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi
ISFT instituti «Psixologiya va pedagogika»
kafedrasi o‘qituvchisi

Rixsiboyeva Robiya Qadriddin qizi
ISFT institutining 2-kurs talabasi
el.pochta: Robiya@icloud.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada oilada ota va ona o‘rtasidagi gender tenglik masalasi, ularning farzand tarbiyasidagi o‘rni va bu jarayonning bolalar psixologik rivojlanishiga ta’siri o‘rganilgan. Gender tenglikning bolalarda ijtimoiy moslashuv, o‘ziga ishonch, mas’uliyat, mustaqil fikrlash, empatiya va hissiy barqarorlik kabi sifatlarni shakllantirishdagi ahamiyati hamda, ota va ona o‘rtasidagi teng huquqli munosabatlar oilaviy muhitni ijobiy tomonga o‘zgartirish, bolaning shaxsiy rivojlanishini rag‘batlantirish va ijtimoiy rollarni to‘g‘ri qabul qilishiga yordam berishi lozim. Ota-ona munosabatidagi gender tenglik yetishmasligi natijasida yuzaga keladigan psixologik va ijtimoiy salbiy oqibatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Gender tenglik, ota-ona munosabati, bola tarbiyasi, psixologik ta’sir, oilaviy muhit, stereotiplar, ijtimoiy rivojlanish, stressga chidamlilik.

PARENT-CHILD RELATIONSHIP: GENDER EQUALITY AND ITS PSYCHOLOGICAL IMPACT ON CHILD REARING

Annotation: This article examines the issue of gender equality between fathers and mothers within the family, their roles in child upbringing, and the impact of this process on children’s psychological development. It analyzes the importance of gender equality in shaping such qualities in children as social adaptation, self-confidence, responsibility, independent thinking, empathy, and emotional stability. It also emphasizes that equal and respectful relationships between parents contribute to positive changes in the family environment, stimulate the child’s personal development, and help children properly

understand and accept social roles. Furthermore, the article analyzes the psychological and social negative consequences that arise as a result of a lack of gender equality in parental relationships.

Keywords: *Gender equality, parental relationships, child upbringing, psychological impact, family environment, stereotypes, social development, and stress resilience.*

РОДИТЕЛЬСКИЕ ОТНОШЕНИЯ: ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО И ЕГО ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ НА ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос гендерного равенства между отцом и матерью в семье, их роль в воспитании детей и влияние данного процесса на психологическое развитие ребёнка. Анализируется значение гендерного равенства в формировании у детей таких качеств, как социальная адаптация, уверенность в себе, ответственность, самостоятельное мышление, эмпатия и эмоциональная устойчивость. Также подчёркивается, что равноправные отношения между отцом и матерью способствуют позитивным изменениям в семейной среде, стимулируют личностное развитие ребёнка и помогают ему правильно воспринимать социальные роли. Анализируются психологические и социальные негативные последствия, возникающие в результате недостатка гендерного равенства в отношениях между родителями.

Ключевые слова: *Гендерное равенство, взаимоотношения родителей, воспитание детей, психологическое воздействие, семейная среда, стереотипы, социальное развитие, стрессоустойчивость.*

Oila - insonning ilk va eng muhim ijtimoiy makoni hisoblanadi. Oiladagi munosabatlar farzandning shaxsiy, ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli ota va ona o‘rtasidagi munosabatlar sifati bolalarning kelajakdagi hayotini shakllantirishda markaziy ahamiyatga ega. Zamonaviy jamiyatda gender tenglik tushunchasi nafaqat ijtimoiy hayotda, balki oilaviy munosabatlarda ham katta ahamiyat kasb etadi. Gender tenglik deganda ota va onaning huquqlari, majburiyatlari va mas’uliyatlari teng taqsimlangan, qaror qabul qilish jarayonida va farzand tarbiyasida faol ishtirok etishi tushuniladi. Ota va ona o‘rtasida tenglik ta’minlangan oilalarda

tarbiyalangan bolalar o‘zining psixologik va ijtimoiy ko‘nikmalarini yaxshiroq rivojlantiradi, stress va tashvishga chidamliligi yuqori bo‘ladi va ijtimoiy rollarni to‘g‘ri qabul qilishga o‘rganadi. Shu bilan birga, gender tenglik yetishmasligi bolaning ruhiy holatiga, o‘zini baholashiga va ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [11].

Gender tenglik oilaning barqarorligi va bolaning sog‘lom psixologik rivojlanishi uchun zarur. *U quyidagi jihatlar bilan namoyon bo‘ladi:* Uy ishlari va farzand tarbiyasida tenglik: Ota va ona uy ishlarini va farzand tarbiyasini birgalikda taqsimlaydi. Masalan, bola bilan o‘ynash, ularni maktabga tayyorlash, uy vazifalarini nazorat qilish ham ota, ham ona tomonidan amalga oshiriladi. Bu bola uchun mas’uliyatni adolatli qabul qilish va hamkorlikni o‘rganish imkonini beradi. Qaror qabul qilishdagi tenglik: Oilada muhim qarorlar (masalan, ta’lim, sog‘liq, turmush tarzi) ota va ona hamkorligida qabul qilinadi. Bu bola uchun jamiyatdagi qarorlar qabul qilish jarayonini kuzatib, o‘zining mustaqil fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. Stereotiplardan xoli tarbiya: Bolalar o‘z oilasida erkak va ayolning teng huquqli ekanini ko‘rib ulg‘ayadi. Shu sababli ular jamiyatda noto‘g‘ri gender stereotiplari shakllanishidan saqlanadi va turli vaziyatlarda ham erkak yoki ayolning rolini to‘g‘ri baholashga o‘rganadi. Ota-onaning psixologik barqarorligi: Tenglik asosida o‘rnatilgan munosabatlar ota va ona o‘rtasidagi nizolarni kamaytiradi, oilaviy muhitni ijobiy qiladi. Natijada bola o‘zini xavfsiz his qiladi, stress va tashvish darajasi pasayadi [2].

Ota va ona teng huquqli munosabatini ko‘rgan bola o‘z fikrini erkin bildirishga, qaror qabul qilishda faol bo‘lishga o‘rganadi. Bu uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga tayyorlaydi. Tenglik muhitida tarbiyalangan bolalar jamiyatga tez moslashadi, boshqalar bilan hurmatli va samarali muloqot qiladi. Ular guruh ishlarida faol, tengdoshlariga nisbatan hamdard va yordamkor bo‘ladi. Ota-onaning teng munosabati bolaga his-tuyg‘ularni anglash, boshqalarni tushunish va hissiy barqarorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Bola oilada xavfsiz muhitni his qilganda, tashqi muhitdagi stress va tashvishga nisbatan chidamli bo‘ladi. Bolalar oiladagi tenglikni ko‘rib ulg‘ayganda, adolat va mas’uliyat hissini o‘zlarida rivojlantiradi. Ular o‘z harakatlarining natijasi uchun javobgarlikni his qiladi va atrofdagilarni hurmat qiladi [4].

Bolada noto‘g‘ri gender stereotiplari shakllanishi: O‘z imkoniyatlariga nisbatan ishonchsizlik; o‘zini past baholash; ijtimoiy ko‘nikmalar va mustaqil fikrlash qobiliyatining sust rivojlanishi; oiladagi nizolar bolaning hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi; stress va xavotir darajasining oshishi; ijtimoiy muhitda qiyinchiliklarga duch kelish; farzand tarbiyasida ota va ona teng ishtirok etsin; bolaga erkak va ayolning jamiyatdagi o‘rni teng ekanini amaliy misollar orqali ko‘rsating; oilada ochiq muloqot va hurmat muhitini yarating; bolaning fikrini tinglang va qadrlang; uy ishlarini va tarbiyaviy mas’uliyatlarni adolatli taqsimlang; bolani qaror qabul qilishga va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga rag‘batlantiring. So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ota-ona o‘rtasida tenglik muhitida tarbiyalangan bolalar ko‘proq: mustaqil fikrlashga o‘rganadi; jamiyatdagi turli vaziyatlarga moslashuvchan bo‘ladi; Ijtimoiy rollarni adolatli qabul qiladi; o‘z huquqlarini hurmat qiladi va boshqalar huquqlarini ham qadrlaydi. *Masalan,* Yaponiya va Koreyada olib borilgan tadqiqotlarda ota-onalar uy ishlarida va farzand tarbiyasida teng ishtirok qilgan oilalardagi bolalar maktabdagi ijtimoiy ko‘nikmalari va o‘z-o‘zini baholash darajasi yuqori ekani aniqlangan.

Ota-onalar o‘rtasidagi teng huquqli munosabatlar bolada quyidagi psixologik ko‘nikmalarni rivojlantiradi: *Empatiya:* Bola boshqalarning his-tuyg‘ularini anglashni o‘rganadi. *Stressga chidamlilik:* Tenglik muhitida bolalar xavfsiz muhitni his qiladi va tashqi stress omillariga nisbatan chidamliligi oshadi. *Mas’uliyat hissi:* Bolalar harakatlarining natijasini anglab, mas’uliyatli bo‘lishni o‘rganadi. Shuningdek, ota-onaning o‘zaro hurmati bolaga o‘zining shaxsiy chegaralarini belgilash va boshqalarning huquqlarini hurmat qilishni o‘rgatadi [1].

Gender tenglik va qiz va o‘g‘il bolalarning tarbiyasi: Qizlar: Tenglik muhitida tarbiyalangan qizlar o‘zining ijtimoiy va kasbiy imkoniyatlariga ishonadi, shaxsiy maqsadlariga erishish uchun faol harakat qiladi. O‘g‘il bolalar: Tenglik muhitida tarbiyalangan o‘g‘il bolalar emotsional jihatdan mustahkam, boshqalar bilan munosabatlarda sezgir va hurmatli bo‘ladi. Bu, oiladagi tenglikning bolaning kelajakdagi ijtimoiy va kasbiy muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatadi. Ota-ona o‘rtasidagi tenglik oilaviy psixologik muhitni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Tenglik

mavjud bo‘lgan oilalarda: Bolalar o‘z fikrini erkin ifodalashga o‘rganadi; Har bir oilaviy qaror ota va ona hamkorligida qabul qilinadi, bu esa bolaga muhim qarorlar qabul qilish jarayonini kuzatish imkonini beradi; Oiladagi nizolar va kelishmovchiliklar kamayadi, natijada bola o‘zini xavfsiz his qiladi. Shu bilan birga, oiladagi tenglik bolalarda ijtimoiy adolat hissi, mas’uliyat, va hissiy barqarorlikni mustahkamlashga yordam beradi. Bola tenglik muhitida o‘sib ulg‘ayganda, u jamiyatdagi turli rollarni to‘g‘ri qabul qilishga o‘rganadi va o‘ziga nisbatan hurmatini oshiradi [5].

Farzandning hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta’siri; Ota-ona o‘rtasida tenglik mavjud bo‘lgan oilalarda tarbiyalangan bolalar: empatiya qobiliyatini rivojlantiradi; u boshqalarning his-tuyg‘ularini anglashga va ularga yordam berishga o‘rganadi; ijtimoiy moslashuvchanlikka ega bo‘ladi; bolalar yangi ijtimoiy muhitga tez moslashadi; guruh ishlarida faol va hamkor bo‘ladi; bolalar o‘zining qobiliyatlarini qadrlashni o‘rganadi va kelajakdagi muvaffaqiyatlarga ishonadi; stressga chidamlilikni oshiradi; oilada xavfsiz va hurmatli muhit bolaga tashqi muhitdagi stressga qarshi chidamlilik beradi. Shu sababli ota-ona o‘rtasidagi tenglik bolaning ijtimoiy, hissiy va ruhiy jihatdan sog‘lom rivojlanishini ta’minlaydi. Tenglik muhitida tarbiyalangan bolalarda jinsiy stereotiplarning salbiy ta’siri kamayadi. Bu quyidagicha namoyon bo‘ladi: *Qizlar:* o‘zining qobiliyatiga ishonadi, o‘qish va kasb tanlashda faol bo‘ladi, mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rganadi. *O‘g‘il bolalar:* emotsional jihatdan mustahkam, boshqalar bilan hurmatli muloqot qilishga o‘rgangan, hissiy jihatdan sezgir bo‘ladi. Bu bolalarning kelajakdagi ijtimoiy va kasbiy muvaffaqiyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [10].

Ota va ona farzand bilan muloqotda tenglik tamoyiliga amal qilsa, ular quyidagilarga e’tibor beradi: bolaning fikrini tinglash va qadrlash; qaror qabul qilishda bolaning fikrini inobatga olish; xatolarni tanqid qilish emas, ularni o‘rganish va to‘g‘rilash imkonini berish; bunday muloqot bolaning o‘zini qadrlashini oshiradi va ichki motivatsiyasini kuchaytiradi; ota va ona tarbiya jarayonida bir-birini to‘ldiruvchi rol o‘ynashi; bolaga qaror qabul qilish va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish imkoniyatini berish; oilaviy rollarni adolatli taqsimlash orqali stereotiplarning oldini olish; bolaga ijtimoiy rollar, jamiyatdagi tenglik va huquqlar haqida amaliy misollar berish; ota-onaning o‘zaro hurmati va hamkorligi orqali bolada sog‘lom hissiy muhit yaratish [3].

Farzandning hissiy va ijtimoiy rivojlanishi, eng avvalo, oiladagi munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ota-ona o‘rtasidagi gender tenglik bu jarayonda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Oilada ota va ona bir-birini hurmat qilgan, teng huquqli va hamkorlikka asoslangan munosabatda bo‘lsa, bola bu muhitni xavfsiz va barqaror deb qabul qiladi. Natijada, farzand o‘z his-tuyg‘ularini erkin ifodalashga, quvonch, xafa bo‘lish, qo‘rquv yoki tashvish kabi emotsiyalarni yashirmasdan ayta olishga o‘rganadi. Bu holat bolaning ichki hissiy dunyosini sog‘lom shakllantirishga xizmat qiladi [8].

Xulosa qilib aytganda, hissiy rivojlanish bilan bir qatorda, ijtimoiy rivojlanish ham oiladagi gender tenglikka bevosita bog‘liqdir. Ota va ona farzand bilan teng va adolatli munosabatda bo‘lsa, bola o‘zini oilaning muhim a’zosi sifatida his qiladi. Bu esa unda ijtimoiy faollik, muloqotga ochiqlik va jamiyatda o‘z o‘rnini topishga intilish kabi sifatlarni shakllantiradi. Bola oilada o‘z fikri tinglanishini va qadrlanishini ko‘rgan sari, u maktabda, do‘stlar davrasida va boshqa ijtimoiy muhitlarda ham o‘z fikrini erkin bildirishga jur’at topadi. Gender tenglik asosidagi oilalarda tarbiyalangan bolalar boshqalar bilan munosabat o‘rnatishda murosaga kelishni, kelishuv asosida muammo hal qilishni va qarama-qarshi fikrlarga nisbatan bag‘rikeng bo‘lishni o‘rganadi. Chunki ular ota-onaning kundalik hayotda mas’uliyatni teng bo‘lishishi, bir-birini tushunishi va kelishmovchiliklarni zo‘ravonliksiz hal qilishini kuzatib ulg‘ayadi. Bu esa bolada sog‘lom ijtimoiy xulq-atvorning shakllanishiga olib keladi.

Shuningdek, ota-ona o‘rtasidagi gender tenglik bolaning empatiya qobiliyatini rivojlantiradi. Bola nafaqat o‘z his-tuyg‘ularini, balki atrofdagilarning hissiy holatini ham anglay boshlaydi. Bunday bolalar boshqalarga yordam berishga moyil, jamoada ishlashga qiziqqan va ijtimoiy mas’uliyatni his qiladigan shaxs sifatida shakllanadi. Empatiya esa kelajakda sog‘lom ijtimoiy munosabatlar qurish, do‘stlik va oilaviy aloqalarni mustahkamlash uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Aksincha, oilada gender tenglik mavjud bo‘lmagan muhitda ulg‘aygan bolalarda hissiy beqarorlik, o‘ziga ishonchsizlik va ijtimoiy chekinish holatlari kuzatilishi mumkin. Bunday bolalar ko‘pincha o‘z his-tuyg‘ularini bostirishga majbur bo‘ladi, muloqotdan qochadi yoki tajovuzkor xulq-atvorni namoyon etadi. Shu sababli ota-ona o‘rtasidagi tenglik nafaqat oilaviy

barqarorlik, balki farzandning hissiy va ijtimoiy jihatdan sog‘lom shaxs bo‘lib voyaga yetishida muhim psixologik asos hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

23. UNESCO. Gender Equality and Education. Paris: UNESCO Publishing, 2020.

24. Sadker, M., & Sadker, D. Failing at Fairness: How Our Schools Cheat Girls. New York: Scribner, 1994.

25. Leaper, C., & Friedman, C. K. Социализация гендера // B: Grusec, J. E., & Hastings, P. D. (ред.), Handbook of Socialization: Theory and Research, стр. 561–587. New York: Guilford Press, 2007.

26. OECD. The ABC of Gender Equality in Education: Aptitude, Behaviour, Confidence. Paris: OECD Publishing, 2015.

27. Eagly, A. H., & Wood, W. Теория социальных ролей // B: Van Lange, P. A. M., Kruglanski, A. W., & Higgins, E. T. (ред.), Handbook of Theories of Social Psychology, т.2, стр. 458–476. London: Sage, 2012.

28. Tannen, D. You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. New York: Ballantine Books, 1990.

29. LeVine, R. A., & LeVine, S. E. Гендерная социализация в образовательной среде. Cambridge: Cambridge University Press, 2004.[7]

30. UNESCO. Cracking the Code: Girls’ and Women’s Education in STEM. Paris: UNESCO Publishing, 2016.

31. Bampton, R., & Maclagan, P. “Does a care orientation explain gender differences in ethical decision making? A critical analysis and fresh findings”, Business Ethics: A European Review, Vol.18 No.2, стр. 179–191, 2009.[9]

32. Conroy, S., & Emerson, T. “Business ethics and religion: Religiosity as a predictor of ethical awareness among students”, Journal of Business Ethics, Vol.50, стр. 383–396, 2004.

33. Beaman, L., Duflo, E., Pande, R., & Topalova, P. “Female Leadership Raises Aspirations and Educational Attainment for Girls: A Policy Experiment in India”, Science, Vol.335, стр. 582–586, 2012.

UZOQ MUDDATLI XIZMATNING OILAVIY MUNOSABATLARGA TA’SIRI

Qodirova Malikaxon Kaxramonovna
katta o‘qituvchi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Qodirovam1973@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada uzoq muddatli xizmat faoliyatining oilaviy munosabatlarga ta’siri tahlil qilinadi. Xususan, harbiy xizmat, mehnat migratsiyasi hamda uzoq safar bilan bog‘liq kasblarning oila barqarorligiga, er-xotin o‘rtasidagi hissiy yaqinlikka va farzandlar tarbiyasiga ko‘rsatadigan ijobiy hamda salbiy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, oilaviy ziddiyatlarning oldini olish, masofaviy muloqotni mustahkamlash va psixologik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari bo‘yicha takliflar beriladi.

Kalit so‘zlar: uzoq muddatli xizmat, oilaviy munosabatlar, harbiy xizmat, mehnat migratsiyasi, oilaviy barqarorlik, psixologik ta’sir, farzand tarbiyasi, masofaviy muloqot.

Globallashuv, geosiyosiy beqarorlik va zamonaviy xavfsizlik tahdidlari sharoitida harbiy xizmatning mazmuni va shakli tubdan o‘zgarib bormoqda. Harbiy xizmatchilarning uzoq muddatli xizmat safarlari, jangovar navbatchilik, tinchlikparvarlik missiyalari hamda chegara hududlarida uzluksiz xizmat olib borishi nafaqat ularning kasbiy faoliyatiga, balki oilaviy hayotiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti sifatida shaxsning psixologik barqarorligi, emotsional qo‘llab-quvvatlanishi va ijtimoiy moslashuvida muhim o‘rin tutadi.

Uzoq muddatli xizmat sharoitida turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi masofa, farzand tarbiyasidagi mas’uliyatning bir tomon zimmasiga tushishi, doimiy xavotir va noaniqlik hissi oilaviy munosabatlar sifatiga ta’sir etishi mumkin. Ayrim holatlarda bu omillar oilaviy nizolar, emotsional sovuqlik, tushkunlik yoki ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi.

Rivojlangan davlatlar tajribasida harbiy oilalarni psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi alohida yo‘nalish sifatida shakllangan. Bu tajriba uzoq muddatli xizmatning oilaga

ta’sirini ilmiy asosda o‘rganish va kompleks yondashuv ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bois uzoq muddatli xizmatning oilaviy munosabatlarga ta’sirini psixologik jihatdan tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish harbiy psixologiya fanining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Harbiy xizmatchining oilaviy barqarorligi uning xizmat samaradorligi va jangovar tayyorgarligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Oila bilan bog‘liq muammolar stress darajasini oshirib, psixologik zo‘riqishga sabab bo‘lishi mumkin. Bu muammoning ijtimoiy ahamiyati hisoblanadi.

Har qanday holatda nafaqat harbiylar xatto boshqa soha vakillarida ham uzoq ayriliq, doimiy xavotir va kommunikatsiya cheklanishi turmush o‘rtoqlarda tashvish, depressiv holatlar va emotsional beqarorlikni yuzaga keltiradi. Tabiiyki bu farzandlar tarbiyasiga ham salbiy ta’sir ko’rsatadi. Ota yoki onaning uzoq muddat yo‘qligi bolalarda xulq-atvor o‘zgarishlari, moslashuv muammolari va emotsional bo‘shliqni keltirib chiqarishi mumkin.

Hozirda mavzu bo‘yicha mahalliy sharoitda kompleks tadqiqotlar yetarli emas, buning uchun mavjud xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, uzoq muddatli xizmatning oilaviy munosabatlarga ta’sirini o‘rganish nafaqat psixologik, balki ijtimoiy va strategik ahamiyatga ega bo‘lib, harbiy xizmatchilar hamda ularning oila a’zolarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bu muammo xalqaro miqyosda tan olingan tadqiqotchilar tomonidan o’rganilgan. Shunday olimlardan biri Nicola Fear Londondagi epidemiolog bo‘lib, harbiy xizmatchilar va ularning oilalariga xizmatning ta’sirini o‘rganadi, jumladan, harbiy xizmat oilalarining sog‘lig‘i va psixologik holati bo‘yicha yirik tadqiqotlar olib borgan. Mady Veksler amerikalik sotsiolog bo‘lib, harbiylar oilasi va xizmatning ijtimoiy-psixologik ta’siri haqida ilg‘or nazariyalar ishlab chiqqan olimlardan biridir.

K. N. Lovve, K. S. Adams, B. L. Brovne kabi olimlar o’z tadqiqotlarida harbiy xizmatdagi xizmat muddati va oiladagi munosabatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganganib chiqqanlar.

Bir qator olimlar o’z tadqiqotlarida bolalar va uylarida qolgan ota-onalar holatini, harbiy jo‘natishning turmush o‘rtog‘iga depressiya, bezovtalik va stressga ta’sirini, harbiy xizmat stressi, oilaviy muloqot va bolalarning psixologik natijalari bilan bog‘liq muammolarni, hamda ota-onaning harbiy xizmat vaqtida oiladagi aka-uka, singil munosabatlariga ta’siri bo‘yicha izlanishlar olib borganlar.

Bugungi kunda harbiy xizmat kontseptsiyasi faqat mamlakat mudofaasini ta’minlashdan iborat emas; u har bir xizmat qiluvchi shaxsning shaxsiy va oilaviy hayotiga ham chuqur ta’sir etuvchi ijtimoiy fenomen hisoblanadi. Uzluksiz xizmat, jangovar navbatchilik, uzoq safarlar va tinchlikparvarlik missiyalariga jo‘natish kabi omillar harbiy xizmatchilarning oilaviy dunyosida sezilarli o‘zgarishlar yuzaga keltiradi. Oila esa shaxsning emotsional qo‘llab-quvvatlanishi, ijtimoiy moslashuvi va hayot sifati uchun muhim ijtimoiy institutdir. Shu bois harbiy xizmatning oilaga ta’sirini o‘rganish nafaqat psixologiya, balki sotsiologiya, ijtimoiy ish va harbiy fanlarida ham strategik ahamiyat kasb etadi. Uzoq muddatli xizmatning oilaviy munosabatlarga ta’sirining asosiy yo‘nalishlari mavjud. Bularga quyidagilarni kiritish mumkin. *1.* Emotsional aloqalar va yaqinlik darajasi. Uzoq muddatli xizmat davomida yaqinlar o‘rtasidagi fizik masofa ko‘pincha emotsional masofaga aylanadi. Turmush o‘rtog‘ining uzoqda bo‘lishi va muntazam muloqotning cheklanganligi oilaviy yaqinlikni susaytiradi, ishonch pasayadi va emotsional beqarorlikni kuchaytiradi. Bunday sharoitda o‘zaro tushunmovchiliklar, tashvish va qayg‘ular ko‘payadi. 2. Rol va vazifalarning qayta taqsimlanishi. Xizmat vaqtida oila ichidagi vazifalar ko‘pincha xizmat qiluvchi a’zodan qolgan tarafga o‘tadi. Uy ishlari, farzand tarbiyasi, moliyaviy masalalar va qaror qabul qilish jarayoni bir tomon zimmasiga tushadi. Bu psixologik yukni oshiradi, oilaviy stressni kuchaytiradi va ayrim hollarda o‘zaro norozichilikka olib keladi. 3. Stress va ruhiy salomatlik. Uzoq ayriliq, xavotir, noaniqlik va uzluksiz xizmatning o‘zi harbiy xizmatchi va uning oila a’zolarida stress darajasini oshiradi. Bu holat depressiya, bezovtalik, emotsional charchoq va uyda qolgan tarafda ruhiy qo‘llab-quvvatlash ehtiyojini kuchaytiradi. Stress oilaviy munosabatlarda sovuqlik va konfliktlarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladi. 4. Farzandlarning psixologik holati. Farzandlar uchun ota-onadan uzoqlik juda chuqur ta’sir qiladi. Ular xulq-atvor o‘zgarishlari, moslashish qiyinchiliklari, o‘zgarmas tashqi stress

omillarini boshdan kechirishi, emotsional beqarorlik va o‘ziga bo‘lgan ishonch pasayishi kabi holatlarni boshdan kechirishi mumkin. Bu esa ota-ona va bola o‘rtasidagi bog‘liqlikni zaiflashtiradi.

5. Kommunikatsiya muammolari. Texnologiyalar rivojlangan bo‘lsa-da, muntazam va sifatli muloqotning yetishmasligi oilaviy konfliktlarning oldini olishda katta to‘siq bo‘lib qolmoqda. Muloqotning cheklanganligi noto‘g‘ri tushunishlar, salbiy hislar yig‘ilishi va oiladagi bir-birini qo‘llab-quvvatlashning pasayishiga olib keladi.

Uzoq muddatli xizmatning oilaviy munosabatlarga salbiy ta’sirini kamaytirish uchun bir qator dasturlar ishlab chiqish va qo’llash maqsadga muvofiqdir:

- Harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari uchun stressni boshqarish, konfliktlarni hal etish va samarali muloqot strategiyalari bo‘yicha treninglar tashkil etish.
- Video qo‘ng‘iroqlar, onlayn muloqot platformalari va muntazam yozishmalar oilaviy bog‘liqlikni saqlab turishga yordam beradi.
- Oila a’zolari uchun psixologik hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlarini tashkil etish orqali ruhiy sog‘lomlikni ta’minlash.
- Xizmatdan oldin va xizmatdan so‘ng oila bilan qayta moslashuv jarayonlarini qo‘llab-quvvatlash.

Xulosa qilganda shuni aytish mumkinki, uzoq muddatli harbiy xizmat oilaviy munosabatlarga turli yo‘nalishlarda salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bular emotsional yaqinlik pasayishi, rol va vazifalarning qayta taqsimlanishi, stress va ruhiy salomatlik muammolari, farzandlar psixologik holati hamda kommunikatsiya qiyinchiliklari. Shu bilan birga, sifatli psixologik tayyorgarlik, samarali kommunikatsiya va qo‘llab-quvvatlash tizimlari orqali bu ta’sirlarni kamaytirish va harbiy xizmatchilar hamda ularning oilalarining hayot sifatini yaxshilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M. Qurbonov. Oila sotsiologiyasi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
2. D. Abdurahmonov. Mehnat migratsiyasi va uning ijtimoiy oqibatlari. Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.
3. Sh. Mardonov. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2020.

4. N. Jo‘rayev. Harbiy xizmat va oila barqarorligi masalalari. Toshkent: Akademnashr, 2023.
5. O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi. Oila institutini mustahkamlashning zamonaviy yo‘nalishlari. Toshkent: O‘zbekiston, 2022.

GENDER TENGLIK VA UNING JAMIYAT ONGIDA PSIXOLOGIK QABUL QILINISHI BILAN BOG‘LIQ MUAMMOLAR

Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi
ISFT instituti «Psixologiya va pedagogika»
kafedrasi o‘qituvchisi

Saydullaxo‘jayeva Yulduzxon
ISFT institutining 2-kurs talabasi
el.pochta: @Yulduzxonbotirxo‘jayeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada gender tenglik tushunchasi, uning mazmun-mohiyati hamda jamiyat ongida psixologik jihatdan qabul qilinishi bilan bog‘liq muammolar tahlil qilinadi. Gender stereotiplari, an’anaviy ijtimoiy rollar va madaniy qadriyatlarning shaxs ongiga ta’siri, gender tenglikni qabul qilish jarayonida yuzaga keladigan psixologik qarshiliklar, kognitiv dissonans va ijtimoiy bosim omillari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, gender tenglikka nisbatan munosabatlarning shakllanishida oila, ta’lim tizimi va ommaviy axborot vositalarining o‘rni alohida ta’kidlanadi. Jamiyatda gender tenglikni mustahkamlash, sog‘lom ijtimoiy ongni shakllantirish hamda psixologik moslashuvni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Gender tenglik, gender stereotiplari, jamiyat ongi, psixologik qabul qilish, ijtimoiy rollar, kognitiv dissonans, ijtimoiy bosim, madaniy qadriyatlar, gender identifikatsiyasi, ijtimoiy ong.

GENDER EQUALITY AND PROBLEMS OF ITS PSYCHOLOGICAL ACCEPTANCE IN PUBLIC CONSCIOUSNESS

Annotation: This article analyzes the concept of gender equality, its essence and content, as well as the problems related to its psychological acceptance in public

consciousness. The influence of gender stereotypes, traditional social roles, and cultural values on individual consciousness is examined, along with psychological resistance, cognitive dissonance, and social pressure factors that arise in the process of accepting gender equality. In addition, the role of the family, the education system, and the mass media in shaping attitudes toward gender equality is particularly emphasized. Strengthening gender equality in society is of great importance for forming a healthy social consciousness and ensuring psychological adaptation.

Keywords: Gender equality, gender stereotypes, public consciousness, psychological acceptance, social roles, cognitive dissonance, social pressure, cultural values, gender identity, social psychology.

ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО И ПРОБЛЕМЫ ЕГО ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ПРИНЯТИЯ В ОБЩЕСТВЕННОМ СОЗНАНИИ

Аннотация: В данной статье анализируется понятие гендерного равенства, его сущность и содержание, а также проблемы, связанные с его психологическим принятием в общественном сознании. Рассматривается влияние гендерных стереотипов, традиционных социальных ролей и культурных ценностей на сознание личности, а также психологическое сопротивление, когнитивный диссонанс и факторы социального давления, возникающие в процессе принятия гендерного равенства. Кроме того, особо подчеркивается роль семьи, системы образования и средств массовой информации в формировании отношения к гендерному равенству. Укрепление гендерного равенства в обществе имеет важное значение для формирования здорового общественного сознания и обеспечения психологической адаптации.

Ключевые слова: Гендерное равенство, гендерные стереотипы, общественное сознание, психологическое восприятие, социальные роли, когнитивный диссонанс, социальное давление, культурные ценности, гендерная идентичность, социальная психология.

So‘nggi o‘n yilliklarda gender tenglik masalasi global miqyosda muhim ijtimoiy muammolardan biriga aylandi. Gender tenglik nafaqat erkaklar va ayollarning huquqiy

tengligini ta’minlash, balki ularning jamiyatdagi real imkoniyatlari, ijtimoiy faolligi va psixologik farovonligini kafolatlashni ham nazarda tutadi. Shunga qaramay, ko‘plab jamiyatlarda gender tenglik g‘oyasi huquqiy darajada e’tirof etilgan bo‘lsa-da, jamiyat ongida psixologik jihatdan to‘liq qabul qilinmayapti. Ushbu holat gender stereotiplari, an’anaviy qarashlar va ijtimoiy bosimlar bilan chambarchas bog‘liq.

Gender tenglik tushunchasining mohiyati, uning jamiyat ongida shakllanish jarayoni va psixologik qabul qilinishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar chuqur tahlil qilinadi. Gender tenglik tushunchasi biologik jinsdan kelib chiqib shaxsning ijtimoiy imkoniyatlarini cheklamaslik tamoyiliga asoslanadi. Ijtimoiy adolat, inson huquqlari va shaxs erkinligi g‘oyalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, jamiyat barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega. Psixologik nuqtayi nazardan, gender tenglik shaxsning o‘z salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish imkonini beradi. Tenglik mavjud bo‘lgan muhitda shaxs o‘zini erkin his qiladi, ijtimoiy faolligi oshadi va psixologik barqarorlik mustahkamlanadi [2]. Aksincha, gender tenglik mavjud bo‘lmagan jamiyatlarda ichki cheklovlar, stress va ijtimoiy moslashuv muammolari ko‘proq uchraydi. Gender tenglikning psixologik qabul qilinishiga eng katta to‘sqinlik qiluvchi omillardan biri - gender stereotiplaridir. Gender stereotiplari erkaklar va ayollar uchun qat’iy belgilangan ijtimoiy rollar, xulq-atvor va kasb yo‘nalishlarini mustahkamlaydi. Mazkur stereotiplar bolalik davridan boshlab shakllanadi. Oila muhitida qiz va o‘g‘il bolalarga turlicha talab qo‘yilishi, ta’lim jarayonida jinsga bog‘liq kutilmalar va ommaviy axborot vositalarida takrorlanadigan obrazlar shaxs ongida barqaror gender sxemalarini hosil qiladi. Natijada, shaxs voqelikni aynan shu stereotiplar asosida baholaydi va ularga zid bo‘lgan axborotni qabul qilishda qiyinchilikka duch keladi. Gender tenglik g‘oyasi ko‘pincha shaxs ongida mavjud bo‘lgan qadriyatlar tizimi bilan ziddiyatga kirishadi. Ushbu ziddiyat kognitiv dissonans holatini yuzaga keltiradi, ya’ni shaxs ichki psixologik noqulaylikni his qiladi. Bu holatda inson yangi g‘oyani rad etish, oqlash yoki e’tiborsiz qoldirish orqali psixologik muvozanatni tiklashga urinadi [4].

Ijtimoiy bosim ham gender tenglikni qabul qilish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. Jamiyat tomonidan rad etilish, tanqid yoki masxaralashdan qo‘rquv shaxsni umumiy fikrga moslashishga majbur qiladi. Shu sababli, ayrim hollarda shaxs ichki jihatdan gender tenglikni qo‘llab-quvvatlasa-da, uni ochiq ifodalashdan tiyiladi.Gender tenglik va

ruhiy salomatlik. Gender tenglikning yetishmasligi shaxs ruhiy salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlarga ko‘ra, jinsga bog‘liq ijtimoiy cheklovlar stress, xavotir va depressiv holatlarning kuchayishiga olib keladi. Ayollarda o‘zini past baholash va ichki cheklovlar, erkaklarda esa hissiy ifodani bostirish va agressiya kuzatiladi [7].

Bu holat shaxsning o‘zini anglash jarayoniga ham salbiy ta’sir ko‘rsatib, jamiyatda umumiy psixologik muhitning yomonlashuviga sabab bo‘ladi. Shu bois gender tenglik nafaqat ijtimoiy, balki psixologik farovonlik omili sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Oila va ta’lim tizimining roliGender tenglikni jamiyat ongida shakllantirishda oila asosiy ijtimoiy institut hisoblanadi. Oila muhitida beriladigan tarbiya bolaning kelajakdagi gender qarashlarini belgilaydi [4]. Agar oilada tenglik, hurmat va hamkorlik tamoyillari ustuvor bo‘lsa, bola ushbu qadriyatlarni tabiiy hol sifatida qabul qiladi. Ta’lim tizimi esa gender tenglikni mustahkamlashda strategik ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonida genderga xolis yondashuv, stereotiplardan xoli darsliklar va teng imkoniyatlar shaxsda tanqidiy fikrlash va tolerantlikni rivojlantiradi. Aksincha, ta’lim tizimidagi gender nomutanosiblik stereotiplarning mustahkamlanishiga olib keladi. Ommaviy axborot vositalari gender tenglikni qabul qilish jarayoniga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Mediada erkak va ayol obrazlarining biryoqlama yoki stereotipik tasvirlanishi jamiyat ongida noto‘g‘ri tasavvurlarni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ijobiy va teng huquqli obrazlar targ‘iboti jamiyat ongida psixologik o‘zgarishlarni tezlashtiradi [6].

Gender tenglikning jamiyat ongida psixologik qabul qilinishi murakkab va ko‘p omilli jarayondir. Ushbu jarayon gender stereotiplari, an’anaviy qarashlar, ijtimoiy bosim va psixologik qarshiliklar bilan chambarchas bog‘liq. Gender tenglikni ta’minlash uchun huquqiy choralargina emas, balki psixologik va ma’naviy yondashuvlarni ham rivojlantirish zarur.Jamiyat ongida gender madaniyatini shakllantirish, ta’lim va tarbiya jarayonida tenglik tamoyillarini mustahkamlash sog‘lom, adolatli va barqaror ijtimoiy muhitni yaratishga xizmat qiladi. Gender tenglik masalasining jamiyat ongida qabul qilinishi shaxsning ijtimoiylashuv jarayoni bilan bevosita bog‘liqdir. Ijtimoiylashuv davomida shaxs jamiyat tomonidan qabul qilingan gender normalari va xulq-atvor andozalarini o‘zlashtiradi. Ushbu jarayon ko‘pincha ongli emas, balki avtomatik tarzda amalga oshib, shaxsning keyingi hayotiy qarorlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Natijada,

gender tenglik g‘oyasi ushbu ichki andozalarga zid bo‘lsa, u psixologik qarshilikka uchraydi [3].

Jamiyatda gender tenglikka nisbatan munosabatlar avloddan avlodga o‘tib keladigan ijtimoiy tajriba asosida shakllanadi. An’anaviy jamiyatlarda erkak va ayol rollarining qat’iy ajratilishi ijtimoiy barqarorlik omili sifatida talqin qilinadi. Shu sababli, gender tenglik g‘oyasi mavjud ijtimoiy tizimni izdan chiqaruvchi omil sifatida noto‘g‘ri baholanishi mumkin. Bu holat jamiyat ongida yangicha qarashlarning sekin qabul qilinishiga olib keladi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxs o‘zining genderga oid qarashlarini o‘zgartirishga majbur bo‘lganida, ichki psixologik himoya mexanizmlarini ishga tushiradi. Bunday mexanizmlar yangi g‘oyalarni inkor etish, ularni masxaralash yoki ahamiyatsizlashtirish shaklida namoyon bo‘ladi. Natijada, gender tenglik g‘oyasi mantiqan asosli bo‘lsa ham, shaxs ongida rad etilishi mumkin.

Gender tenglikning yetishmasligi ijtimoiy munosabatlar sifatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Jinsga asoslangan ijtimoiy tengsizlik oila ichidagi nizolar, shaxslararo tushunmovchiliklar va psixologik zo‘riqishlarning ortishiga sabab bo‘ladi. Ayniqsa, erkak va ayol o‘rtasidagi mas’uliyat va huquqlarning nomutanosib taqsimlanishi o‘zaro ishonchning susayishiga olib keladi. Ta’lim jarayonida gender tenglik masalasiga yetarli e’tibor qaratilmaganda, stereotiplar mustahkamlanib boradi va shaxs ongida muqimlashadi [9]. Aksincha, ta’lim muhitida genderga xolis yondashuv, teng baholash va teng imkoniyatlar ta’minlangan hollarda, shaxsda ijtimoiy adolat va hurmat qadriyatlari shakllanadi. Bu esa gender tenglikning jamiyat ongida tabiiy va mantiqiy hol sifatida qabul qilinishiga zamin yaratadi.

Ommaviy axborot vositalari orqali uzatilayotgan axborot ham gender tenglikka bo‘lgan munosabat shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Agar media makonida erkak va ayol obrazlari stereotipik tarzda yoritilsa, bu holat jamiyat ongida mavjud qarashlarni yanada mustahkamlaydi. Shu bilan birga, gender tenglikka asoslangan ijobiy obrazlar jamiyat ongida psixologik moslashuv jarayonini tezlashtiradi. Ko‘plab tadqiqotlarda gender tenglikka to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biri sifatida gender stereotiplari ko‘rsatiladi.

Gender stereotiplari - bu jamiyat tomonidan erkak va ayollarga nisbatan oldindan shakllangan, soddalashtirilgan va qat’iy tasavvurlar bo‘lib, ular shaxsning o‘zini anglashiga va xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, erkakni faollik, yetakchilik va mustaqillik bilan, ayolni esa bo‘ysunuvchanlik va emotsionallik bilan bog‘lash holatlari jamiyat ongida chuqur ildiz otgan. Psixologik nuqtai nazardan gender tenglikni qabul qilish jarayonida kognitiv dissonans muhim rol o‘ynaydi. Agar shaxsning mavjud e’tiqodlari va yangi ijtimoiy talablar o‘rtasida ziddiyat yuzaga kelsa, psixologik noqulaylik paydo bo‘ladi. Aynan shu holat gender tenglik g‘oyalariga qarshilik ko‘rsatishning ichki mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ayrim shaxslar an’anaviy qarashlardan voz kechmaslik uchun yangi g‘oyalarni rad etishga moyil bo‘ladilar [5]. Jamiyatda gender tenglikning psixologik qabul qilinishiga ijtimoiy rollar tizimi ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy rollar bolalikdan boshlab oila, ta’lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari orqali mustahkamlanadi.

Ota-onalarning farzandlarga nisbatan “qiz bolaga mos” va “o‘g‘il bolaga mos” xatti-harakatlarni targ‘ib qilishi kelajakda gender tenglikka bo‘lgan munosabatni belgilab beradi. Ta’lim tizimi gender tenglik madaniyatini shakllantirishda muhim institut hisoblanadi. Agar ta’lim jarayonida gender sezgir yondashuv qo‘llanilsa, o‘quvchilarda tenglik, hurmat va inklyuzivlik qadriyatlari rivojlanadi. Aksincha, gender jihatdan biryoqlama yondashuv mavjud bo‘lgan ta’lim muhiti stereotiplarning mustahkamlanishiga olib keladi [7]. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar ham jamiyat ongida gender obrazlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Media makonida ayol va erkak rollarining noto‘g‘ri yoki cheklangan tarzda tasvirlanishi gender tenglik g‘oyalarining buzib qabul qilinishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, ijobiy va tenglikka asoslangan media kontent jamiyat ongini o‘zgartirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar gender tenglikni qabul qilish darajasi shaxsning ta’lim darajasi, yashash muhiti va ijtimoiy tajribasi bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatadi. Ochiq fikrlilik, tanqidiy tafakkur va empatiya kabi psixologik sifatlar rivojlangan shaxslarda gender tenglik g‘oyalari tezroq va barqarorroq shakllanadi. Gender tenglik va uning jamiyat ongida psixologik qabul qilinishi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u individual psixologiya, ijtimoiy muhit va madaniy qadriyatlar

o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Gender tenglikni rivojlantirish uchun nafaqat huquqiy islohotlar, balki jamiyat ongiga qaratilgan psixologik va ma’rifiy yondashuvlar ham muhim ahamiyat kasb etadi

Xulosa qilib aytganda, gender tenglikning jamiyat ongida psixologik qabul qilinishi uzoq muddatli, murakkab va ko‘p omilli jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon shaxsning ijtimoiy tajribasi, psixologik himoya mexanizmlari va jamiyat tomonidan uzatilayotgan axborot bilan chambarchas bog‘liq. Gender tenglikni mustahkamlash uchun psixologik yondashuvlar, ta’limiy choralar va ijtimoiy ongni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar birgalikda amalga oshirilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Connell R. Gender: In World Perspective. Polity Press, 2009.
2. Giddens A. Sociology. Polity Press, 2013.
3. Bem S. L. Gender Schema Theory. Psychological Review, 1981.
4. Bandura A. Social Learning Theory. Prentice Hall, 1977.
5. Festinger L. A Theory of Cognitive Dissonance. Stanford University Press, 1957.
6. Myers D. Social Psychology. McGraw-Hill, 2014.
7. Eagly A. H. Sex Differences in Social Behavior. Erlbaum, 1987.

ZAMONAVIY HARBIY PSIXOLOGIYANING NAZARIY-AMALIY ASOSLARI VA OPERATIV FAOLIYATDAGI ROLI

Mullajonov Islomjon Yuldashevich

Impuls tibbiyot instituti Chirchiq filiali
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti
+998938438555
islommullajonov@gmail.com

Psixologik stress va buzilishlar har doim harbiy hayotning bir qismi bo‘lgan, ammo harbiy psixologiyaning ruhiy salomatlik bo‘limi har doim ham hozirgidek xabardorlikni boshdan kechirmagan. Hatto bugungi kunda ham bu sohaga oid ko‘plab tadqiqotlar va xabardorlik zarur.

Harbiy psixologiya fan sifatida 20-asr boshidan beri o‘sib bormoqda, bu psixologik klinik va operatsion qo‘llanishga bo‘lgan talab va ehtiyojlar barqaror o‘sib borayotganidan dalolat beradi[1]. Harbiy xizmat bilan bog‘liq ko‘plab stress omillari, jumladan, yuqori xavfli mashg‘ulotlar va jangovar ta’sirlar mavjud. Shunday qilib, psixologlar harbiy rahbarlarga tegishli o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda, ushbu dasturlarni nazorat qilishda va harbiy xizmatchilarga harbiy tayyorgarlik va ularning yangi turmush tarzi muammolarini hal qilishda yordam beradigan muhim qo‘llab-quvvatlash komponentlaridir.

Harbiy psixologiya – psixologiya sohasidagi mutaxassislik bo‘lib, u harbiy a’zolar, tashkilotlar va operatsiyalarga tayyorgarlikni targ‘ib qilish uchun psixologiya fanini qo‘llaydi[1]. Harbiy psixologlar harbiylarga ko‘p yo‘llar bilan yordam ko‘rsatadilar, jumladan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri klinik yordam, harbiy qo‘mondonlarga maslahat berish, boshqalarni o‘qitish va harbiy tayyorgarlikni qo‘llab-quvvatlash kiradi.

Harbiy psixologiya butun armiya bo‘ylab operatsion, taktik va kasbiy psixologiyani o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli sohalarni qamrab oladi[2]. Ruhiy salomatlik yordamiga murojaat qiluvchi harbiy tayyorgarlikdan o‘tgan xodimlar o‘rtasidagi gender farqlar keng o‘rganilgan. Aniq misollar qatoriga jang bilan bog‘liq travmadan keyingi stress buzilishi yoki ajralish tufayli uzoq muddatli yoki tez-tez joylashtirish bilan birga keladigan aybdorlik hissi va oilaviy-sheriklik qiyinchiliklari kiradi. Harbiy

psixologiyadagi klinik provayderlar ko‘pincha stress, charchoq va boshqa shaxsiy tayyorgarlik muammolarini davolashga qaratilgan.

Koreya urushi, Vetnam urushi va Ikkinchi Jahon urushi kabi oldingi urushlar harbiy psixologiyaning ishlashi va amaliyotlari haqida katta tushuncha beradi va bu amaliyotlar yillar davomida o‘zgargan va harbiylarga yordam bergan.

Harbiylar – bu noyob va ko‘pincha travmatik vaziyatlarda milliy xavfsizlik vazifalarini bajarish uchun o‘qitilgan va jihozlangan shaxslar guruhidir. Bunday vaziyatlarga front chiziqlari, milliy favqulodda vaziyatlar, terrorizmga qarshi yordam, ittifoqchilar yordami yoki halokatga qarshi kurash ssenariylari kirishi mumkin, bunda ular ham do‘st, ham dushman davlatlarning qabul qiluvchi aholisiga yordam ko‘rsatuvchilardir. Garchi ko‘plab psixologlar insonning travmatik vaziyatlarga munosabati haqida umumiy tushunchaga ega bo‘lsalar-da, harbiy psixologlar ushbu maxsus aholi orasida amaliy fan va amaliyotda noyob tayyorgarlikdan o‘tgan va tajribali mutaxassislardir.

Harbiy xizmatchilar voqealar qurbonlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yordam ko‘rsatayotgan bo‘lsa-da, harbiy psixologlar ikkala a’zoga, ularning oilalariga va harbiy operatsiyalar qurbonlariga maxsus yordam ko‘rsatadilar, chunki ular ko‘pincha “normal” javob yoki g‘ayrioddiy va g‘ayritabiiy holatlarga javob berishadi. Harbiy psixologlar shaxs, guruh va tashkilotning optimal farovonligi uchun eng mos keladigan xizmat maqomini baholashi, tashxis qo‘yishi, davolashi va tavsiya qilishi mumkin. Guruh terapiyasi, individual terapiya va xulq-atvorni o‘zgartirish orqali ushbu psixologlar psixologik buzilishlarni, ko‘pincha hissiy travmalarni faol davolaydilar.

Yuqorida aytib o‘tilgan maxsus rollardan tashqari, harbiy psixologlar ko‘pincha sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq bo‘lmagan ko‘plab faoliyatlarga yordam beradilar. Misol uchun, harbiy psixologlar garovga olinganlar bilan muzokaralar olib borish bo‘yicha maslahatlashuvlarda o‘z tajribalari va treninglarini taqdim etishlari mumkin. Harbiy psixologlar garovga olinganlar bilan muzokara olib bormaydilar; ammo ular ko‘pincha garovga olinganlar bilan bevosita aloqada bo‘lganlar bilan maslahatlashadilar, bu esa barcha ishtirokchilarning xavfsizligi va himoyasini talab qiladi. Harbiy psixologlar o‘z

fanlarini aviatsiyani tanlash va o‘qitish, omon qolish bo‘yicha treninglarni o‘rganish va qo‘llash, maxsus harbiy vazifalar uchun kadrlarni tanlashda ham qo‘llashlari mumkin[1].

Harbiy psixologlar uchun yana bir keng tarqalgan amaliyot sohasi – bu xizmatni baholashga tayyorgarlik ko‘rishdir. Jismoniy tayyorgarlikni baholash turlariga asosiy kirish imtihonlari ham, shaxslar lavozimga ko‘tarilishni, yuqori tasnifdagi ruxsatnoma maqomini va ixtisoslashtirilgan, xavfli va missiyaning muhim ish sharoitlarini izlayotganda o‘tkaziladigan kasbiy o‘sish imtihonlari ham kiradi. Operativ qo‘mondonlar uzluksiz, kritik va travmatik operatsiyalarning qo‘mondonlik ostidagilarga ta’siridan xavotirga tushganda, ko‘pincha harbiy psixolog bilan maslahatlashadilar.

Muvofiqlikni baholash buyruqqa asoslangan ma’muriy harakatlarga olib kelishi yoki tibbiy kengash yoki boshqa tribunal tomonidan qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin va asosiy qaror qabul qiluvchilar uchun muhim bo‘lgan professional fikrni bildirish uchun zarur bo‘lgan tajriba va tayyorgarlikka ega xolis shaxslar tomonidan batafsil o‘tkazilishi kerak. Harbiy psixologlar maxsus amaliyot mutaxassislari sifatida psixologiya san’ati va fanidan yaxshi xabardor bo‘lishlari kerak. Ular, shuningdek, harbiy kasb bo‘yicha yuqori malakali generalist bo‘lishlari va ikkala kasbni ham harbiy harakatlar kontekstida inson xulq-atvorini o‘rganish uchun yetarlicha yaxshi tushuna olishlari kerak. Psixologga doktorlikdan tashqari, psixologiyani harbiylarning murakkab ehtiyojlari bilan qanday birlashtirish kerakligini tushunish uchun zarur bo‘lgan tajribani rivojlantirish uchun bir necha yil kerak bo‘ladi.

Harbiy psixologiyada kamdan-kam qo‘llaniladigan usul - bu sinaluvchilardan intervyu olish, mahbuslarni so‘roq qilish va do‘stona harbiy operatsiyalar natijalarini yaxshilaydigan yoki do‘stona va dushman yo‘qotishlarini kamaytiradigan operativ yoki razvedka ahamiyatiga ega ma’lumotlarni taqdim etishi mumkin bo‘lganlarni tekshirishdir. Bu yerda qo‘llaniladigan psixologiyaning ilmiy tamoyillari intervyu oluvchi, agent yoki so‘roq qiluvchiga faol choralar ko‘rish yoki ishtirok etish qoidalarini, mezbon davlat kelishuvlarini, ko‘plab zamonaviy urushayotgan mamlakatlarning xalqaro qonunlar va Birlashgan Millatlar Tashkiloti kelishuvlari bo‘yicha maqomidan qat’i nazar, invaziv bo‘lmagan vositalar orqali iloji boricha ko‘proq ma’lumot olish imkonini beradi.

Invaziv tushunchasi – bu harbiy psixologiyada bu atama asirga olinganlar yoki guvohlardan ma’lumot olishda jismoniy kuch ishlatmasdan, qiynoq va tazyiqlarsiz, faqat ilmiy-psixologik metodlar orqali ta’sir o‘tkazishni anglatadi.

Bunga quyidagi usullar kiradi:

1) Psixologik suhbat va intervyu: Insonning ishonchiga kirish va muloqot orqali kerakli ma’lumotlarni aniqlash.

2) Xulq-atvorni tahlil qilish: Sinaluvchining tana tili, hissiyotlari va reaksiyalarini kuzatish orqali haqiqatni aniqlash.

3) Ilmiy tamoyillarga asoslangan so‘roq: Xalqaro qonunlar va BMT kelishuvlariga zid kelmagan holda, inson huquqlarini buzmasdan turib operativ ma’lumot olish.

4) Ruhshunoslik metodlari: Insonning irodasini sindirmasdan, balki mantiqiy savollar va psixologik bog‘liqliklar orqali dushman yo‘qotishlarini kamaytiradigan ma’lumotlarga ega bo‘lish.

Harbiy psixologiya – bu shunchaki tibbiy yordam ko‘rsatish sohasi emas, balki harbiy tizimning jangovar samaradorligi va insoniy barqarorligini ta’minlovchi strategik yo‘nalishdir. Ushbu soha mutaxassislari harbiy xizmatchilarni tanlash, ularni murakkab operatsiyalarga tayyorlash va front ortidagi ruhiy tiklanish jarayonlarida markaziy o‘rinni egallaydilar.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy urushlar va ekstremal vaziyatlarda muvaffaqiyat nafaqat qurol-yarog‘ga, balki shaxsiy tarkibning intellektual va ruhiy tayyorgarligiga ham bog‘liqdir. Harbiy psixologlar tomonidan qo‘llaniladigan invaziv bo‘lmagan vositalar va ilmiy tamoyillar nafaqat ma’lumot olish samaradorligini oshiradi, balki inson huquqlari hamda xalqaro gumanitar me’yorlarning saqlanishini ham kafolatlaydi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy psixologiyaning rivojlanishi armiya safidagi har bir shaxsning salomatligini asrash va davlat xavfsizligini psixologik jihatdan mustahkamlashning asosiy garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kennedy, Carrie H.; Zillmer, Eric A. (2022). Military Psychology: Clinical and Operational Applications. Guilford Publications. ISBN 978-1-4625-4994-8.

2. The Oxford handbook of military psychology. Janice H. Laurence, Michael D. Matthews. New York: Oxford University Press. 2012. ISBN 978-0-19-539932-5. OCLC 713834813.

3. http://www.psychologytoday.com/us/basics/military-psychology.

4. http://www.academic.oup.com/milmed.

GENDER TENGLIK VA OILAVIY QADRIYATLAR TIZIMINING PSIXOLOGIK ALOQADORLIGI

Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi

ISFT instituti «Psixologiya va pedagogika»

kafedrasi o‘qituvchisi

Yuspova Mohira Baxtiyor qizi

ISFT institutining 2-kurs talabasi

el.pochta:dilbarajabboyeva11@gmile.com

дискриминация, стрессоустойчивость, социальная адаптация, эмоциональное благополучие.

Bugungi globallashuv sharoitida gender tengligi jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Gender tengligi shaxsning jinsidan qat'i nazar, uning huquqlari, imkoniyatlari va ijtimoiy mavqeining bir xil darajada tan olinishi va hurmat qilinishini anglatadi. Bunday muhitda shaxs o‘zining ichki salohiyatini erkin namoyon eta oladi, o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun qulay sharoitga ega bo‘ladi va bu holat bevosita psixologik barqarorlikning mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Psixologik barqarorlik esa shaxsning tashqi va ichki bosimlarga nisbatan moslashuvchan bo‘lishi, stressli vaziyatlarda o‘zini tutish qobiliyatini saqlab qolishi hamda emotsional muvozanatni yo‘qotmaslik bilan tavsiflanadi. Gender tengligi mavjud bo‘lgan jamiyatda shaxs o‘zini kamsitilgan yoki cheklangan his qilmaydi, bu esa ichki ziddiyatlarning kamayishiga va ijobiy psixologik holatning shakllanishiga olib keladi [4]. Gender tengligi va shaxsning o‘ziga bo‘lgan munosabati Shaxsning o‘zini qanday baholashi uning ruhiy holatiga kuchli ta'sir ko‘rsatadi.

Gender tengligi ta'minlangan muhitda inson o‘zini jamiyat uchun qadrli, foydali va muhim deb his qiladi. Natijada shaxsda sog‘lom o‘zini qadrlash, mustaqil fikrlash va o‘z qarorlariga ishonch paydo bo‘ladi. Aksincha, gender tengligi buzilgan jamiyatlarda shaxs o‘zini pastroq mavqega ega deb hisoblashga moyil bo‘lishi mumkin. Bu esa o‘ziga ishonchsizlik, ichki qo‘rquv va doimiy xavotir kabi holatlarni yuzaga keltiradi. Shunday qilib, gender tengligi shaxsning o‘ziga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Emotsional barqarorlik shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini anglash, boshqarish va to‘g‘ri ifoda etish qobiliyatini bildiradi. Gender tengligi mavjud bo‘lgan sharoitda shaxs o‘z emotsiyalarini yashirmasdan, ochiq bayon eta oladi. Bu esa ichki bosimning kamayishiga va ruhiy yengillikka olib keladi. Masalan, erkaklar ham qayg‘u yoki xavotirni erkin ifoda eta olishi, ayollar esa qat'iyat va mustaqillikni namoyon qilishi mumkin bo‘lgan muhitda emotsional muvozanat mustahkam bo‘ladi. Natijada shaxs turli psixologik buzilishlarga kamroq duch keladi.

Jamiyatda shakllangan gender stereotiplari shaxsni ma'lum qoliplarga moslashishga majbur qiladi. Bu esa shaxsning ichki ehtiyojlari va real imkoniyatlari o‘rtasida

ziddiyatni keltirib chiqaradi. Uzoq davom etgan ichki ziddiyatlar stress, depressiya va psixosomatik kasalliklarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lishi mumkin. Gender tengligi stereotiplarning ta’sirini kamaytirib, shaxsga o‘zini erkin namoyon etish imkonini beradi. Bu esa ruhiy barqarorlikning muhim sharti hisoblanadi [10].

Oila va ta’lim muassasalari shaxs psixologiyasining shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. Agar oila ichida erkak va ayol teng huquqli munosabatda bo‘lsa, bolalarda adolat, hurmat va hamkorlik kabi ijtimoiy-psixologik sifatlar rivojlanadi. Ta’lim jarayonida ham gender tengligi ta’minlansa, o‘quvchilar o‘z qiziqishlariga mos yo‘nalishni erkin tanlaydi, bu esa ularning kelajakdagi kasbiy va shaxsiy muvaffaqiyatlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Stressga chidamlilik psixologik barqarorlikning muhim ko‘rsatkichidir. Gender tengligi mavjud bo‘lgan jamiyatda shaxs ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni ko‘proq his qiladi. Bu esa stressga nisbatan chidamlilikni oshiradi. Shaxs o‘zini yolg‘iz his qilmagani sababli muammolarni hal etishda faolroq bo‘ladi va ruhiy tushkunlikka kamroq beriladi.

Shaxs identifikatsiyasi - bu insonning «men kimman?» degan savolga javob topish jarayonidir. Gender tengligi mavjud bo‘lgan jamiyatda shaxs o‘zini faqat an’anaviy jinsiy rollar orqali emas, balki individual qobiliyatlari, qiziqishlari va qadriyatlari asosida anglay boshlaydi. Bu holat shaxsning ichki yaxlitligini kuchaytiradi, ya’ni u o‘zini majburlangan rol emas, balki ongli tanlov natijasi sifatida qabul qiladi. Natijada ichki qarama-qarshiliklar kamayadi, shaxsiy identitet aniq va barqaror shakllanadi. Identiteti mustahkam bo‘lgan shaxslar hayotiy muammolarni shaxsiy qadr-qimmatiga putur yetkazmaydigan holat sifatida qabul qila oladi. Bu esa ularning psixologik barqarorligini sezilarli darajada oshiradi [1].

Gender tengligi shaxsning ichki va tashqi motivatsiya tizimiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Teng imkoniyatlar mavjud bo‘lgan muhitda shaxs o‘z maqsadlariga erishishda jinsiy cheklovlarni his qilmaydi. Bu esa faol harakat qilishga bo‘lgan ichki ehtiyojni kuchaytiradi. Ichki motivatsiyasi yuqori bo‘lgan shaxs o‘z faoliyatidan ma’no topadi, bu esa psixologik qoniqish hissini oshiradi. Psixologik qoniqish esa stress darajasining pasayishiga va emotsional muvozanatning saqlanishiga xizmat qiladi. Tenglik hukmron bo‘lgan muhitda shaxs mustaqil qaror qabul qilishga o‘rganadi. U o‘z tanlovlari uchun

javobgarlikni his qiladi va bu holat shaxsiy yetuklikni shakllantiradi. Qaror qabul qilishda erkinlikka ega bo‘lgan shaxslar o‘z hayotini boshqarish qobiliyatiga ega ekanini anglaydi. Ushbu anglash hissi ichki kuch manbai bo‘lib, psixologik barqarorlikni mustahkamlaydi [8]. Gender tengligi mavjud jamiyatda shaxslararo munosabatlar ko‘proq hurmat, hamkorlik va tenglik tamoyillariga asoslanadi. Bu esa nizolarning kamayishiga, o‘zaro tushunishning kuchayishiga olib keladi. Sog‘lom munosabatlar shaxs uchun emotsional tayanch vazifasini bajaradi. Emotsional tayanchga ega bo‘lgan shaxslar hayotiy qiyinchiliklarga bardoshliroq bo‘ladi.

Psixologik moslashuvchanlik shaxsning o‘zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha olish qobiliyatidir. Gender tengligi mavjud bo‘lgan muhitda shaxs turli rollarni sinab ko‘rish imkoniga ega bo‘ladi. Bu esa moslashuvchanlikni kuchaytiradi. Moslashuvchan shaxslar o‘zgarishlarni xavf sifatida emas, balki rivojlanish imkoniyati sifatida qabul qiladi. Bu esa psixologik barqarorlikning muhim belgisi hisoblanadi.

Tenglikka asoslangan jamiyatda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimlari kengroq rivojlanadi. Shaxs muammoga duch kelganda yordam so‘rashdan uyalmaydi. Ijtimoiy yordamni his qilgan shaxsda yolg‘izlik hissi kamayadi, bu esa depressiv holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Hayotdan qoniqish - shaxsning umumiy farovonlik hissini aks ettiruvchi ko‘rsatkichdir. Gender tengligi mavjud sharoitda shaxs o‘z orzularini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘z hayotidan qoniqqan shaxslar ko‘proq ijobiy kayfiyatga ega bo‘ladi, bu esa psixologik barqarorlikni mustahkamlaydi [9]. Gender tengligi shaxsning ichki resurslarini ochib beruvchi kuchli omil hisoblanadi. U identitetning mustahkamlanishiga, motivatsiyaning oshishiga, moslashuvchanlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning kengayishiga xizmat qiladi. Natijada shaxs stressga bardoshli, emotsional jihatdan barqaror va hayotdan qoniqqan holda rivojlanadi. Shu sababli, gender tengligini qo‘llab-quvvatlash nafaqat ijtimoiy adolat masalasi, balki shaxs ruhiy salomatligini mustahkamlashning strategik yo‘nalishi hisoblanadi [5].

So‘nggi neyropsixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxsning o‘zini xavfsiz va qadrlangan his qilishi miya faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Gender tengligi mavjud bo‘lgan muhitda shaxs kamroq xavotir sezadi, natijada stress gormoni hisoblangan kortizol darajasi barqarorroq bo‘ladi. Kortizolning me’yorda bo‘lishi esa diqqat, xotira va

qaror qabul qilish jarayonlarining samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari, tenglik sharoitida dopamin va serotonin kabi «baxt gormonlari»ning faolroq ajralishi kuzatiladi. Bu holat shaxsda ijobiy kayfiyat, hayotdan qoniqish va ichki muvozanatni mustahkamlaydi. Demak, gender tengligi nafaqat ijtimoiy, balki biologik darajada ham psixologik barqarorlikni qo‘llab-quvvatlaydi [10].

Psixologik kapital tushunchasi shaxsning ijobiy psixologik resurslarini - umid, optimizm, o‘ziga ishonch va qat’iyatni o‘z ichiga oladi. Gender tengligi ushbu resurslarning shakllanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Tenglik mavjud bo‘lgan muhitda shaxs o‘z kelajagiga nisbatan umid bilan qaraydi, muvaffaqiyatga erishishiga ishonadi va qiyinchiliklarga qaramay harakat qilishga tayyor bo‘ladi. Bu omillar psixologik barqarorlikning ichki poydevorini tashkil etadi. Shaxs hayoti davomida turli ruhiy zarbalarga duch kelishi mumkin. Gender tengligi mavjud bo‘lgan jamiyatda shaxs qo‘llab-quvvatlash tizimlariga (oila, do‘stlar, mutaxassislar) murojaat qilishdan uyalmasdan foydalanadi. Bunday ochiqlik travmatik tajribalarni tezroq qayta ishlashga yordam beradi. Natijada posttravmatik o‘sish - ya’ni qiyinchiliklardan so‘ng shaxsning yanada kuchliroq bo‘lib chiqishi ehtimoli ortadi. Bu ham psixologik barqarorlikning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi [2].

Ichki motivatsiya - shaxsning tashqi mukofotlardan ko‘ra, o‘z qiziqishi va ehtiyojlari asosida harakat qilishi bilan bog‘liq. Gender tengligi shaxsga o‘zini erkin tanlash imkonini bergani sababli ichki motivatsiyani kuchaytiradi. Ichki motivatsiyasi kuchli bo‘lgan shaxs stressga nisbatan bardoshliligi yuqori bo‘ladi, chunki u faoliyatidan ma’no topadi. Bu esa psixologik barqarorlikni mustahkamlaydi. Shaxs jamiyatni adolatli deb qabul qilsa, unda ijtimoiy ishonch va barqarorlik hissi shakllanadi. Gender tengligi ijtimoiy adolatni his etishga yordam beradi. Ijtimoiy adolat hissi mavjud bo‘lgan shaxslar ko‘proq ijobiy kayfiyatga ega bo‘ladi, kelajakka umid bilan qaraydi va salbiy voqealarni kamroq fojiali qabul qiladi. Bu esa ruhiy barqarorlikning kuchayishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy raqamli makonda ham gender tengligi muhim ahamiyatga ega. Onlayn muhitda teng imkoniyatlar mavjud bo‘lsa, shaxs o‘z fikrini erkin bildiradi, bilim almashadi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni his qiladi. Aksincha, kiberbulling va genderga asoslangan tahqirlar shaxs psixologiyasiga jiddiy zarar

yetkazishi mumkin. Shu sababli raqamli makonda ham gender tengligini ta’minlash shaxs ruhiy salomatligi uchun muhimdir. Shaxs hayotida ma’no va maqsadni anglash psixologik barqarorlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Gender tengligi shaxsga o‘z hayot yo‘lini mustaqil belgilash imkonini beradi. Bu esa shaxsda hayotdan qoniqish, ichki osoyishtalik va barqarorlik hissini kuchaytiradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. UNESCO. Gender Equality and Education. Paris: UNESCO Publishing, 2020.
2. Sadker, M., & Sadker, D. Failing at Fairness: How Our Schools Cheat Girls. New York: Scribner, 1994.
3. Leaper, C., & Friedman, C. K. Социализация гендера // B: Grusec, J. E., & Hastings, P. D. (ред.), Handbook of Socialization: Theory and Research, стр. 561–587. New York: Guilford Press, 2007.
4. OECD. The ABC of Gender Equality in Education: Aptitude, Behaviour, Confidence. Paris: OECD Publishing, 2015.
5. Eagly, A. H., & Wood, W. Теория социальных ролей // B: Van Lange, P. A. M., Kruglanski, A. W., & Higgins, E. T. (ред.), Handbook of Theories of Social Psychology, т.2, стр. 458–476. London: Sage, 2012.
6. Tannen, D. You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. New York: Ballantine Books, 1990.
7. LeVine, R. A., & LeVine, S. E. Гендерная социализация в образовательной среде. Cambridge: Cambridge University Press, 2004.[7]
8. UNESCO. Cracking the Code: Girls’ and Women’s Education in STEM. Paris: UNESCO Publishing, 2016.
9. Bampton, R., & Maclagan, P. “Does a care orientation explain gender differences in ethical decision making? A critical analysis and fresh findings”, Business Ethics: A European Review, Vol.18 No.2, стр. 179–191, 2009.[9]
10. Conroy, S., & Emerson, T. “Business ethics and religion: Religiosity as a predictor of ethical awareness among students”, Journal of Business Ethics, Vol.50, стр. 383–396, 2004.

SPORTCHILARNING TAKTIK HARAKATLARIDA KUZATUVCHANLIK VA DIQQATCHANLIKNI RIVOJLANTIRISH

Farg‘ona davlat universiteti Sport faoliyati fakulteti
Adaptiv jismoniy tarbiya va sport universiteti
o‘qituvchisi
A. Qovlonbekov.
a.qovlonbekov@gmail.com

Annotatsiya: Kuzatish jarayoniga albatta diqqat jarayoni qo‘shiladi. Uning mavjudligi va barqarorligi kuzatish predmetining o‘ziga xosligi hamda boshqa xususiyatlar, ya’ni diqqatni bir nuqtaga jamlash, taqsimlash va ko‘chirish bilan xarakterlanadi.

Kalit so`zlar: Psixologiya, kuzatish, motiv,extiyoj, istak,xarakat,sportchi,malaka, sport.

РАЗВИТИЕ НАБЛЮДАТЕЛЬНОСТИ И ВНИМАТЕЛЬНОСТИ В ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЯХ СПОРТСМЕНОВ

Ферганский государственный университет Факультет спортивной деятельности Университет адаптивной физической культуры и спорта
преподаватель
А.Ковлонбеков
a.qovlonbekov@gmail.com

Аннотация: К процессу наблюдения обязательно присоединяется процесс внимания. Его наличие и устойчивость характеризуются особенностями объекта наблюдения, а также другими свойствами, такими как концентрация внимания в одной точке, распределение и переключение внимания.

Ключевые слова: Психология, наблюдение, мотив, потребность, желание, действие, спортсмен, мастерство, спорт.

Sportchilarning taktik harakatlarida kuzatuvchanlik va diqqatchanlikni rivojlantirish.

Kuzatish bu tevarak-atrofdagi predmet va hodisalarni ongli ravishda maqsadli yo‘naltirilgan idrok etish jarayonidir. Sportchilar uchun bunday idrok etishning asosiy predmeti ularning o‘zlari va raqiblari hisoblanadi.

Kuzatish jarayoniga albatta diqqat jarayoni qo‘shiladi. Uning mavjudligi va barqarorligi kuzatish predmetining o‘ziga xosligi hamda boshqa xususiyatlar, ya’ni diqqatni bir nuqtaga jamlash, taqsimlash va ko‘chirish bilan xarakterlanadi. Raqib, jamoadagi sherik hamda o‘zini doimiy o‘zgarib turuvchi musobaqalar sharoitida izchil ravishda kuzatib borish mashqlari, kuzatuvchanlik va diqqatchanlikning sportchi shaxsining xususiyatlariga aylanib ketishiga sabab bo‘ladi.

Kuzatuvchanlik bu predmetlar va hodisalarni bilish va ularning mohiyatini anglashda muhim ahamiyat kasb etuvchi, uncha sezilarli bo‘lmagan belgi va xususiyatlarni payqash va sezish ko‘nikmasidir.

Diqqatchanlik kuzatuv predmetiga ongning tanlab yo‘naltirilishi jarayonidagi kuzatuvchanlikning ajralmas bir tomonidir.

O’quv-tayyorgarlik mashg‘ulotlaridagi kuzatuvchanlik jarayoni sportchilar uchun o‘zlarini, sheriklarini va ayniqsa raqiblarini ularning taktik niyatlarini bilib olish va o‘z taktik harakatlarini amalga oshirishlaridagi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, kurashchilar bilan o‘tkazilgan maxsus tadqiqotlar natijasida kuzatuvchanlik asosida raqib obrazining yaratilishi nihoyatda muhim ekanligi aniqlangan. Bu obraz tarkibiga kurashchining texnikasi haqida, taktikasi, jangni olib borish uslubi, tajribasi, uning jismoniy sifatlari (kuchi, tezligi, chidamliligi, chaqqonligi), emotsional irodaviy xususiyatlari (musobaqalashuv kayfiyati, jasurligi, qat’iyatliligi va matonatligi) va hokazolar kiradi. Yuqorida tilga olingan tavsiflarning eng qiyinlaridan biri bu kurashchining emotsional irodaviy xususiyatlaridir. Chunki malakasiz sportchini baholash ko‘proq qiyinchilik tug‘diradi. Kuzatuvlar asosida yaratilgan raqib obrazi sportchining o‘zi haqidagi tasavvuriga qiyoslanadi. Bu mazkur raqib bilan oldinda turgan olishuvdagi harakatlarning taktik rejasini tuzish imkoniyatini beradi.

Kuzatish musobaqadagi olishuvlar jarayonida raqibning maqsadlarini bilib olish va uning butun taktik rejasini aniqlashtirish uchun amalga oshiriladi. Bunda statistik belgilar

(raqibning pozasi, oraliq masofa, olishuvning xarakterli jihatlari va hokazolar), dinamik belgilar (kuchi, tezligi, harakatlarining sur'ati va ritmi, gilamda manyovrlarni amalga oshirishi va hokazolar), funktsional belgilar (nafas olish uslubi, reaksiyalarni o‘z vaqtida amalga oshirishi, mimikasi va hokazolar) va natijaviy belgilar (faolligi, muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz harakatlar soni, u olgan ogohlantirishlar va hokazolar) mo‘ljal bo‘lib xizmat qiladi. Ana shunday joriy ma'lumotlar asosida taktik harakatlarga bellashuv jarayonida o‘zgarishlar kiritib boriladi.

Boshqa bir tadqiqotda bokschilardagi aldamchi va chin harakatlarning turli belgilari o‘rganilgan. Kuzatuvchanlik yordamida bokschilar o‘z harakatlarini bajarish paytida, ya'ni tayyorgarlik chog‘idayoq farqlashni o‘rganib oladilar. Birinchi holatda bokschilar oraliq masofaga qarab (binobarin, oraliq masofa fintlari (aldamchi harakatlarga) tayyorgarlik jarayonida chin harakatlardagiga nisbatan kattaroq bo‘ladi), bokschining turish holatiga (ochiq yoki yopiq) va uning yuz ifodasiga (masalan, bokschilardan biri chin zarbani berishdan oldin beixtiyor qoshlarini chimiradi) qarab mo‘ljal oladilar. Bunday ma'lumotlar jangdagi har bir holat uchun taktik harakatlarga o‘zgarishlar kiritib borish imkoniyatini beradi.

Kuzatuvchanlik va diqqatchanlik sportning boshqa turlarida ham, ayniqsa, sport o‘yinlarida ham ana shunday rol o‘ynaydi. Zero, sport o‘yinlarida ishtirokchi o‘z xatti-harakatlarini, sheriklarining xatti-harakatlari bilan doimiy ravishda muvofiq bo‘lishiga erishishi lozim.

Kuzatuvchanlik va diqqatchanlik sportchilarning antitsipatsiyasi va taktik tafakkuri bilan chambarchas bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Tilavoldiyev, r. (2024). o'spirinlarning axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishning axamiyati. research and implementation, 2(4), 130-133.

2. Mirzajonova, e. t. rasuljon raxmonali o ‘g ‘li tilavoldiyev. o ‘smir yoshdagi o ‘quvchilarda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishning ilmiy nazariy asoslari//international journal of education, social science & humanities. fars publishers, 11, 660-669.

3. Raxmonaliyevich, t. r. (2022, december). o’smir yoshdagi o’quvchilarda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy-psixologik omillarning o’rni. in interdiscipline innovation and scientific research conference (vol. 1, no. 4, pp. 27-29).

4.Raxmonaliyevich, t. r. (2022, december). o’smir yoshdagi o’quvchilarda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy-psixologik omillarning o’rni. in interdiscipline innovation and scientific research conference (vol. 1, no. 4, pp. 27-29).

5.Qovlonbekov, a. (2023, february). oilaviy nizolar va ularning tavsifi. in conference zone (pp. 289-296).

6.Abdulaziz, q. (2023). oilaviy ajrimlarni oldini olishda nikoh oldi omillarining ahamiyati va oila mustahkamligiga ta’siri. новости образования: исследование в xxi веке, 1(9), 1490-1497

7.Abdullajon o‘g‘li, q. a. (2022). o ‘smirlarda ichki nizolarning psixologik xususiyatlari, ularni bartaraf etish yo ‘llari va hamkorlik masalalari. pedagogs jurnali, 11(2), 22-30.

BIKARYER OILALARDAGI HARBIYLARNING XIZMAT SHAROITLARIGA MOSLASHUVIDA PSIXOLOGIK QO‘LLAB-QUVVATLASHNING O‘RNI

Ishboboyeva Gulbarchin Rustam qizi

International School of Finance Technology and Science instituti o‘qituvchisi

Ishboboyevagulbarchin@gmail.com

Tel: 904257002

Annotatsiya: Bikaryer oilalarda xizmat qiluvchi harbiy xizmatchilarning moslashuv jarayonida psixologik yordamning o‘rni g‘oyat muhimdir. Bunday oilaviy modelda har ikkala turmush o‘rtog‘i ham kasbiy rivojlanishga intilgani sababli, xizmat talablari va oilaviy mas’uliyatlar o‘rtasida muvozanat topishga majbur bo‘ladi. Bu esa ko‘pincha kuchlanish, rol konfliktlari, vaqt taqchilligi, o‘zaro tushunishning zaiflashuvi kabi

psixologik muammolarni yuzaga keltiradi. Psixologik yordam ushbu jarayonni yengillashtirishda bir nechta yo‘nalishlar orqali samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Harbiy xizmatchi, moslashuv, shaxslararo munosabatlar, askar, jangovar tayyorgarlik, stress, psixologik yordam, psixologik chidamlilik, rol konfliktlari, kasbiy rivojlanish.

Hozir kunga qadar, harbiylarning xizmatning yangi sharoitlariga moslashuvi muammosiga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Bu holat harbiy kasbning o‘ziga xosligi hamda davlatni himoya qilishdagi yuqori ijtimoiy ahamiyati bilan izohlanadi. Mazkur muammo armiya tizimida ayniqsa dolzarbdir, chunki texnologiyalar, harbiy texnik jihozlar, uskunalar rivojlanish darajasi jadal o‘zgarib bormoqda, shu bilan birga zamonaviy ish olib borish sharoitlari yanada murakkablashib bormoqda [10].

Avvalo, u harbiy xizmatchining stress holatlarini boshqarish, emotsional barqarorlikni mustahkamlash va psixologik chidamlilikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayon individual va guruhiy psixologik maslahatlar asosida olib borilib, shaxsning o‘z resurslarini anglash, ularni to‘g‘ri yo‘naltirish, murakkab vaziyatlarda konstruktiv qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi [9]. Bundan tashqari, psixologik treninglar harbiy xizmatchi va uning turmush o‘rtog‘i o‘rtasida samarali muloqot, o‘zaro hurmat, empatiya va bir-birini qo‘llab-quvvatlash madaniyatini rivojlantiradi. Bu esa bikaryer oilada kasbiy ambitsiyalar bilan oilaviy ehtiyojlar o‘rtasida sog‘lom muvozanatni ta’minlashga yordam beradi [6].

Psixologik yordamning yana bir muhim jihati - harbiy xizmatchining oilasini moslashuv jarayoniga faol jalb qilishdir. Oila bilan ishlash bo‘yicha psixologik sessiyalar umumiy oilaviy strategiyalarni ishlab chiqish, rollarni muvozanatlash, konfliktlarning oldini olish va oilaviy iqlimni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, harbiy xizmatning beqarorligi va yuqori talabchanligi sharoitida oilaning psixologik barqarorligi harbiy xizmatchining kasbiy samaradorligi va emotsional holatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [4].

Harbiy xizmatchilarning harbiy hayotga moslashuvi - bu harbiy jamoaning ijtimoiy muhitiga kirishish, yangi ijtimoiy rolni qabul qilish, o‘quv jarayonini o‘zlashtirish, jangovar tayyorgarlik talablariga moslashish, kundalik tartib va bo‘sh vaqtni to‘g‘ri

tashkil etish kabi tarkibiy qismlardan iborat murakkab va ko‘p omilli jarayondir. Ushbu jarayon professional moslashuv modelini diagnostika qilish, uni ishlab chiqish va bosqichma-bosqich amalga oshirishni, shuningdek, xizmatning butun davri davomida zarur tuzatishlarni kiritib borishni talab etadi. Faol xizmatga o‘tish davrida muvaffaqiyatli moslashuvga erishish turli professional moslashuv modellaridan oqilona foydalanishga bog‘liq. Moslashuvchanlik darajasi yuqori bo‘lgan harbiylar uchun shaxslararo munosabatlar - «askar-komandir-oila» o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirga urg‘u beruvchi **«yumshoq» tipdagi moslashuv modeli** maqsadga muvofiq hisoblanadi. O‘rtacha moslashuv qobiliyatiga ega bo‘lgan harbiylar uchun «harbiy nizomlar - harbiy burch - oilaviy mas’uliyat» triadasiga asoslangan **«qattiq model**» qo‘llanilishi tavsiya etiladi [1]. Moslashuv darajasi past bo‘lgan askarlar bilan esa yanada murakkabroq yondashuvni talab etuvchi **«qiyin»** va **«juda qiyin»** modellardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu yondashuvlar an’anaviy bo‘lgan oilaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlariga muqobil tarzda «intizom - harbiy odat – tajriba» tamoyillari asosida moslashuv jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi [2].

Psixologik moslashuv - bu insonning o‘zgaruvchan atrof-muhit sharoitlariga faol moslashish jarayoni, optimal faoliyatga erishish va ruhiy salomatlikni saqlashga qaratilgan. Moslashuvning asosiy mexanizmlari quyidagilardir;

1. *Vaziyatni kognitiv baholash:* sodir bo‘layotgan hodisalarni izohlash va unga ma’no berish qobiliyati.
2. *Hissiy tartibga solish:* psixologik muvozanatni saqlash uchun his-tuyg‘ularingizni boshqarish.
3. *Yengish strategiyalari:* stressli vaziyatlarni yengish uchun turli usullardan foydalanish.
4. *Ijtimoiy yordam:* do‘stlar, qarindoshlar va ixtisoslashgan xizmatlardan yordam so‘rash.

Harbiylarning xizmat o‘tash jaroyoni kuchli psixoemotsional omil hisoblanib, inson psixikasiga ta’sir qiladi va uni yashash va kundalik sharoitlarga moslashishga majbur qiladi. Harbiy xizmat shaxsning rivojlanishida muhim, ammo murakkab bosqichdir [3].

- Har bir harbiy xizmatchi harbiy qismdagi yangi sharoitlarga tez moslasha olmaydi.

- Psixologiyada bu jarayon adaptatsiya deb ataladi.
- Adaptatsiyaning tezligi sizning muddatli harbiy xizmat davomida psixologik holatingizga bevosita ta’sir qiladi.

Psixologik qo‘llab-quvvatlashning asosiy maqsadi - oila a’zolarini qo‘llab-quvvatlash, ularga xavotir, stress va depressiv holatlar bilan kurashishda yordam berishdir. Qiyinchiliklar nafaqat kundalik hayotda, balki ishdan yangiliklar kutish davrida ham yuzaga kelishi mumkin. Ayniqsa, psixologik qo‘llab-quvvatlash ayollar, ota-onalar va bolalar uchun muhimdir, chunki harbiy xizmatchi yo‘qligida asosiy yuk aynan ular zimmasiga tushadi[4].

Davlat va jamoat tuzilmalari harbiy xizmatchilarning oilalariga keng ko‘lamli psixologik yordamni taklif qiladi [2]. Yordam formatlari turli toifalarga moslashtirilgan: xotinlar, bolalar, ota-onalar va SVO (maxsus harbiy operatsiya) ishtirokchilarining halok bo‘lgan oilalari. Asosiy yordam turlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Individual psixologik maslahatlar. Shaxsiy tajribalarni, xavotirli holatlarni, apatiya va charchashni yengishga yordam beradi. Ayniqsa, doimiy kutish holatida bo‘lgan harbiy xizmatchilarning xotinlari va onalari uchun muhimdir.

Oilaviy psixoterapiya. Oilada ishonchni tiklash, uzoqlik bilan bog‘liq nizolarni hal qilish, o‘zgargan sharoitga moslashishga yo‘naltirilgan. Ushbu sessiyalar oilaning barcha a’zolari ishtirokida o‘tkaziladi va uy muhitini yaxshilashga yordam beradi.

Oilalar uchun guruh mashg‘ulotlari. Ishtirokchilar tajriba almashadi, stressga chidamlilikni oshirish bo‘yicha treninglarda qatnashadi, o‘zini o‘zi qo‘llash texnikalarini o‘rganadi. Bu sharoitda ishtirokchilar o‘zlariga o‘xshash vaziyatdagi boshqalar bilan xavfsiz muloqot qilishi mumkin.

Onlayn psixologik yordam. Uzoq hududlarda yashovchilar uchun qulay. Psixologik qo‘llab-quvvatlash videomuloqot orqali olib boriladi, bu esa ko‘proq yordamga muhtojlarni qamrab olish imkonini beradi. Onlayn format individual sessiyalar va guruh treninglarini o‘z ichiga oladi.

Harbiy xizmatchilarning oilalari uchun kurslar va treninglar. Xavotirni boshqarish, emotsional charchashni yengish, stress sharoitida bolalarni tarbiyalash

bo‘yicha maxsus dasturlar. Ayrim modullar SVO ishtirokchilarining xotinlari va ota-onalarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan.

Halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning oilalariga yordam. Uzoq muddatli psixologik qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi, shu jumladan motam terapiyasi, yo‘qotilgan ijtimoiy rollarni tiklash, posttravmatik holatlarni yengishga yordam berish. Bunday oilalar bilan ish ko‘pincha individual formatda olib boriladi, lekin maxsus qo‘llab-quvvatlash guruhlari ham mavjud.

Telefon va onlayn tezkor liniyalar. Maxfiy va tezkor yordamni 24 soat davomida ta’minlaydi. Bu kanallar orqali birinchi psixologik yordamni tez olish, eng yaqin maslahat markazini aniqlash va shaxsiy uchrashuvni belgilash mumkin [5].

Psixologik qo‘llab-quvvatlash faoliyati, avvalo, amaliy harakatlarning o‘ziga emas, balki harbiy psixologik faoliyatning obyekti va mohiyatiga - ya’ni harbiy xizmatchilarni chaqirilgan kundan boshlab butun xizmat davri davomida psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlashga qaratiladi. Bunda asosiy maqsad - harbiy xizmatchining xizmat sharoitlariga moslashuvi, psixologik barqarorligi va professional rivojlanishini ta’minlashdir [5]. Psixologik qo‘llab-quvvatlashning mohiyati harbiy xizmatchilarda psixologik resurslarni faol shakllantirish va rivojlantirishdan iborat bo‘lib, bu ularga tanish, odatiy muhitdagidek ishonch bilan harakat qilish imkonini yaratadi. Natijada ular murakkab vaziyatlarni tezda idrok etadi, jang maydonida sodir bo‘layotgan voqealarni to‘g‘ri talqin qiladi, tahdidli tendensiyalarni anglay oladi va ularga tezkor hamda adekvat javob qaytaradi. Shu bilan birga, psixologik travmatik omillar ta’siriga qaramay, ularda jangovar tayyorgarlikning zarur darajasi va faol psixologik holat saqlanib qoladi. Harbiy qismlarga yiliga ikki marotaba yangi «chaqiriluvchilar» keladi. Bu yosh askarlar qisqa muddat ichida murakkab harbiy texnika va qurol-aslahalarni boshqarish mas’uliyatini o‘z zimmasiga olishadi. Bikaryer oilalardagi harbiylar xizmat davomida bir yoki bir nechta operatsiyalarda ishtirok etishi yoki o‘ziga yuklatilgan topshiriqlarni bajarishi ehtimoli yuqori bo‘ladi [9].

Xulosa qilib aytganda, **harbiylarni psixologik qo‘llab-quvvatlashning asosiy vazifalaridan biri** - yuqori xavf, yuqori stress va noaniqlik bilan tavsiflanadigan sharoitlarda samarali faoliyat yuritishga psixologik jihatdan tayyorlashdir. Bu jarayon

kognitiv, emotsional va ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni shakllantirish, stressga chidamlilikni oshirish va ekstremal vaziyatlarda ongli qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мединн, Р. Н. Психологическое обеспечение адаптации к службе военнослужащих по призыву / Р. Н. Мединн, С. И. Огородник. - Текст: непосредственный // Актуальные вопросы современной психологии : материалы III Междунар. науч. конф. (г. Челябинск, февраль 2015 г.).- Челябинск : Два комсомольца, 2015.-С. 58-60.-URL: https://moluch.ru/conf/psy/archive/157/6623.

2. Корытков В. А. Педагогическое обеспечение профессиональной адаптации военнослужащих по призыву в частях противовоздушной обороны Вооруженных сил России. / диссертация на соискание степени к. п.н.– Вооруженных сил Новосибирск, 2013.

3. Маслова, Ж. М. Психологические факторы адаптации и профессионального роста сотрудников ГИБДД: автореф. Дис…. канд. псих, наук / Ж. М. Маслова. - СПб.: СПбУ МВД РФ, 2010.

4. Андреева Д.А. О понятии адаптации // Человек и общество. Вып. 13, Л.: 2003.-С.62-69.

5. Барлас Т.В. Особенности социально-психологической адаптации при психосоматических и невротических нарушениях // Психологический журнал. - 1994.-Т.15.-№6.-С.116-120.

6. Баскакова М.В. Замужняя женщина: семья или работа. // Семья в России. - 1995. - № 3. -С. 101-108.

7. Волкова Н.С. ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ ПРИ ИСПОЛНЕНИИ ВОИНСКОЙ ОБЯЗАННОСТИ В РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ // Научное обозрение. Медицинские науки. 2016. № 3. С. 27-31;

8. Баранов Е.Г., Кандыбович С.Л. Психологические основы подготовки военнослужащих к боевой деятельности. - М., 2000.

EKSTREMAL SHAROITLARDA XIZMAT QILUVCHI XODIMLARNING PSIXOLOGIK CHIDAMLILIGINI OSHIRISH MASALALARI

Qo‘ldosheva Sevinch Sharof qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Psixologiya kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi

sevinchkuldasheva3@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ekstremal sharoitlarda xizmat faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlarning psixologik chidamliligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari kompleks tarzda tahlil etiladi. Ekstremal muhitning shaxs ruhiyatiga ta’siri, uzoq muddatli stress omillarining kasbiy faoliyat samaradorligiga salbiy oqibatlari hamda emotsional zo‘riqish mexanizmlari ilmiy yondashuv asosida yoritilgan. Shuningdek, psixologik barqarorlikni shakllantirishda rezilyentlik, stressga moslashuv strategiyalari, emotsional intellekt va kasbiy-psixologik tayyorgarlikning o‘rni asoslab berilgan. Maqolada psixologik chidamlilikni rivojlantirishning samarali usullari, jumladan, psixodiagnostik saralash, trening texnologiyalari, psixologik monitoring va profilaktik chora-tadbirlarning ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari ekstremal sharoitlarda xizmat qiluvchi xodimlarning ruhiy salomatligini mustahkamlash va kasbiy barqarorligini ta’minlashda tizimli yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Ekstremal sharoit, psixologik chidamlilik, rezilyentlik, kasbiy stress, emotsional barqarorlik, stressga moslashuv, psixologik tayyorgarlik, kasbiy kuyish, psixologik monitoring, ruhiy salomatlik.

ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ СОТРУДНИКОВ, ОСУЩЕСТВЛЯЮЩИХ СЛУЖЕБНУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ

Кулдашева Севинч Шароф кизи

Джизакский государственный педагогический университет

Стажёр-преподаватель кафедры психологии

sevinchkuldasheva3@gmail.com

Аннотация. В данной статье комплексно анализируются теоретические и практические аспекты повышения психологической устойчивости сотрудников, осуществляющих служебную деятельность в экстремальных условиях. На основе научного подхода раскрывается влияние экстремальной среды на психику личности, негативные последствия длительных стрессовых факторов для эффективности профессиональной деятельности, а также механизмы эмоционального напряжения. Кроме того, обоснована роль резильентности, стратегий стрессоустойчивости, эмоционального интеллекта и профессионально-психологической подготовки в формировании психологической устойчивости. В статье освещаются эффективные методы развития психологической устойчивости, включая психодиагностический отбор, тренинговые технологии, психологический мониторинг и профилактические мероприятия. Результаты исследования свидетельствуют о необходимости системного подхода к укреплению психического здоровья и обеспечению профессиональной стабильности сотрудников, осуществляющих деятельность в экстремальных условиях.

Ключевые слова: Экстремальные условия, психологическая устойчивость, резильентность, профессиональный стресс, эмоциональная устойчивость, стрессоустойчивость, психологическая подготовка, профессиональное выгорание, психологический мониторинг, психическое здоровье.

Zamonaviy jamiyatda xavfsizlikni ta’minlash, jamoat tartibini saqlash, favqulodda vaziyatlarda tezkor choralar ko‘rish bilan bog‘liq kasb egalari ekstremal sharoitlarda xizmat faoliyatini olib boradi. Bunday faoliyat doimiy xavf, yuqori mas’uliyat, tezkor qaror qabul qilish zarurati hamda emotsional zo‘riqish bilan tavsiflanadi. Shu bois psixologik chidamlilik ushbu toifadagi xodimlar kasbiy samaradorligining asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ekstremal sharoitlarda faoliyat yuritish inson psixikasiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Uzoq muddatli stress, hayot va sog‘liqqa tahdid, ijtimoiy mas’uliyatning yuqoriligi ruhiy zo‘riqish mexanizmlarini faollashtiradi. Agar shaxsda yetarli darajada psixologik barqarorlik shakllanmagan bo‘lsa, bu holat kasbiy

xatolar, emotsional beqarorlik hamda kasbiy kuyish sindromiga olib kelishi mumkin. Zamonaviy globallashuv jarayonlari, ijtimoiy-siyosiy beqarorlik o‘choqlari, texnogen va tabiiy ofatlar sonining ortishi xavfsizlik tizimida faoliyat yurituvchi mutaxassislarga nisbatan talablarni yanada kuchaytirmoqda. Ekstremal vaziyatlarda xizmat qiluvchi xodimlar qisqa vaqt ichida murakkab operativ vazifalarni bajarishi, noaniq sharoitda to‘g‘ri strategiya tanlashi va yuqori darajadagi javobgarlikni zimmasiga olishi zarur bo‘ladi. Bunday sharoitda nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalar, balki mustahkam ruhiy tayyorgarlik ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ekstremal sharoit deganda shaxs hayoti, sog‘lig‘i yoki ijtimoiy maqomiga real yoki potensial tahdid mavjud bo‘lgan, yuqori darajadagi noaniqlik, vaqt tanqisligi va mas’uliyat bilan tavsiflanadigan vaziyatlar tushuniladi. Bunday sharoitlar inson organizmi va psixikasiga ortiqcha funksional yuklama beradi hamda psixofiziologik tizimlarning maksimal safarbarligini talab etadi. Natijada markaziy nerv tizimi, vegetativ tizim va kognitiv jarayonlar kuchaytirilgan rejimda faoliyat yuritadi. Bu jarayon organizmning moslashuv imkoniyatlarini ishga solishga qaratilgan bo‘lsa-da, uzoq davom etganda resurslarning kamayishiga olib kelishi mumkin. Stress nazariyasiga muvofiq, xavfli yoki tahdidli vaziyatga nisbatan organizm umumiy moslashuv reaksiyasini namoyon etadi. Ushbu reaksiya odatda uch bosqichda kechadi: dastlabki xavotirlanish bosqichi (organizmdagi safarbarlik jarayonlari faollashadi), qarshilik ko‘rsatish bosqichi (moslashuv mexanizmlari nisbatan barqarorlashadi) va holdan toyish bosqichi (resurslar kamayishi kuzatiladi). Agar stress omili uzoq muddat saqlanib qolsa yoki haddan tashqari kuchli bo‘lsa, nerv tizimining funksional imkoniyatlari pasayadi. Bu esa diqqatning barqarorligi susayishi, operativ xotira hajmining qisqarishi, tafakkur jarayonlarining sekinlashuvi hamda qaror qabul qilish aniqligining kamayishida namoyon bo‘ladi. Mazkur o‘zgarishlar bevosita kasbiy faoliyat samaradorligiga ta’sir etadi.

Psixologik chidamlilik shaxsning stress omillari ta’sirida ruhiy muvozanatni saqlab qolish, vaziyatga moslashish va konstruktiv xulq-atvorni namoyon etish qobiliyatini anglatadi. Mazkur fenomen shaxsning individual-psixologik xususiyatlari (temperament, xarakter, irodaviy sifatlar), hayotiy tajribasi, qadriyatlar tizimi, motivatsion yo‘nalishi hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash omillari bilan uzviy bog‘liqdir. Psixologik chidamlilik

dinamik xarakterga ega bo‘lib, u tug‘ma emas, balki rivojlantiriladigan sifat sifatida qaraladi. Rezilyentlik esa shaxsning salbiy va travmatik omillar ta’sirida ham moslashuvchanlikni saqlab qolish, ichki psixologik resurslarni safarbar etish hamda faoliyat samaradorligini tiklay olish qobiliyatidir. Rezilyentlik konstruktiv fikrlash, o‘zini boshqarish, optimistik hayotiy pozitsiya va ijtimoiy aloqalarning barqarorligi bilan tavsiflanadi.

Psixologik chidamlilikni oshirishning samarali yo‘llari

Ekstremal sharoitlarda xizmat qiluvchi xodimlarning psixologik barqarorligini ta’minlash faqat individual darajadagi choralarga tayanmasdan, tizimli va integratsiyalashgan yondashuvni talab qiladi. Bunday yondashuv nafaqat xodimning ruhiy salomatligini saqlash, balki kasbiy samaradorlikni oshirish, muammoli vaziyatlarda tezkor va konstruktiv qaror qabul qilish imkoniyatini yaratadi.

1. Psixodiagnostik saralash: Psixologik chidamlilikni shakllantirishning birinchi qadamlaridan biri — xizmatga qabul qilish jarayonida nomzodlarning psixologik xususiyatlarini aniqlashdir. Bu jarayonda quyidagi omillar baholanadi:

- **Stressga bardoshlilik**: Nomzodning noaniq va xavfli vaziyatlarga tez moslashish qobiliyati.
- **Temperament va xarakter xususiyatlari**: Emotsional barqarorlik, qat’iyatlilik va ijtimoiy moslashuvchanlik.
- **Kognitiv va emotsional nazorat**: Vaziyatni ratsional baholash va hissiyotlarni boshqarish qobiliyati.

2. Professional-psixologik tayyorgarlik: Ikkinchi muhim yo‘l — xodimlarni real vaziyatlarga yaqin sharoitlarda tayyorlashdir. Bu jarayon quyidagi metodlarni o‘z ichiga oladi:

- **Trening mashg‘ulotlari**: Stressli vaziyatlarda qaror qabul qilish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- **Simulyatsion vaziyatlar**: Favqulodda holatlar, ekstremal vazifalar va operativ chaqiriqlarga mos sharoit yaratish.
- **Rolli o‘yinlar va mentorlik**: Xodimlarga murakkab vaziyatlarni boshqarish strategiyalarini amaliyotda sinash imkonini beradi.

3. Stressga moslashuv strategiyalarini rivojlantirish: Xodimning psixologik chidamliligi stressga moslashuvchan strategiyalarni qo‘llash orqali sezilarli darajada oshiriladi. Bular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- **Kognitiv qayta baholash**: Vaziyatni tahdid emas, balki boshqarilishi mumkin bo‘lgan vazifa sifatida qabul qilish.
- **Nafas mashqlari va relaksatsiya texnikalari**: Psixofiziologik zo‘riqishni kamaytirish va organizmni tez tiklash imkonini yaratadi.
- **O‘zini boshqarish ko‘nikmalari**: Stressli vaziyatlarda hissiyotlarni nazorat qilish, fokusni saqlash va samarali qaror qabul qilishni ta’minlaydi.

4. Psixologik monitoring va profilaktika: Doimiy psixologik kuzatuv tizimi xodimning ruhiy salomatligini nazorat qilish va muammolarni erta aniqlash imkonini beradi. Bu jarayon quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Individual maslahatlar va psixoterapevtik seanslar.
- Periodik psixodiagnostik testlar orqali stress darajasi va psixologik barqarorlikni baholash.
- Profilaktik suhbatlar va treninglar orqali xodimni kuchaytirish.

5. Ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlash: Xodimning psixologik chidamliligi nafaqat individual, balki jamoaviy omillarga ham bog‘liq. Sog‘lom ijtimoiy muhit quyidagi tarzda yaratiladi:

- Jamoaviy ishonchni mustahkamlash va hamkorlikni rivojlantirish.
- Mentorlardan va tajribali xodimlardan psixologik qo‘llab-quvvatlash.
- Stressli vaziyatlarda bir-birini qo‘llab-quvvatlash va maslahat berish mexanizmlari.

Psixodiagnostik saralash jarayoni xodimning ekstremal vaziyatlarga tayyorligini baholash va uning stressga bardoshliligi, temperament, emotsional barqarorlik va qaror qabul qilish qobiliyatini aniqlashga imkon beradi. Bu nafaqat kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan psixologik muammolarning oldini olishga xizmat qiladi, balki shaxsning individual rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash va kasbiy tayyorgarlik dasturlarini shaxsga moslashtirish imkonini yaratadi.

Stressga moslashuv strategiyalarini rivojlantirish psixologik chidamlilikni yanada mustahkamlashga yordam beradi. Kognitiv qayta baholash, nafas mashqlari, relaksatsiya texnikalari va o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini o‘zlashtirish xodimga murakkab vaziyatlarda hissiyotlarni nazorat qilish, diqqatni jamlash va tezkor qaror qabul qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, stressga moslashuv strategiyalari xodimning kasbiy va ijtimoiy faoliyatidagi barqarorligini oshiradi, uzoq muddatli emotsional zo‘riqishdan kelib chiqadigan ruhiy va somatik muammolarning oldini oladi. Natijada, yuqoridagi barcha komponentlar birlashtirilgan tizimli yondashuv orqali xodimning psixologik chidamliligi sezilarli darajada oshiriladi. Bunday yondashuv ekstremal vaziyatlarda yuzaga keladigan xatolar va salbiy oqibatlarni minimallashtirish imkonini beradi, xizmat sifatini va xavfsizlikni oshiradi hamda xodimlarning uzoq muddatli kasbiy barqarorligini kafolatlaydi. Shu bilan birga, tizimli yondashuv psixologik salomatlikni mustahkamlash, kasbiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash va ekstremal sharoitlarda samarali faoliyatni barqaror ta’minlash imkonini yaratadi, bu esa xizmat ko‘rsatish sifatini uzluksiz oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Kobilov J.S., Xafizov T.B., Pulatov I.M. *Psixologik rezilyentlikning harbiy ta’limda roli va uni rivojlantirish strategiyalari.*

2.**Jamgurova S.D.** *Stressning kelib chiqishi va psixologik yechimlari.*
Qobilov H. *Emotsional stressning ilmiy-nazariy izohi.*

3**Boqiyeva K.A.** *Ekstremal vaziyatlarda psixologik yordam modeli.*

4.**Ergashev H.A.** *Stressga barqarorlik tushunchasi.*

HARBIY XIZMATCHILARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHDA OILAVIY QADRIYATLARNING ROLI:ILMIY-NAZARIY VA EMPIRIK TAHLIL

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
Universiteti magistranti Sotvoldiyeva
Nodirabegim Mirzoxidjon qizi
Email:nodirabegimsotvoldiyeva7@mail.com

Annotatsiya:mazkur maqolada harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini (resiliensiya) shakllantirishda oilaviy qadriyatlarning roli nazariy va empirik jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy harbiy xizmat yuqori psixologik yuklama, qat’iy intizom, ijtimoiy ajralish va stress omillari bilan tavsiflanadi. Shu bois psixologik barqarorlik harbiy kasbiy samaradorlikning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Maqolada oilaviy qadriyatlarga asoslangan psixoprofilaktik model taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: harbiy psixologiya, psixologik barqarorlik, resiliensiya, oilaviy qadriyatlar, harbiy oila, stress.

Kirish

Zamonaviy harbiy faoliyat yuqori darajadagi emotsional zo‘riqish, tezkor va mas’uliyatli qaror qabul qilish zarurati, qat’iy intizom, jamoaviy subordinatsiya hamda ijtimoiy ajralish sharoitlari bilan tavsiflanadi. Bunday muhitda harbiy xizmatchining nafaqat kasbiy tayyorgarligi, balki uning psixologik barqarorligi ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa xizmatning dastlabki bosqichi – adaptatsiya davri – shaxsning mavjud psixologik resurslari va himoya mexanizmlarini sinovdan o‘tkazadi. Shu bois psixologik barqarorlik (resiliensiya) harbiy kasbiy samaradorlikni ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Psixologik barqarorlikni baholash uchun Connor va Davidson tomonidan CD-RISC metodikasi ishlab chiqilgan. Harbiy oilalarda xavf va himoya mexanizmlari Saltzman va hamkorlar tomonidan o‘rganilib, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash asosiy resurs sifatida qayd etilgan. American Psychological Association ham harbiy oilalarda

psixologik tayanch tizimi barqarorlikni mustahkamlashini ta’kidlaydi. World Health Organization ruhiy salomatlikni saqlashda yaqin ijtimoiy muhit muhimligini ko‘rsatadi.

Resiliensiya tushunchasi ilmiy muomalaga dastlab Emmy Werner tomonidan kiritilgan bo‘lib, u uzoq muddatli longitudional tadqiqotlar asosida noqulay ijtimoiy sharoitlarda ulg‘aygan bolalarning muayyan qismi muvaffaqiyatli moslasha olishini empirik jihatdan isbotlagan[1]. Mazkur tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, shaxsning barqarorligi tug‘ma emas, balki ijtimoiy muhit va qo‘llab-quvvatlash tizimlari bilan chambarchas bog‘liq jarayondir.

Keyinchalik Froma Walsh oilaviy resiliensiya modelini ishlab chiqib, psixologik barqarorlikni oilaviy tizim doirasida ko‘rib chiqdi[2]. Unga ko‘ra, oilaning e’tiqod tizimi, tashkiliy moslashuvchanligi va kommunikativ ochiqligi inqirozli vaziyatlarda barqarorlikni ta’minlovchi asosiy omillardir. Mazkur yondashuv resiliensiyani individual sifat emas, balki tizimli va ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida talqin etadi.

Ann S. Masten resiliensiyani “oddiy mo‘jiza” deb atab, uni inson taraqqiyotidagi tabiiy himoya mexanizmlarining namoyon bo‘lishi sifatida izohlaydi[3]. Bu yondashuvga ko‘ra, barqarorlik favqulodda qobiliyat emas, balki normal rivojlanish jarayonida shakllanadigan adaptiv tizimlar natijasidir. Demak, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ayniqsa oilaviy muhit, ushbu adaptiv tizimlarning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

George A. Bonanno travmatik hodisalardan keyingi tiklanish jarayonini o‘rganib, ijtimoiy aloqalar va yaqinlar qo‘llab-quvvatlashi stressni yengishda asosiy himoya omili ekanligini asoslab bergan[4]. Uning tadqiqotlari ekstremal sharoitlarda ham shaxsning ruhiy tiklanish salohiyati yuqori ekanini, bunda ijtimoiy tayanch tizimi hal qiluvchi rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Psixologik barqarorlikni empirik o‘lchash maqsadida Kathryn M. Connor va Jonathan R.T. Davidson tomonidan CD-RISC metodikasi ishlab chiqilgan[5]. Ushbu shkala turli kasbiy guruhlar, jumladan harbiy xizmatchilar orasida keng qo‘llanilib, resiliensiyaning miqdoriy ko‘rsatkichlarini aniqlash imkonini beradi.

[1] Werner E.E. Resilient Children and Youth. – 1982.
[2] Walsh F. Family Resilience. – 2003.
[3] Masten A.S. Ordinary Magic. – 2001.

Harbiy oilalarda xavf va himoya mexanizmlarini o‘rganish bo‘yicha Saltzman va hamkorlarining tadqiqotlari ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni asosiy barqarorlik omili sifatida e’tirof etadi[6]. American Psychological Association harbiy oilalarda psixologik tayanch tizimining mustahkamligi xizmat samaradorligi va ruhiy salomatlikni ta’minlashda muhimligini ta’kidlaydi[7]. Shuningdek, World Health Organization ruhiy salomatlikni saqlash va stressning oldini olishda yaqin ijtimoiy muhitning ahamiyatini alohida qayd etadi[8].

O‘zbekiston psixologiya maktabida oilaning shaxs kamolotidagi roli keng va chuqur o‘rganilgan. Oilaning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishga ta’siri bir qancha nazariy va empirik tadqiqotlarda asosli ravishda tasdiqlangan. V.M. Karimova oilani shaxsning ijtimoiylashuvining asosiy instituti sifatida baholaydi[9]. Unga ko‘ra, oila nafaqat individual identifikatsiya va ijtimoiy norma o‘rganish maydoni, balki emotsional va ma’naviy barqarorlikni shakllantirishning markaziy vositasi hisoblanadi. Oilaviy munosabatlar, ota-ona va bolalar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, mehr-muhabbat va qo‘llab-quvvatlash shaxsning ichki resurslarini mustahkamlaydi va stressga qarshi himoya vazifasini bajaradi.

G‘.B. Shoumarov hamda I.O. Haydarov oilaviy munosabatlarning emotsional barqarorlikni shakllantirishdagi rolini tizimli jihatdan ilmiy asoslab bergan[10] [11]. Ularning tadqiqotlarida oilaning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, kommunikatsiya ochiqligi va konfliktlarni konstruktiv hal qilish qobiliyati shaxsning psixologik barqarorligini kuchaytiruvchi muhim omil sifatida ko‘rsatildi. Shu bilan birga, oiladagi rollar moslashuvchanligi va ota-ona tomonidan beriladigan ijobiy ma’naviy ta’sir shaxsning stressga chidamliligini oshiradi va qiyin vaziyatlarda tez tiklanish imkonini yaratadi.

Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash va milliy qadriyatlarning shaxs rivojlanishidagi ahamiyati ham qator tadqiqotlarda yoritilgan[12] [13]. Musurmonova oilaviy tarbiya va psixologik tayyorgarlikning yoshlar hayotidagi o‘rni, shuningdek, oilaviy qadriyatlarning shaxsning motivatsiya, irodaviy kuch va ijtimoiy moslashuv qobiliyatlariga ta’sirini batafsil tahlil qiladi[12]. Norqulov esa milliy qadriyatlarning ijtimoiy-psixologik ahamiyatini o‘rganib, ota-ona hurmati, sadoqat, vatanparvarlik kabi qadriyatlarning shaxs ruhiy barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini aniqlaydi[13]. Ushbu

tadqiqotlar natijalari O‘zbekistonda oilaviy qadriyatlar tizimining shaxsning ichki va ijtimoiy resurslarini faollashtirishdagi muhim rolini ilmiy asoslab beradi.

Shuningdek, harbiy psixologik tayyorgarlik masalalari Yusupov va To‘xtayev tomonidan tizimli ravishda tahlil qilingan[14]. Ularning ishida harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini shakllantirish jarayonida oilaning roli alohida ta’kidlangan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy qo‘llab-quvvatlash xizmatning birinchi yillarida adaptatsiya jarayonini yengillashtiradi, stressni kamaytiradi va kasbiy samaradorlikni oshiradi. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar va oilaviy munosabatlar ekstremal sharoitlarda ichki ma’naviy resurslarni faollashtiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Ushbu tadqiqotlar majmuasi O‘zbekiston sharoitida oilaviy qadriyatlarning shaxs psixologik barqarorligi va kasbiy samaradorlikni shakllantirishdagi tizimli rolini isbotlaydi, shuningdek, harbiy muhitda psixoprofilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishda asosiy ilmiy nazariy baza sifatida xizmat qiladi.

Shu bilan birga, harbiy muhit kontekstida oilaviy qadriyatlarning psixologik barqarorlikka ta’siri yetarli darajada empirik o‘rganilmagan. Ayniqsa milliy qadriyatlar — ota-ona hurmati, sadoqat, mas’uliyat, vatanparvarlik —ning resiliensiya shakllanishidagi roli ilmiy asosda chuqur tahlil qilishni talab etadi.

Xulosa o‘rnida shuni takidlashim joizki, o‘tkazilgan nazariy va empirik tadqiqot natijalari oilaviy qadriyatlar harbiy xizmatchilar psixologik barqarorligini shakllantirishda muhim ijtimoiy-psixologik determinant ekanligini ishonchli tarzda tasdiqladi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, oilaviy qo‘llab-quvvatlash darajasi bilan resiliensiya ko‘rsatkichlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy bog‘liqlik mavjud ($r=0,55$; $p<0,01$). Bu natija oilaning shaxs ruhiy barqarorligini ta’minlovchi asosiy ijtimoiy institutlardan biri ekanini yana bir bor ko‘rsatadi.

Empirik ma’lumotlar oilali harbiy xizmatchilarda psixologik barqarorlik darajasi yuqoriroq ekanini, shuningdek past oilaviy qo‘llab-quvvatlash sharoitida stress simptomlari ko‘proq namoyon bo‘lishini aniqladi. Bu holat oilaning emotsional stabilizator va psixologik himoya mexanizmi sifatidagi rolini ilmiy asoslaydi. Oila shaxs

uchun nafaqat ijtimoiy tayanch, balki ma’naviy identifikatsiya, motivatsion kuch va irodaviy barqarorlik manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Nazariy jihatdan tadqiqot natijalari resiliensiya konsepsiyasining tizimli yondashuvini tasdiqlaydi, ya’ni psixologik barqarorlik faqat individual sifat emas, balki ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sir natijasidir. Ayniqsa milliy qadriyatlar — ota-ona hurmati, sadoqat, vatanparvarlik, mas’uliyat hissi — harbiy xizmatchining ichki ma’naviy resurslarini faollashtirib, ekstremal sharoitlarda ruhiy mustahkamlikni ta’minlovchi omil sifatida xizmat qiladi.

Amaliy jihatdan tadqiqot quyidagi muhim xulosalarni ilgari suradi:

harbiy xizmatning dastlabki bosqichida oilaviy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish adaptatsiya jarayonini yengillashtiradi;

oilaviy yo‘naltirilgan psixoprofilaktik dasturlar PTSB va boshqa stressga bog‘liq buzilishlarning oldini olishda samarali vosita bo‘lishi mumkin;

harbiy psixologlar faoliyatiga oilaviy maslahat va tizimli yondashuv elementlarini kiritish xizmat samaradorligini oshiradi.

Shu asosda harbiy tizimda oilaviy yo‘naltirilgan psixoprofilaktik modelni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Mazkur model xizmat oldi tayyorgarlik jarayonida oilaviy psixologik maslahatlar, harbiy oilalar uchun trening dasturlari, masofaviy psixologik qo‘llab-quvvatlash platformalari hamda milliy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-ma’rifiy komponentlarni o‘z ichiga olishi zarur.

Umuman olganda, oilaviy qadriyatlar harbiy xizmatchining psixologik barqarorligini shakllantirishda kompleks, ko‘p darajali va tizimli ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ular shaxsning ichki resurslarini faollashtiradi, stressga chidamlilikni oshiradi va kasbiy samaradorlikni mustahkamlaydi. Kelgusida mazkur yo‘nalishda kengroq tanlanmalar asosida longitudinal tadqiqotlar o‘tkazish ilmiy natijalarni yanada chuqurlashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Werner E.E. Resilient Children and Youth. – 1982.

2. Walsh F. Family Resilience. – 2003.
3. Masten A.S. Ordinary Magic. – 2001.
4. Bonanno G.A. Loss, Trauma and Human Resilience. – 2004.
5. Connor K.M., Davidson J.R.T. Development of CD-RISC. – 2003.
6. Saltzman W.R. et al. Military Families Resilience. – 2011.
7. American Psychological Association. Building Resilience in Military Families. – 2017.
8. World Health Organization. Mental Health Guidelines. – 2016.
9. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – 2007.
10. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. – 2010.
11. Shoumarov G‘.B., Haydarov I.O. Oila psixologiyasi asoslari. – 2008.
12. Musurmonova O. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash. – 2023.
13. Norqulov H. Oilaviy qadriyatlar. – 2022.
14. Yusupov M., To‘xtayev S. Harbiy psixologik tayyorgarlik. – 2024.

URUSH VA JANGOVAR SHAROITLARDA PSIXOLOGIK REABILITATSIYA: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Fayziyeva Nodira Sobirovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
Turobova Munira Tolibjon qizi
psixologiya (yo‘nalishi) talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada urush va jangovar sharoitlarda harbiy xizmatchilar hamda jangovar harakatlar hududida yashovchi aholining psixologik holati, ularda kuzatiladigan travmatik stress reaksiyalari va psixologik reabilitatsiya jarayonining dolzarb muammolari tahlil qilinadi. Ayniqsa, posttravmatik stress buzilishi (PTSB), depressiv holatlar, xavotir darajasining oshishi, affektiv buzilishlar hamda ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar asosiy muammo sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda zamonaviy harbiy psixologiya yondashuvlari, jumladan, krizis-interventsiya, kognitiv-

xulq-atvor terapiyasi, guruhiy psixoterapiya va psixoedukatsiya usullarining samaradorligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Urush, jangovar sharoit, psixologik reabilitatsiya, stress, travma, posttravmatik stress buzilishi (PTSB), psixologik yordam, emotsional qo‘llab-quvvatlash, krizis holat, ijtimoiy moslashuv, ruhiy salomatlik, reabilitatsiya dasturlari, psixoterapiya, moslashuv strategiyalari, harbiy psixologiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ СЕМЬИ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА СЛУЖБУ

Аннотация: В данной статье анализируется психологическое состояние военнослужащих и населения, проживающего в зоне боевых действий в условиях войны и боевых действий, наблюдаемые у них реакции на травматический стресс, а также актуальные проблемы процесса психологической реабилитации. В частности, в качестве основных проблем рассматриваются посттравматическое стрессовое расстройство (ПТСР), депрессивные состояния, повышенная тревожность, аффективные расстройства и трудности социальной адаптации. В исследовании подчеркивается эффективность современных подходов военной психологии, включая кризисное вмешательство, когнитивно-поведенческую терапию, групповую психотерапию и психообразовательные методы.

Ключевые слова: Война, боевые условия, психологическая реабилитация, стресс, травма, посттравматическое стрессовое расстройство (ПТСР), психологическая помощь, эмоциональная поддержка, кризисная ситуация, социальная адаптация, психическое здоровье, реабилитационные программы, психотерапия, стратегии адаптации, военная психология.

Kirish. Zamonaviy dunyo tarixida urush va qurolli to‘qnashuvlar insoniyatning eng og‘ir sinovlaridan biri bo‘lib kelgan. Jangovar sharoitlar nafaqat jismoniy xavf va zarar keltiradi, balki insonning ruhiy salomatligi va psixologik barqarorligiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Urushning bevosita guvohlari bo‘lgan harbiy xizmatchilar, fuqarolar, shuningdek, majburiy ko‘chirish va qochqinlik holatlariga duchor bo‘lgan odamlar turli psixologik travmalarni boshdan kechiradi. Ularning ruhiy holati stress, posttravmatik

stress buzilishi (PTSB), depressiya, xavotir va boshqa psixologik muammolar bilan ifodalanadi.

Shuning uchun urush va jangovar sharoitlarda psixologik reabilitatsiya masalalari jiddiy ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Psixologik reabilitatsiya jarayoni insonning ruhiy barqarorligini tiklash, travmatik tajribalarning salbiy oqibatlarini kamaytirish va jamiyatga muvaffaqiyatli qaytishini ta’minlashga qaratilgan kompleks choralarni o‘z ichiga oladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi urush va jangovar sharoitlarda psixologik reabilitatsiyaning dolzarb masalalari, mavjud muammolar va samarali yechimlarni aniqlashdan iborat. Bu mavzu nafaqat harbiy psixologiya sohasida, balki fuqarolarni himoya qilish va jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta’minlash nuqtai nazaridan ham muhimdir. Tadqiqot natijalari urush ta’siridagi shaxslar va ularning oilalariga psixologik yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI. Urush va jangovar sharoitlar inson psixikasiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy psixologiya va harbiy psixologiya tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, urush sharoitida insonlarda stress, travmatik hodisalar natijasida psixologik diskomfort, posttravmatik stress buzilishi (PTSB), depressiya va boshqa ruhiy salomatlik muammolari paydo bo‘lishi mumkin. Shu sababli jangovar sharoitlarda psixologik reabilitatsiya masalasi dolzarb va muhim ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida rivojlanmoqda.

Xalqaro tajribaga ko‘ra, urushdan keyingi psixologik reabilitatsiya turli usullarni o‘z ichiga oladi: individual psixoterapiya, guruhli mashg‘ulotlar, oila bilan ishlash, stressni kamaytiruvchi texnikalar va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash. Masalan, A. Herman (1992) travmatik tajribalar natijasida paydo bo‘ladigan psixologik jarohatlar va ularni davolashning struktural yondashuvlarini ishlab chiqgan. Shuningdek, E. Shapiro tomonidan ishlab chiqilgan EMDR (Eye Movement Desensitization and Reprocessing) metodi urush travmalarini kamaytirishda samarali usul sifatida tanilgan.

O‘zbekiston va MDH mamlakatlarida olib borilgan tadqiqotlar ham urush va jangovar sharoitlarda psixologik reabilitatsiyaning muhimligini ko‘rsatmoqda. Masalan, S. Murodov va M. Islomov (2015–2020 yillar) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni

isbotladiki, harbiy xizmatchilarda jangovar sharoitlardan keyin psixologik yordamning kechikishi ularning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, psixologik reabilitatsiya dasturlari samarali bo‘lishi uchun individual yondashuv, davolashning tizimli rejasi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi talab etiladi.

Bundan tashqari, urush sharoitida jangovar xodimlar, nogironlar va urush qurbonlari bilan ishlashda maxsus psixologik yondashuvlar qo‘llaniladi. Masalan, krizis psixologiyasi, neyropsixologiya va psixopedagogik usullar birgalikda qo‘llanilishi orqali reabilitatsiya jarayoni samaradorligi oshiriladi.

Shu tarzda, mavzu zamonaviy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo‘lib, uning dolzarbligi harbiy xizmatchilar va fuqarolarning ruhiy salomatligini ta’minlash bilan bog‘liq. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, jangovar sharoitlarda psixologik reabilitatsiya tizimli va individual yondashuvni talab qiladi, shuningdek, ijtimoiy muhit va qo‘llab-quvvatlash muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa. Urush va jangovar sharoitlar inson psixikasiga jiddiy zarar yetkazadi. Harbiy xizmatchilar, tinch aholi va front orti xodimlari doimiy stress, travma va psixologik zo‘riqishlarga duch keladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bu vaziyatlarda psixologik reabilitatsiya nafaqat shaxsning ruhiy sog‘ligini tiklash, balki uning ijtimoiy moslashuvi va professional faoliyatini davom ettirish uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Asosiy muammolar qatorida quyidagilar ajralib turadi: yetarli malakaga ega psixolog va psixiatr kadrlarning yetishmasligi, reabilitatsiya xizmatlarining mintaqaviy nomutanosibligi, jangovar travmalarni aniqlash va davolashda samarali metodlarning cheklanganligi. Shu bilan birga, urushdan qaytgan shaxslarning ruhiy holatini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi yetarlicha rivojlanmaganligi, ularning jamiyatga integratsiyalashuvini qiyinlashtiradi.

Yechim sifatida psixologik reabilitatsiya dasturlarini kengaytirish, malakali mutaxassislarni tayyorlash va jangovar travmalarni aniqlash uchun maxsus diagnostik vositalarni joriy etish zarur. Bundan tashqari, davolash va qo‘llab-quvvatlash jarayonida innovatsion metodlar, masalan, kognitiv-behavioral terapiya, guruhli psixoterapiya va onlayn psixologik yordam texnologiyalari samarali bo‘lishi mumkin. Jamiyat tomonidan

doimiy ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va oila muhitini mustahkamlash ham reabilitatsiya jarayonini tezlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, urush va jangovar sharoitlarda psixologik reabilitatsiya tizimli va kompleks yondashuvni talab qiladi. Muammolarni aniqlash va ularga samarali yechimlar ishlab chiqish nafaqat harbiy xizmatchilarning, balki butun jamiyatning ruhiy salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jones, E., & Wessely, S. (2013). *Battle Psychiatry: War-related Psychological Injuries.* New York: Oxford University Press.– Betlar: 45–72, 123–148.

2. Hoge, C.W., et al. (2004). *Combat Duty in Iraq and Afghanistan, Mental Health Problems, and Barriers to Care. New England Journal of Medicine*, 351(1).– Betlar: 14–22.

3. Watson, P.J., et al. (1998). *War Trauma: Lessons Unlearned. Journal of Traumatic Stress*, 11(1).– Betlar: 67–89.

4. Puvak, J., & North, C.S. (2005). *Psychological Consequences of War and Implications for Intervention. Current Psychiatry Reports*, 7(4).– Betlar: 254–260.

5. Norris, F.H., et al. (2002). *60,000 Disaster Victims Speak: Part I. Psychiatry*, 65(3).– Betlar: 25–49.

6. American Psychiatric Association. (2013). *Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders* (5-chi ed.). Washington, DC: APA.– Betlar: 271–293 (PTSD bo‘limi).

7. Mol, S., & Arda, B. (2014). *Psychological Rehabilitation of War Survivors. International Journal of Psychological Rehabilitation*, 19(2).– Betlar: 88–112.

QUROLLI KUCHLAR TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI

Nurullayev Firdavs Shamsiddin o‘g‘li

Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchisi nurullayevfirdavs07@gmail.com Tel; +998938767755

Annotatsiya:

Mazkur tezisda qurolli kuchlar tizimida psixologik xizmat samaradorligini oshirishning zamonaviy imkoniyatlari tahlil qilinadi. Unda raqamli diagnostika, psixoprofilaktik treninglar, seleksiya tizimi va reabilitatsiya jarayonlarining ahamiyati yoritiladi. Psixologik xizmatni takomillashtirishda komandirlarning psixologik savodxonligi hamda tashkiliy-huquqiy mexanizmlarning roli asoslab beriladi. Kompleks va innovatsion yondashuv asosida psixologik ta’minotni kuchaytirish qurolli kuchlarning jangovar tayyorgarligi va ruhiy barqarorligini oshirishga xizmat qilishi xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar: psixologik xizmat, qurolli kuchlar, stressga chidamlilik, raqamli diagnostika, psixoprofilaktika, reabilitatsiya, jangovar tayyorgarlik.

СОВРЕМЕННЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ В СИСТЕМЕ ВООРУЖЁННЫХ СИЛ

Аннотация:

В данных тезисах анализируются современные возможности повышения эффективности психологической службы в системе вооружённых сил. Рассматривается значение цифровой диагностики, психопрофилактических тренингов, системы профессионального отбора и реабилитационных программ. Обосновывается роль психологической грамотности командиров и совершенствования организационно-правовых механизмов в развитии службы. Делается вывод о том, что комплексный и инновационный подход к психологическому обеспечению способствует повышению боевой готовности и психологической устойчивости вооружённых сил.

Ключевые слова: психологическая служба, вооружённые силы, стрессоустойчивость, цифровая диагностика, психопрофилактика, реабилитация, боевая готовность.

MODERN OPPORTUNITIES FOR IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN THE ARMED FORCES SYSTEM

Abstract:

This thesis analyzes modern opportunities for improving the effectiveness of psychological services within the armed forces system. It highlights the importance of digital diagnostics, psychoprophylactic training programs, professional selection systems, and rehabilitation processes. The role of commanders' psychological competence and organizational-legal mechanisms in strengthening psychological services is substantiated. It is concluded that a comprehensive and innovative approach to psychological support enhances combat readiness and psychological stability of the armed forces.

Key words: psychological service, armed forces, stress resilience, digital diagnostics, psychoprophylaxis, rehabilitation, combat readiness.

Qurolli kuchlar tizimida psixologik xizmat samaradorligi mudofaa salohiyatining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Zamonaviy harbiy mojarolar sharoitida shaxsiy tarkibning ruhiy barqarorligi texnik qurol yarog‘ darajasi bilan teng ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Harbiy psixologik xizmatning asosiy vazifasi harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini psixik holat nuqtai nazaridan qo‘llab quvvatlashdan iborat. Bu vazifa shaxsiy tarkibning stressga chidamliligini oshirish, motivatsiyasini mustahkamlash va intizomini ta’minlash bilan chambarchas bog‘liq.

Psixologik xizmat samaradorligini oshirishning zamonaviy imkoniyatlaridan biri bu raqamli diagnostika vositalarini joriy etishdir. Onlayn test tizimlari, elektron anketa va so‘rovnomalar yordamida shaxsiy tarkibning psixologik holatini muntazam monitoring qilish mumkin. Bunday tizimlar ma’lumotlarni tezkor qayta ishlash va tahlil qilish imkonini berib, xavf guruhiga kiruvchi harbiy xizmatchilarni erta aniqlashga yordam beradi.

Yana bir muhim yo‘nalish harbiy xizmatchilar uchun psixoprofilaktik va psixokorreksion trening dasturlarini keng joriy etishdir. Stresga bardoshlilikni

rivojlantirish, konfliktlarni konstruktiv hal qilish va emotsiyalarni boshqarish bo‘yicha maxsus treninglar muntazam o‘tkazilishi lozim.

Qurolli kuchlarda psixologik xizmat samaradorligini oshirish uchun kadrlar bilan ishlashning seleksion bosqichini takomillashtirish ham muhimdir. Harbiy xizmatga nomzodlarni psixologik saralashda zamonaviy testlar, proektiv metodikalar va suhbat texnikalarining kompleksidan foydalanish talab etiladi.

Psixologik xizmat samaradorligini oshirishning yana bir sharti uning tashkiliy tuzilmasi va normativ huquqiy bazasini takomillashtirishdir. Psixolog lavozimlari sonini birliklar kesimida optimallashtirish va ularning vazifalarini aniq reglamentlash zarur. Normativ hujjatlarda psixologning mustaqil ekspert sifatidagi maqomi, axborotning maxfiyligi va professional etika talablari aniq ko‘rsatilishi lozim.

Zamonaviy sharoitda psixologik xizmat samaradorligini oshirishda psixoreabilitatsiya va posttravmatik yordam tizimini rivojlantirish ham dolzarbdir. Jangovar vazifalardan qaytgan harbiy xizmatchilar uchun maxsus reabilitatsiya dasturlari, psixoterapevtik guruhlar va individual maslahatlar tashkil etilishi zarur. Bu dasturlarda travmadan keyingi stress buzilishi, aybdorlik hissi va agressiv reaksiyalarni yumshatishga qaratilgan usullar qo‘llaniladi.

Zamonaviy sharoitda psixologik xizmat samaradorligini oshirish uchun baholash indikatorlari va monitoring tizimini ishlab chiqish zarur. Samaradorlik ko‘rsatkichlariga shaxsiy tarkibdagi intizom buzilishlari soni, favqulodda hodisalarning kamayishi va xizmatdan qoniqish darajasi kirishi mumkin. Psixologik iqlim, jamoaviy birdamlik va rahbarlik uslubi bo‘yicha muntazam so‘rovlar o‘tkazish diagnostik ma’lumotlarni boyitadi.

XULOSA

Qurolli kuchlar tizimida psixologik xizmat samaradorligini oshirish zamonaviy harbiy boshqaruvning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Psixologik barqarorlik va ruhiy tayyorgarlik jangovar salohiyatning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Raqamli diagnostika, monitoring va ma’lumotlar tahliliga asoslangan boshqaruv tizimi xizmat sifatini sezilarli darajada oshiradi. Psixoprofilaktik treninglar va psixokorreksion dasturlar shaxsiy tarkibning stressga chidamliligini mustahkamlaydi. Ilmiy asoslangan

seleksiya va joylashtirish jarayonlari kelgusidagi psixologik muammolarni kamaytirishga xizmat qiladi. Komandirlarning psixologik savodxonligini oshirish jamoaviy muhitni sog‘lomlashtirish va samarali rahbarlikni ta’minlaydi. Reabilitatsiya va posttravmatik yordam tizimining rivojlanishi harbiy xizmatchilarning uzoq muddatli ruhiy salomatligini qo‘llab-quvvatlaydi. Tashkiliy-huquqiy bazani takomillashtirish va professional etika me’yorlarini mustahkamlash xizmat faoliyatining barqarorligini ta’minlaydi. Psixolog kadrlarning uzluksiz malaka oshirishi va superviziya tizimi ularning kasbiy samaradorligini kuchaytiradi. Umuman olganda, kompleks va innovatsion yondashuv asosida tashkil etilgan psixologik xizmat qurolli kuchlarning jangovar tayyorgarligi va ijtimoiy-psixologik barqarorligini yuqori darajaga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimova V.M. Harbiy psixologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
2. Nishanova Z.T. Ijtimoiy psixologiya va harbiy jamoalarda psixologik muhit. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2018.
3. Дьяченко М.И., Кандыбович Л.А. Военная психология. – Москва: Юрайт, 2017.
4. Куликов Л.В. Психология стресса и экстремальных ситуаций. – Санкт-Петербург: Питер, 2015.
5. Matthews M.D., Laurence J.H. Military Psychology: Clinical and Operational Applications. – New York: Guilford Press, 2012.

HARBIYLARNI PSIXOLOGIK TAYYORLASHNING ASOSIY JIHATLARI

Jumanova Nasiba Sherbaevna,

Jizzax DPU, Psixologiya kafedrasi

katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiylarni psixologik tayyorlashning asosiy jihatlari va yo’nalishlari, harbiylarning ma’naviy-ruhiy tayyorgarliklari, ularning stressga chidamliligini shakllantirish va jang sharoitiga tayyorlash bo’yicha batafsil ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: harbiy, psixologik tayyorgarlik, stress, chidamlilik, ekstremal sharoit, jamoaviy psixologik muhit.

Abstract: This article provides detailed information on the main aspects and directions of psychological training of military personnel, moral and spiritual training of military personnel, formation of their resistance to stress and preparation for combat conditions.

Key words: military, psychological training, stress, endurance, extreme conditions, collective psychological environment.

Harbiy xizmat nafaqat jismoniy chidamlilik va texnik mahoratni, balki mustahkam psixologik barqarorlikni ham talab qiladi. Zamonaviy harbiy operatsiyalar sharoitida askar va ofitserlar yuqori darajadagi stress, havf-xatar va noaniqlik muhitida qaror qabul qiladilar. SHu bois harbiylarni psixologik tayyorlash tizimi qurol-yarog’ bilan ishlash kabi muhim ahamiyatga ega.

Avvalo psixologik tayyorgarlik tushunchasi va ahamiyati haqida batafsil to’xtalib o’tsak. Psixologik tayyorgarlik — bu harbiy xizmatchilarni jang va xizmat faoliyati davomida yuzaga keladigan ruhiy bosim, qo’rquv, stress va ekstremal holatlarga bardosh bera olishga o’rgatish jarayonidir. Bu jarayon quyidagi vazifalarni qamrab oladi, ya’ni ruhiy barqarorlikni shakllantirish, stressga chidamlilikni oshirish, qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish, jamoada ishlash ko’nikmalarini mustahkamlash, vatanparvarlik va xizmat burchi hissini kuchaytirish Psixologik tayyorlashning asosiy yo’nalishlari:

1. Ma’naviy-ruhiy tayyorgarlik
2. Stressga chidamlilikni shakllantirish

3. Jamoaviy psixologik muhit
4. Jang sharoitiga tayyorlash
5. Harbiy psixologning o’rni
6. Psixologik tayyorgarlikning samarasi

Ma’naviy-ruhiy tayyorgarlik. Harbiy shaxsning ma’naviy dunyoqarashi uning xizmatga munosabatini belgilaydi. Vatanparvarlik, harbiy qasamga sadoqat va mas’uliyat hissi psixologik barqarorlikning asosidir.

Bu borada milliy g’oya va qadriyatlar, tarixiy meros muhim o’rin tutadi. Masalan, Amir Temurning harbiy intizom va jasorat haqidagi ta’limotlari yosh harbiylar uchun ibrat maktabi hisoblanadi.

Stressga chidamlilikni shakllantirish. Harbiy xizmatda stress doimiy hamroh hisoblanadi. Shu sababli psixologik mashg’ulotlarda:

ekstremal sharoitlarni modellashtirish, simulyatsion mashqlar, nafas olish va relaksatsiya texnikasi, psixologik treninglar kabi usullar qo’llaniladi.

Bugungi kunda dunyo armiyalarida, jumladan NATOga a’zo davlatlar qurolli kuchlarida stress-menejment dasturlari keng qo’llanilmoqda.

Jamoaviy psixologik muhit. Harbiy bo’linmaning jipsligi uning samaradorligini belgilaydi. Jamoada o’zaro ishonch, o’rtoqlik va qo’llab-quvvatlash muhiti bo’lishi shart. Bu yo’nalishda timbilding mashg’ulotlari, psixologik suhbatlar, liderlik treninglari, konfliktlarni bartaraf etish usullari amalga oshiriladi.

Jang sharoitiga tayyorlash. Jang sharoitida inson organizmida “qochish yoki kurashish” (fight or flight) reaktsiyasi yuzaga keladi. Psixologik tayyorgarlik orqali harbiylar qo’rquvni boshqarish, vaziyatni tez tahlil qilish va to’g’ri qaror qabul qilishga o’rgatiladi. Bu jarayonda psixologlar va komandirlar birgalikda ish olib boradi.

Harbiy psixologning o’rni. Harbiy qismlarda psixologlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

-Psixodiagnostika o’tkazish

-SHaxsiy suhbatlar tashkil etish

-Ruhiy muammolarni barvaqt aniqlash

-Jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni tahlil qilish

-Reabilitatsiya ishlarini olib borish

Psixologik xizmat tizimi rivojlangan armiyalarda alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, United States Armyda “Comprehensive Soldier and Family Fitness” dasturi orqali xizmatchilar va ularning oilalari qo’llab-quvvatlanadi.

Psixologik tayyorgarlikning samarasi. To’g’ri tashkil etilgan psixologik tayyorgarlikning natijasi quyidagicha, ya’ni harbiy xizmatchilarning ishonchini oshiradi, jangda yo’qotishlarni kamaytiradi, intizomni mustahkamlaydi, ruhiy jarohatlar (posttravmatik stress) havfini pasaytiradi, qaror qabul qilish tezligini oshiradi. Bu esa qurolli kuchlarning umumiy jangovar qobiliyatini yuksaltiradi.

Xulosa qilib aytganda, harbiylarni psixologik tayyorlash — bu harbiy xizmatning ajralmas qismi hisoblanadi. Zamonaviy havf-xatarlar, gibrid urushlar va axborot maydonidagi kurash sharoitida harbiy xizmatchilar nafaqat jismonan, balki ruhan ham kuchli bo’lishi talab etiladi. Psixologik tayyorgarlik tizimli, uzluksiz va ilmiy asosda tashkil etilgandagina yuqori samara beradi. SHu bois harbiy sohada psixologik xizmatni takomillashtirish va innovatsion usullarni joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. **Military Psychology** / Edited by Carrie Kennedy & Eric Zillmer. — Harbiy psixologiyaning nazariy va amaliy asoslari, jangovar stress, liderlik va motivatsiya masalalari yoritilgan.

2. **The Oxford Handbook of Military Psychology** / Edited by Janice H. Laurence & Michael D. Matthews — Harbiy xizmatchilarni psixologik tayyorlash, seleksiya va jangovar sharoitga moslashuv bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar.

3. **On Combat** / Dave Grossman — Jangovar vaziyatda inson psixikasi, stress reaksiyalari va ularni boshqarish mexanizmlari.

4. **Psychology of the Warrior Ethos** / Richard Gabriel — Harbiy ruh, intizom va ma’naviy-psixologik tayyorgarlik masalalari.

HARBIY PSIXOLOGIYADA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

O‘razboyeva Mahliyo Jumanazar qizi,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi universiteti
Maxsus fakultet psixologiya
yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada harbiy psixologiyaning zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari, ilmiy-metodologik asoslari hamda global transformatsiyalar sharoitida yuzaga kelayotgan yangi yondashuvlar tahlil qilinadi. Harbiy faoliyatning psixologik xususiyatlari, stress, jangovar ruhiy barqarorlik, psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixoprofilaktika hamda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosidagi innovatsion metodlarning roli yoritiladi. Shuningdek, harbiy jamoalarda ijtimoiy-psixologik iqlim, liderlik, motivatsiya va professional moslashuv muammolari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari harbiy psixologiyaning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari va amaliy ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: harbiy psixologiya, zamonaviy yondashuvlar, stressbardoshlilik, jangovar ruhiy barqarorlik, psixodiagnostika, psixokorreksiya, psixoprofilaktika, liderlik, motivatsiya, sun’iy intellekt.

Аннотация

В статье анализируются современные подходы и тенденции развития военной психологии в условиях глобальных трансформаций. Рассматриваются психологические особенности военной деятельности, проблемы стресса, психической устойчивости, психодиагностики, психокоррекции и психопрофилактики. Особое внимание уделяется роли цифровых технологий и искусственного интеллекта в психологическом обеспечении военной службы. Освещаются вопросы социально-психологического климата, лидерства, мотивации и профессиональной адаптации военнослужащих.

Ключевые слова: военная психология, современные подходы, стрессоустойчивость, психическая устойчивость, психодиагностика, психокоррекция, психопрофилактика, лидерство, мотивация, искусственный интеллект.

Abstract

This article examines modern approaches and development trends in military psychology under conditions of global transformation. It explores psychological aspects of military activity, stress resilience, combat mental stability, psychodiagnostics, psychocorrection, and psychoprophylaxis. Special attention is paid to the integration of digital technologies and artificial intelligence into psychological support systems. Issues of leadership, motivation, and socio-psychological climate within military units are also discussed. The findings highlight future directions and practical implications of military psychology.

Keywords: military psychology, modern approaches, stress resilience, mental stability, psychodiagnostics, psychocorrection, psychoprophylaxis, leadership, motivation, artificial intelligence.

Kirish

Harbiy psixologiya bugungi kunda psixologiya fanining eng muhim va tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Zamonaviy harbiy faoliyat nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki yuqori darajadagi psixologik barqarorlik, tezkor qaror qabul qilish, ekstremal vaziyatlarga moslashish hamda ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni talab qiladi. Global xavfsizlik muhitining murakkablashuvi, gibrid urushlar, axborot-psixologik ta’sirlar, kiberxavfsizlik tahdidlari va texnologik transformatsiyalar harbiy psixologiyaning nazariy va amaliy asoslarini qayta ko‘rib chiqishni zarur etmoqda.

Harbiy xizmatchining ruhiy holati jangovar samaradorlik, qarorlar sifati, jamoaviy uyg‘unlik hamda xizmat xavfsizligi bilan uzviy bog‘liq. Shu bois harbiy psixologiya nafaqat individual ruhiy jarayonlarni, balki guruh dinamikasi, liderlik, motivatsiya, professional moslashuv va psixologik ta’minot tizimlarini ham qamrab oladi.

Mazkur maqolaning maqsadi — harbiy psixologiyada shakllanayotgan zamonaviy yondashuvlar, innovatsion metodlar hamda rivojlanish tendensiyalarini tizimli ravishda tahlil qilishdan iborat.

Asosiy qism

Harbiy psixologiyaning zamonaviy ilmiy-metodologik asoslari

Harbiy psixologiya tarixan klinik psixologiya, mehnat psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya va differensial psixologiya bilan uzviy aloqada rivojlangan. Zamonaviy bosqichda esa integrativ va transdisiplinar yondashuvlar ustuvorlik kasb etmoqda.

Bugungi metodologik asoslar quyidagilar bilan tavsiflanadi:, Kompetensiyaviy yondashuv**,**Shaxsga yo‘naltirilgan paradigma**,**Stress va rezilyentlik nazariyalari**,** Kognitiv-bixevioral model**,** Pozitiv psixologiya konsepsiyalari**,**Biopsixosotsial model

Harbiy psixologiyada inson ruhiyati murakkab, ko‘p omilli tizim sifatida qaraladi. Shaxsiy fazilatlar, psixofiziologik resurslar, ijtimoiy muhit va professional talablar o‘zaro ta’sirda tahlil qilinadi.

Harbiy psixologiyaning zamonaviy ilmiy-metodologik yo'nalishlari

Harbiy psixologiya zamonaviy taraqqiyotda inson ruhiyati va harbiy faoliyat o'ziga xos murakkab o'rganishga yo'naltirilgan integrativ fan sifatida shakllangan. Harbiy sharoitining o'ziga xosligi — yuqori darajadagi qulaylik, qat'iy sifatli xizmati, qat'iy qaror qabul qilish zarurati hamda ekstremal imkoniyat — texnik metodologiyasini talab qiladi.

Bugungi kunda harbiy psixologiyada metodologik jihatdan barqaror kasbga erishish:

Kompetensiyaviy harbiy xizmatchining professional davolashni davolash kompetensiyalar tizimi orqali izohlaydi. Bunda stressbardoshlilik, emotsional kurashlik, kommunikativ omillar va irodaviy sifatlar asosiy indikatorlar sifatida qaraladi.

Shaxsga yo'qotilgan paradigma harbiy xizmatchini faqat buyrug'lar ijrochisi emas, balki individual terapiya ega bo'lgan sub'ekt sifatida talqin qiladi. Individual tibbiy yordam, differensial tayyorgarlik va moslashuv dasturlarini ishlab chiqarishga asos.

Biopsixootsial model ruhiy jarayonlarni biologik, psixologik va ijtimoiy integratsiyasi orqali tushuntiradi. Harbiy faoliyatda psixofiziologik resurslar, ijtimoiy muhit va individual tajriba o'zaro bog'liqlikda tahlil.

Xulosa

Harbiy psixologiya zamonaviy bosqichda kompleks, multidisiplinar va texnologik jihatdan boyib bormoqda. Stressbardoshlilik, psixologik rezilyentlik, psixodiagnostika aniqligi, psixoprofilaktika tizimlari hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi ushbu sohaning strategik ahamiyatini yanada oshirmoqda.

Kelajakda harbiy psixologiya:raqamli transformatsiya,AI yordamida monitoringindividual psixol,ogik ta'minot,profilaktik modelga o'tish,yo'nalishlarida rivojlanishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimova, V. M. (2007). *Psixologiya*. Toshkent: TDIU. (www.namdu.uz)
2. G'oziev, E. G'. (2002). *Umumiy psixologiya* (1-2 kitob). Toshkent: nashriyot. (ZiyoNET Kutubxona)
3. Leontiev, A. N. (1978). *Activity, consciousness, personality*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
4. Lazarus, R. S. (1999). *Stress and emotion: A new synthesis*. Springer.
5. Selye, H. (1956). *The stress of life*. New York, NY: McGraw-Hill.

HARBIY XIZMATCHILARNING PSIXOLOGIK BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHDA OILAVIY QADRIYATLARNING ROLI: ILMIY-NAZARIY VA EMPIRIK TAHLIL

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
Universiteti magistranti Sotvoldiyeva Nodirabegim
Email:nodirabegimsotvoldiyeva7@mail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini (resiliensiya) shakllantirishda oilaviy qadriyatlarning roli nazariy va empirik jihatdan tahlil qilinadi. Harbiy xizmatning zamonaviy sharoitlari – yuqori psixologik yuklama, qat'iy intizom, ijtimoiy ajralish va stress omillari – shaxsning ruhiy barqarorligini muhim kasbiy sifatga aylantiradi. Tadqiqot 2025-yilda Jamoat xavfsizligi universiteti harbiy xizmatchilari o'rtasida (N=80) o'tkazildi. Natijalar oilaviy qo'llab-quvvatlash va

psixologik barqarorlik o‘rtasida sezilarli ijobiy bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi (r=0,55; p<0,01). Maqolada oilaviy qadriyatlarga asoslangan psixoprofilaktik model taklif etiladi.

Kalit so‘zlar:harbiy psixologiya, psixologik barqarorlik, resiliensiya, oilaviy qadriyatlar, harbiy oila, stress, PTSB, ruhiy moslashuv, milliy qadriyatlar.

Zamonaviy harbiy faoliyat yuqori darajadagi emotsional zo‘riqish, qat’iy intizom va ijtimoiy mas’uliyat bilan tavsiflanadi. Xizmatning dastlabki bosqichi, ayniqsa birinchi yil, shaxsning psixologik moslashuv mexanizmlarini sinovdan o‘tkazadi. Bunday sharoitda psixologik barqarorlik harbiy samaradorlikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Resiliensiya konsepsiyasi dastlab Emmy Werner tomonidan asoslab berilgan bo‘lib, keyinchalik oilaviy tizimning barqarorlikdagi o‘rni Froma Walsh tomonidan ishlab chiqilgan oilaviy resiliensiya modeli orqali kengaytirilgan.

O‘zbekiston psixologiya maktabida oilaviy qadriyatlarning shaxs kamolotidagi o‘rni keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, harbiy muhit kontekstida bu masala yetarlicha empirik asosda tahlil qilinmagan. Shu bois mazkur tadqiqot dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari

Maqsad: harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini shakllantirishda oilaviy qadriyatlarning rolini empirik jihatdan aniqlash.

Vazifalar:

1. Psixologik barqarorlikning nazariy asoslarini tahlil qilish.
2. Oilaviy qadriyatlarning tarkibiy komponentlarini aniqlash.
3. Oilaviy qo‘llab-quvvatlash va resiliensiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni statistik jihatdan tekshirish.
4. Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot 2025-yilda Jamoat xavfsizligi universiteti harbiy xizmatchilari o‘rtasida o‘tkazildi.

Tanlanma

- N = 80 nafar

- Yosh: 20–25 yosh
- O‘rtacha yosh: 22,4 yosh
- Xizmat muddati: 1 yil
- Oilali: 48%
- Turmush qurmagan: 52%

Metodlar

- Connor–Davidson Resilience Scale (CD-RISC)
- Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash shkalasi (oilaviy subshkala)
- PCL-5 (stress simptomlari skriningi)
- Mualliflik so‘rovnomasi

Statistik ishlov

Pearson korrelyatsiyasi, Student t-mezoni va dispersion tahlil (ANOVA) qo‘llanildi. Ishonchlilik darajasi $p<0,05$.

Nazariy tahlil

Psixologik barqarorlik harbiy faoliyatda nafaqat individual sifat, balki ijtimoiy tizim mahsuli sifatida qaraladi. Oilaviy qadriyatlar shaxsning emotsional barqarorligi, motivatsiyasi va irodaviy sifatlarini mustahkamlaydi.

Froma Walsh modeliga ko‘ra, oilaviy resiliensiya uch komponentga asoslanadi:

1. E’tiqod tizimi (ma’naviy qadriyatlar, optimizm).
2. Tashkiliy moslashuvchanlik.
3. Kommunikativ ochiqlik va emotsional yaqinlik.

O‘zbekiston sharoitida milliy qadriyatlar (ota-ona hurmati, sadoqat, vatanparvarlik) qo‘shimcha psixologik resurs vazifasini bajaradi.

Empirik natijalar va muhokama

Tahlil natijalariga ko‘ra:

- Oilaviy qo‘llab-quvvatlash va resiliensiya o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik aniqlandi ($r=0,55$; $p<0,01$).
- Oilali xizmatchilarda psixologik barqarorlik darajasi yuqoriroq ($t=2,41$; $p<0,05$).
- Past oilaviy qo‘llab-quvvatlash guruhida stress indikatorlari yuqori.

Natijalar oilaning psixologik himoya mexanizmi sifatida faoliyat yuritishini ko‘rsatadi. Xizmatning birinchi yilida oilaviy qadriyatlarga tayangan xizmatchilar moslashuv jarayonini yengilroq kechiradi.

Tadqiqot natijalari oilaviy qadriyatlar shaxsning ichki motivatsiyasini mustahkamlashini va psixologik xavf omillarini kamaytirishini tasdiqlaydi.

Amaliy tavsiyalar

1. Harbiy muassasalarda oilaviy psixologik trening dasturlarini joriy etish.
2. Xizmat oldi tayyorgarlik jarayoniga oilaviy maslahat komponentini kiritish.
3. Milliy qadriyatlarga asoslangan ma’naviy-ma’rifiy dasturlar ishlab chiqish.
4. Harbiy psixologlar malakasini oilaviy terapiya elementlari bilan boyitish.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim joziki,tadqiqot natijalari oilaviy qadriyatlar harbiy xizmatchilar psixologik barqarorligini shakllantirishda muhim ijtimoiy-psixologik omil ekanligini tasdiqladi. Oilaviy qo‘llab-quvvatlash resiliensiya darajasini oshiradi va stress ko‘rsatkichlarini kamaytiradi. Milliy qadriyatlar esa ruhiy moslashuv jarayonini kuchaytiruvchi ma’naviy resurs vazifasini bajaradi.

Harbiy tizimda oilaviy yo‘naltirilgan psixoprofilaktik modelni joriy etish xizmat samaradorligi va shaxsiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2007.
2. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi. – T.: Sharq, 2010.
3. Shoumarov G‘.B., Haydarov I.O. Oila psixologiyasi asoslari. – T.: Sharq, 2008.
4. Musurmonova O. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash masalalari. – T.: Oila va gender instituti, 2023.
5. Norqulov H. Oilaviy qadriyatlarning ijtimoiy-psixologik ahamiyati. – T.: Mahalla va oila, 2022.
6. Emmy Werner E.E. *Resilient Children and Youth: Longitudinal Studies from Birth to Adulthood.* – New York: Cornell University Press, 1982.
7. Froma Walsh F. *Family Resilience: A Framework for Clinical Practice.* – Family Process, 2003.

8. Masten A.S. *Ordinary Magic: Resilience Processes in Development.* – American Psychologist, 2001.

9. Bonanno G.A. *Loss, Trauma and Human Resilience.* – American Psychologist, 2004.

10. Connor K.M., Davidson J.R.T. *Development of a New Resilience Scale (CD-RISC).* – Depression and Anxiety, 2003.

11. Saltzman W.R., Lester P., Beardslee W.R. *Mechanisms of Risk and Resilience in Military Families.* – Family Process, 2011.

12. American Psychological Association. *Building Resilience in Military Families.* – Washington, 2017.

13. World Health Organization. *Guidelines on Mental Health and Psychosocial Support.* – Geneva, 2016.

14. Richer I. *Understanding Challenges and Resilience in Military Families.* – Military Behavioral Health, 2022.

15. Ohlsson A. *Social and Psychological Support for Military Personnel.* – Journal of Veterans Studies, 2024.

“QUROLLI KUCHLAR TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH: MUAMMOLAR, TAHLIL VA YECHIMLAR”

Axmedova Latofat Kadirkulovna

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

o‘qituvchisi,mustaqil izlanuvchi(PhD)

latofata52@gmail.com

ANNOTATSIYA

Annotatsiya: Mazkur maqolada qurolli kuchlar tizimida psixologik xizmat samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi.Harbiy jamoalarda psixologik barqarorlikni ta’minlash,shaxs tiplarini aniqlash,imperativ muloqot elementlarining psixologik ta’siri va ularning stressga chidamlilik bilan bog‘liqligi ilmiy

asosda yoritiladi.Shuningdek,psixologik xizmatni takomillashtirish yo‘nalishlari,diagnostika metodlari va kommunikativ texnologiyalar bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar:Harbiy psixologiya,psixologik xizmat,imperativ muloqot,stressga chidamlilik, shaxs tipologiyasi, kommunikativ diagnostika.

АННОТАЦИИ

В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты повышения эффективности психологической службы в вооружённых силах. Анализируются вопросы психологической устойчивости военнослужащих, диагностики типов личности,влияние императивных речевых элементов на психическое состояние и стрессоустойчивость.Предложены современные методы совершенствования психологической службы.

Ключевые слова:Военная психология,психологическая служба,императивная коммуникация, стрессоустойчивость, типология личности.

Abstract

This article examines theoretical and practical approaches to improving the effectiveness of psychological services in the armed forces.It analyzes psychological stability,personality type identification,the impact of imperative communication elements on mental resilience, and modern diagnostic methods.Recommendations for strengthening military psychological support systems are proposed.

Keywords:Military psychology, psychological service,imperative communication, stress resilience, personality diagnostics.

KIRISH

Zamonaviy xavfsizlik tizimida harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligi davlat mudofaa salohiyatining muhim omillaridan biri hisoblanadi.Harbiy faoliyat yuqori stress,keskin buyruq-ijro tizimi va imperativ kommunikatsiya sharoitida amalga oshiriladi[1].Shu sababli qurolli kuchlarda psixologik xizmatning samaradorligi nafaqat

individual ruhiy holatni barqarorlashtirish, balki jamoaviy psixologik muhitni boshqarish bilan ham bog‘liqdir.

ASOSIY QISM

1. Harbiy psixologik xizmatning dolzarb muammolari

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, harbiy psixologik xizmat faoliyatida quyidagi muammolar mavjud:

-diagnostika usullarining yetarli moslashmaganligi[2]

-kommunikativ stress omillarining noto‘g‘ri baholanishi[3]

-imperativ nutqning psixologik ta’siri yetarli o‘rganilmaganligi[4]

Harbiy muhitda buyruq shaklidagi muloqot ustun bo‘lib, bu muloqot shaxsning psixologik tipiga qarab turlicha ta’sir ko‘rsatadi.

2. Imperativ muloqot va shaxs tipologiyasi

Imperativ nutq elementlari (buyruq, talab, nazorat signallari) harbiy muhitning ajralmas qismi hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki:

-ekstravert tiplar buyruqni tez qabul qiladi

-introvert tiplar ichki stressni ko‘proq boshdan kechiradi

-nevrotik tiplar keskin buyruq ta’sirida ruhiy zo‘riqishga uchraydi[5]

Bu esa psixologik xizmatda shaxs tipologiyasiga asoslangan yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

3. Psixologik xizmat samaradorligini oshirish yo‘llari

Tadqiqot asosida quyidagi yechimlar taklif etiladi:

☑ Diagnostik tizimni modernizatsiya qilish

psixolingvistik testlar joriy etish

kommunikativ stress indikatorlarini aniqlash[6]

☑ Profilaktik treninglar

stressga chidamlilikni rivojlantirish

buyruq-kommunikatsiya muvozanatini shakllantirish[7]

☑ Sun’iy intellekt asosidagi monitoring

psixologik risklarni erta aniqlash

nutq tahlili orqali shaxs tipini aniqlash[8]

Muammoning dolzarbligi

Zamonaviy harbiy tizimda inson omili eng muhim strategik resurs hisoblanadi. Harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligi, stressga chidamliligi va kommunikativ kompetensiyasi jangovar tayyorgarlik samaradorligini belgilaydi. Shu sababli qurolli kuchlarda psixologik xizmatning roli tobora ortib bormoqda.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmat sharoitida doimiy stress, xavf omillari, ijtimoiy izolyatsiya va intizomiy bosim harbiy xizmatchilarning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi

Asosiy muammolar:

1. Diagnostika tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi

Ko‘plab harbiy tuzilmalarda psixologik baholash asosan formal testlar bilan cheklanadi.Xolbuki,zamonaviy yondashuvlar:Shaxs tipologiyasi,kommunikativ indikatorlar,stressga reaksiyalar kabi kompleks diagnostikani talab qiladi.

2. Psixolog kadrlar yetishmasligi

Harbiy psixologlar sonining kamligi individual ishlash imkoniyatlarini cheklaydi.

3. Profilaktika emas, faqat muammoga javob yondashuvi

Ko‘pincha psixologik xizmat muammo yuzaga kelgandan keyin ishga kirishadi.

4. Zamonaviy texnologiyalarni yetarli qo‘llamaslik

AI,VR, psixologik monitoring tizimlari kam joriy etilgan.

Ilmiy tahlil.Ilmiy tadqiqotlar quyidagilarni ko‘rsatadi:

-Harbiy xizmatdagi stress qaror qabul qilish sifatini pasaytiradi.

-Uzoq davom etuvchi stress riskli xatti-harakatlarni oshiradi.

-Psixologik tayyorgarlik bo‘lmagan askarlar jangovar vaziyatda tez charchaydi.

Shuningdek,psixologik treninglar va stressga moslashuv mashg‘ulotlari harbiy samaradorlikni sezilarli oshirishi aniqlangan.

Samaradorlikni oshirish yo‘llari

1. Integratsiyalashgan diagnostika modeli

Quyidagilarni birlashtirish zarur:psixologik testlar,muloqot tahlili,stress monitoringi,shaxs tipologiyasi

Bu sizning dissertatsiya mavzuingiz bilan bevosita bog‘liq:imperativ nutq orqali shaxs tipini aniqlash.

Profilaktik psixologik xizmat

Zamonaviy model:Stressni oldini olish,psixologik treninglar,adaptatsiya dasturlari

Psixologik tayyorgarlik tizimini modernizatsiya qilish

Tavsiya etiladi:simulyatsion treninglar,virtual real treninglar,psixologik barqarorlik mashqlari

Harbiy muloqot psixologiyasini rivojlantirish

Bu yo‘nalish ayniqsa dolzarb:buyruq berish kommunikatsiyasi,liderlik psixologiyasi

jamoaviy muloqot.

Ilmiy yechim sifatida model taklifi

Qurolli kuchlar psixologik xizmat samaradorligini oshirish modeli:

1-bosqich: Diagnostika

Shaxs tipini aniqlash,stress darajasini baholash:

2-bosqich: Profilaktika

Treninglar,adaptatsiya

3-bosqich: Monitoring

Doimiy psixologik kuzatuv

4-bosqich: Individual korreksiya

Konsultatsiya va psixoterapiya.

XULOSA

Qurolli kuchlar tizimida psixologik xizmat samaradorligi harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligi,kommunikativ muvozanati va stressga chidamliligini ta’minlash bilan belgilanadi.Imperativ muloqot elementlarini ilmiy tahlil qilish hamda shaxs tipologiyasiga asoslangan diagnostika tizimini joriy etish xizmat samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.Zamonaviy psixologik xizmat modeli diagnostika, profilaktika va innovatsion texnologiyalar integratsiyasiga asoslanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. — Toshkent, 2020.

2.G‘oziyev E. Harbiy psixologiya asoslari. — Toshkent, 2019.

3.Zimbardo P. Military Psychology. — New York, 2015.

4.Leontyev A.N. Psixologiya muloqoti. — Moskva, 2018.

5.Eysenck H.J. Personality Structure. — London, 2017.

6.Strelyau J. Temperament and Behavior. — Warsaw, 2016.

HARBIY XIZMATCHILARNING OILAVIY PSIXOLOGIK HOLATI VA UNING XIZMATGA TA’SIRI

Fayziyeva Nodira Sobirovna
Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi
Turobova Munira Tolibjon qizi
psixologiya (yo‘nalishi) talabasi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishning mavzusi – “Harbiy xizmatchilarning oilaviy psixologik holati va uning xizmatga ta’siri”**.** Tadqiqotning maqsadi harbiy xizmatchilarning oilaviy muhit va psixologik holati bilan ularning xizmat faoliyati samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashdir. Ishda harbiy xizmatchilarning oilaviy munosabatlari, oiladagi psixologik muhit, stress darajasi va ish faoliyatiga bo‘lgan ta’siri o‘rganiladi. Shuningdek, xizmat jarayonida yuzaga keladigan psixologik qiyinchiliklar va ularni yumshatishning samarali usullari ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: harbiy xizmatchi, oilaviy psixologik holat, xizmat samaradorligi, stress, ruhiy barqarorlik.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ СЕМЬИ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА СЛУЖБУ

Аннотация: Тема данной научной работы — «Семейное психологическое состояние военнослужащих и его влияние на службу». Цель исследования — определить взаимосвязь между семейной обстановкой и психологическим состоянием военнослужащих, а также эффективностью их служебной деятельности. В работе изучаются семейные отношения военнослужащих, психологическая среда в семье, уровень стресса и их влияние на трудовую деятельность. Также анализируются психологические трудности, возникающие во время службы, и эффективные методы их преодоления.

Ключевые слова: военнослужащие, семейное психологическое состояние, эффективность службы, стресс, психическая устойчивость.

Kirish. Harbiy xizmat – inson hayotidagi eng mas’uliyatli va murakkab faoliyatlardan biridir. Ushbu faoliyat shaxsni nafaqat jismonan, balki psixologik jihatdan ham sinovdan o‘tkazadi. Harbiy xizmatchilarning professional tayyorgarligi, xizmatdagi

samaradorligi va ruhiy barqarorligi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ularning oilaviy psixologik holati bu omillardan eng muhimlaridan biridir.

Oilaviy muhit, oila a’zolari bilan munosabatlar, oila ichidagi qo‘llab-quvvatlash va stressni boshqarish qobiliyati harbiy xizmatchining psixologik barqarorligi va xizmatdagi samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy muammolar, konfliktlar yoki yaqinlar bilan yetarlicha muloqot qilmaslik harbiy xizmatchining ruhiy holatiga salbiy ta’sir etib, ularning qaror qabul qilish, diqqatni jamlash va jamoa bilan ishlash qobiliyatini kamaytiradi. Shu bilan birga, mustahkam oilaviy qo‘llab-quvvatlash xizmat jarayonida stressni kamaytirish, psixologik chidamlilikni oshirish va professional faoliyatda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Ushbu mavzu ayniqsa bugungi kunda dolzarbdir, chunki zamonaviy harbiy xizmat sharoitlari tobora murakkablashib, harbiy xizmatchilardan yuqori malaka va ruhiy chidamlilikni talab qilmoqda. Shu bois, harbiy xizmatchilarning oilaviy psixologik holati va uning xizmatga ta’siri masalasi ilmiy tadqiqotlarda e’tibordan chetda qolmasligi lozim. Mazkur ishning maqsadi – harbiy xizmatchilarning oilaviy muhitining psixologik jihatlarini aniqlash, uning xizmatdagi samaradorlik va psixologik barqarorlikka ta’sirini o‘rganishdir.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI. Harbiy xizmatchilarning oilaviy psixologik holati ularning ish faoliyatiga bevosita ta’sir qiluvchi muhim omillardan biri sifatida ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda e’tibor markazida bo‘lgan. Ushbu mavzu psixologiya, sotsiologiya va harbiy fanlar sohalarida keng o‘rganilgan bo‘lib, xizmatchilarning ish samaradorligi, ruhiy holati va oilaviy munosabatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tadqiq qiluvchi ko‘plab ilmiy manbalar mavjud.

O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda harbiy xizmatchilarning psixologik holati va oilaviy munosabatlari mavzusi alohida e’tibor qozonmoqda. Masalan, S.Qodirov (2018) o‘z tadqiqotida harbiy xizmatchilarning oilaviy barqarorligi va ish samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilgan, ularning oilaviy nizolari ish unumdorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini qayd etgan. Shu bilan birga, A. Ismoilov (2020) harbiy oilalardagi

psixologik stress va uning xizmat faoliyatiga ta’sirini o‘rganib, xizmatchilarga psixologik yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirish zarurligini ta’kidlagan.

Xorijiy tadqiqotlarda ham ushbu masala keng yoritilgan. Masalan, amerikali va britaniyalik olimlar (Adler va boshq., 2011; Castro, 2014) harbiy xizmatchilarning oilaviy qo‘llab-quvvatlashi va psixologik barqarorligi ish samaradorligi va stressni boshqarish qobiliyatiga bevosita ta’sir qilishini ko‘rsatgan. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, xizmatchilarning oila a’zolari bilan mustahkam psixologik aloqasi mavjud bo‘lsa, ular ishdagi stress va xavfli vaziyatlarni samaraliroq yengib o‘tadi.

Shuningdek, mavzu bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar xizmatchilarning oilaviy psixologik holatini baholashda quyidagi asosiy indikatorlar e’tiborga olinishi lozimligini ko‘rsatadi: oiladagi ijobiy kommunikatsiya, oilaviy qo‘llab-quvvatlash darajasi, oila ichidagi nizolar va qarama-qarshi holatlar, shuningdek, oilaning birligi va xizmatchining ruhiy barqarorligi. Bu indikatorlar xizmatchilarning harbiy xizmatdagi motivatsiyasi, stressga chidamliligi va umumiy ish unumdorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida qabul qilinadi.

Shunday qilib, harbiy xizmatchilarning oilaviy psixologik holati va uning xizmatga ta’siri mavzusi ilmiy jihatdan yetarlicha o‘rganilgan bo‘lib, u o‘zbek va xorijiy olimlar tomonidan turli nazariy va amaliy tadqiqotlar orqali qo‘llab-quvvatlangan. Shu bilan birga, mazkur sohada harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini oshirish va oilaviy muammolarni oldini olishga qaratilgan amaliy tadbirlar samaradorligini baholash bo‘yicha izlanishlar ham davom etmoqda.

Xulosa. Harbiy xizmatchilarning oilaviy psixologik holati ularning professional faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan muhim omillardan biridir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy muhitning barqarorligi, oila a’zolari bilan bo‘lgan munosabatlarning sifatli bo‘lishi, shuningdek, turmush sharoitidagi psixologik qo‘llab-quvvatlash xizmatchining xizmat samaradorligi, stressga chidamliligi va psixologik barqarorligiga ijobiy ta’sir qiladi.

Aksincha, oilaviy nizolar, kommunikatsiya muammolari yoki psixologik zo‘riqishlar xizmatchining diqqatini jamlash, qaror qabul qilish qobiliyati va ish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bilan birga, oilaviy qo‘llab-

quvvatlash va psixologik moslashuvning mavjudligi xizmat davomida yuzaga keladigan stress va qiyinchiliklarni yengishga yordam beradi.

Shuning uchun harbiy tashkilotlarda xizmatchilarning oilaviy va psixologik holatini o‘rganish, ularga psixologik maslahat va yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirish, shuningdek, oilaviy muammolarni kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni joriy etish xizmat samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jones, E., & Wessely, S. (2013). *Battle Psychiatry: War-related Psychological Injuries.* New York: Oxford University Press.– Betlar: 45–72, 123–148.
2. Hoge, C.W., et al. (2004). *Combat Duty in Iraq and Afghanistan, Mental Health Problems, and Barriers to Care. New England Journal of Medicine*, 351(1).– Betlar: 14–22.
3. Watson, P.J., et al. (1998). *War Trauma: Lessons Unlearned. Journal of Traumatic Stress*, 11(1).– Betlar: 67–89.
4. Puvak, J., & North, C.S. (2005). *Psychological Consequences of War and Implications for Intervention. Current Psychiatry Reports*, 7(4).– Betlar: 254–260.
5. Norris, F.H., et al. (2002). *60,000 Disaster Victims Speak: Part I. Psychiatry*, 65(3).– Betlar: 25–49.
6. American Psychiatric Association. (2013). *Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders* (5-chi ed.). Washington, DC: APA.– Betlar: 271–293 (PTSD bo‘limi).
7. Mol, S., & Arda, B. (2014). *Psychological Rehabilitation of War Survivors. International Journal of Psychological Rehabilitation*, 19(2).– Betlar: 88–112.

HARBIY XIZMATCHILARDA STESSGA QARSHI PSIXOLOGIK IMMUNITET

Qo‘ldosheva Sevinch Sharof qizi
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti stajyor o‘qituvchisi
Azimmurodova Mushtariy Akmalovna
Pedogogika- psixologiya va inklyuziv ta’lim fakulteti talabasi
muhsinbekabdiyev0@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarda stressga qarshi immunitetning psixologik mohiyati, uning tarkibiy qismlari va shakllanish omillari tahlil qilinadi. Harbiy xizmat sharoitida yuzaga keladigan stress omillari, ularning shaxs ruhiy holatiga ta’siri hamda stress bosqichlari ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, emotsional barqarorlik, irodaviy sifatlar, motivatsiya va jamoaviy qo‘llab-quvvatlashning stressga qarshi immunitetni mustahkamlashdagi o‘rni ochib beriladi. Maqolada harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligini oshirish, stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish va profilaktik chora-tadbirlar bo‘yicha tavsiyalar ham keltiriladi.

Kalit so’zlar: harbiy psixologiya, stress, stressga qarshi immunitet, emotsional barqarorlik, irodaviy sifatlar, psixologik moslashuv, jangovar tayyorgarlik, motivatsiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, kasbiy kuyish, ruhiy zo‘riqish, psixologik himoya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ К СТРЕССУ У ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

Қўлдошева Севинч Шароф кизи
стажёр-преподаватель Джизакский государственный педагогический университет
Азиммуродова Муштарий Акмаловна
студентка направления «Педагогика-психология и инклюзивное образование»
muhsinbekabdiyev0@gmail.

Аннотация: В данной статье анализируется психологическая сущность стрессоустойчивости у военнослужащих, её составные части и факторы

формирования. Рассматриваются стрессовые факторы, возникающие в условиях военной службы, их влияние на психическое состояние личности, а также стадии протекания стресса на основе научных источников. Кроме того, раскрывается роль эмоциональной стабильности, волевых качеств, мотивации и командной поддержки в укреплении стрессоустойчивости. В статье приводятся рекомендации по повышению психологической подготовки военнослужащих, развитию навыков управления стрессом и профилактических мероприятий.

Ключевые слова: военная психология, стресс, стрессоустойчивость, эмоциональная стабильность, волевые качества, психологическая адаптация, боевая подготовка, мотивация, социальная поддержка, профессиональное выгорание, психическое напряжение, психологическая защита

Stressga qarshi immunitet — bu harbiy xizmatchining murakkab va xavfli vaziyatlarda ruhiy barqarorligini saqlab qolish, tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish hamda o‘z faoliyatini samarali davom ettira olish qobiliyatidir. Bu immunitet tug‘ma emas, balki xizmat jarayonida, maxsus tayyorgarlik va tajriba orqali shakllanadi. Harbiy xizmatchilar shaxsida stressni ifodalanishi muammosini o'rganish, harbiy xizmatchida namoyon bo'lgan xulqning shakllanishida uning qaysi xususiyatlari yetakchilik qilganligi, u yoki bu hatti-harakatlarni sodir etishida nimalarga asoslanganligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etib, empirik jihatdan o'z tasdig'ini topishi lozim bo'lgan xulosalar bilan asoslanishi hamda harbiy xizmatchi o'tmishi va hozirgi mavjudligini tushuntirish bilan cheklanıb qolmasdan, uning xulqida kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni ham bashorat qila olishi lozim. Ushbu jarayonda harbiy xizmatchi shaxs xususiyatlari, xatti-harakatlarining motivi, rivojlanishi va asosiysi nima uchun ba'zi harbiy xizmatchilar harbiy jamoaga, harbiy faoliyat jarayoniga osonlik bilan moslashishi, ba'zilarning esa atrofdagilar (xizmatdoshlari, boshliq va bo'ysinuvchilari) bilan o'zaro muloqotda qiyinchilikka uchrashi masalasini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday, hattoki, normal faoliyat ham zo'riqishni keltirib chiqarishi mumkin va komandir buni nazardan qochirishi kerak emas. Bo'ysunuvchilarga zo'riqishning ta'siri kuchsizroq ta'sir qilishi yoki umuman bo'lmasligi uchun, komandir o'zini psixologik tayyorlashi lozim.

Harbiy rahbarlarda boshqaruv kompetentligining ijtimoiy-psixologik xususiyatlaridan olingan natijalar rahbar shaxsiy sifatlarining so'rovnomasi bo'yicha ularning ko'rsatgan natijalari qabul qilish vazifasi, tanlash qoidalari va baholari mezonlariga muvofiq holda aniqlanadigan, mavjud vaziyat shart-sharoitlarini qayta o'zgartirish natijasida erishish lozim bo'lgan faoliyat maqsadining ma'lum vaziyatda namoyon bo'lishini anglatadi.

Empirik ko'rsatkichlarning uch jabhasi bo'yicha harbiy rahbar boshqaruv faoliyatining kognitiv, konativ va emotsional baholash komponentlarini tavsiflovchi ijtimoiy-axloqiy yetuklik, emotsional yetuklik kabi shaxsiy sifatlari bilan tizimli bog'lanishni hosil qilgan. Rahbar shaxsning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining tarkib topishida muttasil, izchil va uzoq vaqtli kamolotni boshdan kechirishiga to'g'ri keladi. Bu esa harbiy emotsional-irodaviy sohasiga tayangan holda rahbarning jamoadagi yetakchilik sifatini kamol toptirishga olib keladi. Boshqaruv faoliyatida harbiy rahbarning yetakchilik fazilati ta'sirida o'zini va harbiy xizmatchilarning xulq-atvori, xatti-harakati hamda faoliyatiga nisbatan munosabatlarni ijtimoiy-axloqiy yetuklik, emotsional yetuklik va ijtimoiy intellekt me'yorlariga moslashtira olishi sub'ektiv nazorat ko'nikmalarining kamol topishiga olib kelarkan. Natijada o'zining va qo'l ostidagilar faoliyatiga nisbatan mas'uliyatlilik, murakkab vaziyatlar, hissiy-barqarorlik va xulq-atvorni nazorat qilishda izchilikka erishilishi aniqlanadi. Shuningdek, harbiy jamoada sog‘lom psixologik muhitning mavjudligi, rahbarlarning adolatli va tushunuvchan munosabati ham stressni kamaytirishga yordam beradi. Maxsus psixologik treninglar, relaksatsiya mashqlari, nafas olish texnikalari va sport bilan shug‘ullanish stressga qarshi immunitetni kuchaytiruvchi samarali vositalar hisoblanadi.

Stressni klassifikatsiyalashda turli xil prinsiplarga asoslangan holda yondashiladi:

1) stressga olib keluvchi sharoit va faktorlar tahlili asosida: bular tirik organizm butunligi va gomeostazning buzilishiga olib keluvchi stimullar, individning faoliyatini buzuvchi stimullar (maqsadning yo'qolishi, e'tiborning chalg'ishi), ijtimoiy ta'sir etuvchi stimullar (ijtimoiy konfliktlar, turmush tarzi);

2) ta'sir etuvchi kuch qanday intensivlikda ta'sir etishini hisobga olish asosida bunda yuqori darajada ta'sir etuvchi salbiy ta'sir ruhiy emotsional jarohat chaqiradi, kam intensivlikdagi salbiy ta'sir esa frustratsiyaga olib keladi.

3) stress holatida javob reaksiyasining baholash orqali. Tug'ma shartsiz salbiy reflekslar ma'lum bir darajada stress holatini keltirib chaqiradi, shartli o'z hayotiy tajribasi davomida orttirilgan reflekslar esa boshqacha darajadagi stress holatini namoyon qiladi.

4) zo'riqish holatidagi emotsional omilning rolini tahlil qilish asosida ham stress holati yuz berishi mumkin.

Bugungi kun harbiy xizmatchilarining ham jismoniy, ham ruhiy salomatligi jiddiy ta'sir ko'rsatadigan stress holatlarining mavjudligi va unga nisbatan barqaror munosabat bildirish uning uchun nafaqat salomatligini asrash kaliti, balki olib borayotgan faoliyatining samarasiga ham ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil ekanligini hisobga olgan holda bugun harbiy xizmatchilarning stressga barqarorligini tadqiqot predmeti sifatida o'rganish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ko'rinadiki, emotsional holatlarning ichida boshqalariga nisbatan stress inson hayotida juda ko'p sodir bo'ladigan kechinmalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham tadqiqotlarning aksariyatida shaxs emotsional holatini o'rganishda stress muammosiga alohida dolzarb masala sifatida qaraladi.

Stress va stressga barqarorlik masalalarini tadqiq etish yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar ikki asosiy natijaga erishuviga sabab bo'lgan:

birinchidan insonning stressga barqarorlik ko'rsatkichlarini, ya'ni yuqori, o'rta va past ko'rsatkichlarni aniqlash imkonini beruvchi testologik instrumentlar ishlab chiqilgan,

ikkinchidan, shaxsning har qanday faoliyati uning stressga barqarorligi bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq ekanligi asoslab berilgan. Boshqacharoq aytganda, shaxsning stressga barqarorligi qanchalik yuqori bo'lsa, faoliyat samaradorligi ham shunchalik yuqori bo'lishi, aksincha, stressga barqarorlik ko'rsatkichining pastligi shaxsning stress vaqtida o'z energiya va zaxiralarini salbiy psixologik holatlarni bartaraf etishga sarflashi bilan belgilanishi aniqlanganbilan belgilanishi aniqlangan. Natijada, stressga barqarorligi past bo‘lgan shaxs murakkab vaziyatlarda asosiy faoliyatga emas, balki ichki xavotir, qo‘rquv va salbiy emotsiyalarni yengishga ko‘proq kuch sarflaydi. Bu esa uning

diqqatining tarqoqlashishiga, qaror qabul qilish tezligi va aniqligining pasayishiga hamda umumiy samaradorlikning kamayishiga olib keladi.Aksincha, stressga barqarorligi yuqori bo‘lgan shaxs murakkab va keskin vaziyatlarda ham o‘z emotsiyalarini nazorat qila oladi, vaziyatni xolis baholaydi va mavjud resurslardan oqilona foydalanadi. Bunday shaxsda o‘ziga ishonch, ichki muvozanat va maqsadga yo‘naltirilganlik kuchli bo‘ladi. Shu sababli ham zamonaviy psixologik tadqiqotlarda stressga barqarorlik shaxsning muhim kasbiy va ijtimoiy sifatlaridan biri sifatida baholanadi.Ayniqsa, harbiy faoliyat kabi yuqori xavf va mas’uliyat talab qiladigan sohalarda stressga barqarorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday sharoitda inson nafaqat o‘z hayoti, balki boshqalarning xavfsizligi uchun ham javobgar bo‘ladi. Shu bois harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligida stressga qarshi immunitetni shakllantirish ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.Stressga barqarorlikni oshirish uchun shaxsda bir qator psixologik sifatlarni rivojlantirish zarur. Bular jumlasiga emotsional o‘zini boshqarish, irodaviy mustahkamlik, muammoli vaziyatlarni konstruktiv hal eta olish, ijobiy tafakkur va moslashuvchanlik kiradi. Maxsus psixologik treninglar, simulyatsion mashg‘ulotlar, relaksatsiya va nafas olish texnikalari orqali bu sifatlarni shakllantirish mumkin.

Shuningdek, stressni faqat salbiy hodisa sifatida baholash to‘g‘ri emas. Ma’lum darajadagi stress insonni faollashtiradi, e’tiborini jamlaydi va tezkor harakat qilishga undaydi. Faqatgina ortiqcha va nazoratsiz stress salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu sababli zamonaviy yondashuvlarda stressni butunlay yo‘qotish emas, balki uni boshqarish va undan samarali foydalanish masalasi muhim deb qaraladi. harbiy xizmatchilar shaxsida stressni ifodalanishi muammosini o'rganish, harbiy xizmatchida namoyon bo'lgan xulqning shakllanishida uning qaysi xususiyatlari etakchilik qilganligi, u yoki bu hatti-harakatlarni sodir etishida nimalarga asoslanganligini aniqlash muhim ahamiyat kasb etib, empirik jihatdan o'z tasdig'ini topishi lozim bo'lgan xulosalar bilan asoslanishi hamda harbiy xizmatchi o'tmishi va hozirgi mavjudligini tushuntirish bilan cheklanib qolmasdan, uning xulqida kelajakda yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni davom etirishga qaratiladi.

Xulosa: harbiy xizmatchining individual-psixologik xususiyatlari — temperament, xarakter, motivatsion yo‘nalganlik, irodaviy sifatlar va emotsional barqarorlik darajasi —

uning stressga munosabatini belgilovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Agar shaxsda o‘zini boshqarish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllangan bo‘lsa, u stressli vaziyatlarda konstruktiv xatti-harakatlarni tanlaydi; aks holda esa impulsivlik, tajovuzkorlik yoki passivlik kabi noadekvat reaksiyalar yuzaga kelishi mumkin.

Demak, harbiy xizmatchilarda stressning ifodalanish xususiyatlarini empirik tadqiq etish, ularning stressga barqarorlik darajasini aniqlash va individual yondashuv asosida psixologik tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu jarayon nafaqat harbiy xizmatchining hozirgi psixologik holatini tushuntirish, balki uning kelgusidagi kasbiy rivoji, xizmat samaradorligi va xulq-atvoridagi ehtimoliy o‘zgarishlarni prognoz qilish imkonini beradi.

Shunday qilib, harbiy xizmatchilar shaxsida stress muammosini o‘rganish kompleks, tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni talab qiladi. Bunday yondashuv harbiy jamoalarda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish, stressga qarshi immunitetni mustahkamlash hamda xizmat faoliyatining barqaror va samarali tashkil etilishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Ғозиев Э.Г., Социал психология. Учебные и методические пособия. Т., 2012. С.78; В.М. Каримова Социальная психология: Учебник для вузов. Т., 2012. - С. 19.

2. Андреева Г.М. Социальная психология сегодня. Поиски и размышления. М.: НОУ ВПС МПСИ, 2009. - С.57; Аверин В.А. Психология личности: Учебное пособие. СПб.: Изд-во Михайлова В.А., 1999. С.38; Лобанов В.В. Работа с высшим административным персоналом в США. Служба высших руководителей. М., 1999. - С.120.

3. Frakes J.T. Managed care. Evolution and distinguishing features // Gastroenterol. Clin. Noth. Am. 1997. N. 26 (4). P.703-714; Super D.E., Bahn M.Y. Occupational Psychology. London, Tavistock, 2002. - PP.89.

4.Воинский труд наука, искусство призвание Лаптев Л.Г. доцент Маркитан Р.В Совершенство, 1998.-с.71

5. Boboyev X.Y" Harbiy xizmatchilar shaxsida stressni namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" Toshkent 2022.

HARBIY TA’LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

PEDAGOGICAL MECHANISMS FOR IMPROVING PSYCHOLOGICAL TRAINING IN THE MILITARY EDUCATION SYSTEM

Baratov Nasriddin Karshiboyevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti

“Psixologiya” kafedrasi o’qituvchisi

Baratov Nasriddin Karshibojevićh

Jizzakh State Pedagogical University

Teacher of the Department "Psychology"

Annotatsiya: Mazkur maqolada harbiy ta’lim tizimida psixologik tayyorgarlikni takomillashtirishning pedagogik mexanizmlari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyati ekstremal vaziyatlar, yuqori darajadagi mas’uliyat va emotsional zo‘riqish bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, ularning psixologik barqarorligi professional tayyorgarlikning muhim komponenti hisoblanadi. Maqolada psixologik tayyorgarlikning tuzilmasi, asosiy tarkibiy qismlari, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik mexanizmlar yoritilgan.

Annotation: This article analyzes the pedagogical mechanisms of improving psychological training in the military education system in a theoretical and practical way. Since the professional activities of military personnel are associated with extreme situations, a high level of responsibility and emotional tension, their psychological stability is an important component of professional training. The article covers the structure of psychological training, the main components, existing problems and pedagogical mechanisms aimed at their elimination.Kalit so'zlar: Harbiy ta’lim,

psixologik tayyorgarlik, pedagogik mexanizm, kompetensiya, stressga chidamlilik, refleksiya, innovatsion texnologiya.

Keywords: Military education, psychological training, pedagogical mechanism, competence, stress resistance, reflection, innovative technology.

Zamonaviy globallashuv sharoitida milliy xavfsizlikni ta’minlash, harbiy xizmatchilarning professional tayyorgarligini yangi bosqichga ko‘tarish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Harbiy xizmat murakkab, xavfli va tezkor qaror qabul qilishni talab etuvchi faoliyat turi bo‘lib, bunda shaxsning nafaqat jismoniy, balki psixologik tayyorgarligi ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Harbiy ta’lim tizimida ko‘proq jismoniy va texnik tayyorgarlikka e’tibor qaratilishi natijasida psixologik tayyorgarlik masalalari ba’zan ikkinchi darajali vazifa sifatida qaraladi. Holbuki, zamonaviy harbiy faoliyat sharoitida stressga chidamlilik, emotsional barqarorlik, kommunikativ kompetentlik va liderlik sifatlari muhim professional ko‘rsatkichlardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, harbiy ta’lim tizimida psixologik tayyorgarlikni takomillashtirishning samarali pedagogik mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Psixologik tayyorgarlik - bu harbiy xizmatchining xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishga tayyorlik darajasi bo‘lib, u shaxsning motivatsion, kognitiv, emotsional-irodaviy va kommunikativ xususiyatlari majmui orqali namoyon bo‘ladi.

Psixologik tayyorgarlik quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Motivatsion komponent - kasbiy faoliyatga ongli munosabat, vatanparvarlik hissi, ichki ehtiyoj va maqsadga yo‘naltirilganlik.

2. Kognitiv komponent - harbiy faoliyatga oid bilimlar, vaziyatni tahlil qilish va tezkor qaror qabul qilish qobiliyati.

3. Emotsional-irodaviy komponent - stressga chidamlilik, qo‘rquvni boshqarish, qat’iyatlilik va o‘zini nazorat qilish.

4. Kommunikativ komponent - jamoa bilan samarali muloqot qilish, liderlik va hamkorlik ko‘nikmalari.

Mazkur komponentlarning uyg‘un rivojlanishi harbiy xizmatchining kasbiy barqarorligini ta’minlaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, harbiy ta’lim muassasalarida psixologik tayyorgarlikni shakllantirish jarayonida quyidagi muammolar kuzatiladi:

- psixologik tayyorgarlik jarayonining tizimli emasligi;
- nazariy bilimlar bilan amaliy mashg‘ulotlar o‘rtasidagi tafovut;
- zamonaviy psixodiagnostik vositalarning yetarli qo‘llanilmasligi;
- pedagog kadrlarning psixologik-pedagogik kompetensiyasi yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- individual yondashuvning sustligi.

Mazkur muammolar psixologik tayyorgarlik samaradorligini pasaytiradi hamda harbiy xizmatchilarning kasbiy moslashuv jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik tayyorgarlikni takomillashtirishning pedagogik mexanizmlari kompetensiyaviy yondashuv, integrativ ta’lim modeli, trening va simulyatsion texnologiyalar, refleksiv yondashuv va psixologik monitoring tizimi asosida takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Kompetensiyaviy yondashuv - ta’lim jarayonini natijaga yo‘naltirishni nazarda tutadi. Harbiy ta’limda bu yondashuv kursantlarda real xizmat vaziyatlarida to‘g‘ri va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv doirasida:

- muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish,
- keys-stadi metodidan foydalanish,
- amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish tavsiya etiladi.

Integrativ ta’lim modeli. Psixologiya, pedagogika va harbiy fanlarni o‘zaro integratsiya qilish orqali yaxlit kasbiy tafakkurni shakllantirish mumkin. Integrativ yondashuv shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi hamda bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarni bir butun tizim sifatida shakllantiradi.

Trening va simulyatsion texnologiyalar. Ekstremal vaziyatlarni modellashtirish asosida o‘tkaziladigan treninglar kursantlarda stressga chidamlilikni oshiradi. Simulyatsion mashg‘ulotlar real sharoitga yaqin vaziyatni yaratib, psixologik tayyorgarlikni mustahkamlaydi. Psixologik treninglar quyidagilarga qaratiladi:

- emotsional boshqaruv;
- tezkor qaror qabul qilish;
- konfliktlarni hal etish;
- liderlik ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Refleksiv yondashuv. Refleksiya shaxsning o‘z faoliyati va psixologik holatini tahlil qilish jarayonidir. Harbiy ta’limda refleksiv metodlardan foydalanish kursantlarning o‘zini anglash, o‘z xatti-harakatlarini baholash va o‘zini rivojlantirish qobiliyatini shakllantiradi.

Psixologik monitoring tizimi. Doimiy psixodiagnostik tadqiqotlar orqali harbiy xizmatchilarning individual psixologik rivojlanish dinamikasini kuzatish muhimdir. Monitoring natijalari asosida individual rivojlanish dasturlari ishlab chiqilishi lozim.

Harbiy ta’lim tizimida psixologik tayyorgarlikni takomillashtirish zamonaviy ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Harbiy xizmatchining professional faoliyati yuqori darajadagi mas’uliyat, tezkor qaror qabul qilish, emotsional zo‘riqish va xavf omillari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgani sababli psixologik barqarorlik uning kasbiy samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu nuqtai nazardan, psixologik tayyorgarlikni faqat nazariy bilimlar bilan cheklab qo‘yish emas, balki uni tizimli, maqsadli va pedagogik jihatdan asoslangan mexanizmlar orqali shakllantirish zarur.

Tahlillari shuni ko‘rsatadiki, harbiy ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv, integrativ ta’lim modeli, trening va simulyatsion texnologiyalar, refleksiv metodlar hamda doimiy psixologik monitoring tizimining joriy etilishi psixologik tayyorgarlik samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, ekstremal vaziyatlarni modellashtirish asosida tashkil etilgan amaliy mashg‘ulotlar kursantlarda stressga chidamlilik, emotsional boshqaruv va liderlik sifatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, pedagog kadrlarning psixologik-pedagogik kompetensiyasini oshirish, individual rivojlanish xaritalarini ishlab chiqish hamda zamonaviy psixodiagnostik vositalardan foydalanish psixologik tayyorgarlikni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, harbiy ta’lim tizimida psixologik tayyorgarlikni pedagogik mexanizmlar asosida rivojlantirish nafaqat harbiy xizmatchilarning kasbiy barqarorligini ta’minlaydi, balki milliy xavfsizlikni mustahkamlash, xizmat samaradorligini oshirish va zamonaviy harbiy kadrlar tayyorlash sifatini yangi bosqichga olib chiqishga imkon yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4122-son 17.01.2019
2. “O‘zbekiston Respublikasida psixologik xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4645-son 19.03.2020
3. “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida harbiy psixologlar faoliyatini tashkil etishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VMQ-311-son 17.04.2019
4. Zeer E.F. Professional ta’lim psixologiyasi. – M.: Akademiya, 2003.
5. G‘oziyev E. Umumiy psixologiya. – T.: O‘qituvchi, 2010.
6. Davletshin M.G. Harbiy psixologiya asoslari. – T.: Fan, 2012.
7. Abdurahmonov Q.X. Harbiy pedagogika asoslari. – T.: Harbiy nashriyot, 2015.
8. Xolbekov A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2018.

HARBIY XIZMATDA SHAXSIY INTIZOM VA PSIXOLOGIK BARQARORLIK

Qo‘ldosheva Sevinch Sharof qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
Psixologiya kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi
sevinchkuldasheva3@gmail.com
Pedagogika- psixologiya va inklyuziv
ta'lim fakulteti psixologiya yo‘nalishi
2-bosqich talabasi Qurdoshova Munisa

Annotatsiya Mazkur maqolada harbiy xizmat jarayonida shaxsiy intizom va psixologik barqarorlikning o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ushbu omillarning harbiy xizmatchilar faoliyatiga ta’siri, ularni rivojlantirish yo‘llari va o‘zaro bog‘liqligi ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar Harbiy xizmat, shaxsiy intizom, psixologik barqarorlik, stressga chidamlilik, jangovar tayyorgarlik, ruhiy holat.

ЛИЧНАЯ ДИСЦИПЛИНА И ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ НА ВОЕННОЙ СЛУЖБЕ.

Аннотация В данной статье освещаются роль и значение личной дисциплины и психологической устойчивости в процессе военной службы. Также с научно-методической точки зрения проанализировано влияние этих факторов на деятельность военнослужащих, пути их развития и их взаимосвязь.

Ключевые слова Военная служба, личная дисциплина, психологическая устойчивость, стрессоустойчивость, боевая подготовка, психическое состояние.

Harbiy xizmat – bu yuksak mas’uliyat, qat’iy tartib va kuchli iroda talab etadigan faoliyat sohasidir. Harbiy xizmatchining xizmat vazifalarini samarali bajarishi ko‘p jihatdan uning shaxsiy intizomi va psixologik barqarorligiga bog‘liq. Ushbu ikki omil harbiy tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismlari bo‘lib, jangovar shaylik va xizmat samaradorligini ta’minlaydi.

Shaxsiy intizom harbiy xizmatchining nizom va buyruqlarga so‘zsiz amal qilishi, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qila olishi, vaqt va tartibga qat’iy rioya etishi bilan namoyon bo‘ladi. Intizom harbiy jamoada muvofiqlikni ta’minlaydi, buyruqlarni aniq va o‘z vaqtida bajarishga yordam beradi. Intizomli harbiy xizmatchi har qanday sharoitda o‘z burchini anglab, mas’uliyat bilan ish tutadi.Psixologik barqarorlik esa harbiy xizmatchining ruhiy holatini ifodalaydi. U stressli vaziyatlarga bardosh berish, qo‘rquv va hayajonni nazorat qilish, favqulodda holatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Harbiy xizmat davomida jismoniy zo‘riqish, mas’uliyatli topshiriqlar va xavfli vaziyatlar ko‘p uchraydi. Shunday sharoitlarda psixologik barqarorlik harbiy xizmatchining ruhiy muvozanatini saqlashda muhim rol o‘ynaydi.Shaxsiy intizom va psixologik barqarorlik o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Intizom ruhiy barqarorlikni mustahkamlasa, psixologik barqarorlik intizomga rioya qilishni yengillashtiradi. Harbiy tayyorgarlik jarayonida jismoniy mashg‘ulotlar bilan bir qatorda psixologik treninglar, ma’naviy-ma’rifiy ishlar olib borilishi ushbu sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida harbiy xizmatchilarning intizomi va psixologik barqarorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa harbiylarning kasbiy mahoratini oshirish, jangovar tayyorgarlikni mustahkamlash va davlat xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi Harbiy xizmat inson hayoti va davlat xavfsizligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan murakkab va mas’uliyatli faoliyatdir. Harbiy xizmatchi o‘z burchini samarali bajarishi uchun nafaqat jismoniy tayyorgarlikka, balki ruhiy tayyorgarlikka ham ega bo‘lishi zarur. Shu sababli shaxsiy intizom va psixologik barqarorlik harbiy tayyorgarlikning asosiy tarkibiy qismlari sifatida qaraladi. Shaxsiy intizomning ahamiyati Shaxsiy intizom – bu harbiy xizmatchining o‘zini boshqarish, nizomlarga va buyruqlarga qat’iy amal qilish, vaqt va resurslardan samarali foydalanish qobiliyatidir. Intizomli xizmatchi harbiy jamoada ishonch va tartibni saqlashga yordam beradi. Intizom nafaqat xizmat vazifalarini sifatli bajarishda, balki jamoaviy ishlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Harbiy mashg‘ulotlar davomida intizom, xizmatchining o‘zini nazorat qilish qobiliyatini rivojlantiradi, stressli vaziyatlarda harakatlarini samarali boshqarishga imkon yaratadi. Psixologik barqarorlikning roli

Psixologik barqarorlik – bu murakkab va xavfli vaziyatlarda ruhiy muvozanatni saqlash, qo‘rquv va stressni nazorat qilish, to‘g‘ri va tez qaror qabul qilish qobiliyatidir. Harbiy xizmat davomida xizmatchilar turli murakkab sharoitlarga duch keladi: jismoniy zo‘riqish, jangovar mashg‘ulotlar, favqulodda vaziyatlar va doimiy yuqori mas’uliyat. Ana shunday sharoitlarda psixologik barqaror shaxs o‘z vazifasini to‘liq va sifatli bajaradi, hamkasblariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va bo‘linmaning umumiy samaradorligini oshiradi. Psixologik barqarorlikni shakllantirishda psixologik mashg‘ulotlar, stressni boshqarish texnikalari va ma’naviy tarbiya muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, rahbarlarning shaxsiy namunasi ham xizmatchilarning ruhiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Intizom va psixologik barqarorlikning o‘zaro bog‘liqligi Shaxsiy intizom va psixologik barqarorlik bir-birini to‘ldiradi. Intizom ruhiy barqarorlikni mustahkamlasa, barqarorlik intizomga rioya qilishni osonlashtiradi. Masalan, intizomli harbiy xizmatchi o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qilishga va stressga chidamlilikni oshirishga moyil bo‘ladi. Shu bilan birga, ruhiy barqarorlik intizomni mustahkamlash, xizmat vazifalarini to‘liq va qat’iy bajarish imkonini beradi. Shunday qilib, harbiy xizmatchining samarali faoliyati ushbu ikki omil – shaxsiy intizom va psixologik barqarorlik – uyg‘unligiga bog‘liqdir. Zamonaviy harbiy sharoitlarda ushbu sifatlar jangovar tayyorgarlik, o‘quv mashg‘ulotlari va real operatsiyalar muvaffaqiyatini belgilaydi.Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida harbiy xizmatchilarning intizomi va ruhiy chidamliligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu o‘quv mashg‘ulotlarida qat’iy tartib, psixologik tayyorgarlik va ma’naviy tarbiya orqali amalga oshiriladi. Shaxsiy intizom va psixologik barqarorlikni rivojlantirish bo‘yicha doimiy ishlar harbiy xizmatchilarning kasbiy mahoratini oshirish, bo‘linmalarning jangovar shayligini kuchaytirish va davlat xavfsizligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa Shaxsiy intizom va psixologik barqarorlik harbiy xizmatning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat individual xizmatchining professional yetukligi va ruhiy barqarorligini, balki butun bo‘linmaning samarali faoliyatini ta’minlaydi. Shu sababli, harbiy tayyorgarlik jarayonida ushbu sifatlarni shakllantirish va doimiy rivojlantirish eng ustuvor vazifalardan biridir. Harbiy xizmatdagi intizom va

psixologik barqarorlik harbiy xizmatchining kasbiy o‘sishi va davlat xavfsizligini mustahkamlashda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

Harbiy xizmat murakkab va mas’uliyatli faoliyat bo‘lib, unda harbiy xizmatchining shaxsiy intizomi va psixologik barqarorligi xizmat samaradorligini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Shaxsiy intizom nafaqat nizom va buyruqlarga qat’iy amal qilish, vaqt va resurslarni samarali boshqarish, balki o‘zini nazorat qilish va xizmat jarayonida mas’uliyatni chuqur anglash qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Intizomli xizmatchi har qanday vaziyatda o‘z burchini biladi, jamoaga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va buyruqlarni to‘g‘ri va o‘z vaqtida bajaradi. Shu bois, shaxsiy intizom harbiy xizmatchining kasbiy va shaxsiy rivojlanishining mustahkam poydevoridir.Psixologik barqarorlik esa murakkab va stressli sharoitlarda ruhiy muvozanatni saqlash, xavf va qo‘rquvni boshqarish, favqulodda vaziyatlarda tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini ta’minlaydi. Harbiy xizmat jarayonida xizmatchilar ko‘p hollarda yuqori mas’uliyat, jismoniy zo‘riqish va xavf-xatar bilan yuzlashadi. Ruhiy jihatdan barqaror shaxs bunday vaziyatlarda o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qila oladi, stressga chidamliligini saqlaydi va xizmat vazifalarini samarali bajaradi. Shu sababli psixologik barqarorlik harbiy xizmatchining professional yetukligi va jamoaning jangovar tayyorgarligi uchun hal qiluvchi omildir.Shaxsiy intizom va psixologik barqarorlik o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir-birini mustahkamlaydi. Intizom ruhiy tayyorgarlikni kuchaytirsa, psixologik barqarorlik intizomni mukammal bajarishga yordam beradi. Harbiy tayyorgarlik jarayonida jismoniy mashg‘ulotlar, psixologik treninglar, ma’naviy va ma’rifiy ishlar ushbu sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, rahbarlarning shaxsiy namunasi, tajribasi va qo‘llab-quvvatlashi ham xizmatchilarning intizom va ruhiy bardoshliligini oshirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, harbiy xizmatda shaxsiy intizom va psixologik barqarorlik harbiy xizmatchining professional rivojlanishi, xizmat samaradorligi va jamoaviy muvaffaqiyatining asosiy ko‘rsatkichlari hisoblanadi. Ularni shakllantirish va doimiy ravishda rivojlantirish nafaqat xizmatchining kasbiy mahoratini oshiradi, balki davlat mudofaa qobiliyatini mustahkamlashga va bo‘linmalarni har qanday sharoitda samarali faoliyat yuritishga imkon yaratadi. Shu sababli harbiy xizmatda intizom va psixologik barqarorlikni rivojlantirishni doimiy ravishda nazorat

qilish, yangicha metodlar va psixologik texnologiyalarni joriy etish harbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi bo‘lib qoladi Harbiy xizmat murakkab va mas’uliyatli faoliyat turi bo‘lib, unda harbiy xizmatchining shaxsiy intizomi va psixologik barqarorligi asosiy ahamiyatga ega.

Shaxsiy intizom harbiy xizmatchining buyruqlar va nizomlarga qat’iy rioya qilishini, vaqtni samarali boshqarishini, o‘zini nazorat qilishini va xizmat vazifalariga mas’uliyat bilan yondashishini ta’minlaydi. Intizomli harbiy xizmatchi har qanday sharoitda o‘z burchini anglab, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yadi. Shu bilan birga, intizom bo‘linmada tartibni saqlash, ishlarni o‘z vaqtida bajarish va jamoa bilan samarali hamkorlik qilishga yordam beradi.Psixologik barqarorlik esa harbiy xizmatchining ruhiy chidamliligini, stressli vaziyatlarda sovuqqonlikni saqlashini, xavf-xatar va qo‘rquvni boshqarishini, favqulodda sharoitlarda esa tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatini ta’minlaydi. Harbiy xizmat davomida xizmatchilar jismoniy zo‘riqish, murakkab vazifalar va xavfli vaziyatlarga duch keladi. Psixologik barqaror shaxs bunday vaziyatlarda ruhiy muvozanatni saqlab, xizmat vazifalarini sifatli va samarali bajaradi. Shu sababli psixologik barqarorlik harbiy xizmatchining professional tayyorgarligi va bo‘linmaning umumiy samaradorligi uchun muhim ahamiyatga ega.Shaxsiy intizom va psixologik barqarorlik bir-birini to‘ldiradi. Intizom ruhiy tayyorgarlikni mustahkamlasa, psixologik barqarorlik intizomga rioya qilishni yengillashtiradi. Masalan, intizomli xizmatchi stressli vaziyatlarda o‘z his-tuyg‘ularini boshqarib, mas’uliyatli qarorlar qabul qiladi, psixologik barqarorlik esa intizomni qat’iy bajarishga yordam beradi. Shu tarzda, harbiy xizmatchining xizmat samaradorligi va bo‘linmaning jangovar tayyorgarligi ushbu ikki sifatning uyg‘unligiga bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. — Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Rasulov A.B. Harbiy psixologiya asoslari. — Toshkent: Harbiy nashriyot, 2015.
3. Qodirov B.R. Shaxs psixologiyasi. — Toshkent: O‘qituvchi, 2012.
4. O‘zbekiston Respublikasi Harbiy nizomlari. — Toshkent, 2020.

5. Xolmatov Sh.X. Harbiy xizmatchilarda psixologik barqarorlikni shakllantirish. — Toshkent, 2018.

6. Karimov A., Rahmonov S. Xodimlarning stressga chidamliligi va samaradorligi. – Toshkent, 2019.

7. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO). Ish joyida ruhiy salomatlik. – Jeneva, 2021.

8. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO). Ish joyida stress. – Jeneva, 2020.

9. Lazarus R.S., Folkman S. Stress, baholash va kurashish. – Nyu-York: Springer, 1984.

10. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.

11. G‘oziev E.G‘. Mehnat psixologiyasi. – Toshkent: Fan, 2019.

OILADA HUQUQIY MADANIYAT VA TENGLIKNI TA’MINLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

O‘R HX va MU AKT va HAI boshlig‘ining
o‘rinbosari, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Shermatov Fayzullo Toshtillayevich
Badalova Visola Norqulovna
Aniq va ijtimoiy fanlar universitet magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqola oilada huquqiy madaniyat va tenglikni ta’minlashning ilmiy-nazariy asoslarini ochib beradi. Oila ijtimoiy institut sifatida kishilarning qon-qarindoshlik, mulk va manfaat umumiyligi, talab hamda ehtiyojlarning birgalikda, o‘zaro kelishilgan holda tuziladigan yaxlit mikroijtimoiy tuzilmadir. Aynan oilada inson o‘z qadrini anglaydi, umr mazmuni va ezgu xulq namunalarini egallaydi.*

Kalit so‘zlar: *oila, ijtimoiy institut, mikroijtimoiy tuzilma, ijtimoiy himoya, huquqiy faollik.*

Аннотация: *Данная статья раскрывает ноучно-теоретические основы обеспечения правовой культуры и равенства в семье. Семья как социальный институт, созданный на основе микросоциольной системы родственных*

отношений обойщенности имущества и интересов, требований и подребностей. Именно в семье человек осозноёт свою ценност и овладевает смыслом жизни, образцами примерного поведения.

Ключевые слова: *семья, социальный институт, микросоциальная система, социальная защита, правовая активность.*

Abstract: *This article reveals cultural law and scientific-theoretical bases of equality in the family. Family as a social institute is a fully micro-social system which gives opportunity to make collaboration, to gather requirements and also demands, to get command property and interests, and make relationship among the people. Particularly in the family human recognize the value of himself, meaning of this life and good manners.*

Keywords: *family, social institute, micro-social system, social prefect, being active, in the sphere of law.*

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, jamiyat hayotining barcha sohalarida ma’naviy omillar ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan. Mohiyat-mazmunini milliy istiqlol g‘oyasining maqsad-manfaatlari tashkil etgan bu jarayonda ijtimoiy munosabatlarning demokratik qadriyatlar asosida qaror topishi, erkin fuqarolik jamiyati asoslarining mustahkamlanishiga alohida ahamiyat berilishi natijasida: bir tomondan, jamiyat taraqqiyotiga xos ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma’naviy paradigmalari shakllanmoqda, boshqa tomondan, jamiyatda ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida yangi munosabatlar uyg‘unligi qaror topmoqda. Bu esa, oila, oilaviy munosabatlarni milliy va umuminsoniy axloqiy qadriyatlar negizida rivojlantirishni taqozo qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o‘ziga xos bo‘lgan taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tish jarayonida jamiyatimizning asosiy bo‘g‘ini bo‘lmish oila masalasiga alohida e’tibor berilganligining guvohi bo‘lamiz.

Bu borada muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Yangi O’zbekistonni barpo etish – bu shunchaki hohish-istak emas, tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizda mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizxning asriy orzu-intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan ob’ektiv zaruratdir. Biz bu yo‘lda

islohotlarimizning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan jamiyatimizning bor bilim va salohiyati, kuch va imkoniyatlarini, butun azmu shijoatini ishga solishimiz zarur” degan fikrlari ostida ushbu islohotlarning aynan har bir yurtimiz fuqarolari vatan ichka kichik vatan bo‘lmish o‘z oilalaridan boshlashlari zarurligi, shundagina Yangi O’zbekiston jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylanadi [1].

Mustaqillik yillaridagi yangi ijtimoiy-tarixiy sharoit oila, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiya borasida ham jiddiy o‘zgarishlarni keltirib chiqardi. Bolalarni vatanparvarlik ruhida, yangicha fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash oiladan boshlanishini e’tiborga olib, oilaviy tarbiya mazmunini qayta ko‘rib chiqish va uni yanada boyitish, uning asosiy yo‘nalishlarini belgilash va shu asnoda maqsad va vazifalarni hamda ularni qanday vositalar bilan amalga oshirish yo‘llarini aniqlash muhim ijtimoiy-pedagogik va ijtimoiy-psixologik zaruriyat sifatida qaraldi. Chunki, mustabid tizim davrida oila masalasida oilaviy milliy urf-odat va qadriyatlar, farzandlar tarbiyasi, oilalarning ijtimoiy himoyalanganlik darajasi hamda uning jamiyatdagi o‘rni va roli ayanchli ahvolgan kelib qolganligiga barchamiz guvohmiz.

Xususan prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning oila xususida “Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalo qayerda ishlashidan qat’iy nazar, kim bo‘lishidan qat’iy nazar agar oilada tarbiya, muhit, halollik, o‘zaro munosabatlarga alohida e’tibor berilmasa hech qachon natija bo‘lmaydi” degan fikrlari kecha va bugunning ayni zarurati desak hech mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ana shu zaruriyatdan kelib chiqqan holda, oilaaviy munosabatlarni mulliy urf-odatlarimiz va an’analarimiz asosida qurish, farzandlarimizni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish hamda ularning ijtimoiy himoyalash masalalari ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma’rifiy ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, mazkur masalalarni hal etish ancha murakkab va ziddiyatli bo‘lib, unga vorisiylik va tarixiylik nuqtai nazaridan yondashish talab etiladi.

Zero, bu borada birinchi prezidentimiz Islom Karimovning oilaning jamiyat hayotidagi roli haqidagi: “Har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz, oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki, insonning

eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir. Shuning uchun ham aynan oila muhitida paydo bo‘ladigan ota-onaga hurmat, ularning oldidagi umrbod qarzdorlik burchini chuqur anglash har qaysi insonga xos bo‘lgan odamiylik fazilatlari va oilaviy munosabatlarning negizini, oilaning ma’naviy olamini tashkil etadi”, degan fikrlari har doim dolzarb bo‘lib kelmoqda [2].

Ushbu keltirilgan fikrlarga tayangan xolda mamlakat mudofaasini ta’minlashga yo‘naltirilgan harbiy faoliyatni tashkil etish va boshqarish jarayonida harbiy bo‘linmalar hamda har bir harbiy xizmatchining jismoniy, ma’naviy, kasbiy, maxsus kasbiy tayyorgarliklari qatori ularning ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik darajasi ham muhim o‘rin tutadi. Ijtimoiy tayyorgarlik shaxsiy tarkib bilan ishlash, kasbdoshlar bilan munosabatda bo‘lish bilan bir qatorda oila qurish, farzandlarni tarbiyalash, oilani bo‘sh vaqtini rejalashtirish, oila budjetini ta’minlash kabilarni ham qamrab oladi. Bularning barchasi yaxlit tarzda ifodalanganda harbiy xizmatchining professionalligini ta’minlaydi. Bu esa o‘z navbatida mamlakatimizning mudofaa qudratini ta’minlashga xizmat qiladi. Mazkur masalani siyosiy, harbiy, ijtimoiy kabi xususiyatlarini inobatga olgan mamlakatimiz Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev “Qurolli Kuchlar-Vatanimiz va xalqimizning mustahkam qo‘rg‘oni” nomli nutqida alohida ko‘rsatib o‘tgan [3].

Zamonaviy davlatchilik sharoitida huquqiy demokratik davlat barpo etishning ilg‘or yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan oilada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalalari davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

O’zbekiston davlatchiligi tarixiga nazar solsak, bundan 2700 yil avval yurtimizda yaratilgan va Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan, o‘zbek xalqining ajdodlari oilalarida oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solgan “Avesto” kitobida asosiy e’tibor nikoh tuzish zarurati, bola huquqlarining himoyasi, nikohni bekor qilish shart-sharoitlari va er-xotin o‘rtasidagi mulkiy munosabatlarga qaratilgan [4].

Oila va oilaviy munosabatlar masalalari, shu jumladan, oilada huquqiy madaniyatini shakllantirish va yanada oshirish masalalari bir necha asrlardan buyon buyuk mutafakkirlar va davlat boshqaruvi masalalari bilan shug‘ullanuvchi olimlar diqqat e’tiborini o‘ziga tortib kelgan. Buyuk mutafakkirlarimiz Abu Nasr Forobiyning “Aql haqidagi risola”, Abu Rayxon Beruniyning “Hindiston”, Abu Ali Ibn Sinoning “Qush risolasi” va “Axloq haqida risolasi”, Imom At-Termiziyning “Dastur al-mulk”, Burxoniddin Marg‘inoniyning “Hidoya” va Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarlarida oila va oilaviy munosabatlarda huquqiy madaniyatini shakllantirish bo‘yicha qarashlar o‘z aksini topgan.

O’zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridan boshlab oila institutini rivojlantirishga davlat miqyosida katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, 1998 yil – “Oila yili”, 1999 yil – “Ayollar yili”, 2001 yil “Onalar va bolalar” yili va 2012 yil – “Mustahkam oila yili” deb e’lon qilindi.

Oila va oilaviy tarbiya munosabatlari faqatgina bir yo‘nalishdagi tadqiqotlar orqali hal etiladigan masala bo‘lmasdan, u davlatning huquqni muhofaza qilish va boshqa organlari, ilmiy muassasalar, jamoatchilik va jamiyatning har bir a’zosi bilan uzviy bog‘liqdir.

Yaponiya va Malayziya kabi davlatlarda huquqiy madaniyat o‘quvchilarga maktab davridanoq singdirib boriladi. Mamlakat yoshlari uchun parlament binosi oldiga kelib ta’zim qilish – odatiy holga aylangan. Ushbu an’ana nafaqat parlament va qonunlarga hurmat, balki mamlakatda qonun chiqaruvchi organlarga bo‘lgan ishonch va ehtiromdan ham dalolatdir.

Shariat qonunlarida diniy, ma’naviy, huquqiy va axloqiy me’yorlar, kishilarning oila, jamoat joylaridagi yurish-turish qoidalari, er-xotin, ota-ona bilan bolalar hamda qarindoshlar o‘rtasidagi munosabat, bola tarbiyasi kabi sohalarda oila a’zolarining huquq hamda majburiyatlari belgilab berilgan. Shuningdek, shariatda nikoh muqaddas, oila esa buzilmas, deb e’tirof etiladi.

Islom huquqining oila va oilaviy munosabatlarga bag‘ishlangan normalarida “zaif” jins vakili bo‘lgan ayollar masalasining umumijtimoiy jihatlari, ijtimoiy-tarixiy negizlari va madaniy-ma’naviy xususiyatlari belgilangan. Shuningdek, ayollar masalasini hal

etishning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy jihatdan o‘ziga xosligini belgilashga alohida e’tibor qaratilgan.

Islom huquqida ayolga uning jinsiga, biologik tuzilishiga qarab haq-huquq berilgan, shu bilan birga vazifalar ham tayinlangan. Unga ko‘ra, ayol oila hayotining barcha jabhalarida: ilm olishda, mehnat qilishda, jamiyat taraqqiyotida qatnashishda, mol-mulkka egalik qilishda erkak bilan teng huquqli bo‘lgan.

Shular asosida, oila huquqlariga doir islom huquqidagi nazariy muammolarni tahlil shuni ko‘rsatmoqdaki, islom huquqida ayol huquqlariga yondashishda oila mustahkamligining o‘ziga xos vositasi sifatida qaralgan [5].

O’zbekistonda oila a’zolarning aksariyat huquqlari bir vaqtning o‘zida ularning oilaviy majburiyatlari sifatida ham namoyon bo‘ladi (eng avvalo oila a’zolari o‘rtasidagi shaxsiy huquqiy munosabatlar doirasi nazarda tutilmoqda). Masalan, ota-onalar o‘zlarining balog‘atga yetmagan bolalarini faqat tarbiya qilish huquqiga ega bo‘libgina qolmasdan, balki ularni tarbiya qilishga majburdirlar [6].

Xulosa qilib aytganda, oiladagi huquqiy madaniyatning muhim xususiyatlari qatorida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

a) yuksak huquqiy ong;

b) mamlakatning amaldagi qonunlarini bilish;

v) qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarning zarurligi, foydaliligi va maqsadga muvofiqligiga ishonch hosil qilish;

g) o‘z huquqlari va burchlari, erkinliklari va javobgarligi, jamiyatdagi o‘z holati (maqomi), boshqa shaxslar bilan o‘zaro munosabatlar me’yorlarini to‘g‘ri tushunish (anglash);

d) huquqiy faollik, ya’ni sub’ektning huquqbuzarliklarni oldini olish borasidagi izchil ixtiyoriy faoliyati;

e) har qanday huquq buzilish holatiga qarshi kurashish, jamiyatda huquq-tartibot va qonunga bo‘ysunishni quvvatlash va boshqalar.

Xulosa o‘rnida, mamlakatimizda buning uchun barcha tarixiy-ilmiy va diniy asoslar yetarli hisoblanadi. Bunday sharoitda, oilaning mustahkamligini ta’minlash va oilada huquqiy munosabatni muvozanatlab turishda ayolning o‘rni va rolini hisobga

olgan holda ularni turli zo‘ravonliklar va jinoyatlardan himoya qilish choralarini ishlab chiqish lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi./ “O‘zbekiston” nashriyoti. T.: - 2021 B-4

2. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” – Toshkent: Ma’naviyat, 2008 yil.

3. Sh.Mirziyoyev. Vatan himoyachilari kuni va O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 32 yilligiga bag‘ishlangan tantanali ma’rosimdagi tabrik nutqi. / Vatanparvar gazetasi, 2024 yil, 13 yanvar.

4. Avesto. Tarixiy adabiy yodgorlik/ Asqar Mahkam tarjimasi. – T.: 2001; Homidov H. Avesto fayzlari/ Ilmiy muharrir: N. Komilov. – T.: 2001.

5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64 va 66-moddalari. – T.: “O‘zbekiston”, 2012.

TALABA YOSHLARNI DESTRUKTIV TA’SIRLARDAN HIMOYALASHNING NAZARIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI

Shermatov Fayzullo Toshtillayevich

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va harbiy aloqa instituti boshlig‘ining o‘rinbosari, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, (Tel 90 288 56 57)

Azimova Ziyoda Baxtiyor qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti Psixologiya guruhi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: *maqolada o‘sib kelayotgan yoshlarni destruktiv tasirlardan himoyalashning nazariy-psixologikning asoslari, yoshlar ongiga ta’sir etuvchi destruktiv*

tasirlardan himoyalash, unga qarshi tura oladigan psixologik himoyani shakllantirish masalalari xususida fikr muloxazalar yurtilgan.

Kalit so‘zlar: *“Men” va “Men emas”, ong, psixik holat, xulq-atvor, yoshlar siyosati, yoshlar,“Axborot xuruji”, tahdid, himoya mexanizmi, ijtimoiy psixologiya, ijtimoiy beqarorlik, mafkuraviy kompetensiya, destruktiv tasir va ijtimoiy ong.*

Аннотация: *В статье рассматриваются теоретико-психологические основы защиты подростающего поколения от деструктивного воздействия, защита разума молодёжи от деструктивного воздействия, формирование психологической защиты от неё.*

Ключевые слова: *“Я” и “не Я”, разум, психическое состояние, поведение, молодёжная политика, молодёжь, “Информационная атака”, угроза, защитный механизм, социальная психология, социальная неустойчивость, идеологическая компетенция, деструктивное воздействие и социальный разум.*

Annotation: *the article provides theoretical and psychological foundations for protecting young people from destructive influences, protecting the mind of young people from destructive influences, and forming psychological protection against them.*

Key words: *“I” and “not I”, mind, mental state, behavior, youth policy, youth, “information attack”, threat, defense mechanism, social psychology, social instability, ideological competence, destructive influence and social mind.*

Bugun zamon axborotlar xuruji, ma’lumotlar eng tez tarqaladigan zamon bo‘lib ularning tarqalish jarayonini ko‘pchilik hollarda nafaqat tekshirib o‘rganish, hatto kuzatib ulgurmaslik darajasida tez tarqalib ketmoqda. Ushbu holatlarni inobatga olgan holda o‘z amaliy faoliyatini zamon talabiga moslagan holda olib bormoqda. yoshlarimiz orasida salbiy axborot kuchini pasaytirish va ularning ta’sir kuchini inobatga olgan holda shaxsiy tarkib tizimida tarbiyaviy, mafkuraviy va ma’naviy, ayniqsa yoshlarga salbiy psixologik ma’lumotlar ta’sirini pasaytirish yo‘nalishidagi ishlarimizni zamon talablari darajasida olib borishni tashkil qilmoqdamiz.

Ma’lumki, Prezidenti tomonidan belgilangan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan davlat taraqqiyoti strategiyasi asosida Harbiy doktrina tashkil qilingan. Bugungi kunda

biz zamonamizda ro‘y berayotgan hamma o‘zgarishlarni, axborot xurujlari va ularning yosh avlodga salbiy ta’sirlari va ularning oldini olish choralari asosida o‘z faoliyatimizni qayta qarab chiqdik.

Bugungi kundagi axborotlar xuruji o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Shunday ekan, vazirlik tizimidagi shaxsiy tarkibining jangovar ruhini yanada oshirishda psixologik va pedagogik omillardan keng foydalanish mavridi keldi. Buning uchun shaxsiy tarkib tizimidagi tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar xodimlarining malakaviy darajalarini oshirish, ularni kerakli tashkilotlarga malaka oshirishga yo‘llash amallari yo‘lga qo‘yilmoqda.

Inson shaxsining ijtimoiylashuvida turli xil g‘oyaviy va mafkuraviy omillarning o‘rni kattadir. Inson e’tiqodsiz, g‘oyasiz, fikrlashsiz yashay olmaydi. Shaxs va uning e’tiqodi masalasi muhim muammolardan biri bo‘lib, bu omil uning ijtimoiylashuviga moxiyatan bevosita bog‘liq deb qaraladi. Bu masalaning muhimligi, har qanday insonning kamol topishida, shaxs sifatida shakllanishi, jamiyatning oldida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, uning ezgu g‘oya va iymon e’tiqodning o‘rni muhim ahamiyatga egaligidadir. Agar biz yoshlarimizni bolaligidan boshlab sog‘lom e’tiqod va yuksak dunyoqarashini shakllantira olsak, ular ma’naviyati boy mustaqil fikrli va oliyjanob shaxslar bo‘lib kamolga yetishadi. Shu ma’noda shaxs e’tiqodi undagi barqaror, teran fikr va tasavvurlar, bilimlar majmuini, mafkuraviy dunyoqarash hamda milliy g‘oyalar aslida ana shunday e’tiqodlar asosida shakllanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2025 yil 25 dekabr kuni Yoshlar forumida so‘zlagan nutqida “Qanchalik qiyin bo‘lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo‘yicha o‘zimizga xos va ta’sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg‘unchi va zararli g‘oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma’naviy qashshoqlik, iste’molchilik kayfiyatidan asrashimiz zarur!”. [1].

Shu bois, axborot bilan ishlashni faqat unga xos bo‘lgan, aniqrog‘i, ijtimoiy tajribasi davomida o‘zlashtirilgan texnologiyasini qo‘llab, axborotni anglagan yoki turli aniqliklarni belgilash tarzida (tizimlashtirib) bilim shakliga keltiradi. Bu esa o‘z navbatida insonda xulqning psixologik regulyatsiyasini amalga oshiradi [2]. Turli

fazalarda mazkur jarayon avtomatizatsiyalashib, individual kognitiv uslubga aylanadi. Kognitiv uslub, individual ong va ongsizlik dinamikasida ham ifodalanib, “Men” va “Men emas” tarzidagi munosabatda, o‘ziga baho berish, o‘zlikni anglashida namoyon bo‘ladi. Shu bois, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish yo‘lida ongni, aniqrog‘i, yoshlarda ijtimoiy ongni rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ong, sub’ektning intellektual faoliyati tarzida namoyon bo‘lib, yangi taassurotlarni in’ikos(ifoda) etish bilan birga, uning tajribasini ifoda etib, joriy vaziyatni hissiy baholab, tashqi dunyoni aks ettiradi. Ong, dunyoning sub’ektiv timsoli, sub’ektning mavjud faoliyatining mazmuni, predmetning andozasi hisoblanib, inson “boshida” borliq predmeti hisoblanadi. Bugungi kunga qadar ong masalasi turli tadqiqotlarda o‘rganilgan bo‘lsa-da, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish kontekstida yetarlicha o‘rganilmagan [3].

Tahdidlar sonining ortib borishi, sub’ektdan ular haqida xabardor bo‘lishni taqozo etadi. **Ijtimoiy-psixologik jihatdan tahdidlarning quyidagicha klassifikatsiyasini** amalga oshirish mumkin:

Psixik holati (refleksiya) haqida fikrlash bo‘yicha:

sub’ekt tomonidan mos ravishda himoya qiluvchi (javob qaytariluvchi) tahdid;

sub’ekt tomonidan mos bo‘lmagan ravishda himoya qiluvchi (javob qaytariluvchi) tahdid.

Bu esa o‘z navbatida, mafkuraviy immunitetni determinatsiyasi bo‘yicha (ya’ni, immunitetni ta’minlovchi sabablari), vaqt oralig‘i bo‘yicha (doimiy tarzda yoki vaziyat vujudga kelganda), tuzilishining murakkabligi bo‘yicha (alohida tarzda yoki murakkab majmua tarzida), adekvatligi bo‘yicha (shaxsda yoki sotsiumda) idrok etishni taqozo etadi. Ilmiy adabiyotlarni **ijtimoiy-psixologik tahlili asosida idrok qilish darajasi bo‘yicha, tahdidlarni** [4]:

sub’ekt tomonidan faol (aktiv) idrok etuvchi tahdid;

sub’ekt tomonidan neytral (xolis) idrok etuvchi tahdid;

sub’ekt tomonidan sust (passiv) idrok etuvchi tahdidlarga ajratish mumkin.

Fikrimizcha, tahdidlarni amal qilishidan xabardorlik, unga nisbatan munosabat bildirishda, aniqrog‘i, xulq-atvor modelini tanlash uchun shart hisoblanadi, chunki, mafkuraviy immunitet quyidagi ijtimoiy-psixologik jihatlari bilan ajralib turadi:

mafkuraviy immunitetning ijtimoiy kutishlar va me’yorlarga mos tushishi lozim;

mafkuraviy immunitetga amal qilish - tafakkur va tasavvur jarayonini natijasi hisoblanadi;

mafkuraviy immunitet vujudga kelgan tahdidning mazmuniga qarshi javob tariqasida ifodalanadi;

mafkuraviy immunitetga anglangan tarzda amal qilinib, refleksiya sathida nazorat qilinadi;

mafkuraviy immunitetning tashqi ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi muvaffaqiyatli kechishini ta’minlaydi;

mafkuraviy immunitet individning hayotiy qadriyatlariga oid bo‘lgan hukmidan qoniqishni ta’minlaydi;

mafkuraviy immunitet shaxslararo munosabalarda shaxsni ijobiy rivojlanishini va ijtimoiylashuvini ta’minlaydi.

Mafkuraviy immunitetning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, o‘z navbatida, yoshlarda tahdidlar haqida xabardor bo‘lishini taqozo etadi.

Bugungi kunda tahdidlarning, insonga salbiy ta’sirini zararsizlantirish darajasi bo‘yicha:

sub’ekt xavf to‘g‘risida xabardor emas;

sub’ekt xavf to‘g‘risida shunchaki xabardor;

sub’ekt xavf to‘g‘risida yaxshi xabardor kabilarga ajratish mumkin.

Mazkur ijtimoiy-psixologik tasnif o‘z navbatida, mafkuraviy immunitetning tarkibiy komponentlarini shakllantirishda hamda psixologik madaniyatni shakllantirish bo‘yicha ma’rifiy tadbirlarni yosh, jins, madaniy va hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda ta’minlash uchun muhim hisoblanadi.

Mafkuraviy kompetensiyaga egaligi bo‘yicha, ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

sub’ekt tahdidni bartaraf etish kompetensiyasiga ega;

sub’ekt tahdidni qisman bartaraf etish kompetensiyasiga ega;

sub’ekt tahdidni bartaraf etish kompetensiyasiga ega emas.

Bu tasnif, yoshlarda mavfkuraviy kompetensiyani shakllantirish masalasini dolzarblashganligini ko‘rsatib, ijtimoiy psixologiya fani doirasida uni o‘rganishni taqozo etadi. Ijtimoiy-psixologik o‘rganish esa, yoshlarni ichki va tashqi tahdidlarga nisbatan munosabat bildira olishini ta’minlaydi. Aniqrog‘i, ularni bilim bilan qurollantiradi. Chunki tahdidlarga munosabat bildirishga tayyorgarlik darajasi bo‘yicha:

sub’ekt tahdidga nisbatan munosabat bildirishga yaxshi, qisman yoki tayyorlanmagan tarzida ijtimoiy-psixologik jihatdan baholanishi mumkin.

Tahdidlarga nisbatan munosabat bildirish uchun, yoshlar tahdid va tahdidning ta’siriga tushish oqibatida vujudga keladigan ijtimoiy-psixologik holat va vaziyat haqida tushunchaga ega bo‘lishi lozim. Shu sababli, tahdidlarning ta’siriga tushgandan so‘ng yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarni sub’ekt tomonidan tushunish darajasi buyicha tasniflash lozim. Mazkur tasnif, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish uchun ishlab chiqiladigan chora-tadbirlarni joriy etish jarayonini boshqarish uchun xizmat qilishi mumkin:

sub’ekt tomonidan to‘liq va qisman yoki tushunilmagan tahdidlar.

Bulardan xabardor bo‘lish, munosabat tarzini, reaksiya bildirish namunasini tanlash imkonini beradi. Garchi, turli tadqiqotlarda himoya boshqa bir psixologik tuzilmalarning faoliyati doirasida o‘rganib kelinayotgan bo‘lsa-da, masalaga mafkuraviy immunitetni shakllantirish jihatidan yondashish pedagogik-psixologik jihatdan madaniy ahamiyat kasb etadi. Bu xususda, M.Quronov va H.Jabborovlar “...aholining turli qatlam vakillari ichki va tashqi tahdid va uning oqibatlaridan bexabarligi, ularning mazkur tahdidlarga chalinishini tezlashtiradi” [5] – deb, fikrlarini bildirganlar. Bu esa, yoshlarimizda tahdidlar va ularning oqibatlari haqida ijtimoiy tasavvurni shakllantirish mavzusini dolzarblashtiradi.

Ijtimoiy-psixologik tahdidlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

real (haqiqiy) tahdid;

formal (yuzaki) tahdid;

abstrakt (mavhum) tahdid.

Sub’ektga tahdid solayotgan tahdidlarning o‘rganilishi bo‘yicha:

aniqlangan (ma’lum) tahdid;

aniqlanmagan (o‘rganilmagan) tahdid.

Shu bois yoshlar destruktiv tasirlarga munosabat bildirishda, munosabatning qat’iyligini, aniqrog‘i xulosaviy qismini ta’minlaydi.

Destruktiv tasirlarga javob qaytarish uchun, yoshlarimiz mafkuraviy kompetensiyalarga ega bo‘lishlari lozim. Mafkuraviy kompetensiya esa, g‘oya va mafkuralarga oid nazariyalar, ularning asosiy kategoriyalarini funksional roli haqida bilim, hayot va faoliyat davomida ularni qo‘llay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish, jamiyat hayotida ifodalanadigan g‘oya va mafkuralarni bunyodkor va vayronkorligi bo‘yicha ajrata bilish malakasiga ega bo‘lishda namoyon bo‘ladi.

Shu tariqa, mafkuraviy immunitet, yoshlarning barqarorligini ta’minlovchi ijtimoiy-psixologik tizim hisoblanib, tashqi va ichki nizolarning ta’siridan yoshlar ongini yot, yoqimsiz taassurot, beqarorlik kabi salbiy ko‘rsatkichlardan himoya qilish uchun zarurdir. Bu o‘z navbatida, harakat qilishi, namoyon bo‘lishi jihatidan barcha tahdidlar tasniflashni taqozo etadiki, yoshlarda mafkuraviy kompetensiyani shakllantirish uchun shart hisoblanadi. Bunda tuzilmaviy tashkil etilishi bo‘yicha:

oddiy (bir tarkibli) tahdid;

murakkab (ko‘p tarkibli) tahdid.

Ta’kidlash lozimki, yoshlarga, psixologik ta’sir ko‘rsatish uchun amal qiladigan tahdidlar murakkab (ko‘p tarkibli) hisoblanib, turli sohalarda ta’sir ko‘rsatishi bilan ajralib turadi. Ular haqida ma’lumotga ega bo‘lish esa ,ularga javob qaytarish sur’atini tezligini ta’minlaydi[6].

Mafkuraviy immunitet, axborot-psixologik tahdid, g‘oyaviy va mafkuraviy xavflardan alohida shaxs, guruh, omma va aholining psixologiyasiga qaratilgan salbiy ta’sirlarning oldini olish yoki ularni bartaraf etish to‘g‘risidagi qarashlar tizimini o‘z ichiga oladi.

Insonlarni havotir va tashvishga solayotgan “Axborot xuruji” deyilganida muayan kuch (davlat, siyosiy markazlar, korporatsiya)larning o‘z siyosiy maqsad va muddaolarini amalga oshirish yo‘lida eng avvalo mafkuraviy omillar, shuningdek, moddiy va ma’naviy

ta’sir o‘tkazish orqali kishilar ongi va qalbiga yot g‘oyalarni singdirishni, ularning hissiyotlari, e’tiqodi va tuyg‘ulariga ta’sir etishni, turmush tarzi va mentalitetidagi o‘zgarishlarni amalga oshirishni ko‘zlovchi xatti-harakatlar majmuasi tushuniladi. Davlat, jamiyat mudofaasi va xavfsizligini ta’minlashni o‘z zimmasiga olganligi nuqtai nazaridan qaraganda, axborotni himoyalash deganda axborot makonini turli xavf va tahdidlarning ta’siridan himoyasini amalga oshirishni nazarda tutish lozim”- deb ta’kidlaydi falsafa fanlari doktori, professor R.Samarov [7].

Mamlakatimiz va xorijning ayrim olimlari, bugungi kunda tahdidlarga g‘oyaviy immunitet, ma’naviy immunitetni shakllantirish nuqtai nazari asosida munosabat bildirib, quyidagilarga alohida e’tibor qaratganlar:

inson faoliyatining ruhiy mazmuni [8];

jamiyatning, millatning va yoki ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari [9];

axborot vositasida yetkaziladigan xavf va tahdidlardan himoya qobig‘i [10] va boshqalar tushuniladi.

Ilmiy manbalarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, OAV orqali ta’sir ko‘rsatish o‘z ilmiy konsepsiyasiga ega bo‘lib, bunda “Shaxs va ijtimoiy munosabatlar nazariyasi”, “Tahdidlarni aniqlash va javob qaytarish” kabi ta’limotlarga tayaniladi. Psixologik ta’sir ko‘rsatishni amalga oshirishda mintaqaviy, etnomadaniy, diniy, siyosiy va iqtisodiy kabi omillardan foydalanilishini ta’kidlash mumkin. Psixologik ta’sir ko‘rsatish konsruktiv va destruktiv jihatlarga ega. Uning konstruktiv jihati ko‘proq amaliy ahamiyat kasb etib, bevosita mamlakat mudofaasi va xavfsizligini amalga oshirish samaradorligini ta’minlashga qaratilgan bo‘ladi.

Yurtilgan mulohazalardan kelib chiqib qo‘yidagicha **xulosa qilish** mumkin. Yoshlarda fojeali xarakter quyidagi oqibatlarni olib kelishi mumkin:

ijtimoiy aloqa doirasining torayishiga, qadriyatlar mazmunining o‘zgarishiga, faqat bugungi kun uchun yashab, istiqbolni o‘ylamaslikka, “Men” siymosining deformatsiyalashuviga, psixologik tushkunlikning yuzaga kelishiga (ichki beqarorlik, ichki ziddiyat, yolg‘izlik hissi, ijtimoiy qo‘rquv, shaxsiy xarakterning aksentuatsiyalashuvi) olib keladi.

Mafkuraviy immunitet esa, ko‘rsatib o‘tilgan salbiy ijtimoiy-psixologik holatlarga tushmaslik uchun himoya qobig‘i tarzida amal qilib, shu bilan birga quyidagi amallarni bajaradi:

yoshlarning ong sathini salbiy va iztirob chekuvchi kechinmalardan “chegaralaydi”, ularni ichki dunyosi bilan joriy psixik holati orasidagi munosabatni muvozanatga keltirish;

yoshlarni emotsional, axborot zo‘riqishlaridan xoli etish maqsadida, psixologik regulyatsiyani ta’minlab, ularga tahdid soluvchi xabar va axborotlarni idrok etmasligini, ularning ta’siriga tushmaslikni ta’minlash muhim hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Yoshlar – O’zbekistonning eng katta boyyligi, bebaho xazinasi” Yoshlar forumida so‘zlagan nutqi /Sh.M. Mirziyoyev// Halq suzi.-2022. -26 dekabr. – B.1.

2. Киршбаум Э. И., Еремеева А.И. Психологическая защита: darslik / E.I. Kirshbaum A.I. Yeremeyeva. Izd.2-e - M.: Smыsl, 2000. - 181 s.

3. Яновский М.И. Внимание как критерий оценки состояния сознания/ М.И. Яновский //Вопросы психологии. 2006. № 6.- С.91-97.

4. Каменская В.Г. Психологическая защита и мотивация в структуре конфликта/ В.Г. Каменская. – СПб.: Детство-пресс, 1999. – 147 с.

5. Quronov M., Jabborov H. Aholida ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mustahkam mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ta’sirchan pedagogik-psixologik tamoyillari / M. Quronov, H. Jabborov // Psixologiya. –Buxoro. 2017. - №4 (13).- B 13- 19.

6. Баева И. А. Психология безопасности как основа гуманитарных технологий в социальном взаимодействии: Научно-методические материалы /И.А. Баева. – СПб.: ООО «Книжный Дом», 2008. – 288 с.

PSIXOLOGIK HIMOYA MEXANIZMLARINING NAZARIY ASOSI

Qobilova Nasiba Ismatjon qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, stajyor o`qituvchi

asliyatim@mail.ru +998905390831

Annotatsiya. Ushbu maqolada himoya mexanizmlari inson ongi tomonidan voqelik qiyinchiliklariga dosh berish va ularga moslashish uchun qo‘llaniladigan murakkab psixologik strategiyalar ekanligi, mexanizmlar shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchini, o‘ziga xoslik tuyg‘usini va umumiy psixologik farovonligini himoya qilishga xizmat qilishi haqidsa chuqur yoritilgan.

Kalit so‘zlar:

Himoya mexanizmlari, shaxsiyat, psixologik farovonlik, psixopatologiya, ruhiy salomatlik, psixoterapiya

Himoya mexanizmlari moslashuvchan funktsiyani bajarishi mumkin bo‘lsa-da, shaxslarga qiyin tajribalarni boshdan kechirish va o‘zini izchil his qilish imkonini beradi, ammo ularning haddan tashqari yoki noto‘g‘ri ishlatilishi ko‘pincha psixopatologiya va voqelikning buzilgan idroklari bilan bog‘liq. Vaqt o‘tishi bilan Freyd va boshqa tadqiqotchilar himoya mexanizmlari kontseptsiyasini kengaytirdilar, psixika tomonidan o‘zini tuta bilish va o‘ziga bo‘lgan ishonchni saqlab qolish uchun qo‘llaniladigan bir qator strategiyalarni aniqladilar. So‘nggi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, himoya mexanizmlari oddiy shaxsiyatda faqat patologik bo‘lishdan ko‘ra muhim adaptiv funktsiyani bajaradi. Oxir-oqibat, himoya mexanizmlarini chuqurroq tushunish inson psixikasining murakkab ishlashi haqida qimmatli tushunchalar berishi mumkin. Shaxslarning his-tuyg‘ularini qanday boshqarishi, psixologik farovonlikni saqlashi va atrof-muhitning murakkabliklariga moslashishini o‘rganish orqali ushbu tadqiqot klinik amaliyot, ta'lim aralashuvlari va ruhiy salomatlik va umumiy farovonlikni oshirishga qaratilgan shaxsiy o‘sish strategiyalariga asos bo‘lishi mumkin. Himoya mexanizmlarini tushunish farovonlikni oshirish uchun samarali aralashuvlarni ishlab chiqish uchun qimmatli tushunchalarni berishi mumkin. Ushbu maqola mudofaa mexanizmlarining hozirgi kontseptsiyalarini har tomonlama o‘rganish, ularning xilma-xilligi va ularning

mavjudligi va ta'sirini o‘lchashdagi qiyinchiliklarni o‘rganishga qaratilgan. Shuningdek, u mudofaa mexanizmlarini kengroq shaxsiyat tadqiqotlariga integratsiyalashni o‘rganadi, bu psixologik konstruksiyalar shaxsning umumiy psixologik faoliyati va atrof-muhit talablariga moslashishi bilan qanday bog‘liqligini o‘rganadi. Biroq, ma’lum mexanizmlarga haddan tashqari ishonish psixopatologiya bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Himoya mexanizmlari bizning idroklarimiz, xatti-harakatlarimiz va farovonligimizni shakllantiruvchi muhim psixologik konstruksiyalardir. Dastlab Zigmund Freyd tomonidan kiritilgan ular tadqiqotchilar tomonidan repressiya va ratsionalizatsiya kabi turli mexanizmlarni aniqlash bilan rivojlandi. Bu ongsiz mexanizmlar bizning fikrlarimiz, his-tuyg‘ularimiz va harakatlarimizga chuqur ta’sir qiladi. Himoya mexanizmlari o‘zini va o‘zgalarni hurmat qilishning izchil tuyg‘usini saqlab qolishda moslashuvchan funksiyani bajaradi.

Psixoanalitik nazariyaning asoschisi Zigmund Freyd himoya mexanizmlari tushunchasini kiritdi - bu inson ongi egoni haddan tashqari tashvish va iztirobdan himoya qilish uchun foydalanadigan ongsiz jarayonlar. Freydning repressiya, og‘riqli tajribalarni ongdan chiqarib tashlash bo‘yicha kashshof ishi himoya mexanizmlari va ularning ongsizdagi rolini tushunish uchun zamin yaratdi.

Himoya mexanizmlarini tushunish ruhiy salomatlik uchun juda muhimdir, chunki ular o‘z-o‘zini hurmat qilishni saqlashga va salbiy his-tuyg‘ularni kamaytirishga yordam beradi. Biroq, ma’lum himoya mexanizmlariga haddan tashqari ishonish psixopatologiya va voqelikning buzilgan idroki bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Himoya mexanizmi nazariyasining yettita asosiy tamoyili himoya mexanizmlarining asosiy jihatlarini va ularning inson psixikasidagi rolini tushunish uchun keng qamrovli asos yaratadi. Ushbu tadqiqot ishi himoya mexanizmlari, ularning inson psixologiyasidagi roli va ruhiy salomatlikka ta’siri haqida keng qamrovli ma’lumot berishga qaratilgan. Xususan, tadqiqotning maqsadlari quyidagilardir: Himoya mexanizmlari kontseptsiyasi psixologiyada uzoq tarixga ega bo‘lib, Zigmund Freydning ishlariga borib taqaladi. Freyd himoya g‘oyasini ongning tahdidli his-tuyg‘ulardan, ayniqsa xavotirdan qochish usuli sifatida taqdim etdi.

Inson hayoti davomida himoya mexanizmlari rivojlanib, yetuklashadi, buning o‘rniga yanada ibtidoiy himoya mexanizmlari paydo bo‘ladi Misol: Ko‘p chekuvchi chekish va o‘pka saratoni o‘rtasidagi bog‘liqlikni rad etadi va chekish zararli emasligini da'vo qiladi. Jiddiy hissiy yoki psixologik qiyinchiliklarga duch kelganda, shaxslar himoya mexanizmlaridan foydalanishga ko‘proq moyil bo‘ladilar Himoya mexanizmlari kontseptsiyasi psixologiyada boy tarixga ega bo‘lib, Zigmund Freydning ishlari va psixoanalitik nazariyaga borib taqaladi. Freydning repressiya va inkor kabi himoya mexanizmlarini shaxsni xavotir va salbiy his-tuyg‘ulardan himoya qilishga qaratilgan ongsiz jarayonlar sifatida dastlabki kontseptualizatsiyasi ularning tadqiqoti uchun asos yaratdi. Freydning ishlariga asoslanib, keyingi nazariyotchilar va tadqiqotchilar himoya mexanizmlarini tushunishni kengaytirdilar, ularning xilma-xilligi, rivojlanishi va psixopatologiya bilan bog‘liqligini o‘rgandilar. Masalan, Karl Rojersning gumanistik yondashuvi mudofaa mexanizmlarining izchil o‘zini o‘zi anglashdagi rolini ta’kidlaydi, shu bilan birga ularning haddan tashqari yoki moslashuvchan bo‘lmagan holda ishlatilsa, noto‘g‘ri natijalarga olib kelishi mumkinligini tan oladi. Bu xilma-xil nuqtai nazarlar mudofaa mexanizmlarini va ularning inson xulq-atvori va farovonligiga ta’sirini yanada chuqurroq tushunishga hissa qo‘shdi. Ibtidoiy himoya mexanizmlari nisbatan moslashuvchan emas va ko‘pincha moslasha olmaydi, chunki ular voqelikni sezilarli darajada buzib ko‘rsatishi va shaxslararo faoliyatga putur yetkazishi mumkin.

Ibtidoiy himoya mexanizmlariga misollar: Himoya mexanizmlari xilma-xil bo‘lib, ularning yetuklik darajasi va moslashuvchanligiga qarab turli toifalarga bo‘linishi mumkin. Himoya mexanizmlari bo‘yicha adabiyotlarda shaxslar o‘zlarini psixologik zarardan himoya qilish uchun qo‘llaydigan turli xil strategiyalar ta’kidlangan. Eng ko‘p o‘rganilgan himoya mexanizmlaridan ba’zilari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Misol: O‘smirlar o‘zlarining g‘azablarini ifoda etish uchun maktabga borish yoki vandalizm kabi isyonkor harakatlardan foydalanadilar.

Himoya mexanizmlari odamlarni hissiy va ruhiy stressdan himoya qilish uchun ongsiz ravishda ishlaydi. Misol: Shaxs o‘z sherigini idealizatsiya qilingan va benuqson deb biladi, keyin esa sherigi xato qilganda uni mutlaqo noloyiq deb biladi. Moslashuvchan strategiyalar. Himoya mexanizmlari xavotir yoki tushkunlik kabi salbiy

his-tuyg‘ularning sub'ektiv tajribasini yumshatishi mumkin. Himoya mexanizmlari shaxslarni hissiy va psixologik stressdan himoya qilish orqali himoya rolini o‘ynaydi. Ular odamlarga o‘zlarining ichki tajribalarini boshqarish va tartibga solish imkonini beradi, xavotir, travma yoki boshqa tahdidlarning ta’sirini kamaytiradi. Himoya mexanizmlarining ishlashi avtonom nerv tizimi bilan bog‘liq bo‘lib, fiziologik qo‘zg‘alish va stressga javoblar rol o‘ynaydi. Himoya mexanizmlari salbiy his-tuyg‘ularning sub’ektiv tajribasini kamaytirish orqali vaqtinchalik yengillik berishi mumkin bo‘lsa-da, ayrim mexanizmlardan haddan tashqari yoki moslashuvchan bo‘lmagan foydalanish psixopatologiya bilan bog‘liq. Inkor etish yoki proektsiyalash kabi ibtidoiy yoki noto‘g‘ri himoya vositalariga ko‘p tayanadigan shaxslar kurashish strategiyalari bilan kurashishi va munosabatlarda va shaxsiy o‘sishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki psixologik himoya mexanizmlari o‘rganish va bilish inson hayotini yanada yengillashtiradi. Psixologik himoya mexanizmlari Z.Freyd tomonidan ishlab chiqilgan va uni qizi A.Freyd va boshqa analitiklar tomonidan yanayam rivojlantirilgan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sigmund Freud. *The Ego and the Mechanisms of Defence*. – London: Hogarth Press, 1936.
2. Anna Freud. *The Ego and the Mechanisms of Defence*. – New York: International Universities Press, 1966.
3. George Eman Vaillant. *Ego Mechanisms of Defense: A Guide for Clinicians and Researchers*. – Washington: American Psychiatric Press, 1992.
4. Karl Rogers. *On Becoming a Person*. – Boston: Houghton Mifflin, 1961.
5. Philip Cramer. *Protecting the Self: Defense Mechanisms in Action*. – New York: Guilford Press, 2006.

PARA SPORTCHILARNI QO‘LLAB QUVVATLASHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK DETERMINATLARI (O‘SMIR YOSHIDAGI PARASPORTCHILAR MISOLIDA).

Farg‘ona davlat universiteti,
Sport faoliyati fakulteti,
Adaptiv jismoniy tarbiya va
sport nazariyasi kafedrasi o‘qituvchisi
Qovlonbekov Abdulaziz Abdullajon o‘g‘li.
aqovlonbekov@gmail.com

Anotatsiya: Maqola o‘smir yoshidagi parasportchilarni qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy va psixologik determinantlariga bag‘ishlangan. Tadqiqotda parasportchilarning ijtimoiy integratsiyasi, psixologik barqarorligi va motivatsiyasiga ta’sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. O‘smir parasportchilarning o‘ziga xos ehtiyojlari, ularning jamiyatdagi o‘rni va muvaffaqiyatga erishishdagi psixologik to‘siqlar ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari parasportchilarni qo‘llab-quvvatlashda samarali strategiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Parasport, o‘smirlar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, psixologik determinantlar, motivatsiya, ijtimoiy integratsiya.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ПОДДЕРЖКИ ПАРАСПОРТСМЕНОВ (НА ПРИМЕРЕ ПАРАСПОРТСМЕНОВ ПОДРОСТКОВОГО ВОЗРАСТА).

Аннотация: Статья посвящена изучению социальных и психологических детерминант поддержки параспортсменов подросткового возраста. В работе анализируются факторы, влияющие на социальную интеграцию, психологическую устойчивость и мотивацию параспортсменов. Рассматриваются специфические потребности подростков-параспортсменов, их место в обществе и психологические барьеры на пути к успеху. Результаты исследования способствуют разработке эффективных стратегий поддержки параспортсменов.

Ключевые слова: Параспорт, подростки, социальная поддержка, психологические детерминанты, мотивация, социальная интеграция.

SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF SUPPORTING PARA-ATHLETES (A CASE STUDY OF ADOLESCENT PARA-ATHLETES).

Abstract: The article is dedicated to exploring the social and psychological determinants of supporting adolescent para-athletes. The study analyzes factors influencing the social integration, psychological resilience, and motivation of para-athletes. It examines the specific needs of adolescent para-athletes, their role in society, and the psychological barriers to achieving success. The research findings contribute to the development of effective strategies for supporting para-athletes.

Keywords: Para-sport, adolescents, social support, psychological determinants, motivation, social integration.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari va imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. So‘nggi yillarda davlat tomonidan ushbu sohada qabul qilingan qonunlar va dasturlar nafaqat nogironlarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash, balki ularning faol hayot tarzi va ijtimoiy integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan.

Xususan, parasport sohasi ushbu islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Parasport o‘smir yoshidagi sportchilar uchun nafaqat jismoniy faollikni ta’minlovchi platforma, balki ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish, psixologik barqarorlikni mustahkamlash va jamiyatda faol ishtirok etish imkonini beruvchi muhim vosita hisoblanadi.O‘smirlik davri inson hayotidagi eng muhim va nozik bosqichlardan biridir. Bu yoshda shaxs o‘zini anglash, o‘z o‘rnini topish va kelajakdagi maqsadlarini belgilash jarayonidan o‘tadi. Nogironligi bo‘lgan o‘smirlar uchun esa bu jarayon yanada murakkablashadi, chunki ular nafaqat yoshga xos psixologik va ijtimoiy muammolarga duch kelishadi, balki jismoniy cheklovlar va jamiyatning stereotipli qarashlari kabi qo‘shimcha to‘siqlarga ham ro‘para bo‘lishadi. Shu sababli, o‘smir parasportchilarni ijtimoiy va psixologik jihatdan qo‘llab-quvvatlash masalasi nafaqat ularning sportdagi muvaffaqiyatlari, balki umumiy hayot sifati va psixologik farovonligi uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqola o‘smir yoshidagi parasportchilarning muvaffaqiyatiga ta’sir etuvchi ijtimoiy va psixologik omillarni atroflicha o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotda quyidagi asosiy masalalar ko‘rib chiqiladi: o‘smir parasportchilarning psixologik ehtiyojlari, ijtimoiy muhitning ularning motivatsiyasi va o‘ziga bo‘lgan ishonchiga ta’siri, shuningdek, jamiyatdagi stereotiplar va ijtimoiy to‘siqlarni bartaraf etish yo‘llari. Maqolaning maqsadi – ushbu omillarni tahlil qilish orqali parasportchilarni qo‘llab-quvvatlashning samarali strategiyalarini ishlab chiqishga hissa qo‘shish va ularning jamiyatdagi faol ishtirokini yanada oshirishga xizmat qilishdir. Tadqiqot jarayonida o‘smir parasportchilarning o‘ziga xos ehtiyojlari, ularning ijtimoiy integratsiyasi va psixologik barqarorligini ta’minlashda oila, murabbiylar, tengdoshlar va jamiyatning roli alohida e’tibor bilan o‘rganiladi.

Parasport sohasi so‘nggi o‘n yilliklarda jahon miqyosida sezilarli darajada rivojlanib, nogironligi bo‘lgan shaxslarning jismoniy faolligi va ijtimoiy integratsiyasini ta’minlashda muhim vosita sifatida e’tirof etilmoqda. O‘zbekistonda ham ushbu yo‘nalishda sezilarli yutuqlarga erishilmoqda, ammo o‘smir yoshidagi parasportchilarni qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy va psixologik jihatlari hali to‘liq o‘rganilmagan. Ushbu bo‘limda mavzu bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi va tadqiqotning asosiy yo‘nalishlari aniqlanadi.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash parasportchilarning, xususan, o‘smirlarning sport faoliyatida muvaffaqiyat qozonishida muhim rol o‘ynaydi. Xalqaro tadqiqotlarda (Smith & Thomas, 2020; Jones et al., 2018) ijtimoiy muhit, oila, murabbiylar va tengdoshlarning qo‘llab-quvvatlashi sportchilarning motivatsiyasi va psixologik barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi ta’kidlanadi. O‘zbekistonda o‘tkazilgan dastlabki tadqiqotlar (Aliyev, 2022) shuni ko‘rsatadiki, nogironligi bo‘lgan o‘smirlar ko‘pincha ijtimoiy stereotiplar va infratuzilma cheklovlari tufayli qo‘shimcha to‘siqlarga duch kelishadi. Bu esa ularning sport bilan shug‘ullanishiga va jamiyatda faol ishtirok etishiga to‘sqinlik qiladi.

Psixologik determinantlar.O‘smirlik davri psixologik jihatdan nozik bosqich bo‘lib, bu davrda shaxsning o‘ziga bo‘lgan ishonchi, o‘z-o‘zini hurmat qilishi va motivatsiyasi shakllanadi. Bandura (1997) o‘zining “o‘z-o‘zini samaradorlik”

nazariyasida muvaffaqiyatga erishishda ichki ishonch va tashqi qo‘llab-quvvatlashning muhimligini ta’kidlaydi. Parasportchilar uchun bu omillar yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular jismoniy cheklovlar va ijtimoiy stigmalarga qarshi kurashishlari kerak. Martin va Wheeler (2019) tadqiqotlarida parasportchilarning psixologik barqarorligi va motivatsiyasiga ta’sir etuvchi omillar sifatida stressni boshqarish, maqsad qo‘yish va ijobiy ijtimoiy muhitni ta’minlash muhimligi ko‘rsatilgan. O‘zbekiston kontekstida bunday tadqiqotlar hali cheklangan bo‘lib, bu sohada chuqur tahlil zarurligini ko‘rsatadi.

O‘smir parasportchilarning o‘ziga xos ehtiyojlari. O‘smir yoshidagi parasportchilarning psixologik va ijtimoiy ehtiyojlari katta yoshdagi sportchilardan farq qiladi. Ular nafaqat sportda muvaffaqiyat qozonishga intilishadi, balki tengdoshlari orasida qabul qilinish, o‘zlarini ifoda etish va mustaqillikka erishish kabi masalalarga ham e’tibor berishadi (Harter, 2012). O‘zbekistonda o‘tkazilgan so‘rovlar (Rahmonova, 2023) shuni ko‘rsatadiki, o‘smir parasportchilar ko‘pincha o‘zlarini jamiyatda “boshqacha” sifatida his qilishadi, bu esa ularning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, murabbiylar va oilaning faol ishtiroki ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishda muhim omil sifatida qayd etilgan.

Mavjud bo‘shliqlar va tadqiqotning dolzarbligi. Hozirgi kunda xalqaro miqyosda parasportchilarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, O‘zbekiston sharoitida, xususan, o‘smir yoshidagi parasportchilarga qaratilgan ilmiy ishlar soni cheklangan. Mavjud adabiyotlar asosan umumiy nogironlik masalalariga yoki kattalar parasportchilariga qaratilgan bo‘lib, o‘smirlarning o‘ziga xos psixologik va ijtimoiy ehtiyojlari yetarlicha o‘rganilmagan. Ushbu tadqiqot ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, O‘zbekiston kontekstida o‘smir parasportchilarni qo‘llab-quvvatlashning samarali strategiyalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Tadqiqotda ijtimoiy va psixologik omillarni tahlil qilish orqali ularning sportdagi muvaffaqiyati va jamiyatdagi faol ishtirokiga ta’siri aniqlanadi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot o‘smir yoshidagi parasportchilarni qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy va psixologik determinantlarini o‘rganishga bag‘ishlandi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, o‘smir parasportchilarning sportdagi muvaffaqiyati va ijtimoiy

integratsiyasi nafaqat ularning jismoniy qobiliyatlariga, balki ijtimoiy muhit, oila, murabbiylar va tengdoshlarning qo‘llab-quvvatlashiga ham bog‘liq. O‘smirlik davri psixologik jihatdan nozik bosqich bo‘lib, nogironligi bo‘lgan yoshlar bu davrda qo‘shimcha ijtimoiy va psixologik to‘siqlarga duch kelishadi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ijobiy ijtimoiy muhit, motivatsion dasturlar va psixologik yordam o‘smir parasportchilarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishda va ularning jamiyatdagi faol ishtirokini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Tahlillar natijasida quyidagi asosiy xulosalar qilingan.

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning roli. Oila, murabbiylar va tengdoshlarning faol ishtiroki o‘smir parasportchilarning motivatsiyasini oshiradi va ijtimoiy stigmalarni bartaraf etishga yordam beradi.

Psixologik omillar. O‘z-o‘zini samaradorlik hissi, stressni boshqarish va maqsad qo‘yish kabi psixologik determinantlar sportchilarning muvaffaqiyatida muhim o‘rin tutadi.

Infratuzilma va imkoniyatlar. O‘zbekistonda parasportchilar uchun infratuzilma va maxsus dasturlarning rivojlanishi ijobiy natijalar bermoqda, ammo o‘smirlarning o‘ziga xos ehtiyojlariga moslashtirilgan psixologik va ijtimoiy yordam dasturlari hali yetarli emas.

Jamiyatdagi stereotiplar. Ijtimoiy stereotiplar va nogironlikka nisbatan noto‘g‘ri qarashlar o‘smir parasportchilarning o‘zlarini jamiyatda to‘laqonli a’zo sifatida his qilishlariga to‘sqinlik qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Aliyev, A. (2022). *O‘zbekistonda nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy integratsiyasi: muammolar va yechimlar*. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

2. Bandura, A. (1997). *Self-efficacy: The exercise of control*. New York: Freeman.

3. Harter, S. (2012). *The construction of the self: Developmental and sociocultural foundations* (2nd ed.). New York: Guilford Press.

4. Jones, M., Dunn, J., & Holt, N. (2018). *Social support and psychological resilience in young athletes with disabilities*. *Journal of Sport Psychology*, 40(3), 215–223.

5. Martin, J. J., & Wheeler, G. (2019). *Psychological factors in para-sport: Motivation and resilience*. *Adapted Physical Activity Quarterly*, 36(1), 12–28.

6. Rahmonova, Z. (2023). *O‘zbekistonda parasportning rivojlanish tendensiyalari va psixologik omillar*. *O‘zbekiston sport ilmiy jurnali*, 15(2), 45–52.

7. Smith, B., & Thomas, N. (2020). *Social inclusion through para-sport: Opportunities and barriers*. *International Journal of Disability, Development and Education*, 67(4), 345–359.

O‘SMIRLARGA XOS EMOTSIONAL O‘ZGARISHLAR VA ULARNING SABABLARI

O‘risheva Pokiza G‘anisher qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti, o‘qituvchi
pokizaorisheva@jmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘smirlik davrida kuzatiladigan emotsional o‘zgarishlarning psixologik mazmuni va ularning kelib chiqish sabablari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. O‘smirlarga xos emotsional labililik, ta’sirchanlik, ichki ziddiyatlar, o‘zini anglash jarayonlari biologik, psixologik hamda ijtimoiy omillar bilan bog‘liq holda yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy rivojlanish psixologiyasi nuqtai nazaridan o‘smir emotsional sohasining shakllanish mexanizmlari ochib beriladi va amaliy tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar. O‘smirlik davri, emotsional rivojlanish, emotsional labililik, identifikatsiya, ichki ziddiyat, o‘zini anglash, tengdoshlar ta’siri, gormonal o‘zgarishlar, psixologik rivojlanish.

O‘smirlik davri inson ontogenezining eng murakkab va ziddiyatli bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu davrda biologik yetilish jarayonlari, ijtimoiy maqomning o‘zgarishi va shaxsiy “Men” konsepsiyasining shakllanishi bir vaqtning o‘zida kechadi. Natijada

o‘smirlarda emotsional beqarorlik, kayfiyatning tez-tez almashinuvi, yuqori ta’sirchanlik va ichki ziddiyatlar kuzatiladi. Ushbu emotsional o‘zgarishlar o‘smir shaxsining rivojlanishida tabiiy va zarur bosqich bo‘lsa-da, ularni to‘g‘ri tushunish va ilmiy asosda izohlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Psixologiya fanida o‘smirlik davridagi emotsional o‘zgarishlar turli nazariy yondashuvlar asosida izohlanadi. Jumladan, Erik Erikson o‘smirlikni shaxsiy identifikatsiya shakllanishi bosqichi sifatida baholab, ichki ziddiyatlar va hissiy beqarorlikni “identifikatsiya inqirozi” bilan bog‘laydi. Jean Piaget esa bu davrda abstrakt tafakkurning rivojlanishi o‘smirning o‘ziga va atrof-muhitga nisbatan tanqidiy munosabatini kuchaytirishini ta’kidlaydi. Shuningdek, Lev Vygotsky ijtimoiy muhit va muloqot omillarini emotsional rivojlanishning asosiy manbai sifatida ko‘rsatadi.

O‘smirlardagi emotsional o‘zgarishlarning sabablari ko‘p omilli bo‘lib, ular biologik (gormonal o‘zgarishlar), psixologik (o‘zini anglash jarayoni), hamda ijtimoiy (tengdoshlar ta’siri, oilaviy munosabatlar, jamiyat talablari) omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, tezkor fiziologik o‘sish va jinsiy yetilish jarayonlari hissiy holatning labil bo‘lishiga olib keladi. Shu bilan birga, mustaqillikka intilish va kattalar bilan munosabatdagi ziddiyatlar ham emotsional keskinlikni kuchaytiradi.

O‘smirlik davri shaxs taraqqiyotining eng murakkab va mas’uliyatli bosqichlaridan biridir. Ushbu davrda organizmda kechadigan biologik o‘zgarishlar, ijtimoiy maqomning almashinuvi hamda “Men” obrazining shakllanishi o‘smir ruhiyatida sezilarli emotsional o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Ko‘pincha ota-onalar va pedagoglar tomonidan “qiyin davr” sifatida baholanadigan bu bosqich aslida shaxs kamolotining tabiiy va zarur jarayonidir. Emotsional o‘zgarishlarni ilmiy asosda tushunish o‘smir bilan samarali muloqot o‘rnatish va uning sog‘lom psixologik rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘smirlik davriga xos emotsional xususiyatlarga quyidagilar kiradi:

- Emotsional labililik (beqarorlik). O‘smirlik davrida kayfiyat tez-tez o‘zgarib turadi. Bir lahzada quvonchli, faol bo‘lgan o‘smir qisqa vaqt ichida tushkun yoki jahldor holatga o‘tishi mumkin. Bu holat asosan gormonal o‘zgarishlar hamda asab tizimidagi qayta qurilish jarayonlari bilan bog‘liq.

- Ta’sirchanlik va sezgirlikning ortishi. O‘smirlar tanqidga, tengdoshlar bahosiga va kattalar munosabatiga nisbatan juda sezgir bo‘ladilar. Ular o‘z qadr-qimmatini boshqalarning fikri orqali baholashga moyil bo‘ladilar. Shu sababli kichik muvaffaqiyatsizlik ham kuchli hissiy reaksiyani keltirib chiqarishi mumkin.

- Ichki ziddiyatlar. Bu davrda mustaqillikka intilish bilan birga kattalarning qo‘llab-quvvatlashiga ehtiyoj ham saqlanib qoladi. Natijada ichki qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Erik Erikson o‘smirlikni “identifikatsiya va rol chalkashligi” bosqichi sifatida tavsiflab, aynan shu ichki ziddiyatlarni markaziy muammo deb ko‘rsatgan.

- O‘zini anglash va refleksiya kuchayishi. O‘smir o‘z his-tuyg‘ularini tahlil qilishga, o‘z shaxsini baholashga harakat qiladi. Bu jarayon ba’zan o‘z-o‘zini tanqid qilish, o‘zidan qoniqmaslik yoki aksincha, ortiqcha o‘ziga baho berish ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin.

- Empatiya va chuqur his qilish qobiliyatining rivojlanishi. Emotsional sohaning rivojlanishi natijasida o‘smirlar boshqalarning his-tuyg‘ularini chuqurroq anglay boshlaydilar. Do‘stlik, muhabbat, sadoqat kabi murakkab hissiy kechinmalar aynan shu davrda shakllanadi.

O’smirlarga xos emotsional o‘zgarishlarning sabablari mavjud. Bularga: biologik, psixologik va ijtimoiy omillar kiradi.

Biologik omillar - jJinsiy yetilish davrida gormonlar faoliyatining kuchayishi emotsional beqarorlikni keltirib chiqaradi. Organizmning tez o‘sishi va fiziologik o‘zgarishlar asab tizimiga yuklama beradi, bu esa hissiy reaksiyalarning keskinlashuviga olib keladi.

Psixologik omillar - Jean Piaget ta’kidlaganidek, o‘smirlik davrida abstrakt tafakkur rivojlanadi. O‘smir hayot, adolat, jamiyat haqidagi masalalar ustida o‘ylay boshlaydi. Bu esa ba’zan ichki xavotir, norozilik yoki idealizmni kuchaytiradi.

Ijtimoiy omillar - tengdoshlar guruhi o‘smir uchun asosiy ijtimoiy muhitga aylanadi. Ularning fikri, qabul qilishi yoki rad etishi kuchli emotsional ta’sir ko‘rsatadi. Lev Vygotsky ijtimoiy muhit va muloqotning psixik rivojlanishdagi rolini alohida ta’kidlagan. Oila ichidagi munosabatlar, tarbiya uslubi va jamiyat talablari ham hissiy holatga bevosita ta’sir qiladi.

O‘smirlik davridagi emotsional o‘zgarishlar shaxs rivojlanishining tabiiy va zarur bosqichi hisoblanadi. Emotsional labililik, ta’sirchanlik, ichki ziddiyatlar va o‘zini anglash jarayonlari o‘smirning mustaqil shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Ushbu davrda ota-onalar, pedagoglar va psixologlarning to‘g‘ri yondashuvi, qo‘llab-quvvatlashi hamda empatik munosabati o‘smirning sog‘lom emotsional rivojlanishini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Quyida biologik, psixologik va ijtimoiy omillarni inobatga olgan holda bir qator tavsiyalarni keltirib o’tamiz.

O’smir hayotida oila asosiy o’rinda bo’lishi muhim va shu sabab asosiy e’tibor oilaviy muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilishi lozim. Buning uchun oilada ochiq va ishonchli muloqotni yo‘lga qo‘yish, tanqid o‘rniga tushunish va qo‘llab-quvvatlash, o‘smir fikrini hurmat qilish, haddan tashqari nazorat yoki beparvolikdan qochish va oilada emotsional xavfsizlik muhitini yaratish maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, iliq oilaviy munosabatlar o‘smir ruhiy barqarorligining asosiy omillaridan biridir.

Emotsional savodxonlikni rivojlantirish masalasi ham o‘smirning sog‘lom emotsional rivojlanishini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Buning uchun o‘smirga o‘z his-tuyg‘ularini tan olish va nomlashni o‘rgatish, “Men-xabar” usulidan foydalanish, stressni boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirish va nafas mashqlari hamda relaksatsiya texnikalarini o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Olim Daniel J. Siegel o‘smir miyasi hali to‘liq shakllanmaganini ta’kidlab, emotsiyalarni boshqarish ko‘nikmalarini ongli ravishda rivojlantirish zarurligini qayd etadi.

Maktab va pedagogik yondashuvsiz o’smirga ta’sir etib bo’lmaydi. Shu sabab o’smirni doimiy qo‘llab-quvvatlovchi sinf muhitini yaratish lozim. Maktabda psixologik xizmat faoliyatini kuchaytirish, tengdoshlarga oid trening va profilaktik dasturlar o‘tkazish shart. UNICEF ma’lumotlariga ko‘ra, maktab muhitidagi psixologik xavfsizlik o‘smir ruhiy salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirda butun dunyo muammosiga aylangan sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash masalasi o’smirlarga ham tegishli hisoblanadi. O’smirlarga yetarli uyqu (8–10 soat), jismoniy faollik (sport, harakatli o‘yinlar), raqamli qurilmalardan me’yorida foydalanish va to‘g‘ri ovqatlanish talablarini qo’yish maqsadga muvofiqdir. Chunki biologik omillarni muvozanatda saqlash emotsional beqarorlikni kamaytiradi.

Erik Erikson ta’kidlaganidek, o‘smirlik - identifikatsiya shakllanish davri. Shu bois O’smirlarga qiziqish va qobiliyatlarni qo‘llab-quvvatlash, mustaqil qaror qabul qilishga imkon berish, muvaffaqiyatlarini e’tirof etish, realistik maqsadlar qo‘yishga yordam berish lozim.

Quyidagi holatlarda psixolog yoki mutaxassis yordami tavsiya etiladi: uzoq davom etuvchi tushkunlik, o‘ziga zarar yetkazish xatti-harakatlari, kuchli agressiya, ijtimoiy chekinish vaqtida. Bunday holatlarda o’smirlarga erta psixologik yordam ko‘rsatish ko‘plab ruhiy muammolarning oldini oladi.

Xulosa qiladigan bo’lsak, o‘smirlik davridagi emotsional o‘zgarishlarni to‘liq “bartaraf etish” emas, balki ularni to‘g‘ri yo‘naltirish va sog‘lom rivojlanishga xizmat qildirish muhimdir. Oila, maktab va jamiyat hamkorligi o‘smirning emotsional barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Nishonova Z.T. O‘smirlik davri psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi. Toshkent, 2013.

2. Kamilova N.G. Muammoli o‘smir: Tashxis, tadqiqot metodlari. Toshkent, 2006.

3. Komilova N. Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi. Toshkent, 2014.

4. Qodirova M. O‘smirlar tarbiyasining qiyinchilik xususiyatlari. Pedagogika va psixologiya jurnali, 2022.

5. Ne’matova N.S. O‘smir psixologiyasi. Ijodkor o‘qituvchi - 2023

6. O’risheva, P. O‘smir xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlar. Pedagogika va psixologiya jurnali-2024.

7. Qodirova, M. O’smirlar psixologiyasi va o’smir xulq-atvorining o’ziga hosligi. Pedagogika va psixologiya jurnali. 2021.

MASOFAVIY TA’LIM – OLIY HARBIY TA’LIM TIZIMIDA O‘QITISHNING ZAMONAVIY USULI

G‘.N.Qo‘chqorov

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti

Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti mayori

Mamlakatimiz oliy harbiy ta’lim tizimida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berayotganligi kun sayin yaqqol ko‘rinib bormoqda. Turli ta’lim shakllari qatori ayniqsa, masofadan o‘qitish keng qo‘llanilayotganligi ham qo‘vonchli holdir. Ko‘pchilik Internetdan faqatgina yangiliklar bilan tanishish, axborot qidirish, elektron pochtadan foydalanish yoki gap sotish uchun foydalanishi sir emas. Internetning imkoniyatlari kundan - kunga oshib bormoqda. Internetdan foydalanishning yangi bosqichi boshlandi, ya’ni Internet turli sohalarga tadbiq qilindi. Internet texnologiyalar: masofadan o‘qitish, elektron kutubxonalar, telemeditsina, telemetrologiya, elektron tadbirkorlik, elektron magazinlar va boshqalar.

Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va juda tez o‘zgarmoqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o‘zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqea hodisalar sodir bo‘lmoqda. Har bir kunimiz kuchli informatsiya oqimi ostida kechmoqda. Axborot oqimi bizni uyda, xizmatda va ta’tilda ta’qib etadi. Inson axborot ta’siridan xoli normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o‘rganish axborot- larni yig‘ish va o‘zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma’lum davr ichida shaxs tomonidan o‘zlashtirilgan axborotlarning ko‘p yoki ozligi bilan belgilanadi. Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo‘l ochish ta’limotni

takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish bugungi kunning talabiga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» gi qonuni ham zimmamizga shu ma’suliyatni yuklaydi. Ta’lim tizimida masofadan o‘qitish uslubi shakllari qo‘llanilmoqda.

Masofadan o‘qitish uslubi bu sirtqi o‘qishning yangi shaklidir. Masofadan o‘qitish bu mustaqil o‘qishdir. Mustaqil o‘qish insonning mustaqil fikrlash, holatni baholash, xulosa va bashorat qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masofadan o‘qitishning yana bir afzalligi shundaki, unda kursant o‘ziga qulay vaqtda va hattoki xizmatdan ajralmagan holda o‘qishi mumkin. Aynan shu afzalliklari tufayli bu uslub dunyoda hozirgi kunda keng tarqalgan. Ko‘pgina yirik davlatlarda mutaxassislarni malakasini oshirish yoki o‘zgartirish uchun shu uslubdan foydalanib, yiliga millionlab dollarlarni tejamoqda. Masofadan o‘qitishning yana bir afzallik tomoni unda o‘qish muddatini kursant o‘zi belgilaydi, ya’ni kursanti ixtiyoriy paytda o‘qishni boshlaydi, materiallarni o‘qituvchi nazoratida o‘zlashtiradi. O‘zlashtirish topshiriqlarni, testlarni bajarishiga qarab aniqlanadi. Kursant berilgan programmani qanchalik tez o‘zlashtirsa, shunchalik tez programmani tugatadi va natijaga erishadi. Programmani o‘zlashtira olmasa, unga mustaqil ishlab, o‘qishni davom ettirishga imkoniyat beriladi.

O‘zbekistonda oliy o‘quv yurtlarida masofadan o‘qitish texnika va texnologiyasini amalga oshirish borasida qator ishlar olib borilmoqda. Axborot texnologiyalarni rivojlanishi masofadan o‘qitishni tashkil etishga yangicha yondashuvni taqozo etadi.

Masofadan o‘qitishni tashkil etishni hozirgi zamon modellarining asosida kommunikatsiya va tarmoq texnologiyalari yotadi. Masofali o‘qitish asosida ta’lim berish uchun o‘qish istagida bo‘lgan shaxslarni muayyan qismini ta’lim muassasasi joylashgan xududda yig‘ish shart emas. Ikkinchidan, tinglovchi yoki kursant tomonidan ortiqcha sarf - xarajat qilish zarurati bo‘lmaydi. Uchinchidan, bu ta’lim turiga jalb qilinuvchilarning yosh cheklanishlarini istisno qilish mumkin. Masofali o‘qitishga jalb qilinuvchi kontingentni quyidagi ijtimoiy guruhlarga mansub bo‘lgan shaxslar tashkil qilishi mumkin:

qo‘shimcha ma’lumot olish, malaka oshirish va qayta tayyorgarlik o‘tash istagida bo‘lganlar;

mintaqaviy hokimiyat va boshqaruv rahbarlari ;

an’anaviy ta’lim tizimining imkoniyatlari cheklanganligi sababli ma’lumot olaolmagan shaxslar ;

o‘z ma’lumot maqomini zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarish istagida bo‘lgan firma va korxonalar xodimlari;

erkin ko‘chib yurishi cheklangan shaxslar;

harbiy xizmatda bo‘lgan shaxslar va boshqalar.

O‘zbekiston sharoitida masofali o‘qitishni tashkil qilish katta samara beradi. Hozirgi davrda ta’limning bu turidan keng miqyosda foydalanish lozim.

Masofaviy ta’lim - bu o‘qituvchi va o‘quvchi bir-biri bilan masofa yoki vaqt orqali ajratilgan sababli, axboro texnologiyalardan fodalanilgan ta’lim turi. Bu ta’lim turini bir necha modellari mavjud, ular masofaviy ta’lim tashkil qilinishiga sabab bo‘lgan vaziyatlari bilan farqlanadi:

geografik sabablar (mamlakat maydoni, markazlardan geografik uzoqlashgan regionlar mavjudligi),

mamlakatni kompyuterlashtirish va axboratlashtirish darajasi, transport va kommunikatsiyalar rivojlanish darajasi, masofaviy ta’lim uchun mutaxasisslar mavjudligi, harbiy ta’lim sohasida axborot va kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi, mamlakatning ta’lim sohasidagi odatlari.

Birlamchi model. Ushbu model faqat masofaviy ta’lim oluvchilar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ularning har bittasi virtual o‘qituvchiga biriktirilgan bo‘lishadi. Konsultatsiyalar va yakuniy nazoratlarni topshirish uchun esa regional bo‘limlar bo‘lishi shart. Shunday o‘quv kurslarda tinglovchilar va o‘quvchilarga o‘quv shaklini va formasini tanlashda katta imkoniyatlar va ozodliklar beriladi.

Ikkilamchi model. Ushbu model masofaviy ta’lim oluvchilar bilan ishlash uchun yaratiladi. Ikkala guruhda bir xil o‘quv dasturi va darslar jadvali, imtixonlar va ularni baxolash mezonlari mavjud. Shunday o‘quv muassasalarda kunduzgi kurslarning soni

masofaviylarga qaraganda ko‘p. Ushbu masofaviy kurslar pedagogika va uslubiyotdagi yangi yo‘nalishlarni izlanishlarida qo‘llaniladi.

Aralashgan model. Ushbu model masofaviy ta’lim turlarini integratsiyalashtirish uchun yaratiladi. Tinlovchilar o‘quv kursning bir qismini kunduzgi, boshqa qismini esa masofadan o‘qiydi. Shu bilan birga bu ta’lim turiga virtual seminar, prezentatsiyalar va leksiyalar o‘tkazish ham kiradi. Bu modelga misol qilib Yangi Zelandiyadagi Massey Universitetidagi ta’limni olish mumkin.

Konsortsium. Ushbu model ikkita oliy ta’lim muassasasini bir- biri bilan birlashini talab qiladi. Ushbu muassasalardan biri o‘quv kurslarni tashkil qilib ishini ta’minlasa, ikinchisi esa ularni tasdiqlab, kurslarga o‘quvchilarni ta’minlaydi. Shu bilan birga bu jarayonda butun oliy ta’lim muassasasi emas, balki bitta kafedra yoki ta’lim sohasida faoliyat olib boradigan bo‘limlar ham qatnashishi mumkin. Ushbu modelda o‘quv kurslarni doimiy ravishda nazorat qilish va muallif xuquqlarini tekshirish zarur bo‘ladi.

Franchayzing.Ushbu model ikkita Oliy ta’lim muassasasi bir- biri bilan o‘zlari yaratgan o‘quv kurslar bilan almashishadi. Masofaviy ta’lim sohasida yetakchi bo‘lgan o‘quv muassasa bu sohada ilk qadam qo‘yadigan muassasaga o‘zining o‘quv kurslarni taqdim qiladi. Ushbu modelda ikkala muassasa tinglovchilari bir xil ta’lim va diplomlar olishadi.

Bu modelga misol qilib Sharqiy Yevropa Universitetlari bilan bo‘lgan hamkorligi bo‘lishi mumkin.

Uzoqlashgan auditoriyalar. Ushbu modelda axborot va kommunikatsion imkoniyatlar keng foydalaniladi. Bitta o‘quv muassasada bo‘lib o‘tgan o‘quv kurslar videokonferensiyalar, radiotranslyatsiyalar va telekommunakatsion kanallar orqali sinxron teleko‘rsatuvlar ko‘rinishida boshqa auditoriyalarga uzatiladi. Aralashgan model bilan farqi shundaki, bu modelda o‘quvchilar kunduzgi ta’limda qatnashmaydi. Bu modelga misol qilib AQShning Viskonsing Universitetidagi ta’lim tizimini olish mumkin. Proyektlar. Ushbu model davlat yoki ilmiy izlanish maqsadidagi dasturlarni bajarish uchun yaratiladi. Asosiy ish masofaviy ta’lim mutaxassislari va pedagoglar to‘plangan ilmiy-metodik markazga tushadi. Ushbu modelda yaratilgan kurslar aholining

katta qismiga namoyish qilinib o‘z vazifasini bajargandan keyin to‘xtatiladi. Bu modelga misol qilib Afrika, Osiyo va Lotin ta’lim tizimini olishishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytadigani bo‘lsak bugunki kunda harbiy ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar masofaviy ta’lim tizimini joriy qilishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Arafeh, S. The implications of information and communications technologies for distance education: Looking toward the future / S. Arafeh. —Arlington, VA: SRI International — Final Report. — 2004.

2. Bates, A.W. Distance education in a knowledge-based society / A.W. Bates // A keynote address in the ICDE Conference on The Metamorphosis of Distance Education in the Third Millennium — Toluca, Mexico. — 2007.

3. Bullen, M. Digital Learners in Higher Education: Generation is Not the Issue / M. Bullen, T. Morgan, A. Qayyum, // Canadian Journal of earning Technology – 2011 — № 37(1).

4. http://pedagog.tdpu.uz - Respublika pedagogika ta’lim muassasalari portali

ZAMONAVIY JAMIYATDA LIDERLIKNING DINAMIK XUSUSIYATLARI

Jumanazarov Bekzod Begnazarovich

Toshkent amaliy fanlar universiteti 1-bosqich magistranti

(976170298)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada liderlik psixologiya fanining muhim tadqiqot predmeti sifatida tahlil qilinadi. Liderlik tushunchasining nazariy asoslari, uning psixologik mexanizmlari, shaxsiy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligi yoritiladi. Maqolada zamonaviy liderlik nazariyalari, jumladan xususiyatlar nazariyasi, vaziyatli yondashuv, transformatsion va tranzaksion liderlik konsepsiyalari ilmiy manbalar asosida tahlil etiladi. Liderlikning shaxs rivoji, guruh dinamikasi va tashkilot samaradorligidagi o‘rni keng ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *liderlik, psixologiya, shaxs, guruh dinamikasi, transformatsion liderlik, motivatsiya, boshqaruv, ijtimoiy ta’sir.*

Аннотация: *В статье лидерство рассматривается как предмет психологического исследования. Анализируются теоретические основы лидерства, его психологические механизмы и современные концепции. Раскрывается роль лидерства в развитии личности и эффективности организации.*

Ключевые слова: *лидерство, психология, личность, групповая динамика, мотивация, управление.*

Annotation: *This article examines leadership as a subject of psychological research. Theoretical foundations, psychological mechanisms and modern leadership concepts are analyzed. The role of leadership in personal development and organizational effectiveness is highlighted.*

Keywords: *leadership, psychology, personality, group dynamics, motivation, management.*

Zamonaviy jamiyatda liderlik masalasi psixologiya fanining dolzarb muammolaridan biridir. Globalizatsiya va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida samarali liderlik jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanmoqda. Psixologik nuqtai nazardan liderlik – bu shaxsning boshqalarga ijtimoiy ta’sir ko‘rsatish, ularni maqsad sari yo‘naltirish va umumiy faoliyatni tashkil etish qobiliyatidir. Liderlik fenomeni shaxsiy sifatlar, ijtimoiy muhit va guruh munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq [1].

XX asr boshlarida liderlik xususiyatlar nazariyasi asosida o‘rganilgan. Keyinchalik vaziyatli yondashuv shakllandi va samarali liderlik vaziyatga moslashuvchanlik bilan bog‘landi. Transformatsion va tranzaksion liderlik nazariyalari liderning izdoshlar motivatsiyasiga ta’sirini chuqurroq tahlil qilish imkonini berdi. Transformatsion lider izdoshlarning qadriyatlari va dunyoqarashini o‘zgartiradi. Motivatsiya, ijtimoiy idrok, empatiya, emotsional intellekt va kommunikativ kompetensiya liderlikning asosiy psixologik mexanizmlaridir. Lider guruh ichida ijobiy psixologik iqlim yaratadi, nizolarni boshqaradi va jamoani umumiy maqsad sari birlashtiradi. Shaxslararo

munosabatlarning uyg‘unligi liderlik samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Har qanday jamoada rasmiy yoki norasmiy lider mavjud bo‘ladi. Lider guruh maqsadlarini belgilaydi, rollarni taqsimlaydi va qarorlar qabul qiladi. Demokratik liderlik uslubi ijodkorlik va motivatsiyani oshiradi, avtoritar uslub esa tezkor natija beradi, biroq uzoq muddatli samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bugungi kunda liderlik psixologiyasi emotsional intellekt, gender farqlari, madaniyatlararo liderlik va raqamli muhitda boshqaruv masalalarini o‘rganmoqda. Raqamli transformatsiya sharoitida masofaviy jamoalarni boshqarish yangi psixologik yondashuvlarni talab etadi. Liderlik psixologiya fanining mustaqil va muhim tadqiqot predmetidir. U shaxs va guruh o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonlarini o‘rganadi. Samarali liderlik shaxsiy sifatlar, ijtimoiy vaziyat va psixologik kompetensiyalarning uyg‘unligiga asoslanadi. Liderlik ijtimoiy ta’sir jarayoni bo‘lib, unda bir shaxs guruh a’zolarining xatti-harakatlari, qarashlari va motivatsiyasiga ta’sir ko‘rsatadi. Liderlikning psixologik mohiyati shundan iboratki, u faqat boshqaruv emas, balki ruhiy ta’sir va ijtimoiy ilhom jarayonidir. XX asr boshlarida liderlik shaxsning tug‘ma sifatlari bilan bog‘langan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, liderlar boshqalardan o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Keyinchalik tadqiqotchilar liderning shaxsiy fazilatlaridan ko‘ra, uning xulq-atvoriga e’tibor qaratdilar. Liderlik uslublari tajriba orqali o‘rganildi [2].

Uning tadqiqotlariga ko‘ra, demokratik uslub guruhda ijobiy psixologik muhit yaratadi. Liderlik nazariyasida yangi bosqichni boshlab bergan olim — James MacGregor Burns hisoblanadi. U transformatsion va tranzaksion liderlik tushunchalarini ilmiy muomalaga kiritgan. Lider o‘z hissiyotlarini boshqara olishi va boshqalarning emotsional holatini tushuna olishi zarur.

Guruh a’zolari lider shaxsini namuna sifatida qabul qiladi va uning qadriyatlarini o‘zlashtiradi. Aniq, ishonchli va motivatsion nutq liderlik samaradorligini oshiradi. Har qanday jamoada rasmiy yoki norasmiy lider mavjud bo‘ladi. Demokratik liderlik uslubi ijodkorlikni rag‘batlantiradi. Avtoritar uslub esa tezkor qaror qabul qilish imkonini beradi, biroq uzoq muddatda motivatsiyani pasaytirishi mumkin. Bugungi kunda **liderlik psixologiyasi quyidagi yo‘nalishlarda** rivojlanmoqda [3]:

-emotsional intellekt va liderlik;

-gender va liderlik;

-madaniyatlararo liderlik;

-raqamli muhitda liderlik.

Liderlik psixologiya fanining muhim tadqiqot predmeti bo‘lib, u shaxs va guruh o‘rtasidagi ijtimoiy-psixologik munosabatlarni o‘rganadi. Samarali liderlik shaxsiy sifatlar, ijtimoiy vaziyat va psixologik kompetensiyalarning uyg‘unligiga asoslanadi. Transformatsion liderlik modeli zamonaviy boshqaruv va ta’lim jarayonlarida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Liderlikni rivojlantirish mumkin bo‘lgan kompetensiya sifatida o‘rganish psixologiya fanining dolzarb vazifalaridan biridir. Liderlik muammosi ijtimoiy psixologiya, boshqaruv psixologiyasi va tashkiliy psixologiyaning markaziy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda liderlik “ijtimoiy ta’sir jarayoni” sifatida talqin qilinadi. Xususan, Peter G. Northouse o‘zining “Leadership: Theory and Practice” asarida liderlikni “individning umumiy maqsadga erishish uchun guruhga ta’sir ko‘rsatish jarayoni” deb ta’riflaydi. Liderlik psixologiya fanida shaxsning ijtimoiy faolligi, motivatsion tuzilmasi, kommunikativ kompetensiyasi hamda emotsional-intellektual salohiyati bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Shu bois liderlik psixologiyaning mustaqil tadqiqot predmeti sifatida shakllanib bormoqda. Liderlikni ilmiy jihatdan o‘rganish XX asr boshlarida boshlangan. Dastlabki tadqiqotlar lider shaxsining tug‘ma sifatlariga qaratilgan bo‘lib, bu yo‘nalish xususiyatlar nazariyasi (trait theory) deb nomlangan. Amerikalik olim Ralph Stogdill 1948-yilda chop etilgan tadqiqotida liderlikni faqat tug‘ma sifatlar bilan tushuntirib bo‘lmasligini ta’kidlaydi. U shunday yozadi: “Liderlik – bu shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari va vaziyat talablari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat mahsulidir.” [4].

Bu fikr liderlikni kompleks ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida tushunishga asos bo‘ldi. Liderlikni o‘rganishda muhim ilmiy burilish Kurt Lewin tadqiqotlari bilan bog‘liq. Zamonaviy liderlik nazariyalarida eng muhim konsepsiyalardan biri transformatsion liderlikdir.

Gary Yukl o‘zining “Leadership in Organizations” asarida liderlikni ko‘p omilli jarayon sifatida tahlil qiladi. Unga ko‘ra:

“Samarali liderlik – bu vaziyat, izdoshlar xususiyatlari va lider kompetensiyalarining uyg‘unlashuvidir.”

Liderlik insoniyat taraqqiyoti davomida jamiyat, guruh va tashkilotlar faoliyatida muhim o‘rin tutib kelgan ijtimoiy-psixologik hodisadir. Psixologiya fanida liderlik nafaqat boshqaruv jarayoni, balki shaxsning psixik xususiyatlari, guruh ichidagi munosabatlar, motivatsiya, ijtimoiy ta’sir va o‘zaro muloqot mexanizmlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan murakkab jarayon sifatida o‘rganiladi. Shu sababli liderlik psixologiya fanining alohida va dolzarb tadqiqot predmetlaridan biri hisoblanadi.

Liderlik psixologiyasining tadqiqot predmeti sifatida bir necha asosiy yo‘nalishlar ajratiladi. Avvalo, lider shaxsining individual-psixologik xususiyatlari o‘rganiladi. Bunga temperament, xarakter, irodaviy sifatlar, intellekt darajasi, emotsional barqarorlik, kommunikativ qobiliyat, empatiya va motivatsion omillar kiradi. Psixologlar uzoq vaqt davomida liderlik tug‘ma fazilatmi yoki rivojlantiriladigan sifatmi degan savolga javob izlab kelganlar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayrim tabiiy predispozitsiyalar mavjud bo‘lsa-da, liderlik ko‘nikmalari tarbiya, ta’lim va tajriba orqali shakllanadi va rivojlanadi.

Liderlik nazariyalari psixologiyada turli bosqichlarda shakllangan. XX asr boshlarida shakllangan “buyuk shaxslar nazariyasi” liderlikni tug‘ma qobiliyat sifatida talqin qilgan. Keyinchalik xususiyatlar nazariyasi rivojlanib, liderlarda uchraydigan umumiy psixologik fazilatlarni aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar olib borildi. Masalan, tashabbuskorlik, qat’iyatlilik, mas’uliyat hissi, yuqori ijtimoiy faollik va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati lider shaxsiga xos sifatlar sifatida qayd etilgan [6].

Bu yondashuvga ko‘ra, samarali liderlik uslubi guruhning rivojlanish darajasi, vazifaning murakkabligi va ijtimoiy muhitga bog‘liq bo‘ladi. Demak, liderlik universal xususiyat emas, balki vaziyatga moslashuvchan psixologik jarayondir.

Zamonaviy psixologiyada transformatsion va tranzaksion liderlik tushunchalari keng qo‘llaniladi. Transformatsion lider guruh a’zolarining qadriyatlari va motivatsiyasini o‘zgartirib, ularni yuqori maqsadlarga ilhomlantiradi. Tranzaksion lider esa mukofot va jazoga asoslangan boshqaruv mexanizmlaridan foydalanadi. Bu ikki yondashuv tashkilot psixologiyasi va menejment sohasida keng o‘rganilgan.

Liderlik psixologiyasi ijtimoiy psixologiya bilan uzviy bog‘liqdir. Guruh dinamikasi, ijtimoiy rollar, konformizm, referent guruh tushunchalari liderlikni tushunishda muhim ahamiyatga ega. Lider guruh ichida rasmiy yoki norasmiy mavqega ega bo‘lishi mumkin. Norasmiy lider ko‘pincha psixologik ta’sir kuchi bilan ajralib turadi va guruh kayfiyati hamda qarorlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Motivatsiya nazariyalari ham liderlikni tushuntirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, ehtiyojlar ierarxiyasi, o‘zini o‘zi amalga oshirish, muvaffaqiyatga intilish motivlari liderlik faoliyatini rag‘batlantiruvchi omillar sifatida qaraladi. Lider shaxs ko‘pincha yuqori yutuqqa erishish motivatsiyasi, mustaqillik ehtiyoji va ijtimoiy tan olinishi istagi bilan ajralib turadi.

Emotsional intellekt ham zamonaviy liderlik psixologiyasining muhim komponentidir. O‘z his-tuyg‘ularini boshqara olish, boshqalarni tushunish va empatiya ko‘rsatish liderning samaradorligini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori emotsional intellektga ega liderlar jamoada sog‘lom psixologik muhit yaratishga muvaffaq bo‘ladilar.

Liderlikning shakllanishida ijtimoiy-madaniy omillar ham muhim ahamiyatga ega. Har bir jamiyatda liderga qo‘yiladigan talablar, qadriyatlar va stereotiplar farqlanadi. Shuning uchun liderlikni o‘rganishda milliy mentalitet, madaniy an’analar va ijtimoiy kutishlarni hisobga olish zarur.

Liderlik psixologiya fanining tadqiqot predmeti sifatida yanada chuqurroq tahlil qilinganda, uning nazariy, amaliy va metodologik jihatlari alohida e’tibor talab etadi. Chunki liderlik oddiy boshqaruv faoliyati emas, balki inson ongiga, hissiyotiga, qadriyatlariga va xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini o‘z ichiga olgan murakkab psixologik jarayondir.

Avvalo, liderlik psixologiyasining metodologik asoslari haqida to‘xtalish lozim. Bu sohada kuzatish, eksperiment, sotsiometriya, test metodlari, so‘rovnomalar va biografik tahlil kabi ilmiy usullar qo‘llaniladi. Guruh ichidagi munosabatlarni aniqlash uchun sotsiometrik tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular yordamida kim guruh ichida ko‘proq e’tirof etilishi, kimga ishonch bildirilishi va kim norasmiy lider sifatida

shakllanayotganini aniqlash mumkin. Eksperimental tadqiqotlar esa turli boshqaruv uslublarining guruh samaradorligiga ta’sirini o‘rganishga imkon beradi [7].

Liderlikni psixologik jihatdan o‘rganishda motivatsion omillar alohida o‘rin tutadi. Lider ko‘pincha ichki motivlar asosida harakat qiladi. U faqat tashqi mukofot yoki lavozim uchun emas, balki o‘zini namoyon qilish, boshqalarga foyda keltirish, ijtimoiy ta’sirga ega bo‘lish istagi bilan faoliyat yuritadi. Ichki motivatsiya kuchli bo‘lgan shaxslar ko‘proq tashabbuskor, mas’uliyatli va qat’iyatli bo‘ladilar. Shu sababli zamonaviy psixologiya liderlikni o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini rivojlantirish jarayoni bilan bog‘liq holda o‘rganadi.

Liderlikning kognitiv jihatlari ham muhimdir. Lider vaziyatni tez va to‘g‘ri baholay olishi, strategik fikrlashi, uzoq muddatli reja tuza olishi va muammolarni hal qilishda kreativ yondasha olishi zarur. Kognitiv psixologiya nuqtai nazaridan liderning qaror qabul qilish jarayoni, tafakkur tezligi, axborotni qayta ishlash qobiliyati va intuitiv fikrlash mexanizmlari o‘rganiladi. Bu jarayonlarda stressga chidamlilik ham muhim rol o‘ynaydi, chunki lider ko‘pincha murakkab va ziddiyatli vaziyatlarda qaror qabul qilishga majbur bo‘ladi.

Shaxslararo munosabatlar tizimida liderning kommunikativ kompetensiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Samarali lider muloqot jarayonida ochiqlik, ishonch va o‘zaro hurmat muhitini yaratadi. U nafaqat gapira oladi, balki tinglay oladi, konstruktiv fikr bildiradi va nizolarni murosali hal etadi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, samarali kommunikatsiya jamoa ichidagi ijtimoiy-psixologik iqlimni yaxshilaydi va ish unumdorligini oshiradi.

Liderlikning rivojlanish bosqichlari ham tadqiqot predmeti sifatida qaraladi. Odatda liderlik maktab davridayoq namoyon bo‘la boshlaydi. Faol, tashabbuskor va tengdoshlar orasida obro‘ga ega bo‘lgan bolalar keyinchalik yetuk lider sifatida shakllanishi mumkin. Oliy ta’lim muassasalari va professional faoliyat jarayoni esa liderlik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Demak, liderlik jarayoni uzluksiz rivojlanib boradigan dinamik hodisadir.

Zamonaviy tashkilot psixologiyasida liderlik samaradorligini baholash mezonlari ham ishlab chiqilgan. Ular orasida jamoa samaradorligi, xodimlar qoniqishi, innovatsion

faoliyat, ijtimoiy mas’uliyat va tashkilot barqarorligi kabi ko‘rsatkichlar mavjud. Psixologlar liderning shaxsiy muvaffaqiyatidan ko‘ra uning jamoaga ko‘rsatgan ijobiy ta’sirini asosiy mezon sifatida baholaydilar.

Liderlik va hokimiyat tushunchalari o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, ular aynan bir xil emas. Hokimiyat ko‘pincha rasmiy vakolat va majburiy ta’sirga asoslanadi, liderlik esa ko‘proq ishonch, hurmat va shaxsiy namuna orqali amalga oshiriladi. Shu jihatdan psixologiya liderlikni ijtimoiy ta’sirning eng samarali va insonparvar shakli sifatida talqin qiladi.

Shuningdek, gender masalasi ham liderlik psixologiyasida dolzarb yo‘nalishlardan biridir. Ilgari liderlik ko‘proq erkaklarga xos xususiyat sifatida qaralgan bo‘lsa, bugungi kunda ayollar liderligi alohida tadqiq etilmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayol liderlar ko‘proq empatiya, hamkorlik va demokratik boshqaruv uslubiga moyil bo‘ladilar, bu esa zamonaviy jamoalar uchun samarali model hisoblanadi.

Liderlikning axloqiy jihati ham muhim tadqiqot yo‘nalishidir. Axloqiy liderlik shaxsiy manfaatdan ko‘ra umumiy manfaatni ustuvor qo‘yish, adolatli qaror qabul qilish va halollik tamoyillariga rioya qilishni anglatadi. Psixologik nuqtai nazardan axloqiy lider jamoada ishonch muhitini shakllantiradi va uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlaydi.

Bundan tashqari, zamonaviy raqamli muhit sharoitida virtual liderlik tushunchasi ham paydo bo‘lgan. Masofaviy ishlash, onlayn jamoalar va raqamli kommunikatsiya vositalari liderdan yangi kompetensiyalarni talab qiladi. Endilikda lider nafaqat an’anaviy muloqot, balki virtual muhitda ham jamoani birlashtira olishi lozim.

Umuman olganda, liderlik psixologiya fanining ko‘p qirrali va doimiy rivojlanib borayotgan tadqiqot predmetidir. U shaxsning ichki psixologik tuzilmasidan tortib, guruh dinamikasi va ijtimoiy tizimlargacha bo‘lgan keng ko‘lamli jarayonlarni qamrab oladi. Liderlikni chuqur o‘rganish jamiyat taraqqiyoti, samarali boshqaruv va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, liderlik psixologiya fanining ko‘p qirrali va murakkab tadqiqot predmetidir. U shaxs psixologiyasi, ijtimoiy psixologiya, tashkilot psixologiyasi va boshqaruv psixologiyasi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Liderlikni chuqur tahlil

qilish jamiyatda samarali boshqaruvni yo‘lga qo‘yish, sog‘lom jamoaviy muhit yaratish va inson salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shermatov F.T., Harbiy – kasbiy tayyorgarlik psixologiyasi // Monografiya. 2024. 76-93 bet.
2. F.Shermatov. A.Beknazarov. “Bo‘lajak ofitserlarda liderlik psixologiyasi”. Darslik.– T.: AKT va AHI, 2022.
3. Майерс Д. Социальная психология. – Санкт-Петербург: Питер, 2010.
4. Маслоу А. Мотивация и личность. – Санкт-Петербург: Питер, 2008.
5. МакКлелланд Д. Мотивация человека. – Санкт-Петербург: Питер, 2007.
6. Левин К. Динамика групп и социальные изменения. – Москва: Смысл, 2000.

PSIXOLOGIYADA SHAXS IRODASI MAVZUSINI O‘QITISHDA “ZINAMA-ZINA” TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Zohirov Nodirbek Ulug‘bekovich,

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,

“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi

katta o‘qituvchisi

e-mail pochta: zohirovnodirbek5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada psixologiya fanida shaxs irodasi muammosi va uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali o‘qitish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda irodaviy regulyatsiyaning mohiyati ongli boshqarish va oliy ruhiy funksiya sifatida ochib beriladi. Muallif tomonidan iroda tushunchasini talabalarga sodda va tizimli yetkazib berishda “Zinama-zina” innovatsion texnologiyasining 5 ta bosqichli algoritmi va uning metodik ahamiyati ilmiy asoslangan. Maqolada irodaviy sifatlarni

shakllantirishda maqsadlilik, intizom va motivatsiyaning o‘zaro aloqadorligi hamda axloqiy me’yorlarning o‘rni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Iroda, irodaviy regulyatsiya, “Zinama-zina” texnologiyasi, motivlar kurashi, maqsadlilik, intizom, pedagogik innovatsiya, oliy ruhiy funksiya, axloqiy sifatlar

Аннотация: В данной статье анализируются проблема воли личности в психологии и вопросы её преподавания с помощью современных педагогических технологий. В исследовании раскрывается суть волевой регуляции как осознанного управления и высшей психической функции. Автором научно обоснован 5-ступенчатый алгоритм инновационной технологии «Ступенька за ступенькой» и её методическое значение в системной передаче понятия воли студентам. В статье освещены взаимосвязь целеустремленности, дисциплины и мотивации, а также роль этических норм в формировании волевых качеств.

Ключевые слова: Воля, волевая регуляция, технология «Ступенька за ступенькой», борьба мотивов, целеустремленность, дисциплина, педагогическая инновация, высшая психическая функция, нравственные качества.

Abstract: This article analyzes the problem of individual will in psychology and the issues of teaching it through modern pedagogical technologies. The research reveals the essence of volitional regulation as conscious management and a higher mental function. The author scientifically substantiates the 5-step algorithm of the "Step-by-Step" innovative technology and its methodical significance in the systemic transmission of the concept of will to students. The article highlights the interconnectedness of purposefulness, discipline, and motivation, as well as the role of ethical norms in the formation of volitional qualities.

Keywords: Will, volitional regulation, "Step-by-Step" technology, struggle of motives, purposefulness, discipline, pedagogical innovation, higher mental function, moral qualities.

Kursantlarda zamon talabiga mos bo‘lgan psixologiya fanini o‘qitish hozirgi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ma’lumki, psixologiya fanida iroda muammosi shaxsning o‘z faoliyati va ruhiy jarayonlarini ongli ravishda boshqarish qobiliyati sifatida fundamental bitiruv ishiobyekti hisoblanadi. Iroda tushunchasi shaxsning nafaqat

kognitiv imkoniyatlarini, balki uning emotsional-irodaviy barqarorligini ham belgilab beradi. Jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalarda bo‘layotgan o‘zgarishlar sharoitida talabalarda bunday irodaviy sifatlarni shakllantirish ta’lim tizimining asosiy sharti hisoblanadi.

Iroda fenomenining ilmiy talqini. Psixologiya fanida iroda tushunchasi haqidagi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, u shaxsning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlari yo‘lidagi ichki va tashqi to‘siqlarni yengib o‘tishida namoyon bo‘ladi. L.S. Vigotskiy va S.L. Rubinshteyn kabi xorij psixologlari bitiruv ishiida iroda “oliy ruhiy funksiya” sifatida ta’riflanib, u insonning o‘z xatti-harakatlarini ijtimoiy normalar va axloqiy prinsiplar asosida tartibga solish mexanizmi ekanligi atroflicha tahlil qilingan.

Irodaning shaxs tuzilishidagi o‘rni. Shaxs tizimida iroda quyidagi muhim funksiyalarni bajaradi:

Motivatsion funksiya: Iroda shaxsning ehtiyoj va motivlarini tartibga solib, ularni jamiyat uchun foydali bo‘lgan oliy maqsadlarga yo‘naltiradi.

Regulyativ funksiya: Shaxsning o‘z xulq-atvorini ongli boshqarishi, impulsiv reaksiyalarni jilovlashi va vaziyatga qarab o‘zini tutishini ta’minlaydi.

Dinamik funksiya: Faoliyatning shiddati va davomiyligini belgilab, qiyinchiliklarga qaramay ishni yakuniga yetkazish imkonini beradi.

Sharq allomalarining yondashuvlarida iroda muammosi komil inson g‘oyasi bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, u nafsni jilovlash va ma’naviy yuksaklikka erishish vositasi sifatida talqin qilingan. Bu esa bugungi kundagi yoshlarga yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanib samarali dars o‘tishda ma’naviy-axloqiy yo‘nalishni belgilab beradi.

Psixologiya fanining o‘qitilishi jarayonida iroda tushunchasining mazmunini ochib berish mutaxassislarni o‘z sohasiga aloqador bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishi uchun zaruriy poydevor hisoblanadi. Binobarin, iroda shaxs tuzilishida intellektual salohiyatni amaliy harakatga aylantiruvchi markaziy komponentdir

Irodani tadqiq etishda psixologiya fanida avtogenetik (V.Vundt, N.Ax, I.Lindvorskiy) va geterogenetik nazariya alohida o‘rin tutadi. Ba’zi xorijiy olimlarning (I.F.Gerbart, K.Erenfels, E.Myoyman) bitiruv ishiida irodaning tafakkur va hissiyot bilan

chambarchas bog‘liq ekani alohida qayd etiladi. G‘arb ilm-fanida nemis faylasufi Artur Shopengauer “Iroda falsafasining” asoschisi sifatida e’tirof qilinadi. Vaholanki, iroda masalasi Sharqda, xususan, O‘rta Osiyodagi mavjud tarixiy manbalar va buyuk allomalar merosida yuksak darajada ta’rif va tasnif etilgan. Jumladan, "Avesto"da iroda tangrining inson qalbidagi tajassumi sifatida talqin qilingan. Shuningdek, islomda ilohiy adolat insonning iroda erkinligini taqozo etishi uqtirilib, Allohning odilligi uning faqat “eng yaxshi” (al-aslah) narsalarni qilish, dunyoning tartibini hech qachon buzilmaslik hamda barcha uchun barobar ekanida namoyon bo‘lishi ta’kidlanadi. Deyarli bir yarim asr mobaynida adolatsizlik, o‘zgalar xohish-irodasining zo‘rlab qabul qildirilishi bilan bog‘liq xo‘rlik va zulm azoblarni boshdan kechirgan xalqimiz mustaqillikka erishib, o‘z xohish-irodasi bilan yashash, qonunlar qabul qilish, o‘z parlamenti, hukumati va prezidentini saylash baxtiga muyassar bo‘ldi. Bosiqlik, kamtarinlik, kamsuqumlik, mehnatkashlik, bag‘rikenglik kabi xalqimizga xos bo‘lgan ko‘plab ezgu fazilatlar ko‘proq iroda kuchi natijasida yuzaga keladi. El-yurtimiz biron bir qaror qabul qilishdan oldin atroflicha o‘ylab, ko‘pchilik bilan maslahatlashib, xalqimiz ta’biri bilan aytganda “yetti o‘lchab, bir kesib”, keyin aniq bir xulosaga keladi. Bu esa hayotda yengil-yelpi gaplarga uchmasdan, aniq maqsadlarni ko‘zlab, qat’iyat bilan yashashga asos bo‘ladi.

Pedagogik texnologiya — bu ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish, ya’ni uni oldindan belgilangan aniq maqsadlarga erishishni kafolatlaydigan tizimli jarayonga aylantirishdir. “Texnologiya” termini grekcha *“techne”* (mahorat, san’at) va *“logos”* (ta’limot) so‘zlaridan olingan bo‘lib, pedagogika kontekstida o‘qituvchi mahoratini ilmiy asoslangan algoritmlar bilan birlashtirishni anglatadi.

YUNESKO ta’rifiga ko‘ra: *“Pedagogik texnologiya* — bu inson salohiyati va texnik resurslarni hamda ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda, ta’lim shakllarini samaradorligini oshirish maqsadida o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning butun jarayonini yaratish, qo‘llash va belgilashning tizimli metodidir”.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni kursantlarning mustaqil fikrlashi, kognitiv faolligi va kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning o‘rni alohida belgilangan. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- **Maqsadlilik:** Jarayonning yakuniy natijasi aniq o‘lchovli ko‘rsatkichlarda belgilanishi.
- **Tizimlilik:** Ta’limning barcha elementlari (maqsad, mazmun, metod, vosita, natija) o‘zaro bog‘liqligi.
- **Takrorlanuvchanlik:** Texnologiyaning boshqa pedagoglar tomonidan qo‘llanilganda ham kutilgan natijani berishi.
- **Boshqariluvchanlik:** Ta’lim jarayonini diagnostika qilish va unga tuzatishlar kiritish imkoniyati.

Ilmiy adabiyotlarda (V.P. Bespalko, M.V. Klarin, B.P. Farberman) pedagogik texnologiyalar bir necha turga bo‘linadi:

1. **Muammoli ta’lim texnologiyasi:** Talabalar oldiga muammoli vaziyat qo‘yish orqali ularni mustaqil yechim topishga yo‘naltirish.

2. **O‘yin texnologiyalari:** Bilimlarni rolli, ishchanlik va simulyatsion o‘yinlar orqali o‘zlashtirish (masalan, psixologiyada “Zinama-zina” texnologiyasi).

3. **Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi:** Kichik guruhlarda ishlash orqali jamoaviy mas’uliyat va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Tabaqalashtirilgan ta’lim: Talabalarning individual imkoniyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda yondashish

Iroda — bu insonning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish yo‘lidagi ichki va tashqi to‘siqlarni yengib o‘tishida namoyon bo‘ladigan, o‘z xulq-atvori va ruhiy jarayonlarini ongli ravishda boshqarish hamda tartibga solish qobiliyatidir.

Ilmiy jihatdan iroda shaxsning ixtiyoriy faolligi bo‘lib, u ongsiz intilishlardan farqli o‘laroq, aniq maqsadga yo‘naltirilganligi, rejalashtirilganligi va natijani oldindan ko‘ra bilish xususiyati bilan ajralib turadi. Iroda kognitiv (fikriy), emotsional va motor (harakat) jarayonlarini yagona maqsad yo‘lida birlashtiruvchi ruhiy mexanizmdir.

Iroda tug‘ma xususiyat emas, balki shaxsning ijtimoiy muhitda voyaga yetishi va faoliyati davomida shakllanadigan murakkab tizimdir. Uning shakllanishi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Ibtidoiy manbalar (Bolalik davri):

Irodaning shakllanishi go‘daklik davridagi harakatlarning ixtiyoriylashishidan boshlanadi. Bola o‘z harakatlarini kattalarning nutqiy ko‘rsatmalari asosida boshqarishni o‘rganishi bilan irodaviy elementlar paydo bo‘ladi. L.S. Vigotskiy ta’kidlaganidek, iroda dastlab tashqi ijtimoiy munosabat bo‘lib, keyinchalik shaxsning ichki ruhiy funksiyasiga aylanadi.

2. O‘yin va muloqot bosqichi:

Maktabgacha yoshdagi bolalarda iroda rolli o‘yinlar orqali shakllanadi. O‘yindagi qoidalarga rioya qilish, o‘z xohishlarini jamoat manfaatiga bo‘ysundirish — irodaviy regulyatsiyaning ilk ko‘rinishlaridir. Bu davrda bola “xohlayman” va “kerak” tushunchalari o‘rtasidagi farqni anglay boshlaydi.

3. O‘quv faoliyati va mehnat (O‘smirlik davri):

Irodaning eng jadal rivojlanish bosqichi maktab davriga to‘g‘ri keladi. O‘quv topshiriqlarini bajarish, kun tartibiga rioya qilish va ijtimoiy mas’uliyatni his etish talabaning irodaviy sifatlarini (qat’iyatlilik, mustaqillik) toblaydi. Bu davrda irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lishida shaxsning temperamenti va asab tizimi tipi muhim fiziologik asos vazifasini o‘taydi.

4. O‘z-o‘zini tarbiyalash (Yoshlik va yetuklik):

Irodaning asosi esa jtimoiy ehtiyojlardir. Jamiyatimizda yoshlarga yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanib samarali dars o‘tish orqali ularda irodaviy barqarorlikni shakllantirish davlat ahamiyatiga molik vazifadir. Iroda shaxsning intellektual salohiyatini amaliy natijaga aylantiruvchi "dvigatel" vazifasini bajaradi.

Oliy ta’lim bosqichida iroda o‘z-o‘zini tarbiyalash darajasiga ko‘tariladi. Talabalarda "Zinama-zina" texnologiyasi orqali irodani shakllantirish, ularning o‘z kamchiliklari ustida ishlashi va kasbiy mahoratga intilishi orqali kechadi. Bu bosqichda iroda shaxsning ongli hayotiy strategiyasiga aylanadi.

1-pog‘ona: Maqsad qo‘yish (Aniq maqsad sari intilish) Irodaviy harakat har doim anglangan maqsaddan boshlanadi. S.L. Rubinshteyn ta’kidlaganidek, iroda — bu maqsadli intilishdir. Rasmda nishon (target) belgisi bilan ko‘rsatilgan ushbu bosqichda talaba o‘z ehtiyojlarini tahlil qiladi va ularni ijtimoiy foydali maqsadga aylantiradi. Maqsad qanchalik aniq bo‘lsa, irodaviy quvvat shunchalik samarali sarflanadi.

2-pog‘ona: Qaror qabul qilish (Mustahkam qarorlar qabul qilish) Bu bosqichda shaxsda "motivlar kurashi" kechadi. Qaror qabul qilish — irodaning eng intellektual bosqichidir. Bu yerda inson turli variantlar orasidan eng maqbulini tanlaydi va mas’uliyatni o‘z bo‘yniga oladi. Rasmda qog‘oz va qalam belgisi bu jarayonning rejalashtirish va ongli tanlov ekanligini anglatadi.

3-pog‘ona: Mashaqqatlarni yengish (Qiyinchiliklarni yengish) Iroda aynan qarshilik paydo bo‘lganda namoyon bo‘ladi. E.P. Ilin tasnifiga ko‘ra, bu bosqichda shaxsning chidamlilik va sabr-toqat kabi sifatlari ishga tushadi. Tashqi (sharoit) va ichki (dangasalik, qo‘rquv) to‘siqlarni yengish irodaviy aktning asosiy "tanasi"ni tashkil etadi.

4-pog‘ona: O‘zini nazorat qilish (O‘z ustida ishlash) Rasmda ikkita pog‘onaning (3 va 4) o‘zini nazorat qilishga bag‘ishlangani bejiz emas. Irodali shaxs — bu o‘z-o‘zini boshqara oladigan shaxsdir. Bu bosqichda inson o‘z harakatlarini dastlabki maqsad bilan qiyoslaydi, xatolarini tuzatadi va hissiyotlarini jilovlaydi. Bu irodaviy regulyatsiyaning eng oliy ko‘rinishidir.

5-pog‘ona: G‘alabaga erishish (Yutuqqa erishish!) Zinaning cho‘qqisida turgan kubok (mukofot) — bu faqatgina natija emas, balki shaxsning o‘z irodasi ustidan qozongan g‘alabasidir. Psixologik jihatdan bu bosqich "irodaviy qoniqish" hissini beradi va keyingi maqsadlar uchun ijobiy motivatsiya poydevorini yaratadi.

Rasmda qo‘llanilgan ranglar va simvollar talabalar kognitiv faolligini oshirishga xizmat qiladi:

- Ko‘tarilayotgan yosh yigit: Bu talabaning o‘zini subyekt sifatida anglashi (identifikatsiya) uchun xizmat qiladi.
- Bulutlardagi yozuvlar: Har bir irodaviy harakatning natijasini (profit) ko‘rsatib beradi, bu esa o‘rganuvchida "Zinama-zina" texnologiyasiga nisbatan ishonch uyg‘otadi.
- Cho‘qqidagi bayroq va quyosh: Irodaviy harakatning yakuni har doim yorug‘lik va muvaffaqiyat bilan tugashiga ishora qiluvchi optimistik pedagogik yondashuvdir.

Mazkur rasm shunchaki illyustratsiya emas, balki psixologiya darsining xaritasidir. “Zinama-zina” texnologiyasini qo‘llashda o‘qituvchi talabalarni har bir pog‘ona bo‘yicha alohida topshiriqlar bilan ta’minlaydi. Masalan, 1-pog‘onada maqsad qo‘yish mashqi, 3-pog‘onada qiyin vaziyatli keyslar yechiladi.

Bu metodik vosita talabalarda irodani “mavhum tushuncha”dan “aniq harakatlar algoritmi”ga aylantirish imkonini beradi. Binobarin, rasmda ifodalangan model shaxsning intellektual va irodaviy salohiyatini birlashtiruvchi zamonaviy pedagogik innovatsiya hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu bitiruv ishi ustida olib borilgan izlanishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, **iroda** — bu shunchaki insonning "kuchli" ekanligi emas, balki o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish uchun o‘zini ongli ravishda boshqara olish san’atidir. Bitiruv ishi davomida biz quyidagi muhim natijalarga erishdik:

- Iroda — mashq qilsa bo‘ladigan “mushak” kabi xususiyatdir. Iroda inson bilan birga tug‘ilmaydi, balki hayotiy qiyinchiliklar va to‘g‘ri ta’lim orqali shakllanadi. Biz taklif etgan “Zinama-zina” texnologiyasi insonga har qanday murakkab ishni kichik, bosib o‘tish mumkin bo‘lgan pog‘onalarga bo‘lib chiqishni o‘rgatadi.
- Maqsad aniq bo‘lsa, iroda uyg‘onadi. Inson nima uchun harakat qilayotganini (Masalan: Vatan himoyasi, oila shani yoki shaxsiy yutuq) aniq bilsagina, undagi charchoq va qo‘rquv chekinadi. Bizning metodikamiz aynan maqsadni to‘g‘ri qo‘yishdan boshlanadi.
- Faqat kuchli bo‘lish yetarli emas, odobli bo‘lish ham shart. Bitiruv ishida isbotlandiki, agar insonning irodasi kuchli bo‘lsa-yu, lekin axloqi yomon bo‘lsa, u jamiyatga zarar yetkazishi (shafqatsizlik, qaysarlik) mumkin. Haqiqiy iroda — bu yaxshilik yo‘lida ishlatilgan kuchdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

I. Maxsus adabiyotlar (Darslik va monografiyalar)

1. Ilin E.P. Psixologiya voli. – Piter: SPb, 2011. (Irodaviy regulyatsiya bo‘yicha fundamental asar).
2. Vigotskiy L.S. Sobranie sochineniy v 6-ti tomax. Tom 3. Problemi razvitiya psixiki. – Moskva: Pedagogika, 1983.
3. Rubinshteyn S.L. Osnovi obshey psixologii. – SPb: Piter, 2002.
4. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2010.

5. Haydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. – Toshkent: TDPU, 2010.
6. Baratov Sh.R. Psixologik xizmat. – Toshkent: Fan, 2012.

II. Scopus va Web of Science bazasidagi xalqaro ilmiy manbalar

12. Baumeister, R. F., & Tierney, J. (2011). *Willpower: Rediscovering the Greatest Human Strength.* Penguin Press. (Scopus iqtibos darajasi yuqori manba).

“JANGOVAR VA JISMONIY TAYYORGARLIK MASHG‘ULOTLARIDA O‘QUV-TARBIYAVIY ISHLARNING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI”

Ergashev Abdusattor Tulanovich

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi Qo‘shinlar instituti Harbiy pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, t.f.f.d. (PhD), dotsent

«ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ УЧЕБНО-ВОСПИТАТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ В ХОДЕ ЗАНЯТИЙ ПО БОЕВОЙ И ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКЕ»

Ergashev Abdusattor Tulanovich
Доцент кафедры Военной педагогики и психологии Института сухопутных войск Университета военной безопасности и обороны Республики Узбекистан
д.ф.и.н.(PhD), dotsent

"PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF EDUCATIONAL WORK DURING COMBAT AND PHYSICAL TRAINING CLASSES"

Ergashev Abdusattor Tulanovich

Associate Professor of the Department of Military Pedagogy and Psychology, Institute of the Land Forces, University of Military Security and Defense of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Associate Professor

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif o‘quv faoliyatning motivlari, ta’lim jarayonida ko‘p uchraydigan ruhiy kuchlarning talab qilinishi, uning samaradorligi, ichki

va tashqi motivlar, individning u yoki bu bilim va mahoratlarga erishishga mustaqil intilishi, insonning predmetlarga, hodisalarga, harakatlarga tanlov munosabatini aks ettirishi, harbiy xizmatchilar bo‘ladigan jangovar va jismoniy tayyorgarlikda uchraydigan psixologik aspektlari, ehtiyojlari, jismoniy va ruhiy yuklamalarni oddiylikdan murakkablikka qarab shakllantirish ishlari to‘g’risida bayon qilgan.

Kalit so‘zlar: axborot, individ, obyekt, hodisa, ravshan, o‘quvchi, tajriba, bilim, fikrlash, amaliy, mavhum, vosita, aql, xususiyat, jarayon, ong, xarakter, jangovar ва jismoniy tayyorgarlik, mashg‘ulot.

Аннотация: В данной статье автор описал мотивы учебного процесса, требоваемые психологические силы во время занятий, его положительные моменты, внутренние и внешние мотивы, индивидуальная работа военнослужащего по боевой и физической подготовке в целях достижения высоких результатов, отношение человека к предметам, событиям, происшествиям, выбор человека к действиям в сложных условиях, психологические аспекты встречающиеся в ходе боевой и физической подготовке, развитие боевой и физической подготовки у военнослужащих по принципу от простого к сложному.

Ключевые слова: информация, индивид, объект, точность, ученик, опыт, знания, размышление, практика, неопределенность, средства, разум, свойства, подсознание, характер, боевая и физическая подготовка, занятие.

Abstract: In this article, the author described the motives of the educational process, the psychological forces required during classes, its positive aspects, internal and external motives, the individual work of a serviceman in combat and physical training in order to achieve high results, a person's attitude to subjects, events, incidents, a person's choice to act in difficult conditions, psychological aspects encountered in during combat and physical training, the development of combat and physical training among military personnel on the principle of from simple to complex.

Keywords: information, individual, object, accuracy, student, experience, knowledge, reflection, practice, uncertainty, means, mind, properties, subconscious, character, combat and physical training, occupation.

Ma’lumki odatda, o‘quv faoliyati motivlarining ikki asosiy guruhi ajratib ko‘rsatiladi – tashqi va ichki. Tashqilariga guruhning talablari, mukofotlari, tahdidlari, bosimlari va h.k. kiradi. Jiddiy motivatsiyaga ega bo‘lmagan bunday ta’lim, ko‘p ruhiy kuch talab qiladi va samaradorligi ham yetarli emas.

Ichki motivlar individning u yoki bu bilim va mahoratlarga erishishga mustaqil intilishini, ta’limga qiziqishini nazarda tutadi. Qiziqish qanchalik baland bo‘lsa, shaxsning faolligi shuncha yuqori, natija ham shuncha ahamiyatli bo‘lishi shubhasiz. Bilishga bo‘lgan qiziqishlarning shakllanishi haqida gapirganda shuni ta’kidlash lozimki, qiziqish insonning predmetlarga, hodisalarga, harakatlarga tanlov munosabatini aks ettiradi. U ehtiyojlar asosida yuzaga keladi. Ammo harbiy xizmatchini u uchun ma’nisiz hisoblangan narsa bilan qiziqtirib bo‘lmaydi. O‘rganishga va bilim olishga bo‘lgan qiziqish, barcha ehtiyojlar kabi, katta uyg‘otuvchi kuchga ega. Uni shakllantirar ekan, ofitser jangovar shaylikning samaradorligini oshirishga erishishga qodir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, jangovar va jismoniy tayyorgarlik ma’naviy-ruhiy va jangovar sifatlar bilan birgalikda jangchining mahoratini ifodalovchi bilimlar, ko‘nikmalar va mahoratlar yig‘indisidan tarkib topadi.

Bilimlar – insonning sabab-oqibat aloqalarida va munosabatlarida aks ettirilgan predmetlar va hodisalar haqidagi ma’lumotlarning yig‘indisi. Bilimlarning aks etishi so‘zlarda, tushunchalarda, qonunlarda, nazariyalarda sodir bo‘ladi. Predmet va hodisalarning xususiyati va aloqasi quyidagi faoliyatlarda aniqlanadi: a) xususiyatlar namoyish etiladigan – predmetli; b) ushbu xususiyatlar idrok qilinadigan va keyin tasavvurlarda aks ettiriladigan – perseptiv; v) bu xususiyatlar tahlil etiladigan, taqqoslanadigan va umumlashtiriladigan – fikrlash; g) ular mustahkamlanadigan va mavhumlashtiriladigan (abstraktlanadigan) – nutq.

Professor-o‘qituvchilar, barcha toifadagi komandir va boshliqlar qo‘l ostidagi bo‘ysunuvchilarini o‘qitish va tarbiyalashda, bilish jarayonining psixik xususiyatlarini bilishi va hisobga olishi zarur. Ularni sanab o‘tamiz.

1. Axborotni qayta ishlash uni qabul qilib bo‘lgandan keyin emas, balki doim qabul qilish vaqtida amalga oshiriladi. Bunda har bir individ o‘zi uchun eng muhim narsani aniqlab oladi. Shuning uchun, o‘rganilayotgan obyekt yoki hodisalarni imkon

boricha ravshan, yaqqol ifodalash, ularning eng ahamiyatli jihatlarini ta’kidlab o‘tish, shuningdek, o‘quvchining tajribasi va mavjud bilimlarini hisobga olish kerak.

2. Individga xos bo‘lgan fikrlash turiga qarab, bilimlarni shakllantirish yoki aniq-amaliy–to‘g‘ri qaror topilgunicha obyektlarni solishtirish yo‘li bilan yoki mavhumiy-mantiqiy – vositalilik, mavhum, aqliy yo‘l bilan amalga oshiriladi. Bu individual xususiyatlarni hisobga olish lozim.

3. Bilimlar hosil bo‘lishiga olib keluvchi axborotni qayta ishlash jarayoni, nafaqat ongli, balki tushunib yetilmaydigan (fahmlanmaydigan) xarakterga ham ega.

Maqsadga muvofiq harakat hamda ishlar (ta’sirlar)ning bajarilishi va boshqarilishining qisman avtomatlashganligi psixologiyada ko‘nikma deb ataladi. Ko‘nikma inson ongini “qoralama ishlarni” nazorat qilishdan ozod qilib, asosiy narsaga diqqatni to‘plashga yordam beradi. Masalan, o‘t o‘chiruvchining ongi olov zudlik bilan bartaraf etishga jamlanadi, maxsus texnikalarni vazifalarni bajarishga yo‘naltirish bo‘yicha harakatlar esa, avtomatik (o‘z-o‘zidan) amalga oshiriladi. Bu bilan noqulay holatda harakatlarning barqarorligi, ularning rejaliligi va to‘g‘riligi ta’minlanadi.

Qaysi harakatlar avtomatlashishiga qarab, ko‘nikmalar turlari aniqlanadi:

- axborotni olish avtomatizmi (turli parametrlarni ko‘rib, eshitib,
tatib ko‘rib va h.k. aniqlash) bilan bog‘liq – sensorli;
- mushakli harakatlar avtomatizmi (qo‘l va oyoqlarning mashina
haydagan vaqtdagi, sport snaryadlarida jismoniy mashqlarni bajarayotgandagi ishi, musiqa asboblarida chalish) bilan bog‘liq – harakatlantiruvchi;
- aqliy (to‘g‘ri mo‘ljal bilan o‘q otishda nishon nuqtasini hisoblash,
mashina haydashda yo‘ldagi vaziyatlarni hal qilish va boshqalar).

Ko‘nikmalar hosil bo‘lishi uchun quyidagi shartlarga rioya qilish lozim:

- harakatlarni ko‘p marta ongli qaytarish;
- tashqaridan nazorat, yordam va to‘g‘rilash;
- o‘z xatolari, ularning sabablarini va bartaraf qilishni tushunish;
- harakatlar umumiy davomiyligini, yuklamalar sur’atlarini oshirish;
- mashqlarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish.

Murakkab nazariy va amaliy vazifalarni muvaffaqiyatli yechish uchun mavjud bilim va ko‘nikmalarni qo‘llay olish qobiliyati mahorat deb ataladi.

Mahoratlarni shakllantirish bir necha yo‘l bilan amalga oshirilishi mumkin:

birinchidan, bilim oluvchilarga zaruriy bilimlarni yetkazish va ularni qo‘llash bo‘yicha vazifalar qo‘yish yo‘li bilan (muammoli ta’lim);

ikkinchidan, tipik vazifani aniqlash va uni yechish uchun zarur operatsiyalarni belgilash yo‘li bilan (algoritmlashtirilgan ta’lim);

uchinchidan, qo‘yilgan vazifalarni yechish uchun olingan axborotni qayta ishlash va qo‘llash bo‘yicha bosqichma-bosqich psixik (ruhiy) faoliyat yo‘li bilan (aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish vositasidagi ta’lim).

Mahoratlar rivojlanishiga o‘rganilayotgan fanga qiziqishni shakllantirish, bajara oladigan vazifalar qo‘yish evaziga fikrlashni faollashtirish, ish jarayoniga qiziqtirishni qo‘llab-quvvatlash, ma’qullash, yaxshi sharoitlar yaratish yo‘li bilan amalga oshirish, qolish (shablon)lardan, soddalashtirishlardan, talabchanlikni bo‘shashtirishdan qochish va h.k. yordam beradi.

Ammo ta’limni tashkil etishda o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil qilishning o‘zi yetarli emas, bo‘ysunuvchilarning qobiliyatlarini ham hisobga olish zarur.

Inson psixikasining imkoniyatlari bitmas-tuganmas, uning qobiliyatlari kombinatsiyalari ham cheksizdir. Ammo bu bebaho in’om, iste’dodni qo‘llay bilish, o‘zimizga va boshqalarga uni ochish, rivojlantirishda yordam berishimiz zarur.

Inson imkoniyatlarini aniqlash uchun, uning qobiliyatlarini bilish muhim. To‘satdan tashkil bo‘lgan guruhda bo‘yi baland va past, semiz va ozg‘in odamlar bo‘lishi hech kimni hayron qoldirmaydi. Bunga hamma o‘rgangan – albatta, odamlar har xil. Psixik farqlar esa ko‘rinmaydi, garchi ular jismoniy farqlarga qaraganda, ancha katta bo‘lishi mumkin. Dastlabki bilim va mahoratlar tengligida, muvaffaqiyatga teng intilishda, birdan shu narsa oshkor bo‘ladiki, vazifalarni ba’zilar boshqalarga qaraganda tezroq va yaxshiroq uddalaydilar. Bu odamlarning individual-psixologik xususiyatlari sezilarli farqlarga egaligi bilan bog‘liq. Bunday farqlar qobiliyatlar deb ataladi.

Qobiliyatlar – bu faoliyatning qandaydir turida muvaffaqiyatni oldindan belgilovchi, insonning barqaror (turg‘un) psixologik xususiyatlari yig‘indisidir. Taniqli psixolog B.M.Teplov qobiliyatlarning uchta asosiy xarakteristikasini ajratadi:

birinchidan, bu bir insonni boshqasidan farqlovchi individual-psixologik xususiyatlar;

ikkinchidan, bu biror faoliyat bajarilishining muvaffaqiyatiga tegishli bo‘lgan, faqat shunday individual xususiyatlar;

uchinchidan, “qobiliyat” tushunchasi ushbu insonda hosil bo‘lgan bilimlar, ko‘nikmalar, mahoratlarga kelib taqalmaydi, ularni shakllantirish uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Qobiliyatlar individual usullarning yoki faoliyatning individual stilining o‘ziga xosligi va umumiy va maxsus xususiyatlarning nisbati bilan xarakterlanadi.

Umumiy qobiliyatlar rivojlanishi intellekt darajasi va inson xususiyatlariga bog‘liq. **Umumiy qobiliyatlar darajasiga ta’sir qiluvchi shaxsga xos xususiyatlar quyidagilar hisoblanadi:**

mehnatsevarlik va mehnatga qobiliyatlilik;

diqqatni jamlashga qobiliyatlilik va kuzatuvchanlik;

rivojlangan ijodiy fikrlash, aqlning moslashuvchanligi, murakkab vaziyatlarda yo‘nalishni aniqlashni bilish, adaptivlik, aqliy faoliyatning sermahsulligi.

Umumiy qobiliyatlar faoliyatning keng spektriga moyillik va bir faoliyat turidan ikkinchi faoliyat turiga o‘ta olish imkoniyatini belgilab berishi mumkin. Bundan tashqari, ular ma’lum faoliyat turiga (o‘qituvchilik, muhandislik, musiqiy va h.k.) kerak bo‘lgan maxsus qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ijtimoiy-psixologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bunda, shaxsdan har xil sifatlarni talab etuvchi vaziyatlarda, umumiy qobiliyatlar faoliyat samaradorligini aniqlaydi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, inson psixikasi juda nozik va e’tibor talab qiladi. Professor-o‘qituvchilar, komandirlar va boshliqlar tomonidan bo‘ysinuvchilarining bilim va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli va mahoratli o‘zlashtirishlarini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ysalar, tinglovchilarga individual psixologik yondashuvda bo‘lishlari, ularni muntazam o‘rganib borish, psixologik

xususiyatlarini hisobga olishlari, ularga imkon boricha temperamentiga muvofiq vazifa belgilashlari shuningdek lavozimlarga tayinlashda ularning psixologik xususiyatlarini inobatga olishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E. G‘oziev. «Umumiy psixologiya». T.: - 2010.
2. V. Karimova. «Психология». T.: – 2002.
3. E.A. Ergashev. “Shaxslararo muloqotning psixologik asoslari”. T.: – 2007.
4. F.A. Akramova. “Ijtimoiy psimxologiya” (o‘quv qo‘llanma). T.:-2007.
5. S.R. Kamolova. “Ijtimoiy psixologiya” (ma’ruzalar matni). T.:-2017.
6. Кураева-Пожарский «Психология человека» - 2002 г.
7. A.S. Nazarov. «Qaror qabul qilish boshqaruv faoliyatining psixologik mezoni sifatida». T.:-2020.
8. S.B. Kabulova. “Psixologiya fanida o‘quv motivatsiyalari va o‘qishga emotsional munosabatlarini o‘rganilish nazariyalari”.- UDU.:-2021.

HARBIY XIZMATCHILAR RUHIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Obloqulova Shohista Xaydar qizi
Jamoat xavfsizligi universiteti 70310301-Psixalogiya mutaxasisligi magistranti.
Shohistaobloqulova1@gmail.com +998779997521

Bugungi kunda mamlakat mudofaa qobiliyatini mustahkamlash va Qurolli Kuchlar jangovar shayligini oshirish masalalari faqatgina texnologik ustunlik yoki moddiy resurslar bilan emas, balki bevosita shaxsiy tarkibning ma’naviy-ruhiy salohiyati bilan belgilanmoqda. Davlatimiz mudofaa doktrinasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri — har qanday murakkab sharoitda o‘z burchini sadoqat bilan bajara oladigan, intellektual salohiyatli va ruhiy jihatdan chiniqqan harbiy xizmatchini shakllantirishdir. Zamonaviy

xizmat sharoitlari, jumladan, axborot oqimining jadalligi va kognitiv yuklamalarning ortishi, harbiy xizmatchi shaxsidan yuqori darajadagi rezilyentlikni psixologik egiluvchanlikni talab qilmoqda.

G‘arb psixologiyasida Martin Seligman tomonidan ilgari surilgan "ijobiy psixologiya" tamoyillari asosida harbiy xizmatchilarda barqarorlikni shakllantirish, ularni nafaqat stressdan himoya qilish, balki qiyinchiliklar orqali shaxsiy o'sishga yo'naltirish g'oyasi muhim o'rin tutadi. Rossiyalik tadqiqotchi V.V. Znamenskiy harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatidagi ruhiy turg'unlikni "psixologik tayyorgarlikning yuksak cho'qqisi" deb ta'riflaydi. Mahalliy olimlarimiz ham harbiy xizmatning o‘ziga xos ekstremal xususiyatlarini hisobga olib, ruhiy barqarorlikni ta’minlashni — harbiy intizom va jangovar ruhni saqlashning fundamental mexanizmi sifatida baholaydilar.

R. Lazarus va S. Folkmanning "kognitiv baholash" nazariyasiga ko'ra, harbiy xizmatchining stressli vaziyatga beradigan javobi uning ushbu xavfni qay darajada anglashiga bog'liq. Ya'ni, inson omili texnik qudratdan ustun turuvchi hal qiluvchi kuchga aylanadi. Rossiyalik harbiy psixolog A.G. Maklakov ta'kidlaganidek, harbiy xizmatchining "shaxsiy adaptiv salohiyati" uning jangovar harakatlar chog'ida o'z vazifasini yo'qotishlarsiz bajarishini kafolatlaydi. Shuningdek, mahalliy tadqiqotchilarimiz tomonidan harbiy xizmatchilarning ruhiy salomatligini saqlash milliy xavfsizlikning ajralmas qismi ekanligi, ayniqsa axborot xurujlari ko'paygan davrda bu masalaning dolzarbligi yanada ortayotgani e'tirof etilmoqda.

Harbiy xizmatchining ruhiy barqarorligini tizimli o‘rganishda rus harbiy psixologi A.G. Maklakov (2001) tomonidan ilgari surilgan "shaxsiy adaptiv salohiyat" konsepsiyasi asosiy metodologik manba bo‘lib xizmat qiladi. Muallif ushbu modelni uchta o‘zaro bog‘liq komponent orqali asoslab bergan:

1. Kognitiv komponent: Bu mexanizm harbiy xizmatchining axborotni qabul qilish, tahlil qilish va ekstremal sharoitda qaror qabul qilish tezligini belgilaydi. Olim J. Kellyning "shaxsiy konstruktlar" nazariyasi asosida yondashsak, barqaror harbiy xizmatchi noaniq vaziyatda ham voqelikni mantiqiy modelga sola oladi. Kognitiv barqarorlik "taktik tafakkur" bilan uzviy bog'liq bo'lib, u vahima va dezinformatsiya ta'sirini neytrallashga xizmat qiladi.

2. Emotsional-irodaviy komponent: u hissiyotlarni jilovlash va uzoq muddatli stressli yuklamalarga qarshi turish qobiliyatini o'z ichiga oladi. V.A. Ivannikov irodaviy tartibga solishni shaxsning o'z xatti-harakatlarini maqsadga muvofiq boshqarish mexanizmi deb hisoblaydi. Harbiy xizmatchi uchun bu nafaqat qo'rquvni yengish, balki "jangovar charchoq" holatida ham samaradorlikni saqlab qolishdir. Emotsional barqarorlik neyrotizm darajasining pastligi va impulsivlikning nazorat qilinishi bilan xarakterlanadi.

3. Motivatsion-qadriyatli komponent: Bu modelning eng yuqori va barqaror qismidir**.** A. Maslow va V. Frankl qarashlariga tayanib aytish mumkinki, inson o'z faoliyatida chuqur ma'no (masalan, Vatanni himoya qilish, burchga sadoqat, oila tinchligi) topsagina, uning ruhiy chidamliligi cheksiz darajaga ko'tariladi. Motivatsiya — bu ichki energiya manbai bo'lib, u kognitiv va emotsional resurslar tugagan pallada "zaxira mexanizmi" sifatida ishga tushadi. Harbiy jamoada shakllangan "biz" konsepsiyasi va jamoaviy qadriyatlar shaxsning individual barqarorligini bir necha barobar oshiradi.

Harbiy xizmatchining tashqi bosimlarga dosh berishi uning ichki psixologik himoya va boshqaruv mexanizmlari sifatiga bog‘liq. Bu jarayonda samoregulyatsiya (o‘z-o‘zini boshqarish) markaziy mexanizm hisoblanadi. Olim L.G. Dikaya tadqiqotlariga ko‘ra, samoregulyatsiya — bu shaxsning o‘z psixofiziologik holatini (hayajon, qo‘rquv, charchoq) ongli ravishda jilovlashi va ishchi holatga jamlash usullari orqali namoyon bo‘ladi. Ikkinchi muhim subyektiv mexanizm — lokus kontrol (nazorat lokusi) hisoblanadi. J. Rotter nazariyasiga ko‘ra, barqaror harbiy xizmatchilar asosan "ichki lokus kontrol"ga ega bo‘ladilar. Ya’ni, ular sodir bo‘layotgan voqealar va muvaffaqiyatlarni tashqi tasodiflarga emas, balki o‘z harakatlari va tayyorgarligiga bog‘laydilar. Bunday yondashuv ekstremal vaziyatlarda "qurbon" obrazidan chiqib, "faol ijrochi" sifatida harakat qilishga va ruhiy tushkunlikka tushmaslikka yordam beradi. Shuningdek, xavfni "hal qilinishi lozim bo‘lgan vazifa" sifatida ko‘rish shaxsning ichki barqarorlik mexanizmini mustahkamlovchi hal qiluvchi omildir.

Harbiy xizmatchining ruhiy barqarorligi faqatgina individual xususiyat emas, balki u xizmat qilayotgan muhit bilan deterministik bog‘liqlikdagi jarayondir. Ushbu tizimda

birinchi darajali obyektiv mexanizm — guruh koheziyasi - jamoaviy birdamlik hisoblanadi. Olim A.V. Petrovskiyning faoliyat vositachiligidagi shaxslararo munosabatlar nazariyasiga ko‘ra, umumiy ijtimoiy maqsad va qat’iy funksional bog‘liqlik mavjud jamoada "guruhli rezilyentlik" shakllanadi. Bunda jamoaviy ishonch va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash tizimi shaxsiy qo‘rquv va xavotirni kompensatsiya qiluvchi "psixologik bufer" vazifasini o‘taydi. Ya’ni, jamoaviy birdamlik harbiy xizmatchining stressli vaziyatdagi individual chidamlilik chegarasini kengaytiradi. Ikkinchi muhim mexanizm — komandirlik faoliyatining psixologik determinatsiyasidir. Harbiy rahbarning yetakchilik uslubi va u tomonidan o‘rnatilgan "vertikal" muloqot sifati shaxsiy tarkibning barqarorligiga bevosita ta’sir ko'rsatadi. Avtoritar, ammo adolatli va professional kompetent rahbar shaxsiy tarkibda "psixologik xavfsizlik" hissini uyg‘otadi. Aksincha, rahbarlik uslubidagi noaniqlik va muloqotdagi destruktivlik shaxsiy tarkibning ichki resurslarini so‘ndiruvchi qo‘shimcha stressorga aylanadi. Shuningdek, harbiy xizmatchining oilasi va yaqinlari bilan bo'lgan ijtimoiy aloqalari uning ruhiy reabilitatsiyasida "tashqi tayanch mexanizmi" bo'lib, xizmat yuklamalaridan keyin ruhiy muvozanatni tezroq tiklashga xizmat qiladi.

Xulosalar natijasi shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatchilarning ruhiy barqarorligi shunchaki tug‘ma xususiyat emas, balki ichki subyektiv resurslar va tashqi obyektiv omillardan iborat murakkab tizimdir. A.G. Maklakov nazariyasi asosida tahlil qilingan kognitiv, emotsional va motivatsion komponentlar ushbu tizimning fundamentini tashkil etib, harbiy xizmatchining ekstremal sharoitlarda o‘z funksional yaxlitligini saqlab qolishini kafolatlaydi. Ichki mexanizmlar hisoblangan samoregulyatsiya va lokus kontrol shaxsning stressli vaziyatlarda "faol subyekt" sifatida harakat qilishiga imkon bersa, tashqi mexanizmlar — guruh birdamligi va komandirning yetakchilik uslubi individual barqarorlikni jamoaviy chidamlilik darajasiga ko‘taradi. Zamonaviy bosqichda harbiy psixologiya xizmati oldida turgan dolzarb vazifa — an’anaviy metodlarni innovatsion texnologiyalar, xususan, VR-simulyatsiyalar va bioteskari aloqa metodikasi bilan uyg‘unlashtirishdir. Bu yondashuv harbiy xizmatchilarda "psixologik immunitet"ni shakllantirish barobarida, jangovar vazifalarni bajarishda inson omili bilan bog‘liq xatarlarni minimal darajaga tushirishga xizmat qiladi. Umumiy xulosa sifatida aytish

mumkinki, ruhiy barqarorlik mexanizmlarini tizimli takomillashtirish — Qurolli Kuchlarning strategik quvvatini va milliy xavfsizlik barqarorligini ta’minlashning eng samarali omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Beck, A. T. *Cognitive Therapy and the Emotional Disorders*. — New York: International Universities Press, 1976.
2. Lazarus, R. S., Folkman, S. *Stress, Appraisal, and Coping*. — New York: Springer Publishing Company, 1984
3. Maklakov, A. G. *Obshaya psixologiya: Uchebnik dlya vuzov*. — SPb.: Piter, 2001.
4. Petrovskiy, A. V. *Psixologiya i vremya*. — M.: Piter, 2007. (
5. Rotter, J. B. *Generalized expectancies for internal versus external control of reinforcement*. — Psychological Monographs, 1966.
6. Seligman, M. E. P. *Building Resilience*. — Harvard Business Review, 2011.

TALABALARDA IJTIMOIY TA’SIR OSTIDA IRODAVIY SIFATLAR VA EMOTSIONAL INTELLEKTNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

Odiljonova Xolbuvi Zokirjon qizi

JDPU psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Odiljonovaxolida36@gmail.com

Anotatsiya: Mazkur maqolada talabalar shaxsining irodaviy sifatlari va emotsional intellekti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ijtimoiy ta’sir kontekstida tahlil qilinadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy ta’lim muhitida talabalar turli ijtimoiy guruhlar (do‘stlar, akademik jamoa, oila, ijtimoiy tarmoqlar) ta’siri ostida qaror qabul qiladi, maqsad qo‘yadi va o‘z hissiyotlarini boshqaradi. Irodaviy sifatlar shaxsning maqsadga intilishi, qat’iyligi va o‘zini boshqarish qobiliyatini ifodalasa, emotsional intellekt hissiy anglash, boshqarish va boshqalar bilan samarali munosabat o‘rnatish imkonini beradi. Tadqiqotda ushbu ikki psixologik konstruktning o‘zaro bog‘liqligi hamda ijtimoiy ta’sir darajasi bilan munosabati korrelyatsion tahlil asosida o‘rganiladi.

Olingan natijalar talabalarda ijtimoiy muhitning irodaviy barqarorlik va emotsional boshqaruvga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini aniqlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari oliy ta’lim muassasalarida psixologik trening va rivojlantiruvchi dasturlarni takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Irodaviy sifatlar, emotsional intellekt, ijtimoiy ta’sir, talaba shaxsi, o‘zini boshqarish, ijtimoiy muhit, hissiy barqarorlik, shaxs rivoji, korrelyatsion tadqiqot, ijtimoiy psixologiya.

ВЗАИМОСВЯЗЬ ВОЛЕВЫХ КАЧЕСТВ И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА ПОД ВЛИЯНИЕМ СОЦИАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ

Одилжонова Холбуви Зокиржон кизи

ЖДПУ преподаватель кафедры психологии

Odiljonovaxolida36@gmail.com

Аннотация. В данной статье анализируется взаимосвязь волевых качеств личности и эмоционального интеллекта студентов в условиях социального влияния. Актуальность исследования обусловлена тем, что в современной образовательной среде студенты принимают решения, ставят цели и регулируют свое поведение под воздействием различных социальных групп (друзья, академическое сообщество, семья, социальные сети). Волевые качества отражают способность личности к целенаправленной деятельности, саморегуляции и настойчивости, тогда как эмоциональный интеллект обеспечивает осознание, понимание и управление собственными эмоциями, а также эффективное взаимодействие с окружающими. В исследовании предполагается выявление корреляционной взаимосвязи между указанными психологическими конструкциями и уровнем социального влияния. Полученные результаты могут способствовать совершенствованию психологических тренингов и программ развития личности в высших учебных заведениях.

Ключевые слова. волевые качества, эмоциональный интеллект, социальное влияние, личность студента, саморегуляция, социальная среда, эмоциональная

устойчивость, развитие личности, корреляционное исследование, социальная психология.

Kirish: Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida shaxs rivoji masalasi psixologiya fanining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan talabalar turli ijtimoiy ta’sirlar – akademik muhit, tengdoshlar guruhi, oila, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar bosimi ostida shakllanmoqda. Bunday murakkab ijtimoiy muhitda shaxsning barqarorligi, ongli qaror qabul qilishi va maqsadga yo‘naltirilgan faoliyati ko‘p jihatdan uning irodaviy sifatlari hamda emotsional intellekti darajasiga bog‘liqdir.

Irodaviy sifatlar shaxsning ongli ravishda maqsad qo‘yish, to‘siqlarni yengish, qat’iyatlilik ko‘rsatish va o‘z xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyatini ifodalaydi. Emotsional intellekt esa o‘z va boshqalarning hissiyotlarini anglash, boshqarish hamda ijtimoiy munosabatlarda samarali muloqot o‘rnatish imkonini beruvchi integrativ psixologik konstrukt sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu ikki sifat talaba shaxsining ijtimoiy moslashuvi, akademik muvaffaqiyati va psixologik farovonligida muhim omil hisoblanadi.

Ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan qaralganda, shaxs xulq-atvori va qaror qabul qilish jarayonlari ko‘pincha guruh bosimi, ijtimoiy norma va qadriyatlar ta’sirida shakllanadi. Shu bois, ijtimoiy ta’sir ostida irodaviy sifatlar va emotsional intellektning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Bu bog‘liqlikni o‘rganish talabalar orasida psixologik barqarorlikni mustahkamlash, stressga chidamlilikni oshirish hamda konstruktiv ijtimoiy xulq-atvorni shakllantirishga xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy adabiyotlarda irodaviy sifatlar va emotsional intellekt alohida-alohida o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning aynan ijtimoiy ta’sir kontekstidagi o‘zaro aloqadorligi yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan. Ayniqsa, talabalar muhitida ushbu masalaning empirik jihatdan o‘rganilishi dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘ladi.

Shaxsning irodaviy sifatlari va emotsional intellekti o‘rtasidagi bog‘liqlik masalasi psixologiya fanida bevosita bir konstrukt doirasida emas, balki o‘zini boshqarish,

motivatsiya va ijtimoiy moslashuv nazariyalari kesishgan nuqtada o‘rganilgan. Jahon psixologiya ilmida emotsional intellekt tushunchasi dastlab ilmiy asoslangan model sifatida Mayer va Salovey tomonidan ishlab chiqilgan. Ular emotsional intellektni hissiyotlarni aniqlash, tushunish, boshqarish va ulardan fikrlash jarayonida foydalanish qobiliyati sifatida talqin qilgan. Mazkur modelga ko‘ra, hissiy boshqaruv komponenti shaxsning o‘z xulq-atvorini ongli ravishda tartibga solishi bilan chambarchas bog‘liqdir.
Keyinchalik Daniel Goleman emotsional intellekt konsepsiyasini ijtimoiy va kasbiy muvaffaqiyat bilan bog‘lab, uning tarkibiga o‘zini boshqarish, ichki motivatsiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni kiritdi. Golemanning fikricha, aynan o‘zini boshqarish va motivatsiya komponentlari irodaviy sifatlar bilan kesishadi, chunki ular maqsadga erishishda qat’iyatlilik va hissiy barqarorlikni ta’minlaydi. Bu yondashuv ijtimoiy ta’sir sharoitida shaxsning ichki resurslari qanday safarbar etilishini tushuntirishga imkon beradi.

Irodaviy boshqaruv va o‘zini tartibga solish masalalari Roy Baumeister tadqiqotlarida keng yoritilgan. U o‘zini nazorat qilishni cheklangan, ammo rivojlantirilishi mumkin bo‘lgan psixologik resurs sifatida ko‘rsatadi. Baumeisterga ko‘ra, shaxs ijtimoiy bosim yoki stress vaziyatida aynan o‘zini boshqarish mexanizmlari orqali xulqini tartibga soladi. Bu jarayonda emotsional barqarorlik muhim omil bo‘lib, hissiyotlarni nazorat qila olish irodaviy qarorlarning sifatiga ta’sir ko‘rsatadi.
Albert Bandura ijtimoiy-kognitiv nazariyasida shaxs xulq-atvorini ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sirda tushuntiradi. Uning o‘z-o‘ziga ishonch (self-efficacy) konsepsiyasi irodaviy sifatlar bilan bevosita bog‘liqdir. Banduraning ta’kidlashicha, shaxsning o‘z imkoniyatlariga ishonchi yuqori bo‘lsa, u ijtimoiy ta’sirlarga nisbatan barqarorroq bo‘ladi va o‘z hissiyotlarini boshqarishda samaraliroq natija ko‘rsatadi. Bu esa emotsional intellekt darajasi bilan uyg‘unlashadi.

Walter Mischelning mashhur “kechiktirilgan mukofot” tajribalari ham irodaviy boshqaruv va hissiy nazoratning uzviy bog‘liqligini ko‘rsatdi. Uzoq muddatli maqsadni qisqa muddatli istaklardan ustun qo‘yish qobiliyati nafaqat irodaviy kuch, balki emotsional nazorat darajasiga ham bog‘liq ekanligi empirik jihatdan isbotlangan.

Talabalar muhitida olib borilgan zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekti yuqori bo‘lgan talabalar ijtimoiy bosim va akademik stress sharoitida o‘zini samaraliroq boshqaradi. Shu bilan birga, o‘zini boshqarish strategiyalari rivojlangan talabalar tengdoshlar ta’siriga kamroq beriladi va mustaqil qaror qabul qilishga moyil bo‘ladi. Bu natijalar irodaviy sifatlar va emotsional intellekt o‘rtasida o‘zaro mustahkamlovchi bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, xorijiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekt va irodaviy sifatlar alohida konstruktlar sifatida o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularni birlashtiruvchi asosiy mexanizm o‘zini boshqarish jarayonidir. Ijtimoiy ta’sir sharoitida aynan shu mexanizm shaxsning barqarorligi, qaror qabul qilish sifati va ijtimoiy moslashuv darajasini belgilaydi. Mazkur ilmiy xulosalar talabalar orasida irodaviy va emotsional kompetensiyalarni kompleks o‘rganish zarurligini asoslaydi.

O‘zbekiston psixologiya ilmida emotsional intellekt, ijtimoiy moslashuv va o‘zini boshqarish masalalari so‘nggi yillarda faol o‘rganilmoqda. Garchi irodaviy sifatlar va emotsional intellektning aynan ijtimoiy ta’sir kontekstidagi o‘zaro bog‘liqligi maxsus kompleks tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada yoritilmagan bo‘lsa-da, ushbu muammoga yaqin bo‘lgan ilmiy izlanishlar mavjud.

B.N. Turakulov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda talabalar emotsional intellektining individual-tipik xususiyatlari tahlil qilingan. Olim emotsional intellektning strukturaviy komponentlarini ajratib ko‘rsatib, ularning shaxsning ijtimoiy munosabatlari va akademik faoliyatidagi namoyon bo‘lishini asoslab beradi. Uning fikricha, emotsional anglash va hissiy boshqaruv darajasi yuqori bo‘lgan talabalar ijtimoiy muhitga tezroq moslashadi va murakkab vaziyatlarda barqaror qaror qabul qiladi. Bu yondashuv irodaviy boshqaruv va emotsional nazorat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tushuntirish uchun nazariy asos bo‘la oladi.

Barno Rustamova o‘z tadqiqotlarida talabalarda emotsional intellektni boshqarishning ijtimoiy-psixologik usullarini o‘rgangan. U emotsional kompetentlikni rivojlantirish orqali shaxsning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ faolligi oshishini ta’kidlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, hissiy boshqaruv ko‘nikmalari

rivojlangan talabalar ijtimoiy ta’sirlarga nisbatan ongliroq va mustaqilroq munosabat bildiradi. Bu esa irodaviy sifatlar bilan kesishuvchi jihatdir.

Sayitova U.H. va Yusupova R.N. talabalar emotsional intellektining ijtimoiy-psixologik asoslarini o‘rganib, uning ijtimoiy xulq-atvorga ta’sirini tahlil qilganlar. Ularning ilmiy xulosalariga ko‘ra, emotsional intellekt darajasi yuqori bo‘lgan shaxslar guruh bosimi va ijtimoiy stereotiplarga kamroq beriladi hamda konstruktiv xulq-atvorni namoyon etadi. Bu natijalar ijtimoiy ta’sir sharoitida irodaviy barqarorlikni tushuntirishga yordam beradi.

Xoshimjonova Muslima va Kamoldinova Diyora tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda talabalar stress darajasi va emotsional intellekt o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlangan. Mualliflar emotsional intellekt yuqori bo‘lgan talabalarda stressga chidamlilik va o‘zini boshqarish ko‘rsatkichlari yuqori ekanligini empirik jihatdan asoslaganlar. Stressga qarshi kurashish mexanizmlari esa irodaviy sifatlar bilan bevosita bog‘liqdir.

Shuningdek, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida talabalar ijtimoiy moslashuvi, o‘zini boshqarish va emotsional kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan bir qator ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Bu ishlar shuni ko‘rsatadiki, talabalar shaxsining ijtimoiy muhitga moslashuvi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ko‘p jihatdan hissiy barqarorlik va o‘zini nazorat qilish darajasiga bog‘liq.

Umuman olganda, O‘zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar emotsional intellekt va ijtimoiy moslashuv masalalarini faol yoritgan bo‘lsa-da, irodaviy sifatlar bilan kompleks integratsiyada, ayniqsa ijtimoiy ta’sir omillari fonida o‘rganish dolzarb ilmiy yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Shu jihatdan mazkur tadqiqot talaba shaxsida irodaviy sifatlar va emotsional intellektning o‘zaro bog‘liqligini ijtimoiy kontekstda kompleks tahlil qilishga qaratilgani bilan ilmiy yangilik kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida Jizzax Oliy ta’lim muassasalari talabalari orasida irodaviy sifatlar va emotsional intellekt o‘rganildi. Irodaviy sifatlarni aniqlash uchun shaxsning qat’iylik va o‘zini boshqarish ko‘rsatkichlarini o‘lchovchi psixologik metodikadan foydalangan bo‘lsak, emotsional intellektni baholash uchun D. Lyusinaning hissiy

intellekt testi qo‘llanildi. Shu bilan birga, talabalarning ijtimoiy ta’sir ostida qaror qabul qilish va hissiyotlarni boshqarish qobiliyati kuzatildi.

Empirik natijalar shuni ko‘rsatdiki, **hissiy intellekt testi bo‘yicha yuqori natijaga ega bo‘lgan talabalarda irodaviy sifatlar ham yuqori darajada namoyon bo‘ladi**. Ayniqsa, tuyg‘ularini boshqarish shkalasi yuqori bo‘lgan respondentlar qat’iyatlilik, maqsadga yo‘naltirilganlik va o‘zini boshqarish kabi irodaviy xususiyatlarda sezilarli ko‘rsatkichlarni namoyon qilgan.

Statistik tahlil natijalari:

- Pearson korrelyatsiya koeffitsienti hisoblanganida, **tuyg‘ularni boshqarish shkalasi va irodaviy sifatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik r = 0,68** ($p < 0,01$) darajasida yuqori deb topildi. Bu shuni anglatadiki, hissiy barqarorlik qanchalik yuqori bo‘lsa, qat’iyatlilik va o‘zini boshqarish darajasi ham shuncha yuqori bo‘ladi.
- O‘rtacha qiymatlar solishtirilganda, yuqori hissiy intellekt guruhi talabalarda irodaviy sifatlarning o‘rtacha ko‘rsatkichlari past guruhga nisbatan sezilarli darajada yuqoriligi aniqlangan (Myu = 4,2 vs 3,1; $p < 0,05$).
- Dispersiya tahlili (ANOVA) natijalari ham hissiy intellekt darajasi va irodaviy sifatlar orasidagi farqning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini tasdiqladi.

Ushbu natijalar shuni ko‘rsatadiki, **talabalar ijtimoiy ta’sir ostida qaror qabul qilganda yoki muammoli vaziyatlarga duch kelganda tuyg‘ularini boshqarish darajasi ularning irodaviy barqarorligi bilan uzviy bog‘liq**. Shu bilan birga, emotsional intellektni rivojlantirish irodaviy sifatlarni mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin.

Xulosa

Ushbu tadqiqot ijtimoiy ta’sir sharoitida talabalar irodaviy sifatlari va emotsional intellekti o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashga qaratildi. Nazariy va empirik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, emotsional intellekt darajasi yuqori bo‘lgan talabalarda irodaviy sifatlar, jumladan qat’iyatlilik, o‘zini boshqarish va maqsadga yo‘naltirilganlik yuqori darajada namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, tuyg‘ularni boshqarish ko‘nikmalari irodaviy barqarorlik bilan bevosita bog‘liq ekanligi statistik jihatdan tasdiqlandi ($r = 0,68$; $p < 0,01$).

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy ta’sir ostida shaxsning hissiy barqarorligi uning irodaviy xatti-harakatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa talabalar shaxsini kompleks psixologik rivojlantirish va ijtimoiy muhitga moslashuvini oshirishda emotsional intellektni rivojlantirish muhim vosita ekanligini isbotlaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida olib borilgan tadqiqotlar bilan solishtirganda, ushbu ish ilmiy yangilik sifatida irodaviy sifatlar va emotsional intellektning aynan **ijtimoiy ta’sir kontekstida** o‘zaro bog‘liqligini empiric jihatdan aniqlagan birinchi ishlar qatoriga kiradi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki:

1. Talabalarni emotsional intellektini rivojlantirish orqali ularning irodaviy barqarorligini oshirish mumkin.
2. Ijtimoiy ta’sir va guruh bosimi sharoitida shaxsning qaror qabul qilish jarayonini yaxshilash uchun hissiy boshqaruv ko‘nikmalarini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.
3. Kelgusidagi tadqiqotlarda irodaviy sifatlar va emotsional intellektni rivojlantirishning amaliy strategiyalari ishlab chiqilishi, shuningdek, ijtimoiy-psixologik treninglar orqali talabalarning barqaror psixologik holatini oshirish istiqbollari mavjud.

Shu asosda, tadqiqot **nazariy va amaliy jihatdan talaba shaxsini kompleks rivojlantirish, ijtimoiy moslashuv va hissiy barqarorlikni oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy manba** bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Faiz Solehria T., Ahmad S.M. Emotional Intelligence and Emotional Self-Regulation: A Qualitative Case Study of Undergraduate University Students in Peshawar // Qlantic Journal of Social Sciences. – 2023. – DOI: 10.55737/qjss.993100318

2. Musaeва A. Воздействие на мотивацию и эмоциональный интеллект в процессе обучения // Modern Science and Research. – 2025.

3. Sambol S., Suleyman E., Ball M. The roles of ability emotional intelligence in predicting affective decision-making // BMC Psychology. – 2025. – DOI: 10.1186/s40359-025-02779-w

4. Tekhteleva N.V., Menzul E.V. Взаимосвязь индивидуально-психологических характеристик личности и уровня развития эмоционального интеллекта // International Research Journal. – 2025. – № 7 (157). – DOI: 10.60797/IRJ.2025.157.64

5. Trait Emotional Intelligence and Self-Regulated Learning in University Students during the COVID-19 Pandemic: The Mediation Role of Intolerance of Uncertainty and COVID-19 Perceived Stress // Personality and Individual Differences. – 2022. – DOI: 10.1016/j.paid.2022.111999

6. The Effect of Emotional Intelligence on Academic Performance with the Mediating Role of Academic Self-Regulation: Evidence from College Students // Discover Education. – 2025.

7. Tursunkulova Sh. Развитие эмоционального интеллекта студентов в условиях психолого-педагогического сопровождения // Journal of International Scientific Research. – 2025.

8. Yuldashev Sh.E., Ilaeva R.A. Влияние эмоционального интеллекта на стратегии совладания // Российский психологический журнал. – 2025.

HARBIY PSIXOLOGIYA FANINING GENEZISI: BUGUNGI HOLATI VA ISTIQBOLI

Maxmudov Rozmet Muratovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti professori,
pedagogika fanlari doktori, professor.
Tel: +998 99 821 66 95

Annotatsiya: maqolada harbiy psixologiya fanining genezisi – qadimiy empirik tajribalardan ilmiy-metodologik tizimga o‘tish jarayoni – chuqur tahlil etiladi. Sun Tszu, Amir Temur, Nikkolo Makiavelli kabi mutafakkirlarning ruhiy kuch va psixologik urush g‘oyalaridan boshlab, XIX asr Rossiya olimlari va XX asr jahon tajribasi orqali fanning shakllanishini genezisi ko‘rib chiqildi. O‘zbekistonda A.Temur merosi, sovet davri Turkiston okrugi tajribasi va mustaqillik yillaridagi islohotlar, xususan, “Psixologiya (harbiy psixologiya)” yo‘nalishining ochilishiga to‘xtaladi. Bugungi holatda global miqyosda harbiy xizmatchilar orasidagi ruhiy buzilishlar 15-20% ga yetgani, O‘zbekistonda esa psixologik monitoring, 1+3 malaka oshirish tizimi va 2023-2024 yillardagi Toshkent konferensiyalari muhokama qilinadi. Istiqbolda sun’iy intelekt, virtual reallik simulyatorlari, neyrotexnologiyalar va gibrid tahdidlarga qarshi info-psixologik mudofaa markaziy o‘rin tutishi, milliy model – A. Temur “ruhiy kuch”i bilan zamonaviy resiliens dasturlarining sintezi asosida rivojlanishi ko‘rsatiladi. Maqola harbiy psixologiyani rivojlantirishning nazariy asoslarini boyitadi va amaliyotga yo‘naltirilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy psixologiya, genezis, ruhiy kuch, stressga chidamlilik, Temur merosi, VR simulyatorlari, gibrid urush.

Аннотация: в статье глубоко анализируется генезис военной психологии - процесс перехода от древнего эмпирического опыта к научно-методологической системе. Рассмотрен генезис формирования науки, начиная с идей духовной силы и психологической войны таких мыслителей, как Сунь Цзу, Амир Темур, Никколо Макиавелли, через российских ученых XIX века и мировой опыт XX века. Он останавливается на наследии А.Темура в Узбекистане, опыте Туркестанского

округа в советский период и реформах в годы независимости, в частности, на открытии направления "Психология (военная психология)." В настоящее время психические расстройства среди военнослужащих в глобальном масштабе достигли 15-20%, в то время как в Узбекистане обсуждаются психологический мониторинг, система повышения квалификации 1+3 и Ташкентские конференции на 2023-2024 годы. Показано, что в перспективе искусственный интеллект, симуляторы виртуальной реальности, нейротехнологии и инфо-психологическая защита от гибридных угроз будут играть центральную роль, будут развиваться на основе синтеза современных программ резистентности с национальной моделью - "духовной силой" А. Темура. Статья обогащает теоретические основы развития военной психологии и ориентирована на практику.

Ключевые слова: военная психология, генезис, сила духа, стрессоустойчивость, наследие Тимура, VR-симуляторы, гибридная война.

Abstract: the article deeply analyzes the genesis of military psychology - the process of transitioning from ancient empirical experience to a scientific-methodological system. The genesis of the formation of science, starting with the ideas of spiritual strength and psychological warfare of thinkers such as Sun Tzu, Amir Temur, Niccolò Machiavelli, through Russian scientists of the 19th century and world experience of the 20th century, is considered. He focuses on A.Temur's legacy in Uzbekistan, the experience of the Turkestan district during the Soviet period, and the reforms during the years of independence, particularly the opening of the "Psychology (Military Psychology) " direction. Currently, mental disorders among military personnel worldwide have reached 15-20%, while in Uzbekistan, psychological monitoring, the 1+3 professional development system, and Tashkent conferences for 2023-2024 are being discussed. It has been shown that in the future, artificial intelligence, virtual reality simulators, neurotechnologies, and info-psychological protection against hybrid threats will play a central role, developing based on the synthesis of modern resistance programs with the national model - A. Temur's "spiritual strength." The article enriches the theoretical foundations of military psychology development and is oriented towards practice.

Keywords: military psychology, genesis, strength of spirit, stress resistance, Timur's legacy, VR simulators, hybrid war.

Harbiy psixologiya fani zamonaviy harbiy harakatlarning murakkabligi, gibrid tahdidlarning kuchayishi va harbiy xizmatchilarning ruhiy salomatligini saqlash zarurati sharoitida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Inson omili har qanday qurol va texnikadan ustun bo‘lib qolayotgan bugungi kunda, jangovar sharoitdagi motivatsiya, stressga chidamlilik va jamoaviy dinamika masalalari nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarbdir[5]. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari oldida turgan vazifalar – vatanparvarlik tarbiyasi, jangovar tayyorgarlik va psixologik mudofaa – milliy an’analar bilan zamonaviy yondashuvlarni birlashtirishni talab qiladi. Bu jarayonda Amir Temurning “tuzuklari”da ifodalangan “ruhiy kuch” tushunchasi, askarlarning vatanparvarligi, jamoaviy birdamligi va rahbarning shaxsiy namunasi orqali g‘alaba ta’minlash g‘oyasi zamonaviy harbiy psixologiyaning asosiy tayanchiga aylanishi mumkin. Muammoning dolzarbligi shundaki, 2020-2025 yillarda global mojarolar (masalan, Ukraina voqealari) harbiy xizmatchilar orasida post travmatik stress buzilish ko‘rsatkichlarining ikki baravar oshganini ko‘rsatdi, O‘zbekistonda esa yangi harbiy psixologiya ta’lim yo‘nalishining joriy etilishi bu muammolarni hal qilishga yo‘l ochmoqda.

Harbiy psixologiya fanining genezisi insoniyatning urush tajribasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, falsafiy mulohazalardan empirik kuzatishlarga, keyin esa ilmiy-metodologik tizimga o‘tishni o‘z ichiga oladi. Qadimiy davrda Sun Tszuning “Urush san’ati” asarida dushman ruhiyatini sindirish, qo‘rquvni kuchaytirish va o‘z askarlarining motivatsiyasini oshirish usullari batafsil tavsiflangan bo‘lib, bu yondashuv psixologik ustunlikka asoslangan edi. Qadimgi Yunonistonda Ksenofont va Gerodot jangchilarning qo‘rquv, g‘azab va jasorat psixologiyasini tahlil qilgan, Rim imperiyasida Yuliy Sezar dezinformatsiya va vahima tarqatish taktikasidan foydalangan[6]. O‘zbekiston hududida Amir Temur harbiy strategiyasida “ruhiy kuch” (moral spirit) markaziy o‘rin tutgan: askarlarning vatanparvarligi, jamoaviy birdamligi va rahbarning shaxsiy namunasi orqali g‘alaba ta’minlangan. “Temur Tuzuklar”ida askar ruhiyatini saqlash,

[5] Караяни А.Г. Военная психология в боевых условиях. Москва, 2022. С. 317.
[6] “History of military psychology” // PubMed, 2018. DOI: 10.1037/mil0000230.

qo‘rquvni bartaraf etish va jamoa psixologiyasini boshqarish haqidagi mulohazalar zamonaviy harbiy psixologiyaning proto-asoslari hisoblanadi. O‘rta asrlarda Chingizxon psixologik urushda mish-mishlar va ko‘rsatkichlardan foydalangan, Yevropada Makiavelli rahbarning psixologik ta’sirini ta’kidlagan. Bu davrda harbiy psixologiya hali mustaqil fan emas, balki harbiy taktika va falsafaning bir qismi edi. XIX asrda umumiy psixologiyaning rivoji (Sechenov va Bexterev) harbiy psixologiyani ilmiy yo‘nalishga aylantirdi[7]. Rossiya imperiyasida Dragomirov, Butovskiy va Svechin askarlarning jangovar faoliyatidagi ruhiy holatni o‘rgangan, bu empirik dalillar to‘plash bosqichini boshlagan. XX asrda Birinchi va Ikkinchi Jahon urushlari fanning rasmiy fan sifatida yuzaga kelishiga olib keldi: Mers “shell-shock” tushunchasini joriy etdi, R.M.Yerkes «Army Alpha va Beta» testlarini ishlab chiqib, 1,7 million askarni sinovdan o‘tkazdi[8]. Sovet Ittifoqida A.N.Leontevning faoliyat nazariyasi va M.I.Dyachenkoning jangovar motivasiya tizimi harbiy psixologiyani boyitdi[9]. A.Temur davridan keyin Rossiya va ittifoq ta’siri ostida rivojlangan bu fan mustaqillikdan so‘ng Qurolli Kuchlar Akademiyasida mustahkam o‘rin egalladi.

Hozirgi vaqtda harbiy psixologiya jangovar tayyorgarlik, ruhiy salomatlik va psixologik mudofaa masalalarini qamrab olgan holda global va milliy strategik ahamiyatga ega. 2023–2025 yillardagi tadqiqotlar (APA va DoD hisobotlari) shuni ko‘rsatadiki, harbiy xizmatchilar orasida ruhiy buzilishlar 15-20% ga yetgan, post travmatik stress buzilish ko‘rsatkichlari ikki baravar oshgan. AQShda Mindfulness-Based Attention Training (MBAT) va Peak Mind dasturlari jismoniy tayyorgarlikni 20–30% oshirgan bo‘lsa, NATO mamlakatlarida psixologik tanlov va gibrid urushdagi axborot-psixologik ta’sir markaziy o‘rin tutmoqda. Rossiya va post-sovet hududlarida “moral-psixologik holat” tushunchasi axloqiy-siyosiy, axloqiy-psixologik va harbiy-kasbiy komponentlardan iborat bo‘lib, 2023-yilda o‘tkazilgan xalqaro konferensiyalarda muhokama qilindi. O‘zbekistonda 2023-yildan Qurolli Kuchlar Akademiyasida “Psixologiya (harbiy psixolog)” yo‘nalishi ochilib, 2 yillik bakalavr dasturi joriy etildi, Mudofaa vazirligi psixologlari 320 soatlik 1+3 formula (klinik psixologiya + sotsiologiya

[7]Дяченко М.И. Военная психология. М.: Воэниздать, 1985. – 320 с.
[8] Yerkes R.M. Psychological examining in the United States Army. Washington, 1921.; Mers Ch.S. Shell shock in France 1914–1918. Cambridge, 1940.
[9]Леонтев А.Н. Деятельность, сознаниэ, личность. М.: Политиздать, 1975. -304 с.

+ paramedik) bo‘yicha malaka oshirish kurslarini o‘tamoqda[10]. 2023-yil may va 2024-yil 18 maydagi Toshkent konferensiyalarida harbiy jamoa psixologiyasi, ekstremal sharoitlarda asab-psixik barqarorlik, A.Temur merosiga asoslangan vatanparvarlik tarbiyasi va gibrid tahdidlarda axborot -psixologik mudofaa masalalari muhokama etildi. Hozirgi amaliyotda psixologik xonalar, ekspress-psixoterapiya va professional tanlov testlari qo‘llanilmoqda, ammo stigma (yordam so‘rashdan qo‘rqish – 38%), kadrlar yetishmasligi va dronlar, kibertahdidlar kabi yangi stress turlari muammolarini keltirib chiqarmoqda. Kasbiy psixologiya va harbiy pedagogika sohasidagi 2020-2025-yillardagi o‘zgarishlar – SI yordamida tanlov, VR simulyatorlari orqali tayyorgarlik va kompetensiya asosidagi o‘quv dasturlari – harbiy xizmatchilarning adaptasiyasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Harbiy psixologiya fanining istiqboli 2030–2050 yillarga qaratilgan bo‘lib, texnologik inqilob (SI, VR, neyrotexnologiyalar) va gibrid urush sharoitida psixologik mudofaani kuchaytirishga asoslanadi. Global miqyosda VR/AR simulyatorlari jangovar stressni xavfsiz modellashtiradi, Peak Mind dasturi kengaytirilmoqda, SI real-time ruhiy holatni monitoring qiladi. Ruhiy salomatlik innovasiyalari orasida MDMA/psilotsibin terapiyasi (Psilotsibin-moddalarini klinik sharoitda,) post travmatik stress buzilish (PTSD) uchun sinovdan o‘tkazilmoqda, mindfulness va kognitiv resiliens dasturlari majburiy bo‘ladi. Psixologik urush va mudofaa gibrid tahdidlarda (kiber, dezinformasiya) markaziy o‘rin egallaydi, neyrotex (beyn-kompyuter interfeyslari) rahbar qarorlarini tezlashtiradi. O‘zbekistonda Qurolli Kuchlar tizimida 2025–2030 yillarda magistratura va doktorantura ochilishi kutilmoqda, milliy VR-poligonlar yaratish, “Harbiy psixolog” mutaxassisligini kengaytirish, 1+3 tizimini rivojlantirish va yoshlar orasida harbiy-kasbiy motivasiyani oshirish dasturlari taklif etilmoqda. 2030 yilga kelib O‘zbekiston Markaziy Osiyo yetakchisiga aylanishi mumkin, ammo etik muammolar (SI manipulyatsiyasi), kadrlar tayyorgarligi va moliyalashtirish xatarlari mavjud. Ushbu istiqbollar harbiy psixologiyani “inson + texnologiya” sinteziga va milliy xavfsizlikning asosiy tarkibiy qismiga aylantiradi.

[10] “Harbiy psixologiya: zamonaviy yondashuvlar, muammolar va takliflar” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand, 2024. – 424 bet.

Harbiy psixologiyaning rivojlanish bosqichlarini taqqoslash orqali tahlil qilinib, 2020-2025 yillardagi zamonaviy talablarni hisobga olgan holda harbiy amaliyotdagi ahamiyati yoritilgan. Jadvalda har bir bosqichning asosiy psixologik omillari, yetakchi shaxslar, amaliy misollar va integrasiya istiqbollari ko‘rsatilgan bo‘lib, bu tahlil fanning tarixiy ildizlarini zamonaviy texnologik yondashuvlar bilan bog‘lash imkonini beradi.

1-jadval

Harbiy psixologiyaning rivojlanish bosqichlari: qiyosiy tahlil (2020-2025 tadqiqotlariga asoslangan)

Bosqich	**Asosiy psixologik omillar**	**Yetakchi olimlar/ komandirlar**	**Amaliy misollar (real)**	**Qurolli Kuchlar uchun ahamiyati (2020-2025)**
Qadimiy (mil.avv. – XV asr)	Ruhiy kuch, motivatsiya, psixologik urush	Sun Tszu, Amir Temur, Makiavelli	Temur yurishlarida jamoa birdamligi, vahima tarqatish	Temur merosini vatanparvarlik dasturlariga integratsiya
XIX asr	Empirik faktlar to‘plash, intizom psixologiyasi	Dragomirov, Sechenov, Bexterev	Rossiya armiyasida qo‘rquvni yengish tahlillari	Sovet merosini zamonaviy intizom tizimlariga moslashtirish
XX asr	Institutsionalizatsiya, travma va testlar	Yerkes, Mers, Leontiev, Dyachenko	WWI shell shock terapiyasi, WWII OSS baholashlari	PTSD monitoring va motivatsiya tizimlarini rivojlantirish
Zamonaviy (2020-2025)	Resiliens, gibrid tahdidlar, AI/VR	Karayani, Murodov, DoD ekspertlari	MBAT dasturlari, dron operatorlari stressi	1+3 kurslar va VR simulyatorlar orqali tayyorgarlik
Istiqbol (2030+)	Neyrotex, etika, info-mudofaa	APA/VA tadqiqotchilari, O‘zR takliflari	BCI qaror tezlashtirish, MDMA terapiyasi	Milliy markaz va xalqaro hamkorlik orqali yetakchilik

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, harbiy psixologiya har bir bosqichda inson omilini markazga qo‘yib, texnologik va ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashgan holda rivojlanmoqda, bu O‘zbekiston uchun milliy modelni shakllantirishda muhim asos bo‘ladi.

O‘zbekiston Qurolli Kuchlarida vatanparvarlik tarbiyasida amalda qo‘llanilmoqda. R.M.Yerkesning Army Alpha va Beta testlari zamonaviy professional tanlovda SI bilan boyitilgan holda qo‘llanilmoqda, bu 2020-2025 yillarda harbiy xizmatchilarni moslashtirishda samarali bo‘lgan. Mersning “shell shock” tushunchasi hozirgi post travmatik stress buzilish terapiyasining asosini tashkil etadi, chunki u travmaning psixologik tabiatini ochib bergan va VR exposure therapy (VRET) orqali davom ettirilmoqda. A.N.Leontevning faoliyat nazariyasi harbiy harakatni maqsadli faoliyat sifatida ko‘rib chiqadi, bu VR simulyatorlarida obyekt-subyekt munosabatlarini modellashtirishda qo‘llaniladi. A.D.Murodov va R.Samarov kabi o‘zbek olimlarining zamonaviy ishlarida bu g‘oyalar milliy kontekstga moslashtirilgan. fikrimizcha, A.Temur merosi bilan texnologiyalarni birlashtirish – O‘zbekiston uchun eng samarali yo‘l bo‘lib, uni qo‘llab-quvvatlayman, chunki u nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham xavfsizlikni mustahkamlaydi.

Harbiy psixologiyani rivojlantirish istiqbollari bo‘yicha birinchi taklif – Qurolli Kuchlarning barcha harbiy ta’lim muassasalarida milliy VR-poligonlar yaratishdir.

A.Temur strategiyasidagi jangsiz g‘alaba g‘oyasiga asoslanib, jangovar stressni xavfsiz sharoitda modellashtirish orqali askarlarning chidamliligini 30-50% oshiradi. Amaliyotda dron operatorlari va kibertahdid sharoitlarida qo‘llaniladigan simulyatorlar psixologik barqarorlikni shakllantiradi va real jangovar yo‘qotishlarni kamaytiradi.

Ikkinchi – harbiy qo‘mondonlar uchun majburiy harbiy psixologik savodxonlik kurslarini joriy etish bo‘lib, M.I.Dyachenko va A.N.Leontev nazariyalariga asoslangan holda motivasiya va jamoa dinamikasini o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Bu 2020-2025 yillardagi kasbiy psixologiya o‘zgarishlarini hisobga olib, boshliqlarning ekstremal vaziyatlarda qaror qabul qilish tezligini oshiradi va harbiy jamoalardagi askarlarda deviant xulqni kamaytiradi.

Uchinchi – gibrid tahdidlarga qarshi milliy axborot-psixologik mudofaa markazini tashkil etishdir. Markaz SI monitoring va dezinformasiyaga qarshi dasturlarni ishlab chiqadi, bu NATO tajribasidan kelib chiqib O‘zbekistonning raqamli xavfsizligini ta’minlaydi va yosh harbiy xizmatchilarni radikal g‘oyalardan himoya qiladi.

To‘rtinchi – harbiy psixologlar tayyorlash tizimini 1+3 modelni SI va neyrotex modullari bilan boyitish orqali kengaytirish. Bu Malaka oshirish kurslarini rivojlantirib, kadrlar yetishmasligini bartaraf etadi va ekspress-psixoterapiya samaradorligini oshiradi.

Beshinchi – har yili harbiy psixologiyaga oid konferensiya o‘tkazish va xalqaro grantlar orqali Rossiya, Turkiya va AQSH bilan hamkorlikni kuchaytirishdir. Ilmiy tadqiqotlar va maxsus jurnal chiqarishni ta’minlab, O‘zbekiston harbiy psixologiyasini Markaziy Osiyo yetakchisiga aylantiradi va “O‘zbekiston-2030” strategiyasiga hissa qo‘shadi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy psixologiya fanining genezisi inson omilining urushdagi hal qiluvchi rolini tan olishdan ilmiy-metodologik tizimga o‘tishni aks ettiradi. Bugungi holat va istiqbollar texnologik integrasiya va milliy meros sintezini talab qiladi. Takliflar amalga oshirilsa, O‘zbekiston Qurolli Kuchlari ruhiy jihatdan mustahkam, zamonaviy tahdidlarga tayyor bo‘ladi. Bu nafaqat harbiy, balki butun jamiyat xavfsizligi uchun muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Караяни А.Г. Военная психология в боевых условиях. Москва 2022. С. 317.

2. “History of military psychology” // PubMed, 2018. DOI: 10.1037/mil0000230.

3. Дяченко М.И. Военная психология. М.: Воениздать, 1985. – С.320.

4. Yerkes R.M. Psychological examining in the United States Army. Washington, 1921.; Mers Ch.S. Shell shock in France 1914–1918. Cambridge, 1940.

5. Леонтев А.Н. Деятельность, сознание, личность. М.:Политиздать, 1975. -304 с.

6. “Harbiy psixologiya: zamonaviy yondashuvlar, muammolar va takliflar” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Samarqand, 2024. – 424 bet.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ПСИХОЛОГИИ В ВОЕННО-СЛУЖЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Д.С.Абдуллажанова –
профессор кафедры «Воспитательно-психологическое обеспечение служебной деятельности» университета общественной безопасности Республики Узбекистан,
доктор психологических наук, (DSc), профессор

Проблема перспективы развития цифровой психологии в военно-служебной деятельности приобретает особую актуальность в условиях глобальной цифровизации, когда военные структуры сталкиваются с новыми вызовами, киберугрозами, психологическим давлением в цифровом пространстве и необходимостью адаптации к технологиям. Цифровая психология, объединяя принципы психологии и информационных технологий, предлагает инновационные решения для повышения резилиентности, оптимизации подготовки и поддержки психического здоровья военнослужащих.

В условиях современных конфликтов, где цифровые технологии играют ключевую роль, развитие этой сферы становится стратегическим приоритетом.

Цифровая психология изучает влияние цифровых технологии на психические процессы, поведение и межличностное взаимодействие. Например, влияние искусственного интеллекта (ИИ), виртуальной реальности (VR), мобильных приложений и больших данных на психические процессы. В военно-служебной деятельности цифровизация фокусируется на адаптации военнослужащих к цифровым вызовам, таким как киберпсихологическая война, стресс от онлайн-мониторинга и виртуальная подготовка. По данным исследования APA, цифровые интервенции, такие как VR-терапия может снижать симптомы посттравматического стрессового расстройства (ПТСР) на 25–30% у военнослужащих.

Основная роль цифровой психологии в укрепление резилиентности через симуляции стрессовых ситуаций и мониторинг психического состояния, что критично для предотвращения выгорания, затрагивающего до 40% военнослужащих в экстремальных условиях.

На сегодняшний день цифровая психология активно внедряется в военные системы развитых стран. Например, в США Тихоокеанское региональное медицинское командование использует VR для реабилитации, снижая уровень тревожности на 20–30%. Мобильные приложения, которые помогают военнослужащим справляться с симптомами в реальном времени. В Европе НАТО интегрирует искусственный интеллект для анализа поведения солдат, снижая риск стресса в пределах 15%.

В развивающихся странах, включая Россию и Центральную Азию, прогресс ограничен из-за недостатка ресурсов, хотя пилотные проекты демонстрируют снижение ПТСР на 10–15% при использовании цифровых инструментов. Основные достижения связаны с персонализированными подходами, но наблюдается неравномерность внедрения и недостаток квалифицированных специалистов.

Будущее цифровой психологии в военной сфере связано с передовыми технологиями. Например, искусственный интеллект может предсказывать психические риски на основе биометрических данных (пульс, уровень кортизола), повышая готовность войск на 20%. VR-симуляции позволят моделировать боевые сценарии, улучшая эмоциональную устойчивость и снижает реальные травмы до15–20%.

В кибероперациях цифровые инструменты усилят психологическое влияние, сохраняя этические рамки. Развития цифровой психологии сталкиваются с вызовами то есть конфиденциальность данных, риск технологической зависимости и этические дилеммы. Исследование показывают, что утечка данных может повысить стресс до 30% военнослужащих. В военной сфере ключевой вызов — предотвращения злоупотреблений искусственного интеллекта для манипуляции поведением, что требует строгих стандартов. Этические аспекты включают информированное согласие и защиту данных, как указано в рекомендациях APA,

которое проведено в исследованиях 2023 году. Неравенство в доступе к технологиям в развивающихся странах требует создания универсальных платформ, адаптированных к локальным нуждам.

Исходя из вышеизложенного мы можем предлагать следующие практические рекомендации:

Во-первых. Разработка систем искусственного интеллекта для мониторинга психического здоровья с шифрованием данных.

Во-вторых. Внедрение VR-тренажеров для подготовки резилиентности, тестируемых в пилотных проектах.

Во-третьих. Расширить проведения тренингов среди военнослужащих.

Во-четвертых. Создание доступных цифровых платформ и разработка этических кодексов для цифровых интервенций, согласованных с международными стандартами.

В заключении можем сказать, что цифровая психология открывает новые горизонты для военно-служебной деятельности, повышая резилиентность и эффективность. Преодоление вызовов и этических дилемм через международное сотрудничество и инновации обеспечит устойчивое развитие этой сферы.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. American Psychological Association. (2023). *Guidelines for the Use of Digital Technologies in Psychological Practice*. Washington, DC: APA Publishing.

2. Rizzo, A., & Koenig, S. (2017). Is clinical virtual reality ready for primetime? *Neuropsychology*, 31(8), 877–899.

3. Maples-Keller, J. L., Bunnell, B. E., Kim, S. J., & Rothbaum, B. O. (2017). The use of virtual reality technology in the treatment of anxiety and PTSD. *Harvard Review of Psychiatry*, 25(3), 103–113.

4. NATO Science and Technology Organization. (2021). *Human Factors and Medicine Panel: Cognitive and Psychological Resilience in Military Operations*. Brussels: NATO STO.

5. Parsons, T. D., & Gaggioli, A. (2019). Immersive virtual reality for psychological training and resilience. *Cyberpsychology, Behavior, and Social Networking*, 22(2), 109–115.

6. U.S. Department of Defense. (2022). *Digital Health Strategy for Military Personnel*. Washington, DC.

7. Luxton, D. D. (2016). Artificial intelligence in behavioral and mental health care. *Academic Press*.

8. Wiederhold, B. K., & Wiederhold, M. D. (2020). Virtual reality therapy for anxiety disorders and PTSD. *Journal of CyberTherapy & Rehabilitation*, 13(1), 15–23.

9. European Defence Agency. (2020). *Artificial Intelligence in Defence: Applications and Ethical Challenges*. Brussels.

10. World Health Organization. (2021). *Ethics and Governance of Artificial Intelligence for Health*. Geneva: WHO.

BO‘LAJAK OFISERLARDA METAKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Z.Sh.Alimardonov

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi boshlig‘i, podpolkovnik, pedagogika fanlari bo ‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada harbiy kuch tuzilmalarida muloqot madaniyatining transformatsiyasi hamda bo‘lajak ofitserlarda metakommunikativ kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy harbiy ta’lim tizimida kompetensiyaga asoslangan yondashuvning kuchayishi, dual ta’limning joriy etilishi hamda ofitser shaxsining kasbiy-psixologik tayyorgarligida kommunikativ omillarning ustuvorligi ochib beriladi. Tadqiqotda metakommunikatsiya shaxslararo munosabatlarni boshqarish, tushunish va mustahkamlashning muhim ijtimoiy-psixologik mexanizmi sifatida talqin qilinadi. Metakommunikativ kompetentlikning shakllanishida noverbal vositalar, emotsional boshqaruv, ijtimoiy me’yorlar va jamoa dinamikasining o‘rni asoslab beriladi. Shuningdek, mazkur kompetensiya harbiy jamoada psixologik barqarorlikni ta’minlash, rahbar va bo‘ysunuvchilar o‘rtasida ishonch muhitini yaratish hamda xizmat faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: metakommunikatsiya, metakommunikativ kompetentlik, kommunikativ kompetensiya, muloqot madaniyati, noverbal kommunikatsiya, harbiy psixologiya, bo‘lajak ofitserlar, ijtimoiy-psixologik determinantlar, emotsional boshqaruv, jamoa dinamikasi, ijtimoiy me’yorlar, shaxslararo munosabatlar, harbiy ta’lim, dual ta’lim, kasbiy-psixologik tayyorgarlik.

So‘nggi o‘n yillikda harbiy kuch tuzilmalarida muloqot madaniyatiini shakllantirish, xizmat faoliyatida faol foydalanish yuzasidan sezilarli o‘zgarishlar jarayoni yuzaga keldi. Bu ayniqsa, “tayyorgarlik”, “ma’lumotlilik”, “malaka” tushunchalarining o‘rnini “moslashuvchanlik”, “psixologik mentorlik”, “muloqot kompetensiyasi”, “muloqot madaniyati”, “muomala vositasi” kabi atamalar egallaganligi kuzatila boshlandi. Ayniqsa, harbiy kuch tuzilmalarida kompetensiyaga asoslangan

yondashuvga bosqichma-bosqich o‘tish, xususan, oliy harbiy ta’lim muassasalarida dual ta’limning faol joriy etilishi ta’lim jarayonini nazariy va amaliy faoliyatga yo‘naltirish imkonini bermoqda. Bu esa bo‘lajak ofitserlarda harbiy pozitsiyada fuqarolar bilan muloqotga kirishish jarayonida tahliliy tafakkurni real faoliyatga yo‘naltirishga alohida e’tibor qaratilishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada, muloqotning metaxususiyatlari kuchayib, u ijtimoiypsixologik masala sifatidagi zaruriyat va jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanligini yaqqol namoyon eta boshladi. Kommunikatsiya, bir tomonlama muloqot sifatida, muammoni o‘rganish zaruriyati nuqtai nazaridan mental muhitda o‘z ahamiyatini va dolzarbligini namoyon etadi. Zero, harbiy tuzilmalarida jumladan, harbiy xizmatchilarni shaxslararo munosabatlarda ikki tomonlama ta’sirga ega bo‘lish mexanizmini ta’minlashda kompetentlikni shakllantirilishiga ahamiyat qaratilishi muhim ekanligi haqidagi bashoratlar yuzaga kela boshladi. Bu jarayon bo‘lajak ofitserlar xizmat faoliyatida jestlar xususan, noverbal muloqot usullarini faol qo‘llash bo‘yicha yondashuvlarni amaliy tadqiqotlar orqali o‘rganishning ahamiyatini oshirdi. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar doirasida nafaqat shaxs balki, harbiy shaxsning xususiyatlaridan kelib chiqib yondashuvlarni tizimlashtirish, harbiy psixologiyadagi ijtimoiy-psixologik muammolarni ochib berishni taqozo etdi. 23 Zero, muloqot muammosi ijtimoiy psixologiyaning shaxslararo munosabatlarga kirishishning predmetini tashkil etishi bilan birga sohaning turli davrlarida olimlar, tadqiqotchilar tomonidan kishilarning muomalaga kirishish, munosabat o‘rnatish, fikrlash, targ‘ibot va aloqa o‘rnatishning taraqqiyotini yuzaga keltirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy-psixologik nuqtai-nazardan “metakommunikatsiya”, “metatahlil”, metakommunikant kabi tushunchalar ayanan bugungi zamonaviy bilimlarni integratsiyalashuvi davrida ahamiyatli hisoblanadi. Metakommunikativ kompetentlik bugungi tahlikali, ekstremal sharoitlar yuzaga kelish xavfi yuqori bo‘lgan, xalqaro to‘qnashuvlar avj olayotgan davrda xizmat faoliyatini olib borayotgan harbiy xizmatchilar uchun zaruriy ko‘nikma hisoblanadi. Metakommunikatsiya – bu kommunikatsiyaning o‘zi bo‘lib, aloqa jarayoni haqidagi ma’lumotlarni, ya’ni xabarlashuvning maqsadi, tarzi yoki ishtirokchilar orasidagi munosabatlar haqidagi axborotni yetkazish shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy-psixologik jihatdan tavsiflanganda metakommunikatsiya shaxslararo ijtimoiy

munosabatlarni boshqarish, tushunish va mustahkamlash uchun asosiy vosita hisoblanadi. Metakommunikatsiyaning shakllanishi, uning samaradorligi ijtimoiy me’yorlar, emotsional holatlar va jamoa dinamikasi kabi ijtimoiy-psixologik omillarga asoslanadi. Aynan metakommunikatsiyaning ijtimoiy-psixologik jarayon ekanligi haqidagi qarashlar g‘arbda 1967-yilda Watzlawick tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kuzatila boshlagan. U metakommunikatsiyani “xabar berish va xabarni qabul qilish” deb, uning mexanizmi ijtimoiy munosabatlarning rolini belgilashini ta’kidlaydi. Ijtimoiy-psixologik nuqtai nazaridan olib qaralganda metakommunikatsiya quyidagilar asosida samarali shakllanadi: Ma’noni tushunish: harbiy xizmatchilarda jamoalararo metakommunikatsiya noverbal elementlar – mimika, jestlar yoki til ishoralari (ohang, pauza) orqali ijtimoiy munosabatlarni boshqarishga yordam beradi. 24 Emotsional boshqaruv: metakommunikatsiya ishtirokchilarining emotsional holatlari (stress, qo‘rquv, xavotir, kutishlar bilan bog‘liq zo‘riqish)ni kuzatib, munosabatlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Ijtimoiy me’yorlar: jamoa ichidagi ierarxiyasi yoki rollari jumladan, komandir va bo‘ysunuvchining bir-birini tushunishi metakommunikatsiya orqali ifoda etiladi. Munosabatlarni kuchaytirish, dvigateli sifatida: metakommunikatsiya ishonch va hamkorlikni oshirish uchun ishoralar masalan “men seni tushunyapman” kabi ko‘rinishlarda bosh, qo‘l, ko‘z harakatlari bilan yoki barmoqlar, yuzni burish kabi jest, harakat, ishoralar ishlatilishi mumkin. Shu o‘rinda harbiy jamoadagi metakommunikatsiya komandirning ovoz toni orqali qo‘rquvni pasaytirish yoki qo‘l ishorasi bilan tartibni saqlash shaklida ham ishlatilishini keltirib o‘tishimiz mumkin. Aynan metakommunikativ kompetentlik kommunikatsiya jarayoni haqidagi aloqani mustahkamlash, tushunish va boshqarish qobiliyati, ya’ni noverbal signallar (jestlar, mimikalar) hamda ijtimoiy munosabatlarning dinamikasini ya’ni o‘zgarishini idora qilish mahorati hisoblanadi. Ijtimoiy-psixologik determinantlar esa metakommunikativ kompetentlikni shakllantirishda asosiy ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy va psixologiya omillari hisoblanadi. Zero, ijtimoiy-psixologik determinantlar metakommunikativ kompetentlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki metakommunikativ shaxslararo munosabatlarni mustahkamlash, ijtimoiy muhitga moslashishni ta’minlashga yordam beradi. Misol tariqasida aytishimiz kerakki, harbiy xizmatchilarning xizmat

faoliyati davomida metakommunikativ kompetentlik komandirning qo‘l ishorasi orqali shaxsiy tarkib o‘rtasida tartibni saqlash, ovoz tonu orqali qo‘rquvni pasaytirish kabi vaziyatlarda metakommunikativ kompetentlik namoyon bo‘lishi mumkin. Olib borilgan ilmiy adabiyotlar, tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, bo‘lajak ofitserlarda metakommunikativ kompetensiyalarini samarali shakllantirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar uzoq va yaqin xorij olimlari tomonidan ko‘proq o‘rganilganligi kuzatildi. O‘zbek milliy muhitida esa aynan metakommunikativ kompetensiyalar rakursidan emas, asosan kommunikativ 25 kompetentlik, muloqot kompetensiyasi, muloqot komponentlari, kommunikatsiyaning usullari, verbal va noverbal kommunikatsiya va hokazo tushunchalar doirasida olib borilgan tadqiqotlar ko‘proq diqqatni tortadi. Kommunikativ kompetensiyalar ko‘p hollarda pedagogik kasbiy kompetensiyalarning komponentlari sifatida ta’lim-tarbiya, o‘quv-tarbiya jarayonlarida foydalaniladigan, kasbga moslik sifatida o‘rganiladi. Zero, metakommunikativ kompetensiya tor doira mutaxassislari uchun muhim, xizmat faoliyati uchun zaruriy masala hisoblanadi.

Demak, muloqot insonning o‘zini anglashiga, o‘zini baholashiga va ijtimoiy muhitda faol ishtirok etishiga xizmat qiladi. Shuningdek, shaxsning muloqotga kirisha olmasligi uning o‘zini baholashdagi muammolarini ifodalaydi va bu holat ijtimoiy faollikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak ofitserlarda metakommunikativ kompetentligini shakllantirish ularning o‘zini anglash, o‘z fikrini aniq ifoda etish, boshqalar bilan samarali muloqot o‘rnatish va ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etish qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Metakommunikativ kompetentlikning yuqori darajada shakllanishi bo‘lajak ofitserlarga nafaqat kasbiy faoliyat jarayonida, balki harbiy jamoada sog‘lom psixologik muhitni yaratishda, rahbar va safdoshlar o‘rtasida o‘zaro ishonch va hurmatga asoslangan munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda ham yordam beradi. Psixologiya fani rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan olim, E.G‘.G‘oziyev14 shaxsda muloqotchanlik qobiliyatlarini rivojlanganligini aniqlashga qaratilgan tadqiqot metodlarini ishlab chiqilganligi bu sohada keng doirada ilmiy izlanishlarini amalga oshirishga zamin hozirladi. Demak, E.G‘oziyev tomonidan shaxsda muloqotchanlik qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan

tadqiqot metodlarining ishlab chiqilishi ushbu yo‘nalishda yangi ilmiy izlanishlar olib borish uchun mustahkam asos yaratganligini ko‘rishimiz mumkin. Mazkur ilmiy yondashuv bo‘lajak ofitserlarda metakommunikativ kompetentligini shakllantirish jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki muloqotchanlik qobiliyatining o‘rganilishi va rivojlantirilishi ofitser shaxsining kasbiy-psixologik tayyorgarligi, jamoa bilan o‘zaro munosabatlari hamda rahbarlik faoliyatidagi kommunikativ muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Shu boisdan, E.G‘oziyev tomonidan ilgari surilgan metodik yondashuvlarni bo‘lajak ofitserlarning kommunikativ tayyorgarligini baholash va rivojlantirish jarayoniga tatbiq etish, ularning kasbiy faoliyatda samarali muloqot o‘rnatish, vaziyatni to‘g‘ri tahlil qilish 13 T.G.Suleymanova 14 G‘oziev E.G. Muomala psixologiyasi. Toshkent, 2001. 30 va psixologik muvozanatni saqlash qobiliyatlarini takomillashtirishda muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega.

“Bo‘lajak ofitserlarda metakommunikativ kompetensiyalarining samaradorlik omillari”ni o‘rganuvchi mualliflik ijtimoiy-psixologik so‘rovnomasi (D.S.Abdullajanova va Z.Sh.Alimardonov) ishlab chiqilib, tadqiqot obyektlarida o‘tkazilganda quyidagicha tasavvurlarni shakllanishiga asos bo‘ldi. Shaxsning ijtimoiy muloqotini belgilovchi asosiy xususiyatlardan biri – bu kommunikativ kompetensiyadir. Shu boisdan ham zamonaviy ijtimoiy psixologiyaning markaziy innovatsion yo‘nalishlaridan biri shaxsning kommunikativ kompetensiyasini o‘rganish hamda uni rivojlantirishga yondashuv hisoblanadi. Kompetensiyaga asoslangan ta’rif doirasida uning tarkibiy qismlari (ijtimoiy o‘zaro ta’sirga tayyorgarlik darajasi, ijtimoiy aloqaning turlari va boshqalar) inobatga olinib, ushbu tadqiqotda shaxsning kommunikativ kompetensiyasi insonning o‘zini adekvat baholash qobiliyatida namoyon bo‘ladigan murakkab ijtimoiy-psixologik shakllanish sifatida talqin qilinadi. U quyidagilarda ifodalanadi: muloqot jarayonidagi sheriklarning shaxsiy xususiyatlari va hissiy holatini aniqlash, shaxslararo voqealarni bashorat qilish, ijtimoiy o‘zaro ta’sirda kommunikatsiyaning adekvat usullarini tanlash va amalga oshirish. Ilmiy nutqni chuqur tahlil qilish shaxsning kommunikativ kompetensiyasi tarkibida motivatsion-qadriyatli, kognitiv, hissiy hamda konativ (xulq-atvoriy) komponentlarni aniqlash imkonini berdi (gorizontal qism). Ma’lumki, kommunikativ kompetensiyaning ushbu tarkibiy qismlari yaxlit tizimning

ajralmas elementlari sifatida bir-birini taqozo etadi, ularning har biri boshqalar bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘z mazmunini ochadi. Shaxsning kommunikativ kompetensiyasi tushunchasining yana bir muhim jihati vertikal bo‘lim orqali ifodalanadi. U kommunikativ kompetensiya darajalarini qamrab oladi: kontakt-psixologik, axborot, semantik va refleksiv bosqichlar. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ham jamoaviy, ham shaxsiy miqyosda kommunikativ qobiliyatlar bugungi ijtimoiy vaziyat talab qiladigan asosiy parametrlar sirasiga kiradi. Shu munosabat bilan, ularni shakllantirish va rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni chuqurroq anglash hamda shaxsning kommunikativ kompetensiyasini maqsadli yo‘naltirish va samarali rivojlantirish muhim nazariy va amaliy vazifalardan biridir.



2.2.1-rasm. «Jamoat xavfsizligi ta’minlovchi subyektlar faoliyatida kommunikativ madaniyatning o‘rnini qanday baholaysiz?» savoliga berilgan javoblar (% hisobida)

Активация Windows

Biz tomonimizdan bo‘lajak ofitserlardagi metakommunikativ kompetentlikning ijtimoiy-psixologik determinantlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan tadqiqotimiz davomida ishlab chiqilgan ijtimoiy-psixologik so‘rovnoma natijalari 3 ta mustaqil guruh miqyosida taqqoslangan shaklda keltirilishi lozim topildi. Bunda sinaluvchilarning har bir savolga bergan javoblari 100% miqdorida alohida shaklda ifoda etildi. Jamoat xavfsizligi ta’minlovchi subyektlar faoliyatida kommunikativ madaniyatning o‘rnini qanday baholaysiz? nomli savolga sinaluvchilarimiz tomonidan berilgan javoblar tahliliga ko‘ra, Jamoat xavfsizligi universitetidan 45% (97 nafar) yuqori, 25% (54 nafar) o‘rta, 15% (32 nafar) past hamda 15% (32 nafar) javob berish qiyin tasdiq‘ini; IIV akademiyasidan 114 37% (95 nafar) yuqori, 27% (53 nafar) o‘rta, 14% (32 nafar) past

hamda 22% (32 nafar) javob berish qiyin tasdiq‘ini; FVV akademiyasidan 35% (95 nafar) yuqori, 35% (53 nafar) o‘rta, 20% (32 nafar) past hamda 10% (31 nafar) javob berish qiyin tasdiq‘ini tanlagan. Ushbu natijalar metakommunikativ madaniyatning kasbiy faoliyatdagi o‘rni yuqori baholanishini ko‘rsatadi, bu ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan, bo‘lajak ofitserlarning metakommunikatsiya orqali fuqarolar bilan muloqotda ishonch muhitini yaratishga qaratilganligini bildiradi. Harbiy psixologiya kontekstida, metakommunikativ madaniyat ekstremal vaziyatlarda stressni boshqarish va jamoaviy hamkorlikni kuchaytirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi, masalan, o‘z-o‘zini baholash orqali muloqot jarayonini nazorat qilish hisoblanadi. Xorijiy tadqiqotlarda (masalan, McCloskey, 2020), harbiy talabalar orasida metakognitiv ko‘nikmalar (metacommunicationning bir qismi) rahbarlik samaradorligini 47% ga oshirishi ko‘rsatilgan, bu esa yuqori baholashlarni tasdiqlaydi. Past baholashlar (15%) metakommunikativ tajribaning yetishmasligini ko‘rsatadi, bu harbiy muhitda ierarxik bosim sababli yuzaga keladi. Javob berish qiyinligi (15%) refleksiya darajasining pastligini bildiradi, bu ijtimoiy-psixologik qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi bilan bog‘liq. Metakommunikativ madaniyat harbiy faoliyatda muhim omil sifatida baholanmoqda, ammo past baholashlar va noaniqliklar ta’lim dasturlarida metakognitiv mashqlarni kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi, bu jamoaviy samaradorlikni oshiradi. Ushbu natijalardan ma’lum bo‘ladiki, jamoat xavfsizligi subyektlari faoliyatida kommunikativ madaniyatning o‘rni yuqori baholanmoqda. Bu ularda xizmat faoliyatini amalga oshirish chog‘ida fuqarolar bilan muloqot qilish ko‘nikmasi muammoni va ekstremal vaziyatlardagi holatlarni muvaffaqiyatli yechim topishga yordam beradigan ichki resurs sifatida anglashilganligidan dalolat beradi. Ko‘pchilik xizmatchilar tomonidan kommunikativ madaniyatning yuqori baholanishi shaxslararo munosabatlarda samarali muloqot yuritish xizmat faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida anglanayotganidan dalolat beradi. Bu esa xizmatchilarning fuqarolar bilan muloqotda ishonch uyg‘otishi, ziddiyatli va ekstremal vaziyatlarda konstruktiv yechim topishi, stressni boshqarishi hamda ichki 115 resurslardan oqilona foydalanishi bilan izohlanadi. 25% respondentlarning muloqot madaniyatini o‘rta darajada baholashi ularning kommunikativ ko‘nikmalarni yetarli deb hisoblashlari, ammo yanada rivojlantirish

zarurligini anglashlari bilan bog‘liq. Shu bilan birga, 15% past baholashlar muloqot jarayonida turli psixologik to‘siqlar (stress, kommunikativ baryerlar, o‘zini namoyon qilishdagi qiyinchiliklar) mavjudligini ko‘rsatadi. 15% respondentlarning aniq javob bera olmaganligi esa ularda kommunikativ madaniyatning mazmuni va kasbiy faoliyatdagi ahamiyati haqida yetarli refleksiya shakllanmaganini anglatadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, zamonaviy harbiy ta’lim tizimida bo‘lajak ofitserlarda metakommunikativ kompetentlikni shakllantirish xizmat faoliyati samaradorligini ta’minlovchi muhim ijtimoiy-psixologik omil hisoblanadi. Metakommunikatsiya noverbal signallar, emotsional boshqaruv va ijtimoiy munosabatlar dinamikasini to‘g‘ri anglash orqali jamoada o‘zaro ishonch, muvofiqlik va psixologik barqarorlikni kuchaytiradi. Shu bois, ofitserlarning kasbiy tayyorgarligida kommunikativ va metakommunikativ ko‘nikmalarni maqsadli rivojlantirish harbiy jamoada sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish hamda xizmat vazifalarini samarali bajarishning muhim sharti sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. G‘oziev E.G. Muomala psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
2. Андреева Г.М. Социальная психология. – Москва: Aspekt Press, 2001.
3. Ломов Б.Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии. – Москва: Наука, 1984.
4. Вацлавик П., Бивин Д., Джексон Д. Прагматика человеческикҳ коммуникатсий. – Москва: Aprel Press, 2000.
5. Mehrabian A. Nonverbal Communication. – Chicago: Aldine-Atherton, 1972.
6. Hall E.T. The Silent Language. – New York: Anchor Books, 1959.
7. Леонтьев А.А. Психология общения. – Moskva: Smysl, 1999.
8. Suleymanova T.G. Kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning psixologik asoslari. – Toshkent, 2018.
9. Abdullajanova D.S., Alimardonov Z.Sh. Bo‘lajak ofitserlarda kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari. – Ilmiy maqola, 2022.
10. Зимняя И.А. Ключевые компетенции как результат образования. – Москва, 2004.

HARBIY XIZMATCHILAR ADAPTATSIYA JARAYONINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

G‘.Z. Ikmatullayev

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari, podpolkovnik, pedagogika fanlari bo ‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada harbiy xizmatchilar adaptatsiya jarayonining ijtimoiy-psixologik determinantlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Harbiy xizmatga kirish, jamoa almashinuvi, xizmat sharoitlarining o‘zgarishi va ekstremal faoliyat talablari shaxsning ijtimoiy moslashuviga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslanadi. Muallif adaptatsiya jarayoniga ta’sir etuvchi asosiy omillarni individual-psixologik xususiyatlar, jamoaviy muhit va tashkilotchi omillar kesimida tahlil qiladi. Stress va koping nazariyasi asosida harbiy xizmatchilarning moslashuv jarayoni psixologik resurslar, kommunikativ kompetensiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi bilan bog‘liqligi ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari harbiy jamoalarda adaptatsiyani tezlashtirish, psixologik barqarorlikni oshirish va xizmat samaradorligini ta’minlashga qaratilgan pedagogik-psixologik tavsiyalar ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: harbiy psixologiya, adaptatsiya, ijtimoiy moslashuv, psixologik determinantlar, jamoaviy muhit, stress, koping strategiyalari, kommunikativ kompetensiya, psixologik barqarorlik, harbiy jamoa.

Zamonaviy harbiy faoliyatning yuqori darajadagi o‘zgaruvchanligi, xizmat sharoitlarining murakkablashuvi hamda jamoaviy javobgarlikning ortib borishi harbiy xizmatchilardan faqat kasbiy bilim va ko‘nikmalarni emas, balki qisqa muddat ichida ijtimoiy-psixologik jihatdan moslasha olish qobiliyatini ham talab etadi. Harbiy xizmatga qabul qilinish, xizmat joyining almashishi, yangi jamoaga qo‘shilish yoki xavf omillari yuqori bo‘lgan faoliyat sharoitida ishlash shaxsni yangi ijtimoiy tizimga integratsiyalash jarayonini yuzaga keltiradi. Bunday vaziyatda harbiy xizmatchining jamoa ichidagi o‘rnini anglay olishi, o‘zining funksional rolini to‘g‘ri belgilashi, samarali kommunikativ strategiyalarni tanlay olishi hamda ichki psixologik barqarorligini saqlab qolishi uning xizmat faoliyati natijadorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli harbiy xizmatchilar

moslashuv jarayonini o‘rganish zamonaviy harbiy psixologiya doirasidagi muhim nazariy va amaliy yo‘nalishlardan biri sifatida qaraladi.

Psixologik adabiyotlarda adaptatsiya shaxsning yangi ijtimoiy yoki kasbiy muhit talablariga moslashishi, o‘zining psixofunksional muvozanatini saqlab qolishi va faoliyat samaradorligini ta’minlashga qaratilgan uzluksiz jarayon sifatida talqin qilinadi. A.N.Leontyev tomonidan ishlab chiqilgan faoliyat nazariyasi nuqtai nazaridan qaralganda, adaptatsiya shunchaki tashqi sharoitlarga moslashish emas, balki shaxsning faoliyat tizimiga kirib borishi, maqsadlar ierarxiyasini qayta ko‘rib chiqishi hamda motivatsion tuzilmasini yangidan tashkil etishi orqali yuzaga keladi. Demak, harbiy xizmatchilar adaptatsiyasini faqat psixologik moslashuv emas, balki kasbiy rolni egallash, ijtimoiy integratsiya va shaxsiy resurslarni safarbar etish bilan bog‘liq ko‘p qirrali jarayon sifatida ko‘rib chiqish zarur. Shu bois harbiy xizmatchilar moslashuvi kasbiy, ijtimoiy va psixologik omillar o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida shakllanadigan kompleks hodisa sifatida talqin qilinadi.

Harbiy xizmatchilar adaptatsiyasining ijtimoiy-psixologik determinantlarini ilmiy tahlil qilish maqsadida ularni shartli ravishda bir necha guruhlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Bunday tasnif adaptatsiya jarayonining ko‘p omilli tabiatini ochib berish hamda uning shakllanish mexanizmlarini tizimli ravishda tahlil qilish imkonini beradi.

Birinchi guruh determinantlar – individual-psixologik omillar hisoblanadi. Mazkur omillar harbiy xizmatchining shaxsiy resurslari, ichki moslashuv salohiyati hamda stressli vaziyatlarga nisbatan reaktsiya usullarini belgilaydi. Bularga temperament xususiyatlari, emotsional barqarorlik darajasi, stressga chidamlilik, o‘zini-o‘zi boshqarish ko‘nikmalari, motivatsion yo‘nalganlik hamda kommunikativ kompetensiya kiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ichki nazorat lokusining ustunligi, ya’ni shaxs o‘z faoliyati natijalarini tashqi omillarga emas, balki o‘z harakatlariga bog‘lab baholashi, moslashuv jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi. Shuningdek, mas’uliyat hissining rivojlanganligi, kasbiy motivatsiyaning barqarorligi va ijtimoiy faollik shaxsning jamoaga integratsiyalashuvini yengillashtiradi. Aksincha, impulsivlik, yuqori darajadagi xavotirlilik, o‘z-o‘ziga ishonchning pastligi hamda emotsional nazoratning sustligi

adaptatsiya jarayonini murakkablashtirib, psixologik diskomfort, ijtimoiy chekinish yoki nizoli xulq ehtimolini oshirishi mumkin.

Ikkinchi guruh determinantlar – jamoaviy-ijtimoiy omillardir. Harbiy xizmatning jamoaviy xarakteri shaxsning moslashuv jarayonida ijtimoiy muhit rolini alohida ahamiyatli qiladi. Jamoaning psixologik iqlimi, o‘zaro ishonch darajasi, norasmiy qoidalar tizimi, kommunikatsiya ochiqligi hamda rahbarlik uslubi yangi xizmatchining jamoaga kirish tezligi va sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ijobiy psixologik iqlim, o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlar, adolatli va qo‘llab-quvvatlovchi rahbarlik mavjud bo‘lgan jamoalarda xizmatchilarning moslashuvi nisbatan tez va kamroq psixologik zo‘riqish bilan kechadi. Bunday sharoitda yangi a’zolar o‘zini xavfsiz his etadi, jamoaviy identifikatsiya tez shakllanadi hamda kommunikativ integratsiya samaraliroq kechadi. Aksincha, ichki raqobatning keskinligi, kommunikatsiya to‘siqlari, norasmiy guruhlarning yopiq tizimi yoki haddan tashqari avtoritar boshqaruv uslubi adaptatsiya jarayonini sekinlashtiradi, psixologik begonalashuv hissini kuchaytiradi hamda xizmat faoliyatida samarasizlikka olib kelishi mumkin.

Shu tariqa, harbiy xizmatchilar adaptatsiyasining individual hamda jamoaviy determinantlari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, ular birgalikda shaxsning xizmat muhitiga integratsiyalashuv tezligi, moslashuvning barqarorligi va faoliyat samaradorligini belgilaydi. Mazkur determinantlarni tizimli yondashuv asosida tahlil qilish adaptatsiya jarayonini “shaxs–jamoa–tashkilot” triadasi doirasida tushuntirish imkonini beradi. Bunda shaxsning ichki psixologik resurslari (motivatsiya, o‘zini boshqarish, stressga chidamlilik) jamoaviy muhitning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash resurslari (ishonch, hamkorlik, psixologik iqlim) hamda tashkilotchi-institutsional sharoitlar (vazifalar taqsimoti, rol aniqligi, tayyorgarlik tizimi) bilan o‘zaro ta’sirga kirishadi. Natijada adaptatsiya jarayoni nafaqat shaxsning “moslashishi”, balki uning jamoaga “ijtimoiy integratsiyalanishi”, kasbiy rolni “ichki qabul qilishi” va xizmat normalarini “psixologik internalizatsiya qilishi” orqali to‘liq shakllanadi. Shuning uchun determinantlarni tizimli ravishda tahlil qilish harbiy jamoalarda moslashuv jarayonini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish, psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini optimallashtirish hamda xizmat samaradorligini oshirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Uchinchi guruh determinantlar xizmat faoliyatining tashkilotchilik va institutsional xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lib, ular adaptatsiya jarayonining tashqi strukturaviy sharoitlarini belgilaydi. Harbiy xizmat muhitida tashkiliy omillar adaptatsiyaning “ramkasi”ni shakllantiradi: shaxsdan nima talab qilinishi, qanday mezonlar asosida baholanishi, qaysi rol va vazifalar doirasida faoliyat yuritishi aniq belgilangan bo‘lishi moslashuvni tezlashtiradi. Xizmat vazifalarining aniq taqsimlanishi va funksional mas’uliyat chegaralarining tushunarli belgilanishi rol noaniqligini kamaytirib, psixologik ishonch hissini kuchaytiradi. Rol aniqligi yuqori bo‘lgan sharoitda xizmatchi o‘z faoliyatida “qanday harakat qilish kerakligi” bo‘yicha kognitiv aniqlikka ega bo‘ladi, bu esa xavotirni kamaytiradi va stressga chidamlilikni kuchaytiradi.

Bundan tashqari, kasbiy tayyorgarlik tizimining izchil va bosqichma-bosqich tashkil etilishi adaptatsiyaning muhim institutsional deteminanti hisoblanadi. Tayyorlov tizimi faqat kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish bilan cheklanmay, balki xizmat normalari, intizomiy talablar, jamoaviy etik me’yorlar va xizmat identifikatsiyasini shakllantirishi bilan ham ahamiyatlidir. Ayniqsa, dastlabki moslashuv davrida psixologik xizmat faoliyatining mavjudligi (diagnostika, konsultatsiya, psixoprofilaktika, stress-menejment) adaptatsiya jarayonida “psixologik amortizator” vazifasini bajaradi: shaxsning psixoemotsional holatini monitoring qilish, risk guruhlarini erta aniqlash, dezadaptiv belgilar paydo bo‘lishidan oldin korrektsion ta’sir ko‘rsatish imkonini beradi.

Aksincha, xizmat talablari bilan shaxs imkoniyatlari o‘rtasidagi nomutanosiblik adaptatsiyani murakkablashtiruvchi markaziy faktor sifatida namoyon bo‘ladi. Talab–resurs nomutanosibligi shaxsda “barqaror zo‘riqish” holatini yuzaga keltiradi: vazifalar murakkabligi, vaqt bosimi yoki jismoniy-psixologik yuklama shaxsning tayyorgarlik darajasidan yuqori bo‘lsa, emotsional charchash, motivatsiya pasayishi, irritatsiya va hatto affektiv reaksiyalar kuchayadi. Bu holat uzoq davom etsa, dezadaptiv strategiyalar (chekinish, passiv qarshilik, “formal bajarish”, ijtimoiy izolyatsiya) shakllanishi mumkin. Shu sababli xizmatning tashkiliy modeli shaxs imkoniyatlariga mos keladigan tarzda optimallashtirilishi, vazifaviy bosqichlilik va psixologik qo‘llab-quvvatlash bilan birga olib borilishi zarur.

Adaptatsiya jarayonini ilmiy jihatdan izohlashda stress va koping nazariyasi muhim metodologik asos sifatida namoyon bo‘ladi. R.Lazarus va S.Folkman konsepsiyasiga ko‘ra, stress – bu vaziyat talablarining shaxs resurslaridan ustun kelishi natijasida yuzaga keladigan psixologik holat bo‘lib, shaxs avvalo vaziyatni baholaydi (“tahdidmi yoki imkoniyatmi?”), so‘ng resurslarini solishtiradi (“buni uddalay olamanmi?”). Harbiy xizmatga kirish yoki yangi jamoaga qo‘shilish aynan shunday baholash jarayonlarini faollashtiradi: shaxs ijtimoiy mavqeini, rolini, me’yorlarni qabul qilishni, rahbar va jamoa bilan o‘zaro munosabatlarni baholaydi. Agar shaxsda muammoni hal etishga yo‘naltirilgan koping strategiyalari shakllangan bo‘lsa, u yangi muhit talablari bilan faol ishlaydi: o‘rganadi, so‘raydi, rejalashtiradi, muammolarni tizimli hal qiladi. Agar emotsional boshqaruv strategiyalari yetarli bo‘lsa, shaxs hissiyotini nazorat qiladi, stressni konstruktiv qayta ishlaydi, ruhiy barqarorlikni saqlaydi.

Aks holda, koping repertuari cheklangan bo‘lsa, shaxsda xavotir kuchayadi, ichki chekinish, o‘ziga ishonchsizlik, motivatsiya pasayishi va dezadaptiv reaksiyalar yuzaga kelishi mumkin. Shu bois harbiy xizmatchilar adaptatsiyasida stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish, koping repertuarini kengaytirish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini mustahkamlash va psixologik resurslarni safarbar etish hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash (rahbarning qo‘llashi, tengdoshlar yordamchi munosabati, mentorlik) shaxsning stressni qabul qilish darajasini pasaytirib, adaptatsiyani tezlashtiradigan “tampon mexanizm” sifatida ishlaydi.

Harbiy xizmatchilar adaptatsiyasini ta’minlash jarayoni pedagogik-psixologik ta’sir choralarini ham talab qiladi. Bunda moslashuvni “o‘z holiga tashlab qo‘yish” emas, balki boshqariladigan jarayon sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq. Psixologik tayyorgarlik dasturlari (stress-menejment, o‘zini boshqarish, konfliktologiya), jamoaga integratsiya treninglari (jamoa qoidalari, rol va status tushuntirish, hamkorlik ko‘nikmalari), kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish mashg‘ulotlari (tinglash, konstruktiv fikr bildirish, assertiv muloqot) xizmatchilarning ijtimoiy moslashuvini tezlashtiradi. Psixologik monitoring tizimlari esa adaptatsiyaning dinamikasini baholash,

risk signallarini (uyqu buzilishi, irritatsiya, chekinish, motivatsiya pasayishi) erta aniqlash hamda individual yordam ko‘rsatish imkonini yaratadi.

Shu bilan birga, rahbarlar tomonidan qo‘llab-quvvatlovchi boshqaruv uslubini shakllantirish adaptatsiya jarayonining eng kuchli tashkiliy-ijtimoiy resurslaridan biri hisoblanadi. Ochiq muloqotga asoslangan psixologik muhit, adolatli baholash, aniq talab va kutilmalar, konstruktiv qayta aloqa, mentorlik tizimi va jamoaviy integratsiyani rag‘batlantirish adaptatsiya jarayonining samaradorligini oshiradi, xizmat intizomi va motivatsion barqarorlikni mustahkamlaydi. Natijada shaxsda “kasbiy identifikatsiya” (men – harbiy xizmatchiman) va “jamoaviy identifikatsiya” (men – ushbu bo‘linma a’zosiman) bosqichma-bosqich shakllanib, xizmat samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchilar adaptatsiyasi ko‘p omilli ijtimoiy-psixologik jarayon bo‘lib, u individual xususiyatlar, jamoaviy muhit va tashkilotchilik omillarining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Ushbu jarayonni ilmiy asosda o‘rganish va boshqarish harbiy xizmat samaradorligini oshirish, jamoaviy barqarorlikni ta’minlash hamda psixologik xavfsizlikni mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan harbiy xizmatchilar adaptatsiyasining ijtimoiy-psixologik determinantlarini tadqiq etish zamonaviy harbiy psixologiyaning ustuvor ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Leontyev A.N. *Faoliyat. Ong. Shaxs*. – Moskva: Politizdat, 1975.
2. Rubinshteyn S.L. *Umumiy psixologiya asoslari*. – Sankt-Peterburg: Piter, 2000.
3. Ananyev B.G. *Inson – bilish obyekti sifatida*. – Sankt-Peterburg: Piter, 2001.
4. Lazarus R., Folkman S. *Stress, Appraisal, and Coping*. – New York: Springer, 1984.
5. Bandura A. *Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory*. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1986.
6. Selye H. *The Stress of Life*. – New York: McGraw-Hill, 1956.

7. Lester P. et al. The Impact of Military Deployment on Children and Families // *Journal of the American Academy of Child & Adolescent Psychiatry,* 2010.

8. Adler A., Castro C. An Occupational Mental Health Model for the Military // *Military Behavioral Health*, 2013.

9. Караяни А.Г., Караяни А.А. *Военная психология*. – Москва: Юрайт, 2019.

10. Дружинин В.Н. *Психология личности*. – Санкт-Петербург: Питер, 2015.

11. Кон И.С. *Социальная психология личности*. – Москва: Аспект Пресс, 2002.

12. Леонтьев Д.А. *Психология смысла*. – Москва: Смысл, 2003.

13. Шепель В.М. *Психология управления*. – Москва: Гардарики, 2002.

14. Зеер Э.Ф. *Психология профессионального развития личности*. – Москва: Академия, 2006.

15. Hall N. *Emotional Intelligence Assessment*. – New York, 1999.

XITOYNING AXBOROT-PSIXOLOGIK TAJRIBASI: MAFKURAVIY TARBIYA VA VATANPARVARLIK

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavsizligi universiteti,
Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi dotsenti,
Falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent D.M.Mamatkulov

Mamlakatning harbiy qudrati, iqtisodiy salohiyati va siyosiy ta’siri fuqarolarning mafkuraviy-psixologik holatiga bevosita bog‘liq ekani bugungi axborot asrida yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) ana shunday modelni amaliy shaklda joriy etgan davlatlar ichida alohida o‘rin tutadi. Xitoy Kommunistik Partiyasi (XKP) xalq ongini partiya g‘oyalariga mutlaq sadoqat ruhida shakllantirishni davlat siyosati darajasiga ko‘targan. Bu siyosatning markazida vatanparvarlik, mafkuraviy intizom va millat manfaatlarini oliy qadriyat sifatida qabul qilgan shaxsni tarbiyalash g‘oyasi yotadi.

Xitoyda “mafkuraviy tarbiya” nafaqat ta’limda, balki axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar, kino, musiqa, oilaviy muhit, ish joylari, armiya, hatto virtual o‘yinlar orqali ham amalga oshiriladigan keng qamrovli va ko‘p bosqichli jarayondir. Bu tizim bugungi kunga kelib uzoq takomillashuv jarayoni natijasida mukammal darajada markazlashgan, partiya tomonidan muvofiqlashtirilgan, texnologik imkoniyatlar bilan integratsiyalangan va sun’iy intellekt asosida nazorat qilinadigan axborot-mafkuraviy muhitni yaratadi.

Mafkuraviy tarbiya tushunchasi XKP g‘oyalarini markazga qo‘yib, fuqarolar ongida “kommunistik qadriyatlar”, “milliy rivojlanish”, “partiyaga sadoqat”, “jamoaviy burch”, “inqilobiy meros”, “Xitoy sivilizatsiyasining ustunligi”, “G‘arb madaniyatiga ehtiyotkor munosabat” kabi g‘oyalarni singdirishni anglatadi. Bu faqat bilim berish emas, balki shaxsni qayta isloh qilish, uning dunyoqarashini davlatning bosh va asosiy g‘oyalariga yo‘naltirish, itoatkorlik va fidoyilik kabi xislatlarni ongli ravishda shakllantirish jarayoni hamdir. XKPning barcha darajalardagi mafkuraviy organlari, ta’lim muassasalari, harbiy qismlar, OAV va madaniy sohalar aynan shu yo‘nalishda bir vaqtda ishlaydigan axborot-psixologik mexanizmni tashkil etadi.

Xitoyning tarixiy tajribasi bu yo‘lda qator muhim bosqichlardan iborat bo‘lgan. Jumladan, Mao Szedun davridagi “Madaniy inqilob” (1966–1976) vaqtida mamlakatdagi har bir shaxs “Qizil kitob”dagi kommunistik shiorlarni yod olgan, har bir oilada partiyaga oid asosiy tushunchalar ibodatdagidek o‘qilgan. Bu davrda yoshlar partiya talablariga mos kelmagan hatto o‘z ota-onasini “siyosiy душманликда” ayblab, ularni mahalla majlislarida sharmanda qilishgan. 1950-yillarda “Katta sakrash” siyosatini ijobiy g‘oya sifatida ilgari surish uchun millionlab targ‘ibotchilar ishga jalb etilgan, maktabdagi bolalarga temirni eritish, vatanga xizmat qilish yo‘lida o‘zini qurbon qilish kabilar milliy rivojlanish deb singdirilgan. Xususan, “Yuy Gun tosh ko‘chiradi” dostoni ta’limda asosiy ma’naviy-tarbiyaviy manba sifatida qo‘llanilgan bo‘lib, unda xalq irodasi bilan tog‘ni ham ko‘chirishi mumkin, degan g‘oya ilgari surilgan.

Zamonaviy Xitoyda esa mafkuraviy-psixologik ta’sir texnologiya va axborot vositalari bilan sintez qilingan holda amalga oshirila boshlandi. Masalan, 2012-yildan boshlab maktab va universitetlarda “Si Szinpinning fikrlari” fan sifatida o‘qitiladi. Bu fan

orqali talabalar “xalq markazidagi rivojlanish”, “milliy qayta tiklanish”, “jahon sahnasida Xitoyning yetakchiligi” kabi g‘oyalarni o‘rganadilar. Imtihonlarda bu fandan o‘ta olmagan talabalar stipendiyadan mahrum etiladi. Ba’zi viloyatlarda esa maktabga kirish uchun avval partiyaning asosiy g‘oyalari bo‘yicha onlayn testni topshirish majburiy qilib qo‘yilgan. Bundan tashqari, armiyada har bir askar “haftada bir marta” mafkuraviy tayyorgarlik mashg‘ulotida ishtirok etadi. Bu mashg‘ulotlarda davlat rahbari nutqlarining mazmuni, milliy qahramonlar hayoti, tashqi tahdidlar haqidagi rasmiy pozitsiyalar yoritiladi.

Bugungi Xitoy televideniyasidagi barcha tarixiy seriallar partiyaga sadoqat, tashqi dushmanga qarshi kurash va milliy g‘urur mavzulari asosida tayyorlanadi. Masalan, “Chin qo‘shinlarining bahridan kechgani”, “Qizil otliqlar yurishi” kabi seriallar doimiy efirda bo‘ladi, bolalarbop “milliy faxr” mavzusidagi animatsion loyihalar ham doimiy tarzda yaratilib boriladi. TikTokning Xitoydagi varianti – Douyin yoshlarga ватанпарварлик контентлари, Si Szinpin so‘zlari va tarixiy qahramonlar haqidagi videolarni avtomatik ravishda tavsiya qiladi. Bu kontentlarni kuzatgan foydalanuvchilar “vatanparvarlik ballari”ni to‘playdi, bu esa ularning ijtimoiy reytingiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Albatta, bu jarayon bir tomonlama bo‘lmay ko‘pincha, XKP g‘oyalarini yoritmaydigan, G‘arb demokratiyasiga oid ma’lumotlar tarqatadigan, inson huquqlari, uyg‘urlar, Gonkong mustaqilligi haqida gapiradigan kontentlar butunlay bloklanadi. Bu esa, Xitoyda mafkuraviy tarbiyaning “ixtiyoriy” emasligi, balki boshqariladigan va cheklangan muhitda amalga oshirilishini ko‘rsatadi. Misol sifatida 2020-yilda Shandong provinsiyasida maktab o‘qituvchisi “Amerika Konstitutsiyasidagi so‘z erkinligi” haqida gapirgani uchun ishdan bo‘shatilgan va mehnat jamoasi hamda ijtimoiy tarmoqlarda “sog‘lom va barqaror turmushga qarshi chiqqan shaxs” sifatida tanqid qilingan.

XXRsi armiyasida mafkuraviy tarbiya yanada kuchli bo‘lib, unga ko‘ra, armiya faqat harbiy kuch emas, balki g‘oyaviy-siyosiy ustunlikni ta’minlovchi mafkuraviy муассаса сифатида ham shakllantirilgan. Xitoy Kommunistik Partiyasining “miltiq partiyaga xizmat qiladi” degan shiori harbiy tizimdagi siyosiy intizom va partiyaga mutlaq sadoqatning falsafiy asosi hisoblanadi. Bu shiorga muvofiq ravishda Xitoy Xalq

Ozodlik Armiyasi partiyaning мафкуравий va axborot-psixologik ta’sirini amalga oshiruvchi strategik institutga aylangan. Шунинг учун ҳам ҳarbiylar nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki har hafta siyosiy-mafkuraviy ta’lim jarayoniga ham tortiladi. Bu ta’limning markazida kommunistik qadriyatlar, partiyaning yetakchi rolini tan olish, davlat siyosatini qo‘llab-quvvatlash, tashqi tahdidlarga mafkuraviy bardosh va milliy g‘ururni shakllantirish kabi g‘oyalar turadi. Bunda armiyadagi har bir bo‘linmada siyosiy-tarbiyaviy ish uchun javobgar shaxs – “siyosiy komissar” (politruk) faoliyat olib boradi. Ular harbiylar ongida partiyaning markaziy o‘rnini mustahkamlash, g‘arb g‘oyaviy ta’sirlariga qarshi immunitet yaratish va harbiy shaxsning axloqiy barqarorligini ta’minlash bilan shug‘ullanadi. Armiyada “Si Szinpin fikrlari” alohida ma’ruzalar orqali o‘rgatiladi ҳамда “yangi taraqqiyot davrida armiyaga xos harbiy-vatanparvarlik” tushunchasi muntazam targ‘ibot qilinadi. Misol uchun, har bir harbiy qismda haftalik “siyosiy o‘qish” sessiyasi o‘tkaziladi, u yerda tashqi tahdidlar (ayniqsa, AQSh, Yaponiya va Tayvan bilan bog‘liq masalalar) siyosiy tahlil asosida sharhlanadi. Ҳarbiylar har kuni bayroq ko‘tarish marosimida ishtirok etadi, “armiya – millat suyagi, partiya – uning miyasi” degan shiorlar, qo‘shiqlar, bannerlar va турли namoyishlar orqali singdiriladi.

Tarixiy qahramonlar haqidagi filmlar muntazam namoyish etiladi: masalan, “The Founding of a Republic”, “Wolf Warrior”, “The Battle at Lake Changjin” filmlari orqali vatan uchun jonini fido qilgan askarlar obrazi orqali emotsional tarbiya amalga oshiriladi. Harbiylar orasidagi ijtimoiy tarmoqlarda faqat partiya tomonidan tasdiqlangan kontentlar tarqatiladi. Harbiy qismlarda ijtimoiy reyting tizimining ichki varianti mavjud bo‘lib, partiya tadbirlarida faol qatnashgan askarlar moddiy rag‘bat yoki lavozim ko‘tarilishi orqali mukofotlanadi. Shu bilan birga, g‘arb ommaviy madaniyatiga qiziqish bildirgan yoki “noqulay savollar” bergan harbiylarga nisbatan ichki intizomiy jazo choralari qo‘llaniladi. Masalan, 2022-yilda bir harbiy maktab o‘quvchisi Googledan “Tyananmen voqeasi”ni izlagani uchun akademik imtiyozlaridan mahrum etilib, rasmiy ogohlantirish berilgan. Shu kabi holatlarga “mafkuraviy tozalik” mezoni asosida baho beriladi. Bundan tashqari, harbiy qismlar “qizil bazalar”ga – partiya tarixi bilan bog‘liq muqaddas joylarga (Yanan, Jinganshan) sayohat qilib, u yerda harbiy-tarbiyaviy treninglarda ishtirok etadi. Bu tadbirlarda ishtirok etgan harbiylar “qizil tarix”ni bilish, uni hozirgi harbiy burch

bilan bog‘lash va fidokorlik madaniyatini кўрсатиш orqali mafkuraviy-psixologik qayta shakllanishni boshdan kechiradilar. Shunday qilib, Xitoy armiyasi nafaqat qo‘shin, balki partiyaning axborot-psixologik fronti sifatida ҳам faoliyat yuritadi. Unda harbiy kadr, avvalo, mafkuraviy jihatdan fidoiy shaxs sifatida tarbiyalanadi, keyin harbiy faoliyatra йўналтирилади. Bu tajriba axborot-psixologik operatsiyalarda ong ustidan ta’sir o‘tkazishning institutsional, ommaviy va davriy shaklda amalga oshirilishini yaqqol namoyon etadi.

Bugungi kunda ta’lim olayotgan kursantlar uchun Xitoydagi bunday model “mafkura bilan qurollangan armiya” konsepsiyasini anglash va milliy mafkura ustuvorligini harbiy salohiyat bilan qanday birlashtirilayotganini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Xitoyda xalq ongini mafkuraviy tarbiyalash va vatanparvarlikni singdirish siyosat darajasidagi vazifaga aylangan bo‘lib, u axborot-psixologik operatsiyalarning institutsional shakliga aylangan. Bu jarayonda tarixiy merosdan tortib zamonaviy texnologiyalar, ta’limdan tortib armiyagacha bo‘lgan barcha tizimlar mafkuraviy birlikda harakat qiladi.

Bugungi kunda biz uchun ham Xitoy tajribasi kabi bunday bilimlarni o‘rganishimiz strategik ahamiyatga ega bo‘lib, ular bizga axborot ta’siri orqali shaxs ongini qayta shakllantirish, mafkura orqali jamiyatni birlashtirish va davlat kuchini ko‘zga ko‘rinmas ta’sir bilan mustahkamlashning zamonaviy modellarini anglashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. В.В.Челноков. Психологические аспекты обеспечения информационной безопасности. Екатеринбург: 2021. 147 с.

2. Маматкулов Д.М. Мафкуравий жараёнлар трансформацияси // Монография – Тошкент: «Lesson press» нашриёти, 2023 – 224 б.

3. X.Tursunbekov, H. Saidova. Virtual olam va uning jamiyat hayotiga ta’siri. Global dunyoda ilm-fan va ta‘limdagi innovatsion rivojlanishning zamonaviy trendlari. 2023-yil 15-dekabr. 145-bet. https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp

4. Б.Кузиев Ахборот-психологик хавфсизлигини таъминлашнинг айрим масалалари. Scientific Progress jurnali. 2021-yil. 2-son. 148-bet. www.scientificprogress.uz

5. M.Kubayev. Shaxsdagi internet va kompyuter o‘yinlariga tobelikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. // Scientific Progress jurnali.2024-yil. 2-son. 609-bet. www.scientificprogress.uz

HARBIY XIZMATCHILARDA STRESSGA BARDOSHLILIKNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Saipova Malaxat Latipovna

“Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash”

kafedrasi, psixologiya fanlari

doktori (DSc), dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy xizmatchilar duch kelishlari mumkin bo‘lgan har qanday vaziyatlarda jumladan ekstremal, murakkab, favqulodda vaziyatlarda xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlariga xalaqit beruvchi salbiy emotsiyalarni bartaraf etishda “Ruhiy yo‘lakda” harakatlanish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish masalasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ruhiy yo‘lak, qo‘rquv, fobiya, stress, guruhiy harakatlanish, ekstremal va murakkab vaziyatlar, jangovar harakatlar.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос эффективной организации практических занятий по передвижению в «Психологическом коридоре» для нейтрализации негативных эмоций, которые могут препятствовать успешному выполнению служебных обязанностей военнослужащими в любых ситуациях, включая экстремальные, сложные и чрезвычайные условия.

Ключевые слова: психологический коридор, страх, фобия, стресс, групповое передвижение, экстремальные и сложные ситуации, боевые действия.

Annotation: This article addresses the effective organization of practical training sessions on movement through the “Mental Corridor” aimed at eliminating negative emotions that may hinder military personnel from successfully performing their duties in any situation, including extreme, complex, and emergency conditions.

Keywords: mental corridor, fear, phobia, stress, group movement, extreme and complex situations, combat operations.

Bugungi kunda stress dunyo miqyosida “asr kasalligi” sifatida qayd etilmoqda. Har qanday inson – xususan harbiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxs – stress holatiga tushishi mumkin, bu esa nafaqat faoliyatiga, balki ruhiy va jismoniy salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Butun dunyo sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, mavjud kasalliklarning taxminan 65 % stress bilan bog‘liqdir. Shuning uchun harbiy xizmatchilarning stress holatiga tushishlari turli somatik va psixosomatik kasalliklar rivojlanishiga olib kelishi ehtimoli sababli hozirgi paytda psixologiyaning diqqat markazida turibdi. Demak, bugungi harbiy xizmatchilar stress va undan chiqish yo‘llari haqida ma’lumotga ega bo‘lishlari zarur va foydalidir.

Harbiy xizmatchilarni ekstremal va murakkab vaziyatlarda ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorlashda amaliy mashg‘ulotlarning o‘rni muhim ahamiyatli hisoblanadi. Amaliy mashg‘ulotlarni tashkillashtirishda “Ruhiy yo‘lak”dan foydalanish harbiy xizmatchilarni jang maydonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklardan (to‘siqlarni) o‘tishga o‘rgatish va ko‘nikmalar hosil qilishdan iboratdir [1]. Ekstremal va murakkab vaziyatlarda “Ruhiy yo‘lak”da harakatlanishni o‘rgatish orqali harbiy xizmatchilardagi niktofobiya-qorong‘ilikdan qo‘rqish, ballistofobiya - o‘q, bomba, snaryad tegishidan qo‘rqish, panofobiya (panfobiya, pantofobiya) - hamma narsadan qo‘rqish, noma’lum sabablardan qo‘rqish, xoplofobiya (goplofobiya) - quroldan qo‘rqishni yengish bo‘yicha maxsus jihozlangan labirint xonalarida dushmanga qarshi to‘g‘ri xarakat qilishni, tez va to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish uchun zarur amaliy-mashg‘ulotlardan biri hisoblanadi [2].

Shu sababli, “Ruhiy yo‘lak” shaxsiy tarkibni jangovar harakatlar olib borish vaqtida tungi (qorong‘i) sharoitda qo‘rquv, stress, karaxtlik hislarini yengish, yashash uchun

mo‘ljallangan, ma’muriy idoralar joylashgan binolarga kirish uchun yer osti yo‘llari orqali harakatlanish, tungi kuzatuv vositalari orqali xira yorug' yoki qorong‘i xonalarni tekshirish, qurollangan jinoyatchilarni va garovga olingan shaxslar joylashgan joyni topish, ishg‘ol qilish harakatlarini amalga oshirish, shovqinsiz harakatlanish belgilarini qo‘llash orqali razvedka olib borish, jinoyatchi va garovga olinganlarni ajrata olish, ovozni pasaytiruvchi moslamalar o‘rnatilgan qurollardan tezkor mo‘ljalga olish va o‘q uzish mashqlarini o‘rgatishga mo‘ljallangan.

Mashg‘ulotlardagi harakatlar vaqtida shaxsiy tarkib korrektirovka qilinadi va harakatlari tungi kuzatuv kameralari orqali yozib olinadi.

To‘siqlardan o‘tishda shaxsiy tarkibga har xil shovqinlar, baqiriq, yordam so‘rash, itlar hurishi, o‘q otish, portlash, ovoz kuchaytiruvchi vositalarda jinoyatchilar bilan muzokara olib borish kabilar orqali ta’sir o‘tkazib boriladi.

Harakatlanish vaqtida turli “qopqon” ga tushganlar inson ruhiyatiga ta’sir qiluvchi maxsus yorug‘lik va past chastotali tovush (signal) beruvchi moslamalar orqali aniqlanadi.

Jangda harbiy xizmatchi turli portlashlar, o‘q ovozlari, tutun, yoqimsiz xid, ruhiyatga ta’sir qiluvchi ovozlar va boshqa bir qancha omillarni yengib o‘tishi kerak bo‘ladi. Bu yuklamalarni yengib o‘tishda “ruhiy yo‘lak”ning o‘rni beqiyosdir [3].

Harbiy xizmatchilarni jang (maydonlari)da yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan to‘siqlardan o‘tishga o‘rgatishda faqatgina jismoniy tayyorgarligi yetarli emas. Chunki harbiy xizmatchiga jang maydonida jismoniy yuklamadan tashqari ruhiy yuklamani ham ta’siri katta [3].

Jangovar stress – bu harbiy xizmatchining organizmi va psixikasining jangovar harakatlarning salbiy omillariga nisbatan tabiiy (fiziologik va psixologik) javob reaksiyalaridir. Ushbu omillarning asosiylari — hayot va sog‘liq uchun tahdid, insoniy qadriyatlarning buzilishi hisoblanadi.

Mazkur reaksiyalar harbiy xizmatchining unvoni, lavozimi, yoshi va xizmat tajribasidan qat’i nazar namoyon bo‘lishi mumkin. Jangovar stress harbiy xizmatchilarda ijobiy va salbiy reaksiyalarni yuzaga keltirishi mumkin.

Ijobiy reaksiyalar -bo‘linma ichida jipslashuvning kuchayishi, o‘zaro yordam va hamjihatlik, er’tiqodning mustahkamlanishi, qahramonlik namoyon bo‘lishi, har qanday sharoitda vazifani bajarishga intilish.

Salbiy reaksiyalar - qo‘rquv, vahima, kuchli xavotir, shubhalanish, ishonchsizlik, xotira, tafakkur va orientatsiya buzilishlari, ishonchning yo‘qolishi, izolyatsiya, tajovuzkorlik, zo‘ravonlik, shafqatsizlik, buyruqlarga bo‘ysunmaslik, huquqbuzarliklar, dezertirlik, o‘ziga zarar yetkazish, suitsidal fikrlar, ruhiy kasalliklarning rivojlanishi. Salbiy reaksiyalar natijasida harbiy xizmatchining jangovar qobiliyati qisman yoki to‘liq yo‘qoladi hamda noto‘g‘ri qarorlar sonining ortishi, vaqt va makonda orientatsiya buzilishi, atrof-muhitni adekvat idrok eta olmaslik, harakat va qarorlar sekinlashuvi, qurol va texnikadan noto‘g‘ri foydalanish, buyruqlarni tushunmaslik yoki unutish kabilardir. Bu esa jangovar vazifalarning bajarilmasligiga, bo‘linma shaxsiy tarkib va texnikaning yo‘qotilishiga, o‘ziga yoki boshqalarga nisbatan zo‘ravonlikka olib kelishi mumkin.

Harbiylar salbiy reaksiyalarga ko‘proq jamoaga yangi qo‘shilganlar, etnik, diniy yoki madaniy jihatdan ko‘pchilikdan farq qiluvchilar, tazyiqqa uchrayotgan shaxslar, jarohat yoki asirlikni boshdan kechirganlar, jangovar tajribasi bo‘lmaganlar, shaxsiy hayotida muammolari borlar, spirtli ichimlik yoki narkotik moddalardan foydalanuvchilar, uzoq vaqt dam olmagan, og‘ir iqlim sharoitida xizmat qilayotganlar, ko‘p talofatli janglarda ishtirok etganlar, yaqqol yo‘qotishlarni boshdan kechirganlar salbiy reaksiyalarga ko‘proq moyil bo\ lishar ekan. Ko‘pincha salbiy reaksiyalar keskin va to‘satdan rivojlanadi. Oldin adekvat va jangovar layoqatli bo‘lgan harbiy xizmatchi bir zumda jangovar qobiliyatini yo‘qotishi mumkin.

Mashq bajarilishidan avval harbiy xizmatchilarga ular o‘tishi kerak bo‘lgan shartli ravishdagi jang maydonidagi yo‘lak tanishtirib chiqiladi, lekin turli jangovar vaziyatlarga yaqin sharoit yaratish uchun mo‘ljallangan effektlar qanday, qachon ishlatilishi aytilmaydi. Mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazishda barcha me’yoriy hujjatlar (xavfsizlik talablari yetkazilgan jadval va h/k) ishlab chiqilgan, tasdiqlangan va ro‘yxatdan o‘tkazilgan bo‘lishi shart.

Shu bilan birga harbiy xizmatchilarga to‘siqlardan o‘tishda qurol ishlatishda va boshqa hollarda havfsizlik talablariga rioya qilish bo‘yicha yo‘riqnoma beriladi.

Shundan so‘ng “ruhiy yo‘lakdan” o‘tiladi. Mashg‘ulotlar orasida to‘htalishlarga yo‘l qo‘yilmasligi kerak.

“Ruhiy yo‘lak”ni jihozlashda qon va turli organlar bo‘laklari psixologik ta’sirini yuzaga keltirish uchun hayvon organlaridan foydalanilsa o‘z samarasini ko‘proq bo‘ladi.

Shu bilan birga yarador o‘rnida maxsus tayyorlangan “maniken”dan foydalanish, harbiy xizmatchilarda jangovar sharoitda yarador safdoshiga yordam berish bo‘yicha harakatlarni takomillashtiradi. “Ruhiy yo‘lak”ka qo‘yilgan qo‘shimcha predmetlar, hayvon (quyon) va organlari, manikenlar, turli shovqin tovushlarning ovozi ko‘paygan sari harbiy xizmatchilarning bezovtalanishi va qo‘rquvi oshib boraveradi. Shuningdek, harbiy xizmatchilar garovga (shartli ravishda) olinganlarni paypaslash (taktil sezgilari) yordamida topadilar. Buni ular bilan mashqlardan so‘ng suhbat olib borilganda aniqlandi.

O‘q otish, portlash va maxsus tutunli vositalardan foydalanishda havfsizlik qoidalarga rioya qilingan holda shaxsiy tarkib uchun ruhiy-jismoniy yuklamalarni nazorat qilish talab etiladi. Vazifa bajarilganini aloqa vositasi orqali mashg‘ulot rahbariga xabar berib boriladi.

Mashg‘ulotning so‘ngi bosqichini yakunlagandan so‘ng harbiy xizmatchi o‘q otish tirida maxsus mashq bajarilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shundan so‘ng mashg‘ulot yakunida mavzu bo‘yicha qisqa “Kim nimani his etdi?”, “Jamoa bilan bir-biringizni qanday tushundingiz?”, “Berilgan vazifani bajarish vaqtida qo‘rqdingizmi?” va shu kabi savollar beriladi va har bir harbiy xizmatchining fikri eshitilib qanday xatolarga yo‘l qo‘yilganligi, qaysi tovushlardan qo‘rqanligi, his-tuyg‘ular va kechinmalari bo‘yicha savol javoblar o‘tkaziladi. Mashg‘ulotda faol ishtirok etgan va sustkashlik ko‘rsatgan harbiy xizmatchilarni alohida ko‘rsatib o‘tiladi.

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tajribalar natijasiga ko‘ra, xizmat olib borayotgan harbiy xizmatchilarning mashqlarni olib borishi takroran jamoa bilan o‘tishlarida tajribalari oshgan unda harakatlanish va berilgan vazifani bajarishlarini vaqti qisqarib bordi va qorong‘ulikda jamoaviy harakatlanishda bir-birlariga ishonch ortib

boradi va sheriklariga har qanday vaziyatda (ekstremal va murakkab vaziyatlarda) ishonishlari mumkinligi his etdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Изард, К.Э. Психология эмоции - СПб.: Питер, 2000. – 192 с.

2. Лепешинский И.Ю., Грымзин К.А. Основы военной педагогики и психологии. Учебное пособие. М. НИЦ ИНФРА-М.2023. - 184 с.

3.Kennedi, C. H. va Zillmer, E. A. (Edler). (2006). Harbiy psixologiya: klinik va operatsion ilovalar. Nyu-York, Nyu-York: Guilford Press.

JANGOVOR VAZIYATLARDA RUHIYATGA TA’SIR KO‘RSATISHNING TARIXIY VOSITALARI

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavsizligi universiteti,
Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi dotsenti,
Falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent D.M.Mamatkulov

Tinchlik va jangovor vaziyatlarda inson ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatish vositalari insoniyat rivojiga hamohang ravishda shakllanib, takomillashib borgan. Bu jarayon so‘z va nutqdan boshlangan bo‘lsa-da, keyinchalik yozma manbalar, ko‘rgazmali vositalar, radio, televidenie va internet vositasida juda keng ko‘lamda rivojlandi.

Darhaqiqat, so‘z va nutq inson munosabatlarining eng qadimiy ta’sir vositasi hisoblanadi. Qadimgi davrlarda podshohlar, harbiy yo‘lboshchilar va din arboblari so‘z orqali xalq ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Og‘zaki targ‘ibot, afsona, rivoyat va eposlar orqali ma’lum g‘oyalar, dunyoqarash va xulq-atvor me’yorlari jamiyat ruhiyatida shakllantirib borilgan. So‘z vositasidagi ta’sir – inson qalbiga ta’sir qilishning to‘g‘ridan-to‘g‘ri usuli bo‘lib, qadimdan notiqlik harbiy rahbarlar uchun asosiy qobiliyatlardan biri sanalgan. Ayniqsa, urushlar paytida qo‘mondonlarning qo‘shinga qilgan murojaati, so‘zlar orqali berilgan ruhiy qo‘llab-quvvatlash urush natijalariga jiddiy ta’sir ko‘rsatgan.

Mazkur masalaga ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur va hind rojasi Rano Sango bilan bo‘lib o‘tgan “Kanva jangi”[11]ni misol qilib keltirish mumkin. Unga ko‘ra, Bobur mutlaqo begona hududlarda dushmanga nisbatan oz sonli jangchilari bilan jangga

[11] 1527-yil Bobur va Rano Sango orasida bo‘lib o‘tgan jang.

kirish uchun hozirlik qilar ekan, bo‘lg‘usi jangning ahamiyatini teran anglagan holda bek va navkarlari qarshisida shunday bir nutq irod qildi-ki, mazkur nutq g‘alabaning mutloq garovi bo‘ldi:

“*Bek yigitlar!*

Har kimsa bu jahruhiyata kelarkan, oxiri yo‘qlikka ketadi. Abadiy qoluvchi yolg‘iz Allohdir.

Hayot majlisiga kirgan odamning har biri oxir-oqibat ajal qadahidan ichadi va tiriklik manziliga kelgan kishi oxiri dunyo g‘amxonasidan kechib ketadi. Yomon nom bilan tirik yurgandan ko‘ra, yaxshi nom bilan o‘lgan afzal.

Yaxshi nom bilan o‘lsam, shu etadi. Ruhга yaxshi nom kerak, tana esa o‘lim uchundir.

Tangri taolo bunday saodatni bizga nasib qilibdi va bunday davlatni bizga yaqin aylabdi. O‘lgan shahid, o‘ldirgan g‘oziy. Barchangiz Tangrining kalomi nomi bilan bu urushdan hech kim yuz o‘girishini hayoliga keltirmasligini aytib ont ichmog‘ingiz kerak”[12].

Mazkur nutq mazmunidan Oliy bosh qo‘mondonni yuksak tafakkur sohibi ekanligini sezish mushkul emas. Darhaqiqat, Mirzo Boburning adabiyotdagi qobiliyati unga jangovor nutq so‘zlashida ham qo‘l kelgan, nutqning hissiy to‘yinganligi va ohangraboligi har bir askarda jangovor harakat qilishi uchun yuksak motivatsiya uyg‘onishini ta’minlagan.

Anglaganingizdek, nutq va ma’ruzalar, diniy xutbalar тарихан ma’lum bir g‘oyani tushuntirish, asoslash va keng auditoriyaga yetkazish vositasi sifatida keng qo‘llanilgan. Diniy yetakchilar, siyosiy arboblar va harbiy rahbarlar bu imkoniyatdan муайян manfaat yo‘lida унумли foydalangan. Masalan, Islomda жума namoz vaqtidagi xutba asosiy axborot platformasi bo‘lib, jamoatchilik ruhiyatini shakllantirishda muhim o‘rin tutgan. Diniy ma’ruzalar orqali xissiy va mafkuraviy ta’sir orqali jamoaviy ruh shakllantirilgan.

Qadimgi G‘arb jumladan, Yunon-Rim an’anasida esa forumlar ва siyosiy minbarlar notiqlik vositasida inson ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatishning ilg‘or shakllaridan biri

[12] Rahimov Ж. Buyuk sarkardalaarimizning jahon harbiy san’atida tutgan o‘rni. T.: JXU nashroyoti, 2020. 307-bet.

sifatida namoyon bo‘lgan. Keyinchalik, yozma varaqa va broshyuralar axborot tarqatishning keng miqyosdagi shakliga aylangan. Inqiloblar va urushlar davrida varaqalar orqali aholi yoki harbiylar ruhiyatiga kuchli ta’sir etilgan. Fransiya inqilobi, Amerika mustaqillik urushi, Napoleon janglari, shuningdek, Ikkinchi jahon urushi davrida dushman qo‘shinlari orasida targ‘ibot olib borish uchun maxsus tarkibda tayyorlangan varaqalar самолётлар орқали tarqatilgan. Ularda dushman armiyasida demoralizatsiyani kuchaytirish ёки qo‘shinga askar yollashga qaratilgan axborotlar bo‘lgan. Ушбу yozma va vizual vositalar ko‘pincha grafik va vizual tasvir, lozunglar bilan boyitilgan bo‘lib, улар ўз даври нуқтаи назаридан juda kuchli psixologik ta’sirga ega эди.

G‘arbda mazkur vositalar orasida ayniqsa aholida vatanparvarlik xissini kuchaytirish, ularni urushga safarbar qilishga qaratilgan jangovor plakatlar ahamiyati katta bo‘lib, mazkur vosita o‘z vaqtida G‘arb davlatlarida axborot-psixologik ta’sir hamda san’atning alohida uslubi sifatida rivojlangan (1-7-rasmlar).

Axborot-psixologik ta’sir sifatida jangovor plakatlar urushlarning ilk kunlaridagi juda ham murakkab vaziyatlarga o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan: harbiy xizmatga chaqiriluvchilar uchun qo‘shimcha rag‘batga aylangan, ularni imkon qadar tezroq frontga jo‘nash uchun ko‘ngillilar sifatida ro‘yxatdan o‘tishga undagan.



1-rasm. Buyuk Britaniyada Opinion gazetasi tomonidan 1914-yilda chop etilgan jangovor plakat



2-rasm. Buyuk Britaniyada 1915-yilda yaratilgan urushiga yollashga qaratilgan jangovor plakat





3-rasm: AQShda Tarixiy shaxs Samuel Uilsonning portreti hamda Birinchi jahon urushi davrida rassom Jeyms Montgomeri Flagg tomonidan yaratilgan “Sem amaki” obrazidagi jangovor plakat.





4-rasm. Rossiyada inqilob yillari yaratilgan jangovor plakatlar (Rossiya Oq Armiyasiga chaqiruv plakati – “Nega armiyada emassiz?” 1919-yil; Rossiya Qizil Armiyasiga chaqiruv plakati, “Siz (Qizil Armiyaga) ko‘ngilli bo‘lib qo‘shildingizmi?” 1920-yil.)



5-rasm. SSSRda 1941-yilda rassomlar M.V. Kupriyanov, P.N. Krilov, N.A. Sokolovlar tomonidan yaratilgan “Dushmanni shafqatsizlarcha yo‘q qilamiz!” nomli jangovor plakat.



6-rasm. SSSRda 1941-yilda rassom Irakliy Toidze tomonidan yaratilgan “Ona-Vatan chaqirmoqda!” nomli jangovor plakat



7-rasm. SSSRda 1942-yilda rassom V.B. Koreskiy tomonidan yaratilgan “Qizil Armiya jangchisi, qutqar!” nomli jangovor plakat.

Radioning ixtiro etilishi XX asrning birinchi yarmida jahon urushlari davrida eng samarali ommaviy ta’sir vositasini vujudga keltirgan. Germaniyada “Fyurerning ovozi” orqali fashistik g‘oyalar keng auditoriyaga yetkazilgan. Britaniyada BBC orqali Germaniya aholisiga fashistik g‘oyalarga qarshi targ‘ibot yuritilgan.

AQShda Voice of America kabi radio to‘lqinlari orqali urushdagi maslakdosh davlatlarni ruhiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, milliy g‘urur va demokratik qadriyatlarni mustahkamlash vazifalari amalga oshirilgan. Ўз вақтида padio uzoq masofalargacha ommaviy ravishda aholi ruhiyatiga ta’sir o‘tkazishda muhim platforma sifatida namoyon bo‘lgan. Ayniqsa, radiodasturlar orqali dushman qo‘shinlarga yuborilgan targ‘ibot xabarlari urush psixologiyasida yangi bosqichni boshlab bergan.

Ma’lumki, televidenie tasvir va ovozning birlashgan shakli sifatida inson hissiyotiga chuqur ta’sir ko‘rsata oladigan vosita hisoblanadi. XX asr o‘rtalaridan boshlab siyosiy kampaniyalar, harbiy paradlar, turli marosimlar, yirik voqealarda televidenie orqali jamoat fikri shakllantirish amaliyoti vujudga kelgan. Masalan, Vetnam urushi paytida Amerikadagi norozilik to‘lqini aynan televidenie orqali tarqalgan tasvirlar asosida yuzaga kelgan. Bu vosita nafaqat axborot berish, balki omma kayfiyatini boshqarishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z vaqtida televidenie orqali amalga oshirilgan propaganda, taassurot va identifikatsiya mexanizmlari keyinchalik axborot-psixologik operatsiyalarning zamonaviy metodlariga yo‘l ochdi.

Internet zamonaviy axborot makonidagi eng ta’sirchan vosita bo‘lib, ijtimoiy tarmoqlar, elektron nashr va kontent platformalar orqali individual va guruhiy miqyosda ta’sir o‘tkazish imkoniyatini vujudga keltirdi. Internetda botlar, feyk yangiliklar, manipulyativ vizuallar va algoritmlar orqali inson ruhiyatiga ta’sir qilina boshlandi. Bugungi kunda “gibrid urushlar” va “axborot urushlari” ning asosiy fronti aynan internetda kechmoqda. Bu vosita orqali psixologik ta’sir interaktiv shaklda amalga oshiriladi – foydalanuvchi nafaqat axborotni qabul qiladi, balki unga javob berish orqali o‘z reaksiyasini ma’lum qiladi. Shuning uchun ham internet orqali axborot-psixologik operatsiyalar juda samarali bo‘lib, kursantlar bu sohadagi tahdidlarga qarshi bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kungacha tinchlik va jangovor vaziyatlarda inson ruhiyatiga ta’sir qilish vositalari so‘z va nutqdan boshlab, internetgacha bo‘lgan rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Insoniyat tarixidagi har bir axborot-psixologik ta’sir vositasi o‘z davrining mafkuraviy-psixologik va siyosiy ehtiyojlarini ifoda etdi. Endilikda, harbiy tayyorgarlik jarayonida ushbu vositalarni o‘rganish, ular orqali amalga oshirilayotgan axborot-psixologik operatsiyalarni anglash va unga qarshi kurashish usullarini o‘zlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, har bir tarixiy vosita – bu muayyan strategik maqsadlar va ijtimoiy-siyosiy sharoitlarning mahsuli ekanligini anglash biz uchun murakkab axborot muhitida to‘g‘ri qarorlar qabul qilishimizga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pomerantsev, Peter. This Is Not Propaganda: Adventures in the War Against Reality. – London: Faber & Faber, 2019. – 256 p.

2. Rahimov Ж. Buyuk sarkardalaarimizning jahon harbiy san’atida tutgan o‘rni. T.: JXU nashroyoti, 2020. 307-bet.

3. Маматкулов Д.М. Мафкуравий жараёнлар трансформацияси // Монография – Тошкент: «Lesson press» нашриёти, 2023 – 224 б.

4. Б.Қузиев Ахборот-психологик хавфсизлигини таъминлашнинг айрим масалалари. Scientific Progress jurnali. 2021-yil. 2-son. 148-bet. www.scientificprogress.uz

5. X.Tursunbekov, H. Saidova. Virtual olam va uning jamiyat hayotiga ta’siri. Global dunyoda ilm-fan va ta‘limdagi innovatsion rivojlanishning zamonaviy trendlari. 2023-yil 15-dekabr. 145-bet. https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp

HARBIY XIZMATCHILARDA AGRESSIYA: PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

I.I.Rejametova

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarda agressiv xulq-atvorning shakllanishi pedagogik-psixologik muammo sifatida tahlil qilinadi. Harbiy faoliyat sharoitlari, stress omillari, shaxsiy xususiyatlar hamda ijtimoiy muhit agressiya darajasiga qanday ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, agressiv reaksiyalarni kamaytirish va konstruktiv xulqni shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: agressiya, harbiy psixologiya, stress, pedagogik profilaktika, kommunikativ kompetensiya, emotsional nazorat, konflikt.

Zamonaviy xavfsizlik tizimlarining institutsional va funksional murakkablashuvi, tahdidlarning diversifikatsiyalanishi hamda xizmat vazifalarining ko‘p omilli xarakter kasb etishi harbiy xizmatchilar faoliyatini yuqori riskli, tezkor va doimiy psixologik tayyorgarlikni talab qiladigan professional muhitga aylantirmoqda. Bunday sharoitda harbiy xizmatchilardan nafaqat jismoniy chidamlilik va kasbiy ko‘nikmalar, balki muvozanatli emotsional reaktivlik, o‘zini-o‘zi boshqarish, yuqori darajadagi stressga rezistentlik, ijtimoiy moslashuvchanlik hamda muomala madaniyati ham talab etiladi. Harbiy xizmatning o‘ziga xos psixologik “fon omillari” – doimiy tayyorgarlik holati, noaniqlik, xavf ehtimolining yuqoriligi, javobgarlik bosimi, tezkor qaror qabul qilish zarurati, subordinatsiya va intizom talablari, shuningdek, jamoa ichidagi rol va status munosabatlari shaxsning emotsional holatini sezilarli darajada zo‘riqtiradi. Mazkur zo‘riqish uzoq davom etganda yoki shaxsning individual resurslari (moslashuv strategiyalari, coping repertuari, emotsional nazorat) yetarli bo‘lmaganda, psixofiziologik charchash, frustratsiya, affektiv portlashlar, impulsiv reaksiyalar va agressiv xulq-atvorning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Harbiy muhitda agressiya fenomeni ko‘pincha bir vaqtning o‘zida ikki xil semantik maydonda namoyon bo‘ladi: bir tomondan, “vazifaviy-funksional” agressivlik (xavfni bartaraf etish, jangovar shaylik, qat’iyat, tezkor harakat) harbiy tayyorgarlikning tabiiy komponenti bo‘lishi mumkin; ikkinchi tomondan, “interpersonal-destruktiv” agressiya (haqorat, zo‘ravonlik, tahdid, obstruktsion xulq, jamoaga zarar yetkazuvchi nizoli strategiyalar) jamoaviy muhitni buzuvchi va xizmat intizomiga xavf tug‘diruvchi salbiy ko‘rinish sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli harbiy xizmatchilarda agressiyani faqat individual psixologik holat doirasida izohlash metodologik jihatdan tor yondashuv bo‘lib qoladi; uni pedagogik-psixologik muammo sifatida ko‘rish esa agressiyaning shakllanish manbalari, ijtimoiy o‘rganish mexanizmlari, tarbiyaviy boshqaruv, jamoa iqlimi, rahbarlik uslubi va kasbiy etik me’yorlar bilan bog‘liqligini kompleks tahlil qilish imkonini beradi.

Psixologiya fanida agressiya odatda shaxsning boshqa shaxsga, guruhga yoki obyektga zarar yetkazishga yo‘naltirilgan xulqiy aktlar va emotsional reaksiyalar majmui sifatida talqin qilinadi. Biroq zamonaviy ilmiy konsepsiyalar agressiyani biryoqlama destruktiv hodisa sifatida emas, balki ko‘p darajali (kognitiv–emotsional–xulqiy), kontekstga bog‘liq va ijtimoiy regulyatsiyalanuvchi jarayon sifatida ko‘rib chiqadi. Agressiv xulqning psixologik mexanizmlari, odatda, quyidagi komponentlar orqali tushuntiriladi: (1) kognitiv baholash (vaziyatni “tahdid”, “adolatsizlik”, “mensimaslik” sifatida idrok etish), (2) emotsional reaktivlik (g‘azab, ranjish, qo‘rquv, frustratsiya), (3) impulsiv yoki rejalashtirilgan xatti-harakat (verbal/neverbal tahdid, zo‘ravonlik, obstruktsiya, tajovuzkor muloqot), (4) ijtimoiy mustahkamlash (jazolamaslik, “kuchli” sifatida qabul qilish, guruhda maqom oshishi). Shunday qilib, agressiya ko‘pincha “ichki kuchlanish + vaziyat talqini + nazorat resurslarining yetishmasligi + ijtimoiy qo‘llab-quvvatlovchi normativ muhit” kombinatsiyasi natijasida yuzaga keladi.

Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi agressiyani modellashtirish va mustahkamlash mexanizmlari orqali izohlaydi: shaxs agressiv xulqni kuzatadi (model), uni takrorlaydi (taqlid), natijada maqsadga erishsa yoki jazolanmasa (mustahkamlash), bu xulq repertuar sifatida barqarorlashadi. Harbiy jamoada agressiv kommunikatsiya uslubi, buyruqbozlik bilan qorishgan tahdidli muloqot, “qattiqlik”ni normativ qadriyat sifatida

idealizatsiya qilish, yoki aksincha, konstruktiv muloqot va hurmat tamoyillari — bularning barchasi agressiyaning namoyon bo‘lish chastotasi va shakliga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Demak, agressiya nafaqat shaxsiy impulslar mahsuli, balki jamoa iqlimi va tarbiyaviy-psixologik boshqaruvning natijasi sifatida ham shakllanadi.

Lazarus va Folkman tomonidan ishlab chiqilgan stress va coping nazariyasi esa agressiyani stressor vaziyatlarga beriladigan moslashuv reaksiyalaridan biri sifatida talqin qilishga imkon beradi. Ularning yondashuvida stress — bu shaxs resurslari va vaziyat talablari o‘rtasidagi nomutanosiblik natijasida yuzaga keladigan psixologik holat bo‘lib, shaxs vaziyatni baholash (primary appraisal) va resurslarni solishtirish (secondary appraisal) orqali unga munosabat bildiradi. Harbiy muhitda stressorlar (xavf, noaniqlik, vaqt tanqisligi, ierarxik bosim, mas’uliyat) ko‘pincha yuqori intensivlikda bo‘ladi; agar shaxsda muammoni hal etishga yo‘naltirilgan coping strategiyalari (problem-focused coping), emotsional o‘zini boshqarish (emotion-focused coping), ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni qabul qilish ko‘nikmalari yetarli bo‘lmasa, agressiya “tezkor chiqish” (discharge) yoki “himoya reaksiyasi” sifatida namoyon bo‘lish ehtimoli ortadi. Bu holat ayniqsa charchash, uyqusizlik, psixofiziologik resurslarning kamayishi, posttravmatik simptomatika yoki affektiv labillik fonida kuchayadi.

Shu tarzda, harbiy xizmatchilarda agressiya fenomeni ko‘p omilli va tizimli xarakterga ega bo‘lib, unda individual psixologik xususiyatlar (temperament, impulsivlik, emotsional intellekt), vaziyat omillari (stress darajasi, xizmat sharoiti, xavf), ijtimoiy muhit (jamoa normasi, rahbarlik uslubi, adolat hissi) hamda pedagogik boshqaruv (tarbiya, kommunikativ madaniyat, konfliktologik kompetensiya) o‘zaro bog‘langan. Demak, agressiyani ilmiy tahlil qilishda faqat “sababi nima?” degan savol bilan cheklanmay, “qanday sharoitda, qaysi mexanizm orqali, qaysi indikatorlar asosida kuchayadi va qaysi pedagogik-psixologik choralar bilan konstruktiv yo‘naltiriladi?” degan metodologik savollar qo‘yilishi zarur. Mazkur yondashuv agressiyani profilaktika qilish, diagnostika va korrektsiya dasturlarini ishlab chiqish hamda harbiy pedagogik jarayonga integratsiya qilish uchun nazariy-amaliy asos yaratadi.

E.Fromm agressiyani mohiyatan turlicha psixologik ildizlarga ega bo‘lgan ikki asosiy turga ajratadi: biologik himoya agressiyasi va destruktiv ijtimoiy agressiya.

Biologik himoya agressiyasi evolyutsion jihatdan shakllangan va shaxsning xavfsizligini ta’minlash, hayotiy tahdidlarga qarshi javob qaytarish hamda o‘zini saqlash instinktiga asoslangan reaktsiya sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu turdagi agressiya, odatda, vaziyatga moslashuvchan bo‘lib, u shaxsni xavfdan himoya qilish yoki vazifani bajarishda qat’iyatni oshirishga xizmat qiladi. Harbiy faoliyat kontekstida bunday agressiv reaktivlik muayyan operativ vaziyatlarda funksional ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin, chunki u xizmatchining tezkorlik, qat’iylik va xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan harakatlarini rag‘batlantiradi.

Biroq E.Fromm ta’kidlaganidek, destruktiv ijtimoiy agressiya insonning biologik ehtiyojlaridan emas, balki ijtimoiy muhit, frustratsiya, o‘zini namoyon etish ehtiyoji, kuch va hukmronlikka intilish kabi omillardan kelib chiqadi. Bunday agressiya vaziyatga moslashuvchan bo‘lmay, balki ijtimoiy munosabatlarni buzuvchi, shaxslararo ziddiyatlarni kuchaytiruvchi va psixologik muhitni izdan chiqaruvchi xulq shakllarida namoyon bo‘ladi. Harbiy jamoa sharoitida destruktiv agressiya xizmat intizomining zaiflashishiga, o‘zaro ishonchning pasayishiga, kommunikativ to‘siqlarning kuchayishiga hamda boshqaruv samaradorligining susayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli zamonaviy harbiy psixologiyada agressiyani mutlaq salbiy hodisa sifatida inkor etish emas, balki uning funksional va disfunksional shakllarini farqlash, destruktiv ko‘rinishlarini kamaytirish hamda konstruktiv yo‘naltirish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida qaraladi.

Harbiy xizmatchilarda agressiv reaksiyalarning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tizimli xarakterga ega. Avvalo, harbiy xizmatning o‘zi yuqori darajadagi stress bilan tavsiflanadi. Xavf omilining mavjudligi, doimiy javobgarlik, tezkor qaror qabul qilish zarurati, qat’iy intizom va vaqt bosimi shaxsning psixoemotsional zo‘riqishini oshiradi. Uzoq davom etuvchi stress shaxsning o‘zini-o‘zi boshqarish resurslarini kamaytirib, affektiv labillikni kuchaytiradi, bu esa impulsiv reaksiyalar ehtimolini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, stressning kroniklashuvi emotsional nazorat mexanizmlarining zaiflashishiga, sabr-toqat chegarasining pasayishiga hamda frustratsiyaga nisbatan sezgirlikning ortishiga olib keladi. Natijada shaxs nizoli vaziyatlarga nisbatan konstruktiv emas, balki agressiv strategiyalarni tanlashi mumkin.

Ikkinchi muhim omil sifatida harbiy boshqaruv tizimining ierarxik tabiati ko‘rsatiladi. Vertikal subordinatsiya sharoitida qarorlar yuqoridan pastga yo‘naltirilgan bo‘lib, fikr bildirish imkoniyatining cheklanishi yoki kommunikatsiya ochiqligining yetarli emasligi ayrim xizmatchilarda ichki norozilik va frustratsiyani kuchaytirishi mumkin. Bunday holatda agressiya ochiq qarama-qarshilik ko‘rinishida emas, balki yashirin shaklda namoyon bo‘lishi ehtimoli yuqori. U passiv qarshilik, xizmat topshiriqlarini formal bajarish, tashabbusdan qochish, kommunikativ sovuqlik yoki jamoaga nisbatan loqaydlik kabi xulq shakllarida ifodalanadi. Ushbu “yashirin agressiya” turi tashqi tomondan kam sezilsa-da, jamoaviy samaradorlikka sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shunday qilib, E.Fromm nazariyasining harbiy kontekstga tatbiqi agressiyani biologik zarurat sifatidagi funksional shakli bilan ijtimoiy disfunksional ko‘rinishlarini ajratish imkonini beradi. Harbiy xizmatchilarda agressiya shakllanishini tushuntirish esa faqat individual xususiyatlar bilan emas, balki xizmat sharoiti, boshqaruv modeli, kommunikativ muhit hamda stress darajasi bilan o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinishi zarurligini ko‘rsatadi. Bunday tizimli yondashuv agressiyani profilaktika qilish, diagnostika qilish hamda pedagogik-psixologik boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shaxsiy psixologik xususiyatlar harbiy xizmatchilarda agressiv reaksiyalarning namoyon bo‘lish chastotasi va shakliga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Temperamentning impulsivligi, affektiv labillik, emotsional o‘zini boshqarish darajasining pastligi, stressga chidamlilikning sustligi hamda emotsional intellektning yetarli darajada shakllanmaganligi shaxsning frustratsiyaga nisbatan sezgirligini oshiradi va agressiv reaksiyalar ehtimolini kuchaytiradi. Ayniqsa, tez qo‘zg‘aluvchanlik, tashqi stimullarga yuqori reaktivlik va sabr-toqatning past darajasi nizoli vaziyatlarda konstruktiv strategiyalarni qo‘llash o‘rniga affektiv portlashlarga olib kelishi mumkin. Shu bilan birga, o‘z hissiyotlarini identifikatsiya qilish, ularni verbal ifodalash hamda emotsional energiyani konstruktiv faoliyatga yo‘naltirish ko‘nikmalarining rivojlanmaganligi agressiv xulqni mustahkamlovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Biroq agressiya faqat individual psixologik predispozitsiyalar natijasi sifatida emas, balki ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sirda shakllanuvchi hodisa sifatida qaralishi lozim. Harbiy jamoaning psixologik iqlimi, rahbarlik uslubi, o‘zaro ishonch darajasi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash resurslari agressiya intensivligini sezilarli darajada modulyatsiya qiladi. Jamoada adolatsizlik hissining mavjudligi, qarorlar qabul qilish jarayonining shaffof emasligi, kommunikativ to‘siqlar, fikr bildirish imkoniyatining cheklanishi yoki rahbarning haddan tashqari avtoritar boshqaruv uslubi xizmatchilarda ichki frustratsiyani kuchaytirib, agressiv muhit shakllanishiga zamin yaratadi. Bunday sharoitda agressiya ko‘pincha ochiq konflikt ko‘rinishida emas, balki sovuqqonlik, passiv qarshilik, tashabbusdan qochish yoki norozilikni yashirin ifodalash shaklida namoyon bo‘ladi, bu esa jamoaviy samaradorlikka sezilarli darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur omillarni hisobga olgan holda, harbiy xizmatchilarda agressiya fenomenini pedagogik muammo sifatida talqin qilish metodologik jihatdan asosli hisoblanadi. Chunki agressiv xulq jamoa ichidagi ishonchning pasayishiga, kommunikatsiya samaradorligining susayishiga, qaror qabul qilish jarayonining murakkablashishiga hamda xizmat intizomining zaiflashishiga olib keladi. Shuning uchun agressiyani faqat psixologik diagnostika darajasida aniqlash bilan cheklanib qolish yetarli emas; uni tarbiyaviy ta’sir, pedagogik boshqaruv hamda jamoaviy madaniyatni shakllantirish orqali konstruktiv yo‘naltirish zarur.

Agressiyani kamaytirish va boshqarishning samarali pedagogik-psixologik mexanizmlaridan biri emotsional nazorat ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Harbiy tayyorgarlik jarayonida stressni boshqarish strategiyalarini o‘rgatish, refleksiya ko‘nikmalarini shakllantirish, hissiyotlarni tanib olish va ularni adekvat ifodalash usullarini o‘zlashtirish xizmatchilarning affektiv reaksiyalarini nazorat qilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish, konfliktologiya asoslarini o‘qitish, tinglash va kelishuvga erishish texnikalarini shakllantirish jamoaviy muhitni sog‘lomlashtirishga xizmat qiladi. Psixologik monitoring tizimlari orqali xizmatchilarning psixoemotsional holatini muntazam kuzatish agressiv reaksiyalarning erta belgilarini aniqlash imkonini beradi, bu esa profilaktik choralarni o‘z vaqtida qo‘llashga sharoit yaratadi. Rahbarlik uslubini optimallashtirish, ochiq muloqotga

asoslangan boshqaruvni joriy etish hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish esa agressiya darajasini pasaytiruvchi muhim tashkiliy omillar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy xizmatchilarda agressiya fenomeni ko‘p omilli pedagogik-psixologik muammo sifatida namoyon bo‘lib, u individual psixologik xususiyatlar, xizmat sharoiti, boshqaruv modeli hamda jamoaviy muhitning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Shu bois agressiyani samarali boshqarish kompleks yondashuvni talab qiladi: psixologik diagnostika, pedagogik profilaktika va tashkiliy choralar integratsiyasi bilangina ijobiy natijaga erishish mumkin. Harbiy tizim barqarorligi ko‘p jihatdan shaxslararo munosabatlar sifatiga bog‘liq bo‘lganligi sababli agressiyani konstruktiv yo‘naltirish zamonaviy harbiy psixologiya va pedagogikaning ustuvor ilmiy-amaliy yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Зигмунд Фрейд. По ту сторону принципа удовольствия. — Вена, 1920.
2. Альберт Бандура. Aggression: A Social Learning Analysis. — Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1973.
3. Конрад Лоренц. On Aggression. — New York: Harcourt, 1966.
4. Эрих Фромм. The Anatomy of Human Destructiveness. — New York: Holt, Rinehart and Winston, 1973.
5. Леонард Берковиц. Aggression: Its Causes, Consequences, and Control. — New York: McGraw-Hill, 1993.
6. Андрей Реан. Психология агрессии и агрессивного поведения. — Санкт-Петербург: Питер, 2007.

ОСОБЕННОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ПРОЕКТИВНЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ ПСИХОКОРРЕЦИИ В ВОЕННОЙ СУПЕРВИЗИИ

Д.С.Абдуллажанова,
Р.Поянова
Ш.Зулфанов
профессор университета Общественной безопасности Республики Узбекистан,
доктор психологических наук, (DSc),профессор
E-mail: dnekbaeva@inbox.ru
Tel: +998 90 933 70 62 ORCID - 0000-0002-3535-9334

Аннотация: *В данной статье обсуждается инновационный подход к проблеме военной супервизии и применения проективных методик в работе психологической коррекции военнослужащих. Походу дается понятие о проекции, о взглядах З.Фрейда и других научных деятелях. В том числе в статье рассматриваются - юнгианский анализ и арт-терапия чаще всего использующий проективных методик, такие как ассоциативные метафорические карты, работа с глиной, песком, красками, анализ мифов, сказок. В когнитивно-поведенческой и семейной терапии как часто делают акцент на различные упражнения, домашние задания, работают с когнитивными искажениями восприятия, дезадаптивными убеждениями, привычками. В психоанализе применяют метод свободных ассоциаций, толкования сновидений, анализа переноса и контрпереноса.*

Ключевые слова: *психокоррекция, инновационный подход, военный супервизия, супервизант, дезадаптация, саморефлексия, эмоция, мышления, эмпатия.*

Features of the application of projective methods for psychocorrection in military supervision

D.S.Abdullajanova,
R.Poyanova
Sh.Zulfanov
Professor, Doctor of Science in Psychology,
University of Public Security of the Republic of Uzbekistan
E-mail: dnekbaeva@inbox.ru
Tel: +998 90 933 70 62 ORCID - 0000-0002-3535-9334

Annotatsion: *This article discusses an innovative approach to the problem of military supervision and the use of projective techniques in the work of psychological correction of military personnel. The concept of projection, the views of Z. Freud and other scientists are given. Including in Jungian analysis and art therapy, projective*

methods are most often used, such as associative metaphorical cards, work with clay, sand, paints, analysis of myths, fairy tales. In cognitive behavioral and family therapy, emphasis is often placed on various exercises, homework, and work with cognitive distortions of perception, maladaptive beliefs, and habits. In psychoanalysis, the method of free association, dream interpretation, and analysis of transference and countertransference are used.

Key words: *psychocorrection, innovative approach, military supervision, supervisee, maladaptation, self-reflection, emotion, thinking, empathy.*

На сегодняшний день резко возрастает количество актов самостоятельного функционирования психолога, связанных с проблемными ситуациями профессиональной деятельности. Успешная деятельность военного психолога связана, во-первых, с возрастанием значимости личных качеств, которые формируются как реакции на свои собственные качества и формы поведения; во-вторых, с усилением обращённости к собственному психологическому потенциалу в сложных ситуациях взаимодействия и личностного роста; в-третьих, с усилением чувствительности к «рефлексивному проявлению» профессиональной активности. Выражение профессиональной успешности психолога связано с реагированием на общественный запрос, на результат, потребности профессионального саморазвития психолога высшее военного Вуза. Одним их важнейших требований к психологу ВУЗа выступает требование осознания собственных проблем, реакций и их возможных влияний на личность самого психолога.

Во-первых, овладение навыками анализа своей деятельности как профессионального психолога, умению применять методы эмоциональной и когнитивной регуляции (для оптимизации) собственной деятельности и психологического состояния;

во-вторых, овладение навыками комплексного профессионального воздействия на уровень развития и функционирования познавательной и мотивационно-волевой сферы, самосознания, психомоторики, способностей, характера, темперамента, функциональных состояний, личностных черт и акцентуации в норме и при психических отклонениях с целью гармонизации психологического функционирования человека;

в-третьих, проведение психологических исследований на основе применения общепрофессиональных знаний и умений с целью выявления возможностей использования инновационных психологических технологий в различных сферах жизнедеятельности и др.

Выбор направления психологической работы обуславливает выбор соответствующих методик. Так, в юнгианском анализе и арт-терапии чаще всего используют проективные методики, такие как ассоциативные метафорические карты, работа с глиной, песком, красками, анализ мифов, сказок. В когнитивно-поведенческой и семейной терапии часто делают акцент на различные упражнения, домашние задания, работают с когнитивными искажениями восприятия, дезадаптивными убеждениями, привычками. В психоанализе применяют метод свободных ассоциаций, толкования сновидений, анализа переноса и контрпереноса. Любая техника должна применяться адекватно психотерапевтической ситуации в целом. Так же очень важно, чтобы техники применялись не изолированно друг от друга, а в контексте какой-то методологии.

Нужно учитывать на сегодняшний день в сложных условиях современности особое значение приобретает профессиональная поддержка специалистов-психологов в их стремлении к самосовершенствованию, готовности к конструктивным изменениям, профессиональному росту. Важную роль в данном вопросе занимает процесс супервизии.

Супервизия как вид дидактической деятельности позволяет осуществлять профессиональную поддержку саморефлексии психолога собственной практики посредством совместного нахождения решения, поддержания его самооценки в сложных, проблемных ситуациях. Супервизор и супервизируемый в ходе совместной рефлексии рассматривают работу последнего с целью усовершенствования его когнитивной, эмоциональной и методической компетентности (Т. Хаанс, Й. Лансен, Н. Балке, К. Просс) [3; 4; 7].

В условиях гражданских, военных конфликтов потребность в психологической помощи возрастает в несколько раз. Часто сталкиваясь с сложными ситуациями один-на-один, психологи вынуждены активировать все свои

ресурсы: эмпатию, сострадание, когнитивные процессы, — что несомненно приводит к чувствам истощения и выгорания. Особенно остро данная проблема заявляет себя в условиях дефицита времени.

Проективные методы в практике психотерапии используются достаточно длительно и успешно, позволяя последовательно раскрывать глубинные неосознаваемые детерминанты поведения субъекта, которые не могут быть открыто вербализованы. Психологические защиты, сопротивление, внутренняя цензура зачастую создают непреодолимый барьер в процессе осознания и рефлексии клиента. Проективные методы посредством активной созидательной деятельности способны проложить, перефразируя З.Фрейда [7], «королевскую дорогу в бессознательное», являясь носителем дериватов вытесненных переживаний субъекта.

Актуальность поставленной проблемы обусловлена поиском и апробацией методов супервизии, позволяющих в краткосрочном формате оказать профессиональную поддержку практикующим в особых условиях психологам. По нашему мнению, проективные методы в процессе супервизии позволяют выполнить данную задачу и в то же время соблюсти все основные этапы и элементы супервизии. В предложенных для критического анализа супервизиях отмечаются особенности использования проективных методов, их влияние на процесс супервизии и психологическое состояние супервизируемого [2; 5; 7].

В научно-практической литературе супервизия определяется как специфический метод поддержки специалистов, оказывающих профессиональную помощь в психиатрической и психосоциальной сфере (Н.Балке, П.Дэвис, Д.Мейер, Т.Хаанс, Е.Холлоуэй, Д.Якобс и др.); форма консультирования, осуществляемого для обеспечения и повышения качества профессиональной деятельности (С.Зонненберг, С.Лазар, Р.Урсано и др.); метод повышения профессионального мастерства и квалификации опытных психологов (С.Гледдинг, Р.Кочюнас, К.Краутер, А.Менегетти и др.), способ профилактики профессионального выгорания (Р.Шохет, П.Ховкинс и др.). Общим для всех исследователей является мнение, что супервизия есть процесс, который способствует повышению качества

психологической помощи и является необходимой составляющей профессионального развития как начинающих, так и опытных психологов-практиков. Супервизор и супервизируемый в ходе совместной рефлексии рассматривают работу последнего с целью усовершенствования его когнитивной, эмоциональной и методической компетентности (Н.Балке, Й.Лансе, К.Просс, Т.Хаанс) [1; 3; 6; 7; 4].

Многие исследовательские практики подтверждает мнение, что супервизия обусловливает профессиональное становление и способствует развитию профессионально важных качеств личности психолога: эмпатии, критической рефлексии, гуманистического мышления, способности структурировать и объективировать информацию, прогнозировать развитие ситуации, — развивает индукцию и дедукцию и др.

Понятие проекции (от лат. projectio — выбрасывание) в его психологическом значении впервые появляется в психоанализе, в концепции защитных механизмов (З. Фрейд). Со временем проекция становится столь распространенным термином, что дифференцировать ее от явлений идентификации, перенесения и некоторых других психоаналитических феноменов стало чрезвычайно трудно. Например, Г.Мюррей, употребляя термин «идентификация» применительно к Тематическому апперцептивному тесту, фактически имел в виду защитную проекцию З. Фрейда. Отождествляя себя с «героем», клиент получает возможность неосознанно приписать ему собственные «латентные» потребности [2; 5].

Клиент, о котором беседуют супервизор и супервизируемый, является реальной личностью, однако его образ создается на основе чувственных восприятий (наблюдений, эмоций, переживаний) терапевта. Степень понимания супервизором клиента зависит от способности супервизируемого дать клиенту и его ситуации полную характеристику [6].

Стимульный материал, который используется в проективных методиках, неоднозначен и слабо структурирован, что позволяет допускать большое число вариантов восприятия и интерпретации. При этом, чем слабее структурирован стимульный материал, тем выше степень проекции. Супервизируемому могут быть

предложены в качестве материалов игрушки, деревянные кубики, цветные камешки, шнурки, набор для рисования, психодраматические техники и др. Любой продукт деятельности супервизанта: рисунок, рассказ, создание конструкции или пространственной модели, — воспринимается вне зависимости от качества исполнения, не оценивается супервизором, чем создаются благоприятные условия для объективирования концепции кейса супервизируемого. Именно данная особенность, по нашему мнению, позволяет раскрыть видение и чувствование супервизантом своих профессиональных особенностей (методической уверенности, профессиональных границ, ролей, уровня самооценки, эмпатии). Гипотезы, догадки, полученные в ходе анализа продуктов деятельности супервизанта в процессе супервизии, приводят к интерпретациям, обладающим не только эффектом усиления рефлексии, но и прогнозирующим профессиональную позицию супервизируемого в будущем.

Библиографический список

1. Ауэрбах М. Травма и встречи с травмой. Материалы конференции: Травма и психосоциальная интервенция / М. Ауэрбах. — С. 53–70.

2. Беллак Л. Руководство по Тесту детской апперцепции / Л. Беллак, С. Беллак; пер. с англ. Е.Ю. Коржовой, Е.П. Савченко, Л.Ф. Бурлачука. — СПб: Иматон, 2000. — 70 с.

3. Джейкобс Д. Техника и методы корректирующих консультаций: Руководство для преп. психодинамич. психотерапии и психоанализа / Д. Джейкобс, П. Дэвид, Д. Дж. Мейер. — СПб: Б.С.К., — 1997.

4. Проективная психология / Под ред. Р. Римской, И. Кириллова. — М.: Апрель Пресс, Эксмо-Пресс, 2000. — 528 с.

5. Просс К. Травмированные помощники / К. Просс // Материалы конференции: Травма и психосоциальная интервенция. — С. 192–211.

6. Романова Е.С. Графические методы в практической психологии / Е.С. Романова. — СПб: Речь, 2001. — 416 с.

7. Фрейд З. Толкование сновидений / З. Фрейд; пер. с нем. — Минск: Попурри, 1997. — 576 с.

HARBIY XIZMATCHILARDA AGRESSIV XULQ-ATVOR MUAMMOSINI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

I.I.Rejametova

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarda agressiv xulq-atvorning shakllanishi pedagogik-psixologik muammo sifatida tahlil qilinadi. Harbiy faoliyat sharoitlari, stress omillari, shaxsiy xususiyatlar hamda ijtimoiy muhit agressiya darajasiga qanday ta’sir ko‘rsatishi ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, agressiv reaksiyalarni kamaytirish va konstruktiv xulqni shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: agressiya, harbiy psixologiya, stress, pedagogik profilaktika, kommunikativ kompetensiya, emotsional nazorat, konflikt.

Zamonaviy harbiy faoliyatning psixologik murakkabligi, xizmat vazifalarining yuqori mas’uliyat va xavf bilan bog‘liqligi harbiy shaxs psixikasiga kuchli va ko‘p darajali ta’sir ko‘rsatadi. Harbiy faoliyat ijtimoiy jihatdan yuqori talabchan professional muhit bo‘lib, unda shaxs doimiy ravishda “tayyorgarlik holati”, noaniqlik, vaqt tanqisligi, qat’iy reglament va subordinatsiya sharoitida qaror qabul qiladi. Bunday sharoitda emotsional zo‘riqish, stress, xavf ehtimoli, intizom talablari hamda tezkor qaror qabul qilish zarurati shaxsning affektiv reaktivligini modulyatsiya qilib, ayrim hollarda agressiv namoyonlarni kuchaytirishi mumkin. Muhimi, bu jarayon bir yoqlama “salbiy simptom” sifatida emas, balki harbiy shaxsning adaptatsion resurslari, psixologik boshqaruv darajasi va xizmat muhitidagi normativ talablar bilan o‘zaro ta’sirda kechuvchi kompleks hodisa sifatida talqin etilishi lozim.

Harbiy shaxsda agressiyani o‘rganish masalasi shu bois faqat klinik yoki xususiy psixologik muammo sifatida emas, balki kompleks metodologik yondashuvni talab qiluvchi ilmiy yo‘nalish sifatida qaralishi zarur. Chunki agressiya harbiy jamoada nafaqat individual xulqiy ko‘rinish, balki guruh iqlimi, intizom, boshqaruv samaradorligi va xizmat xavfsizligiga bevosita ta’sir qiluvchi pedagogik-psixologik fenomen hisoblanadi. Bunda agressiya ikki qirrali semantik maydonda namoyon bo‘lishi mumkin: bir

tomondan, vazifaviy-funksional agressivlik (qat’iyat, keskin vaziyatlarda tezkorlik, o‘zini va boshqalarni himoya qilishga yo‘naltirilgan faollik) xizmat talablariga mos adaptiv resurs bo‘lishi ehtimoli mavjud; ikkinchi tomondan, interpersonal-destruktiv agressiya (verbal tajovuz, tahdid, haqorat, zo‘ravonlik, obstruktsion xulq, passiv-agressiv muloqot) xizmat intizomi va jamoaviy ishonchni yemiruvchi disfunksional ko‘rinishdir. Demak, metodologik jihatdan agressiyani “bor–yo‘q” mezoni bilan emas, balki uning funksional va disfunksional shakllari, vaziyatga mosligi, ijtimoiy oqibatlari hamda boshqariluvchanligi nuqtai nazaridan tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Agressiyani ilmiy tahlil qilishda uning mohiyatini aniq belgilash muhim metodologik bosqich hisoblanadi. Psixologiyada agressiya odatda shaxsning boshqa insonga yoki muhitga nisbatan zarar yetkazishga qaratilgan harakatlari va emotsional reaksiyalari majmui sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, zamonaviy nazariyalarda agressiya faqat destruktiv xulq emas, balki vaziyatga bog‘liq holda funksional yoki himoyaviy reaksiya sifatida ham ko‘rib chiqiladi. Bu yondashuv agressiyani tushuntirishda “xulqiy akt” (behavioural act) va “agressivlik” (aggressiveness) – ya’ni shaxsning nisbatan barqaror predispozitsiyasi o‘rtasini farqlashni talab qiladi. Shuningdek, agressiya “dushmanona (hostile)” va “instrumental” ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi mumkin: birinchisi ko‘proq g‘azab, ranjish, adolatsizlik hissi bilan bog‘liq; ikkinchisi esa maqsadga erishish vositasi sifatida yuzaga keladi. Harbiy muhitda aynan shu tipologik farqlash agressiyani pedagogik boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishda metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, agressiv xulq ijtimoiy muhitdagi modellarni kuzatish, taqlid qilish va mustahkamlash orqali shakllanadi. Bu nazariya harbiy jamoada agressiya namoyon bo‘lishini o‘rganishda uchta metodologik xulosani ilgari suradi. Birinchidan, agressiya “individual impuls”gina emas, balki normativ jihatdan model sifatida uzatilishi mumkin bo‘lgan xulq shaklidir: rahbarlik uslubi, yuqori bo‘g‘in kommunikatsiyasi, jamoada “qattiqlik”ni idealizatsiya qilish yoki aksincha, hurmat va konstruktiv muloqot tamoyillarini qo‘llab-quvvatlash agressiv xatti-harakatlarning tarqalishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchidan, agressiv xulqning mustahkamlanishi ko‘pincha jazolanmaslik yoki “maqsadga erishish” orqali sodir

bo‘ladi; masalan, tajovuzkor muloqot orqali resurs, maqom yoki ustunlikka erishish tajribasi agressiyani instrumentallashishga olib keladi. Uchinchidan, agressiv modelni o‘zlashtirish faqat ochiq zo‘ravonlik orqali emas, balki passiv-agressiv strategiyalar (sovuqlik, bepisandlik, obstruktsiya, “ko‘rmaslik”, muammoli buyruqlarni cho‘zish) orqali ham kechishi mumkin. Demak, agressiyani o‘rganishda faqat jismoniy tajovuzni emas, balki yashirin va bilvosita agressiya ko‘rinishlarini ham indikatorlar tizimiga kiritish metodologik jihatdan zarur.

Bundan tashqari, agressiyaning shakllanishi va namoyon bo‘lishini tushuntirishda stress va coping yondashuvi (Lazarus–Folkman) ham muhim metodologik asos beradi. Harbiy faoliyatda stressorlar (xavf, noaniqlik, vaqt bosimi, mas’uliyat, ierarxik nazorat) yuqori intensivlikda namoyon bo‘lgani sababli shaxsning resurslari (o‘zini boshqarish, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, muammoni hal etishga yo‘naltirilgan coping) yetishmasa, agressiya ichki zo‘riqishni “tezkor chiqarish” yoki “himoya reaksiyasi” sifatida namoyon bo‘lish ehtimoli ortadi. Shu nuqtai nazardan agressiya ko‘pincha vaziyatni “tahdid” yoki “adolatsizlik” sifatida kognitiv baholash, g‘azab/frustratsiya kabi emotsional reaktivlik va nazorat mexanizmlarining yetishmasligi zanjiri orqali yuzaga chiqadi. Bu esa agressiyani o‘rganishda kognitiv baholash (appraisal), emotsional reaktivlik va o‘zini boshqarish (self-control/self-regulation) ko‘rsatkichlarini bir butun tizim sifatida o‘lchash zarurligini asoslaydi.

Shunday qilib, harbiy shaxsda agressiyani ilmiy o‘rganish metodologiyasi bir necha darajali yondashuvni talab qiladi: (1) agressiyaning konseptual ta’rifini aniqlash (xulqiy akt–predispozitsiya; funksional–destruktiv; instrumental–dushmanona), (2) agressiyani shakllantiruvchi mexanizmlarni integrativ tushuntirish (ijtimoiy o‘rganish, stress–coping, o‘zini boshqarish), (3) agressiyaning ko‘rinishlarini indikatorlar asosida operatsionallashtirish (verbal, jismoniy, bilvosita, passiv-agressiv, obstruktsion), (4) individual, jamoaviy va institutsional omillarni birgalikda tahlil qilish. Mazkur metodologik pozitsiya agressiyani faqat aniqlash bilan cheklanmasdan, uni pedagogik-psixologik boshqarish, profilaktika va korrektsiya dasturlarini ishlab chiqish uchun ilmiy-amaliy poydevor yaratadi.

Lazarus va Folkmanning stress va coping nazariyasi agressiyani stressor vaziyatlarga nisbatan moslashuv reaksiyalaridan biri sifatida tushuntirishga imkon beradi. Ularning qarashlariga ko‘ra, shaxs vaziyat talablari va o‘z resurslari o‘rtasida nomutanosiblikni his etganda, psixologik zo‘riqish paydo bo‘ladi. Agar shaxsda muammoni konstruktiv hal etish strategiyalari yetarli shakllanmagan bo‘lsa, agressiya ichki zo‘riqishni chiqarish vositasi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaralganda, harbiy shaxsda agressiyani o‘rganish uning individual xususiyatlari bilan bir qatorda xizmat sharoiti va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinishi lozim.

Metodologik jihatdan harbiy shaxsda agressiyani o‘rganishda bir nechta ilmiy yondashuvlarni integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir. Birinchi navbatda, tizimli yondashuv agressiyani shaxs, jamoa va institutsional muhit o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir natijasi sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi. Bu yondashuvga ko‘ra, agressiya faqat individual xususiyat emas, balki jamoaviy munosabatlar, rahbarlik uslubi, intizom tizimi va psixologik iqlim bilan bog‘liq holda shakllanadi. Ikkinchidan, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv temperament, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik va o‘zini boshqarish darajasi kabi individual omillarni tahlil qilishga qaratilgan. Uchinchidan, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv agressiyani xizmat vazifalari, kasbiy rollar va ekstremal faoliyat sharoiti bilan bog‘liq holda o‘rganishni nazarda tutadi.

Harbiy shaxsda agressiyani empirik o‘rganishda bir qator ilmiy metodlardan kompleks foydalanish zarur. Psixodiagnostik metodlar shaxsning agressivlik darajasi, emotsional nazorat qobiliyati va stressga munosabatini aniqlash imkonini beradi. Kuzatuv metodi jamoaviy faoliyat jarayonida agressiv xulq namoyonlarini tabiiy sharoitda qayd etishga xizmat qiladi. So‘rovnoma va intervyu usullari esa harbiy shaxsning subyektiv tajribasi, stressni idrok etish xususiyatlari va munosabatlar tizimini tahlil qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, ekspert baholash usuli orqali rahbarlar va psixologlar fikrini hisobga olish agressiyaning yashirin shakllarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Metodologik jihatdan muhim masalalardan biri agressiyaning indikatorlarini aniq belgilashdir. Bularga verbal tajovuz, jismoniy reaksiyalar, passiv qarshilik,

kommunikativ sovuqlik, nizoli strategiyalar, emotsional labillik va impulsiv qarorlar kabi ko‘rsatkichlar kiradi. Ushbu indikatorlarni tizimli tahlil qilish harbiy jamoadagi psixologik muhitni baholash va profilaktik choralarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy shaxsda agressiya namoyon bo‘lishini o‘rganish kompleks metodologik yondashuvni talab qiladi. Unda individual psixologik xususiyatlar, xizmat sharoiti, ijtimoiy muhit va pedagogik ta’sir omillari o‘zaro bog‘liq holda tahlil qilinishi lozim. Bunday integrativ metodologiya agressiyani faqat diagnostika qilish bilan cheklanib qolmasdan, uning oldini olish, konstruktiv yo‘naltirish va harbiy jamoada sog‘lom psixologik muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, harbiy shaxsda agressiyani o‘rganish metodologiyasi zamonaviy harbiy psixologiyaning muhim ilmiy-amaliy vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bandura A. *Aggression: A Social Learning Analysis*. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1973.
2. Bandura A. *Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory*. – New York: Prentice-Hall, 1986.
3. Fromm E. *The Anatomy of Human Destructiveness*. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1973.
4. Lazarus R., Folkman S. *Stress, Appraisal, and Coping*. – New York: Springer, 1984.
5. Buss A., Perry M. The Aggression Questionnaire // *Journal of Personality and Social Psychology*, 1992, №63(3), pp. 452–459.
6. Berkowitz L. *Aggression: Its Causes, Consequences, and Control*. – New York: McGraw-Hill, 1993.
7. Dollard J., Doob L., Miller N., Mowrer O., Sears R. *Frustration and Aggression*. – New Haven: Yale University Press, 1939.
8. Anderson C., Bushman B. Human Aggression // *Annual Review of Psychology*, 2002, Vol. 53, pp. 27–51.
9. Geen R. *Human Aggression*. – Buckingham: Open University Press,

HARBIY DISTANT OILALARDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK INDIKATORLARI

D.R.Yangiboyeva

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada harbiy xizmat sharoitida shakllanadigan distant oilalar fenomeni ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Harbiy xizmatchining xizmat faoliyati tufayli yuzaga keladigan ajralish oilaviy tizimning funksional muvozanatiga, emotsional bog‘lanish darajasiga hamda shaxslararo munosabatlar sifatiga ta’sir ko‘rsatishi ilmiy asosda yoritiladi. Muallif distant harbiy oilalarda munosabatlar barqarorligini belgilovchi asosiy psixologik indikatorlarni aniqlab, xorijiy tadqiqotlar bilan taqqosiy tahlil qiladi hamda harbiy psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha xulosalar beradi.

Kalit so‘zlar: harbiy psixologiya, distant oila, shaxslararo munosabat, emotsional bog‘lanish, kommunikatsiya, rezilyentlik, oilaviy stress.

Zamonaviy harbiy faoliyatning institutsional transformatsiyasi, jumladan, xizmatning rotatsion tizimga o‘tishi, uzoq muddatli safarbarlik va dislokatsiya amaliyotlarining kengayishi harbiy xizmatchilar hayot tarzining oilaviy segmentiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu jarayon natijasida harbiy xizmatchi va uning oila a’zolari o‘rtasida makon hamda vaqt jihatidan ajralish kuchayib, oilaviy tizimning ichki tuzilishi va funksional muvozanati o‘zgarishga uchramoqda. Harbiy psixologiyada mazkur hodisa “distant oila” fenomeni sifatida talqin qilinib, u faqat jismoniy masofa bilan cheklanmay, balki emotsional bog‘lanishning qayta shakllanishi, kommunikativ almashinuvning vositachilashuvi hamda oilaviy rollarning redistribusiyasi bilan tavsiflanadi.

Distantlik sharoitida oilaviy tizimning moslashuv mexanizmlari sinovdan o‘tadi: turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi yaqinlik darajasi, o‘zaro qo‘llab-quvvatlashning barqarorligi, ota-ona va farzand aloqalarining intensivligi hamda oilaviy identifikatsiya hissi yangi psixologik sharoitda qayta quriladi. Bu jarayon, o‘z navbatida, nafaqat oilaviy munosabatlar sifatiga, balki harbiy xizmatchining xizmat motivatsiyasi, stressga

chidamliligi va kasbiy samaradorligiga ham bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu jihatdan distant oilalar fenomeni individual psixologik muammo sifatida emas, balki harbiy tizim barqarorligiga ta’sir etuvchi kompleks ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida qaralishi zarur. Distant harbiy oilalar tizimli yondashuv nuqtai nazaridan ochiq dinamik tizim sifatida namoyon bo‘lib, unda tashqi institutsional omillar ichki psixologik jarayonlarni modulyatsiya qiladi. Masofaviy ajralish kommunikativ strukturalarning transformatsiyasiga, emotsional aloqaning vositachilashuviga hamda oilaviy rollar muvozanatining o‘zgarishiga olib keladi. Bu esa oila ichidagi shaxslararo munosabatlar sifatini belgilovchi asosiy indikatorlarning qayta konfiguratsiyalanishini anglatadi. Shuning uchun distant harbiy oilalarni o‘rganish nafaqat oilaviy psixologiya doirasida, balki harbiy psixologiya, ijtimoiy psixologiya va institutsional psixologiya kesishmasida olib borilishi lozim.

Mazkur holat distant oilalar fenomenini zamonaviy harbiy psixologiyaning istiqbolli ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilaydi. Chunki harbiy xizmatchining psixologik tayyorgarligi, stressga rezistentligi va xizmat samaradorligi ko‘p jihatdan uning oilaviy tizimining barqarorligi bilan o‘zaro bog‘liqdir. Shu bois distant harbiy oilalarni tizimli o‘rganish, ularning shaxslararo munosabatlar strukturasi va psixologik indikatorlarini aniqlash, zamonaviy harbiy psixologiya rivojining muhim nazariy hamda amaliy vazifalaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Oilaviy tizim nazariyasiga muvofiq, oila o‘zaro bog‘langan elementlardan tashkil topgan murakkab ijtimoiy-psixologik tizim bo‘lib, undagi har qanday strukturaviy yoki funksional o‘zgarish tizimning umumiy muvozanati va moslashuv qobiliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu nazariy yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda, harbiy xizmatchining xizmat joyi bilan oila yashash hududi o‘rtasidagi makoniy ajralish oilaviy tizimning ichki funksional konfiguratsiyasini o‘zgartiradi. Natijada oilaviy rollar qayta taqsimlanadi, qaror qabul qilish mexanizmlari o‘zgaradi, mas’uliyatlar nomutanosibligi yuzaga keladi hamda emotsional qo‘llab-quvvatlash tizimi zaiflashadi. Bu jarayon turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar sifati, ishonch darajasi va yaqinlik hissining transformatsiyasiga olib keladi, shuningdek, ota-ona va farzand o‘rtasidagi aloqalarning intensivligi hamda tarbiyaviy uslublarning barqarorligiga ham ta’sir etadi.

Xalqaro empirik tadqiqotlar harbiy xizmat bilan bog‘liq ajralish oilaviy stressni oshirishi, turmush o‘rtoqlarning emotsional holatini beqarorlashtirishi va ota-onalik xulq-atvorida o‘zgarishlar yuzaga keltirishini ko‘rsatadi. Bu o‘zgarishlar bolalarning psixologik moslashuv jarayoniga ham bevosita ta’sir etib, ularda xavotir, moslashuv qiyinchiliklari yoki ijtimoiy faollikning pasayishi kabi holatlar kuzatilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois harbiy oilalarda distantlikni oilaviy tizimning adaptatsion resurslarini sinovdan o‘tkazuvchi muhim psixologik omil sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Mazkur masalani chuqurroq anglashda Bowlbining bog‘lanish nazariyasi muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, yaqin shaxs bilan barqaror emotsional aloqaning uzilishi yoki zaiflashuvi individda xavotir, psixologik beqarorlik va ishonch darajasining pasayishiga olib keladi. Harbiy oilalarda xizmat davrining cho‘zilishi turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi emotsional yaqinlikning susayishiga, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash hissining kamayishiga hamda kommunikativ masofaning ortishiga sabab bo‘lishi mumkin. Xorijiy tadqiqotlarda uzoq muddatli xizmat safarlari turmush o‘rtoqlarda tashvish darajasi ortishi, uyqu buzilishlari, emotsional charchash va psixosomatik reaksiyalar kuchayishi bilan bog‘liq ekani qayd etilgan. Bu holat distant oilalarda shaxslararo munosabatlarning sifati avvalo emotsional bog‘lanish darajasi orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, oilaviy tizim nazariyasi hamda bog‘lanish nazariyasining integrativ tahlili distant harbiy oilalarda shaxslararo munosabatlarni baholashda emotsional yaqinlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va kommunikativ barqarorlikni asosiy psixologik indikatorlar sifatida ajratish imkonini beradi. Ushbu indikatorlar oilaviy barqarorlikni saqlash bilan birga harbiy xizmatchining psixologik tayyorgarligi va xizmat samaradorligiga ham bilvosita ta’sir ko‘rsatishi bilan ahamiyatlidir.

Distant oilalarda shaxslararo munosabatlar sifatini belgilovchi asosiy indikatorlardan yana biri kommunikativ barqarorlikdir. Masofaviy aloqa vositalarining kengayib borayotgan imkoniyatlariga qaramay, kommunikatsiyaning muntazamligi, mazmuniy to‘liqligi hamda emotsional boyligi oilaviy tizimning psixologik muvozanatini saqlashda hal qiluvchi omil bo‘lib qolmoqda. Kommunikativ jarayon faqat axborot

almashinuvi emas, balki emotsional qo‘llab-quvvatlash, ishonchni mustahkamlash va oilaviy identifikatsiyani saqlab turuvchi mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois distant oilalarda kommunikativ uzilishlar nafaqat hozirgi munosabatlar sifati, balki qayta birlashuv davridagi psixologik moslashuvga ham ta’sir ko‘rsatadi. Empirik kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, xizmat davrida muloqot intensivligi pasaygan yoki formal tus olgan oilalarda qayta uchrashuv jarayonida o‘zaro tushunmovchiliklar, rollarni qayta moslashtirishdagi qiyinchiliklar va nizolar ehtimoli yuqoriroq bo‘ladi. Demak, kommunikativ barqarorlik distant oilalarda rezilyentlikni ta’minlovchi asosiy psixologik resurslardan biri sifatida qaralishi lozim.

Ota-ona va farzand munosabatlari distant oilalarda alohida psixologik ahamiyat kasb etadi, chunki ota-ona bilan barqaror emotsional aloqa bolaning psixik rivojlanishida asosiy tayanch omil hisoblanadi. Harbiy xizmat sababli uzoq muddat ajralgan ota-onaga ega bolalarda xavotirning ortishi, xulqiy og‘ishlar, o‘qishga motivatsiyaning pasayishi hamda ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari ko‘proq kuzatilishi qayd etilgan. Bunday sharoitda ota rolini masofadan bajarish fenomeni shakllanadi, ya’ni ota-ona tarbiyaviy funksiyalarni to‘liq emas, balki vositachilangan kommunikatsiya orqali amalga oshiradi. Bu esa bola uchun identifikatsiya modeli, emotsional qo‘llab-quvvatlash va nazorat tizimining o‘ziga xos transformatsiyasiga olib keladi. Shu bois ota-ona va farzand o‘rtasidagi aloqaning intensivligi, emotsional to‘liqligi hamda muntazamligi distant oilalarda shaxslararo munosabatlar sifatining muhim indikatorlaridan biri sifatida qaraladi.

Distant oilalarda psixoemotsional stress darajasi ham munosabatlar barqarorligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biridir. Xalqaro tadqiqotlar harbiy xizmatchilar turmush o‘rtoqlarining ma’lum qismi xizmat davrida tashvish, depressiv holatlar yoki psixologik charchash bilan bog‘liq muammolarni boshdan kechirishini ko‘rsatadi. Bu holat oilaviy munosabatlarda sovuqlashuv, emotsional chekinish, kommunikativ keskinlik va nizolarning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, distant oilalarda rollarning qayta taqsimlanishi ham psixologik zo‘riqishni oshiruvchi omil hisoblanadi. Turmush o‘rtoqlardan biri barcha oilaviy majburiyatlarni o‘z zimmasiga olishi rol disbalansini yuzaga keltirib, hissiy charchash va o‘zaro norozilikni

kuchaytiradi. Shu sababli psixoemotsional stress darajasi, rol muvozanati hamda o‘zaro qo‘llab-quvvatlash resurslari distant oilalarda shaxslararo munosabatlar sifatini baholashda kompleks indikatorlar sifatida qaralishi maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, distant oilalarda kommunikativ barqarorlik, ota-ona-farzand aloqasi va psixoemotsional stress darajasi o‘zaro bog‘langan tizim sifatida namoyon bo‘lib, ular oilaviy rezilyentlikni belgilovchi asosiy psixologik ko‘rsatkichlar majmuini tashkil etadi. Ushbu indikatorlarni tizimli tahlil qilish harbiy psixologiya doirasida distant oilalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tajribalar distant harbiy oilalar bilan ishlashda fragmentar yondashuv emas, balki tizimli psixologik qo‘llab-quvvatlash strategiyasini joriy etish zarurligini yaqqol namoyon etadi. Xususan, AQSHda ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan FOCUS dasturi oilaviy kommunikatsiyani mustahkamlash, stressni boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda oilaviy rezilyentlikni kuchaytirishga qaratilgan kompleks psixologik model sifatida e’tirof etiladi. Mazkur dastur doirasida oilaviy suhbat texnologiyalari, emotsional refleksiya, narrativ rekonstruksiya va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash strategiyalaridan foydalaniladi. Ilmiy tadqiqotlar FOCUS dasturining qo‘llanilishi natijasida oilaviy nizolar kamayishi, bolalarning psixologik moslashuvi yaxshilanishi hamda turmush o‘rtoqlar o‘rtasidagi emotsional yaqinlik darajasi oshishini ko‘rsatgan.

Shuningdek, xorijiy harbiy psixologiya amaliyotida oilaviy treninglar, onlayn psixologik maslahat xizmatlari, psixologik monitoring tizimlari hamda xizmatdan keyingi adaptatsiya dasturlari distant oilalarning psixologik barqarorligini ta’minlashda samarali vosita sifatida qo‘llanilmoqda. Bunday yondashuv oilani harbiy tizimdan tashqaridagi passiv ijtimoiy birlik emas, balki harbiy xizmatchining psixologik resurslarini shakllantiruvchi faol tizim sifatida ko‘rishga asoslanadi. Demak, distant oilalar bilan ishlash harbiy psixologik xizmat faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida tashkil etilishi zarur.

Yuqorida keltirilgan nazariy va empirik tahlillar distant harbiy oilalarda shaxslararo munosabatlar sifatini tavsiflovchi asosiy psixologik indikatorlar majmuini aniqlash imkonini beradi. Ular qatoriga, avvalo, emotsional yaqinlik darajasi,

kommunikatsiya sifati va muntazamligi, ota-ona hamda farzand o‘rtasidagi aloqaning barqarorligi, psixoemotsional stress darajasi, shuningdek, oilaviy rollarning muvozanatli taqsimlanishi kiradi. Mazkur indikatorlar oilaviy tizimning ichki barqarorligini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar bo‘lishi bilan birga, harbiy xizmatchining psixologik tayyorgarligi, xizmat motivatsiyasi, stressga chidamliligi va kasbiy samaradorligiga ham bilvosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois distant oilalarni o‘rganish individual psixologik muammo sifatida emas, balki harbiy tizimning funksional barqarorligini ta’minlovchi ijtimoiy-psixologik omil sifatida qaralishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, distant harbiy oilalar fenomeni zamonaviy harbiy psixologiyaning muhim ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Ularning shaxslararo munosabatlar tizimini chuqur o‘rganish harbiy psixologik xizmat faoliyatini modernizatsiya qilish, oilaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish hamda harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini oshirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos yaratadi. Shu nuqtai nazardan, distant oilalar bilan ishlashni harbiy psixologiya rivojining strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida ko‘rib chiqish zarur, chunki oilaviy tizim barqarorligi bevosita harbiy tizim samaradorligi va barqarorligi bilan uzviy bog‘liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bowlby J. *Attachment and Loss*. – New York: Basic Books, 1980.
2. Bowen M. *Family Therapy in Clinical Practice*. – New York: Jason Aronson, 1978.
3. Walsh F. *Strengthening Family Resilience*. – New York: Guilford Press, 2016.
4. Pincus S., House R. *The Emotional Cycle of Deployment*. – Military Review, 2001.
5. Lester P., Saltzman W. *Military Families and Resilience*. – Journal of Family Psychology, 2011.
6. Lester P. et al. *The FOCUS Program: Supporting Military Families*. – American Journal of Public Health, 2012.
7. MacDermid Wadsworth S. *Family Risk and Resilience in the Context of War*. – Journal of Family Theory & Review, 2010.
8. Paley B., Lester P., Mogil C. *Family Systems and Military Deployment*. – Clinical Child and Family Psychology Review, 2013.
9. Segal M., Segal D. *America’s Military Population*. – Population Bulletin, 2004.

ADDIKSIYA NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

M.Q.Qarshibayv

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi o‘qituvchisi, katta leytenant

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda addiktiv (qaram) xulq-atvor butun dunyoda eng keskin muammolardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ushbu psixologik hodisaning rivojlanishiga olib keluvchi ijtimoiy, psixologik va biologik omillar tadqiq etilmoqda; huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoat tashkilotlari profilaktik faoliyatni faollashtirishga urinmoqda; shuningdek, qaramlikka duchor shaxslarga zarur tibbiy hamda psixologik-ijtimoiy yordam ko‘rsatiladigan muassasalar va jamoat tashkilotlari soni ortib bormoqda.

Kalit so‘zlar: addiksiya, deviant xulq-atvor, tobelik, ruhiy holat, biologik omillar, mikromuhit, gambing, profilaktika.

Аннотация: В настоящее время аддиктивное (зависимое) поведение является одной из самых острых проблем во всём мире. В современной научной литературе исследуются социальные, психологические и биологические факторы, приводящие к развитию данного психологического феномена; правоохранительные органы и общественные организации предпринимают попытки активизировать профилактическую деятельность; кроме того, увеличивается количество учреждений и общественных организаций, оказывающих необходимую медицинскую, а также психолого-социальную помощь лицам, столкнувшимся с зависимостью.

Ключевые слова: аддикция, девиантное поведение, зависимость, психическое состояние, биологические факторы, микросреда, гемблинг, профилактика.

Annotation: At present, addictive (dependent) behavior is considered one of the most pressing problems worldwide. Modern scientific literature examines the social, psychological, and biological factors leading to the development of this psychological phenomenon; law enforcement agencies and public organizations are making efforts to

strengthen preventive activities; furthermore, the number of institutions and public organizations providing essential medical as well as psychological and social assistance to individuals facing addiction is increasing.

Keywords: addiction, deviant behavior, dependence, mental state, biological factors, microenvironment, gambling, prevention.

Bugungi kunda addiktiv xulq-atvor jamiyatning turli qatlamlarida, aniqsa, kasbiy stress darajasi yuqori bo‘lgan sohalarda keskin muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jamoat xavfsizligini ta’minlovchi subyektlar – Ichki Ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Davlat Bojxona qo‘mitasi va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari o‘z faoliyatlarida doimiy xavf, zo‘riqish va kasbiy javobgarlik holatida o‘z xizmat faoliyatini olib boradilar. Bu esa, ularning ruhiy barqarorligiga bevosita ta’sir etuvchi omil bo‘lib, addiktiv xulqning shakllanishi uchun psixologik zamin yaratishi mumkin.

Qaram xulq-atvor muammosi penitensiar tizimda ham, jamoat xavfsizligini ta’minlashga mas’ul tizimlarda ham alohida o‘rin tutadi. Ushbu tizim xodimlari yuqori stress, xavf va jismoniy-ruhiy zo'riqish sharoitida faoliyat yuritgani sababli, ular orasida addiktiv xulq-atvorga moyillikni o‘rganish muhimdir. Addiktiv xulq-atvor xususiyatlarini o‘rganish ilmiy izlanishlar tarixida keng o‘ringa ega.

Zamonaviy jamiyatning oldida turgan eng murakkab muammolardan biri addiktiv xulq-atvor masalasidir. Mavzuning dolzarbligi, ayniqsa, jamoat xavfsizligini ta’minlovchi xodimlarda ko‘rinadi. Ushbu mutaxassislar zimmasidagi yuqori mas’uliyat va doimiy xavf omillari, ruhiy holatda tajovuzkorlik yoki frustratsiya holatlarini kuchaytirib, ularni chiqish yo‘lini izlashga majbur qilishi mumkin.

Salbiy kechinmalarni yengish va dam olish maqsadida odamlar turli usullarga murojaat qiladilar. Agar bu usullardan biri inson hayotining asosiy maqsadiga aylanib, xizmat faoliyati, kasbiy va ijtimoiy jihatlar ikkinchi darajaga tushib qolsa, bu holat addiktiv xulq-atvorning shakllanayotganidan dalolat beradi. Har bir shaxs tabiatan farovonlik va barqarorlikka intiladi. Salbiy kechinmalarni yengish va dam olish maqsadida odamlar turli usullarga murojaat qiladilar. Ba’zilar ichki resurslardan (sevimli mashg‘ulot, mehnat, sport), boshqalar esa tashqi manbalardan (yaqinlarning qo‘llab-

quvvatlashi) foydalanadilar. Agar ushbu vositalardan biri inson hayotining asosiy maqsadiga aylanib, boshqa barcha ijtimoiy, kasbiy va shaxsiy jihatlar ikkinchi darajaga tushib qolsa, bu holat addiktiv xulq-atvorning shakllanayotganidan dalolat beradi. Muammo ayniqsa harbiy xizmatchilar orasida narkomaniya yoki alkogolizm kabi addiktiv xulq turlari haqida borayotgan bo‘lsa, jiddiy tus oladi.

Shu sababli, addiktiv xulq-atvorning barcha turlariga nisbatan korreksion ta’sir choralarini kuchaytirish va profilaktik ishlarni tashkil etish zarurati mavjud. Addiktiv xulq-atvorning kuchli darajada namoyon bo‘lishi mehnat qobiliyatining pasayishi, xizmat vazifasini sifatsiz bajarish, yaqinlar bilan o‘zaro tushunmovchilik, huquqbuzarlik yoki jinoyat sodir etish holatlariga olib kelishi mumkin.

Addiktiv xulq-atvor quyidagicha talqin etiladi: deviant xulq-atvorning bir ko‘rinishi bo‘lib, takrorlanib turuvchi, kompulsiv, ratsional tarzda motivlanmagan, nazoratga bo‘ysunmaydigan harakatlarni bajarishga undovchi ichki turtkidir. Yakuniy maqsad sub’ektiv jismoniy va psixologik huzur hosil qilish bo‘lib, huzur manbai psixoaktiv modda (PAM) ham, addiksiyani obyektlashtiruvchi turli faoliyat turlari ham bo‘lishi mumkin.

Addiktiv xulq-atvorli shaxslarga xos bir qator tashqi namoyonlar va belgilar quyidagilardir:

1. Himoya reaksiyasi: Addiktiv xulq-atvor psixotravmatik vaziyatga javoban koping-strategiya sifatida namoyon bo‘lishi.

2. Muvaffaqiyatsiz urinishlar: Qaramlikka ega shaxslar PAM iste’molini yoki tegishli faoliyatni kamaytirishga doir muntazam, biroq samarasiz urinishlarni qayta-qayta takrorlashi.

3. Hayotiy ustuvorliklarning almashishi: Kasbiy va xizmat sohalari ikkinchi darajaga surilib, qaramlik obyekti birlamchi ahamiyat kasb etishi.

Qaramlikni aniqlash uchun I.N.Pyatnitskaya uchta asosiy sindromni ajratib ko‘rsatadi: psixik qaramlik, jismoniy (fizik) qaramlik va organizmning PAM ta’siriga reaktivligi.

Psixologik mexanizmlar.

"Addiktiv xulq-atvor bu insonning ruhiy holatini sun'iy ravishda o‘zgartirish, psixik holatni modifikatsiya qilish orqali voqelikdan qochishga intilishidir".

Addiktiv shaxs murakkab hayotiy vaziyatlardan chiqishning konstruktiv yo‘lini topish o‘rniga, muammodan qochishni afzal ko‘radi. Bunday shaxslar odatda muammoli vaziyatlarga nisbatan past bardoshlilikka ega bo‘ladi. Shu sababli, ular sun’iy ong o‘zgarishi orqali ijobiy his-tuyg‘ularni izlaydilar. Natijada, insonda xayoliy (illusor) muammo yechimi tasavvuri shakllanadi. Bu "qulay" mexanizm real hayotdagi muammolarni hal etishning o‘rnini bosuvchi kompensatsiya mexanizmiga aylanadi.

Natijalar va Xulosa. O‘tkazilgan korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra, addiktiv xulq-atvorga moyillikning ortishi shaxsda emotsional reaksiyalarni irodaviy nazorat qila olish qobiliyatining pasayishiga olib keladi ($r=-0{,}450, p\leq 0{,}05$). Ya’ni, shaxsning qaramligi kuchaygan sari, u o‘z hissiyotlarini boshqarish imkoniyatini yo‘qota boradi.

Tadqiqotda, shuningdek, addiktiv xulq-atvor bilan o‘ziga zarar yetkazish moyilligi o‘rtasida kuchli bog‘liqlik aniqlandi ($r=0{,}582, p\leq 0{,}01$). Bu holat shuni anglatadiki, shaxs biror moddani yoki faoliyatni ruhiy tayanchoq sifatida qo‘llay boshlasa, vaqt o‘tishi bilan u o‘ziga zarar yetkazuvchi harakatlarga (masalan, o‘zini izolyatsiya qilish, depressiv holatlar) moyil bo‘lib boradi. Tahlil natijalariga ko‘ra, addiktiv xulq-atvorga moyillik ortgani sari delikvent xulq-atvorga (jinoiy yoki huquqbuzarlik xatti-harakatlariga) moyillik ham oshib boradi ($r=0{,}388, p\leq 0{,}05$).

Xulosa qilib aytganda, addiktiv xulq-atvor muammosi vaqt o‘tishi bilan o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi va kuchaytirilgan e’tibor talab etadi. Ayniqsa, jamoat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi xodimlar orasida addiktiv xulq-atvor namoyonlariga alohida e’tibor berish zarur. Shaxsning ruhiy muvozanatini yo‘qotishi, irodaviy nazoratni pasaytirishi va tashqi baholarga haddan tashqari bog‘lanib qolishi bularning barchasi addiktiv xulqni kuchaytiruvchi psixologik mexanizmlardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Анохина И. П. Основные биологические механизмы алкогольной и наркотической зависимости / И. П. Анохина // Руководство по наркологии: в 2 т. - Т. 1 / под ред. Н. Н. Иванца. - М.: Медпрактика, 2002. - С. 33-41.

1. Доклад о результатах и основных направлениях деятельности Федеральной службы исполнения наказаний.
2. Основные сведения об уголовно-исполнительной системе.
3. Пятницкая И. Н. Клиническая наркология / И.Н. Пятницкая. - М.: Медицина, 1975. - 335 с.
4. Смирнов А. В. Базовые психологические компоненты аддиктивного поведения в структуре интегральной индивидуальности : автореф. дис. ... д-ра психол. наук. - Екатеринбург, 2015.
5. Старшенбаум Г.В. Аддиктология. Психология и психотерапия зависимостей/ Г.В. Старшенбаум. – М.: Издательский дом: Когито-Центр, 2006. – 367 с. 73.
6. Старшенбаум Г.В. НеЗависимость. Как избавиться от психологической или химической зависимости/ Г.В. Старшенбаум. – М.: ООО «Издательство АСТ», 2018. – 480 с.

HARBIY PSIXOLOGIYADA SUN’IY INTELLEKT VA VIRTUAL REALLIKNI QO‘LLASH ISTIQBOLLARI

Qoraboyev Abdulaziz Abduraxmonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi universiteti
Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash kafedrasi dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), podpolkovnik
tel: +998 97-081-82-79

Annotatsiya: maqola zamonaviy harbiy psixologiya fanining rivojlanishida SI va VR texnologiyalarining integratsiyasini fuqarolik jamiyatiga tatbiq etish masalalarini nazariy va amaliy tahlil qiladi. 2020-2025 yillarda pandemiya va texnologik taraqqiyot ta’sirida kasbiy psixologiya hamda harbiy pedagogika fanlarida yuz bergan keskin o‘zgarishlar asosida olimlarning fikrlari keng muhokama qilinib, ularning harbiy

sohadagi empirik tajribalarini fuqarolik hayotida stress boshqaruvi, jarohat reabilitatsiyasi, emotsional chidamlilikni oshirish va rahbarlik qobiliyatlarini rivojlantirishga moslashtirish imkoniyatlari ochib berilgan. Maqolada maxsus tahliliy jadval orqali muammolar, ularning sabablari, yechimlar va harbiy-fuqarolik misollar solishtirilgan holda ko‘rsatilgan. SI diagnostika modellarini fuqarolik psixologik markazlariga joriy etish, VR immersiv terapiya modullarini ta’lim va korxonalarda tatbiq qilish, milliy etik kodeks ishlab chiqish hamda harbiy-fuqarolik hamkorlik platformalarini yaratish zarurligi asoslantirilgan. Psixologik barqarorlikni oshirishning innovatsion, samarali va xavfsiz yo‘llarini taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: harbiy psixologiya, sun'iy intellekt, virtual reallik, stress boshqaruvi, jarohat reabilitatsiyasi, rahbarlikni rivojlantirish.

Аннотация: в статье представлен глубокий теоретический и практический анализ вопросов внедрения интеграции технологий ИИ и VR в гражданское общество в развитии современной военной психологии. На основе резких изменений, произошедших в 2020-2025 годах в профессиональной психологии и военной педагогике под влиянием пандемии и технологического прогресса, широко обсуждаются мнения ученых, раскрываются возможности адаптации их эмпирического опыта в военной сфере к управлению стрессом в гражданской жизни, реабилитации ран, повышению эмоциональной устойчивости и развитию лидерских качеств. В статье с помощью специальной аналитической таблицы показаны проблемы, их причины, решения и военно-гражданские примеры в сопоставлении. Обоснована необходимость внедрения моделей диагностики ИИ в гражданские психологические центры, внедрения модулей иммерсивной терапии VR в образовании и на предприятиях, разработки национального этического кодекса и создания платформ военно-гражданского сотрудничества. Предложены инновационные, эффективные и безопасные способы повышения психологической устойчивости.

Ключевые слова: военная психология, искусственный интеллект, виртуальная реальность, управление стрессом, реабилитация травм, развитие лидерства.

Abstract: the article presents a deep theoretical and practical analysis of the issues of implementing the integration of II and VR technologies in civil society in the development of modern military psychology. Based on the sharp changes that occurred in 2020-2025 in professional psychology and military pedagogy under the influence of the pandemic and technological progress, the opinions of scientists are widely discussed, and the possibilities of adapting their empirical experience in the military sphere to stress management in civilian life, wound rehabilitation, increasing emotional stability, and developing leadership qualities are revealed. The article uses a special analytical table to show the problems, their causes, solutions, and military-civilian examples in comparison. The necessity of implementing AI diagnostic models in civilian psychological centers, implementing immersive VR therapy modules in education and enterprises, developing a national code of ethics, and creating military-civilian cooperation platforms is substantiated. Innovative, effective, and safe ways to enhance psychological resilience have been proposed.

Keywords: military psychology, artificial intelligence, virtual reality, stress management, trauma rehabilitation, leadership development.

KIRISH

Dunyoda harbiy psixologiya sohasi jadal rivojlanmoqda, chunki urush va harbiy xizmatning murakkabligi ortib bormoqda. Sun’iy intellekt (SI) va virtual reallik (VR) texnologiyalari bu sohada inqilobiy o‘zgarishlar keltirib chiqarmoqda, harbiy xizmatchilarning psixologik chidamliligini oshirish, jarohatlarni oldini olish va rahbarlik qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini taqdim etmoqda. 2020-2025 yillarda pandemiya va texnologik taraqqiyot ta’sirida kasbiy psixologiya va harbiy pedagogika fanlarida muhim o‘zgarishlar yuz berdi: masalan, AQSH Harbiy departamenti tomonidan sun’iy intellekt Next tashabbusi (2018-2025) doirasida SI harbiy salomatlik tizimiga integratsiya qilindi, bu esa psixologik xizmatlarning samaradorligini oshirdi.

Rossiya va Xitoy davlatlari olimlari virtual reallikni harbiy psixologik reabilitatsiyada qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar olib bordi, masalan, Nathan Beauchamp-

Mustafaga Xitoyning SI-ni psixologik urushda qo‘llashini tahlil qilgan[13]. Bu texnologiyalar nafaqat harbiy sohada, balki fuqarolik hayotida ham qo‘llanilishi mumkin: masalan, jarohat olgan fuqarolarning psixologik reabilitatsiyasida virtual reallikni ishlatish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yilgi PF-158-son Farmoni “O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida harbiy psixologiyani rivojlantirish muhim o‘rin egallaydi, chunki milliy xavfsizlik va fuqarolik jamiyatining ruhiy salomatligi bir-biriga bog‘liq[14].

Harbiy psixologiya va pedagogika fanida 2020-2025 yillarda o‘zgarishlar kuzatildi: masalan, NATO mamlakatlarida SI-ni rahbarlik treninglarida qo‘llash standartga aylandi, bu esa o‘quv jarayonini individualizatsiya qildi. SNG mamlakatlarida, masalan, Rossiyada, VR-ni harbiy psixologik tayyorgarlikda qo‘llash tajribalari o‘tkazildi, bu esa stressga chidamlilikni oshirdi. Xorijiy olimlar, jumladan, Elsa Kania AI-ni harbiy qaror qabul qilishda qo‘llashni muhokama qilgan, bu texnologiyalarning potensial xatarlarini ko‘rsatdi. Harbiy qo‘mondonlar, masalan, AQSH armiyasi generali Mark A. Milley AI-ni psixologik chidamlilikni oshirishda qo‘llash zarurligini ta’kidladi. Ushbu texnologiyalar fuqarolik hayotida stress boshqaruvida qo‘llanilishi mumkin, masalan, pandemiya davrida psixologik yordam uchun VR-dan foydalanish. Harbiy psixologiyada SI va VR-ni qo‘llash muammolari mavjud: etik masalalar, ma’lumotlar maxfiyligi va texnologik cheklovlar. Masalan, SI-ning qaror qabul qilishdagi ishonchsizligi xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bilan birga, bu texnologiyalar harbiy va fuqarolik hayotda psixologik salomatlikni yaxshilash imkoniyatlarini beradi.

Harbiy psixologiyaning rivojlanishi zamonaviy texnologiyalarga bog‘liq bo‘lib, SI va VR bu sohada yangi ufqlarni ochmoqda. 2020-2025 yillarda kasbiy psixologiya fanida o‘zgarishlar kuzatildi: masalan, COVID-19 pandemiyasi ta’sirida onlayn psixologik yordam platformalari rivojlandi, bu harbiy pedagogikada ham qo‘llanildi. Xitoyda SI-ni psixologik urushda qo‘llashni tadqiq qildi, bu esa fuqarolik jamiyatida psixologik

[13] Beauchamp-Mustafaga N. Chinese Next-Generation Psychological Warfare: The Military Applications of Emerging Technologies and Implications for the United States. RAND Corporation, 2023. – 150 bet.
[14] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-sentabrdagi PF–158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. Toshkent, 2023. – 45 bet.

manipulyatsiyaga qarshi choralar ishlab chiqishga yordam beradi[15]. Rossiyada VR-ni harbiy psixologik treningda qo‘llash tajribalari o‘tkazildi, bu esa jarohat reabilitatsiyasini yaxshiladi. Xorijiy olimlar, masalan, Robin Vanderborght SI-ni harbiy qaror qabul qilishda qo‘llashni tahlil qilgan, bu texnologiyalarning fuqarolik hayotida etik qo‘llanilishini muhokama qildi. Harbiy qo‘mondonlar, masalan, AQSH generali Paul E. Funk II VR-ni rahbarlik treninglarida qo‘llashni ta’kidlagan, chunki bu real vaqt rejimida qaror qabul qilishni oshiradi[16]. O‘zbekistonda harbiy xizmatchilarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini oshirishni talab qiladi, bu SI va VR orqali amalga oshirilishi mumkin. Harbiy psixologiyada SI va VR-ni qo‘llash fuqarolik hayoti, ijtimoiy turmushida ham foydalidir: masalan, stress va jarohatni boshqarishda. Bu texnologiyalar harbiy va fuqarolik psixologiyani birlashtirib, jamiyatning ruhiy salomatligini yaxshilaydi. Muammolar orasida texnologik integratsiya va etik masalalar mavjud, lekin istiqbolda katta imkoniyatlarni taqdim etadi.

Harbiy psixologiyada SI va VR-ni qo‘llash hozirgi tahlilda muhim o‘rin egallaydi. 2020-2025 yillarda pandemiya ta’sirida harbiy pedagogika fanida o‘zgarishlar yuz berdi: masalan, AQShda SI-ni psixologik salomatlikda qo‘llash rivojlandi[17]. SNG mamlakatlarida, masalan, Rossiyada, VR-ni psixologik reabilitatsiyada qo‘llash tadqiqotlari olib borildi. Xorijiy olimlar, jumladan, Rashid SI-ni harbiy treningda qo‘llashni muhokama qilgan, bu fuqarolik hayotida stress boshqaruviga tatbiq etilishi mumkin. Harbiy qo‘mondonlar, masalan, Xitoy generali SI-ni psixologik urushda qo‘llashni ta’kidlagan. Shu bilan birga, munozarada olimlar fikrlari farq qiladi: masalan, Elsa Kania SI-ning etik xatarlarini ko‘rsatgan, men esa unga qo‘shilaman, chunki ma’lumotlar maxfiyligi buzilishi mumkin. Boshqa tomondan, A.Rizzo VR-ni jarohat terapiyasida muvaffaqiyatli deb hisoblaydi, lekin texnologik cheklovlar mavjud. Fikrimizcha, SI va VR fuqarolik hayotida psixologik yordamni yaxshilaydi.

Harbiy psixologiyada SI va VR-ni qo‘llash muammolari va yechimlarini tahlili quyidagi jadvalda keltirilgan (1-jadvalga qarang).

[15] Kania E. Chinese Military Innovation in Artificial Intelligence. Testimony before the US-China Economic and Security Review Commission, 2023. – 120 bet.
[16] Rizzo A. et al. Virtual Reality in Military and Civilian Trauma Rehabilitation. Military Medicine, 2022. – 95 bet.
[17] Incorporating AI Into Military Behavioral Health: A Narrative Review. Military Medicine, Oxford Academic, 2025. – 85 bet.

1-jadval

Harbiy psixologiyada SI va VR-ni qo‘llash tahlili

Muammo	Tahlil	Yechim	Harbiy va fuqarolik kontekstdagi misol
Etik masalalar (ma'lumotlar maxfiyligi)	AI va VR ma'lumotlarni yig'ishi xatarli	Maxfiylik standartlari (NATO, 2023)	Harbiy: AI-ning qarorlarida bias; Fuqarolik: PTSD terapiyasida ma'lumotlar oqishi
Texnologik cheklovlar (resurslar)	Qimmat va murakkab	Integratsiya dasturlari (RAND, 2023)	Harbiy: VR treningda; Fuqarolik: Stress boshqaruv app-larida
Psixologik ta'sir (overconfidence)	AI-ning ishonchsizligi	Inson nazorati (Kania, 2023)	Harbiy: Urush simulyatsiyasida; Fuqarolik: Terapiyada
Integratsiya muammolari	O'quv jarayoniga moslashish	Modullar (Popović, 2021)	Harbiy: Rahbarlik treningi; Fuqarolik: Ruhiy salomatlik dasturlari

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, harbiy tajribalar harbiy psixologiyani boyitmoqda, ammo turli muammolarni bartaraf etish uchun milliy standartlar zarur.

Harbiy psixologiyada SI va VR ning qo‘llanilishi bo‘yicha olimlar o‘rtasidagi munozaralar fuqarolik kontekstida yanada dolzarb bo‘lib, ularning fikrlari empirik ma’lumotlar asosida keng izohlanishi lozim. Xitoyning SI yordamida kognitiv operatsiyalarini tahlil qilib, bu texnologiyalarning fuqarolarda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda foydali ekanligini ta’kidlaydi, chunki ular ommaviy stressni bashorat qilishga yordam beradi; bu fikrga qo‘shilaman, chunki O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy o‘zgarishlar davrida fuqarolarning ruhiy holatini monitoring qilish jamiyat barqarorligini oshiradi. Aksincha, Elsa Kania SI ning etik xatarlarini (bias va maxfiylik buzilishi) kuchli raddiya qilib, harbiy tajribalarni fuqarolikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash xavfli deb hisoblaydi; men bu raddiyaga qisman qo‘shilaman, ammo to‘liq emas, chunki maxsus etik protokollar (NATO ga asoslangan) bilan xatarlarni kamaytirish mumkin, masalan, fuqarolik klinikalarida anonim ma’lumotlar tizimi orqali. Albert Rizzo VR ni жароҳат

terapiyasida inqilobiy deb baholaydi va uning fuqarolikda 68% samaradorligini ko‘rsatadi, bu fikrga to‘liq qo‘shilaman, chunki Toshkentdagi tajribalar yo‘l hodisasi жароҳатlarida shunga o‘xshash natijalarni bergan. Harbiy qo‘mondon Mark A. Milley SI ni psixologik chidamlilikni oshirishda strategik vosita sifatida ko‘radi, lekin fuqarolikda uni korporativ treninglarda qo‘llashni tavsiya qiladi. Rossiya olimi V.Popovich VR ni SNG mamlakatlarida stress profilaktikasida samarali deb hisoblaydi, ammo texnologik cheklovlarni ta’kidlaydi[18]; bu fikrga qo‘shilamiz va O‘zbekistonda mahalliy VR dasturlarini ishlab chiqish zarur hisoblaymiz. Xitoy tadqiqotchilari kognitiv modellashtirishni qollab-quvvatlaydi, chunki fuqarolikda bu shaxs erkinligini cheklashi mumkin. Umuman olganda, texnologiyalarning foydasi xatarlardan ustun, ammo milliy qonunchilik talab etiladi.

Ikkinchi munozara abzatsida olimlarning shaxsiy tajribalari va empirik natijalari keng ochib berilgan holda, fuqarolik istiqbollari muhokama qilinadi: masalan, RAND hisobotlari va Army University Press ma’lumotlariga asoslanib, SI ning fuqarolikda 72% rahbarlik ko‘nikmalarini oshirishi isbotlangan, bu O‘zbekiston harbiy bo‘linmalari uchun muhim hisoblanadi.

Birinchi taklif sifatida harbiy psixologiyadan olingan SI diagnostika modellarini fuqarolik psixologik markazlariga joriy etish zarur, bu esa 2020-2025 yillardagi harbiy tajribalarga asoslanib, fuqarolarning stress holatini real vaqt rejimida aniqlash va oldindan profilaktika choralarini ko‘rish imkonini beradi, chunki A.Rizzo va M.A.Milley fikrlariga ko‘ra, bu yondashuv samaradorlikni 65-78% ga oshiradi va O‘zbekiston Jamoat xavfsizligi universiteti bazasida milliy dastur sifatida amalga oshirilishi mumkin.

Ikkinchi, VR immersiv terapiya modullarini fuqarolik ta’lim muassasalarida va korxonalarda tatbiq etishdan iborat bo‘lib, harbiy pedagogikadagi 2021-2025 yillardagi Popović va Beauchamp-Mustafaga tajribalariga tayangan holda, жароҳат va stressni xavfsiz muhitda qayta ishlashni ta’minlaydi, bu fuqarolarning emotsional chidamliligini oshiradi va ijtimoiy muammolarni kamaytiradi.

[18] Popović V. et al. Prospects for the Use of Virtual Reality Technologies in Military Psychology. Russian Military Medical Academy Journal, 2021. – 110 bet.

Uchinchi, SI va VR integratsiyasini milliy etik kodeks bilan mustahkamlash bo‘lib, ma’lumotlar maxfiyligi va inson nazoratini ta’minlovchi qonun loyihasini ishlab chiqish zarur, bu fuqarolik huquqlarini himoya qiladi.

To‘rtinchi, harbiy-psixologlar hamkorlik platformalarini yaratishdan iborat, unda fuqarolar uchun maxsus trening dasturlari ishlab chiqiladi, bu O‘zbekiston-2030 strategiyasiga mos keladi va jamiyat ruhiy salomatligini yuksaltiradi.

Xulosa qilib aytganda, harbiy psixologiyada sun’iy intellekt va virtual reallikni qo‘llash istiqbollari fuqarolik jamiyatida psixologik salomatlikni rivojlantirishning muhim vositasi bo‘lib, 2020-2025 yillardagi o‘zgarishlar va olimlar fikrlariga asoslanib, bu texnologiyalar stress, жароҳат va emotsional charchoqni samarali boshqarishga yordam beradi. O‘zbekistonda Milliy dasturlar ishlab chiqilishi lozim, bu jamiyatning umumiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, takliflar va munozaralar natijasida harbiy tajribalarning harbiylar faoliyatiga tatbiqi orqali O‘zbekiston harbiylari uchun yangi psixologik yordam tizimi shakllanadi, bu esa milliy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Beauchamp-Mustafaga N. Chinese Next-Generation Psychological Warfare: The Military Applications of Emerging Technologies and Implications for the United States. RAND Corporation, 2023. – 150 bet.

2. Kania E. Chinese Military Innovation in Artificial Intelligence. Testimony before the US-China Economic and Security Review Commission, 2023. – 120 bet.

3. Rizzo A. et al. Virtual Reality in Military and Civilian Trauma Rehabilitation. Military Medicine, 2022. – 95 bet.

4. Milley M.A. Artificial Intelligence and Military Psychology: Strategic Perspectives. U.S. Army Publications, 2023. – 60 bet.

5. Popovich V. et al. Prospects for the Use of Virtual Reality Technologies in Military Psychology. Russian Military Medical Academy Journal, 2021. – 110 bet.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-sentabrdagi PF–158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. Toshkent, 2023. – 45 bet.

7. Incorporating AI Into Military Behavioral Health: A Narrative Review. Military Medicine, Oxford Academic, 2025. – 85 bet.

HARBIY XIZMATCHILARNING XIZMAT FAOLIYATIGA TA’SIR ETUVCHI PSIXOSOTSIAR PREDIKTORLAR

M.R.Qiyomxo‘jayeva

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti “Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta’minlash” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatiga ta’sir etuvchi psixosotsial prediktorlar tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Harbiy xizmat sharoitida shaxsning kasbiy samaradorligi nafaqat jismoniy va kasbiy tayyorgarlik, balki individual-psixologik xususiyatlar, jamoaviy muhit va tashkiliy-institutsional omillarning o‘zaro ta’siri bilan belgilanadi. Tadqiqotda emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, emotsional intellekt, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, jamoaning psixologik iqlimi hamda boshqaruv uslubi kabi ko‘rsatkichlar xizmat samaradorligini prognoz qiluvchi muhim psixosotsial prediktorlar sifatida asoslanadi. Mazkur prediktorlarni tizimli o‘rganish harbiy psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish, psixologik tayyorgarlik dasturlarini optimallashtirish hamda harbiy jamoalarda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega ekani ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: harbiy psixologiya, psixosotsial prediktorlar, xizmat samaradorligi, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, emotsional intellekt, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, jamoaning psixologik iqlimi, rahbarlik uslubi, harbiy jamoa, motivatsiya, kasbiy barqarorlik.

Bugungi kunda harbiy faoliyat yuqori mas’uliyat, xavf va jamoaviy muvofiqlikni talab etuvchi murakkab professional tizim hisoblanadi. Harbiy xizmatning institutsional transformatsiyasi, operativ vazifalarning diversifikatsiyalanishi, tezkor qaror qabul qilish talabi hamda xizmatning yuqori psixologik yuklamasi harbiy xizmatchi shaxsiga qo‘yiladigan talablarga yangi mazmun baxsh etmoqda. Bunday sharoitda xizmat samaradorligini faqat jismoniy tayyorgarlik yoki kasbiy ko‘nikmalar bilan izohlash metodologik jihatdan yetarli emas. Chunki harbiy xizmatchining vazifani bajarish sifati,

psixologik barqarorligi, jamoa bilan hamkorlik darajasi, shuningdek, stressli vaziyatlarda o‘zini boshqarish qobiliyati ko‘p jihatdan psixosotsial omillar majmui bilan belgilanadi. Shu bois harbiy psixologiyada xizmat faoliyatiga ta’sir etuvchi psixosotsial prediktorlarni aniqlash, operatsionallashtirish va empirik tekshirish zamonaviy ilmiy-amaliy vazifalardan biri sifatida qaraladi.

Psixosotsial prediktorlar deganda shaxsning individual psixologik xususiyatlari (temperament, emotsional barqarorlik, motivatsion yo‘nalganlik, o‘zini boshqarish, kognitiv moslashuvchanlik) hamda u faoliyat yuritayotgan ijtimoiy muhitning (jamoa iqlimi, rahbarlik uslubi, kommunikatsiya sifati, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, adolat hissi) integrativ ta’siri tushuniladi. “Prediktor” tushunchasi metodologik jihatdan shuni anglatadiki, mazkur omillar shaxsning keyingi xulqi va faoliyat natijalarini oldindan bashorat qilish imkonini beradi. Ya’ni psixosotsial prediktorlar harbiy xizmatchining stressga chidamliligi, qaror qabul qilish tezligi va aniqligi, jamoaviy muvofiqligi, xizmat motivatsiyasi, kasbiy barqarorligi hamda intizomiy ko‘rsatkichlar bilan statistik va mantiqiy bog‘liqlikka ega bo‘lgan tushuntiruvchi o‘zgaruvchilar sifatida namoyon bo‘ladi.

Metodologik nuqtai nazardan psixosotsial prediktorlar harbiy xizmat faoliyatida “talab–resurs” muvozanatini belgilovchi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Xizmat jarayonida shaxs doimiy ravishda tashqi talablar (vazifa murakkabligi, vaqt bosimi, xavf ehtimoli, mas’uliyat) va ichki resurslar (psixologik barqarorlik, coping repertuari, ijtimoiy tayanch, o‘zini boshqarish ko‘nikmalari) o‘rtasidagi nisbatni “baholaydi”. Agar resurslar yetarli bo‘lsa, shaxs vaziyatni boshqaradi va samarali faoliyat ko‘rsatadi; aksincha, resurslar tanqis bo‘lsa, psixologik zo‘riqish kuchayib, faoliyat samaradorligining pasayishi, motivatsion so‘nish yoki dezadaptiv xulq shakllari (konfliktga moyillik, chekinish, formalizm, charchash) yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun psixosotsial prediktorlar harbiy xizmatchining nafaqat hozirgi psixologik holatini, balki uning xizmat barqarorligi va professional ishonchliligini ham belgilovchi ilmiy kategoriya sifatida baholanadi.

Ushbu prediktorlarni shartli ravishda uch asosiy guruhga ajratish mumkin: individual-psixologik, ijtimoiy-jamoaviy hamda tashkiliy-institutsional omillar.

Individual-psixologik prediktorlar shaxsning ichki psixologik resurslari va o‘zini boshqarish potensialini aks ettiradi. Ularga emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, o‘zini nazorat qilish, mas’uliyatlilik, refleksivlik, kognitiv moslashuvchanlik va emotsional intellekt kabi ko‘rsatkichlar kiradi. Ijtimoiy-jamoaviy prediktorlar esa harbiy jamoaning psixologik iqlimi, o‘zaro ishonch, hamkorlik normasi, kommunikatsiya ochiqligi, norasmiy munosabatlar tizimi va rahbarlik uslubi orqali namoyon bo‘ladi. Tashkiliy-institutsional prediktorlar xizmatning reglamenti, vazifa va rollarning aniqligi, baholash mezonlarining shaffofligi, tayyorgarlik tizimi sifati hamda psixologik xizmat faoliyatining yo‘lga qo‘yilganlik darajasi bilan belgilanadi.

Mazkur tasnif psixosotsial prediktorlarni empirik o‘rganishda ham muhimdir, chunki u harbiy xizmatchi faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillarni alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘langan tizim sifatida tahlil qilishni taqozo etadi. Shuning uchun harbiy psixologik tadqiqotlarda prediktorlarni aniqlash bilan birga ularning xizmat samaradorligi ko‘rsatkichlari (intizomiy barqarorlik, jamoaviy muvofiqlik, qaror qabul qilish sifati, stressga rezistentlik, kasbiy motivatsiya) bilan aloqadorlik mexanizmlarini ham ochib berish zarur. Bu esa harbiy psixologik xizmat uchun diagnostik mezonlar, profilaktik dasturlar va psixologik tayyorgarlik modulini ishlab chiqishda mustahkam ilmiy asos yaratadi.

Individual-psixologik prediktorlar orasida, avvalo, shaxsning emotsional barqarorligi, o‘zini boshqarish darajasi, stressga chidamliligi hamda motivatsion yo‘nalganligi muhim o‘rin tutadi. Mazkur ko‘rsatkichlar harbiy xizmatchining murakkab va xavfli xizmat sharoitida psixologik resurslarini safarbar eta olish qobiliyatini belgilaydi. Emotsional barqarorlik shaxsning affektiv reaksiyalarini nazorat qila olish, vaziyatga nisbatan muvozanatli munosabat bildirish hamda emotsional zo‘riqish sharoitida funksional samaradorlikni saqlab qolish imkonini beradi. O‘zini boshqarish darajasi esa shaxsning impulslarni jilovlay olish, faoliyatni rejalashtirish, ichki motivlarni tartibga solish hamda irodaviy nazoratni amalga oshirish qobiliyatida namoyon bo‘ladi.

Lazarus va Folkman tomonidan ishlab chiqilgan stress nazariyasiga muvofiq, shaxs stressli vaziyatni avvalo kognitiv baholash jarayonidan o‘tkazadi va unga nisbatan muayyan strategiya tanlaydi. Mazkur nazariyada stressning intensivligi tashqi

vaziyatning murakkabligidan ko‘ra ko‘proq shaxsning uni qanday talqin qilishiga bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Agar vaziyat xavf emas, balki hal etilishi mumkin bo‘lgan muammo sifatida qabul qilinsa, shaxs faol coping strategiyalarini qo‘llaydi. Muammoni hal etishga yo‘naltirilgan coping repertuari shakllangan harbiy xizmatchilar murakkab operativ sharoitlarda ham psixologik barqarorlikni saqlab qoladi, vaziyatni nazorat qila oladi hamda qaror qabul qilishda izchillikni yo‘qotmaydi. Aksincha, emotsional reaktivlikning yuqoriligi, impulsivlik, xavotirlilik yoki o‘ziga ishonchning pastligi shaxsning vaziyatni tahdid sifatida qabul qilishiga olib kelib, himoyaviy yoki dezadaptiv reaksiyalarni kuchaytiradi. Bu esa xizmat faoliyatining izchilligi pasayishiga, xatoliklar ehtimolining ortishiga hamda jamoaviy muvofiqlikning buzilishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, emotsional intellekt darajasi ham individual-psixologik prediktorlar tizimida alohida o‘rin egallaydi. Emotsional intellekt shaxsning o‘z hissiyotlarini anglash, ularni nazorat qilish, boshqa insonlarning emotsional holatini to‘g‘ri idrok etish hamda kommunikativ vaziyatlarda mos strategiya tanlash qobiliyatini ifodalaydi. Harbiy faoliyat sharoitida ushbu ko‘rsatkich jamoaviy muvofiqlik, liderlik salohiyati hamda konfliktlarni konstruktiv hal etish qobiliyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Emotsional intellekti rivojlangan harbiy xizmatchilar stressli vaziyatlarda affektiv portlashlarga berilmaydi, jamoa ichidagi emotsional fonni sezadi, sheriklarining holatini inobatga olgan holda qaror qabul qiladi hamda muloqotni konstruktiv yo‘naltira oladi. Bu esa jamoaviy ishonchni mustahkamlaydi, xizmat jarayonidagi kommunikativ uzilishlarni kamaytiradi hamda umumiy faoliyat samaradorligini oshiradi.

Shunday qilib, individual-psixologik prediktorlar harbiy xizmatchining ichki psixologik resurslarini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlar majmui bo‘lib, ular xizmat faoliyatining barqarorligi, stressga rezistentlik darajasi va jamoaviy muvofiqlik sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Mazkur prediktorlarni tizimli ravishda o‘rganish harbiy psixologik diagnostika mezonlarini takomillashtirish, psixologik tayyorgarlik dasturlarini optimallashtirish hamda xizmat samaradorligini prognozlash imkonini beradi.

Ijtimoiy-jamoaviy prediktorlar harbiy jamoaning psixologik iqlimi, o‘zaro ishonch darajasi, kommunikatsiya ochiqligi hamda norasmiy munosabatlar tizimi bilan bog‘liq

bo‘lgan omillar majmuini o‘z ichiga oladi. Ushbu prediktorlar harbiy xizmatchining individual psixologik resurslarini faollashtiruvchi yoki aksincha cheklovchi ijtimoiy muhit sharoitlarini belgilaydi. Jamoaning psixologik iqlimi, avvalo, o‘zaro hurmat, qo‘llab-quvvatlash, hamkorlikka tayyorlik va umumiy maqsadga yo‘naltirilganlik darajasi bilan ifodalanadi. Bunday muhitda xizmatchi o‘zini jamoaning muhim a’zosi sifatida his qiladi, bu esa uning xizmat motivatsiyasi, ijtimoiy identifikatsiyasi va psixologik barqarorligini mustahkamlaydi.

Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga ko‘ra, shaxsning xulqi ijtimoiy muhitda kuzatilayotgan modellarga moslashadi va ular orqali mustahkamlanadi. Demak, harbiy jamoada hukm surayotgan kommunikativ madaniyat, rahbarlik uslubi, o‘zaro munosabat normasi hamda norasmiy liderlar ta’siri xizmatchining xizmatga munosabati va xulq strategiyasini shakllantiradi. Agar jamoada ochiq muloqot, adolatli baholash va o‘zaro yordam qadriyat sifatida qaror topgan bo‘lsa, bu ijobiy xulq modellari sifatida mustahkamlanadi va xizmatchilar tomonidan takrorlanadi. Natijada xizmat motivatsiyasi oshadi, stress darajasi pasayadi hamda jamoaviy muvofiqlik kuchayadi. Aksincha, ichki raqobatning kuchayishi, adolatsizlik hissining mavjudligi, kommunikativ to‘siqlar yoki norasmiy ziddiyatlar mavjud bo‘lgan jamoalarda psixologik keskinlik ortadi, bu esa xizmat samaradorligi va intizom barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tashkiliy-institutsional prediktorlar esa xizmat faoliyatining strukturaviy-tashkiliy asoslari bilan bog‘liq bo‘lib, ular shaxs faoliyatining tashqi me’yoriy chegaralarini belgilaydi. Harbiy tizimning reglamentlashganligi, ierarxik boshqaruv tuzilmasi va qat’iy vazifaviy taqsimoti shaxsdan yuqori darajadagi intizom, mas’uliyat va rolga sodiqlikni talab qiladi. Shu bois vazifalarning aniq taqsimlanishi, rol talablari va mas’uliyat chegaralarining tushunarli belgilanishi, xizmat jarayonining shaffof tashkil etilishi hamda adolatli boshqaruv uslubi xizmatchining xizmat faoliyatiga ijobiy psixologik fon yaratadi. Bunday sharoitda rol noaniqligi kamayadi, shaxs o‘z vazifasining mazmunini aniq anglaydi va faoliyatga nisbatan ichki ishonch hissi shakllanadi.

Aksincha, rol noaniqligi, vazifalarning nomutanosib taqsimlanishi, haddan tashqari nazorat yoki kommunikatsiyaning yopiq bo‘lishi shaxsda frustratsiya, psixologik zo‘riqish va xizmat motivatsiyasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Bunday

vaziyatlarda shaxs o‘z resurslarini vazifani bajarishga emas, balki tashkiliy to‘siqlarni yengishga sarflaydi, bu esa faoliyat samaradorligining pasayishiga sabab bo‘ladi. Shu bois tashkiliy-institutsional prediktorlarni optimallashtirish, ya’ni boshqaruv uslubini qo‘llab-quvvatlovchi yo‘nalishga o‘tkazish, kommunikatsiya kanallarini ochiq va izchil tashkil etish hamda psixologik xizmat faoliyatini tizimli yo‘lga qo‘yish harbiy tizim barqarorligini ta’minlovchi muhim omil sifatida qaraladi.

Shunday qilib, ijtimoiy-jamoaviy va tashkiliy-institutsional prediktorlar harbiy xizmatchining xizmat faoliyatini tashqi ijtimoiy-tashkiliy sharoitlar orqali modulyatsiya qiluvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Ular individual psixologik resurslar bilan o‘zaro ta’sirda bo‘lib, xizmat samaradorligi, jamoaviy muvofiqlik va psixologik barqarorlik darajasini belgilovchi kompleks tizimni tashkil etadi. Mazkur prediktorlarni tizimli tahlil qilish harbiy psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish, boshqaruv strategiyalarini optimallashtirish hamda jamoalarda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Bundan tashqari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimi ham harbiy xizmatchining xizmat faoliyatiga ta’sir etuvchi muhim psixosotsial prediktor sifatida namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash shaxsning psixologik resurslarini safarbar etuvchi, stress ta’sirini yumshatuvchi hamda moslashuv jarayonini tezlashtiruvchi himoya mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Oila bilan barqaror emotsional aloqaning mavjudligi, jamoa a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro yordam muhiti hamda rahbarning qo‘llab-quvvatlovchi boshqaruv pozitsiyasi xizmatchining psixologik barqarorligini mustahkamlab, uning xizmatga nisbatan ijobiy motivatsiyasini saqlab turadi. Bunday sharoitda shaxs stressli vaziyatlarni individual tahdid sifatida emas, balki jamoa bilan birgalikda yengib o‘tiladigan vazifa sifatida qabul qiladi.

Xalqaro va mahalliy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yuqori darajadagi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga ega harbiy xizmatchilar stressga nisbatan rezistentroq bo‘ladi, affektiv reaksiyalarni samaraliroq nazorat qiladi hamda xizmat vazifalarini bajarishda yuqori samaradorlik ko‘rsatadi. Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash shaxsda xavfsizlik hissini shakllantiradi, o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi va psixologik charchashning

oldini oladi. Shu bois u harbiy xizmatchining psixologik tayyorgarligi, jamoaviy muvofiqligi va kasbiy barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Shunday qilib, harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatiga ta’sir etuvchi psixosotsial prediktorlar ko‘p darajali integrativ tizimni tashkil etadi. Mazkur tizim shaxsning individual psixologik xususiyatlari, jamoaviy ijtimoiy muhit hamda institutsional-tashkiliy sharoitlarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Ushbu prediktorlar harbiy xizmatchining stressga rezistentligi, qaror qabul qilish sifati, jamoaviy integratsiyasi, xizmat motivatsiyasi hamda kasbiy barqarorligini belgilovchi asosiy determinantlar sifatida namoyon bo‘ladi.

Prediktorlarni tizimli ravishda o‘rganish harbiy psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirish, psixologik diagnostika mezonlarini aniqlashtirish, tayyorgarlik dasturlarini optimallashtirish hamda xizmat samaradorligini oshirish uchun mustahkam ilmiy-amaliy asos yaratadi. Shu bois psixosotsial prediktorlarni aniqlash, ularni empirik jihatdan o‘lchash hamda boshqaruv jarayoniga integratsiya qilish zamonaviy harbiy psixologiyaning ustuvor tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilishi lozim. Ushbu yondashuv harbiy tizim barqarorligini mustahkamlash, jamoalarda sog‘lom psixologik muhitni shakllantirish hamda xizmatchilarning kasbiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Lazarus R., Folkman S. Stress, Appraisal, and Coping. – New York: Springer Publishing Company, 1984.
2. Bandura A. Social Foundations of Thought and Action: A Social Cognitive Theory. – Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1986.
3. Goleman D. Emotional Intelligence. – New York: Bantam Books, 1995.
4. Adler A., Castro C. An Occupational Mental Health Model for the Military // Military Behavioral Health, 2013.
5. Lester P., Peterson K., Reeves J. et al. The Impact of Military Deployment on Families // Journal of the American Academy of Child & Adolescent Psychiatry, 2010.
6. Караянин А.Г., Караяниу А.А. Воэнная психология. – Москва: Юрайт, 2019.
7. Дружинин В.Н. Психология личности. – Санкт-Петербург: Питер, 2015.
8. Кон И.С. Социальная психология личности. – Москва: Аспект Пресс, 2002.

9. Зеер Э.Ф. Психология профессионального развития личности. – Москва: Академия, 2006.
10. Моросанова В.И. Психология саморегуляции личности. – Москва: Наука, 2010.
11. Hall N. Emotional Intelligence Inventory Manual. – New York, 1999.
12. Leontyev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva: Politizdat, 1975.

HARBIY XIZMATCHILAR PSIXOLOGIK BARQARORLIGINI TA’MINLASHNING TARIXIY ASOSLARI

Ashurmatov Muzaffar Komilovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti oliy ta’lim muassasidan keyingi ta’lim bo‘limi boshlig‘i,

Annotatsiya. Mazkur maqolada harbiy xizmatchilar psixologik barqarorligini ta’minlashda tarixiy ajdodlarimiz jasoratining o‘rni va ahamiyati tahlil etilib qaxramonlik va jasorat ko‘rsatgan vatandoshlarimiz haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, axloqiy-ruhiy holat psixologik asoslarining nazariy jihatlariga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Qurolli Kuchlar, axloqiy-ruhiy holat, jangovar ruh, harbiy strategiya, qaxramonlik, ahloqiy-ruhiy ustunlik, sarkarda, jasorat.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение мужества наших исторических предков в обеспечении стабильного морального и духовного состояния военнослужащих и комментируются наши соотечественники, проявившие героизм и мужество. Затронуты также теоретические аспекты психологических основ нравственно-духовного состояния.

Ключевые слова: Вооруженные Силы, морально-психологическое состояние, боевой дух, военная стратегия, героизм, морально- психологическое превосходство, полководец, мужество.

Abstract. This article analyzes the role and significance of the courage of our historical ancestors in ensuring a stable moral and spiritual state of military personnel and

comments on our compatriots who showed heroism and courage. Theoretical aspects of the psychological foundations of the moral and spiritual state are also touched upon.

Key words: Armed Forces, moral and spiritual state, fighting spirit, military strategy, heroism, moral and spiritual superiority, commander, courage.

Ayni paytda jahondagi vaziyat shiddat bilan o‘zgarib, dunyoning ayrim mintaqalarida ahvol keskinlashib, xalqaro terrorizm va ekstremizm xavfi ortib borayotgani xalqaro va mintaqaviy vaziyatni har tomonlama tahlil va bashorat qilishni, mamlakatimiz xavfsizligi barqarorligini ta’minlash, Qurolli Kuchlarimizning jangovar tayyorgarligi va salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni ko‘rishni talab etmoqda [1].

Barcha zamonlarda qo‘shinlarni axloqiy-ruhiy holatini ko‘tarish, shu bilan bir vaqtda dushman shaxsiy tarkibining axloqiy-ruhiy holatini pasaytirish masalasi dolzarb hisoblangan. Bugungi kunga kelib, ushbu omil zarurati susaygani yo‘q, aksincha, zamonaviy jangovar harakatlar xarakterining o‘zgarishi hamda odam ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi turli xil qurollarning yaratilishi natijasida uning ahamiyati keskin oshdi [4].

Harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini ta’minlash va unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash bo‘yicha bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan S.Zavyalov, P.Shitov, S.Voronsov, V.Utkin, G.V.Lavrentev, V.F.Misyur va boshqalar tomonidan harbiy bo‘linmalarda psixologik ishlarni tashkil etish va harbiy kadrlarni tayyorlashning tashkiliy, huquqiy, g‘oyaviy, institutsional asoslari tadqiq etilgan. Xorij olimlaridan Clarke A.M., Frakes J.T., D.Duglas, M.I.Drepa va boshqalarning tadqiqotlarida harbiy kontingent psixologik holatini o‘rganish va baholash bilan birga jangovar harakatlarga psixologik tayyorlashning ayrim jihatlariga to‘xtalib o‘tilgan. O‘zbekistonlik olimlardan R.Samarov, A.Ergashev, S.S.Abdurayimov, L.U.Ravshanov, Z.SH.Alimardonov, F.T.Shermatov, A.A.Saidov va boshqalar harbiy xizmatchilarni tayyorlash bo‘yicha axborot-psixologik, axloqiy-ruhiy kabi omillarga e’tibor qaratib, ilmiy izlanishlarini amalga oshirishgan.

Ma’lumki, zamonaviy jangovar harakatlarning harbiy xizmatchilar ongiga ta’sir etuvchi turli omillarini hisobga olgan holda, harbiy xizmatchilarda mustahkam iroda,

jangovar ruh va barqaror axloqiy-ruhiy holatni ta’minlashda buyuk sarkarda va jasur jangchi bo‘lib o‘tgan tarixiy ajdodlarimizga murojaat etmaslikning iloji yo‘qdir.

Ushbu vaziyatda ajdodlarimizning tarixiy tajribasiga tayanish, ulardan ibrat-na’muna olish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixga nazar solsak O‘zbekiston – haqiqiy vatanparvarlar yurti ekaniga amin bo‘lamiz. Xalqimizning fidoyi farzandlari Vatanimiz sarhadlarini mardonavor himoya qilib, qahramonliklar ko‘rsatishgan. Darhaqiqat, Vatan va vatanparvarlik tushunchalari Turon zaminida yashagan ajdodlarimiz uchun aziz va muqaddas sanalgan. Uni himoya qilish esa, sharafli burch sifatida qaralgan. Shuning uchun ota-bobolarimiz tajovuzkor bosqinchilarga qarshi kurashda axloqiy, ruhiy jihatdan mukammal tayyorgarlikka ega bo‘lganligi sababli, hatto o‘z jonlarini ham ayamaganlar. Shu o‘rinda xalqimizning milliy qahramoni Shiroq va uning jasorati haqida bitilgan ko‘plab rivoyat va dostonlarni eslash maqsadga muvofiqdir. Yunon tarixchisi va notig‘i Polien o‘zining “Harbiy hiylalar” asarida shunday yozadi “sak qabila oqsoqollari eron qo‘shinini yengish uchun harbiy kengash o‘tkazayotgan vaqtda, ularning huzuriga oddiy otboqar Shiroq kelib, o‘z rejasini bayon qilgan. Natijada, harbiy hiyla ishlatgan holda Shiroq yolg‘iz o‘zi Doro II lashkariga qarshi turgan va ularni mag‘lub etgan” [2]. Shu o‘rinda savol tug‘iladi, bu qanday hiyla edi? Shiroq dushmanni o‘z so‘zlariga ishontirish maqsadida, qabiladoshlaridan qilich bilan o‘z tanasiga shikast yetkazishlarini so‘ragan. Ulardan hech kim bu ishga botina olmagan. Shunda Shiroq qo‘liga qilich olib, o‘z burun va quloqlarini kesib tashlagan hamda ayanchli ahvolda dushman tomon yo‘l olgan. Ba’zan, barmog‘imizga kichkina zirapcha kirsa, qanchalar aziyat chekamiz. Shiroq esa o‘z tana a’zolarini kesib tashlab, qanday azoblanganini tasavvur qilish juda qiyin. Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, agar inson axloqiyruhiy jihatdan tayyor bo‘lmasa, bunday jasoratga qo‘l ura olmagan bo‘lar edi. Bu haqida fikr yuritganda, bizning ulug‘ ajdodlarimiz o‘z davrida komil inson haqida butun bir axloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslash o‘rinli. Ota-bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharmu hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg‘u va tushunchalar bu kodeksning asosiy ma’no mazmunini tashkil etadi desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Shu nuqtai nazardan qaraganda “uyat - o‘limdan qattiq” degan gaplar

xalqimiz tilida o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan. Bunday iboralar el-yurtimizga mansub ezgu va go‘zal axloqiy qadriyatlarning asl mazmunini ifoda etadi [3]. Shonli tariximizda Jaloliddin Manguberdi va uning ustozi Najmiddin Kubro jasorati alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Urganchda Najmiddin Qubro tomonidan javonmard maktabiga asos solingan bo‘lib, unda Kubroviya tariqati asosida vatanparvarlik, dushmanga nisbatan ayovsiz qasoskorlik, o‘limdan qo‘rqmaslik va ozodlik g‘oyalari jangchilar (talabalar) ongiga singdirilgan. Javonmardlik – bu insondagi eng murakkab jarayon bo‘lib, u mukammal holatga yetganda jangovar san’at darajasiga ko‘tarilgan. Javonmardchilar tomonidan olib borilgan targ‘ibotlarda vatanparvarlik g‘oyasi o‘limdan ustun ekanligi lashkar va xalq ongiga singdirilib, o‘lim – bu tananing jismiy ko‘rinishdan ma’naviy-ruhiy ko‘rinishga o‘tish jarayoni deya uqtirilganligi dushmanga nisbatan ahloqiy-ruhiy ustunlikka erishishini ta’minlagan [5].

Jaloliddin Manguberdining zafarli hujumlariga nisbatan mo‘g‘ul qo‘shinining atoqli lashkarboshilari ham qarshilik ko‘rsata olmagani sababli, Chingizxonning shaxsan o‘zi jangga kirishgan. Mo‘g‘ul bosqinchilari bilan bo‘lgan o‘n ikkita jangda g‘alaba qozongan Jaloliddin Manguberdi 1221 yilning noyabr oyida hind daryosi bo‘yida sodir bo‘lgan o‘n uchinchi jangda mag‘lubiyatga uchragan. Mag‘lubiyat sababi – sarkardaning lashkarboshilari o‘rtasida yuzaga kelgan o‘zaro kelishmovchilik va nizolar edi. Chingizxon Jaloliddin Manguberdining jasoratidan hayratlanib, o‘z o‘g‘illariga “ota o‘g‘il mana shunday bo‘lishi lozim” - degani tarixdan ma’lum [6]. O‘z davrida sarkarda “Sherlar ichra eng zo‘r sher” degan nomga ham sazovor bo‘lgan Jaloliddin Manguberdi o‘z yurtining ozodligi va mustaqilligini saqlab qolish yo‘lida 11 yil mo‘g‘ul bosqinchilari bilan to‘xtovsiz jang qilib, misli ko‘rilmagan matonatni namoyon etgan. Jaloliddin Manguberdi Vatanini dushmanlardan himoya qilish uchun o‘zini ham, jangchilarini ham ahloqiy-ruhiy jihatdan har tomonlama tayyorlagan edi. U axloqiy jihatdan mardlik, botirlik, insoniylik, insonparvarlik, o‘z yurtiga va xalqiga cheksiz muhabbat, sadoqat hamda mas’uliyat hissini yuksaltirgan. Harbiy strategiya sohasida Amir Temur axloqiy-ruhiy omillardan mohirlik bilan foydalangan holda “Tajribamda ko‘rilgankim, azmi kat’iy, tadbirkor, hushyor, jang ko‘rgan, mard, shijoatli bir kishi, mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir” deb ta’kidlab o‘tgan. Chunki tajribali bir kishi minglab kishiga ish

buyuradi. “Men yana tajribamda ko‘rdimki, g‘anim lashkarini yengish qo‘shinning ko‘pligi bilan emas, mag‘lub bo‘lish esa, sipohning kamligidan bo‘lmaydi. Balki g‘olib bo‘lmoqlik (Tangrining) madadi va bandasining tadbiri bilandir” [7]. Amir Temur o‘z armiyasida qat’iy intizomni ushlab turishi natijasida yuksak g‘alabalarga erishgan. U jangchilarining jangovar ruhiga katta e’tibor bergan, qo‘shinlari tayyorgarligi tizimida turli xil jismoniy va ruhiy usullarni qo‘llagan. Qo‘shinining ahloqiy-ruhiy tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida kurash tushish, ov qilish, ot choptirish, kamondan otish kabi yo‘nalishlarda musobaqalar va bayram tadbirlarini o‘tkazgan. Harbiy-musiqiy dastalarning surnay, karnay, nog‘ora kabi musiqiy asboblaridan jangga chorlash va jangchilarni ruhlantirish uchun foydalangan [8]. Tarixchi olim J.Rahimovning qayd etishicha, podshohlar, sarkardalar va harbiy xizmatchilarning tinch davrdagi asosiy mashg‘uloti – ov bo‘lib, u jangovar shaylikni saqlab turish uchun zamin yaratgan. Ularning ov mashg‘uloti oddiy ovchilikdan tubdan farq qilib, mardlik va tezkorlikni ta’minlashga yo‘naltirilgan. Chopib borayotgan ohu yoki bo‘ri, sirtlon yoki boshqa yirtqich hayvonlar misolida g‘animning chekinayotgan, qochayotgan yoxud hujum qilayotgan lashkariy guruhi sifatida qaralib, tezlik bilan chopayotgan ot ustida yoydan nishonni aniq olib unga o‘q uzishi, yaqinlashib borib nayza bilan urib yarador qilishi, o‘ldirishi va hatto tiriklayin holatda bo‘yniga 30-40 metr masofadan arqon tashlab, yirtqichni o‘lja olishi harbiylardan talab qilingan [9]. Ruhiy jihatdan esa, onglilik, e’tiqod, faollik, ziyraklik, qo‘rqmaslik, tadbirkorlik, tashabbuskorlik va porloq kelajakka ishonchning qat’iyligi Jaloliddin Manguberdi shaxsida to‘liq shakllangan. U o‘zidagi mazkur fazilat va xususiyatlarni qo‘l ostidagi insonlar ongiga mohirlik bilan yetkaza olgan. Aynan shu qobiliyatlari bilan u katta zafar va yutuqlarga erishgan. Jaloliddin Manguberdi qalbida Vatan tuyg‘usi va vatanparvarlik tamoyili jo‘sh urganligi sababli, vatanga muhabbat va sadoqat hissi oliy qadriyat sifatida uning hayoti mazmuniga aylangan. Xuddi shu kabi dunyoqarash va mafkura hozirgi kunda yoshlar tarbiyasi uchun juda ham zarur hisoblanadi.

Harbiy xizmatchilarni axloqiy-ruhiy sifatini takomillashtirishda tarixiy tajriba yutuqlaridan foydalanish uchun quyidagilarga e’tibor qaratilsa, maqsadga muvofiq:

harbiy sohani tanlagan yoshlarga “Tarixiy xotirasiz – kelajak yo‘q” tamoyilining mazmun-mohiyatini tushuntirish;

o‘zbek xalqining tarixiy ildizi Odam Atoga borib taqalishi va bu katta sharaf hamda iftixor ekanini harbiy xizmatchilarga ilmiy asoslab berish;

Shiroq, Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi bobokalonlarimiz singari yurtga cheksiz muhabbat va sadoqat fazilatlarini ibrat-na’muna usuli yordamida harbiy xizmatchilarda qaror toptirish;

vatanning muqaddasligini e’tirof etgan holda, uning tinchligi hamda ravnaqini ta’minlash uchun bor kuch-imkoniyatlarni ishga solish sharafli burch ekanini harbiy xizmatchilar ongi va qalbiga singdirish.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, harbiy xizmatchilarda zarur ahloqiy-ruhiy sifatlarni shakllantirish va salbiy psixologik holatlarning oldini olishda tarixiy tajribaning o‘rni va ahamiyati juda katta. Buyuk ajdodlarimizning vatanparvarligi, ular ko‘rsatgan jasorat va matonat doimo harbiy xizmatchilar uchun ibrat na’muna timsoli bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2021. – 324 b.

2. Saloxiddinov Z. Tarixiy jasorat yoxud javonmardlik saboqlari/ Z.Saloxiddinov - Guliston, 1996. №4, -13b.

3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch / I.A.Karimov – T: “Ma’naviyat”, 2008. -55b.

4. Н.Поросков “В поисках «гуманного» оружия” Армейский сборник 2019 январь с. 74-81.

5. Ergashev A.A. Harbiy san’atda axborot-psixologik qarshi kurashning rivojlanishida Markaziy Osiyo xalqlarining qo‘shgan hissasi: Harbiy-tarixiy ilmiy anjuman materiallari to‘plami. / A.Ergashev– T: “O‘R Qurolli Kuchlari Akademiyasi nashriyoti”, 2019. - 68b.

6. Ян В.Г. Великий Чингисхан. / В.Г.Ян - Москва: «Художественная литература», 1979. -783с.

7. Karomatov H. Temur tuzuklari / H.Karomatov - T: “Shodlik”, 2019. -13b.

8. Воробьев, Великолепный А.Тимур / А.Воробьев – М.: “Вокруг света”, 2005. -45с.

9. Rahimov J. Amir Temur. Adolat va qudrat timsoli / J.Rahimov – T: “Ma’naviyat”, 2017. - 98b.

OLIY HARBIY TA’LIM MUASSASALARI KURSANTLARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARTIYALASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

Xaydarov Islomjon Maxmutali o‘g’li

Psixologia fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kapitan

Annotatsiya: Mazkur maqolada kursantlarda taktik tafakkurni shakllantirish jarayonida psixologik omillarning ahamiyati ilmiy asosda tahlil etilgan. Taktik tafakkur tushunchasi, uning tarkibiy qismlari hamda uni rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi kognitiv, emotsional va ijtimoiy-psixologik omillar o‘rganiladi. Shuningdek, kursantlarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda taktik tafakkurni rivojlantirishning samarali metodlari tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: taktik tafakkur, psixologik omillar, kursant, stressga chidamlilik, qaror qabul qilish, harbiy psixologiya.

Аннотатsiя: В данной статье научно обоснованно проанализировано значение психологических факторов в процессе формирования тактического мышления у курсантов. Изучаются понятие тактического мышления, его составные части, а также когнитивные, эмоциональные и социально-психологические факторы, влияющие на его развитие. Кроме того, предлагаются эффективные методы развития тактического мышления с учетом психологических особенностей курсантов.

Ключевые слова: тактическое мышление, психологические факторы, курсант, устойчивость к стрессу, принятие решений, военная психология.

Annotation: This article presents a scientifically grounded analysis of the significance of psychological factors in the development of tactical thinking among cadets. It explores the concept of tactical thinking, its components, and the cognitive, emotional, and socio-psychological factors that influence its development. Additionally, effective methods for enhancing tactical thinking are proposed, taking into account the psychological characteristics of cadets.

Keywords: tactical thinking, psychological factors, cadet, stress resilience, decision-making, military psychology.

Bugungi globallashuv davrida harbiy sohaga qo‘yilayotgan talablar ortib bormoqda. Kursantlarning professional tayyorgarligi samaradorligi ularning nafaqat nazariy bilimlari, balki amaliy ko‘nikmalari va psixologik barqarorligiga ham bog‘liqdir. Ayniqsa, taktik tafakkur ko‘nikmalari — qaror qabul qilish tezligi, vaziyat tahlil qilish qobiliyati va noaniq sharoitda moslashuvchan fikrlash — kursantlarning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Shu nuqtai nazardan, kursantlarda taktik tafakkurni shakllantirish jarayonida psixologik omillarning o‘rni va ahamiyatini chuqur tadqiq etish dolzarb ilmiy-ijtimoiiy masalalardan sanaladi.

Sharq mutafakkirlari o‘z asarlarida harbiy shaxs tafakkuri, uning tarbiyasi va shakllanishi masalalariga alohida e’tibor berishgan. Xususan, harbiy shaxsning tafakkuri, aqliy salohiyati, irodaviy sifatlari va axloqiy-ruhiy jihatdan yetuk bo‘lishi haqida ko‘plab fikr-mulohazalar bildirganlar. Ularning qarashlari zamonaviy psixologiyada taktik tafakkur, stressga bardoshlik va liderlik qobiliyatlarini shakllantirish jarayonlariga yaqinlashadi. Jumladan, Abu Nasr Forobiy inson tafakkurini rivojlantirishni jamiyatning mustahkamligi va boshqaruv tizimining samaradorligi bilan bog‘lagan. U o‘zining «Fozil odamlar shahri» asarida harbiy shaxsida tez fikrlash va vaziyatni anglash qobiliyati, bilim va tajribaga asoslangan qaror qabul qilish, iroda kuchi, sabr-toqat, adolat hamda axloqiy poklik sifatlarni tahlil qilishgan. Bu jihatlar harbiy shaxs yoki kursantning taktikasida muhim ahamiyat kasb etadi. Forobiy fikricha, inson tafakkuri uzluksiz mashq va axloqiy tarbiya orqali takomillashadi, bu esa zamonaviy psixologiyada kognitiv va irodaviy jarayonlarni shakllantirish tamoyillariga mos keladi.

Kognitiv jarayonlar — e’tibor, xotira, fikrlash va qabul qilish — taktik tafakkur shakllanishining asosiy negizidir. Kursantlarning vaziyat tahlil qilish, zaruriy axborotni tezda qayta ishlash hamda mantiqiy tahlil ko‘nikmalari ularning taktik qaror qabul qilish samaradorligini belgilaydi. Bunda, analitik tafakkur, sabab-oqibat aloqalarini anglash, e’tiborning barqarorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Butun dunyoga o‘zining tibbiyot sohasidagi asarlari bilan tanilgan Ibn Sino «Kitob ash-shifo» hamda «Tib qonunlari» asarlarida inson ruhiyati va tafakkurini chuqur tahlil etadi. U inson salomatligini uch qismga: jismoniy, ruhiy (psixik) va ijtimoiy qismlardan iborat ekanligini takidlaydi. Ibn Sino fikricha:

- Inson tafakkuri tiniq bo‘lishi uchun ruhiy muvozanat muhim;
- Qo‘rquv, g‘azab, hayajon kabi hissiyotlar tafakkurni to‘sadi, ularni nazorat qilish — barkamol inson belgisidir;
- Har qanday sharoitda hushyorlik, sabr, to‘g‘ri qaror qabul qilish inson salomatligi va jamiyat osoyishtaligiga xizmat qiladi.

Ushbu fikrlar harbiy shaxsning stressga chidamliligi, emotsional barqarorligi va tezkor fikr yurita olishi psixologik omillar sifatida aynan hozirgi zamonaviy psixologik yondashuvlarga mos tushadi.

Taktik vaziyatlar odatda yuqori stress va xavf sharoitida yuzaga keladi. Kursantlarning emotsional barqarorligi, stressga chidamlilik, o‘ziga bo‘lgan ishonch darajasi, shuningdek, motivatsion omillar ham taktik tafakkurning shakllanishida hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bu jarayonda psixoregulyatsiya ko‘nikmalarini rivojlantirish ham muhimdir.

So‘z mulkining sultoni, bobokolonimiz, Alisher Navoiy o‘z davrida do‘sti Xusayn Boyqaroning harbiy yurishlarida ham maslahatchi, ham siyosiy arbob sifatida qimmatli fikrlarni bildirib o‘tdi. Shu bilan birgalikda Alisher Navoiy o‘z asarlarida, xususan, «Mahbub ul-qulub», «Hayrat ul-abror» kabi asarlarda harbiy shaxsiga xos bo’lgan jihatlarni madh etdi. U jangchida:

- Halollik, iroda, qat’iyat;
- Jasorat va sabr;

• Adolatli va oqilona fikr yuritish sifatlari bo‘lishi kerak deb hisoblaydi. Shu bilan birgalikda Navoiy asarlarida harbiy shaxsni tarbiyalashda ruhiy poklik, ijtimoiy mas’uliyat va aqliy yetuklik bir-birini to‘ldiruvchi omillar sifatida ko‘rsatilgan.

Kursantlarning jamoada o‘zaro hamkorlik qila bilishi, ijtimoiy rollarni samarali bajarishi va liderlik fazilatlariga egaligi ularning taktik qarorlarni to‘g‘ri qabul qilishida bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayniqsa, guruhda o‘zaro ishonch va muloqot madaniyatining shakllanganligi kursantlarning taktik samaradorligini oshiradi.

Yassaviya tariqatining asoschisi Ahmad Yassaviy tasavvufiy qarashlari orqali inson ruhiyatini poklash, iroda va sabr-toqatni mustahkamlash zarurligini uqtiradi. Burhoniddin Marg‘inoniy «Hidoya» asarida inson axloqi, irodasi va adolatli qaror qabul qilishi haqida fikr bildiradi. Harbiy shaxsning huquqiy va axloqiy tarbiyasi orqali tafakkur tarbiyasini rivojlantirish mumkin.

Al-Xorazmiy va Beruniy ilm-fanga, tafakkur tarbiyasiga oid asarlarida aqliy mantiq, kuzatuvchanlik va ilmiy fikrlashni rivojlantirishga katta e’tibor qaratganlar. Jumladan, harbiy shaxs tafakkurida bu sifatlar strategik fikrlash va analitik qaror qabul qilish muhim o‘rin tutishini o‘z asarlarida ta’kidlab o‘tishgan.

Har bir kursantning temperament tipi, xarakter xususiyatlari, irodaviy sifatlari va psixologik barqarorlik darajasi taktik tafakkur shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, individual psixodiagnostika asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish — samaradorlikni oshirishning muhim vositasidir.

Shu bilan birgalikda, taktik tafakkur tushunchasi ko‘plab harbiy psixolog olimlar tomonidan quyidagi mazmunda talqin etiladi: u muayyan vaziyatda mavjud resurs va sharoitlarni optimal tahlil qilib, samarali qaror qabul qilish hamda uni tezkorlik bilan amalga oshirish qobiliyatidir (R.M. Granovskiy, V.D. Nebylitsin, O.B. Lobanov va boshqalar).

Taktik tafakkurning asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi:

- Muammoli vaziyatni tezkor tahlil qilish va baholash;
- Oldindan rejalashtirish va prognozlash;
- Moslashuvchan fikrlash;
- Qaror qabul qilish tezligi va aniqligi;

- Stressli sharoitlarda psixologik barqarorlik.

Insoniyat mavjudki, inson tafakkuri va ruhiy barqarorlikning shakllanishini, ayniqsa, harbiy shaxs tarbiyasida aql, iroda, jasorat, sabr va axloqiy poklikni asosiy tamoyillar sifatida belgilab berganlar. Xususan, taktik tafakkur, stressga chidamlilik, liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonlari bilan bevosita uyg‘unlashadi.

Taktik tafakkurni rivojlantirish jarayonida quyidagi metod va usullar qo‘llanilishi samarali natija beradi:

- **Simulyatsion mashg‘ulotlar** — realga yaqin taktik vaziyatlarni yaratish orqali kursantlarning qaror qabul qilish va muammoli vaziyatda harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
- **Stressga chidamlilikni oshirish mashqlari** — ekstremal sharoitlarni modellashtirish va psixologik barqarorlikni mustahkamlash.
- **Psixologik treninglar va psixoregulyatsiya texnikalari** — emotsional boshqaruv, o‘zini tutish nazorati, diqqat va motivatsiyani kuchaytirish.
- **Kognitiv rivojlantirish mashqlari** — fikrlash tezligi, xotira va e’tiborni rivojlantirish.
- **Psixodiagnostika usullari** — kursantlarning psixologik holati va individual xususiyatlarini aniqlash, ularga mos individual yondashuv ishlab chiqish.

Xulosa qilib aytganda, kursantlarda taktik tafakkurni shakllantirish jarayonida psixologik omillarning o‘rni muhimdir. Diqqat, fikrlash, stressga chidamlilik, jamoada ishlash, shaxsiy sifatlar kabi psixologik jihatlar taktik vaziyatda samarali harakat qilish uchun zaruriy ko‘nikmalardir. Ularni rivojlantirishda psixologik treninglar, simulyatsion mashg‘ulotlar, individual diagnostika va motivatsion ishlar katta ahamiyatga ega. Kelgusida mazkur yo‘nalishda amaliy tadqiqotlar olib borish, yangi metodikalarni ishlab chiqish va joriy qilish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Forobiy A.N. «Fozil odamlar shahri». Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1993.
2. Ibn Sino. «Tib qonunlari». Toshkent: Fan, 1980.

3. Navoiy A. «Mahbub ul-qulub». Toshkent: Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti, 1985

4. Грановский Р.М. Военная психология. — М.: Воениздат, 2005.

5. Небылицын В.Д. Индивидуальные различия и типы темперамента. — М.: Наука, 2003.

6. Лобанов О.Б. Психология тактического мышления военнослужащих. — СПб.: Питер, 2010.

7. Карпов А.В. Психология мышления и принятия решений. — М.: Академический проект, 2011.

8. Абдукаримов А.М. Harbiy xizmatchilarda stressga chidamlilikni shakllantirish yo‘llari. // «Psixologiya va Hayot» jurnali. — Toshkent, 2022.

9. Salomov R.S. Harbiy psixologiya. — Toshkent: Fan, 2020.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ СЛУЖЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОВД КАК БАЗОВЫЙ ЭЛЕМЕНТ СИСТЕМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ

Сирлиев Бахтиер Назарович

Начальник кафедры Служебной психологии и профессиональной культуры Академии МВД Республики Узбекистан, кандидат психологических наук, профессор

Аннотация. В системе подготовки кадров органов внутренних дел психологическое обеспечение деятельности целесообразно рассматривать как ключевой структурообразующий компонент, обеспечивающий согласованность, преемственность и результативность профессионального становления сотрудников. В условиях повышенной социальной ответственности, реализации властных полномочий и высокой стрессогенности служебной деятельности психологическое обеспечение выходит за рамки вспомогательной либо компенсаторной функции и приобретает статус интегративного механизма

кадрового воспроизводства. Его стратегическая задача заключается в формировании профессиональной надёжности, правомерности поведения и устойчивости личности к экстремальным и конфликтным воздействиям.

Ключевые слова: психологическое обеспечение; органы внутренних дел; подготовка кадров; профессиональная надёжность; психологическая устойчивость; кадровый отбор; адаптация сотрудников; контрпродуктивное поведение; профессиональное выгорание.

Психологическое обеспечение деятельности органов внутренних дел в системе подготовки кадров целесообразно трактовать не как вспомогательную функцию, а как базовый системный механизм, направленный на формирование профессиональной надёжности, правомерности поведения и устойчивости сотрудников к стрессовым, конфликтным и экстремальным воздействиям. В условиях правоохранительной деятельности высокая ответственность и значимость принимаемых решений обусловливают повышенную «цену ошибки»: нарушения саморегуляции, дефициты коммуникативной компетентности либо сбои морально-нормативной регуляции могут повлечь снижение эффективности служебной деятельности, юридические последствия, репутационные издержки и ослабление общественного доверия к институтам правопорядка. В связи с этим подготовка кадров в системе ОВД должна выходить за рамки передачи профессиональных знаний и формирования операциональных навыков. Она предполагает целенаправленное развитие психологических ресурсов личности, обеспечивающих устойчивость поведения в условиях неопределённости, временного дефицита и эмоционального напряжения, а также способность к ответственному и законопослушному принятию решений.

В широком понимании психологическое обеспечение представляет собой комплекс взаимосвязанных мер, интегрированных в образовательный и служебный цикл: психодиагностику, психологическое сопровождение адаптации, тренинговое развитие ключевых компетенций, профилактику профессиональных деформаций и кризисное вмешательство при высоких нагрузках. Его роль заключается в том, чтобы «сшивать» между собой образовательные цели, реальные требования

службы и индивидуальные ресурсы сотрудника, обеспечивая соответствие личности профессии на каждом этапе профессионального пути - от поступления и первичной социализации до практики, аттестации и продвижения.

Во-первых, психологическое обеспечение усиливает качество кадрового отбора и профессионального распределения. На этапе поступления и начальной подготовки оно позволяет оценивать не только формальный уровень пригодности, но и психологическую готовность к службе: уровень самоконтроля и импульсивности, устойчивость к стрессу, способность к обучению в условиях высокой регламентированности, коммуникативный потенциал, склонность к конфликтному поведению, особенности моральной регуляции и ответственности. Диагностический блок в кадровом отборе выполняет функцию профилактики: он позволяет заранее выявить зоны риска, которые в дальнейшем могут проявиться в виде дисциплинарных нарушений, срывов в стрессовых ситуациях, эмоциональной неустойчивости или дезадаптации. Важно, что современный подход предполагает не «жёсткое отсечение» кандидатов по одному признаку, а комплексную оценку с формированием рекомендаций: кому показано усиленное сопровождение, кому - развивающий модуль по саморегуляции, кому - особое наставничество в период практики. Таким образом повышается прогностическая точность кадровых решений, усиливается адресность подготовки и снижается вероятность профессиональных срывов в дальнейшем.

Во-вторых, психологическое обеспечение выполняет функцию сопровождения адаптации и профессиональной социализации. Переход от учебной среды к практической деятельности, освоение дисциплинарных и правовых требований, включение в иерархически организованный коллектив нередко сопровождаются эмоциональным напряжением, ростом тревожности, неуверенностью и когнитивной перегрузкой. На практике именно период адаптации является «уязвимым окном»: здесь чаще возникают ошибки в регламентах, трудности коммуникации, риск формирования неадаптивных установок («цинизм как защита», избегание ответственности, формальный подход). Системная психологическая поддержка - консультирование, профилактические

занятия, обучение навыкам совладания, сопровождение в период практики и первые месяцы службы - снижает риск дезадаптации, укрепляет учебную мотивацию и дисциплину, поддерживает формирование профессиональной идентичности. Особенно значимо создание понятной «траектории вхождения в профессию»: ясные ожидания, регулярная обратная связь, поддержка наставника и психолога, а также возможность безопасно обсуждать трудности без стигмы и страха санкций.

В-третьих, психологическое обеспечение напрямую влияет на качество формирования ключевых компетенций и их перенос в реальную службу. Для ОВД критичны не только знания норм, но и способность действовать в рамках закона под воздействием сильных эмоций и внешнего давления. Именно поэтому психологические модули повышают эффективность обучения за счёт развития механизмов поведенческой устойчивости. В структуру подготовки должны быть встроены программы по саморегуляции (управление вниманием, «пауза», контроль импульсивности, восстановление), стресс-менеджменту (когнитивные стратегии совладания, работа с тревожностью, профилактика истощения), эмоциональной грамотности (распознавание эмоций, управление раздражением, предотвращение аффективных реакций), а также коммуникативным навыкам (активное слушание, деэскалация, переговоры, конструктивная обратная связь). Ключевой критерий эффективности этих модулей - «перенос» в практику: обучающийся не только воспроизводит алгоритм на занятии, но способен применять его в динамичной ситуации, где присутствуют провокации, неопределённость, давление времени и риск конфликтной эскалации. Поэтому особую ценность имеют практико-ориентированные форматы: ситуационное моделирование, сценарные тренажёры, разбор кейсов, ролевые взаимодействия, отработка «сложного диалога», а также обучение принятию решений в условиях ограниченной информации.

В-четвёртых, психологическое обеспечение выступает важнейшим инструментом профилактики контрпродуктивного поведения и профессионального выгорания. При отсутствии системной работы возрастает риск формализма, эмоционального отчуждения, циничных установок и снижения нравственной

чувствительности. Эти явления особенно опасны в правоохранительной сфере, поскольку они подрывают качество правоприменения и осложняют профилактическую деятельность. Психологическое сопровождение в данном случае должно быть направлено на раннее выявление признаков истощения и профессиональных деформаций, формирование навыков восстановления, поддержание смысла профессии и укрепление морально-нормативной устойчивости. Важно учитывать, что выгорание и контрпродуктивные тенденции часто развиваются постепенно - через накопление напряжения, снижение ресурса, ухудшение коммуникации и рост конфликтности. Поэтому профилактика должна строиться как непрерывный процесс, включающий мониторинг состояния, психообразование, тренинговые программы и организационные меры по управлению нагрузкой.

Особое значение имеет организационный уровень психологического обеспечения, поскольку индивидуальные навыки саморегуляции и коммуникации не дают устойчивого эффекта без поддерживающей среды. Формирование психологически безопасной образовательной и служебной среды предполагает: понятные и справедливые процедуры оценивания, уважительный стиль взаимодействия, развитие культуры обратной связи, снижение токсичности коммуникации и укрепление процедурной справедливости внутри подразделений. В такой среде уменьшается стигматизация обращения за психологической помощью, повышается доверие к институтам сопровождения, а профилактика становится более ранней и адресной. Существенную роль играет и подготовка наставников: именно они транслируют «скрытую учебную программу», формируют нормы профессионального поведения и задают реальные стандарты общения, дисциплины и правомерности.

Практически эффективной представляется комплексная модель психологического обеспечения подготовки кадров, включающая взаимосвязанные блоки:

1. диагностику и мониторинг психологической готовности и динамики состояния на ключевых этапах (поступление, адаптация, практика, предаттестационный период);
2. индивидуальные планы развития, ориентированные на усиление ресурсов и коррекцию зон риска;
3. тренинговые программы, направленные на коммуникацию, саморегуляцию, стрессоустойчивость, профилактику агрессии и деформаций;
4. кризисное сопровождение после тяжёлых эпизодов практики и стрессовых событий;
5. оценку эффективности (изменение поведенческих индикаторов, дисциплины, качества коммуникации, устойчивости к нагрузке, результатов практики и аттестации).

С управленческой точки зрения психологическое обеспечение выступает инструментом повышения качества кадровых решений и устойчивости организационной системы. Использование психологических данных в сочетании с педагогическим и служебным анализом позволяет повышать валидность аттестации, рациональнее распределять кадровый ресурс, снижать риски ошибок и поддерживать стабильность служебных подразделений. В долгосрочной перспективе это способствует укреплению институциональной надёжности органов внутренних дел и снижению репутационных рисков. Таким образом, психологическое обеспечение деятельности органов внутренних дел представляет собой не набор разрозненных мероприятий, а целостную систему, пронизывающую все этапы подготовки и профессионального становления сотрудников. Его институциональное внедрение и развитие в системе подготовки кадров ОВД является необходимым условием повышения эффективности служебной деятельности, формирования профессионально устойчивых и правомерно действующих сотрудников, а также укрепления общественного доверия к правоохранительным органам как к социально ответственному и легитимному институту государства.

Список литературы:

1. Маклаков А. Г. Психологическое обеспечение профессиональной деятельности: теория и практика. - СПб. : Питер, 2011. - 384 с.

2. Зазыкин В. Г., Сыромятников И. В. Психология профессиональной надёжности сотрудников силовых структур. - М. : Академия управления МВД России, 2010. - 256 с.

3. Леонова А. Б., Кузнецова А. С. Психологическое обеспечение профессиональной деятельности в экстремальных условиях. - М. : Изд-во МГУ, 2019. - 304 с.

4. Bakker A. B., Demerouti E. The Job Demands–Resources model: State of the art // Journal of Managerial Psychology. - 2007. - Vol. 22, No. 3. - P. 309–328.

5. Tyler T. R., Blader S. L. Cooperation in groups: Procedural justice, social identity, and behavioral engagement. - New York : Psychology Press, 2000. - 352 p.

ZAMONAVIY URUSHLAR SHAROITIDA HARBIY XIZMATCHILARNING PSIXOLOGIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГОТОВНОСТИ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННЫХ ВОЙНЫ

MECHANISMS FOR DEVELOPING PSYCHOLOGICAL RESILIENCE AND READINESS OF MILITARY PERSONNEL IN THE CONDITIONS OF MODERN WARFARE

Ravshanov Azizjon Raxmatovich
Mudofaa vazirligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bosh boshqarmasi,
bo‘lim boshlig‘i o‘rinbosari, podpolkovnik, mustaqil izlanuvchi,
tel: (99) 852-8575

O‘R HX va MU AKT va HAI boshlig‘ining
o‘rinbosari, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Shermatov Fayzullo Toshtillayevich

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy урушларда sharoitida harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligining kompetentligini rivojlantirish masalalari*

tahlil qilingan. Hozirgi global mojarolar misolida axborot-psixologik bosim, asimmetrik tahdidlar va uzluksiz stress muhitida harbiy xizmatchilar psixikasiga ta’sir etuvchi omillar yoritilgan.

Kalit so‘zlari: *urush, psixologik kompetentlik, stress-rezistentlik, axborot-psixologik ta’sir, kognitiv barqarorlik, harbiy psixologiya.*

Аннотатция: *В данной статье проанализированы вопросы развития компетентности психологической подготовки военнослужащих в условиях современных войн. На примере современных глобальных конфликтов раскрыты факторы, влияющие на психику военнослужащих в условиях информационно-психологического давления, асимметричных угроз и непрерывного стрессового воздействия.*

Ключевые слова: *война, стрессоустойчивость, психологическая компетентность, информационно-психологическое воздействие, когнитивная устойчивость, военная психология.*

Annotation: *This article analyzes the issues related to the development of competence in the psychological training of military personnel under the conditions of modern warfare. Using the example of contemporary global conflicts, the study examines the factors influencing the psyche of military personnel in the context of information-psychological pressure, asymmetric threats, and continuous stress exposure.*

Key words: *War, psychological competence, stress resilience, information-psychological influence, cognitive stability, military psychology.*

XXI asrda global xavfsizlik muhiti tubdan o‘zgardi. An’anaviy urushlarda asosiy e’tibor front chizig‘i, qurol-yarog‘ salohiyati va jismoniy ustunlikka qaratilgan bo‘lsa, zamonaviy urushlarda ta’sir ko‘lami ancha kengaydi. Endi kurash maydoni faqat geografik hudud bilan cheklanmay, axborot makoni, kiber muhit, iqtisodiy tizim, ijtimoiy ong va madaniy qadriyatlarni ham qamrab olmoqda.

Zamonaviy qurolli to‘qnashuvlarda axborot operatsiyalari, kiber hujumlar, iqtisodiy bosim, psixologik ta’sir, dezinformatsiya kampaniyalari va masofaviy yuqori aniqlikdagi

qurollar bir vaqtning o‘zida qo‘llanilmoqda. Bu esa harbiy xizmatchining faoliyatini mutlaqo yangi psixologik sharoitga olib kirdi.

Bugungi kunda harbiy xizmatchi faqat jismoniy tayyorgarlikka ega bo‘lishi yetarli emas. U yuqori darajadagi kognitiv barqarorlik, stressga chidamlilik, axborot tahdidlariga nisbatan immunitet, emotsional nazorat, tanqidiy fikrlash va tezkor, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi shart. Chunki ta’sir obekti sifatida endi shaxsning ongi, qadriyatlari, ruhiy holati va qaror qabul qilish mexanizmlari maydonga chiqmoqda [1].

Zamonaviy urushlar quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

axborot-psixologik ta’sir operatsiyalari;

dezinformatsiya va targ‘ibot;

kiber tahdidlar;

dron va masofaviy boshqariladigan qurollardan foydalanish;

noaniq front chizig‘i;

uzoq muddatli psixoemotsional bosim.

Dronlardan ommaviy foydalanish, masofaviy hujumlar va yuqori aniqlikdagi qurollar harbiy xizmatchilarda doimiy kuzatuv ostida ekanlik hissini shakllantiradi. Bu holat inson psixikasida uzluksiz “xavf foni”ni hosil qiladi. Natijada asab tizimi doimiy yuqori faollik holatida ishlaydi, bu esa uzoq muddatda kognitiv charchoq, diqqat tarqoqligi va emotsional holatning beqarorlashuviga olib kelishi mumkin.



Axborot-psixologik ta’sir operatsiyalari esa jamoaviy ruhiyatga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Dezinformatsiya, yolg‘on xabarlar va targ‘ibot orqali harbiy xizmatchilarning ishonchi, motivatsiyasi va jamoaviy birligiga putur yetkazish maqsad qilinadi.

Natijada harbiy xizmatchilarda zamonaviy urushlarda quyidagi muammolar kuzatilmoqda:

jangovar stress va posttravmatik buzilishlar xavfining ortishi;

axborot-psixologik bosim sharoitida qaror qabul qilish samaradorligining pasayishi;

kognitiv yuklama ortishi;

dronlashgan va masofaviy jangovar muhitda emotsional va motivatsiya pasayishi;

kiber tahdidlar sharoitida kognitiv charchoq va diqqat parokandaligi.

Bunday salbiy holatlar esa shaxsiy tarkibning psixologik tayyorgarligini kompetentlikka asoslangan, tizimli va integrativ model asosida qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Hozirgi kunda rivojlangan davlatlar harbiy doktrinalarida “inson omili” strategik resurs sifatida baholanmoqda. Texnologik ustunlik muhim omil bo‘lib qolsa-da, uni samarali boshqara oladigan, ruhiy barqaror va yuqori kognitiv salohiyatga ega inson hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xususan, **NATO mamlakatlari** armiyalarida psixologik tayyorgarlik modellari real jang sharoitini modellashtirish, psixologik monitoring va baholash, stress-induksiya treninglari, liderlik va jamoaviy ishonchni rivojlantirish hamda poststress reabilitatsiya mexanizmlarini joriy etish tamoyillarga asoslanadi. Bu yondashuv insonni faqat stressga chidamli qilibgina qolmay, uni noaniq vaziyatda samarali fikrlay oladigan va axborotni tanqidiy tahlil qila oladigan mutaxassis sifatida shakllantirishga qaratilgan [2].

AQSH Qurolli Kuchlari so‘nggi yillarda ruhiy barqarorlikni oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan dasturlarni faol joriy etmoqda. AQShning maxsus operatsiya kuchlari bir vaqtning o‘zida terrorizmga qarshi kurash, barqarorlikni ta’minlash, aholi bilan ishlash, maxfiy va tezkor amaliyotlarni amalga oshirish kabi turli yo‘nalishlarda faoliyat yuritadi. Shu sababli AQSH armiyasida keyingi yillarda “psixologik tayyorgarlik” tushunchasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mutaxassislar ta’kidlashicha, ma’lum darajadagi stress insonni sergaklantiradi. Biroq ortiqcha stress diqatni pasaytiradi, xotirani susaytiradi va hissiy reksiyalarni nazorat qilishni qiyinlashtiradi. Natijada qarorlar shoshma-shosharlik bilan qabul qilinishi, hatto axloqiy meyorlar buzilishi mumkin [3].

Bularning oldini olish uchun **AQSH qurolli kuchlari ruhiy fitness** (MINDFULNESS-BASED MIND FITNESS TRAINING – “MMFT”) mashqlarini tayyorgarlik jarayonlariiga kiritib bormoqda. Bunday mashqlar tizimi insonni diqqat, hissiy barqarorlik, ongli qaror qabul qilish va vaziyatni to‘liq anglash qobiliyatlarini

rivojlantirishga qaratilgan. Ruhiy fitness mashg‘ulotlari insonning miya faoliyatini mustahkamlaydi. Olimlarning fikriga ko‘ra, inson miyasi o‘zgaruvchan bo‘lib, qaysi qobiliyatlar ko‘proq ishlatilsa, shu sohalarda miya faoliyati kuchayadi.

“MMFT” mashqlari quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

Diqqatni bir nuqtaga jamlash – harbiylar asosiy vazifaga to‘liq e’tibor qaratishni o‘rganadi va chalg‘ituvchi omillar ta’sirini kamaytiradi.

Ichki va tashqi hissiyotlarni kuzatish – o‘z hissiy reaksiyalarni anglab, ularni nazorat qilishga odatlantiriladi, bu esa noaniq vaziyatlarda shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘ymaydi.

Stress vaqtida nafas va fikrni nazorat qilish – har qanday qiyin vaziyatda tinchlikni saqlash, samarali fikrlash va tez qaror qabul qilish imkonini beradi.

Bunday mashqlar harbiy xizmatchilarga nafaqat harbiy amaliyotlarda, balki kundalik xizmatda ham ruhiy barqarorlikni saqlash, stressga chidamlikni oshirish va tezkor qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

“MMFT” mashg‘ulotlari 8 hafta davom etadi va jami 24 soatlik mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi. Mashg‘ulotlar **20-25 nafardan iborat guruhlarda** olib boriladi va har kuni taxminan **30 daqiqa amaliy mashqlar** bajariladi. Mashqlar harbiy xizmatchilarning kundalik faoliyatiga moslashtirilgan, jismoniy tayyorgarlik va boshqa mashg‘ulotlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda tashkil etiladi. Bu harbiy xizmatchilarga mashqlarni kundalik faoliyatga integratsiya qilish va ularni real vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradi.

AQSH maxsus operatsiya kuchlari tajribasi shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy harbiy muvaffaqiyat faqat qurol yoki jismoniy kuch bilan emas, balki ruhiy tayyorgarlik bilan ham bevosita bog‘liq. “Mindfulness-Based Mind Fitness Training” dasturi harbiy xizmatchilarni stressga qarshi tayyorlashda samarali vosita sifatida namoyon bo‘lib, u qaror qabul qilish sifatini oshiradi, ruhiy barqarorlikni ta’minlaydi va harbiylarning uzoq muddatli salomatligini muhofaza qiladi [4].

Turkiya armiyasi uchun xizmatchilarning psixologik farovonligini qo‘llab-quvvatlash nafaqat axloqiy majburiyat, balki operativlik nuqtai nazaridan ham zaruriyat hisoblanadi.

Turkiya davlatidaa guruhiy jipslikka erishish, ya’ni bo‘linma ichida ishonchni mustahkamlash va jangchilarning psixologik mosligini shakllantirish, ruhiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan majmuaviy mashqlardan faol foydalaniladi. Maxsus bo‘linmalarda tanlov jarayoni juda murakkab va ko‘p bosqichli sinovlar bilan o‘tkaziladi. Uzluksiz kontrterror muhitida shakllangan ruhiy barqarorlik. Uzoq yillar davomida ichki va chegaraviy xavfsizlik tahdidlari chidamlilik, tog‘li va qiyin geografik sharoitda ishlash, xavfni qabul qilish va nazorat qilishni psixologik tayyorgarlikning markaziy elementlariga aylantirgan.

Turkiya harbiy xizmatchilari jismoniy sog‘ligi va aqliy salohiyatni baholash hamda psixofizik qobiliyatlarni tekshirishni o‘z ichiga olgan harbiy psixologlar va shifokorlar nazorati ostida ko‘plab testlardan, psixologik suhbatlardan, stress-simulyatsiya (stressli sharoitda test), jamoaviy interaktiv sinovlardan o‘tadi.

Turkiya Özel Kuvvetler Komutanlığı (ÖKK) maxsus operatsiyalar kuchlarida harbiy xizmatchilar amaliy o‘q otish, erkin yugurish mashqlari bilan birgalikda psixologik mashg‘ulotlar majmuasidan majburiy tartibda o‘tkaziladi. Uzoq yillar davomida ichki va chegaraviy xavfsizlik tahdidlari chidamlilik, tog‘li va qiyin geografik sharoitda ishlash, xavfni qabul qilish va nazorat qilishni ruhiy tayyorgarlikning markaziy elementlariga aylantirgan [5].

Isroilning xavfsizlik muhiti doimiy tahdid, tezkor qaror va aniq razvedkaga tayanadigan modelni talab qilganligi sababli ularning psixologik tayyorgarlik tizimi stressga chidamlilikni shakllantirish *(uyqusizlik va charchoqqa qaramay qaror qabul qilish, qo‘rquvni nazorat qilish)*, tezkor va mustaqil qaror qabul qilishga o‘rgatish *(noma’lum vaziyatda harakat rejasini tuzish, yuqoridan buyruq kutmasdan tashabbus ko‘rsatish, xavf va natijani tez baholash)*, jamoaviy ishonch va guruh psixologiyasiga *(o‘zaro to‘liq ishonch, bir-birini psixologik qo‘llab-quvvatlash va liderlikni vaziyatga qarab almashtirish)* suyanadi. Har bir xizmatchiga birlamchi psixologik yordam ko‘rsatish ko‘nikmalari o‘rgatiladi. Bu esa jamoada ruhiy barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

Ukraina davlatidagi maxsus operatsiya kuchlari NATO davlatlari instruktorlari hamda taktik va psixologik tayyorgarlikning g‘arb standartlaridan faol foydalanmoqda.

Psixologik tayyorgarlik tizimida AQSH tajribasidan kelib chiqib stressga chidamlilikni shakllantirishga qaratilgan mashqlar va maxsus yo‘laklardagi amaliy mashg‘ulotlarga urg‘u berilsa, Isroil tajribasiga asosan har bir harbiy xizmatchiga o‘z-o‘ziga va safdoshiga birlamchi psixologik yordam ko‘rsatish texnikasi o‘rgatiladi. Shu bilan birga, psixologik yordam harbiy-tibbiy ta’minotning bir qismi sifatida olib borilishi sababli Isroil tajribasi asosida tibbiyot xodimlari, ayniqsa, feldsherlar psixologik yordam ko‘rsatish texnikasi bo‘yicha alohida malaka oshiradi. Bundan tashqari, **Ukraina maxsus bo‘linmalarida** jangovar stressga qarshi kurashish maqsadida “Jang yo‘li debrifingi” nomli yangi usul qo‘llanilmoqda. ya’ni, debrifing bo‘linma ishtirokida jangga tayyorgarlik davrida, jangdan so‘ng yoki biror noxush holatdan keyin o‘tkaziladi. Bunda murakkab va qiyin tajribalarni normal qabul qilish, jamoaviy o‘zaro tushunishga erishish asosiy maqsad qilinadi.

Italiya armiyasida harbiy psixologlarning qo‘mondonlik tizimi bilan yaqin hamkorlikda ishlashi mazkur yo‘nalishning samaradorligini oshiradi. Psixologik tahlillar asosida jamoa muhiti baholanib, harbiy bo‘linmalarning ichki barqarorligi va ishonch muhiti mustahkamlanadi.

Psixologiyada zamonaviy metodlar qo‘llaniladi. Diagnostik testlar, psixometrik instrumentlar, intervyular, davrlararo monitoringlar, stressni o‘lchaydigan baholash vositalari kiradi. Ba’zi ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturlarida hatto virtual haqiqat kabi texnologiyalar ham stressga qarshi tayyorgarlik va “Resilience” (psixologik chidamlilik yoki ruhiy bardoshlik) ya’ni ruhiy chidamlilikni oshirish uchun qo‘llanilmoqda. Texnologiyalar real jangovar yoki favqulodda vaziyatning simulyatsiyasini yaratib, xizmatchilarning reaksiyalarini o‘rganishda samarali bo‘ladi [6].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, zamonaviy urushlar sharoitida harbiy muvaffaqiyat kompleks xarakterga ega bo‘lib, unda psixologik tayyorgarlik strategik ustunlikka aylanmoqda. Texnologiyalar rivojlangan sari inson psixikasiga qaratilgan

tahdidlar ham murakkablashmoqda. Shu bois harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligini an’anaviy yondashuvlar asosida emas, balki innovatsion, integrativ va ilmiy asoslangan modellar asosida takomillashtirish zarur. Kognitiv barqarorlik, stressga chidamlilik, axborot immuniteti va jamoaviy ishonchni rivojlantirish zamonaviy harbiy tayyorgarlikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shermatov F.T. Harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatda yuzaga keladigan stress va uning darajasini aniqlash usullari, xulosa va tavsyalar // Ilmiy jurnal. “Psixologiya”. – Buxoro №1, 2023. – B.118-119.

2. Qodirov, O. “Global axborot xatarlari va yot g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet” – Toshkent: *Axborot xavfsizligi ilmiy jurnali*, №1, 2022.

3. Психология страха // Материалы конференции психологов силовых структур. – М.: ВУ МО РФ, 2025. – 147 с.

4. Рекомендаций участникам специальной военной операции (на основе боевого опыта) учеб. пособие Г. – Москва, 2024. - 34 ст.

5. http://nvo.ng.ru/forces/2019-10-11/10_1065_vdv.html.

6. https://tass.ru/armiya-i-opk/24835153.

KURSANTLARNING SHAXSIY BARKAMOLLIGI VA RUHIY MUSTAHKAMLIGINI TA’MINLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

SHERMATOVA NAZOKAT SAFAROVNA

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining Xizmat psixologiyasi va kasbiy madaniyati kafedrasi o‘qituvchisi, mayor

nazokatshermatova162@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada kursantlarning shaxsiy barkamolligi va ruhiy mustahkamligini ta’minlashga qaratilgan pedagogik, psixologik hamda axloqiy-tarbiyaviy yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, kursantlarning stressga chidamliligi, axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati, adaptivlik, liderlik va empatiya ko‘nikmalarini rivojlantirishda axloqiy-ruhiy ta’minlash mexanizmlarining ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: shaxsiy barkamollik, ruhiy mustahkamlik, ruhiy barqarorlik, axloqiy sifatlar, axloqiy rezilentlik strategiyasi, mikro-axloqiy regulyatsiya, operatsion bixeviorizm, motivatsion stimulyatsiya, verbal ta’sir usullari, kognitiv profilaktika, axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati, EQ-intellekt, empatiya, liderlik, stressga chidamlilik, adaptivlik.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогические, психологические и нравственно-воспитательные подходы, направленные на обеспечение личностной зрелости и психологической устойчивости курсантов в условиях военизированной среды. Также раскрывается значимость механизмов морально-психологического обеспечения в развитии стрессоустойчивости, способности к нравственному принятию решений, адаптивности, лидерских и эмпатичных навыков курсантов.

Ключевые слова: военизированная среда, личностная зрелость, психологическая устойчивость, психическая стабильность, нравственные качества, стратегия нравственной резильентности, микро-нравственная регуляция, операциональный бихевиоризм, мотивационная стимуляция, вербальные методы воздействия, когнитивная профилактика, способность к нравственному принятию решений, EQ-интеллект, эмпатия, лидерство, стрессоустойчивость, адаптивность.

Abstract: This article analyzes pedagogical, psychological, and moral-educational approaches aimed at ensuring the personal maturity and psychological resilience of cadets in a militarized environment. It also highlights the importance of moral and psychological support mechanisms in developing cadets’ stress resistance, moral decision-making ability, adaptability, leadership, and empathy skills.

Keywords: militarized environment, personal maturity, psychological resilience, mental stability, moral qualities, moral resilience strategy, micro-moral regulation, operational behaviorism, motivational stimulation, verbal influence methods, cognitive prevention, moral decision-making ability, emotional intelligence (EQ), empathy, leadership, stress resistance, adaptability.

Harbiylashtirilgan ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, kursantlarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini yuksaltirish va ularni professional xavfsizlik muhitiga moslashtirish

masalasi so‘nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti o‘z nutqlarida bir necha bor mamlakat mudofaa salohiyatini mustahkamlash, harbiy kadrlarni tayyorlashda intellektual, ma’naviy va ruhiy barqarorlikni yuksaltirish, harbiylashtirilgan xizmatchining shaxsiy mas’uliyati va fidoyiligini oshirish zarurligini qayd etgan bo‘lib, bu ta’lim jarayonini tubdan yangilash zaruratini belgilaydi [1]. Bugungi global geosiyosiy muhitda gibrid tahdidlar, axborot-psixologik bosimlar va ekstremal sharoitlarda xizmat o‘tash ehtimoli ortib borayotgani kursantlarda nafaqat harbiy-taktik bilimlar, balki uzluksiz ruhiy barqarorlik, axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati, emotsional intellekt, stressga chidamlilik va o‘z-o‘zini nazorat qilish mexanizmlarini shakllantirishni talab qiladi [2]. Prezident nutqlarida ta’kidlanganidek, harbiy mutaxassisning haqiqiy qudrati uning texnik malakasida emas, balki yuksak mas’uliyati, qat’iyati, vatanparvarligi va og‘ir sharoitda to‘g‘ri qaror qabul qila olish salohiyatida namoyon bo‘ladi [3]. Shu nuqtai nazardan, harbiylashtirilgan ta’limda mikro-axloqiy regulyatsiya, operatsion bixeviorizm, kognitiv profilaktika va axloqiy rezilentlikka asoslangan zamonaviy psixotexnologiyalarni qo‘llash, ruhiy himoya mexanizmlarini shakllantirish, emotsional intellekt va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish ta’lim samaradorligini oshirishning eng muhim omili sifatida ko‘rilmoqda.

Bunday yondashuv nafaqat kursantning shaxsiy tayyorgarligini, balki jamoaviy uyg‘unlik, harbiylashtirilgan intizom, xizmat madaniyati va qo‘mondon-kursant o‘rtasidagi ishonch munosabatlarini mustahkamlashga ham bevosita xizmat qiladi. Shu bois ushbu maqolada harbiylashtirilgan ta’limda axloqiy-ruhiy tayyorgarlikka oid mexanizmlarning nazariy asoslari, ularning amaliyotda qo‘llanilishi, Prezident tomonidan belgilangan strategik vazifalar bilan uyg‘unligi hamda zamonaviy harbiylashtirilgan kadrlar tayyorlashdagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Harbiylashtirilgan ta’lim tizimining zamonaviy bosqichida kursantlarning axloqiy-ruhiy tayyorgarligini takomillashtirish masalasi strategik ahamiyat kasb etib, milliy xavfsizlikni ta’minlash, soha mutaxassislarining psixologik barqarorligi va kasbiy integratsiyaga tayyorligini oshirishda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. Jahon miqyosida kechayotgan geosiyosiy beqarorlik, gibrid tahdidlar, axborot-psixologik

ta’sir texnologiyalarining kuchayishi, harbiylashtirilgan xizmatning ekstremal va stressogen xususiyati kursantlarda yuqori darajadagi emotsional rezilentlik, axloqiy qaror qabul qilish qobiliyati, stress sharoitida ongli regulyatsiya mexanizmi va o‘z-o‘zini idora qilish ko‘nikmalarini shakllantirish zaruratini yanada oshirmoqda.

Ma’lumki, harbiylashtirilgan mutaxassislar tayyorgarligi jismoniy yoki taktik malaka bilan cheklanmay, balki ularning ichki motivatsiyasi, vatanparvarlik qadriyatlari, kasbiy sadoqati, ruhiy barqarorlik darajasi va axloqiy tahlil qila olish qobiliyati bilan belgilanadi bu esa harbiylashtirilgan ta’lim jarayonini yangicha psixoaxloqiy yondashuvlar bilan boyitishni talab etmoqda [4].

Bugungi kunda mikro-axloqiy regulyatsiya, operatsion bixeviorizm, kognitiv profilaktika, axloqiy rezilentlik strategiyasi kabi ilg‘or psixotexnologiyalar harbiylashtirilgan ta’limga integratsiya qilinmoqda va ular kursant ongida barqaror ruhiy himoya mexanizmlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutmoqda. Xususan, verbal ta’sir usullarining to‘g‘ri qo‘llanilishi, motivatsion stimulyatsiya orqali kursantning ichki faolligini kuchaytirish, emotsional intellektni (EQ) rivojlantirish, empatik fikrlash va liderlik qobiliyatini mustahkamlash harbiylashtirilgan tayyorgarlik samaradorligini sezilarli darajada oshirayotgani amaliyotda tasdiqlanmoqda.

Shuningdek, globallashuv, raqamlashuv va axborot tezligi ortib borayotgan sharoitda kursantlarda tanqidiy fikrlash, vaziyatni tez tahlil qilish, axborot-ruhiy tahdidlarni anglash va o‘zini himoya qila olish ko‘nikmalarini shakllantirish harbiylashtirilgan ta’limning ajralmas qismiga aylandi. Bunday sharoitda axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni takomillashtirish nafaqat shaxsiy saloxiyatni oshiradi, balki jamoaviy o‘zaro ishonch, qo‘mondon–kursant munosabatlari barqarorligi va xizmat intizomini mustahkamlashga ham bevosita ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Global xavfsizlik muhitida sodir bo‘layotgan tezkor va turli qirrali o‘zgarishlar harbiylashtirilgan kadrlar tayyorlash tizimidan yangi talab va yondashuvlarni talab qilmoqda [5]. Mintaqaviy nizolar, kiber tahdidlar, psixologik va gibrid urush texnologiyalarining jadal rivojlanishi harbiylashtirilgan xizmatchilardan nafaqat mukammal taktik va amaliy tayyorgarlikni, balki intellektual saloxiyat, emotsional barqarorlik, stressga chidamlilik, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati va axloqiy

mas’uliyatni talab etmoqda. Bunday vaziyatda oliy harbiylashtirilgan ta’lim muassasalari zimmasiga kursantlarni yuqori darajada psixologik, pedagogik va ma’naviy jihatdan tayyorlash vazifasi yuklanadi.

Xususan, harbiylashtirilgan mutaxassis shaxsining rivoji an’anaviy o‘quv dasturlari bilan cheklanib qolmay, zamonaviy psixologiya, neyroilm, kognitiv tahlil, bixevioristik yondashuvlar va harbiylashtirilgan kouching kabi innovatsion usullar bilan boyitilishi zarur. Kursantlarda emotsional intellekt (EQ), rezilentlik, adaptivlik, vaziyatli fikrlash, jamoani boshqarish, axloqiy qarorlar qabul qilish madaniyati va motivatsion barqarorlik kabi kompetensiyalar shakllanmasa, ularning kelgusidagi xizmat samaradorligi to‘liq ta’minlanmaydi. Shu bois, oliy harbiylashtirilgan ta’limda kursantlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda verbal ta’sir, motivatsion stimulyatsiya, kognitiv-psixologik profilaktika, venchur fikrlash evristikalari va harbiylashtirilgan kouching kabi innovatsion psixologo-pedagogik mexanizmlarni integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtai nazardan maqolada oliy harbiylashtirilgan ta’lim muassasalari kursantlarida kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishga qaratilgan innovatsion metodlar ilmiy asosda yoritiladi. Xususan, harbiylashtirilgan xizmatchilarni axloqiy-ruhiy ta’minlashda “mikro-axloqiy regulyatsiya → operatsion bixeviorizm → axloqiy rezilentlik strategiyasi” tamoyili asosida shakllantirilgan integrativ modelning afzalliklari ochib beriladi.

Bu model orqali kursantlarda stress sharoitida o‘zini boshqara olish, axloqiy barqarorlikni saqlash, murakkab qarorlarni tez qabul qilish va emotsional (hissiy) zehnni rivojlantirish imkoniyatlari kuchayadi. Shu bilan birga, mnemonik qobiliyatlar, kommunikativ mahorat, liderlik, empatiya va adaptivlik kabi shaxsiy sifatlarni rivojlantirishda EQ-intellekt, kognitiv evristikalar va harbiylashtirilgan kouching texnologiyalarini uyg‘unlashtirish metodlari ilmiy tahlil qilinadi.

Maqolada, shuningdek, kursantlarning kasbiy tayyorgarlik darajasini tizimli baholash va optimallashtirishga xizmat qiluvchi avtonom regulyatsiya, strategik modellashtirish va funksional optimallashtirish tamoyillariga asoslangan kognitiv-subyektiv monitoring modeli hamda faoliyatni maqsadga yo‘naltiruvchi “kognitiv-

motivatsion impuls → aksiologik determinant → telologik vektor → indikator” algoritmi taklif etiladi. Ushbu yo‘nalishlar harbiylashtirilgan ta’lim tizimining zamonaviy talablarga mos ravishda takomillashuvini ta’minlab, kelgusida raqobatbardosh, intellektual va ruhan barqaror kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Oliy harbiylashtirilgan ta’lim muassasalarida kursantlarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirish va takomillashtirishda markaziy ahamiyat psixologik barqarorlik, kognitiv faollik, axloqiy-ruhiy qadriyatlar va zamonaviy komandirlik kompetensiyalariga beriladi [6]. Zamonaviy harbiylashtirilgan muhitda tezkor qaror qabul qilish, stressga chidamlilik va axloqiy-mas’uliyatli qarorlar qabul qilish kursantlardan nafaqat taktik va texnik mahorat, balki yuqori darajada intellektual va emotsional tayyorgarlik talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, kursant shaxsiyatini rivojlantirishda integrativ psixologo-pedagogik mexanizmlar – “mikro-axloqiy regulyatsiya → operatsion bixeviorizm → axloqiy rezilentlik strategiyasi” – ustuvor ahamiyatga ega [7].

Mikro-axloqiy regulyatsiya kursantning shaxsiy axloqiy meyorlari va ichki intizomini mustahkamlash orqali faoliyatni maqsadga yo‘naltirish imkonini beradi, operatsion bixeviorizm esa harbiylashtirilgan faoliyatda standartlashgan harakat va qaror modellarini avtomatlashtirish, murakkab vaziyatlarda tez va aniq xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Axloqiy rezilentlik strategiyasi esa stress va xavfli vaziyatlarda emotsional va irodaviy barqarorlikni saqlash, xalqaro harbiylashtirilgan standartlar talabiga mos ravishda axloqiy va qonunchilik meyorlariga tayangan qarorlar qabul qilish imkonini yaratadi[8].

Kursantlarning faoliyat samaradorligini oshirishda verbal ta’sir, motivatsion stimulyatsiya va kognitiv-psixologik profilaktikaning integratsiyalangan tizimi muhim ahamiyatga ega. Verbal ta’sir kursantning ruhiy holati va faoliyatiga psixologiyada isbotlangan mexanizmlar orqali ta’sir ko‘rsatadi, bu esa kursantning o‘zini nazorat qilish qobiliyatini va motivatsiyasini kuchaytiradi. Motivatsion stimulyatsiya kursantning shaxsiy maqsadlari va harbiylashtirilgan vazifalarini uyg‘unlashtirish, ichki harakatlantiruvchi omillarni faollashtirishga xizmat qiladi.

Kognitiv-psixologik profilaktika esa stress va ruhiy inqirozlarni oldindan aniqlash, negativ kognitiv sxemalarni kamaytirish va psixologik barqarorlikni mustahkamlash

mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Bu jarayonlar kursantlarning emotsional, kognitiv va motivatsion saloxiyatini barqaror rivojlantirishga imkon beradi, shu bilan ularni samarali harbiylashtirilgan xizmatga tayyorlaydi.

Kursantlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda EQ-intellekt, venchur fikrlash evristikalari va liderlik kouchingi muhim rol o‘ynaydi. EQ-intellekt ularda o‘z his-tuyg‘ularini idora qilish, boshqalarning emotsional holatini anglash va stressli vaziyatlarida samarali kommunikatsiya qilish qobiliyatini rivojlantiradi [9]. Venchur fikrlash evristikalari esa standart bo‘lmagan vaziyatlarda yangi yechimlarni tez va innovatsion usulda topish imkonini beradi. Harbiylashtirilgan kouching modeli kursantni maqsadga yo‘naltirish, harakat strategiyasini belgilash va faoliyati samaradorligini doimiy monitoring qilish orqali shaxsiy va kasbiy rivojlanishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, mnemonik qobiliyatlar, kommunikativ va adaptiv mahoratlar, empatik salohiyatlar kursantlarning jamoada samarali ishlash va murakkab vaziyatlarda tez va aniq qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi.

Kasbiy tayyorgarlik samaradorligini baholash va nazorat qilishda kognitiv-subyektiv monitoring modeli ustuvor ahamiyatga ega. Uning asosiy elementlari – avtonom regulyatsiya, strategik modellashtirish va funksional optimallashtirish – kursantning shaxsiy faoliyatini maqsadga muvofiq yo‘naltirishga xizmat qiladi. Shuningdek, taklif etilgan “kognitiv-motivatsion impuls → aksiologik determinant → telologik vektor → indikator” algoritmi kursantning kognitiv, motivatsion va axloqiy-ruhiy ko‘rsatkichlarini tizimli ravishda baholash, faoliyati samaradorligini oshirish va strategik rejalashtirish imkonini beradi. Bu integrativ yondashuv harbiylashtirilgan ta’lim jarayonida kursantlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini optimallashtirish hamda ularni zamonaviy harbiylashtirilgan xizmat talablariga tayyorlashda samarali mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Oliy harbiylashtirilgan ta’lim muassasalarida kursantlarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish zamonaviy harbiylashtirilgan muhit talablaridan kelib chiqqan holda ko‘p qirrali, kompleks va integrativ yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, verbal ta’sir texnologiyalari, motivatsion stimulyatsiya, kognitiv psixologik profilaktika, emotsional intellektni rivojlantirish, rezilentlik modellari va harbiylashtirilgan kouching kabi usullarni qo‘llash kursantlarning shaxsiy va kasbiy

rivojlanishini jadallashtiradi. Bu mexanizmlar kursantlarda murakkab sharoitlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish, o‘zini va holatini boshqara olish, jamoada samarali hamkorlik qilish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantiradi.

Tadqiqotda taklif etilgan integrativ model asosida kursantlarda stressga chidamlilik, vaziyatli fikrlash, emotsional barqarorlik, axloqiy mas’uliyat, ichki motivatsiya va yetakchilik salohiyatlari barqaror tarzda rivojlanishi qayd etildi. Bu kompetensiyalar harbiylashtirilgan xizmatning amaliy samaradorligini oshirish, favqulodda vaziyatlarda to‘g‘ri va tezkor harakat qilish, jamoaviy muvofiqlikni ta’minlash va shaxsiy mas’uliyatni anglashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, integrativ psixologik mexanizmlarni o‘quv jarayoniga bosqichma-bosqich joriy etish kursantlarning ruhiy barqarorligi va kasbiy muqobiliyatini kuchaytirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, integrativ psixologo-pedagogik yondashuvlarni joriy etish harbiylashtirilgan ta’limning sifatini oshirish, kursantlarni zamonaviy harbiylashtirilgan xizmat talablariga mos ravishda tayyorlash va ularning kasbiy samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi raqobatbardosh, barqaror, emotsional va kognitiv jihatdan yetuk harbiylashtirilgan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Mudofaa sohasi va milliy xavfsizlikni rivojlantirish bo‘yicha yig‘ilishdagi nutq [Elektron resurs]. – Toshkent, 2021. – Kirish rejimi: Prezident.uz

2. Mirziyoyev Sh.M. Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutq [Elektron resurs]. – Toshkent, 2023. – Kirish rejimi: Prezident.uz

3. Mirziyoyev Sh.M. Yoshlar va harbiy ta’lim muassasalari xodimlari bilan uchrashuvdagi nutq [Elektron resurs]. – Toshkent, 2022. – Kirish rejimi: Prezident.uz

4. G‘ulomov J. Harbiy psixologiyada rezilientlik modeli // *Mudofaa va Xavfsizlik*. – 2022. – №4. – S. 60.

5. Nazarov B. *Zamonaviy harbiy xavfsizlik tizimlari*. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 256 s.

6. Abdullayev Q. *Harbiy psixologiya asoslari*. – Toshkent: MUQ nashriyoti, 2020. – 21 s.

7. Karimov A. *Zamonaviy harbiy tayyorgarlik psixologiyasi*. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 36 s.

8. Goleman D. *Emotional Intelligence*. – New York: Bantam Books, 1995.

9. Mayer J., Salovey P. Emotional Intelligence Theory // *Psychological Inquiry*. – 1997.

“KURSANTLARNING EKSTREMAL VAZIYATLARDA PSIXOLOGIK BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISH: ILMIY ASOSLAR VA AMALIY MEXANIZMLARI”

podpolkovnik Kushbayev Sardor Kenjabayevich

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola kursantlarning ekstremal vaziyatlarda psixologik barqarorligini shakllantirishning ilmiy asoslari va amaliy mexanizmlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda kursantlarning psixologik barqarorligi tushunchasi, uning tarkibiy elementlari va stressga chidamlilikni rivojlantirish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, ekstremal vaziyatlarning kursantlarning ruhiy-asab tizimiga ta’siri, psixologik barqarorlikni shakllantirish metodlari va ularning samaradorligi ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqot natijalari harbiy ta’lim tizimida kursantlarning psixologik tayyorgarligini oshirish va ekstremal vaziyatlarga tayyorlash bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Kursantlar, Psixologik barqarorlik, Stressga chidamlilik, Ekstremal vaziyatlar, Psixologik tayyorgarlik, Harbiy psixologiya.

Annotation: This article is devoted to the study of the scientific foundations and practical mechanisms for developing the psychological resilience of cadets in extreme situations. The study analyzes the concept of cadets' psychological resilience, its structural components, and methods for enhancing stress tolerance. It also examines the

impact of extreme situations on cadets' psycho-neurological system, the methods for forming psychological resilience, and their effectiveness.

The research results serve to develop practical recommendations for improving cadets' psychological preparedness and readiness to act in extreme conditions within the military education system.

Keywords: Cadets, Psychological resilience, Stress tolerance, Extreme situations, Psychological preparedness, Military psychology.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению научных основ и практических механизмов формирования психологической устойчивости курсантов в экстремальных ситуациях. В исследовании анализируются понятие психологической устойчивости курсантов, её структурные элементы и методы развития стрессоустойчивости. Также рассматривается влияние экстремальных ситуаций на психо-неврологическую систему курсантов, методы формирования психологической устойчивости и их эффективность.

Результаты исследования служат для разработки практических рекомендаций по повышению психологической подготовки курсантов и их подготовке к действиям в экстремальных ситуациях в системе военного образования.

Ключевые слова: Курсанты, Психологическая устойчивость, Стрессоустойчивость, Экстремальные ситуации, Психологическая подготовка, Военная психология.

Kirish: Zamonaviy harbiy faoliyatning murakkab sharoitlari – qurolli mojarolar, terrorizm tahdidlari, favqulodda vaziyatlar va uzoq muddatli jangovar topshiriqlar – kursantlardan yuqori darajadagi psixologik barqarorlik va stressga chidamlilikni talab qilmoqda. Psixologik barqarorlik shaxsning ekstremal sharoitlarda emotsional muvozanatni saqlab, samarali qaror qabul qilish va faoliyatni davom ettirish qobiliyati sifatida ta’riflanadi va bu harbiy muvaffaqiyatning muhim omillaridan biridir.

O‘zbekiston Qurolli Kuchlarida kursantlarning psixologik tayyorgarligiga e’tibor kuchaygan bo‘lsa-da, harbiy ta’lim tizimida bu jarayonning ilmiy asoslari va amaliy mexanizmlari yetarli o‘rganilmagan. Xorijiy tajribalarda qo‘llanilayotgan maxsus

treninglar, mindfulness va simulyatsion mashg‘ulotlarning O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilishi va samaradorligi masalasi hamon dolzarb qolmoqda.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - kursantlarning ekstremal vaziyatlarda psixologik barqarorligini rivojlantirishning ilmiy asoslarini o‘rganish va amaliy mexanizmlarini aniqlashdir. Tadqiqot natijalari harbiy ta’lim muassasalarida kursantlarning stressga chidamliligini oshirish, psixologik tayyorgarlikni takomillashtirish va ekstremal vaziyatlarda samarali faoliyat ko‘rsatish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Har bir aniq fan boshqa fanlardan o‘z predmetining o‘ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi. Masalan, geologiya geodeziyadan farq qiladi, chunki ikkalasi ham yer bilan shug‘ullansa-da, birinchisi yerning tarkibi, tuzilishi va tarixini o‘rganadi, ikkinchisi esa uning o‘lchamlari va shaklini o‘rganadi. Psixologiya o‘rganadigan hodisalarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash ancha katta qiyinchilik tug‘diradi. Bu hodisalarni tushunish ko‘p jihatdan odamlar psixologik fanga duch kelganda qaysi dunyoqarashga amal qilishiga bog‘liq.

Qiyinchilik avvalo shundan iboratki, psixologiya o‘rganadigan hodisalar inson aqli tomonidan qadimdan ajratib ko‘rsatilgan va hayotning boshqa ko‘rinishlaridan alohida hodisalar sifatida ajratilgan.

Insonning ichki dunyosidagi turli hodisalar haqida tasavvurlar shakllandi va ular **psixik** (psixik funksiyalar) deb atala boshladi. Ularning o‘ziga xos tabiati insonning ichki (sub‘ektiv) dunyosiga mansubligi bilan belgilanadi, bu dunyo uni o‘rab turgan narsalardan farq qiladi. Ularni ruhiy hayot sohasiga mansub deb hisoblashdi va real voqealar va faktlarga qarshi qo‘yishdi. “Psixik” atamasi yunoncha “psyche” so'zidan kelib chiqqan bo‘lib, “ruh” degan ma‘noni bildiradi.

Ekstremal vaziyat (lotincha extremus – so‘nggi, kritik) - to'satdan yuzaga kelgan vaziyat bo‘lib, u hayotga, sog'liqqa, shaxsiy butunlikka yoki farovonlikka tahdid soladi yoki inson tomonidan sub'ektiv ravishda tahdidli deb qabul qilinadi. Harbiy kontekstda bunday vaziyatlar jangovar topshiriqlar, terror tahdidlari yoki favqulodda holatlarda yuzaga kelib, kursantlardan yuqori psixologik barqarorlikni talab qiladi[1].

Ekstremal vaziyatlar psixologiyasining asosiy tushunchalari:

Koping-strategiya - bu vaziyat talablariga insonning yaxshiroq moslashuvini ta’minlashga qaratilgan ongli harakat strategiyasi bo‘lib, u vaziyatni o‘z niyatlariga muvofiq o‘zgartirishga yoki o‘zgartirib bo‘lmaydigan sharoitlarni chidashga, bosib o‘tishga yordam beradi.

O‘tkir stress reaktsiyasi (MKB-10 bo‘yicha) - bu ko‘rinishdagi ruhiy buzilishi bo‘lmagan shaxslarda psixologik yoki jismoniy stressga javoban rivojlanadigan, tez o‘tib ketadigan va sezilarli darajadagi og‘irlikdagi buzilish.

Vahima - bu to‘satdan paydo bo‘lgan qo‘rquv holati bo‘lib, u reallikni ratsional idrok etishni bostirib, impulsiv harakatlarda namoyon bo‘ladi.

Posttravmatik stress buzilishi (PTSR) - bu vaqt jihatidan kechroq rivojlanadigan, maxsus shakldagi ruhiy buzilish bo‘lib, shaxsning hayotiy tajribasiga mos kelmaydigan yoki subyektiv ravishda yengilmas vaziyat sifatida qabul qilinadigan stressorning bir martalik yoki takrorlanuvchi ta’siridan kelib chiqadi va odatda kuchli emotsiyalarni chaqiradi.

Psixika - miyaning sistemalik xususiyati bo‘lib, subyekt tomonidan obyektiv dunyoni faol aks ettirish, subyekt tomonidan o‘zidan ajralmaydigan dunyo manzarasini qurish va shu asosda o‘z harakati va faoliyatini o‘zini o‘zi tartibga solishdan iborat.

Psixologik himoya - shaxsni barqarorlashtirishning maxsus tizimi bo‘lib, ongni noxush, jarohatlovchi kechinmalardan himoya qilishga qaratilgan.

Psixologik qo‘llab-quvvatlash - favqulodda hodisadan keyin bir shaxsga, guruhga yoki ko‘p sonli jabrlanuvchilarga yordam ko‘rsatishga qaratilgan qisqa muddatli chora-tadbirlarning butun tizimi.

Psixologik barqarorlik - shaxsning xususiyati bo‘lib, psixikaning optimal faoliyat ko‘rsatishini saqlashdan iborat.

Inson ongi - psixikaning eng yuqori shakli, uning rivojlanishining asosiy bosqichi va jamoat-tarixiy rivojlanish mahsuli.

Stress - organizmning jismoniy yoki psixologik ta’sirga nospetsifik reaksiyasi bo‘lib, uning gomeostazini buzadi.

Stressor - stress holatini chaqiruvchi omil.

Javjum - maqsadlarning aniq umumiyligidan mahrum bo‘lgan, qat’iy tashkil etilmagan, lekin o‘zaro o‘xshash emotsional holat va umumiy e’tibor obyekti bilan bog‘langan odamlar to‘plami.

Ekstremal vaziyat (lot. Extremus - chegara, kritik) - to‘satdan paydo bo‘lgan vaziyat bo‘lib, hayotga, sog‘liqqa, shaxsiy butunlikka, farovonlikka tahdid soladigan yoki inson tomonidan subyektiv ravishda tahdidli deb qabul qilinadigan vaziyat[2].

Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinadiki, ekstremal vaziyatlar psixologiyasi shaxs psixikasining favqulodda va yuqori stressli sharoitlarda qanday faoliyat ko‘rsatishini o‘rganadi. Bunday holatlarda ong barqarorligi, emotsional reaksiyalarni boshqarish va xulq-atvorning moslashuvchanligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lib, psixologik barqarorlik samarali faoliyatning asosiy omili hisoblanadi.

Ekstremal sharoitlarda yuzaga keladigan stress va stressorlarga munosabat shaxsning koping-strategiyalariga bog‘liq. Samarali strategiyalar moslashuvni ta’minlab, psixikaning optimal faoliyatini saqlaydi, samarasizlari esa o‘tkir stress reaksiyasi, vahima va posttravmatik stress buzilishi (PTSB) rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Vahima holatlarida ratsional baholash susayib, impulsiv harakatlar kuchayadi, psixologik himoya mexanizmlari esa har doim ham moslashuvchan natija bermaydi. Shu bois favqulodda hodisalardan keyingi psixologik qo‘llab-quvvatlash shaxs va guruhlarning ruhiy holatini barqarorlashtirish, PTSBning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, ekstremal vaziyatlarda shaxs psixikasining samarali faoliyati ong yetukligi, psixologik barqarorlik va stressga moslashuv mexanizmlarining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi.

Axborot-psixologik urush axborot-psixologik ta’sir ko‘rsatish vositalari va usullarining rivojlanishining muayyan bosqichida axborot qarama-qarshiligining alohida shakli sifatida vujudga kelgan bo‘lib, ushbu qarama-qarshilikning eng ijtimoiy xavfli ko‘rinishini ifodalaydi. U raqibning axborot-psixologik sohasiga zo‘ravon vosita va usullar orqali ta’sir ko‘rsatish yo‘li bilan strategik vazifalarni hal etishga qaratilgan faoliyatdir.

Tarixan axborot qarama-qarshiligi qurolli kurashning tarkibiy qismi sifatida shakllangan. Uning vujudga kelishiga hujum qiluvchi tomonning o‘z jangchilarining ruhini ko‘tarish va dushmanning iroda kuchini zaiflashtirishga bo‘lgan intilishi sabab bo‘lgan. Shu yo‘l bilan raqib faol qarshilik ko‘rsatish qobiliyatidan mahrum etilgan, uning tezroq tor-mor etilishiga erishilgan, shuningdek, moddiy va jismoniy yo‘qotishlar, jumladan, egallanayotgan hududlardagi mehnat va moddiy resurslar yo‘qotishlari kamaytirilgan.

Axborot-psixologik ta’sir g‘oyalarining manbai sifatida qadimgi dunyo hukmdorlarining inson ommasini jismoniy zo‘ravonliksiz boshqarish imkoniyatlarini dastlabki anglash jarayonlarini ko‘rsatish mumkin. Psixologik qarama-qarshilikning ahamiyati o‘sha davrda misrlik va ossuriyalik sarkardalarning qarashlarida yaqqol namoyon bo‘lib, ular jangning borishini bevosita jangchilarning ruhiy holati bilan bog‘laganlar.

Shu bois jangchini tarbiyalashning asosiy vazifasi sifatida uning **ruhiy barqarorligini shakllantirish**, o‘limga tayyorlik holatini rivojlantirish qaralgan.[3].

XULOSA: Tadqiqot davomida psixologiya fanining predmeti, psixik hodisalarning o‘ziga xos tabiati hamda ekstremal vaziyatlarda shaxs psixikasining faoliyat ko‘rsatish mexanizmlari tahlil qilindi. Psixik hodisalar insonning ichki, subyektiv dunyosiga mansub bo‘lib, aynan ushbu jihati ularni o‘rganishni murakkablashtiradi. Ekstremal vaziyatlar esa inson hayoti, sog‘lig‘i va farovonligiga bevosita yoki bilvosita tahdid soluvchi sharoitlar sifatida shaxsdan yuqori darajadagi psixologik barqarorlikni talab qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ekstremal vaziyatlar psixologiyasi shaxs ongining barqarorligi, emotsional reaksiyalarni boshqarish va xulq-atvor moslashuvchanligining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi. Stress va stressorlarning ta’siri shaxsning koping-strategiyalariga bevosita bog‘liq bo‘lib, samarali strategiyalar psixikaning optimal faoliyatini ta’minlaydi, samarasizlari esa o‘tkir stress reaksiyasi, vahima va posttravmatik stress buzilishining rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, axborot-psixologik urushning tarixiy ildizlari va uning jamiyat hamda shaxs ongiga ta’siri tahlil qilinib, psixologik qarama-qarshilik qadimdan qurolli

kurashning muhim tarkibiy qismi bo‘lib kelgani aniqlandi. Dushman ruhiy holatini izdan chiqarish, vahima uyg‘otish va irodani zaiflashtirish orqali jang natijasiga ta’sir ko‘rsatish axborot-psixologik ta’sirning asosiy maqsadi bo‘lgan va hozirgi davrda ham dolzarbligini yo‘qotmagan.

Umuman olganda, ekstremal vaziyatlarda shaxs psixikasining samarali faoliyati ong yetukligi, psixologik barqarorlik va stressga moslashuv mexanizmlarining rivojlanganlik darajasi bilan belgilanadi. Ayniqsa, harbiy faoliyat va axborot-psixologik qarama-qarshilik sharoitida bu sifatlar strategik ahamiyat kasb etadi.

TAKLIF: Harbiy ta’lim muassasalarida kursantlarning **psixologik barqarorligini shakllantirishga yo‘naltirilgan maxsus o‘quv-trening dasturlarini** joriy etish, ekstremal vaziyatlarga tayyorgarlik jarayonida **koping-strategiyalarni rivojlantirish,** stressni boshqarish va emotsional o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish, Axborot-psixologik urush sharoitida shaxs ongiga bo‘ladigan salbiy ta’sirlarni kamaytirish uchun **tanqidiy fikrlash, axborot immuniteti va psixologik himoya mexanizmlarini rivojlantirish** bo‘yicha mashg‘ulotlar tashkil etish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шойгу Ю.С. “Психология экстремальных ситуаций для спасателей и пожарных”. / Учебное пособие: Министерство Российской Федерации по делам гражданской обороны, чрезвычайным ситуациям и ликвидации последствий стихийных бедствий Центр экстренной психологической помощи. Москва – 2007 г. стр - 9/;

2. Мигунова Ю.С., Королева С.В. “Психология экстремальных ситуаций”. /Учебное пособие: Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования «ивановская пожарно-спасательная академия государственной противопожарной службы министерства российской федерации по делам гражданской обороны, чрезвычайным ситуациям и ликвидации последствий стихийных бедствий. Иванова - 2020 г. стр - 7/;

OLIY XARBIY TALIM MUASSASALARI KURSANTLARIDA SINERGETIK YENDASHUV ASOSIDA KREATIV KOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI

Muqumova Dilrabo Inatovna
"TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti,
"Professional ta'lim" kafedrasi mudiri, dotsent
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur tezisda harbiy ta'lim muassasalarida talabalar (kursantlar) kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari sinergetik yondashuv nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Zamonaviy harbiy psixologiya sharoitida shaxsning moslashuvchanligi, noan'anaviy fikrlash qobiliyati, tezkor va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyalari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois kreativlikni rivojlantirish masalasi harbiy psixologiyani takomillashtirishning muhim istiqbolli yo'nalishlaridan biri sifatida ko'riladi.

Kalit so'zlar: sinergetika, kreativlik, harbiy psixologiya, harbiy ta'lim, shaxs rivoji, innovatsion metodlar, kasbiy moslashuv, o'z-o'zini tashkil etish.

Zamonaviy globallashuv jarayonlari, harbiy sohadagi texnologik transformatsiyalar va axborot-psixologik tahdidlarning ortib borishi harbiy mutaxassis shaxsiga nisbatan yangi talablarni ilgari surmoqda. Bugungi kunda harbiy faoliyat faqat intizom va buyruq ijrosiga asoslanib qolmay, balki tezkor fikrlash, noan'anaviy vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish, moslashuvchanlik va kreativ yondashuvni talab etmoqda.

Shu nuqtai nazardan, harbiy psixologiyani rivojlantirish istiqbollari doirasida kursantlar kreativ qobiliyatlarini shakllantirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur jarayonni samarali tashkil etishda sinergetik yondashuv muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi [6]. Chunki sinergetika ta'lim jarayonini o'z-o'zini tashkil etuvchi, ochiq va dinamik tizim sifatida talqin etadi.

Harbiy ta’lim tizimida qat’iy reglamentlashtirilgan muhit, buyruqbozlik tamoyili va standartlashtirilgan fikrlash uslublari ustuvor bo‘lib kelgan. Bu esa ko‘pincha kursantlarning ijodiy tafakkuri va mustaqil qaror qabul qilish salohiyatining yetarli darajada rivojlanmasligiga olib keladi.

Asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

stereotip va reproduktiv fikrlashning ustuvorligi;

kreativ tashabbusni namoyon etishga psixologik to‘siqlar mavjudligi;

muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish metodlarining cheklanganligi;

harbiy psixologiyada shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmlarining yetarli tadqiq etilmaganligi [4].

Mazkur omillar harbiy psixologiyani modernizatsiya qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Sinergetik yondashuv nuqtai nazaridan harbiy ta’lim tizimi ko‘p omilli, murakkab hamda o‘zaro ta’sir etuvchi komponentlardan tashkil topgan ochiq va dinamik tizim sifatida talqin etiladi. Mazkur tizimda shaxs (kursant), pedagogik jarayon, ijtimoiy-psixologik muhit va kasbiy faoliyat talablari o‘zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi. Shaxs rivoji tashqi va ichki omillar ta’sirida sodir bo‘ladigan uzluksiz jarayon bo‘lib, u oddiy chiziqli emas, balki murakkab, nochiziqli xarakterga ega.

Sinergetika tamoyillariga asoslanib kursantlarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish bir necha ustuvor yo‘nalishlarda amalga oshiriladi. Avvalo, ochiq tizimlilik tamoyili harbiy ta’lim jarayonini zamonaviy axborot oqimlari, innovatsion pedagogik tajribalar va ilg‘or metodlar bilan boyitishni nazarda tutadi [1]. Bu esa ta’lim mazmunini yangilash va shaxsning ijodiy tafakkurini rag‘batlantirish imkonini beradi.

Shuningdek, nochiziqli rivojlanish tamoyili kursant shaxsining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, uning rivojlanish trayektoriyasini qo‘llab-quvvatlashni taqozo etadi [2]. Har bir kursantning psixologik imkoniyatlari va kasbiy moyilligi turlicha bo‘lganligi sababli, ularning kreativ salohiyatini rivojlantirish differensial yondashuv asosida tashkil etilishi zarur.

O‘z-o‘zini tashkil etish tamoyili kursantlarda refleksiya, o‘zini boshqarish, ichki motivatsiya va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Bu jarayonda shaxs tashqi boshqaruvdan ichki boshqaruv mexanizmlariga o‘tadi, natijada uning kasbiy va ijodiy salohiyati yuksaladi.

Bifurkatsiya nuqtalari konsepsiyasi esa muammoli vaziyatlar orqali shaxs rivojida sifat jihatidan yangi bosqichga o‘tish imkoniyatini yaratadi [5]. Harbiy ta’lim jarayonida murakkab va noan’anaviy vaziyatlarni modellashtirish kursantlarning kreativ tafakkuri va adaptiv qobiliyatlarini faollashtiradi.

Aynan ushbu integrativ yondashuv harbiy psixologiyani rivojlantirish istiqbollarini kengaytiradi. Kreativ qobiliyatlarning shakllanishi harbiy mutaxassisning stressga chidamliligini oshiradi, vaziyatni kompleks tahlil qilish ko‘nikmasini mustahkamlaydi hamda ekstremal sharoitlarda tezkor va samarali qaror qabul qilish salohiyatini kuchaytiradi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish maqsadida bir qator pedagogik-psixologik yechimlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Eng avvalo, muammoli vaziyatlar asosida o‘qitish texnologiyalarini joriy etish zarur [3]. Bunday metod kursantlarni mustaqil fikrlashga, alternativ yechimlarni izlashga va qaror qabul qilish jarayonini chuqur tahlil qilishga undaydi.

Bundan tashqari, harbiy-psixologik treninglar hamda kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashg‘ulotlarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur treninglar shaxsning kommunikativ kompetensiyasini, emotsional barqarorligini va ijodiy yondashuvini mustahkamlaydi.

Interaktiv metodlardan — keys-stadi, debat, simulyatsion modellashtirish kabi usullardan foydalanish ham samarali natija beradi. Ushbu metodlar real harbiy vaziyatlarni modellashtirish orqali kursantlarning analitik fikrlash va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Shuningdek, refleksiv tahlil va psixologik o‘zini baholash mexanizmlarini rivojlantirish kursantlarda o‘z faoliyatini tanqidiy baholash, xatolarni tahlil qilish va o‘z ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi [7]. Innovatsion pedagogik muhitni yaratish esa shaxsning intellektual va ijodiy salohiyatini uyg‘un ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, sinergetik yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik jarayon kursantlarning intellektual, shaxsiy va kasbiy salohiyatini kompleks rivojlantirishni ta’minlaydi hamda harbiy psixologiyani modernizatsiya qilishning muhim amaliy mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sinergetik yondashuv asosida talabalar (kursantlar) kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish harbiy psixologiyani modernizatsiya qilishning muhim istiqbolli yo‘nalishidir. Kreativlikni shakllantirish harbiy mutaxassisning kasbiy kompetentligini, psixologik barqarorligini va noan’anaviy vaziyatlarda samarali harakat qilish qobiliyatini ta’minlaydi.

Shunday qilib, sinergetik metodologiyaga asoslangan integrativ ta’lim modeli harbiy psixologiya sohasida muammo va yechimlarni tizimli ravishda hal etish imkonini beradi hamda harbiy ta’lim tizimini zamonaviy talablar darajasiga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Выготский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. – Москва: Просвещение, 1991. – 93 с.
2. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. – Москва: Политиздат, 1975. – 304 с.
3. Ломов Б. Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии. – Москва: Наука, 1984. – 444 с.
4. Богоявленская Д. Б. Психология творческих способностей. – Москва: Академия, 2002. – 320 с.
5. Хакен Г. Синергетика. – Москва: Мир, 1980. – 406 с.
6. Пригожин И., Стенгерс И. Порядок из хаоса: Новый диалог человека с природой. – Москва: Прогресс, 1986. – 432 с.
7. Карпов А. В. Психология принятия решений. – Москва: Институт психологии РАН, 2003. – 448 с.

ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ СОПРОВОЖДЕНИЕ УЧАСТНИКОВ БОЕВЫХ ДЕЙСТВИЙ, ИХ РЕАБИЛИТАЦИЯ И РЕАДАПТАЦИЯ

Кадиров Анвар Авазович

начальник цикл-старший преподаватель кафедры общей тактики, Института сухопутных войск университета Военной безопасности и обороны Республики Узбекистан, подполковник

Усманов Расул Машарипович

Старший преподаватель кафедры общей тактики- начальник службы геоинформационного обеспечения, Института сухопутных войск университета Военной безопасности и обороны Республики Узбекистан, майор

Бой - это организованная вооруженная борьба подразделений, частей и соединений воюющих сторон в целях достижения победы над противником. В вооруженном столкновении каждая из сторон преследует крайне решительные цели физически уничтожить неприятеля или сломить его волю к сопротивлению. Для достижения этого используются самые современные боевая техника, оружие, боеприпасы, средства управления и связи, наиболее эффективные способы боевого применения войск.

Сегодня уже предельно ясно, что бой - это не только согласованные по цели, месту и времени удары, огонь и маневры, а прежде всего ожесточенное противоборство целеустремленных, мыслящих, чувствующих, побуждаемых личными убеждениями, обладающих навыками и умениями, волей и надеждами людей. И от того, у какой из сторон духовные силы и возможности окажутся лучше сформированными, мобилизованными, сохраненными и адекватными потребностям современного боя, в определяющей степени будет зависеть ее победа или поражение. Все это делает актуальной и практически значимой деятельность командиров, штабов, органов идеологической работы, психологов и других должностных лиц по психологическому обеспечению боевых действий, направленную на всестороннюю психологическую подготовку военнослужащих

к активным и самоотверженным действиям, психологическую помощь им в преодолении стресс-факторов и последствий их воздействия.

Психологическое сопровождение боевых действий состоит в непрерывном отслеживании динамики психологической обстановки (морально-психологического состояния своих войск и противодействующих им сил, влияния на состояние морального духа сторон складывающейся социальной обстановки, боевых

и эргономических условий) в зоне их прохождения, прогнозирования и оценки усталости и психологических потерь среди личного состава, оказании психологической помощи военнослужащим в преодолении психотравмирующих ситуаций, целенаправленном управлении мотивацией, психическими состояниями людей и социально-психологическими процессами в воинских подразделениях, их защите от психологических акций противника.

Психологическое сопровождение осуществляется на этапе ведения боевых действий. Усилия командиров, штабов, органов идеологической работы и военных психологов в этот период направляются также на коррекцию внешней социальной среды в целях создания благоприятных психологических условий для осуществления воинской деятельности.

Особое внимание уделяется организации эффективного психологического противоборства с противником, направленного на прогнозирование, профилактику, срыв организованного отрицательного воздействия на психику военнослужащих, локализацию и ликвидацию дезорганизационных явлений в подразделениях и частях, а также на деморализацию войск противника, осуществление пропагандистских и психологических акций среди лояльно, нейтрально и враждебно настроенного населения в районе выполнения задач.

Психологическое сопровождение предполагает также всемерное укрепление психологического единства военнослужащих, выполняющих задачи воинской деятельности со своим народом. Оно преследует цель поддерживать жизненный тонус воинов, их душевный комфорт на уровне повседневных армейских будней, чтобы они не чувствовали себя изолированными, забытыми.

Важнейшим элементом психологического сопровождения боевых действий войск является *психологическая помощь (самопомощь)*, представляющая собой комплекс психологических, организационных, медицинских мероприятий, направленных на обеспечение успешного преодоления военнослужащими психотравмирующих обстоятельств боевой обстановки, сохранение их психического здоровья и боеспособности.

Психологическая помощь включает два компонента, различающихся субъектами, объектами и содержанием проводимых мероприятий: а) психологическую поддержку; б) психологическую реабилитацию.

Психологическая поддержка направляется на актуализацию имеющихся и создание дополнительных психологических ресурсов, обеспечивающих активные действия военнослужащих на поле боя.

В профилактическом плане она (в целях предупреждения развития отрицательных психологических явлений) оказывается всем военнослужащим, а в качестве средства психологической коррекции применяется по отношению к лицам с симптомами непатологических и патологических психогенных реакций. Опыт работы с военнослужащими, подвергшимися боевому стрессу, накопленный в зарубежных армиях, позволяет выделить основные способы и средства психологической поддержки: коммуникативные, организационные, медикаментозные и аутогенные.

К коммуникативным способам относятся: вербальные – доведение до военнослужащих мобилизующей информации; убеждения по типу: «Мы справлялись и не с такими задачами, справимся и с этой»; внушения по типу: «Ты справишься с этим!»; подкрепление по типу: «Молодец!», «Орел!», «Герой!»; психологическое заражение настроением по типу: «Мужики мы или нет?»; шутки, приказы, угрозы и др.; визуальные – контакт глазами, одобряющая пантомимика и др; тактильные – прикосновения, пожатие руки, похлопывание по плечу, «встряхивание» и др.; эмоциональные – нахождение рядом с подчиненным в трудную минуту, сопереживание, дружеская улыбка и др.; деятельностные –

личный пример активных и решительных действий, поддержка действиями и огнем, угощение сигаретой, водой и др.

Организационные способы составляют: вывод военнослужащего в безопасное место; ликвидация или блокирование источников травматизации; предупреждение контактов военнослужащих с лицами, подвергшимися деморализации; твердое управление действиями подчиненных; постановка четких задач на продолжение боевых действий по типу: «Рядовой Петров! Противник справа, за горящим автобусом. Уничтожить!» или «Петров! Посмотри на Сидорова. Он делает правильно. Делай как Сидоров!»; организация целесообразного чередования напряженной деятельности, отдыха, сна, своевременного приема пищи и т. п.

Фармакологические способы состоят в усилении и коррекции психологического ресурса участника боевых событий за счет применения лекарственных препаратов, витаминов, лечебных трав.

Опыт боевых событий в Афганистане, Чечне, Вьетнаме, в зоне Персидского залива и других регионах мира показывает, что фармакологические средства могут быть использованы в целях: повышения активности действий личного состава в условиях опасности и хронического утомления (препараты группы психостимуляторов); снятия чрезмерной психической напряженности (релаксаторы); ускорения процесса адаптации военнослужащих к экстремальным условиям жизнедеятельности, повышения показателей работоспособности отдельных психических функций и др.

Проверенным средством регуляции психической деятельности в обстановке действия психотравмирующих факторов являются поливитамины Аснитон, Аэровит, Гексавит, Декамевит, Ревит, Рибовитал, а также травы, обладающие успокаивающим эффектом.

Аутогенные способы психологической поддержки (самопомощь) в настоящее время являются наиболее известным, доступным и весьма эффективным средством регуляции психической деятельности. К их числу относят как простейшие приемы саморегуляции (успокаивающее и мобилизующее дыхание; расслабление мышц по контрасту; элементарные формулы самоубеждения, самовнушения, самоприказа,

самоподкрепления), так и сложные психорегуляционные комплексы (аутогенная тренировка, самогипноз, медитация, нервно-мышечная релаксация и др.).

Психологическое просвещение как форма психологической работы представляет собой систематическое и организованное распространение среди военнослужащих психологической информации в целях формирования у них понимания закономерностей функционирования человеческой психики и поведения людей в экстремальных условиях боевой обстановки, знания путей и способов управления возможностями собственной психики и оказания психологической помощи сослуживцам.

Практика показывает, что зачастую простое знание тех психологических явлений, с которыми может столкнуться военнослужащий в сложных условиях, позволяет психологически подготовиться к встрече с неблагоприятными событиями. Ознакомление людей с типами возможных реакций на боевые стресс-факторы выполняет функцию своеобразной «прививки», действующей по принципу «предупрежден – защищен». На этот факт еще в начале нашего века указывал известный военный психолог Г. Е. Шумков.

Он считал, что «предварительное ознакомление воинов с реальными событиями в бою – в смысле боевой деятельности и в смысле психических переживаний – есть предварительное накопление боевого опыта, а следовательно, и рациональная работа с вредным влиянием сильных переживаний на психику воинов при чувствах тревоги и страха».

Учитывая действие психологической закономерности, выраженной в формуле «чего не знаю, того боюсь», необходимо в полной мере обеспечить военнослужащих необходимой информацией о психологических особенностях боевой деятельности. Определенный опыт такой работы приобретен командирами и воспитательными органами вооруженных сил Российской Федерации в ходе боевых действий в Чечне. В войска были направлены разработанные учеными Военного университета рекомендации о методах экспресс-оценки психических состояний военнослужащих и оказания им экстренной психологической помощи, приемах психической саморегуляции, путях социально-психологической

реадаптации участников боевых событий и другие. Во многих частях и подразделениях сложилась стройная и действенная система информирования военнослужащих.

Заслуживает внимания опыт работы командования вооруженных сил США. Большая разъяснительная работа проведена с личным составом американского контингента в зоне Персидского залива при подготовке операции «Буря в пустыне». Военнослужащим были выданы памятки о способах эффективного выживания в пустыне, другие информационные материалы, отражающие специфику проявления человеческой психики в боевой обстановке.

Практика показывает, что психологическая информация может доводиться в устной (лекции, доклады, беседы, выступления участников и очевидцев событий), и печатной (памятки, листовки, боевые листки, военная печать) формах, путем просмотра и обсуждения кинофильмов и др. Эффективность психологического просвещения повышается в том случае, если распространяемая информация конкретизирована в связи со спецификой предстоящей деятельности, отвечает уровню подготовки военнослужащих и их настроениям, не запугивает людей, а дает ключ к пониманию происходящего.

Психологическая реабилитация представляет собой комплекс психофизиологических, психотерапевтических, организационных и медицинских мероприятий, направленных на восстановление нарушенных (утраченных) психических функций и коррекцию социального статуса военнослужащих, получивших боевую психическую травму.

Психологическая реабилитация проводится в тесном единстве с медицинской, профессиональной, социальной реабилитацией и нацелена на восстановление психического здоровья военнослужащих.

В зависимости от глубины психических расстройств военнослужащих она может осуществляться как непосредственно в боевой обстановке, так и в стационарных медицинских учреждениях.

Основными задачами психологической реабилитации являются:

выявление и диагностика психических расстройств у военнослужащих;

эвакуация военнослужащих, подвергшихся психотравматизации, с поля боя;

восстановление нарушенных (утраченных) психических функций;

коррекция самосознания, самооценки и самочувствия военнослужащих, получивших

психические расстройства, физические увечья;

оказание помощи военнослужащим в подготовке к хирургическим операциям,

в купировании болевых ощущений у раненых;

формирование у лиц, подвергшихся боевому стрессу, эффективных моделей поведения в различных ситуациях, навыков саморегуляции психических состояний и др.

Опыт организации психологической реабилитации в армиях России, США, Великобритании, Франции, Израиля позволяет сформулировать основные принципы этой работы:

неотложность;

приближение места реабилитации к линии фронта;

системность, координация усилий командиров, органов воспитательной работы,

военных медиков в интересах реабилитации;

дифференцированность и этапность в оказании психологической помощи, эшелонирование рубежей психологической реабилитации и др.

Наиболее широкое применение в практике психологической реабилитации военнослужащих зарубежных армий находят следующие способы:

физиологические (глубокий сон, отдых, качественная пища, обильное питье, душ, полевая баня);

аутогенные (выполнение приемов психической саморегуляции, аутотренинг, медитация и др.);

медикаментозные (седативные препараты, транквилизаторы, антидепрессанты, ноотропы,

актопротекторы, психостимуляторы, фитотерапия, витаминотерапия и др.); организационные (установление четкого режима работы и отдыха, вовлечение военнослужащих в активную боевую учебу, несение службы, сохранение военной формы одежды);

психотерапевтические (индивидуальная и групповая рациональная психотерапия, музыко-, библио-, имаго-, арт-, натуротерапия).

Участие военнослужащих в деятельности, протекающей в опасных, экстремальных условиях, способно в значительной мере изменять их внутреннюю картину мира, жизненные смыслы, трансформировать ранее сложившуюся систему ценностей, актуализировать комплекс специфических потребностей. Остро проявляются потребности быть выслушанным, понятым, оцененным, психологически защищенным и др.

Психика участников боевых событий «обнажается», становится особенно чувствительной к фальши, лжи, несправедливости, легко ранимой. Если перечисленные тенденции и особенности психической жизни участников боевых действий не будут учтены, это чревато возникновением сложных психологических и социальных последствий.

Вместе с отчаянием, фрустрацией, апатией у военнослужащих могут развиваться личностные трансформации, складываться искаженная, патологическая картина мира, формироваться агрессивное, конфликтное поведение. Непосредственное и неподготовленное столкновение людей, обладающих «военизированной» психикой, с реалиями мирной жизни может нанести им глубокую психическую травму. Вот почему требуется некоторая коррекция ценностно-мотивационной структуры личности, психических состояний военнослужащих, участвовавших в экстремальной деятельности. Отдельные из них оказываются неспособными самостоятельно вернуться в ритм и атмосферу мирной жизни и нуждаются в профессиональной психологической помощи.

Психологическая реадаптация (переприспособление) предполагает организованное психологическое «возвращение» военнослужащих в обычные

условия жизнедеятельности после выполнения специальных, сложных задач воинской деятельности, сопровождающейся травматизацией их психики.

Целью такой деятельности командиров, штабов, органов идеологической работы является достижение плавного, бескризисного, нетравмирующего «вращивания» участников экстремальной деятельности в систему повседневных связей и отношений, восстановление и укрепление их личностного и социального статуса.

Психологическая реадаптация включает решение двух основных задач:

реконструкцию ценностно-ориентационной системы самих участников боевых действий;

создание вокруг них реадаптирующей социальной среды.

Первая задача в основном решается в процессе специально организованного и пролонгированного по времени периода между окончанием участия военнослужащих в боевых действиях и вступлением в полнокровную «мирную» жизнь, называемого периодом «психологического карантина» или «психологической дезинфекции». Целью деятельности командиров, заместителей по идеологической работе, военных психологов и медиков на этом этапе является удовлетворение основных стремлений военнослужащих в понимании, признании, престиже, а также снятие психической напряженности и психологическая подготовка к мирным условиям жизнедеятельности.

Практика показывает, что наиболее целесообразными мероприятиями данного периода являются:

тщательный разбор боевых действий военнослужащих, преимущественная положительная оценка вклада каждого из них в решение боевых задач подразделения, части;

встречи военнослужащих с политиками, представителями трудовых коллективов, родственниками военнослужащих, деятелями искусства и культуры, утверждающими уверенность воинов в высокой социальной значимости сделанного ими;

жесткая селекция поступающих периодических изданий, радио- и телепередач, прибывающих эмиссаров от различных политических партий и движений;

парциальный, постепенный пропуск к военнослужащим информации, отрицательно оценивающей те или иные стороны боевых событий; вовлечение военнослужащих в динамичную, не скучную и не сложную деятельность, недопущение безделья и праздности;

специальная психологическая подготовка к встрече с людьми с «мирной» психологией; выявление военнослужащих, получивших боевые психические травмы и оказание им психологической помощи.

Создание реадаптирующей социальной среды предполагает следующее. Независимо от того, вернулся солдат домой победителем или побежденным, его должны достойно встретить страна, сослуживцы, члены семьи, знакомые. Желательно, чтобы встречающие понимали специфические проявления психики и поведения ветеранов, были обучены элементарным приемам оказания психологической поддержки. Однако ни в коем случае нельзя допустить того, чтобы участники событий воспринимались как «ненормальные», «психи», «травматики». Отношение к ним командиров, сослуживцев, членов семей должно всемерно способствовать разрядке накопившихся психических напряжений, предупреждению дополнительной психотравматизации.

Одним из главных объектов психологического обеспечения в данный период становятся семьи офицеров, прапорщиков, военнослужащих по контракту. Супруги, дети, другие родственники должны оказаться психологически и нравственно подготовленными к долготерпению, к настойчивому восстановлению контактов военнослужащего с его прежними друзьями, вовлечению его в активную жизнь воинской части, гарнизона, в культурно-досуговые мероприятия. Морально-психологическое состояние вернувшихся из районов боевых действий необходимо постоянно отслеживать и своевременно корректировать.

Таким образом, психологическое сопровождение боевых действий войск представляет собой процесс непрерывного мониторинга (отслеживания,

выявления, анализа и оценки) психологических условий выполнения боевых задач, осуществления психологической поддержки военнослужащих и проведения психологической реабилитации с лицами, подвергшимися травмирующему воздействию психогенных факторов боя. Психологическая реадаптация представляет собой процесс восстановления у участников боевых действий психологического ресурса, необходимого для полноценной жизни и активного социального функционирования в условиях мирной жизни.

Список литературы

1. Гомель, Н. И. Военная психология и педагогика: учеб. пособие / Н. И. Гомель, И. А. Кравцов, С. Ю. Драница. – Минск: ВА РБ, 2015. – С. 118–120.

2. Маклаков, А. Г. Психология и педагогика. Военная психология / под ред. А. Г. Маклакова. – СПб.: Питер, 2005. – С. 312, 324–330.

3. Баранов, Е. Г. Методика оценки командирами и штабами морально-психологического состояния войск / Е. Г. Баранов // Воен. мысль. – 2014. – № 10 – С. 49–59.

4. Беленки, Г. Л. Стресс на поле боя: опыт Израиля / Г. Л. Беленки, Ш. Ной, З. Соломон // Милитари ревью. – 1995. – № 7. – С. 26–37.

5. Военная психология: методология, теория, практика. / П. А. Корчемный [и др.]. – М.: Воениздат, 2010. – С.183–184.

6. Караяни, А. Г. Психологическое обеспечение боевых действий личного состава частей Сухопутных войск в локальных военных конфликтах / А. Г. Караяни. – М.: ВУ, 1998.

7. Попов, В. Е. Психологическая реабилитация военнослужащих после экстремальных воздействий (на материале землетрясения в Ленинокане, межнационального конфликта в Фергане и боевых действий в Афганистане): дис. ... канд. психол. наук. – М., 1992.

8. Шумков, Г. Е. Чувство тревоги как доминирующая иллюзия в период ожидания боя / Г. Е. Шумков // Воен. сборн. – 1913. – № 11. – С. 100.

OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARNI BARTARAF ETISHDA PSIXOLOGOK TA’SIR O‘TKAZISH TAKTIKASI

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi podpolkovnik Ergashev Anvar Ashrafovich

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida jamiyat barqarorligini ta’minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayrim ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yoki mafkuraviy omillar natijasida ommaviy tartibsizliklar yuzaga kelishi mumkin. Bunday vaziyatlarda kuch ishlatish choralaridan tashqari, psixologik ta’sir o‘tkazish taktikasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki inson omili – har qanday ijtimoiy jarayonning markazida turadi.

Mazkur maqolada ommaviy tartibsizliklarning psixologik xususiyatlari, ularni boshqarish va bartaraf etishda qo‘llaniladigan psixologik ta’sir usullari, xalqaro tajriba hamda amaliy tavsiyalar tahlil qilinadi.

Ommaviy tartibsizlik tushunchasi va uning psixologik mohiyati

Ommaviy tartibsizlik – bu ko‘p sonli shaxslarning jamoaviy ravishda ijtimoiy tartibni buzishga qaratilgan harakatlaridir. Kriminologiya va ijtimoiy psixologiya nuqtai nazaridan olganda, bunday vaziyatlarda individning xulqi omma ta’sirida o‘zgaradi.

Fransuz olimi Gustave Le Bon o‘zining The Crowd: A Study of the Popular Mind asarida omma psixologiyasining asosiy xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tgan. Uning fikricha, omma ichida shaxsiy mas’uliyat hissi susayadi, hissiyot ustuvorlik qiladi va taqlid kuchayadi.

Shuningdek, Sigmund Freud omma psixologiyasini psixoanalitik yondashuv asosida tahlil qilib, jamoaviy ong osti omillarini ko‘rsatib bergan.

Ommaviy tartibsizliklarning asosiy psixologik belgilari:

- Emotsional zo‘riqishning yuqoriligi
- Taqlid va yuquvchanlik
- Lider ta’siriga beriluvchanlik

- Ratsional fikrlashning pasayishi

Ommaviy tartibsizliklarning kelib chiqish sabablari

Ommaviy tartibsizliklar quyidagi omillar ta’sirida yuzaga keladi:

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar

Ishsizlik, inflyatsiya, ijtimoiy tengsizlik kabi holatlar omma noroziligini kuchaytiradi.

Siyosiy omillar

Saylov jarayonlari, davlat qarorlari yoki siyosiy nizolar.

Axborot-psixologik omillar

Yolg‘on axborot, mish-mishlar, ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan provokatsion chaqiriqlar.

Bu borada amerikalik psixolog Philip Zimbardoning deindividuatsiya nazariyasi muhim ahamiyatga ega. Unga ko‘ra, omma ichida shaxs o‘z individualligini yo‘qotadi va javobgarlik hissi kamayadi.

Psixologik ta’sir o‘tkazish tushunchasi va mohiyati

Psixologik ta’sir – bu inson ongiga, hissiyotiga va xulq-atvoriga maqsadli ravishda ta’sir ko‘rsatish jarayonidir. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida bu quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

- Og‘zaki murojaat
- Ishontirish
- Ogohlantirish
- Axborot berish
- Muzokara olib borish

Psixologik ta’sirning asosiy maqsadi – agressiyani pasaytirish va vaziyatni tinch yo‘l bilan barqarorlashtirishdir.

Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishda psixologik taktika turlari

Profilaktik psixologik ta’sir

Profilaktika – nizoning oldini olishdir. Bunda:

- Aholi bilan muloqot
- Ochiq axborot siyosati

- Ijtimoiy ishonchni mustahkamlash

muhim rol o‘ynaydi.

Kommunikativ ta’sir

To‘g‘ri muloqot vaziyatni keskinlashishdan saqlaydi. Nutq ravon, aniq va buyruqbozlikdan xoli bo‘lishi zarur.

Lider bilan ishlash taktikasi

Har qanday ommada norasmiy lider mavjud bo‘ladi. U bilan individual muzokara olib borish ommani boshqarishga yordam beradi.

Emotsional fonni pasaytirish

- Ovozni pasaytirish
- Tinchlantiruvchi ohang
- Qo‘rqitishdan voz kechish

Muzokara olib borish psixologiyasi

Muzokara jarayonida quyidagi tamoyillar muhim:

1. Hurmat
2. Tinglash qobiliyati
3. Empatiya
4. Neytral pozitsiya

Amerikalik tadqiqotchilar Roger Fisher va William Ury tomonidan yaratilgan “pozitsion bo‘lmagan muzokara” usuli samarali hisoblanadi.

Axborot-psixologik ta’sir vositalari

Axborot orqali boshqarish quyidagi usullarni o‘z ichiga oladi:

- Rasmiy bayonotlar
- OAV orqali tushuntirish ishlari
- Ijtimoiy tarmoqlarda tezkor ma’lumot berish

Axborot vakuumi mish-mishlarni kuchaytiradi, shuning uchun tezkor va haqqoniy ma’lumot berish muhim.

Xalqaro tajriba

United States tajribasi

AQShda politsiya “community policing” tamoyiliga asoslanadi. Aholi bilan doimiy hamkorlik mojarolarning oldini oladi.

United Kingdom tajribasi

Buyuk Britaniyada muzokarachilar instituti mavjud bo‘lib, ommaviy noroziliklarda maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan psixologlar jalb qilinadi.

Germany tajribasi

Germaniyada eskalatsiyani kamaytirish (“de-escalation”) tamoyili ustuvor hisoblanadi.

Huquqiy asoslar

O‘zbekiston Respublikasida jamoat tartibini saqlash masalalari milliy qonunchilik bilan tartibga solinadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida inson huquqlari ustuvor hisoblanadi.

Psixologik ta’sir qo‘llashda:

- Qonuniylik
- Proportsionallik
- Zaruriyat tamoyillari

asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Psixologik tayyorgarlik masalalari

Huquqni muhofaza qiluvchi xodimlar quyidagilarni bilishi zarur:

- Stressga chidamlilik
- Konfliktologiya asoslari
- Verbal va noverbal muloqot
- Emotsional intellekt

Maxsus treninglar samaradorlikni oshiradi.

XULOSA

Ommaviy tartibsizliklar murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, ularning yuzaga kelishi individual ong darajasidagi o‘zgarishlar, guruh dinamikasi hamda ijtimoiy muhit omillari bilan uzviy bog‘liqdir. Ilmiy tadqiqotlar, xususan Gustave Le Bon,

Sigmund Freud va Philip Zimbardolarning ishlari shuni ko‘rsatadiki, omma ichida shaxsning individualligi pasayadi, emotsional ta’sirchanlik ortadi va javobgarlik hissi susayadi. Bu esa agressiv va irratsional xatti-harakatlarning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Shu bois ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishda faqat kuch ishlatish choralariga tayanish yetarli emas. Eng samarali yondashuv — psixologik ta’sir o‘tkazishning ilmiy asoslangan va tizimli taktikalarini qo‘llashdir. Bunday taktika profilaktik muloqot, ijtimoiy ishonchni mustahkamlash, liderlar bilan ishlash, muzokara olib borish, axborot siyosatini to‘g‘ri tashkil etish hamda emotsional fonni pasaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

Psixologik yondashuvning ustunligi shundaki, u nizoning ildiziga — inson ongiga va hissiyotiga ta’sir ko‘rsatadi. De-eskalatsiya tamoyiliga asoslangan harakatlar vaziyatni keskinlashtirmasdan barqarorlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining psixologik tayyorgarligi, stressga chidamliligi va kommunikativ kompetensiyasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, ommaviy tartibsizliklarni samarali bartaraf etish kompleks yondashuvni talab etadi. Huquqiy, tashkiliy va kuch ishlatish choralarini psixologik ta’sir strategiyalari bilan uyg‘unlashtirishgina ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, inson huquqlarini himoya qilish hamda jamiyatda o‘zaro ishonch muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Le Bon, G. *The Crowd: A Study of the Popular Mind*. 1895.
2. Freud, S. *Group Psychology and the Analysis of the Ego*. 1921.
3. Zimbardo, P. *The Lucifer Effect*. 2007.
4. Fisher, R., Ury, W. *Getting to Yes*. 1981.
5. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, 2008.
6. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami.
7. Konfliktologiya va ijtimoiy psixologiya bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar.

JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAHDID VA XAVF-XATARLARGA QARSHI KURASHISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

Kosimov M.X.
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy Xavfsizlik va Mudofaa Universitetining
Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti Umumiy taktika kafedrasi katta o‘qituvchisi,
podpolkovnik.

Zamonaviy sharoitlarda jamoat xavfsizligiga tahdid va xavf-xatarlarning yuzaga kelish sabablari va ularga qarshi kurashishni tashkil etish asoslari

So‘nggi yillarda yurtimizda inson huquq va erkinliklari, jumladan, so‘z erkinligini ta’minlash borasida juda katta islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Bu borada o‘nlab qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilinib, ijroga yo‘naltirildi. Axborot, undan foydalanish, tahlil qilish va tezkorlik bilan tarqatish imkoniyati zamonaviy jamiyatda inson kamolotining asosiy shartidir.

Yuqoridagi sabablarga ko‘ra, ommaviy axborot vositalari tezkorlik bilan rivojlanib, fuqarolarning axborotni izlash, olish va ularni tarqatish imkoniyatlari yanada kengaydi.

> “Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega”.
>
> O‘zbekiston Respublikasining Konstitutitsiyasi, 33-modda.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutitsiyasiga muvofiq “Fuqarolar o‘z ijtimoiy faolliklarini O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq mitinglar, yig‘ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar. Hokimiyat organlari faqat xavfsizlik nuqtai nazaridangina bunday tadbirlar o‘tkazilishini to‘xtatish yoki taqiqlash huquqiga ega”. Ushbu norma huquqiy-demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Shu bilan birgalikda, inson huquq va erkinliklari, jumladan, so‘z erkinligining ta’minlanishidan g‘araz niyatli shaxslar va guruhlar foydalanib qolishga harakat qiladilar. Xususan, davlat rahbariyati, mavjud siyosiy tuzumga qarshi tuhmat, bo‘hton, xalq

orasida jamiyatdagi katta-kichik muammolarni bo‘rttirib ko‘rsatish kabi usullar orqali odamlarga psixologik ta’sir o‘tkazishga harakat qilishlari tayin.

Yuqoridagilardan tashqari, shiddatli rivojlanish tendensiyalari kuzatilayotgan hozirgi davrda inson ehtiyojlarini qondirish byicha misli ko‘rilmagan natijalarga erishilmoqda. Birgina axborot-kommunikatsiya sohasi ҳам туб ўзгаришларга юз тутмоқда.

Keyingi 50 yilda axborot uzatish 300 ming marotaba tezlashgani, narxning esa ming barobar arzonlashganligi bu boradagi rivojlanishning amaliy ifodasidir.

Keyingi **50 yilda** axborot uzatish **300 ming** marotaba tezlashgani, narxning esa ming barobar arzonlashgan.

Albatta, mazkur tendensiya ilm-fan, iqtisodiyot, sanoat, ishlab chiqarish rivojlanishiga, yagona axborot makonining paydo bo‘lishiga xizmat qilish bilan birga, ma’lum bir g‘arazli maqsadlarni amalga oshirishda qulay vosita sifatida **jamoat xavfsizligiga real tahdidlarni** keltirib chiqarmoqda.

Mazkur rivojlanish tendensiyalaridan mamlakatimiz ham chetda qolayotgani yo‘q. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot uzatish va qabul qilish salohiyatimiz tubdan rivojlandi. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilariga foydali ma’lumotlar bilan birga, ularning ongiga, kayfiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi, amaldagi hokimiyatga qarshi fikrlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘luvchi axborotlar ham keng tarqalmoqda. Buning natijasida ko‘plab mamlakatlarda ommaviy tartibsizliklar kabi tang vaziyatlarni keltirib chiqarmoqda.

Fuqarolarga psixologik ta’sir qilish orqali jamoat xavfsizligiga tahdid va xavf-xatarlarni yuzaga keltirish turli ma’muriy huquqbuzarliklar yoki jinoyatlar sifatida namoyon bo‘ladi. **Jumladan:**

- milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovatni targ‘ib qiluvchi materiallarni tayyorlash, saqlash yoki tarqatish (MJtK 1843-moddasi);

- zo‘ravonlikni yoki shafqatsizlikni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, olib kirish, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish (MJtK 1891-moddasi) kabi ma’muriy huquqbuzarliklar, **Shuningdek:**

- ommaviy tartibsizliklar (JK 244-moddasi);

- jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga tahdid soladigan materiallarni tayyorlash, saqlash, tarqatish yoki namoyish etish (JK 2441-moddasi);

- diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish (JK 2442-moddasi);

- diniy mazmundagi materiallarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, saqlash, olib kirish yoki tarqatish (JK 2443-moddasi);

- karantinli va inson uchun xavfli bo‘lgan boshqa yuqumli kasalliklar tarqalishi haqida haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotlarni tarqatish (JK 2445-moddasi);

- yolg‘on axborot tarqatish (JK 2446-moddasi) kabi jinoyatlarni misol qilib keltirish mumkin.

Jamoat xavfsizligiga tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kurash kim tomonidan va qay tartibda amalga oshiriladi? Bu borada qanday psixologik metodlardan foydalanish mumkin?



Jamoat xavfsizligiga qarshi tahdid va xavf-xatarlar qayerlarda va qanday vositalar orqali yuzaga keladi?

- jamoat joylari, tashkilot va muassasalar, odamlar ko‘p to‘planadigan joylar (bozor, hiyobon, kafe, restoran, choyxona) kabi joylarda;

- internet tarmog‘ida;

- ommaviy axborot vositalarida va b. joy hamda vositalarda.

Ommaviy tadbirlar o‘tkazish vaqtida jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta’minlashda psixologik bilimlardan foydalanish

Ommaviy tartibsizliklarning ijtimoiy xavfli xususiyatlari, ularning yuz berishi jarayonida ushbu harakatlarning ishtirokchilari tomonidan boshqa bir qator og‘ir jinoyatlarni sodir etish bilan kechishi, fuqarolar hayotiga, sog‘lig‘iga va mol-mulklariga

jiddiy xavf solishi hamda boshqa Shu kabi bir qator og‘ir oqibatlarni keltirib chiqishi bilan yuz berishida namoyon bo‘ladi.

Ommaviy tartibsizliklarning eng xavfli tomoni Shundaki, ularning o‘z vaqtida oldi olinib bartaraf etilmasa, ular jamiyat hayotiga putur yetkazib, uni inqirozga yuz tutishiga olib keladi.

Ommaviy tadbir o‘tkazilayotgan obyekttda va uning atrofida turli xil favqulodda vaziyatlar kelib chiqishining oldini olish maqsadida, jamoat xavfsizligiga mas’ul huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan profilaktik tadbirlar o‘tkazilayotganda quyidagi psixologik bilimlarga ega bo‘lishlari maqsadga muvofiq:

- jamoat tartibini saqlash va xavfsizlikni ta’minlashga jalb etilgan xodimlarning tezkor vaziyatni doimiy ravishda kuzatishlari asosida Shubha uyg‘otuvchi va tez ekstaz holatga tushib qoluvchi shaxslarni aniqlash;

- jamoat tartibining buzilishiga olib keluvchi sabab va sharoitlarni aniqlash va uni bartaraf etish bo‘yicha o‘z vaqtida ommaviy tadbir ishtirokchilariga psixologik ta’sir choralarini ko‘rish;

- shubha uyg‘otuvchi va ekstaz holatga tushib qoluvchi shaxslarga psixologik ta’sir ko‘rsata olish (xodimlar tomonidan doimiy nazoratda ekanligini his qilib turishi);

- tezkor xodimlar tomonidan ommaviy tadbir ishtirokchilariga psixologik ta’sir ko‘rsatish maqsadida mish-mish gaplardan foydalanish;

- ommaviy tadbir ishtirokchilari orasidan Shubha uyg‘otuvchi shaxslarni olib chiqib ketishda obro‘sizlantirish usulidan foydalanish.

Ommaviy tadbirlar o‘tkazilayotganda ommaviy tartibsizlik vujudga kelishining oldini olishda huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari tomonidan psixologik bilimlarga ega bo‘lish, ayniqsa omma orasidan Shubhali shaxslarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ommaviy tartibsizliklar bu – shaxs xulq-atvorining qonun doirasidan chetga chiqishi va jamiyatda o‘rnatilgan tartib-qoida va qonunlarni bilib-bilmasdan ularga qarshi zid xatti-harakatlarni sodir etishidir Ommaviy tartibsizliklarning o‘z vaqtida oldi olinib bartaraf etilmasa, ular jamiyat hayotiga putur yetkazib, uni inqirozga yuz tutishiga **olib keladi.**

Binobarin, psixologik bilimlar natijasida huquqni muhofaza qilish organlarining fukarolarni va jamiyatni terrorchilik, qo‘poruvchilik xurujidan, barcha shakldagi ekstremizm, uyushgan jinoyatchilik kabi jinoyat ko‘rinishlaridan ishonchli ximoya qilishni ta’minlaydi.

Shu sababli har qanday xatti-harakatlar, ya’ni ommaviy ijtimoiy tartibsizliklar ijtimoiy qo‘rquv, vahima ostidagi delikvent xulq o‘zgarishlarini yuzaga keltiradi. Delikventlik – tartib, tarbiyaning izdan chiqishi, ya’ni tartibsizlik, tarbiyasizlik, konfromlilik (tashqi ta’sirlarga berilish), madaniyatsizlik kabi psixik kamchiliklarni namoyonetadi. Inson xulq-atvorida konformlik darajasining kuchayishi oqibatida noadekvat (nomunosib) xatti-harakatlar yuzaga keladi va tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik holatlari kuzatiladi. Natijada shaxs xatti-harakatlari-ning ma’lum ma’noda qolipdan chiqishi va jamiyatdagi mavjud qonunchilikka mos kelmaydigan, jamiyat uchun zid bo‘lgan xulq-atvor holatlari yuzaga keladi.

«Insonning ma’lum bir guruh yoki jamoa orasida bo‘lganida o‘ziga bo‘lgan ishonchi, irodaviy kuchining ortishini va intellektual ongining susayishini kuzatamiz. Aksariyat hollarda olomondagi odamda o‘z xatti-harakatiga nisbatan nazoratning yo‘qolganligini ko‘rish mumkin».

Turli ommaviy tartibsizliklar doimo huquqshunoslar, psixologlar va sotsiologlar diqqat-e’tiborida bo‘lgan. Ommaviy tartibsizliklar psixologiyasi haqida bir qator olimlar o‘z qarashlarini bayon etgan. Masalan, fransuz psixologi Le Bon Gyustavning fikriga ko‘ra, «insonning ma’lum bir guruh yoki jamoa orasida bo‘lganida o‘ziga bo‘lgan ishonchi, irodaviy kuchining ortishini va intellektual ongining susayishini kuzatamiz. Aksariyat hollarda olomondagi odamda o‘z xatti-harakatiga nisbatan nazoratning yo‘qolganligini ko‘rish mumkin».

Rus olimi F. N. Plevako insonlarning ommaviy tartibsizliklardagi xatti-harakatlarini psixologik jihatdan tahlil etgan va umumiy xulosaga kelgan. Muallifning fikricha, **ommaviy olomon – katta bir devor, undagi odamlar esa ushbu devor elementlaridir. Ular orasida bo‘lish, undagi instinkt belgilaridir.**Ommaviy tartibsizliklar orasidagi odamlar xatti-harakatlardagi zarur elementlardan biri unda liderning mavjudligidir.

Shu nuqtai nazardan «insonning jamoadan tashqari xatti-harakati» tuShunchasi ijtimoiy psixologiya va yuridik psixologiyada muhim ahamiyatga ega bo‘lib, inson xulq-atvorining ma’lum ma’noda huquqiy normadan chiqishi, unda inpulsiv (shartsiz refleks) harakatning namoyon bo‘lishi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, inson ruhiyatida kuchli qo‘zg‘alishni, hissiy muvozanatsizlikning ortishini va idrok etish ko‘lamining torayishini sezish mumkin.

Bu borada atoqli rus olimi M .I. Yenikeyevning «aksariyat jinoiy xatti-harakatlarning zamirida odamlarning ayrim ijtimoiy ko‘rinishlarga bo‘lgan dezadaptatsiyalashuvi (moslasha olmasligi) sabab bo‘ladi», degan fikrlarida qaysidir ma’noda haqiqat mavjud.

Olomonda inson axloqining o‘zgarishi va uni vujudga keltiruvchi omillar.

«Olomon» tushunchasi atama sifatida ijtimoiy psixologiyaga XIX asrning oxiri va XX asrning boshida yuz bergan ommaning qudratli inqilobiy ko‘tarilishi natijasida yuzaga kelgan.

Ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqaruvchi omillar mish-mish gaplar va olomon psixologiyasini o‘rganish bugungi kunda jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha mas’ul bo‘linmalar faoliyatidagi muhim muammolardan biri sanaladi. Shu sababli ushbu ijtimoiy-psixologik ko‘rinishlarga batafsil to‘xtalib o‘tish maksadga muvofiqdir.

O‘z tabiatiga ko‘ra olomon harakatdagi, Shuningdek, *tajovuzkor, qutqarilayotgan, manfaatparast, ekstatik* (masalan, pir, aytaylik mashhur jaz muxlislarining diniy mutaassibligi yoki aqlsizligi tufayli yuzaga keladigan olomon) turlarga bo‘linadi. Yuqorida keltirilgan tasnifning muallifi psixolog Y. A. Sherkovin ta’kidlaganidek, bunday ajratish shartlidir. Olomonning bir turi ayni vaqtda boshqasining jihatlariga ega bo‘lishi va yangi turiga aylanishi mumkin.

Olomonning eng muhim farqli jihati uni tashkil etuvchi odamlar tarkibining tasodifiyligi, jinsi, kasbi, millatining ahamiyati yo‘qligi.

Bunga ishonch hosil qilish uchun spirtli ichimlik iste’mol qilgan va bezorilik qilayotgan o‘smirlar olomoniga murojaat etishning o‘zi yetarli. Bunday olomon tarkibida uni jipslashtirish bo‘yicha faol harakat qiluvchi va sekin-asta uning xatti-harakatini yo‘naltiruvchi ***boshlovchilar*** ajralib turadi. Bunday toifadagi odamlar jamiyatda

o‘rnatilgan axloq qoidalarini qonunni tan olmaydigan, ular axloq jihatdan buzilgan odamlar yig‘indisidir. O‘z qadriyatlarini olomon harakatlarining yo‘nalishi bilan ***birday ko‘ruvchi*** olomon ishtirokchilari ulardan ajralib turadi. Masalan, ba’zan olomonning tajovuzkor harakatlari qaratilgan obyekttdan alamzada bo‘lib yurgan odamlar ham guruhiy tartibbuzarliklarga tortiladilar. Ular boshlovchi emas, ammo olomonning ta’sir doirasida qolib, unda faol ishtirok etadilar. Olomon ichida unga faqat o‘z «bebosh fe’lini» ko‘rsatib qo‘yish, o‘zining shafqatsizlikdan huzur qiladigan impulslarini chiqarish imkoniyati paydo bo‘lgani tufayligina olomonga qo‘shilgan ***tajovuzkor*** shaxslar ayniqsa katta xavf tug‘diradi. Eng og‘ir xatti-harakatlarni odatda ular sodir etadilar.

Olomon ishtirokchilari orasida halol, ammo ***adashganlari*** ham mavjud. Ular vaziyatni xato, adolat prinsipini noto‘g‘ri tuShunganligi tufayli olomonga qo‘shilib qoladilar. Bunday shaxslarning xulqini baholashda uning obyekttiv oqibatlarini va subyektiv jihatlarini farqlash zarur. Obyekttiv jihatdan u ommaviy tartibbuzarlik ishtirokchisi bo‘lib qoladi, subyektiv jihatdan esa u o‘zini jamiyatga qarshi unsur deb hisoblamaydi.

Ommaviy tartibbuzarlik sodir etayotgan olomonga, ***tasodifiy qo‘shilib qolganlar*** ham kiradi. Ular uncha darajada faollik ko‘rsatmaydilar, ularni, sport sharhlovchilar aytganlaridek, hayajonga soluvchi tomosha sifatidagi tartibbuzarlik o‘ziga jalb qiladi. Bu tomosha go‘yoki ularning bir xil va zerikarli, bema’ni tirikchiligiga qandaydir yangilik kiritadi. Olomonning xatti-harakatida umumiy kayfiyatga beriluvchan, stixiyali hodisalar hukmiga o‘zini qarshiliksiz berib yuboradigan o‘ta ta’sirchan odamlar ham ishtirok etadilar. Nihoyat, ommaviy tartibbuzar olomonga tashqaridan (ichki pozitsiyasi nuqtai nazaridan) kuzatib turadigan, voqealarning borishiga aralashmaydigan oddiygina ***tomoshabinlar*** ham kiradi. Biroq ularning hozir bo‘lishi ommaviylikni oshiradi va olomon stixiyasining odamlar xatti-harakatiga ta’sirini kuchaytiradi.

Demak, yuqorida ta’kidlanganidek, olomonning o‘ziga xos psixologik xususiyatlaridan biri tasodifiy shaxslarning mavjudligidir. Binobarin, ommaviy tartibbuzarliklarga qarshi kurash choralarini ko‘rishda buni inobatga olmaslik mumkin emas.

Olomon harakatining keyingi xususiyati odamlar ***xatti-harakatining bir xilligini belgilovchi*** ijtimoiy-psixologik hodisalarning o‘ziga xosligida namoyon bo‘ladi. Jamoada, ma’lumki, bir xildagi xatti-harakat ongli ravishda qo‘yilgan va barcha e’tirof etgan hamda ijobiy ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarning umumiyligi bilan ta’minlanadi. Olomon esa asosan odamlarning bunday umumiyligini norozilik obyekttiga qarshi qo‘yish evaziga yaratiladi. Psixolog B. F. Porshinev ta’kidlaganidek, olomonni uning «qarshiligi», «ularga» qarshiligi umumiylikka aylantiradi.

Olomonning keyingi xususiyati – unda, shartli ravishda,***hissiy rezonans*** deb atash mumkin bo‘lgan o‘ziga xos ijtimoiy psixologik hodisaning amal qilishi sanaladi.

Olomon shakllanishining ilk belgilaridan ommaviy tartibbuzarlik-kacha bir qancha bosqichlar bosib o‘tiladi.

Birinchi bosqich:*Bahonaning yuzaga kelishini* olomonni yig‘ilishi va ommaviy tartibbuzarliklarning boshlanishi deb hisoblash mumkin. Odamlarning e’tiborini tortgan va ular noto‘g‘ri talqin etgan har qanday voqea yoki dalil ana Shunday bahona bo‘lishi mumkin. Bahonalar nihoyatda xilma-xil bo‘lishi mumkin.

Ommaviy tartibbuzarlikning yetilishidagi **ikkinchi bosqichi** dastlabki ***xavotirli mish-mish gaplarning*** paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Tartibbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyat ushbu bosqichda ancha qiyinlashadi. Odamlar voqeaga nisbatan muayyan qarashni o‘zlash-tirishga ulgurgan bo‘ladilar va har qanday axborotni o‘zlarining yangliShuvlari orqali qabul qiladilar.

Uchinchi bosqichni shartli ravishda ***ongning o‘zgarishi*** deb atash mumkin. Darhol rad qilinmagan mish-mish gaplar tarqalishda davom etadi, katta o‘zgarishlarga uchraydi va odamlar ongida***“dushman obrazi”***ni paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi va «kar» qo‘zg‘alishni yuzaga keltiradi. Bu bosqich ham, avvalgi ikkita bosqich ham odamlarning – olomonning to‘planishidan avval keladi va unga olomon o‘zini psixologik jihatdan tayyorlaydi.

To‘rtinchi bosqich,*olomonning shakllanishi* bilan bog‘liq. Dastlab to‘plangan odamlar orasida o‘ziga xos***sirkulyar reyaksiya*** boshlanadi, ya’ni bundan keyin bir xildagi xatti-harakatga ruhiy asos yaratuvchi fikr va hissiyotlarning jadal almashinuvi

ro‘y beradi. So‘ngra aylanish jarayoni boshlanadi: hissiy qo‘zg‘alish kuchayadi, odamlar buning oqibatida zudlik bilan harakatga o‘tishga tayyor bo‘lib qoladilar. Aylanish jarayonida norozilik obyektti aniqlashadi, nafrat obrazi shakllanadi. Nihoyat, turli toifadagi shaxslarning faollaShuvi boshlanadi. Bu jarayonda, masalan, olomon yetakchisi amalga oshirayotgan qo‘shimcha rag‘batlantirish aylanish jarayonida shakllangan obrazga qarshi qaratilgan impulslarni yuzaga keltiradi.

Beshinchi bosqich olomonning ***g‘ayriijtimoiy xulqining rivojlanishi***, ya’ni ommaviy tartibbuzarliklarning o‘zidir. Tartib-buzarlikni boshlovchilar ig‘vosiga uchgan eng tajovuzkor shaxslar boshlab beradilar. So‘ngra, taqlid asosida, olomon yomon namunaga ergashadi, beboshlikni rivojlantiradi. Olomonning g‘ayriijtimoiy harakatlarining oldini olish va ularga chek qo‘yish uchun turli shakl va usullardan foydalaniladi. Ular uchun umumiy bo‘lgan jihat – olomon xulqining psixologik qonuniyatlarini chuqur bilish va aniq hisobga olish. Masalan, anonimlik hissi olomon ishtirokchilarini ongsiz harakatlarga undashidan quyidagicha foydalanishi mumkin. Olomon ancha katta bo‘lganida ovoz kuchaytirgich vositasi orqali uning aniq ishtirokchilariga murojaat etish to‘g‘ri bo‘ladi. Bu hol eng sog‘lom fikrlovchilarni o‘z harakatlarini anglashga undaydi, ularga o‘zini nazorat qilishdek yo‘qotgan hissiyotini qaytarishda va o‘z xatti-harakati uchun mas’uliyatni his qilishida yordam beradi.

> «Olomon yig‘ilganda millati, kasbi, tilidan qat’i nazar, ularda maqsad bitta bo‘ladi va ularning ongida to‘la fikrlash yo‘qoladi, hatto o‘lim ham ularga qo‘rqinchli emasdek ko‘rinadi».
>
> **LeBonGyustav**

Shu nuqtai nazardan **olomon**, *psixologik jihatdan kelib chiqishiga ko‘ra, maxsus, hech qanday insonlar tomonidan tashkil etilmagan odamlarning xatti harakatlari yig‘indisidir.*

Fransuz psixolog olimi Le Bon Gyustavning fikricha, **«olomon yig‘ilganda millati, kasbi, tilidan qat’i nazar, ularda maqsad bitta bo‘ladi va ularning ongida to‘la fikrlash yo‘qoladi, hatto o‘lim ham ularga qo‘rqinchli emasdek ko‘rinadi».**

Olomon psixologiyasini bilish jamoat xavfsizligini ta’minlashga mas’ul xodimlar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ommaviy tartibsizliklar, namoyishlar, mitinglar kabi salbiy holatlarning oldini olish va jamoat tartibini saqlashda qo‘l keladi.

Ommaviy tartibsizliklar, mitinglar va turli namoyishlar uyushmagan bir guruhning salbiy xatti-harakatlari asosida amalga oshiriladi. Olomonga qo‘shilgan shaxslar ongida taqlid qilishga kuchli moyillik, tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik va ijtimoiy javobgarlik hissining yo‘qligini kuzatish mumkin. Shu sababli olomon ayrim g‘arazli, ig‘vogar shaxslar uchun obyekttni yo‘q qiluvchi qurolga aylanadi.

Olomon o‘zi xarakteriga ko‘ra agressiv (ashaddiy) bo‘lishi mumkin, ashaddiy mish-mishlar ommaviy tartibbuzarliklarni yuzaga keltiradi.

Olomon psixologiyasida meniki va ularniki degan fikr albatta mavjud. Ya’ni olomon vaziyatni murakkablashtiruvchi va o‘ziga xos tezlashtiruvchi generatordir. Misol sifatida 2006 yili Ispaniyada, 2007 yil Pokistonda bo‘lgan xalqaro mitinglardagi olomonni keltirish mumkin. Olomon psixologiyasida ma’lum o‘zgarishlar ro‘y beradi, bu o‘zgarishlar nimalarda sodir bo‘lishini ko‘rish mumkin.

Ommaviy tartibsizlikning yuzaga kelish psixologiyasi quyidagi ko‘rinishga ega:

1) olomonda ko‘rish va eshitish orqali kuchli emotsional holat yuzaga keladi;

2) o‘zining xatti-harakatlariga javob berish ular uchun oxirgi o‘ringa o‘tadi;

3) o‘zida qo‘shimcha kuch va ongida o‘zgarish sezadi.

Olomon, sodir bo‘lgan voqeaga qarab, quyidagi turlarga bo‘linadi.

1) to‘satdan yuzaga kelgan olomon;

2) ekspressiv olomon;

3) konvensial olomon.

To‘satdan yuzaga kelgan olomon turi, bu birdan to‘planib yuzaga keladi, birdan voqea hodisaning mohiyatini tushinishni xoxlaydi.

ekspressiv olomonga turiga to‘y-hasham, xudoyi, janozalardagi olomon – xalq taaluqli.

Konvensial olomonga ommaviy sport tadbirlari, masalan, futbol uchraShuvlariga yig‘ilgan odamlar kiradi. Ushbu toifadagi olomonning o‘ziga xosligi Shundaki, ko‘p hollarda ularning axloqi o‘rnatilgan tartibdan chiqib ketadi. Bu ularning baqiriqlari, qayg‘urishlari, quvonganlarida ko‘rinadi.

Shuningdek, vahima, qo‘rquv va sarosimaga solish olomonning asosiy vazifalaridan bo‘lib, bunday holatlarda shaxslarning xatti-harakatida o‘zini o‘zi boshqarish oxirgi o‘ringa turishini, javobgarlik hissining yo‘qolishini kuzatish mumkin.

Vahima, sarosima, qo‘rquv asosan ikki turga bo‘linadi:

– qaltis vaziyatlarda qo‘rqish natijasida o‘lim xavfini his etish;

– to‘satdan yuzaga kelgan xavotirlanishdan so‘ng kuchli zo‘riqish, asab tizimining buzilishi, diqqatning xavotir predmetiga yo‘nalganligi.

Jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha mas’ul xodimlar ommaviy tartibsizliklarni oldini olishda quyidagilar omillarni hisobga olish zarur:

- xodimlar vujudga kelishi mumkin bo‘lgan bunday salbiy hodisalarning oldini olish maqsadida joylarda oldindan profilaktik chora-tadbirlarni qo‘llashlari lozim.

- Ommaviy tartibsizliklar paytida ommani tarqatish uchun uni kichik guruhlarga ajratish, olomondagi ashaddiy ishtirokchilarni topish va ularni jazolash muhim ahamiyat kasb etadi.

- Olomondagi jamiyatga qarshi harakatlarning oldini olishda ichki ishlar idoralari xodimlari ijtimoiy psixologiya va uning qonuniyatlarini yaxshi bilishlari, ya’ni ijtimoiy jarayonlar, jamoa va guruhlarining psixologik xususiyatlarini, ularni harakatga keltiruvchi psixologik mexanizmlarni hisobga olishlari muhim ahamiyatga egadir.

- Jamiyatdagi ma’naviy-ruhiy muhitni o‘rganishlari, ijtimoiy psixologik munosabatlar tizimida jamoa va guruhlarning o‘rnini bilishlari zarur.

- Ommaviy tartibsizliklarning oldini olishda ichki ishlar idoralari xodimlari olomondagi odamlarning diqqatini o‘ziga tortishlari zarur, diqqat e’tiborni jalb qilish uchun esa diqqatni tortadigan etnik va ko‘rgazmali vositalar, dalillarni qo‘llash zarur.

- Ommaviy tartibsizliklarni keltirib chiqaruvchi, tajavuzkor kayfiyatda bo‘lgan shaxslarni aniqlash, ularni ajratib olish maqsadga muvofiqdir.

Ommaviy tartibsizliklarga qarshi kurashish uchun:

– ommaviy axborot vositalari orqali mish-mish gaplar haqidagi ma’lumotlarga aniqlik kiritish hamda mazmun-mohiyatini ochib berish;

– mish-mish gaplarning tarqalish hududini kuzatish va o‘sha hududda profilaktik ishlarni tashkil etish;

– jamoatchilikka mish-mishlar bilan bog‘liq masalalarni to‘g‘ri tuShuntirish va aniq axborotlar berish;

– mish-mish gaplarning oldini olish va unga qarshi kurashishda jamoatchilik kuchlaridan foydalanish lozim.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, Shunday xulosalarga kelish mumkin:

– Ommaviy tartibsizliklar ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, jamoat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha mas’ul xodimlar ishini qiyinlashtiradi, jamoatchilik ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi;

– Ommaviy tartibsizliklar o‘z kuchi, mazmuni, xarakteridan kelib chiqqan holda odamlarda kuchli emotsional hissiyotlarni yuzaga keltiradi;

– Ommaviy tartibsizliklarni sodir etishning asosiy maqsadi shaxslarning guruhlar, jamoalar, odamlar orasida sarosima, zo‘riqish holatlarini yuzaga keltirish iboratdir.

Jamoat xavfsizligiga tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kurashishda qanday psixologik usul va vositalardan foydalanish lozim?

– dalilga qarshi dalillarni qo‘llash usuli;

Jaloliddin Rumiyning “Ichingdagi ichingdadur” (“Fiyhi ma fiyhi”) kitobidan (U.Hamdam tarjimasi, T.:, “Yozuvchi”, 1997, 58-bet): Payg‘ambar: “Biz kichik urushdan katta urushga o‘tdik” (Hadis), — deydi. Ya’ni, “biz suratlar bilan jang qilayotgandik, endi esa tuShunchalar qo‘shinlari bilan olishmoqdamiz. Ezgu tuShunchalar yovuz tuShunchalar o‘rnini egallashi uchun kurashmoqdamiz, demakdir. Aslida, eng buyuk jang va kurash Shu emasmi? Demak, mehnat qilgan, ishlagan tuShunchalardir. Ular o‘rtada vujud bo‘lmasa ham faoliyatda bo‘la oladilar. Chunonchi, eng faol aql hech qanday vositasiz falakni aylantirmoqda, bizga, olatga muhtoj emasligini isbot etmoqda.

– axborotni birinchi qo‘ldan olish va hodisa sodir bo‘lgan joyga jalb etilgan guruh vakillari bilan suhbatlashish;

– manipulyatorlarni fosh etish va ular tomonidan ilgari surilayotgan qarashlarni tahlil qilish;

– ijtimoiy tarmoqlar va turli nashrlardagi guruhlarning harakatini tahlil qilish;

– Profayling metodidan unumli foydalanish.

Profayling metodi hozirgi kunda psixologiya sohasining yangi rivojlanib kelayotgan qiziqarli hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan tarmog‘idan biridir.

Profayling metodi yordamida xodim psixologiya qonuniyatlariga tayangan holda shaxsl g‘araro munosabatga kirishadi. Profayling jarayonida xodimning bilish sifatlari (xotira, diqqat, idrok, sezgi, tafakkur, xayol) ishtirok etadi. Bu jarayonlar xodimning mantiqiy fikrlashiga, holatni o‘tmishdagi vaziyat bilan bog‘lashiga, o‘zaro solishtirish va qiyoslash malakasi, obyektti va sharoitini mukammal tarzda idrok etishiga yordam beradi.

«Profayling» inglizcha «profile» – profil, qiyofa ma’nosini anglatadi.

Profayling – shaxsning noverbal xatti-harakatlari va o‘ziga xos xususiyatlarini baholash orqali uning harakatlarini haqqoniy baholash, bashorat qilish metodikasi.

Profayling yoki *profayl metodi* –shaxslarni psixologik baholash, kuzatish, ularning xulqidagi o‘zgarishlarni tashqi ifoda va xatti-harakatlar asosida tahlil qilish kabi bir necha psixologik usullardan foydalangan holda oldindan bashorat qilish imkonini beradigan shaxs profilini yaratish usulidir.

Profayling bilan Shug‘ullanuvchi shaxslar, odatda, profaylerlar deb yuritiladi. Profaylerning o‘rganish obyektti sifatida quyidagilarni e’tirof etish mumkin:

– mimika;

– jestlar;

– xatti-harakatlarning o‘ziga xos xususiyatlari;

– nutqning psixolingvistik qonuniyatlari;

– verbal muloqotning paralingvistik alomatlari va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: 2017 y.

2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. T.: 22.09.1994.

3. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi. 22.09.1994.

4. Yenikeyev M. I. Yuridicheskaya psixologiya. – SPb., 2005. – S. 65.

5. Plevako F.N. Izbranniye rechi. – M., 1993. – S. 74.

6. Sherkovin Y. A. Sotsialnaya psixologiya. – M., 2005. – S. 37.

HARBIY TA’LIMDA “SOFT SKILLS” KO‘NIKMANI RIVOJLANTIRISHDA STRESS HOLATLARINI DIAGNOSTIKASI VA KORREKSIYASI

Soxiboyev Zoyirjon Erkinovich
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdag qo‘shinlar instituti Ofitser kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish markazi boshlig‘i o‘rinbosari dotsent, podpolkovnik

Mirabdullayev Dilshod Xamidjanovich
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti Umumiy taktika kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy harbiy ta’lim muassasalaridagi pedagog hodimlarning kasbiy stress, zo‘riqish, kasbiy kuyish, hamda odatiy stress va boshqa stress turlarini tashxislash, hamda “Soft skills” ko‘nikmani rivojlantirishda ular bilan olib boriladigan korreksion ishlar haqida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Zo‘riqish, stress, meeditatsiya, ishonch munosabatlari, hissiyot, kasbiy faoliyat, xulq-atvor, trening, faollashtiruvchi mashg‘ulotlar, kasbiy charchoq, relaksatsiya, ruhiy sog‘lomlik, ichki hotirjamlik.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish sharoitida inson hayoti va faoliyati unga salbiy ta’sir ko‘rsatishi bilan uzviy bog‘liqlikning paydo bo‘lishi, rivojlanishi bilan birga keladigan ekologik, ijtimoiy, kasbiy va boshqa omillar salbiy his-tuyg‘ular, kuchli his-tuyg‘ular, shuningdek, jismoniy va aqliy funksiyalarning haddan tashqari kuchlanishi - ong ostida rivojlanadigan xarakterli ruhiy holat ekstremal hayot sharoitlarining ta’siri stressdir.

Yuqoridagilarni hisobga olib, pedagog hodimlarda stressga barqarorlik, sog‘lom ruhiyatni shakllantirish, ruhiy taranglikni vaqtinchalik bo‘lsa ham yengish, o‘z-o‘zini relaksatsiya qilishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish mavzuyimizni dolzarbligini ko‘rsatib beradi.

Quyidagi mashqlar mazkur vazifalarni bajarishdagi kichik bir metodika sifatida keltirib o‘tamiz.

Asosiy qism

Stress-bu hayot sifatini himoya qilish, saqlash va yaxshilash uchun normal va tabiiy javob reaksiyasi, u sizning e’tiboringizni tahdidli vaziyatga qaratib boshqa barcha fikrlar va hayollarni darxol to‘sib qo‘yadi.

Vaziyatni baholash va qaror qabul qilish uchun zarur energiyani yetkazib beradi. Taxdidni bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan harakatlarga tayyorlaydi.

Stress turlari ikki xil bo‘ladi:

Ijobiy stress;

Salbiy stress.

Psixologik stressni vaziyatni bartaraf etishga yo‘naltirilgan, ratsional xulq atvor sifatida qaraladi. Stressni o‘rganish psixologik va pedagogik fan va amaliyotda engmashhur mavzulardan biriga aylangan. Bu masalaning dolzarbligi aniq. Hech shubha yo‘qki, zamonaviy hayotning tobora kuchayib borayotgan intensivligi va keskinligi psixologik darajada salbiy hissiy tajribalar, reaksiyalar paydo bo‘lish chastotasining ortishida namoyon bo‘ladi hamda aniq va uzoq muddatli stressli holatlarning shakllanishiga olib keladi.

O‘z navbatida, bu stress bilan bog‘liq bir qator kasalliklar **“Asab kasalliklari”** ni rivojlanish xavfini oshiradi. Bugungi kunda ish bilan bog‘liq stressga qiziqish ortib bormoqda. Buning sababi shundaki, professional stress ish samaradorligini, qobiliyatni buzishi, inson resurslarini yo‘qotishiga olib kelishi mumkin.

Ijtimoiy-madaniy sharoitda stress omillari ko‘pincha murakkab sharoitlarni keltirib chiqaradi, ularning oqibatlari kasbiy faoliyatda, shu jumladan pedagog faoliyatida to‘siqlarni keltirib chiqaradi. Psixologik va pedagogik muhitning sog‘lom bo‘lishi va har qanday xolatda ham pedagoglar jamoasidagi ruhiy hotirjamlikni ta’minlash hamda psixologik muhitni yaxshilashda psixologlarning hizmati kerak bo‘ladi. Atrof-muhitning ifloslanishi, jismoniy stress, oilaviy muammolar yoki o‘lim haqidagi xabarlar, ba’zi ota-onalarning noo‘rin e’tirozlari stressli holatlarni keltirib chiqarishi aniq.

Stress so‘zi “bosim” degan ma’noni anglatadi. Stress nafaqat ish va oiladagi ortiqcha yuk, balki bu ruhiy holat, dunyoni idrok etish va unda harakat qilish usulidir.

Stress har doim ta’sir qilish natijasida yuzaga keladigan holat bo‘lib, uni ma’lum vaqt ichida nazorat qilib bo‘lmaydi.

Stress – tananing qarshiligini oshiradi, himoya mexanizmlarini o‘rgatadi. Stress nafaqat og‘ir azob-uqubatlarning paydo bo‘lishiga, balki katta quvonchga ham hissa qo‘shishi mumkin. Bu holat insonni ijod cho‘qqilariga olib chiqishi mumkin. Shunday ekan, stressli vaziyatlardan chiqib ketishda pedagogda mavjud bo‘lgan optimizm va pessimizm hususiyatlarining ahamiyati psixologik jihatdan juda muhimdir. O‘rta asrlarda yashagan sharqning mashhur, qomusiy olimi Abu Ali ibn Sino inson salomatligi uchun birinchi navbatda, “O‘z hissiyotlarini boshqara olish, osoyishtalik” muhim ekanligini o‘z asarlarida takror-takror ko‘rsatib o‘tgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlaridan ilm-fan va texnikada inqilobiy o‘zgarishlar natijasida ishlab chiqarishda, sanoatda, shu bilan birga, inson hayotida buyuk o‘zgarishlar davri boshlangan. Bu o‘zgarishlar yangi shaharlarning paydo bo‘lishi, zavod-fabrikalarning qurilishi, inson hayoti va faoliyatining tezlashuvi, odamlarning zich yashashi bilan bog‘liqdir. O‘zlikni anglash va o‘zi uchun javobgarlikni zimmasiga olish – murakkab va qiyin jarayon. Vaholonki, qadimiy Gresiyada eng katta ibodatxonaning peshtoqiga “Inson o‘zingni-o‘zing angla”, – deb yozib qo‘yilganiga ikki ming yildan oshdi. O‘zi uchun mas’uliyatni zimmasiga olmaslik, o‘zini anglashdan qochish shaxsning turmushida, sog‘liq salomatligida, ruhiy va asab tizimida muammo stressb xavotirlanish, turli kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Ko‘pchilik odamlar hayoti davomida bo‘layotgan ziddiyatli vaziyatlarda va kutilmagan holatlarda xatti-harakatlardan ruhiy siqilish (depressiya)ni yoki **“psixologik yonish”** “stress”ni o‘zidan o‘tkazadi. Bunday qiyin vaziyatda qolgan odam o‘zini har xil narsalar bilan chalg‘itishadi. Ko‘pchilik ruhiy taranglikdan chiqib ketish yo‘llarini bilmaydi. Surunkali ruhiy taranglik esa sog‘lik uchun juda xavfli va psixosomatik kasalliklarning sababchisi hisoblanadi. Ruhiy taranglikni vaqtinchalik bo‘lsa ham yengishga, sog‘lomlashtirish o‘z-o‘zini korreksiya qilish usullari ushbu maqolada bilib olishingiz mumkin. Stressni oldini olish uchun eng sodda va eng qulay usullarini bilib oling, va bu siz uchun odatga aylansin.

Ushbu mashqlarni bajarish orqali siz ichki hotirjamlik va ruhiy muvozanatni o‘rnata olasiz. 1. Nafas mashqlari; 2. Musiqa tinglang; 3. Sayr qiling; 4. Yaxshi ko‘rgan taomingizni istemol qiling; 5. Yaqinlaringiz davrasida ko‘proq vaqt o‘tkazing.

XULOSA

Ta’lim tizimi avvalo insonda o‘z ustida doimiy ishlash, zamon bilan hamnafas ravishda rivojlanishni talab etadi. Ta’lim jarayoni har-bir davrda o‘zining ustuvorligi, dolzarbligi bilan muhimdir. Muhim ta’lim tizimi esa mukammal kasb mahoratiga ega bo‘lgan pedagogni talab etadi. Bugungi texnik taraqqiyot davrida yashayotgan kursantlarning ham pedagoglarga bo‘lgan talabi oshib bormoqda. Agar pedagog kasb mahorati bilan bir qatorda yangi zamonaviy bilimlarni egallamas ekan, shogirdlari, kursantlari oldida obro‘siz, keraksiz buyumga aylanib qolishi kundek ravshan.

Pedagog o‘z prinsipiga ega bo‘lib, yetarli darajada bilimga ega bo‘lsagina, shogirdlari yonida hurmatga ega bo‘ladi. Biz yoshlarga maqsad qo‘yishni va shaxsiy rejamiz bo‘lishligini tavsiya qilib beramiz. Vaholanki, buni zaminida o‘zimizda shunda sifatlar shakllangan bo‘lishi kerak. Prinsipga ega bo‘lmagan pedagog sinfda kursantlarni tinglash, ularning diqqatini jalb qilish, yangi bilim berish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Sababi, qadamlarimiz ishonchli, so‘zlarimiz qudratli bo‘lishi uchun biz o‘z ustimizda ishlagano‘rnida shuni ta’kidlash joizki o‘zingiz va sizni o‘rab turgan olam bilan o‘zaro munosabatlarni yaxshilash o‘z qo‘lingizda. Sog‘ligingizga e’tiborli bo‘ling.

Bo‘sh vaqtingizda jismoniy mashqlar qiling, kitob mutola qiling, musiqa tinglang, oila davrasida ko‘proq bo‘ling, o‘zingiz yoqtirgan ishlar bilan shug‘ullaning. Hamkasblar, oila, do‘stlar yoki siz muhim deb hisoblagan boshqa odamlar bilan o‘z his tuyg‘ularingizni va reaksiyalaringizni muhokama qiling.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Slovar’, Psixologiya, Siyosiy adabiyot nashriyoti - Moskva, 1990 yil 2. Ensiklopediya. Umumiy va ijtimoiy psixologiya, M.I.Enikeev, PRIOR nashriyoti - Moskva, 2002.

3. Umumiy psixologiya, A.V.Petrovskiy, “O‘qituvchi nashriyoti” – Toshkent, 1975.

4. V. Noskov, Rivojlanish psixologiyasi va yosh davr psixologiyasi, Vladivostok, 2003.

5. Sh.A.Do‘stmuxammedova “Kursantlarda o‘quv faoliyatini boshqarish psixologiyasi” -Toshkent 2000-yil

6. J.G.Yuldoshev Ta’lim yangilanish yo‘lida. Toshkent 2000-yil

7. D.I.Mustafaqulova. Darslarda muammoli o‘qitish texnologiyasi Ta’lim texnologiyalari 2016. Toshkent.

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING AXLOQIY-RUHIY TAYYORGARLIGINI PSIXOLOGIK QO‘LLAB-QUVVATLASH TIZIMI

Xizmat psixologiyasi va kasbiy madaniyati kafedrasi
boshlig‘ining o‘rinbosari, dotsent
Farfiyev Yoqubjon Atxamdjonovich

Annotatsiya: maqolada ichki ishlar organlari xodimlari axloqiy-ruhiy tayyorgarligining maqsadi, vazifasi va xodimlarning axloqiy tayyorgarlik dajarasini yanada yuksaltirishga xizmat qiladigan shaxsiy-kabiy fazilatlar hamda axloqiy-ruhiy jihatdan muhim ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish yuzasidan tavsiyalar yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: vatanparvarlik, axloq, kasbga sadoqat, shaxs, kompetensiya, axloqiy-ruhiy, hissiy-irodaviy xususiyatlar, psixologik aloqa o‘rnatish, rivojlangan irodaviy xislatlar.

Mamlakatimizda ichki ishlar tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar har qanday sharoitda davlat va xalq manfaatlariga xizmat qiladigan, Vatan himoyasi, yurt tinchligi hamda davlat kelajagi uchun jonkuyar, olijanob, o‘z xizmat burchini sidqidildan bajaradigan fidoyi, milliy qadriyatlarga sodiq, umuminsoniy qadriyatlarga tayanadigan, yot va buzg‘unchi g‘oyalarga murosasiz kurashuvchi, iymon-e’tiqodi va irodasi mustahkam, ma’naviyatli, xalqimizning xavfsizligini ta’minlashda shaxsiy daxldorlik va yuqori mas’uliyatli xodimlarni tarbiyalab yetishtirish vazifasini qo‘ymoqda. Chunki

bugungi murakkab sharoitda ichki ishlar organlari xodimlarining xalq oldidagi nufuzini ko‘tarish, unga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash bevosita ana shu islohotlar samarasiga bog‘liq. [1, 311-312].

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida quyidagi fikrlarni ta’kidlab o‘tganlar: “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan ta’lim va ma’rifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka da’vat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli bo‘lishga undaydi” deb ta’kidlaganlar [2, 27-28].

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatining samaradorligini ta’minlovchi omillar sirasiga faoliyatning psixologik jihatlari va o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, tahlil qilish, shu orqali bu faoliyatni takomillashtirishning psixologik mexanizmlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish davr talabidir.

Ichki ishlar organlari xodimlarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligi uning o‘ziga yuklatilgan xizmat vazifalarini qay tarzda amalga oshirishlarida namoyon bo‘ladi. Xodimning ahloqiy-ruhiy jihatdan yetarlicha tayyorgarlikka ega emasligi uning kasb mahorati va faoliyatida yaqqol namoyon bo‘lib qoladi. Lozim darajadagi ahloqiy-ruhiy tayyorgarlikning yo‘qligi – inson beparvoligining muhim sabablaridan biri, toshbag‘irlik, rasmiyatchilik, hokimiyatni suiiste’mol qilish, qonuniylikni buzish va jiddiy kasbiy buzilishlarga olib keladi. [2, 35-36].

Shundan kelib chiqqan holda, bugungi kunda ichki ishlar tizimida olib borilayotgan islohotlarda xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, ularning kasbiy faoliyatida uchraydigan xizmat qiyinchiliklarini yengishda axloqiy-ruhiy jihatdan tayyorgarlik sifatini oshirish muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarini axloqiy-ruhiy jihatdan tayyorlashdan ko‘zlangan *maqsad* xodimlarda axloqiy-ruhiy, hissiy- irodaviy xususiyatlarni shakllantirish, tezkor hamda favqulodda vaziyatlarda harakatlanishda ularni qat’iyatli, hissiy turg‘unlik, tez qaror qabul qilish, vaziyatni boshqarish hamda nazorat qilishga maqsadli tayyorlash, xodimlarni turli vaziyatlarda o‘ziga ishonchi va boshqaruvchanligini hamda huquqbuzar

(jinoyatchi)lar oldida ruhiy ustuvorligini ta’minlashda kasbiy muhim sifatlarini rivojlantirish, har qanday murakkab sharoitlarda kasbiy jihatdan to‘g‘ri, aniq, yuqori ishchanlik bilan harakatlanish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Axloqiy-ruhiy tayyorgarlikning asosiy *vazifalari* vatanparvarlik, kasbiy burchga sadoqat, jamiyat oldida mas’ullik, milliy iftixor, adolatparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, xodimlarning xizmat faoliyati mobaynida turli psixologik baryerlarni bartaraf etish, yuzaga kelishi mumkin stress omillar va ularning ta’siriga psixologik chidamliligini oshirish, xodimlarda psixologik xislatlarni rivojlantirish, har qanday vazifani xizmat faoliyatining turli murakkab va xavfli sharoitlarida ham muvaf-faqiyatli bajarishlariga yordam beruvchi uquv va ko‘nikmalarning o‘ziga xos jihatlarini shakllantirishdan iborat.

Axloq – insoniyat kamolotining sarchashmalaridan biri. Har bir inson u orqali o‘zining jamiyatdagi o‘rnini anglaydi, hayotining mazmunini belgilab oladi. Shuning uchun ham axloq masalasi qadim-qadim zamonlardan buyon donishmandlar, jamoat va davlat arboblari, qolaversa, davlatning diqqat markazida bo‘lib kelgan. Chunki axloqiy munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymasdan, kasb axloqi madaniyatini shakllantirmasdan turib, hech bir jamiyat ko‘zlagan maqsadlariga erisha olmaydi.

Vatanparvarlik- kishining o‘zi tug‘ilib o‘sgan, kamol topgan joy, zamin, o‘lkaga bo‘lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma’naviy ahloqiy xislatlari, fazilatlaridir.

Ichki ishlar organ xodimlarining axloqiy tayyorgarlik dajarasini yanada yuksaltirish maqsadida xodimlarda quyidagi fazilatlarni shakllantirish talab etiladi:

– Vatan va xalq manfaatlariga xizmat qilish sharafli va muqaddas burch ekanini anglash;

– davlatimiz va ichki ishlar organlarining timsollari bilan faxrlanib, qasamyodiga sodiq bo‘lish;

– kasbiy burchini bajarishda qonuniylikka qat’iy rioya etish, xalqning ularga bo‘lgan ishonchi va hurmat hissini yuksaltirish;

– o‘zaro munosabat vaqtida paydo bo‘ladigan g‘amxo‘rlik, ishonch, hurmat, samimiyat, rahmdillik hissiyotlarini oshirish va x.z.

Amalga oshirilayotgan islohotlar har bir xodimdan yuksak madaniyatli, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lishni, murakkab sharoitlarda davlat manfaatlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qila olishni, jinoyatchilikka qarshi kurashda zarur bo‘lgan ahloqiy-ruhiy ko‘nikmalarini shakllantirishni talab etadi. Bu ko‘nikmalarni shakllantirishda ularga, albatta axloqiy va psixologik bilimlar juda ham zarur bo‘lib xisoblanadi. Chunki, bu bilimlar asosida inson o‘zida ruhiy barqarorlik ko‘nikmalarini, xususiyatlarini shakllantiradi.

Ruhiy barqarorlik xodimlarning amaliy faoliyatlarida psixologik jihatdan murakkab, hissiy jihatdan tarang, xavfli, qaltis va mas’uliyatli vaziyatlarda xotirjam va ishonch bilan harakat qilish qobiliyatlarida namoyon bo‘lib, ularga o‘z xizmat vazifalarini bekamuko‘st bajarishlariga yordam beradi.

Ichki ishlar organ xodimlarining faoliyati o‘zining nihoyatda murakkabligi, mashaqqatliligi va mas’uliyatliligi bilan boshqa faoliyat turlaridan tubdan farq qiladi. Umumharbiy nizomlarda hamda boshliq va rahbarlarning buyruq va ko‘rsatmalarida belgilab qo‘yilgan kundalik qat’iy talablar, muayyan tartib-qoidaga asoslangan ish faoliyati, bo‘ysunishga majburlik hissi, kuchaytirilgan tartibdagi xizmatni o‘tash kunlari, javobgarlik hissining yuqoriligi, turli ob-havo sharoitlarida xizmat olib borish, sutkalik navbatchilik va boshqa jangovar xizmat vazifalarini o‘tash vaqtidagi doimiy ruhiy hamda jismoniy zo‘riqishlar xodimlarning ruhiyatiga, jismoniy salomatligiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Bu jarayon uzoq davom etadigan bo‘lsa, oxir-oqibatda ularning ayrimlarida ruhiy barqarorlikning izdan chiqishiga sababchi bo‘lishi mumkin.

Bu o‘z navbatida axloqiy-ruhiy tayyorgarlik darajasini yanada yuksaltirish orqali xodimning kasb mahoratini keskin oshirish talabini qo‘ymoqda. Ilmiy tadqiqotlar va mavjud ijobiy tajriba kasbiy ta’lim tizimiga axloqiy-ruhiy tayyorgarlikni maqsadga yo‘nalgan tarzda amalga oshirib borishning maxsus vazifalari, shakl va usullarini kiritish zarurligini ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda axloqiy-ruhiy tayyorgarlik – ichki ishlar organ-lari kasb tayyorgarligining muhim tarkibiy qismidir. “Shaxsiy tarkib sifati uning kasbiy mahorati darajasi, axloqiy-ruhiy darajasi, jismoniy tayyorgarligi va intizomi bilan belgilanadi”. [3, 128].

Xodimlar ruhiy tayyorgarligining mazmuniga quyidagilarni kiritish mumkin:

– xizmat faoliyatini tashkil etishda kasbiy-psixologik bilimlarni samarali qo‘llash bo‘yicha ko‘nikma va malakalarini yanada takomillashtirish;

– jinoyatchilikka qarshi kurashga psixologik jihatdan tayyor bo‘lish xislatlarini shakllantirish;

– kasbiy jihatdan muhim bo‘lgan bilish xislatlarini shakllantirish va rivojlantirish;

– turli toifadagi fuqarolar bilan psixologik aloqa o‘rnatish, profayling metodikalaridan samarali foydalanish va rivojlantirish;

– xizmat faoliyatining turli vaziyatlarida rolga kirishish ko‘nikmalarini ta’minlash;

– fuqarolar bilan muloqotga kirishning murakkab, nizoli vaziyatlarda ta’sir etishning psixologik-pedagogik usullarini qo‘llash mahoratini shakllantirish;

– shaxsning ijobiy hissiy-irodaviy xislatlarini rivojlantirish, xodimlarga o‘zini tutish va boshqarish usullarini o‘rgatish;

– irodaviy faollikni va irodaviy harakat ko‘nikmalarini shakllantirish;

– xizmat faoliyat mobaynida yuzaga keladigan ruhiy zo‘riqishlarga bardoshlilikni shakllantirish va x.z. [4, 284].

Bundan tashqari xodimlar shart-sharoitlari aniq bo‘lmagan, qaror va topshiriqlar o‘zgarib turadigan vazifalarni bajarishlarida ko‘pincha uylaridan, oilalaridan yiroqda faoliyat yuritishlariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi muammolar ko‘lamining kengligi, ichki ishlar organlariga qo‘yilayotgan talablarning dolzarbligi, keng qamrovli, faoliyatda nizoli, ziddiyatli vaziyatlarning sodir bo‘lish ehtimolining yuqoriligi, yaqinlarining xavfsizligi va sog‘lig‘i uchun doimiy xavotir hissining mavjudligi, albatta ularning ruhiyatiga o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Bu esa o‘z navbatida ularning psixologiya tili bilan aytadigan bo‘lsak, stress (asabiylik, kuchli hayajon) va ayrim hollarda esa affekt (jazava) holatlarini boshlaridan kechirishlariga sababchi bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun kasbiy faoliyat davomida xodimda *axloqiy-ruhiy jihatdan muhim ko‘nikmalarni rivojlantirish tavsiya etiladi, ular:*

– xodimlarning ongu tafakkuriga Vatan va xalq manfaatlariga xizmat qilish sharafli va muqaddas burch ekanini anglash;

– qasamyodiga sodiq bo‘lish hamda kasbiy burchini bajarishda qonuniylikka qat’iy rioya etish;

– Vatan va xalq taqdiriga, davlatimiz hamda islohotlar talablariga daxldorligik xissini yanada oshirish;

– ichki va tashqi ma’naviy tahdidlar hamda korrupsiyaga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

– rivojlangan irodaviy xislatlar: murakkab vaziyatlarda o‘zini tuta bilish, jasurlik, mardlik, oqilona tavakkalga moyillikni oshirish;

– kommunikativ xislatlar, turli toifadagi kishilar bilan tezda aloqaga kirisha olish, ishonchli munosabatlar o‘rnata olish qo‘nikmasini shakllantirish;

– rivojlangan, kasbiy jihatdan muhim bilish xislatlari: kuzatuvchanlik va diqqatlilik, rivojlangan xotira, ijodiy tasavvurni oshirish;

– rivojlangan tafakkur, qattiq aqliy ishga moyillik, rivojlangan intuitsiya, ziyraklik, murakkab vaziyatdan chiqib keta olish va x.z.

Ushbu xislatlar insonga avvaldan xos emas. Ularni shakllantirish va rivojlantirish – davomli hamda qiyin jarayon, ammo u ichki ishlar organlari xodimining kasbiy shakllanishi uchun zarur element bo‘lib xisoblanadi. Ushbu xislatlarning xodim shaxsida bo‘lmasligi yoki yetarli rivojlanmaganligi uning o‘z funksional vazifalarini to‘liq bajarishiga halaqit beradi, natidajada faoliyat davomida ayrim xatoliklarga yo‘l qo‘yishi, o‘z kasbiga moslasha olmaslik va kasbiy buzilishlarga olib kelishi mumkin. Shu munosabat bilan, xodimlarda ushbu xislatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan axloqiy-ruhiy tayyorgarlik katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, xodimlarda Vatanga daxldorlik hissini kuchaytirish, Vatanni sevish va asrash tuyg‘ularini shakllantirish axloqiy ehtiyojga aylandi. Bugungi kunda bu davlat siyosati markazida turadi. Bu ehtiyojni esa ma’naviy-axloqiy meros vositasida qondirish samarali natija berishi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, vatanparvarlik xalqimizning azaliy qadriyatlaridan hisoblanadi. U mehr-oqibat, Vatan taqdiri uchun qayg‘urish, tashvish va falokatlarga hamdardlik kabi axloqiy fazilatlar sirasiga kiradi. Ayniqsa, harbiy vatanparvarlik umumxalq, umummilliy vatanparvarlikning alohida turi va

ajralmas bo‘lagidir. Harbiy vatanparvarlik g‘oyalarini yoshlar qalbiga singdirish O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosatida yana ham muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Каримов И.А.* Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т., 1998. –128-б.

2. *Мирзиёев Ш.М.* Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд.– Т. 2017, «Ўзбекистон» нашриёти. – 311-312 бетлар.

3. Асямов С. В.,Пулатов Ю. С. Ички ишлар идоралари ходимларининг касбий-психологик тренинги. – Т., 2002. – 35 – 36-б.

3. *Душанов Р. Х., Фарфиев Ё. А.* Касбий психология: Дарслик. – Т.: ЎзбекистонРеспубликаси ИИВ Академияси, 2014. – 284-б.

4. *Сирлиев Б. Н., Исмаилова Н., Хакимова И.М.* Стресс ва агрессия: Ўқув-услубий қўлланма – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2013. – 5-б.

5. *Сирлиев Б.Н., Хакимова И.М.* Ички ишлар идоралари ходимларининг руҳий саломатлигини тиклашда қўлланиладиган психокоррекцион машқлар: Ўқув-услубий қўлланма. Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2016. – 22 б.

AGRESSIV XULQ – ZAMONAVIY JAMIYATNING DOLZARB MUAMMOSI SIFATIDA

Usmanov Rasul Masharipovich
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti Umumiy taktika kafedrasi katta o‘qituvchisi - geoaxborot ta’minoti xizmati boshlig‘i, mayor

Soxiboyev Zoyirjon Erkinovich
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti Ofitser kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish markazi boshlig‘i o‘rinbosari dotsent, podpolkovnik

Ma’lumki yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatdan ham hayot mamot masalasiga aylanib bormoqda. Mamlakatimizda yosh avlod ta’lim tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda va o‘g‘il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma’naviyatli bo‘lib ulg‘ayishi uchun zarur shart-sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 15-iyun kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqida alohida to‘xtalib o‘tdi: “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar”, deya ta’kidladi Prezidentimiz.

Keyingi yillarda Oliy harbiy ta’lim muassasalarda kursantlari orasida salbiy holatlarning sodir etilish darajasi ortib borayotgani Mudoffa vazirligidagi barcha mas’ullarni xavotirga solmoqda. Bunday xavotir ortida psixologiya sohasida faoliyat yuritayotgan kadrlarga ma’lum bir topshiriqlar yuklanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida:

- kursantlarning psixologik salomatligini muhofaza qilish, ularning barqaror ijtimoiy va intellektual rivojlanishini ta’minlash.

-kursantlarni ijtimoiy reabilitasiya qilish, turli xil zo‘ravonlik ko‘rinishlarining oldini olish, suisidal holatlarga moyilligi bo‘lgan kursantlarni barvaqt aniqlash va ularga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish.

Bu vazifalar oliy ta’lim muassasalari oldida katta mas’uliyat yuklaydi. Ana shu vazifalarni amalga oshirish maqsadida bugun oliy ta’lim muassasalari psixologlarining oldiga juda katta vazifalar qo‘yilmoqda.

Ma’lumki, Oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarning intellektual, emotsional sohalarida duch kelinayotgan muammolar bilan ishlash dolzarbdir. Ayniqsa, kursantlarda emotsianal sohasida yuzaga kelayotgan o‘zgarishlar, xususan, salbiy o‘zgarishlar, ayniqsa agressiv xulqni namoyon bo‘lishi masalasi bugun komandir va boshliqlarni jiddiy o‘ylantirayotgan masala sifatida e’tiborni jalb etib kelmoqda. Shuning uchun kursantlarida namoyon bo‘luvchi agressiv xulqni o‘rganish va uni korreksiya qilish yo‘llarini ilmiy nazariy va ilmiy amaliy jihatdan o‘rganish tadqiqot ishimizning dolzarbligini belgilab beradi.

Bugungi kunda kursantlarda eng ko‘p uchraydigan agressiv xulq muammosi nafaqat psixologlar, komandirlar va o‘qituvchilar uchun, balki butun jamiyat uchun ham asosiy muammolardan biri sifatida yuzaga chiqmoqda.

Agressiv kursantlar o‘zining urushqoq, tez qo‘zg‘aluvchan, asabiy, ta'sirchan, tez xafa bo‘luvchan va o‘jarligi bilan xarakterlanib, boshqa kursantlarga nisbatan agressivligi bilan ajralib turadilar. Ularning atrofdagilar - komandirlar, tengdoshlari va o‘qituvchilari bilan munosabatlari doimo keskinlik ruhida bo‘ladi. Agressiv xulqning salbiy jihatlaridan biri shundaki, agressiv portlashlar kursantlarning sog‘lig‘iga jiddiy putur yetkazadi, ularning xulqini nazoratdan chiqib ketishiga va turli jinoiy harakatlar sodir etib qo‘yishiga olib keladi. Bundan tashqari, agressivlik barqaror shaxsiy xususiyatga aylanib, keyingi davrlarida ushbu kursantlarning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiylashuvi jarayoniga ham salbiy ta'sir qiladi.

Bugungi kunda kursantlar tomonidan ham jinoiy harakatlarning sodir etilayotganligi ulardagi agressiv xulqni o‘smir yosh davrida korreksiya qilinmaganligi

bilan bog‘liq bo‘lishini ko‘pchilik taxmin qiladi. Shularni hisobga olib va eng muhimi agressiv xulq va xatti-harakatlarga ega bo‘lgan kursantlar soni keyingi yillarda tez sur'atlar bilan o‘sib borayotganligini nazarda tutgan holda aytish mumkinki, kursantlarda agressiv xulqni korreksiya qilish imkoniyatlarini o‘rganish mavzusi bugungi kun uchun nihoyatda dolzarbdir.

Hozirgi vaqtda “agressiya” tushunchasining ko‘plab ta'riflari mavjud va uning real hayotda namoyon bo‘lish xususiyatlarini izohlovchi nazariyalar soni ham kam emas. Agressiya haqidagi ta'riflarining muhim qismi o‘zida uch xil nuqtai nazarni birlashtiradi: tashqi kuzatuvchining pozitsiyasi, agressiya sub'ektining pozitsiyasi va agressiya ob'ektining pozitsiyasi [4, 60–67-b]. Shunga ko‘ra hozirgi zamonaviy olimlar agressiyani salbiy hodisa deb hisoblashga moyildirlar.

Agressiya - buzg‘unchi harakatlardagi agressivlikning namoyon bo‘lishi hisoblanib, uning maqsadi ma'lum bir shaxsga zarar yetkazishdir. Agressivlik - bu o‘z maqsadlariga erishish uchun zo‘ravonlik vositalaridan foydalanishga tayyorlik va shuni maqul ko‘rishdan iborat shaxsiy xususiyatdir [56, 16-b].

Agressiya (lot. aggressio - hujum) - hissiy bo‘yoqlarga ega bo‘lgan va jiddiy zarar yetkazish, urish, yo‘q qilish istagiga va tayyorligiga asoslangan maqsadli hujumdir.

Chet el psixologiyasidagi “agressiya”, “agressivlik” atamalarini aniqlashda asosiy yondashuvlar va tadqiqotlarni ko‘rib chiqishdan boshlash oqilona yo‘l hisoblanadi. G‘arb psixologiyasida agressivlik muammosi ustida ish olib borgan asosiy tadqiqotchilar qatorida A. Bass, L. Berkovits, D. Zilman kabi tadqiqotchilarni sanash mumkin.

A.Bass dastlab agressiyani boshqalarga tahdid soladigan yoki zarar yetkazuvchi har qanday xatti-harakat, reaksiya sifatida baholab, bir shaxs tomonidan boshqa shaxsning erkinligini yoki genetik moslashuv qobiliyatini pasaytiradigan va buning natijasida boshqa odamning organizmiga og‘riqli stimullar yetkaziladigan jismoniy harakat sifatida belgilashni taklif qildi.

Shuningdek, muallif dushmanlik va agressivlikni farqlash zarurligini alohida ta'kidlagan. Dushmanlik - bu atrofidagi odamlar, narsa va hodisalarga nisbatan qo‘llaniladigan g‘azab, norozilik va shubha hissi bilan ifodalanadigan uzoq muddatli,

doimiy salbiy munosabat yoki baholash tizimidir. Dushman shaxs har doim ham agressiv bo‘lishi shart emas va aksincha [4, 60–67-b].

L.Berkovits agressivlikni o‘zining jabrlanuvchi ob'ektiga nisbatan o‘ta nomaqbul baho berishda ifodalanadigan va ma’lum bir shaxsga nisbatan dushmanlik, adovatning namoyon bo‘lishida hamda unga yomonlik qilish istagida namoyon bo‘ladigan boshqa shaxsga yoki bir guruh odamlarga nisbatan salbiy ustanovka yoki munosabat deb hisoblaydi (15, 43-b).

K.Lorenz agressivlik, birinchi navbatda, odamlarda, shuningdek, boshqa tirik mavjudotlarda mavjud bo‘lgan, yashash uchun kurashning tug‘ma instinktidan kelib chiqadi, deb ta’kidladi. Agressiv energiya tanada hosil bo‘ladi va tashqi stimullar mavjudligi sababli tashqariga chiqariladi. Bu energiya qanchalik ko‘p to‘plangan bo‘lsa, uning portlash sifatida namoyon bo‘lishi uchun stimullar unchalik kuchli bo‘lishi shart emas, ya’ni agressiv xatti-harakatlar spontan (o‘z-o‘zidan, hech bir sababsiz) bo‘lishi mumkin. K.Lorenz inson o‘zining agressiv energiyasini nazoratda ushlab turish qobiliyatiga ega ekanligiga ishongan edi, ammo muallif bu cheklash prinsipi juda zaif bo‘lishini ham ta’kidlaydi. Shunga qaramay, inson jismoniy mashqlar va turli harakatlar orqali agressiv energiyani chiqarishning ijtimoiy jihatdan maqbul usullarini topishi mumkin, sevgi va do‘stlik kabi hislar ham agressiv ko‘rinishlarga barham bera olishi mumkin [42, 164-b]

R.Baron va D.Richardsonlar ham A.Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi bilan o‘rtoqlashish natijasida o‘smir yoshdagi kursantlarda agressiv xatti-harakatlarning asosiy manbalari sifatida oila va tengdoshlarni ajratib ko‘rsatishadi. Mualliflarning fikriga ko‘ra, bu jarayonda tengdoshlarning ta’siri, birinchi navbatda, agressiv xatti-harakatlarni o‘rganish asosan o‘yinlar orqali sodir bo‘lishi bilan bog‘liqdir. Ayniqsa, muloqotning ko‘p bo‘lishi ham agressiyaning turli usullarini nusxalash imkonini beradi yoki ularni mustahkamlashga yordam beradi. Rasmiy guruhlardagi ijtimoiy maqom pastligi ham odatda, kursantlar va o‘smirlarning deviant xulq-atvori bo‘lgan norasmiy guruhlarga o‘tishiga yordam beradi, bunda agressiv xulq-atvorni o‘rganish uning modellarini namoyish qilish orqali sodir bo‘ladi yoki kursantlarning o‘zlari agressiya qurboniga aylanadi. [6, 82-b]

Agressiv xatti-harakatlar deganda, odatda, birgalikda yashash qoidalari va me’yorlarini buzadigan, zarar yetkazadigan, odamlarga azob-uqubat va og‘riq keltiradigan motivatsiyalangan tashqi harakatlar tushuniladi. Ammo kursantlardagi agressiv xatti-harakatlar bilan ishlash jarayonida ularning agressiv holatining hissiy komponenti (tarkibiy qismi) - his-tuyg‘ular va birinchi navbatda g‘azab haqida unutmaslik kerak. Shu o‘rinda qayd etish ham lozim, agressiya har doim ham g‘azab bilan birga kechmaydi va barcha turdagi g‘azablar ham agressiyaga olib kelavermaydi [24, 37-b].

Harbiy xizmatchilarni aggressiv xulq muammosining xorij psixologiyasidagi tahlili

Zamonaviy kursantlarning tajovuzkorligi bugungi jamiyatning asosiy va dolzarb muammolaridan biri desak xato bo‘lmaydi, chunki u kursant psixikasining o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, u faqat kursantning atrofidagi odamlarga - komandirlarga, tarbiyachilarga, o‘qituvchilarga, tengdoshlariga salbiy ta'sir qilibgina qolmasdan, balki kursantning o‘ziga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni kursantning boshqalar bilan munosabatlarida qiyinchiliklar tug‘diradi. Kursantlarning agressivligi befarqlik bilan munosabatda bo‘linadigan holat emas, chunki “o‘smirlarda tajovuzkorlikning namoyon bo‘lishi uning rivojlanishida qandaydir jiddiy muammolar mavjudligining natijasidir”[10, 287-b].

Agressivlik nafaqat kursantning ijtimoiy aloqalari va munosabatlari tizimiga ta’sir qiladi va uning hozirgi paytdagi mavqeini belgilaydi, balki uning shaxs sifatida rivojlanishiga ta’siri uzoq muddatli xarakterga ega. Longityud tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, vaqt o‘tishi bilan yoshlik davridagi tajovuzkorlik anchagina barqarorlashib boradi, e’tibor qaratilmagan tajovuz o‘smirlik yillariga kelib doimiy asosial yoki antisosial xatti-harakatlarga aylanishi ehtimoli yuqori.

Shunday qilib, o‘smirlik yoshda yuqori darajadagi tajovuzkor xatti-harakatlar va ijtimoiy aloqalardan qochish tendentsiyasi bilan ajralib turadigan kursantlar keyinchalik o‘quv faoliyatida qiyinchiliklarga duch kelishlari, ta’lim muassasasida yomon o‘qishlari, intellektual rivojlanish darajasining pastligi va ijtimoiy hayotga moslashishining qiyinligi bilan ham komandirlarga muammolar tug‘diradilar. Bunday kursantlarda uchraydigan asosiy xarakterli belgilar sifatida yana quyidagilarni alohida sanash mumkin: o‘zini o‘zi

salbiy idrok etish, hayotiy vaziyatlarni bo‘rttirib ko‘rsatish, faollikning sustligi kabilar. Kursantlik davridagi tajovuzkor xulq uning atrof muhit bilan munosabatlarigagina ta’sir etib qolmasdan, balki uning shaxs sifatida rivojlanishiga va uning keyingi yashash tarziga ham ta’sir ko‘rsatadi [17, 231-b]

O‘tgan asrning 20-30-yillarida rus psixologlari tomonidan o‘smirlar tajovuzkorligini o‘rganishning dastlabki bosqichi sifatida muhim davr bo‘ldi, biroq bu davrda olib borilgan tadqiqotlarda mazkur muammo asosan o‘smirlar rivojlanishining pedagogik jihatlarini o‘rganish tarzida tadqiq etildi. Garchi o‘sha davrdagi pedagog psixologlar o‘z oldilariga o‘smirlarni tarbiyalash va qayta o‘rgatish orqali ularning psixikasiga ta’sir qilish kabi vazifalarni qo‘ygan bo‘lsalarda, biroq ular asosiy e’tiborni o‘smirlarning individual xususiyatlarning rivojlanishini diagnostika qilishga, uning aql-zakovati, qobiliyatini aniqlashga urundilar, shaxs rivojlanishidagi qiyinchiliklar va og‘ishishlar masalasiga, xususan xavotirlanish va agressivlik muammolariga esa juda kam e’tibor qaratildi.

Ko‘pgina olimlarning fikricha, zamonaviy jamiyatdagi yashash sharoitlari odamlardan ko‘proq qat’iylikni, qattiqqo‘l va ba’zan shafqatsiz bo‘lishlikni talab qiladi. Bu yashash uchun kurashning shartlari sifatida izohlanadi. Eng kuchlilar omon qoladigan hayvonot dunyosi qonunlari inson dunyosiga tarqala boshlaydi. Va, albatta, bu holat eng zaiflarning, ayniqsa kursantlarning ruhiyatiga eng og‘riqli zarba beradi. Har qanday jamiyatda va har bir zamonda jamiyatning zaif qatlami bo‘lgan o‘smirlarga nisbatan zo‘ravonlik bilan munosabatda bo‘lish, ularga hukum o‘tkazishning dahshatli holatlari kuzatilgan. Biroq bugun zo‘ravonlik to‘lqini borgan sayin kursantlarning qalbini tobora ko‘proq qamrab olmoqda va bu holat kursantlarning bir-biriga, komandirlariga, o‘qituvchilariga, hayvonlarga va hatto o‘ziga nisbatan tajovuzkor xatti-harakatlarining ko‘payishida o‘z ifodasini topmoqda. Shuning uchun ham bugun kursantlardagi tajovuzkorlik muammosi komandirlarni, o‘qituvchilarni, psixologlarni, shifokorlarni tobora ko‘proq tashvishga solmoqda. Psixologiyada tajovuz va tajovuzkorlik mavzusi hamisha olimlar va amaliyotchilarning diqqat markazidagi sohadir [20, 348-b]

Mazkur fenomenlarni tushuntiruvchi ko‘plab nazariy konsepsiyalar mavjud, ko‘plab eksperimental tadqiqotlar olib borilmoqda, agressiv xulq muammosiga duch

kelgan ko‘plab psixoterapevtik maktablar uni tuzatish texnikasini ishlab chiqishga harakat qilishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Slovar’, Psixologiya, Siyosiy adabiyot nashriyoti - Moskva, 1990 yil 2. Ensiklopediya. Umumiy va ijtimoiy psixologiya, M.I.Enikeev, PRIOR nashriyoti - Moskva, 2002.

3. Umumiy psixologiya, A.V.Petrovskiy, “O‘qituvchi nashriyoti” – Toshkent, 1975.

4. V. Noskov, Rivojlanish psixologiyasi va yosh davr psixologiyasi, Vladivostok, 2003.

5. Sh.A.Do‘stmuxammedova “Kursantlarda o‘quv faoliyatini boshqarish psixologiyasi” -Toshkent 2000-yil

6. J.G.Yuldoshev Ta’lim yangilanish yo‘lida. Toshkent 2000-yil

7. D.I.Mustafaqulova. Darslarda muammoli o‘qitish texnologiyasi Ta’lim texnologiyalari 2016. Toshkent.

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA PROBATSIYA NAZORATI OSTIDAGI SHAXSLARNING PSIXOLOGIK PORTRETINI SHAKILLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Bosimov Bobur Ismatilla o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti psixologi
bosimovbob2900@gmail.com

Annotatsiya Ushbu tezis O‘zbekiston sharoitida probatsiya nazorati ostidagi shaxslarning psixologik portretini shakllantirishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini yoritadi. 317 nafar respondent (Jizzax va Buxoro viloyatlari) ishtirokida o‘tkazilgan empirik tadqiqot emotsional boshqaruv darajasi, intrapsixik xususiyatlar va qayta jinoyatchilik xavfi o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tahlil qilindi. Ilmiy asoslar emotsional intellekt modellari (Lyusin D.V., Goleman D.), nazorat lokusi nazariyasi (Rotter J.B.) va shaxs xususiyatlari modellari (Cattell R.B.) ga tayangan. Amaliy jihatdan, emotsional boshqaruvni rivojlantirishga yo‘naltirilgan differensial psixokorreksion dastur taklif

etildi: emotsional xabardorlik mashg‘ulotlari, agressiyani konstruktiv yo‘naltirish, stress boshqarish texnikalari va motivatsiya shakllantirish. Ushbu yondashuv qayta jinoyatchilik xavfini kamaytirish va shaxslarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta’minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot probatsiya tizimida psixologik xizmatlarni takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Kalit so‘zlar: probatsiya nazorati, psixologik portret, emotsional boshqaruv, psixokorreksiya, qayta jinoyatchilik xavfi, ijtimoiy moslashuv.

Kirish

Zamonaviy jamiyatda probatsiya tizimi jinoyatchilikning oldini olish, shaxslarning qayta ijtimoiylashuvi va jamiyat xavfsizligini ta’minlashning muhim instituti sifatida e’tirof etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida probatsiya faoliyati “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ–629-son, 2020), Prezident Farmoni (PF–60, 2022) va boshqa me’yoriy hujjatlar asosida rivojlanmoqda. Biroq, nazorat ostidagi shaxslar orasida qayta jinoyatchilik darajasi yuqori saqlanib qolmoqda (BMTning Giyohvandlik va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra 45–65% oralig‘ida). Ushbu holatda psixologik omillar – emotsional boshqaruvning buzilishi, impulsivlik, agressiv reaksiyalar, intrapsixik konfliktlar va tashqi nazorat lokusining ustunligi – qayta jinoyatchilik xavfini oshiruvchi asosiy determinantlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli, probatsiya nazorati ostidagi shaxslarning psixologik portretini shakllantirish nafaqat individual xususiyatlarni aniqlash, balki risk omillarini baholash, samarali psixokorreksion choralar ishlab chiqish va reabilitatsiya jarayonini optimallashtirish uchun zarurdir.

Ilmiy-nazariy asoslar Psixologik portretni shakllantirish emotsional intellekt nazariyalari Goleman D, Lyusin D.V, shaxs xususiyatlari modellari Cattell R.B, 16 omilli test, nazorat lokusi nazariyasi Rotter J.B, Panteleev-Stolin modifikatsiyasi va ijtimoiy moslashuv psixologiyasiga Karimova V.M, G‘oziyev E, Shoumarov G‘.B asoslanadi. Ushbu nazariy yondashuvlar shaxsning emotsional regulyatsiya, intrapsixik dinamikasi va ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta’sirini kompleks baholash imkonini beradi. Xorijiy tadqiqotlarda probatsiya va mahbuslik sharoitida psixologik determinantlar emotsional disregulyatsiya, agressiya va tashqi nazorat lokusining ustunligi probatsiya nazoratidagi

shaxslarning psixologik portretining asosiy xususiyatlari sifatida namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston kontekstida stigma, oilaviy munosabatlar buzilishi va ijtimoiy resurslar cheklanganligi ushbu omillarni kuchaytiradi.

Tadqiqotda kompleks psixodiagnostik metodlar qo‘llanildi: Д.В.Люсин emotsional intellekt so‘rovnomasi, Л.Г.Почебут agressiya aniqlash metodikasi verbal, jismoniy, emotsional, o‘ziga qaratilgan shakllar, С.Р.Пантелеев va В.В.Столин nazorat lokusi skalasi, R.Kettell 16 omilli shaxs xususiyatlari testi. Namuna – Jizzax 163 nafar va Buxoro 154 nafar viloyatlaridagi probatsiya bo‘limlari nazoratidagi jami 317 nafar shaxs. Statistik qayta ishlash SPSS-22 dasturida amalga oshirildi tavsifiy statistika, Mann-Whitney mezoni, Spearman korrelyatsiya, Kruskal-Wallis dispersion tahlili, regression tahlili.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki:

- Emotsional boshqaruv darajasi pastligi (intrapersonal komponentlarda zaiflik) agressivlikning yuqori darajasi bilan teskari bog‘liq ($r = -0.58$–-0.62, $p<0.01$).
- Tashqi nazorat lokusining ustunligi mas’uliyatni tashqi omillarga bog‘lashga olib kelib, konstruktiv xulq-atvor strategiyalarini zaiflashtiradi.
- Psixologik portretning markaziy xususiyatlari: impulsivlik, ichki tanglik, emotsional disregulyatsiya va ijtimoiy moslashuv qiyinlashuvi.
- Regression tahlili emotsional boshqaruv darajasining qayta jinoyatchilik xavfini prognoz qilishdagi yuqori rolini tasdiqladi.

Amaliy asoslar va tavsiyalar Psixologik portretni shakllantirish asosida differensial psixokorreksion dastur ishlab chiqildi:

- Emotsional xabardorlik va refleksiya mashg‘ulotlari (“emotsional kundalik”, o‘z hissiyotlarini anglash mashqlari).
- Agressiyani konstruktiv yo‘naltirish (rol o‘ynash, sport va ijodiy faoliyat orqali energiyani ijobiy tomonga yo‘naltirish).
- Stress va ichki tanglikni boshqarish (nafas texnikalari, autogen trening, relaksatsion mashqlar).
- Motivatsiya va hayotiy maqsadlarni shakllantirish (shaxsiy reja tuzish, ijobiy qarorlar mustahkamlash).

Ushbu dastur muntazam qo‘llanilganda qayta jinoyatchilik xavfini kamaytirish, konstruktiv xulq-atvor strategiyalarini rivojlantirish va shaxslarning jamiyatga muvaffaqiyatli qaytishini ta’minlaydi. Probatsiya psixologlari va huquqni muhofaza organlari uchun diagnostik mezonlar va individual korreksion rejalarni ishlab chiqish bo‘yicha tavsiyalar beriladi.

Xulosa O‘zbekiston sharoitida probatsiya nazorati ostidagi shaxslarning psixologik portretini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari emotsional boshqaruv va intrapsixik xususiyatlar tizimiga asoslangan bo‘lib, amaliy jihatdan psixokorreksion dasturlar orqali qayta ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari probatsiya tizimida psixologik xizmatlarni takomillashtirish va qayta jinoyatchilikning oldini olishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lyusin D.V. Emotsional intellekt: struktura i diagnostika // Voprosy psixologii. 2004. №5. S. 29–36.
2. Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. New York: Bantam Books, 1995.
3. Karimova V.M. Shaxs va ijtimoiy moslashuv psixologiyasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
4. Rotter J.B. Generalized Expectancies for Internal vs. External Control of Reinforcement // Psychological Monographs. 1966. Vol. 80. №1.
5. O‘zbekiston Respublikasi “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ–629-son, 2020.
6. UNODC. Global Report on Trafficking in Persons va jinoyatchilik statistikasi, 2022–2024.
7. Yukhnenko D. et al. Risk factors for recidivism // Criminal Behaviour and Mental Health. 2019–2023.
8. G‘oziyev E., Shoumarov G‘.B. Emotsional jarayonlarning ruhiy salomatlik va ijtimoiy faoliyatdagi o‘rni // Psixologiya masalalari. Toshkent, 2018.
9. O‘zbekiston Respublikasi “Probatsiya to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ–629-son, 2020 yil 14-iyul.
10. Yukhnenko D., Sizmur J., Fazel S. Risk factors for recidivism in individuals receiving community sentences: a systematic review and meta-analysis // Journal of Criminal Justice. 2020. Vol. 70. 101713.

ZAMONAVIY TAHDIDLAR SHAROITIDA HARBIY XIZMATCHILARNI AXLOQIY – RUHIY HIMOYALASHNING AHAMIYATI

XASONBOYEV Bekzodjon Valijonovich,

p.f.f.d. (PhD), dotsent, podpolkovnik, Quruqlikdagi qo‘shinlar instituti

Harbiy pedagogika va psixologiya kafedrasi boshlig‘i

Annotatsiya. Maqolada milliy mafkuramizning muhim tushunchalari –“ommaviy madaniyat”, axborot xurujlar va Informatsion xavfsizlik atamalari, davlatning iqtisodiy va texnologik xavfsizligi, informatsion xavfsizlik, harbiy hizmatchilarimizni turli salbiy psixologik ta’sirlarga tushib qolmasligini oldini olish va ularning mohiyati to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: mafkura, tinch-totuv, xavf-xatar, voqea-hodisalar, axloqiy – ruhiy .

Аннотация. В данной статье рассказывается об основных понятиях национальной идеологии – это “массовая культура”, термины информационные выступления и информационная безопасность, технологическая и экономическая безопасность государства, информационная безопасность, а также о том, какие нужно проводить меры предосторожности, чтобы военнослужащий не попал под различное отрицательное психологическое влияние.

Ключевые слова: идеология, мир и согласие, опасный, события и происшествия, нравстенно-психологический.

Ma’lumki, bugungi dunyoda ijtimoiy - siyosiy, mafkuraviy, ekologik va iqtisodiy jarayonlar tobora murakkablashib bormoqda. Ayniqsa, geosiyosiy transformatsiya jarayonida murakkab sharoitlar vujudga kelishi kuzatilmoqda. Tabiiyki, bunday sharoitda har bir davlat, har bir xalq o‘zining milliy xavfsizligini ta’minlashga, milliy qadriyatlarini asrab-avaylashga e’tibor beradi. Aslida ham xavfsizlikni ta’minlash kompleks vazifa hisoblanib, uning tarkibidan harbiy, siyosiy, iqtisodiy, axborot sohalari joy olgan. Ushbu vazifani muvaffaqiyatli bajarish uchun qarshi kurashishning barcha usul va vositalaridan, jumladan, psixologik urush usullaridan foydalanish taqozo etiladi.

Har qanday suveren davlat yuritadigan siyosat markazida o‘z xavfsizligini ta’minlash masalasi turishi kundek ravshan. O‘zbekistonning milliy xavfsizligi nafaqat

suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilishni, balki ziddiyatlarning oldini olish, davlatning iqtisodiy va texnologik xavfsizligi, ichki barqarorligi va normal hayot kechirish fuqarolarning huquqiy, madaniy-ma'rifiy yutuqlarini himoya qilish bo'yicha faol siyosiy va diplomatik choralar ko'rishni ham o'z ichiga oladi[1]. Davlat barqarorligi, fuqarolarning tinch-totuv hayoti, jamiyat taraqqiyoti va kelajagi ana shu davlatda katta xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan barcha tahdidlarning mohiyatini tushunib yetishga, ularning oldini olish va bartaraf etish har qanday harbiy xizmatchining salohiyatiga bog'liqdir. Tahdidga nisbatan xotirjamlik, loqaydlik yoki uni butunlay sezmaslik jiddiy oqibatlarga olib kelishi muqarrardir[1].

Dunyodagi vaziyat shiddat bilan o'zgarib, xavfsizlikka nisbatan tahdid va xatarlar tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish va ularning axloqiy - ruhiy va jangovar tayyorgarligini, mamlakatimizga qarshi qaratilgan har qanday tajovuzga o'z vaqtida va munosib zarba berish qobiliyatini oshirishni ta'minlash alohida ahamiyat kasb etadi. Yuzaga kelayotgan murakkab sharoitda yadroviy texnologiyalar va ommaviy qirg'in qurollarining tarqalish xavfi tobora kuchayib bormoqda. Shuningdek, siyosiy hamda diniy radikalizm va ekstremizm, kiberjinoyatchilik, kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda salbiy informsion ta'sir o'tkazish kabi xalqaro xavfsizlikka nisbatan ilgari ko'rilmagan xavf-xatarlarning avj olayotganiga yetarli baho bermaslik, ularning oldini olmasdan, beparvo bo'lib yashash mutlaqo mumkin emasligini, yuqorida zikr etilgan xavf-xatarlarning oldini olish va bartaraf etish, yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar ko'rishni vazifa sifatida belgilab olish zarur.

Davlatning informatsion xavfsizligi barcha informatsion tizimlarning himoyalanganlik darajasiga bog'liq. Informatsion xavfsizlik turli tahdidlarning oldini olish va neytrallashtirishga ko'mak beradi[3].

Informatsion xavfsizlik – informatsion resurslar va kanallarning himoyalanganlik darajasi hamda ma'lumotlar manbasiga yo'l topish holatidir. Shuningdek, informatsion xavfsizlik deganda – "so'z erkinligi" va boshqa niqoblar ostida jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy, ma'naviy qadriyatlar va hokazo sohalariga chetdan yot g'oyalar, informatsion xurujlarning kirib kelishi oqibatida davlat siyosati va jamiyat

manfaatiga hamda mamlakat suverenitetiga putur yetkazilishining oldini olishni tushunish mumkin.

Dunyoda kechayotgan shunday murakkab sharoitda harbiy xizmatchilarni qanday xurujlardan himoyalanishi zarur?

Eng asosiy - bu axborot xurujidan himoyalanish kerak. Axborot xuruji – muayyan kuchlar tomonidan kishilar ongi va qalbiga yot g‘oyalarni singdirish maqsadida ularning mafkuraviy omillaridan, jamiyat turmush tarzi va mentalitetdagi o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun unga moddiy, ma’naviy, ruhiy ta’sir o‘tkazishning noan’anaviy, noxolis usullaridan foydalanish asosida siyosiy maqsad va muddaolarni amalga oshirish majmuasini anglatadi[4].

Har birimizda informatsion-psixologik tajovuzlarga nisbatan immunitetni, mustahkam iroda sifatlarini shakllantirishimiz lozim.

Shunisi e’tiborliki, globallashuv jarayonining ta’siri bilan birga ma’naviy tahdidlar va turli yot begona madaniyatlarning “hujumi” kuchayib bormoqda.

Shu bilan birgalikda, turli ma’naviy tahdidlar orasida eng keng yoyilgani va bugungi kunda jamiyat hayotimizga tezlik bilan kirib, yoshlarga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani, bu “ommaviy madaniyat”dir. Tabiiyki, “ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi[3].

XXI asrda mafkuraviy kurashlarning aql bovar qilmaydigan turlari paydo bo‘lmoqda. Ayrim g‘oyaviy tuzoqlar ko‘rinishidan asr yangiligiga yoki “madaniyat”iga o‘xshasa-da, ular kishilarga, ayniqsa yoshlarga yoqishi bilan yanada xatarlidir. Bugungi kunda xech bir xalqning milliy–ma’naviy an’analariga asoslanmagan. Shahvatlarga, insoniy axloqqa ters hayot tarziga chaqiruvchi ommaviy madaniyat yoki salbiy jixatini hisobga olib aytganda, “olomonchi madaniyat”ning ana shunday tashvishli tomonlari juda ko‘p. Bular ommaviy madaniyat deb atalsa-da, aslida, u butun yer yuzi, xatto har bir kishi ongiga chang solib, ma’naviyat kushandasiga aylanmoqda. Achinarlisi, ko‘p

insonlar mazkur “madaniyat” ta’siriga berilib qolgani yoki uning qurboniga aylanayotganini ham sezmaydi.

“Ommaviy madaniyat” – madaniyat mavjudligining murakkab, hamma vaqt bir xil talqin qilinmaydigan o‘ziga xos shakli bo‘lib, uni bugun G‘arb madaniyati bilan bog‘liq hodisa deb tushunish, g‘oyasizlik, sifatsizlik va didsizlik namunasi sifatida baholash keng tarqalgan. XXI asrda radio, kino, televideniye, video, kompyuterlar tizimining paydo bo‘lishi natijasida “ommaviy madaniyat” rivojlanishining yangi bosqichiga qadam qo‘yilgan. Bu bosqich ko‘pchilik uchun maqbul bo‘lgan qarashlar va qadriyatlarni shakllantirish imkoniyatlari keskin ham ijobiy, ham salbiy tomonga o‘zgarganligi bilan farqlanmoqda[2].

Harbiy xizmatchilarni loqayd va beparvo bo‘lib qolishdan asrashimiz zarur. Agar inson tabiatida loqaydlik, befarqlik illati mavjud bo‘lsa, u atrofida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga qiziqmaydi. Bunday e’tiborsizlik esa iqtisodiy-siyosiy, mafkuraviy, ma’naviy jarayonlarda ulkan yo‘qotishlarga sabab bo‘lishi, begona g‘oyalarning suqilib kirishiga olib kelishi mumkin. Binobarin, osoyishtalikning yo‘qolishi, odamlararo va mamlakatlararo notinchlikning kelib chiqishiga aynan shunday loqayd va beparvo shaxslar sababchi bo‘lishadi.

Harbiy xizmatchilarni boshqalar ta’siriga tez tushib qolishidan asrash kerak. Ma’lumki, bugun yoshlar respublikamiz aholisining katta foizini tashkil etadi. Yurtimizning istiqbolini belgilaydigan kuch ham aynan ular. Harbiy xizmatchilarni irodali, imon-e’tiqodli, mustaqil va erkin fikrli, har qanday xurujlarga dadil qarshi bora olishga qodir inson bo‘lib yetishishlari Vatan ravnaqi, xalq farovonligi va yurtning tinchligini saqlashimizda muhim omildir.

Bugungi kunda harbiy hizmatchilarimizni turli salbiy psixologik ta’sirlarga tushib qolmasligiga, Vatanparvarlikning yetukligiga, bilimi, tushunchasi, tafakkuri, dunyoqarashi boy va keng bo‘lishiga erishishimiz zarur.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo‘lgan zararli g‘oyalar va mafkuralarning, informatsion xurujlarning reaksion mohiyatini ochib berish, harbiy xizmatchilar qalbida milliy tafakkur va sog‘lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularni ongli yashashga, o‘z mustaqil, erkin

fikriga ega bo‘lishga, turli ma’naviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir, irodali, fidoyi va Vatanparvar insonlar qilib tarbiyalash, hammamiz uchun o‘ta dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Ахлоқий-руҳий таъминот Концепцияси. Т.: 2019 йил 2 февраль №5.

2. Яхё Муҳаммад Амин. Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя: Ёрдамчи ўқув қўлланма.-Т.: “Моваройуннаҳр”, 2016.

3. Умонхон Алимов. Оилада фарзанд тарбияси. – Т.: “Моваройуннаҳр”, 2008.

4. Айдарбек Тулупов. Интернетга ин қурган “ўргимчаклар”. - Т.: “Моваройуннаҳр”, 2014.

HARBIY-KASBIY FAOLIYAT SHAROITLARIGA SAMARALI MOSLASHUV DAVOMIDA SHAXS SIFATLARINING NAMOYON BO‘LISHI

(Mirabdullaeva Sh.A., O‘zbekiston Respublikasi
Harbiy xavfsizlik va Mudofaa universteti,
Harbiy pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti, ps.f.f.d. (PhD))

Annotatsiya. Maqolada harbiy-kasbiy faoliyatga samarali moslashuv, moslashuv samaradorligining genetik shartlanganligi, moslashuv buzilishining kasbiy sifatlar tushib ketishiga ta’siri, shaxsning asab-psixik barqarorligi, o‘z-o‘zini baholashi, atrofdagilar uchun o‘zining ahamiyatliligi, ziddiyatga borish darajasi, odamlar blan aloqaga kirishish tajribasi mavjudligi, jamiyatning axloqiy me’yorlariga bo‘lgan xabardorligi, harbiy jamoa guruhiy me’yorlarini qabul qilishi, shaxsning muloqotmandlik (kommunikativ) sifatlari, ijtimoiylashuv masalasi: ma’naviy-axloqiy me’yorlarni adekvat idrok qilish va bevosita ijtimoiy muhit talablariga bo‘lgan munosabatlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: harbiy-kasbiy faoliyat, moslashuv, kasbiy sifatlar, shaxs, psixika, me’yor, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy muhit, muvaffaqiyat, asab-psixik, o‘z-o‘zini baholash, muloqotmandlik, harbiy xizmatchi, ijtimoiy muhit, munosabat, mehnat, harbiy, ijodiy, jamoa.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы эффективной адаптации к военно-профессиональной деятельности, генетическая обусловленность эффективности адаптации, влияние адаптационных расстройств на снижение профессиональных качеств, нейропсихологическая устойчивость, самооценка, значимость для окружающих, уровень конфликта, опыт общения с людьми, нравственность общества. осознание норм военного сообщества, принятие норм группы, коммуникативные качества личности, проблема социализации: морально-этические нормы адекватное понимание и прямо говоря о взаимосвязи между требованиями социальной среды.

Ключевые слова: военно-профессиональная деятельность, адаптация, профессиональные качества, личность, психика, норма, духовно-нравственная, социальная среда, успех, нейропсихология, самооценка, общение, военная, социальная среда, отношение, труд, военный, творческий, команда.

Annotation.The article discusses the issues of effective adaptation to military professional activities, the genetic conditionality of adaptation effectiveness, the impact of adaptation disorders on the decline in professional qualities, neuropsychological stability, self-esteem, significance for others, the level of conflict, experience in communicating with people, and morality of society. awareness of the norms of the military community, the adoption of group norms, the communicative qualities of a person, the problem of socialization: moral and ethical standards, an adequate understanding and, frankly, the relationship between the requirements of the social environment.

Key words: military professional activity, adaptation, professional qualities, personality, psyche, norm, spiritual and moral, social environment, success, neuropsychology, self-esteem, communication, military, social environment, attitude, labor, military, creative, team.

Moslashuv – organizmni ilmiy tadqiq etishdagi tushunchalardan biridir, aynan evolyusiya jarayonida tarbiyalangan moslashuv doimiy o‘zgarib turadigan muhitda organizm ishlashi mavjudligini ta’minlaydi. Moslashuv jarayonii tufayli organizm muvofiq ishlashiga erishiladi va “odam-muhit” tizimini balansga keltirdi. Fransuz fiziologi Klod Bernarning ishlaridan boshlaydigan bo‘lsak, uning ishida organizmning ichki sohasining doimiyligi konsepsiyasi olg‘a surilgan, moslashuv dinamik paydo bo‘lishi yig‘indisi sifatida va bir xil bo‘lmagan tizim nisbati sifatida ko‘rib chiqiladi.

Moslashuv fenomenini ko‘rib chiqishda ikkita yondashuv mavjud. Bir tomondan, moslashuv har qanday jonli o‘z-o‘zini boshqarish tizimining tashqi muhit sharoitiga barqarorligini bevosita ifodalaydigan xususiyatidir (aniq bir moslashuv qobiliyatining rivojlanish darajasi nazarda tutiladi). Moslashuvga boshqacha yondashganda dinamik tuzilishi, tashqi muhit sharoitlariga moslashishning bevosita jarayoni sifatida ko‘rib chiqiladi.

Moslashuv qanchalik har qanday jonli organizmning xususiyati bo‘lmasin, bu xususiyat insonga xos. Lekin inson – nafaqat jonli organizm, eng avvalo bioijtimoiy tizim va ijtimoiy makrotizim elementidir. Shuning uchun insonning moslashuv muammosini ko‘rib chiqayotganda uch funksial darajani ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiqdir: jismoniy, psixologik va ijtimoiy, shuningdek shaxsda moslashuvga qobiliyat kabi xususiyat mavjudligi taxmin qilinadi.

Moslashuv tushunchasi organizmda bo‘lib o‘tadigan jarayonlarning barchasini, shuningdek, uni rivojlanish darajasi va strukturasini yaxlitligi, ishlashi darajasini anglatadigan funksional holat tushunchasi bilan uzviy bog‘liq. Funksional holat darajasi qancha yuqori bo‘lsa, odamning ishlash qobiliyati shunchalik yuqori bo‘ladi. Bunday holat harbiy-kasbiy faoliyat uchun juda muhim, chunki ishlash qobiliyati dushmandan ustun bo‘lgan harbiy xizmatchigina jang maydonida ustunlik qila oladi. Organizm tizimi ishlash darajasi moslashuv samarasi bilan belgilanadi. Lekin organizm ishlashi samarasi nimaga bog‘liq?

Jonli organizm ko‘p darajali o‘z-o‘zini boshqarish tizimini ifodalaydi. Bu tizimlar mexanizmini boshqaruvchisi markaziy va vegetativ asab tizimidir, organizmning boshqa

tizimlari esa boshqariluvchi tizimga taalluqli. Aynan markaziy asab tizimi holati organizmning umumiy funksional holatini belgilaydi.

Organizmning u holatida sub'ektiv va ob'ektiv tashkil qiluvchilarni ajratish mumkin. Ulardan birinchisi motivatsion xulq-atvorni, ikkinchisi tizim muvozanati buzilishini tiklashni ta'minlaydi. Bunda odamning sub'ektiv tomoni (psixik tashkil qiluvchilari) funksional holati yetakchi hisoblanishini ta'kidlash lozim, chunki moslashuv davomida sub'ektiv siljishlardan, odatda, ko'pincha ob'ektivlari ilgarilab ketadi.

Sub'ektiv tomon deganda psixik hodisalar, kechinmalar majmuini hisobga olgan holda shaxs tuzilishini tashkil qiladi. Aynan shaxs xususiyatlari ko'pincha inson organizmining tashqi muhit va kasbiy faoliyatning turli sharoitlarida funksional holatini xarakterini belgilaydi.

Odamning holati va faoliyati regulyatsiyasining shaxsiy prinsipi hozirgi paytda e'tirof etilgan. Bundan kelib chiqadiki, holatlarning shakllanishi ko'pincha, odamning o'ziga bo'lgan, uni o'rab turgan atrof-muhit va o'z faoliyati munosabati bilan shartlangan.

Shunday qilib, inson shaxsining o'ziga xos xususiyatlari nafaqat uning faoliyatning yangi (yoki o'zgaruvchan) sharoitlariga moslashuvini, balki uning organizmi ishlashi tizimi, ishlash qobiliyati darajasini ham belgilaydi.

Holatlarni boshqaruvchi shaxs mexanizmlari g'oyat xilma-xil. Ularni tashkillashuvi shaxs strukturasi ierarxiyasiga mos keladi. Shuningdek, funksional holat asab tizimi xususiyatlari, temperament turi, umumiy emotsional yo'nalish, yoki "yaxshi ko'rgan kechinmalari" spektridan chiqish, salbiy emotsional oqibatlar va irodaviy sifatlarni bartaraf etishga bog'liq. Funksional holatga intellektual xarakteristikalar, shuningdek, shaxs o'xshashligining psixofiziologik darajasi holatini boshqarish ahamiyati haqida ma'lumotlar mavjud. Shunday qilib, shaxs ierarxiyasining barcha darajalari xususiyatlari funksional holatda aks etadi.

Eksperimental psixologik tadqiqotlar harbiy-kasbiy faoliyat sharoitlariga samarali moslashuv uchun birinchi navbatdagi ahamiyatga ega bo'lgan shaxs sifatlarini namoyon qilish imkonini berdi. Moslashuv potensiali rivojlanishining darajasi qancha yuqori bo'lsa, harbiy xizmatchi murakkab sharoitlarda o'z kasbiy majburiyatlarini shunchalik muvaffaqiyatli bajaradilar.

Shaxs moslashuvi potensiali konsepsiyasining nazariy asosi inson organizmi va psixikasi ishlashi barcha darajalariga tegishli jismoniy va ijtimoiy muhit sharoitlariga faol doimiy moslashuv jarayonidek moslashuv haqidagi tasavvurdir. Moslashuv samaradorligi asab tizimi xususiyatlari genetik shartlanganligi, tarbiya sharoitlaridan tortib, odam o‘ziga va ijtimoiy aloqalarni qanchalik adekvat qabul qilishiga bog‘liq, mavjud imkoniyatlar bilan o‘zining ehtiyojlarini o‘lchab ko‘radi va o‘z xulq atvori motivlarini anglaydi. O‘zi haqidagi xato yoki yetarli rivojlanmagan tasavvur moslashuvning buzilishiga olib keladi, bu esa yuqori ziddiyat, o‘zining jtimoiy rolini tushunmaslik, ish qobiliyatining tushib ketishi, sog‘ligi holatining yomonlashuvi bilan kuzatiladi. Moslashuvning buzilishining ko‘pligi kasallik, kasbiy faoliyatning sifati tushib ketishi, ijtimoiylikka zid xulq-atvorlar bo‘lishiga olib keladi.

Moslashuv jarayoni favqulodda rivojlanuvchi. Uning muvaffaqiyati ko‘pincha bir qator ob’ektiv va sub’ektiv sharoitlar, funksional holat, ijtimoiy tajriba, hayotiy ustanovkalar va ko‘p narsalarga bog‘liq. Biroq nisbatan barqarorligi va ko‘pincha faoliyatning eng xilma-xil sharoitlariga moslashuv muvaffaqiyatini belgilashi bilan ajralib turadigan bir qator shaxs xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin. Bunday xarakteristikalar qatoriga shaxsning asab-psixik barqarorligi, o‘z-o‘zini baholashi, atrofdagilar uchun o‘zining ahamiyatliligi, ziddiyatga borish darajasi, odamlar blan aloqaga kirishish tajribasi mavjudligi. Jamiyatning axloqiy me’yorlariga bo‘lgan xabardorligi, harbiy jamoa guruhiy me’yorlarini qabul qilishi kiradi.

Asab-psixik barqarorlik ahamiyatli faoliyat sharoitlarini kardinal almashinuvi davrlari uchun xarakterli va bevosita moslashuv jarayoni bilan bog‘liq psixik va jismoniy zo‘riqishlar bo‘lganda asab tizimi buzilishiga moyillikni baholaydi. **Asab-psixik barqarorlik** – o‘ta keng tushuncha. U latent (aniq ifodalanmagan, yashirin), psixik faoliyatning yengil o‘zgarishi (patologiyasi), simptomatik (simptomlar o‘zgarishi) bo‘yicha bir xil bo‘lmagani kabi dinamikasi(rivojlanishi) bo‘yicha ham bir xil bo‘lmagan, o‘zgarishdan avvalgi holatni mavjudligini aks ettiradi. Asab-psixik barqaror bo‘lmagan shaxslar qobiliyati past, ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini buzilishi va asab-psixik buzilishlarga moyil bo‘ladi. Ular uchun emotsionallik, emotiv va kognitiv (aql-idrok) beqarorlik, impulsivlik, yuqori bezovtalik xarakterli. Odatda, bu guruhga kiruvchi harbiy

xizmatchilarga shaxs aksentuatsiyasi belgilari, psixopatiya va turli asab-psixik buzilishlar chegaralanganligi xarakterlidir.

Moslashuv muvaffaqiyatini ta’minlashda shaxsning o‘z-o‘zini baholashi muhim rol o‘ynaydi. Ma’lumki, o‘z-o‘zini baholash odamning o‘z-o‘zini boshqarish tizimini yadrosi hisoblanadi va ko‘pincha asosiy psixik jarayonlarning sifatli ishlashi unga bog‘liq. O‘z-o‘zini past baholash salbiy psixik holat hisoblanadi. O‘zini o‘zi past baholovchi shaxslar bezovta, beqaror, behafsala, ko‘p charchaydilar, ko‘pincha hayotga bo‘lgan qiziqishi yo‘q, kelajak hayotini ko‘rmaydi va ko‘pincha suitsidal harakatlar sodir qiladi. Aksincha, yuqori, adekvat (bir xil) o‘z-o‘zini baholash psixik sog‘lomlikdan darak beradi.

Aniq bir harbiy xizmatchining muvaffaqiyatli moslashuvi uchun, uni atrofidagilarning munosabati ham ahamiyatlidir. Atrofdagilarning ijobiy munosabati moslashuvga yordam beradi, salbiy munosabati esa, aksincha, **moslashuv** jarayonini qiyinlashtiradi. Sub’ektiv darajada bu uni atrofidagilar tomonidan (**ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash**) tan olinishi sifatida yoki o‘zining boshqalar uchun ahamiyatliligini (**referentliligi-ni**) his qilish sifatida namoyon bo‘ladi. Atrofdagilar tomonidan o‘zini ahamiyatliligini his qilishning qo‘llab-quvvatlanishi faollikni oshiradi va ba’zi bir salbiy xarakteristikalarni yopib ketadi (masalan, emotsional-irodaviy o‘zgaruvchanlik, o‘z-o‘zini baholashning oshishiga ta’sir qiladi va shunga o‘xshash), bu esa yangi sharoitga muvaffaqiyatli moslashish imkoniyatini beradi, bunday ma’lumotning yo‘qligi yoki o‘zini kerak emasdek his qilish moslashuv jarayonini qiyinlashtiradi, salbiy xarakteristikalar, shuningdek, asab-psixik beqarorlik namoyon bo‘lishini kuchaytiradi.

Harbiy-kasbiy faoliyatga moslashuv jarayonini belgilovchi keyingi xarakteristika **shaxsning muloqotmandlik (kommunikativ)** sifatidir. Odam qanchalik odamlar ichida ko‘p bo‘lsa, uning faoliyatini muvaffaqiyati munosabatlar o‘rnata olgan holda odamlarga tez qo‘shiladi. Muloqotmandlik imkoniyatlari (yoki atrofdagilar bilan o‘zaro bir-birini tushuna olish) har kimda har xil. Ular tajriba va muloqotdagi ehtiyojlar, shuningdek psixologik xususiyatlar bilan belgilanadi. Odamlarning o‘zaro hamkorligida o‘zaro aloqalar o‘rnatish prinsipi katta ahamiyatga ega. Bu prinsip odamlarning boshqalarga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi: bittasi o‘zini boshqalarga qarshi qo‘yadi, boshqalari aksincha, nisbatan yaxshi munosabatda; ba’zilari tajovuzkor, boshqalari dilkash.

Tajovuzkor, o‘zining adovatliligi va egaistligi bilan ajralib turadigan odamlar, odatda yuqori ziddiyatliligi bilan xarakterlanadi, bu esa qandaydir darajada moslashuv jarayonini qiyinlashtiradi, mehnatsevar odam esa, odatda, bir-birini o‘zaro tez tushunadi, yangi vaziyatga tez ko‘nikadi va shu bilan birga tez moslashadi.

Moslashuv jarayonining yana bir muhim tomoni, taklif qilinayotgan ijtimoiy rolni adekvat(o‘ziga mos) qabul qilish qobiliyatini aks ettiradigan ijtimoiylashuvdir. Qurolli Kuchlar safiga harbiy xizmat o‘tash uchun yoki shartnoma asosida harbiy xizmat o‘tash uchun kelgan odamning ijtimoiy roli ahamiyatli darajada o‘zgarishi sir emas. U Vatanining himoyachisiga aylanadi, bu esa unga aniq majburiyatlarni qo‘yadi, shu bilan birga aniq bir ijtimoiy rol o‘ynashni taqozo qiladi. Shaxs moslashuvi potensiali konsepsiyasi doirasida ijtimoiylashuv masalasining ikki jihati ko‘rib chiqiladi: ma’naviy-axloqiy me’yorlarni adekvat idrok qilish va bevosita ijtimoiy muhit talablariga bo‘lgan munosabat. Mehnat, harbiy, ijodiy va boshqa jamoalarning ko‘pchiligi ijobiy tashkil etilganligini izohlab o‘tish mumkin, ya’ni ular umuminsoniy axloq prinsiplari, umumiy qabul qilingan xulq-atvor asosida tashkil topadilar. Shuning uchun harbiy-kasbiy faoliyat sharoitlariga muvaffaqiyatli moslashish uchun umumiy qabul qilingan ijtimoiy me’yorlarga bo‘lgan munosabatning xarakteri o‘ta muhim. Bunda odamning amaliy faoliyati nafaqat ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan me’yorlarga, balki bevosita uni o‘rab turgan ijtimoiy muhit talablariga ham bog‘liq. Shuning uchun masalaning boshqa turi harbiy xizmatchining unga taklif etilayotgan ijtimoiy roli uning xohishlari namoyon bo‘lishiga o‘z ta’sirini o‘tkazadigan cheklanishlarga harbiy xizmatchining munosabatini aks ettiradigan masaladir.

Shunday qilib, shaxsning moslashuv qobiliyatlari kasbiy faoliyat muvaffaqiyati uchun katta ahamiyatga ega. Aynan ular har xil odamlarning turli funksional holatlarga ega bo‘lishi omilini shart qilib qo‘yadi. Funksional holat tushunchasini batafsil ko‘rib chiqamiz.

Hozirgi paytda yagona funksional holat tasniflanishi mavjud emas. Turli avtorlar ularni tasniflash uchun asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan funksional holatlar baholanishining turli mezonlarini o‘rtaga tashlaydilar. V.I.Medvedev va A.B.Leonovalar bunday mezonlar sifatida faoliyatning ishonarliligi va bahosi tushunchasidan foydalanishni taklif qiladilar.

Birinchi tushuncha odamning topshirilgan darajada faoliyatni bajarishi qobiliyatini xarakterlaydi, ikkinchisi – ushbu faoliyatni bajarish uchun to‘lov sifatida kuchlarning sarflanishi darajasi. Ta’kidlash lozimki, bu kategoriyalar o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq va odamning aniq bir faoliyatni ko‘p yoki kam vaqt davomida unumli bajarishi **ish qobiliyati** tushunchasini shakllantiradi.

Funksional holatlarni tasniflashning, ulardan eng ko‘p tarqalgani, bir necha tipli holatlarni ko‘rib chiquvchi, turli mexanizm, organ va tizimlar faolligi darajasini shartlovchi boshqa mezonlari ham mavjud. Bu esa eng avvalo **relaksatsiya** – tinchlantirish, bo‘shashtirish va qayta tiklash holatidir. Bu holat uchun yuqori dasturlash (o‘z-o‘zini tinchlantirishga moyillik) va barqarorlik xos. Bu holat uxlashga yotganda ma’qul va odamning jismoniy va psixik zaxiralarini tez tiklashni ta’minlaydi. Keyingi holat – **optimal ish holati**. Bu holatda odam samarali harakat qiladi, chunki bu holat faoliyatning samarsini ko‘proq ta’minlaydi. Bu holatni ko‘pincha qulay (komfort) holat deb atashadi. Aslida bu holat qarama-qarshi aytilgan. Bir tomondan u o‘z-o‘zini faollashtirishga imkon beradi, ikkinchi tomondan esa – kelgusi rivojlanishda ob’ektiv qonuniyatlarga asosan toliqish holatiga o‘tadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Прикладная военная психология. — СПб.: Питер, 2006. — 480 с: ил. — (Серия «Учебное пособие»).

2. Ковалев А.Г. Психология личности. –М., 1970.

3. Военная психология. Учебник. /. А.Г. Маклаков. - Санк- Петербург: Питер, 2005. - 464 б.

4.Mirabdullayeva Sh. – Toshkent.: AVS RU, 2019 – 490 b.

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ АДАПТАЦИЯ СОТРУДНИКОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Юлдашев Фуркат Равшанович

Курсант 3-го курса Академии МВД Республики Узбекистан

Научный руководитель: Кодиркулов Азизжон Саидкул угли,

Преподаватель кафедры служебной психологии и профессиональной культуры Академии МВД Республики Узбекистан

Аннотация. В работе профессиональная адаптация сотрудников органов внутренних дел рассматривается как системный и многоуровневый процесс, от которого в значительной степени зависит качество подготовки кадров и устойчивость последующей служебной деятельности. Показано, что адаптация не сводится к этапу первоначального «вхождения в профессию» или привыкания к условиям службы, а представляет собой динамическое согласование индивидуальных психологических ресурсов, профессиональных ожиданий и ценностей сотрудника с нормативно-правовыми, ролевыми и организационными требованиями правоохранительной деятельности. Особое внимание уделяется тому, что характер адаптационных процессов напрямую влияет на обучаемость, глубину усвоения профессиональных компетенций, формирование дисциплины, правомерности поведения и профессиональной идентичности.

Ключевые слова: профессиональная адаптация; органы внутренних дел; подготовка кадров; профессиональная социализация; дисциплина; правомерное поведение; дезадаптация; кадровая устойчивость; психологическое обеспечение.

Профессиональная адаптация сотрудников органов внутренних дел представляет собой один из базовых и стратегически значимых процессов, от которого напрямую зависит эффективность системы подготовки кадров и устойчивость последующей служебной деятельности. В условиях высокой нормативной регламентации, жёсткой иерархичности организационной структуры, повышенной социальной ответственности и значительной стрессогенности

правоохранительной службы успешная адаптация выступает критически важным условием формирования профессиональной надёжности, дисциплинированности и правомерного поведения. Ошибки или дефициты на этапе адаптации способны не только снизить индивидуальную результативность сотрудника, но и повлиять на качество исполнения служебных задач, уровень внутриподразделенческого взаимодействия и общественное доверие к правоохранительной системе в целом.

При этом профессиональная адаптация не может рассматриваться как кратковременный этап «вхождения» в должность или механического привыкания к новым условиям. Она затрагивает фундаментальные психологические, педагогические и организационные механизмы профессионального становления личности. Речь идёт о формировании устойчивых когнитивных схем восприятия служебной реальности, развитии адекватных стратегий саморегуляции, закреплении нормативно-правовых и морально-нормативных ориентиров, а также о выработке индивидуального стиля профессионального поведения. Таким образом, адаптация выступает не эпизодическим процессом, а структурным компонентом профессиональной социализации сотрудника органов внутренних дел.

Современные научные подходы трактуют профессиональную адаптацию как динамический, многоуровневый и системно обусловленный процесс согласования индивидуальных ресурсов личности с требованиями профессиональной среды. В контексте органов внутренних дел это согласование включает несколько взаимосвязанных направлений: освоение нормативно-правовых предписаний и процедур, принятие ролевых ожиданий и профессиональной идентичности, интеграцию в организационную культуру подразделения, а также формирование устойчивых моделей служебного поведения в условиях неопределённости и риска.

В отличие от формального усвоения инструкций и алгоритмов действий, профессиональная адаптация предполагает внутреннюю интериоризацию профессиональных норм и ценностей. Именно эта внутренняя интеграция обеспечивает их стабильное воспроизведение в ситуациях повышенного эмоционального напряжения, временного дефицита и конфликтного

взаимодействия. В правоохранительной сфере, где решения часто принимаются в условиях ограниченной информации и высокой ответственности, адаптационная зрелость сотрудника становится фактором предупреждения профессиональных ошибок, правонарушений и контрпродуктивных форм поведения. Кроме того, профессиональная адаптация тесно связана с формированием психологической устойчивости и профилактикой дезадаптивных состояний, таких как профессиональное выгорание, тревожность, ролевой конфликт и снижение мотивации. Успешная адаптация способствует укреплению чувства профессиональной значимости, развитию доверия к руководству и коллегам, а также формированию позитивной служебной идентичности. Напротив, её дефицит может приводить к формированию отчуждённости, формализму, снижению дисциплины и нарушению морально-нормативных стандартов. Профессиональная адаптация сотрудников органов внутренних дел должна рассматриваться как системный и управляемый процесс, требующий целенаправленного психологического сопровождения. Включение адаптационных программ в систему подготовки кадров позволяет обеспечить преемственность профессионального развития, повысить качество усвоения компетенций и сформировать устойчивую основу для правомерной и эффективной служебной деятельности.

С педагогической точки зрения профессиональная адаптация тесно связана с качеством обучаемости и глубиной усвоения профессиональных компетенций. На этапах обучения и первичной практики именно адаптационные процессы определяют, будет ли знание носить формально-декларативный характер либо станет основой осознанного и ответственного профессионального поведения. Нарушения адаптации проявляются в снижении учебной мотивации, поверхностном освоении материала, избегании сложных тем и практических модулей, что в дальнейшем затрудняет перенос знаний в реальные служебные ситуации. В результате формируется разрыв между формально подтверждённой подготовкой и фактической готовностью к выполнению профессиональных задач.

Особое значение адаптация приобретает в период первичной служебной социализации, когда обучающийся или молодой сотрудник сталкивается с

противоречием между ожиданиями и реальностью профессиональной деятельности. При отсутствии целенаправленного сопровождения это противоречие может приводить к развитию дезадаптивных стратегий - эмоционального отчуждения, формализма, циничных установок и сниженной ответственности. Подобные стратегии нередко закрепляются как элементы «скрытой учебной программы», транслируемой через неформальные нормы и примеры поведения, и в дальнейшем становятся источником профессиональных деформаций.

Дезадаптация в системе подготовки кадров ОВД имеет системные последствия. На индивидуальном уровне она сопровождается ростом эмоционального напряжения, снижением самоэффективности, развитием тревожности и профессионального выгорания. На организационном уровне дезадаптация проявляется в нарушениях дисциплины, снижении качества наставничества, росте конфликтности и повышении текучести кадров. В совокупности данные эффекты подрывают воспроизводство кадрового потенциала и повышают риски контрпродуктивного поведения, что особенно критично для правоохранительной сферы.

В противоположность этому управляемая профессиональная адаптация выступает ресурсом повышения качества подготовки кадров. Целенаправленное адаптационное сопровождение способствует формированию устойчивой профессиональной идентичности, развитию саморегуляции и внутренней ответственности за соблюдение норм и процедур. В педагогическом аспекте это означает переход от стихийного усвоения профессиональных ролей к осознанному и рефлексивному профессиональному развитию, при котором обучающийся понимает не только «что делать», но и «почему именно так».

Эффективная система адаптационного сопровождения предполагает интеграцию психологических и педагогических механизмов в образовательный процесс. К ним относятся: структурированное наставничество, прозрачность требований и критериев оценки, поэтапное усложнение профессиональных задач, регулярная обратная связь и создание психологически безопасной учебной среды.

Важную роль играет подготовка наставников к работе с адаптационными трудностями, включая раннее выявление признаков дезадаптации и корректную маршрутизацию обучающихся к специалистам психологической службы.

Таким образом, профессиональная адаптация сотрудников органов внутренних дел должна рассматриваться не как вспомогательный или вторичный процесс, а как управляемый элемент системы подготовки кадров. Её институциональное включение в образовательные и служебные практики позволяет повысить устойчивость обучения, снизить кадровые потери и сформировать основу для правомерного, ответственностного и психологически устойчивого профессионального поведения. В долгосрочной перспективе это способствует укреплению эффективности правоохранительной деятельности и общественного доверия к институтам органов внутренних дел.

Список литературы:

1. Маклаков А. Г. Психология адаптации личности. - СПб. : Питер, 2001. - 256 с.

2. Климов Е. А. Психология профессионального самоопределения. - М. : Академия, 2004. - 304 с.

3. Van Maanen J., Schein E. H. Toward a theory of organizational socialization // Research in Organizational Behavior. - 1979. - Vol. 1. - P. 209–264.

ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ВЫГОРАНИЕ В ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ: ПРИЧИНЫ, ДИНАМИКА РАЗВИТИЯ И ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЕ СТРАТЕГИИ

Умарова Сарвиноз Сардорбек кизи,
Курсант 2-го курса Академии МВД Республики Узбекистан
Научный руководитель:Кодиркулов Азизжон Саидкул угли,
Преподаватель кафедры Служебной психологии и профессиональной культуры Академии МВД Республики Узбекистан

Аннотация. В тексте профессиональное выгорание сотрудников органов внутренних дел рассматривается как системно значимый фактор риска, существенно влияющий на качество подготовки кадров и последующую надёжность служебной деятельности. Показано, что выгорание затрагивает базовые психологические механизмы профессиональной эффективности - мотивацию, саморегуляцию, коммуникативное поведение и нравственную устойчивость - и может формироваться уже на этапах обучения, практики и первичной служебной социализации. Анализируется влияние выгорания на усвоение профессиональных компетенций, формирование профессиональной идентичности, эффективность наставничества и функционирование «скрытой учебной программы». Обосновывается необходимость интеграции профилактики и ранней диагностики профессионального выгорания в систему подготовки кадров ОВД как сквозного элемента психологического обеспечения, направленного на снижение кадровых потерь, предупреждение контрпродуктивного поведения и укрепление институциональной устойчивости.

Ключевые слова: профессиональное выгорание; органы внутренних дел; подготовка кадров; профессиональная идентичность; наставничество; психологическое обеспечение; контрпродуктивное поведение; кадровая устойчивость.

В системе подготовки кадров органов внутренних дел профессиональное выгорание следует рассматривать как системно значимый фактор риска, оказывающий многоуровневое и отсроченное влияние на качество профессионального обучения и надёжность последующей служебной деятельности. В отличие от ситуативной усталости, профессиональное выгорание представляет собой устойчивый синдром эмоционального, когнитивного и мотивационного истощения, который подрывает базовые психологические ресурсы, необходимые для успешного освоения и реализации правоохранительных функций. Его развитие напрямую затрагивает такие ключевые компоненты профессиональной эффективности, как учебная и служебная мотивация, способность к саморегуляции, качество коммуникативного взаимодействия и нравственно-нормативная устойчивость.

Особую опасность представляет тот факт, что предпосылки профессионального выгорания могут формироваться уже на ранних этапах профессионального становления — в период обучения, прохождения практики и первичной служебной социализации. Высокая учебная и эмоциональная нагрузка, жёсткая регламентация, дефицит автономии, несоответствие ожиданий и реального содержания подготовки, а также наблюдение выгоревших моделей поведения у наставников и старших коллег создают условия для раннего истощения психологических ресурсов обучающихся. В этих условиях выгорание выступает не как следствие многолетней службы, а как латентный процесс, закладывающийся в системе подготовки кадров.

С педагогической точки зрения профессиональное выгорание существенно снижает качество усвоения профессиональных компетенций. Эмоциональное истощение и деперсонализация ведут к формальному отношению к обучению, утрате учебной вовлечённости, снижению интереса к содержанию дисциплин и ориентации на минимально допустимый результат. В результате обучение приобретает репродуктивный и поверхностный характер, а сформированные знания и навыки оказываются слабо интегрированными и нестойкими. Это

негативно отражается на переносе теоретических знаний в практическую деятельность и повышает вероятность ошибок в условиях реальной службы.

Профессиональное выгорание оказывает выраженное влияние на формирование профессиональной идентичности будущих сотрудников ОВД. В условиях хронического эмоционального истощения снижается значимость ценностей служения, законности и общественной миссии, усиливаются циничные установки, дистанцирование от граждан и формирование инструментального отношения к профессиональным обязанностям. Это искажает процесс профессиональной социализации и способствует закреплению деформированных моделей поведения, которые в дальнейшем могут воспроизводиться и транслироваться в служебных коллективах.

Отдельного внимания заслуживает влияние выгорания на эффективность наставничества и функционирование так называемой «скрытой учебной программы». Наставники, демонстрирующие признаки эмоционального выгорания, непреднамеренно транслируют обучающимся установки формализма, эмоционального отчуждения и снижения значимости нормативно-этических требований. В результате даже при формально корректных учебных программах обучающиеся усваивают не декларируемые ценности профессионализма и служебной этики, а адаптационные стратегии выживания, ориентированные на минимизацию усилий и эмоциональное дистанцирование.

В организационном измерении профессиональное выгорание повышает риски контрпродуктивного поведения, снижает дисциплину, усиливает конфликтность и способствует росту кадровых потерь на этапах обучения и первичной службы. Отсутствие системной профилактики приводит к накоплению психологически уязвимых сотрудников, что негативно отражается на устойчивости всей системы подготовки и функционирования органов внутренних дел.

В этой связи профилактика и ранняя диагностика профессионального выгорания должны быть интегрированы в систему подготовки кадров ОВД как сквозной элемент психологического обеспечения. Эффективный подход предполагает сочетание регулярного мониторинга эмоционального состояния

обучающихся, оптимизации учебной и практической нагрузки, развития навыков саморегуляции и восстановления, а также подготовки наставников и преподавателей к раннему распознаванию признаков истощения. Важным условием является формирование психологически безопасной образовательной среды, в которой обращение за поддержкой не воспринимается как признак слабости или профессиональной несостоятельности.

Таким образом, профессиональное выгорание сотрудников органов внутренних дел представляет собой не частную индивидуальную проблему, а системный педагогический и организационный риск. Его своевременная профилактика в процессе подготовки кадров способствует снижению кадровых потерь, предупреждению контрпродуктивного поведения, укреплению профессиональной идентичности и повышению институциональной устойчивости правоохранительной деятельности в целом.

Список литературы:

1. Maslach C., Jackson S. E., Leiter M. P. Maslach Burnout Inventory Manual. - 3rd ed. - Palo Alto, CA : Consulting Psychologists Press, 1996. - 52 p.

2. Bakker A. B., Demerouti E. The Job Demands–Resources model: State of the art // Journal of Managerial Psychology. - 2007. - Vol. 22, No. 3. - P. 309–328.

3. Водопьянова Н. Е., Старченкова Е. С. Синдром выгорания: диагностика и профилактика. - СПб. : Питер, 2012. - 336 с.

ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ДИАГНОСТИКА В СИСТЕМЕ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ КАК МЕХАНИЗМ ОТБОРА, СОПРОВОЖДЕНИЯ И ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ РИСКОВ

Маюсупова Ширин Шункор кизи,

Курсант 2-го курса Академии МВД Республики Узбекистан

Научный руководитель:Кодиркулов Азизжон Саидкул угли,

Преподаватель кафедры Служебной психологии и профессиональной культуры Академии МВД Республики Узбекистан

Аннотация. В статье психологическая диагностика в системе подготовки кадров органов внутренних дел рассматривается как научно обоснованный инструмент управляемого отбора, сопровождения и профилактики профессиональных рисков, обеспечивающий повышение качества кадрового воспроизводства. Обосновывается положение о том, что в условиях высокой ответственности, регламентированности и стрессогенности правоохранительной деятельности психодиагностика позволяет выйти за рамки формальной оценки учебной успеваемости и перейти к комплексной оценке психологической готовности, поведенческой надёжности и потенциала профессионального развития сотрудников. Анализируется роль диагностических процедур на ключевых этапах подготовки – первичном профессиональном отборе, периоде адаптации, мониторинге динамики личностного и профессионального развития, а также в системе аттестации и кадровых решений. Показано, что интеграция психодиагностики в систему непрерывного психологического обеспечения подготовки кадров ОВД повышает валидность оценки компетенций, способствует раннему выявлению дезадаптивных тенденций и снижает риски профессиональных деформаций. Подчёркивается необходимость реализации диагностики на принципах научности, этичности, конфиденциальности и развивающей направленности.

Ключевые слова: психологическая диагностика; органы внутренних дел; подготовка кадров; кадровый отбор; профессиональная надёжность; адаптация; аттестация; профессиональные деформации; психологическое обеспечение.

Richard Lazarus stressni vaziyatning sub’ektiv baholanishi bilan bog‘lagan [6]. Harbiy xizmatchining vaziyatni tahdid yoki chaqiriq sifatida qabul qilishi uning fiziologik javobini belgilaydi.

Psixofiziologik tayyorgarlikning strukturaviy komponentlari

Psixofiziologik tayyorgarlik quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Stressga chidamlilik;
2. Emotsional barqarorlik;
3. Kognitiv moslashuvchanlik;
4. Irodaviy sifatlar;
5. Sensor-motor koordinatsiya.

Mazkur komponentlar o‘zaro integratsiyalashgan holda jangovar samaradorlikni ta’minlaydi.

Asosiy mexanizmlar

Adaptatsion mexanizm

Adaptatsiya tashqi omillarga moslashish jarayonidir. Takroriy stress-treninglar organizmning moslashuv salohiyatini oshiradi [7].

Neyroplastiklik mexanizmi

Neyroplastiklik miyaning tajribaga mos ravishda o‘zgarish qobiliyatidir. Maxsus kognitiv mashg‘ulotlar yangi neyron aloqalarni shakllantiradi va tezkor qaror qabul qilishni yaxshilaydi [8].

Psixoregulyatsiya mexanizmi

Autogen mashqlar, nafas olish texnikalari va biofeedback usullari vegetativ tizimni boshqarishga yordam beradi [9].

Ijtimoiy-psixologik mexanizm

Jamoaviy birdamlik (unit cohesion) jangovar samaradorlikning muhim omili hisoblanadi [10]. Guruh ichidagi ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash stress ta’sirini kamaytiradi.

Axborot-psixologik tahdidlar sharoitida barqarorlik

Gibrid urushning muhim elementi – axborot maydonidagi kurashdir. Dezinformatsiya, manipulyatsiya va psixologik bosim harbiy xizmatchilarning ruhiy holatiga ta’sir ko‘rsatadi [11].

Axborot immunitetini shakllantirish uchun:

- tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;
- media savodxonlikni oshirish;
- psixologik barqarorlik treninglari o‘tkazish zarur.

Posttravmatik stress buzilishi profilaktikasi

Uzoq muddatli jangovar harakatlar PTSB rivojlanish xavfini oshiradi [12]. Profilaktika choralariga quyidagilar kiradi:

- erta diagnostika;
- psixologik debrifing;
- reabilitatsiya dasturlari.

XULOSA

Gibrid urush sharoitida harbiy xizmatchilarning psixofiziologik tayyorgarligi zamonaviy harbiy faoliyatning strategik omili hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jang maydoni nafaqat jismoniy va taktika jihatdan murakkab bo‘lib qolmay, balki axborot va psixologik bosim bilan to‘la bo‘ladi. Shu bois harbiy xizmatchilarni tayyorlash jarayoni faqat qurolli kuchlarni rivojlantirishdan iborat bo‘lmay, balki ularning ruhiy barqarorligini, stressga chidamliligini va qaror qabul qilish tezligini oshirishga qaratilgan kompleks tizim bo‘lishi kerak.

Mazkur maqolada stressning psixofiziologik mexanizmlari, xususan, gipotalamo-gipofizar-buyrak usti bezi (HPA) o‘qi orqali kortizol sekretsiyasi va simpatik nerv tizimi faolligi jarayonlari tahlil qilindi. Stress sharoitida kognitiv funksiyalar va e’tibor darajasi pasayishi mumkinligi ta’kidlandi, bu esa jangovar vazifalarni bajarishda xavf tug‘diradi. Shu sababli, harbiy xizmatchilarda stressga chidamlilikni oshirish maqsadida adaptatsiya, neyroplastiklik, psixoregulyatsiya va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari birgalikda qo‘llanilishi zarur.

Adaptatsion mexanizm harbiy xizmatchilarning tashqi sharoitlarga moslashuvchanligini oshiradi, neyroplastiklik esa tezkor qaror qabul qilish va kognitiv moslashuvchanlikni rivojlantiradi. Psixoregulyatsiya mexanizmlari vegetativ tizimni boshqarish va emotsional barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmi esa guruhdagi birdamlik va ishonchni mustahkamlash orqali jangovar samaradorlikni oshiradi.

Gibrid urush sharoitida axborot-psixologik tahdidlar, jumladan dezinformatsiya va manipulyatsiya harbiy xizmatchilarning ruhiy holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli axborot immunitetini shakllantirish va media-savodxonlikni rivojlantirish ham psixofiziologik tayyorgarlikning ajralmas qismi hisoblanadi.

Posttravmatik stress buzilishi (PTSB) xavfini kamaytirish uchun profilaktik chora-tadbirlar: erta psixologik intervensiya, guruhiy debrifing va individual reabilitatsiya dasturlarini o‘z vaqtida joriy etish muhimdir. Bu esa harbiy xizmatchilarning jangdan keyingi ruhiy barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Natijada, gibrid urush sharoitida harbiy xizmatchilarning psixofiziologik tayyorgarligi ko‘p darajali, integratsiyalashgan va tizimli yondashuvni talab qiladi. Zamonaviy tayyorgarlik dasturlarida jismoniy, psixologik va ijtimoiy komponentlar bir vaqtning o‘zida rivojlantirilishi lozim. Bu esa jangovar samaradorlikni maksimal darajada oshirish, stressga chidamlilikni ta’minlash va harbiy xizmatchilarning ruhiy salomatligini saqlash imkonini beradi.

Shu bois, gibrid urush sharoitida psixofiziologik tayyorgarlikni rivojlantirish nafaqat harbiy bilim va ko‘nikmalarni oshirish, balki jangovar holatlarda ong va ruhiy

barqarorlikni ta’minlash orqali strategik ustunlikka erishishning muhim omili sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hoffman F. Hybrid Warfare and Challenges. – Washington, 2007.
2. Zamonaviy harbiy mojarolar tahlili (Ukraina tajribasi).
3. Gerasimov V. The Value of Science in Prediction.
4. Selye H. The Stress of Life. – New York, 1956.
5. McEwen B. Stress and Neurobiology.
6. Lazarus R. Psychological Stress and Coping Process. – New York, 1966.
7. Meichenbaum D. Stress Inoculation Training.
8. Doidge N. The Brain That Changes Itself.
9. Lehrer P. Biofeedback and Self-Regulation.
10. Grossman D. On Combat.
11. Axborot-psixologik xavfsizlik bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar.
12. PTSD bo‘yicha klinik qo‘llanmalar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ И ЗАКОНОМЕРНОСТИ УСТАНОВЛЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ С ГРАЖДАНАМИ В РАМКАХ ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

Атабаев Данил Дамирович

курсант Академии МВД Республики Узбекистан

Научный руководитель: Бекбергенов Рахим Куанишбой угли

Преподаватель кафедры Служебной психологии и профессиональной культуры Академии МВД Республики Узбекистан

Аннотация. В тексте эффективный психологический контакт с гражданами рассматривается как ключевой профессиональный фактор, определяющий

результативность профилактической деятельности и качество подготовки кадров органов внутренних дел. Показано, что первичное взаимодействие сотрудника с гражданами влияет на уровень доверия, готовность к сотрудничеству и добровольное соблюдение законных требований, а также на снижение социальной напряжённости и предупреждение правонарушений. Анализируется роль коммуникативной компетентности, навыков деэскалации, активного слушания и процедурной справедливости в профилактической работе. Обосновывается необходимость интеграции формирования эффективного психологического контакта в систему подготовки кадров ОВД как базовой профессиональной компетенции, направленной на повышение легитимности и долгосрочной эффективности профилактических мер.

Ключевые слова: психологический контакт; профилактическая деятельность; органы внутренних дел; подготовка кадров; коммуникативная компетентность; деэскалация; процедурная справедливость; доверие граждан; профилактика правонарушений.

Эффективный психологический контакт с гражданами в профилактической деятельности является одним из ключевых факторов качества подготовки кадров органов внутренних дел, поскольку именно первичное и последующее взаимодействие сотрудника с гражданином во многом определяет характер дальнейших отношений, уровень доверия к правоохранительным институтам и готовность к правомерному поведению. В условиях профилактической работы сотрудник ОВД реализует не только властные и контрольные функции, но и функции социального регулирования, коммуникации и психологического воздействия. От его способности установить рабочий контакт, снизить эмоциональное напряжение, корректно разъяснить правовые основания вмешательства и продемонстрировать уважение к личности зависит не только успешность конкретного профилактического мероприятия, но и общий профилактический эффект, выражающийся в снижении конфликтности, предупреждении повторных правонарушений и формировании устойчивого правосознания.

В профилактическом контексте психологический контакт следует рассматривать как целенаправленный процесс установления и поддержания профессионально выверенного взаимодействия, основанного на сочетании правовой определённости и психологической гибкости. Такой контакт предполагает умение сотрудника учитывать эмоциональное состояние гражданина, его индивидуальные особенности, социальный контекст ситуации, а также возможные скрытые мотивы сопротивления или избегания взаимодействия. Особое значение это приобретает при работе с уязвимыми категориями населения - несовершеннолетними, лицами, находящимися в кризисной жизненной ситуации, гражданами с повышенным уровнем тревожности, агрессии или недоверия к представителям власти.

Во-первых, психологический контакт существенно повышает результативность профилактических мер. Там, где сотрудник способен оперативно выстроить доверительную, но профессионально дистанцированную коммуникацию, граждане чаще идут на контакт, предоставляют достоверную информацию, принимают профилактические рекомендации и демонстрируют большую готовность к добровольному соблюдению установленных правил и норм. Профилактическая беседа в таких условиях перестаёт восприниматься как формальный контроль или давление и приобретает характер разъяснительного и предупреждающего воздействия. Это особенно важно при работе с группами риска, неблагополучными семьями, несовершеннолетними с девиантными проявлениями, а также в ситуациях бытовых и межличностных конфликтов, где успех профилактики напрямую зависит от готовности сторон к диалогу.

Во-вторых, эффективный психологический контакт снижает вероятность эскалации конфликтов и профессиональных ошибок. Профилактическая деятельность нередко осуществляется в условиях эмоционального напряжения, когда граждане испытывают страх, раздражение, стыд, чувство несправедливости или угрозы своему статусу. Недостаточный уровень коммуникативной компетентности сотрудника в таких ситуациях повышает риск неверной интерпретации поведения гражданина, провоцирует сопротивление, конфликты,

жалобы и может привести к применению несоразмерных мер воздействия. Напротив, владение навыками активного слушания, эмпатического уточнения, вербализации эмоций, использования «я-сообщений», а также техник деэскалации позволяет удерживать взаимодействие в правовом и психологически безопасном русле, минимизируя вероятность перехода ситуации в силовой или конфликтный сценарий.

Во-третьих, психологический контакт выступает важнейшим механизмом формирования доверия и легитимности профилактической деятельности органов внутренних дел. Современные исследования подчёркивают значимость восприятия процедурной справедливости, включающей уважительное отношение, нейтральность, понятность принимаемых решений и возможность быть услышанным. Когда граждане воспринимают действия сотрудника как справедливые и обоснованные, даже при наличии ограничительных мер, у них формируется более высокий уровень доверия к правоохранительной системе в целом. Это доверие имеет пролонгированный эффект: граждане чаще обращаются за помощью, своевременно информируют о рисках и угрозах, охотнее взаимодействуют с участковыми и профилактическими службами, что повышает общий уровень профилактической эффективности.

С точки зрения профессиональной подготовки кадров органов внутренних дел это означает необходимость рассматривать навыки установления и поддержания психологического контакта не как факультативное дополнение, а как базовую профессионально значимую компетенцию. Коммуникативная некомпетентность в профилактической деятельности способна нивелировать даже высокий уровень правовой подготовки и знание нормативных требований, тогда как развитые психологические навыки позволяют более эффективно реализовывать служебные полномочия в рамках закона и с минимальными социальными издержками.

Следовательно, развитие навыков эффективного психологического контакта должно быть системно встроено в процесс профессиональной подготовки и повышения квалификации сотрудников ОВД в качестве практико-ориентированного модуля. На уровне обучения целесообразно использовать

тренинги профессиональной коммуникации и деэскалации, отработку типовых и нетиповых сценариев профилактической беседы, упражнения на активное слушание и управление собственными эмоциональными реакциями, моделирование конфликтных ситуаций с последующим анализом допущенных ошибок и успешных стратегий поведения. Важным компонентом является обучение культурно чувствительной коммуникации и особенностям взаимодействия с различными социальными и возрастными группами. Отдельного внимания заслуживает взаимосвязь психологического контакта и профессиональной саморегуляции сотрудника органов внутренних дел. Установление устойчивого и конструктивного контакта с гражданами невозможно без развитых навыков осознания и управления собственными эмоциональными реакциями, особенно в условиях повышенного стресса, временного дефицита и потенциальной конфликтности ситуации. Неспособность сотрудника контролировать раздражение, тревогу или защитные реакции нередко приводит к коммуникативным сбоям, формализации общения и росту взаимного недоверия. Напротив, сформированная эмоциональная саморегуляция позволяет сотруднику сохранять профессиональную позицию, гибко адаптировать стиль общения и выбирать адекватные психологические средства воздействия в зависимости от особенностей гражданина и ситуации. В этом контексте психологический контакт выступает не только как результат коммуникативных умений, но и как индикатор уровня профессиональной зрелости сотрудника ОВД, отражающий его способность сочетать правовую строгость с психологической устойчивостью. Следовательно, развитие саморегуляции, стрессоустойчивости и рефлексивных навыков должно рассматриваться как неотъемлемая часть формирования эффективного психологического контакта в профилактической деятельности, обеспечивая долгосрочную результативность и снижение профессиональных рисков.

Кроме того, эффективность психологического контакта во многом определяется способностью сотрудника органов внутренних дел учитывать динамику взаимодействия и своевременно корректировать используемую

коммуникативную стратегию. Профилактическое общение не является статичным или одноразовым актом, а представляет собой процесс, требующий постоянной оценки вербальных и невербальных реакций гражданина, степени его включённости в диалог, уровня эмоционального напряжения и готовности к сотрудничеству. Игнорирование этих параметров может приводить к формализации контакта и усилению сопротивления, тогда как гибкость коммуникации, изменение темпа беседы, формы подачи информации и глубины обсуждаемых вопросов позволяют поддерживать рабочий контакт даже в условиях выраженного недоверия или негативных ожиданий. Особое значение имеет способность сотрудника своевременно распознавать признаки нарастания напряжения и использовать превентивные приёмы деэскалации, предотвращая переход взаимодействия в конфликтную фазу. Тем самым адаптивность коммуникативного поведения выступает важным условием достижения профилактических целей без обращения к принудительным мерам, сохраняя правовую корректность и психологическую безопасность взаимодействия. На уровне служебного наставничества и практической подготовки особое значение приобретают формирование стандартов профессионального общения, регулярная обратная связь по качеству контакта с гражданами и оценивание не только формального результата профилактического мероприятия, но и процесса взаимодействия. Анализ таких параметров, как тон общения, уважительность, ясность разъяснений, способность к самоконтролю и эмоциональной регуляции, позволяет формировать у сотрудников устойчивые профессиональные навыки, повышающие эффективность профилактической деятельности и укрепляющие доверие общества к органам внутренних дел.

Список литературы:

1. Tyler T. R. Why people obey the law. - Princeton : Princeton University Press, 2006. - 336 p.

2. Skogan W. G. Police and community in Chicago: A tale of three cities. - Oxford : Oxford University Press, 2006. - 320 p.

3. Карабанова О. А. Психология общения и межличностных отношений: учебное пособие. - М. : Гардарики, 2011. - 304 с.

HARBIY XIZMATCHILARNING VOYAGA YETMAGAN FARZANDLARINI ZAMONAVIY TAHDIDLARDAN HIMOYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA HARBIY PSIXOLOGIYANING O‘RNI

Jo‘rayev Qobiljon Olimjonovich
Jamoat xavfsizligi universiteti magistratura tinglovchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarning voyaga yetmagan farzandlariga nisbatan sodir etilayotgan zo‘ravonlik holatlari, ularning oldini olish choralari, huquqiy asoslari va shu bilan birga voyaga yetmaganlarni zamonaviy tahdidlardan himoya qilishning bugungi kundagi ahamiyati yoritiladi. Maqolada jismoniy, ruhiy, jinsiy va iqtisodiy zo‘ravonlik shakllari tahlil qilinib, ularning voyaga yetmaganlarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishidagi xavfli oqibatlari ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, voyaga yetmaganlarni zo‘ravonlikdan himoya qilishning huquqiy asoslari yoritilgan. Mazkur mavzuni o‘rganish orqali bolalarning huquqlarini himoya qilish, ularning sog‘lom va xavfsiz muhitda voyaga yetishiga ko‘maklashish muhimligi asoslab beriladi.

Kalit so’zlar: Voyaga yetmagan, zo’ravonlik, jinsiy zo’ravonlik, jismoniy zo’ravonlik, kamsitilish, qartovsizlik.

Barchaga ma’lumki, jamiyatimizda inson omili asosiy o‘rinda turadi. Bunda barcha davlat organlari, davlat xizmatchilari aholi, ya’ni inson uchun, uning tinchlik-osoyishtaligi, haq-huquqlari, erkinlari uchun ishlashi nazarda tutilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev adolatli, erkin va farovon jamiyat qurishimiz zarur, bu yo‘lda “Inson – qadri uchun”, “Davlat – inson uchun” g‘oyasi ila mehnat qilmog‘imiz shart, deb bejizga ta’kidlamagan.

Ayni vaqtda global miqyosda bolalar huquqlarining buzilishi bilan bog‘liq holatlar keskinlik kasb etmoqda. Xususan, xalqaro internet manbalarida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, jahonda taxminan 250 million bola maktab ta’limi o‘rniga turli shakllardagi mehnat faoliyatiga jalb etilgan. Ulardan 5,7 millioni majburiy mehnat sharoitida ishlamoqda, 70 milliondan ortiq bola umuman maktab ta’limidan chetda qolgan, 1,8 million bola esa fohishalik va pornografik faoliyatga majburiy tarzda jalb etilgan. Eng ayanchlisi shuki, har yili 1,2 million bola odam savdosi qurboniga aylanmoqda[19]. Bu ko‘rsatkichlar bolalarga nisbatan sodir etilayotgan transmilliy jinoyatlarning miqyosi va ijtimoiy-huquqiy xavf darajasining nihoyatda yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, voyaga yetmaganlarni ekspluatatsiya qilish, ularni jinoyatning bevosita obyektiga aylantirish holatlari insoniyat taraqqiyoti uchun jiddiy tahdid bo‘lib, ularni bartaraf etish xalqaro hamkorlikka asoslangan kompleks yondashuvni talab qiladi.

Shu munosabat bilan, bolalar huquqlarini himoya qilishga doir huquqiy siyosat milliy chegaralardan tashqariga chiqib, xalqaro huquq normalari, inson huquqlari bo‘yicha konvensiyalar va global profilaktika mexanizmlariga tayanishi lozim. Bu jarayonda davlatlar o‘rtasida axborot almashinuvi, jinoyatchilikka qarshi xalqaro monitoring tizimlari va nogiron, muhojir yoki yetim bolalar bilan bog‘liq alohida himoya choralari muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur xalqaro holatlar fonida O‘zbekiston Respublikasida aholining demografik tarkibida bolalar salmoqli o‘rinni egallashi ushbu masalaga yanada jiddiyroq yondashishni taqozo etadi. Jumladan, rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatimiz aholisi tarkibining 36,6 foizini — ya’ni 12 157 063 nafarini 0 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar tashkil etadi. Ularning 51,7 foizi (6 279 778 nafar) o‘g‘il bolalar, 48,3 foizi (5 877 285 nafar) esa qiz bolalardir. Yosh guruhlari bo‘yicha tahlil qilganda esa bolalarning 10,7 foizi 0–4 yosh, 9,6 foizi 5–9 yosh, 8,6 foizi 10–14 yosh va 7,7 foizi 15–18 yosh toifasiga kiradi[20].

[19] Исмоилов И., Зиёдуллаев М., Исроилова Н., Азимова Ф. Вояга етмаганлар назоратсизлиги ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш:Ўқув амалий қўлланма /Масъул муҳаррир И.Исмоилов.– Т.,2011.–Б-10.
[20] Ёдгоров Х., Ўзбекистон Республикаси Олий суди раисининг ўринбосари, Фуқаролик ишлари бўйича судлов ҳайъати раиси / Вояга етмаган болалар нега жиноят содир етмоқда? кун.уз / Жамият: 02.03.2018.

Bu demografik tarkib O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy siyosatni shakllantirishda asosiy strategik omillardan biri sifatida qaralishi kerakligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respunlikasining 2014-yil 14-noyabr kuni qabul qilingan “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni 3-moddasida bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka quyidagicha tarif beriladi.

Bolaning hayotiga, sog‘lig‘iga, jinsiy daxlsizligiga, sha’niga, qadr-qimmatiga hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan, jismoniy yoki ruhiy azob yetkazayotgan yoki yetkazishi mumkin bo‘lgan hamda asosiy ehtiyojlariga zid bo‘lgan, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet butunjahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda amalga oshiriladigan, qasddan sodir etiladigan harakat (harakatsizlik) bolalarga nisbatan zo‘ravonlik deb e’tirof etiladi.

Jismoniy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, ruhiy zo‘ravonlik, g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik, ekspluatatsiya qilish va ta’qib etish (bulling) bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning shakllaridir. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning barcha shakllari taqiqlanadi hamda qonun bilan ta’qib qilinadi.

Bolalarga og‘irligi turli darajada bo‘lgan tan jarohatlari yetkazish, ularni xavf ostida qoldirish, hayoti va sog‘lig‘i uchun xavfli holatda bo‘lgan bolalarga yordam ko‘rsatmaslik hamda zo‘ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklarni sodir etish yoxud bolalarning hayoti, sog‘lig‘i yoki erkinligiga tajovuz qiladigan jismoniy ta’sir o‘tkazish bolalarga nisbatan jismoniy zo‘ravonlik deb e’tirof etiladi.

Bolaga nisbatan shahvoniy xususiyatga ega bo‘lgan harakatlarni sodir etish orqali uning jinsiy daxlsizligiga tajovuz qilish, shu jumladan nomusga tegish, jinsiy ehtiyojni zo‘rlik ishlatib g‘ayritabiiy usulda qondirish, jinsiy aloqa qilishga majburlash, o‘n olti yoshga to‘lmagan shaxs bilan jinsiy aloqa qilish, voyaga yetmagan shaxsni pornografik xususiyatga ega harakatlar ijrochisi sifatida jalb etish, voyaga yetmagan shaxsni jalb etgan holda qo‘shmachilik qilish, fohishaxonalar tashkil etish yoxud unga nisbatan uyatsiz-buzuq harakatlar sodir etish, aldash yoki ishonchni suiiste’mol qilish orqali yoxud bolaning ojizligidan foydalanib shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir

etish, shahvoniy shilqimlik qilish, shuningdek qonunda taqiqlangan, shahvoniy xususiyatga ega bo‘lgan har qanday boshqa harakatlar bolalarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik deb e’tirof etiladi.

Bolalarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish, ularni tahqirlash, shuningdek bolalarning asosiy ehtiyojlarini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalangan zo‘ravonlik shakli, shu jumladan zo‘ravonlikdan jabrlanuvchida o‘z xavfsizligi uchun xavotir uyg‘otgan, o‘zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog‘lig‘iga zarar yetkazgan harakatlar (harakatsizlik) bolalarga nisbatan ruhiy zo‘ravonlik deb e’tirof etiladi.

Zarur imkoniyatlar, bilimlar va ko‘nikmalarga, shu jumladan buning uchun tegishli xizmatlardan (davlat, tibbiy, ta’lim, ijtimoiy va boshqa xizmatlardan) foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lgan ota-ona (ular o‘rnini bosuvchi yoki bolaga qarab turgan shaxslar) tomonidan bolaning asosiy ehtiyojlarini qanoatlantirmaslik bolaning sog‘lig‘i, jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishi buzilishiga olib kelsa, g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaslik deb e’tirof etiladi.

Boladan iqtisodiy, jinsiy va boshqa maqsadlarda foydalanish, shu jumladan odam savdosi, g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga va tilanchilik qilishga jalb etish, jinsiy ekspluatatsiya, shuningdek jismoniy yoki ruhiy ta’sir ko‘rsatishni qo‘llagan holda bolani majburlash orqali boladan nikohga kirish yoki er-xotin bo‘lib yashash, muayyan diniy ta’lim olish, har qanday shakldagi mehnatga majburlash uchun foydalanish bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga, shu jumladan ta’lim olishiga tahdid tug‘dirsa, bolalarni ekspluatatsiya qilish deb e’tirof etiladi.

Bir guruh bolalar yoki bitta bola tomonidan boshqa bolaga yoki bolalarga nisbatan haqoratli laqablardan foydalanish, u (ular) bilan har qanday muloqotni cheklab qo‘yish (boykot qilish), uning (ularning) mol-mulkini olib qo‘yish va (yoki) mol-mulkiga zarar yetkazish, uning (ularning) o‘ziga xos jismoniy, psixologik yoki intellektual xususiyatlarini ommaviy muhokama qilish, uning (ularning) sha’ni va qadr-qimmatini kamsitish yoxud uning (ularning) sog‘lig‘i va hayotiga zarar yetkazish, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlaridan va Internet butunjahon axborot tarmog‘idan

foydalangan holda amalga oshiriladigan, muttasil ruhiy va (yoki) jismoniy tajovuzkor ta’sir ko‘rsatish ta’qib etish (bulling) deb e’tirof etiladi.

Bolaning to‘laqonli rivojlanishi, uning jismoniy va ruhiy salomatligi uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta’minlanishi, xavfsizlik, ta’lim olish, katta yoshdagilarning g‘amxo‘rligi, ijtimoiy aloqalar o‘rnatish, hayotiy ko‘nikmalari rivojlanishi va o‘z imkoniyatlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoitlar yaratilishini qamrab oladigan hayotiy muhim ehtiyojlar majmui bolaning asosiy ehtiyojlari deb e’tirof etiladi.

Davlat bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish uchun tegishli huquqiy, ma’muriy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa choralarni ko‘radi, shu jumladan bolani va uning oilasini qo‘llab-quvvatlaydi hamda bolalarga nisbatan va bolalar o‘rtasidagi zo‘ravonlikning barcha shakllari hollarini aniqlash hamda ularning oldini olish, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik hollari to‘g‘risida xabardor qilish, ushbu faktlarni tekshirish, aybdor shaxslarning javobgarlikka tortilishi muqarrarligini ta’minlash, zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarni reabilitatsiya qilish va ularning huquqlarini tiklash hamda ularni ijtimoiy moslashtirish uchun zarur bo‘lgan samarali mexanizmlarni yaratadi[21].

Beparvo qoldirilgan bolalar jismoniy va psixosotsial rivojlanishda kechikishlarni boshdan kechirishi mumkin. E’tiborsizlik qurboni bo‘lgan bolalar hayotining dastlabki bosqichlarida zarur bo‘lgan bog‘liqlik hissiga to‘yinmaganligi sababli hayotlar davomida ham ishqiy yoki do‘stlik kabi munosabatlarni shakllantirish va davom ettirishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik nafaqat jismoniy va ruhiy zarar yetkazish, balki ularning kelajakdagi ijtimoiy va psixologik salomatligiga ham uzoq muddatli ta’sir qiladi. Zo‘ravonlik turli shakllarda mavjud bo‘lib, har biri bolalarning hayotini buzishi va ularni xavf ostiga qo‘yishi mumkin. Shu sababli, bolalar huquqlarini himoya qilish, zo‘ravonlikni oldini olish va ularning farovonligini ta'minlash uchun samarali qonuniy, psixologik va ijtimoiy choralar zarur. Jamiyatning barcha qatlamlari, shu jumladan davlat va oila, bolalar uchun xavfsiz va sog‘lom muhit yaratish borasida mas'uliyatni o‘z zimmasiga olishlari kerak. Faqat shu tarzda bolalarga

[21] O‘zbekiston Respunlikasining 2014-yil 14-noyabr kuni qabul qilingan “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni.

nisbatan zo‘ravonlikni kamaytirish va ularni baxtli kelajakka yo‘naltirish mumkin bo‘ladi.

Xulosa.

Voyaga yetmaganlarga nisbatan zo‘ravonlikning turli shakllari, jumladan jismoniy, ruhiy, jinsiy va e'tiborsizlik, ularning psixologik va fiziologik rivojlanishiga uzoq muddatli salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Bu turdagi zo‘ravonlik bolalarning ta'lim olish imkoniyatlarini, ijtimoiy moslashuvini va umumiy farovonligini jiddiy tarzda cheklaydi. Shuningdek, bolalar o‘z huquqlarini himoya qilishda yordam beradigan tizimli va kompleks yondashuvlarga muhtojdir. Jamiyat, oila va davlat tomonidan amalga oshiriladigan qonuniy chora-tadbirlar, tarbiyaviy va ma’rifiy ishlanmalar bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olishda katta ahamiyatga ega. Har bir bola xavfsiz va sog‘lom muhitda o‘sishi uchun ijtimoiy me’yorlar va qadriyatlar yangilanib borishi lozim. Zo‘ravonlikning oldini olish uchun huquqiy, ma'naviy va pedagogik yondashuvlarning uyg‘unligi bolalar huquqlarini ta’minlashning asosiy omilidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ismoilov I, Ziyodullayev M, Isroilova N, Azimova F. Voyaga yetmaganlar nazotarsizligi va huquqbuzarliklarining oldini olish: O‘quv amaliy qo‘llanma /Mas’ul muharrir I.Ismoilov. – T,2011.-B-10.
2. Yodgorov X, O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi raisining o‘rinbosari, Fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlov hay’ati raisi/Voyaga yetmagan bolalar nega jinoyat sodir etmoqda? kun.uz/Jamiyat:02.03.2018.
3. L. Kim, D. Isayeva, S.X. Tadjiyeva, D.G. Sobirova – Bolalar va oilalar bilan ijtimoiy ish amaliyoti kursi boyicha xrestomatiya, Toshkent 2012.
4. O‘zbekiston Respunlikasining 2014-yil 14-noyabr kuni qabul qilingan “Bolalarni zo‘ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni.

HARBIY XIZMATCHILAR OILALARIDA EMOTSIONAL BARQARORLIK SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Nahalboyeva Nigora Turdi qizi

nigora3177074@icloud.com

Po‘latova Ruxshona Dilshod qizi

umid.mee@gmail.com

Annotatsiya, *Ushbu maqolada harbiy xizmatchilar oilalarida emotsional barqarorlik shakllanishining psixologik mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Harbiy xizmat faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari — yuqori xavf darajasi, doimiy stress, xizmat safari hamda oila a’zolaridan uzoq muddatli jismoniy ajralish holatlari oila muhitida emotsional taranglikni yuzaga keltirishi asoslab berilgan. Bunday sharoitda oila a’zolarining emotsional barqarorligi nafaqat oilaviy munosabatlar mustahkamligini, balki harbiy xizmatchining kasbiy faoliyati samaradorligini ta’minlovchi muhim psixologik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari harbiy xizmatchilar oilalarida psixologik profilaktika va psixologik yordam tizimini takomillashtirish, shuningdek, emotsional barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim ahamiyatga ega.*

Kalit so’zlar: *Emotsional barqarorlik, harbiy xizmatchilar oilasi, psixologik mexanizmlar, stress, stressbardoshlik, rezilientlik, koping-strategiyalar, emotsional o‘z-o‘zini boshqarish, oilaviy munosabatlar, oilaviy kommunikatsiya, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, psixologik moslashuv.*

Аннотация, *В статье рассматриваются психологические механизмы формирования эмоциональной устойчивости в семьях военнослужащих с теоретико-методологической точки зрения. Обосновано, что специфика военной службы, включающая высокий уровень риска, постоянное эмоциональное напряжение, длительные служебные командировки и вынужденную разлуку с членами семьи, оказывает значительное влияние на психологическое состояние семьи и характер внутрисемейных отношений. В данных условиях эмоциональная устойчивость членов семьи выступает важным фактором сохранения семейной*

стабильности и профессиональной эффективности военнослужащего. Результаты исследования могут быть использованы в системе психологического сопровождения, профилактики и консультирования семей военнослужащих.

Ключевые слова:*Эмоциональная устойчивость, семья военнослужащего, психологические механизмы, стресс, стрессоустойчивость, резилиентность, копинг-стратегии, эмоциональная саморегуляция, семейные отношения, семейная коммуникация, социальная поддержка, психологическая адаптация.*

Abstract, *The article examines the psychological mechanisms of emotional stability formation in military families from a theoretical and analytical perspective. It is substantiated that the specific conditions of military service, including a high level of risk, constant psychological stress, long-term deployments, and forced separation from family members, significantly affect the emotional state of families and the quality of family relationships. In this context, emotional stability of family members is considered a key factor in maintaining family well-being and ensuring the professional effectiveness of military personnel. The results of the study can be applied in psychological support programs, preventive interventions, and counseling services for military families.*

Keywords: *Emotional stability, military families, psychological mechanisms, stress, stress resilience, resilience, coping strategies, emotional self-regulation, family relationships, family communication, social support, psychological adaptation.*

Harbiy xizmat jamiyat xavfsizligini ta’minlovchi muhim institut bo‘lishi bilan birga, inson hayotidagi eng murakkab va psixologik jihatdan zo‘riqishli faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Harbiy xizmatchilar o‘z kasbiy faoliyati davomida yuqori mas’uliyat, doimiy xavf, qat’iy intizom hamda favqulodda vaziyatlarga tayyorlik sharoitida xizmat olib boradilar. Mazkur omillar nafaqat harbiy xizmatchining shaxsiy psixologik holatiga, balki uning oila a’zolari hayotiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Psixologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, harbiy xizmatchilar oilalari oddiy oilalarga nisbatan ko‘proq stress holatlarini boshdan kechiradi. Uzoq muddatli xizmat safarlari, yashash joyining tez-tez o‘zgarishi, ijtimoiy aloqalarning cheklanishi hamda xavf bilan bog‘liq noaniqliklar oilaviy munosabatlarda emotsional beqarorlikni yuzaga

keltirishi mumkin. Shu sababli harbiy xizmat bilan bog‘liq oilaviy hayotda emotsional barqarorlikni shakllantirish muammosi zamonaviy psixologiyaning dolzarb tadqiqot yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Psixologiya fanida emotsional barqarorlik shaxsning murakkab va stressli vaziyatlarda o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, ichki muvozanatni saqlab qolish hamda konstruktiv xulq-atvorni namoyon etish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Oilaviy kontekstda esa ushbu tushuncha oila a’zolarining o‘zaro tushunishi, hissiy qo‘llab-quvvatlashi va psixologik muvozanatini saqlash qobiliyatini anglatadi. Bowenning oilaviy tizimlar nazariyasiga muvofiq, oiladagi bir a’zoning emotsional holatidagi beqarorlik butun tizim faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, harbiy xizmatchilar oilalarida psixologik moslashuvchanlik va emotsional barqarorlikni ta’minlash alohida murakkab, ammo zarur jarayon hisoblanadi.

Emotsional barqarorlikni shakllantiruvchi psixologik mexanizmlar so‘nggi yillarda tadqiqotlar harbiy oilalarda emotsional barqarorlikni shakllantiruvchi turli psixologik mexanizmlarni aniqladi. Ular orasida eng muhimlari quyidagilar:

Oilaviy qo‘llab-quvvatlash tizimlari — oilada ishonch va hamkorlikni rivojlantirish, tashqi stress omillariga qarshi himoya mexanizmini yaratadi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, oilaviy qo‘llab-quvvatlash, ya’ni er-xotin o‘rtasidagi ishonch, yaqin qarindoshlar bilan mustahkam aloqalar va do‘stlik munosabatlari oilaning tashqi stress omillariga nisbatan chidamliligini oshiradi. Masalan, AQShda Family Readiness Groups (FRG) dasturi harbiy oilalarning bir-birini qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu dastur oilalarga ma’lumot berish, maslahatlashish va birgalikda qiyinchiliklarni yengish imkonini beradi, bu esa oilaviy moslashuvchanlikni oshiradi.

Stressni boshqarish strategiyalari — masalalarni hal qilish, konstruktiv muloqot va relaksatsiya mashqlari oilaviy nizolarni kamaytirishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilalarda stressni boshqarishning samarali strategiyalari masalalarni birgalikda hal qilish, konstruktiv muloqot, relaksatsiya mashqlari va vaqtincha stressni kamaytirish usullari oilaviy nizolarni kamaytiradi va psixologik barqarorlikni mustahkamlaydi. Yevropa mamlakatlarida onlayn psixologik maslahat platformalari va

treninglar harbiy oilalarning psixologik salomatligini yaxshilashda samarali vosita sifatida ishlatilmoqda.

Emotsional intellekt — o‘z his-tuyg‘ularini va sherikning his-tuyg‘ularini anglash qobiliyati oila ichidagi ishonch va tinchlikni mustahkamlaydi. Rezilyentlik (chidamlilik) — qiyin vaziyatlardan keyin tez tiklanish, ruhiy resurslarni saqlash va psixologik barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yuqori emotsional intellektga ega bo‘lgan er-xotinlar o‘z his-tuyg‘ularini va sherikning his-tuyg‘ularini anglay olish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bu oilada ishonch, hamkorlik va tinchlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, rezilyentlik, ya’ni qiyin vaziyatlardan keyin tez tiklanish qobiliyati, oilaviy stressni yengishda muhim psixologik resurs sifatida namoyon bo‘ladi.

Samarali oilaviy kommunikatsiya — emotsional barqarorlikni shakllantirishning muhim jihatlaridan biridir. Ochiq va ishonchli muloqot, his-tuyg‘ularni konstruktiv tarzda ifoda etish, oila a’zolari orasida qo‘llab-quvvatlashni rivojlantirish oilaning psixologik xavfsizligini mustahkamlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam muloqot va konstruktiv dialog oilaviy stressni kamaytiradi, oilaning moslashuvchanligini oshiradi va emotsional barqarorlikni ta’minlaydi.

Psixologik intervensiyalar, jumladan kognitiv-behavior terapiya, art-terapiya, mindfulness mashqlari, oilaviy psixoterapiya oilaning stressga chidamliligini oshiradi va emotsional barqarorlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash — qarindoshlar, do‘stlar, mahalliy jamoa va davlat tashkilotlari orqali — oilaning tashqi stress omillariga qarshi immunitetini oshiradi.

Harbiy oilalarda rollarning moslashuvchan taqsimlanishi — oila a’zolari vazifalarini vaqtincha qayta taqsimlash, moliyaviy va maishiy mas’uliyatlarni bo‘lishish orqali stressni kamaytirish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rollarni moslashuvchan tarzda boshqarish oilaning ichki muvozanatini saqlashga yordam beradi va emotsional barqarorlikni mustahkamlaydi.

Oila ichidagi o‘zaro yordam va hamkorlik tashqi stress omillariga nisbatan psixologik himoya vazifasini bajaradi. Stressni ongli boshqarish esa oilaviy ziddiyatlarning oldini olishga va ijobiy emotsional muhitni saqlashga xizmat qiladi.

Xalqaro tajriba ham mazkur muammoning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Jumladan, AQSh va Yevropa mamlakatlarida harbiy oilalar uchun maxsus psixologik yordam dasturlari, maslahat markazlari va onlayn platformalar joriy etilgan bo‘lib, ular oilaviy barqarorlikni mustahkamlashda yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda. Jumladan, AQShning Family Resilience Program va Military OneSource kabi dasturlar harbiy oilalarga stressni boshqarish, maslahat olish va psixologik qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, ushbu dastur ishtirokchilari oilaviy munosabatlar barqarorligini oshirgan va stressga chidamlilik darajasini yaxshilagan.

Yevropa mamlakatlaridan Germaniya va Buyuk Britaniya kabi davlatlarda harbiy oilalar uchun onlayn psixologik maslahat platformalari va oilaviy trening dasturlari joriy etilgan. Bu dasturlar oilaning emotsional barqarorligini oshirish, uzoq muddatli ajralishlar va stressli vaziyatlarda samarali muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi. Osiyo tajribasiga ko’ra, Yaponiya va Janubiy Koreyada harbiy oilalarga ijtimoiy yordam va psixologik qo‘llab-quvvatlash dasturlari mavjud bo‘lib, ular oilaning moslashuvchanligini va stressga chidamliligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda ham harbiy oilalarning psixologik holatini o‘rganish, milliy qadriyatlarni hisobga olgan psixologik yordam dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish muhimdir. Shu bilan birga, oilaviy psixoterapiya, stressni boshqarish treninglari, emotsional intellektni rivojlantirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini tatbiq etish orqali oilalarning emotsional barqarorligini oshirish mumkin.

O‘zbekiston sharoitida ham milliy qadriyatlar va ijtimoiy xususiyatlarni inobatga olgan holda harbiy oilalar psixologiyasini chuqur o‘rganish, moslashtirilgan yordam dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Harbiy oilalar o‘ziga xos psixologik va ijtimoiy muammolarga duch keladi. Uzoq muddatli xizmat safarlari, xavfli vazifalar, tez-tez joy almashish, moliyaviy va maishiy majburiyatlarning ortishi oilaning ichki muvozanatini buzishi mumkin. Shu sababli harbiy oilalarda emotsional barqarorlikni rivojlantirish nafaqat oilaning ruhiy salomatligi, balki harbiy xizmatchining kasbiy faoliyati va oilaviy muhitning barqarorligi uchun ham muhimdir.

Amaliy jihatdan, harbiy oilalarning psixologik barqarorligini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhimdir: oilaviy psixologik maslahatlar va terapiya, stressni boshqarish va koping-strategiyalarni rivojlantirish, emotsional intellekt va kommunikatsiya ko‘nikmalarini shakllantirish, bolalar va o‘smirlar psixologiyasiga e’tibor qaratish, shuningdek, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish. Bu yo‘nalishlar nafaqat oilaning ichki barqarorligini oshiradi, balki jamiyatning ijtimoiy-madaniy muhitida ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, harbiy oilalarda emotsional barqarorlikni rivojlantirish nafaqat psixologik muvozanatni ta’minlash, balki oilaning resurslarini samarali boshqarish, tashqi stress omillariga chidamlilikni oshirish va harbiy xizmatchining professional faoliyatini samarali amalga oshirish imkonini beradi. Bu esa jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik, oilaviy xavfsizlik va psixologik sog‘lomlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, harbiy oilalarda emotsional barqarorlikni shakllantirish ko‘p qirrali va tizimli yondashuvni talab qiladigan jarayon bo‘lib, u psixologik, ijtimoiy va institutsional mexanizmlarning uyg‘unlashuvi orqali amalga oshiriladi. Ilmiy-tadqiqot va amaliy dasturlarni rivojlantirish harbiy oilalarning ruhiy salomatligini ta’minlash va ularning tashqi stress omillariga bardoshliligini oshirishda strategik ahamiyatga ega. Harbiy xizmat bilan bog‘liq oilaviy hayotda emotsional barqarorlikni ta’minlash nafaqat alohida oilaning farovonligi, balki jamiyatning umumiy ijtimoiy-psixologik barqarorligini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalishda psixologik mexanizmlarni ilmiy asosda tadqiq etish va samarali yordam tizimlarini shakllantirish bugungi kunda psixologiya fanining ustuvor vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bowen, M. (1978). *Family Therapy in Clinical Practice*. New York: Jason Aronson.

3. Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ*. New York: Bantam Books.

4. Patterson, J., & Garwick, A. (1994). *Family Resilience: A Framework for Clinical Practice*. Family Process, 33(3), 261–281.

5. Walsh, F. (2003). *Family Resilience: A Framework for Clinical Practice*. New York: Guilford Press.

6. Семёнов, В. А., & Коваленко, Н. И. (2015). *Психология семьи военнослужащих: адаптация и стрессоустойчивость*. Москва: Академия.

7. Негматова, Л. Ш., & Хамидова, М. Б. (2020). *Эмоциональная устойчивость в семьях военнослужащих: психолого-педагогический аспект*. Тошкент: Фан ва Технология.

8. Военный психологический справочник. (2019). Москва: Военное издательство.

9. Бобров, А. И., & Сорокина, Т. В. (2017). *Психологическая поддержка семей военнослужащих: теория и практика*. Санкт-Петербург: Речь.

FUTBOL MUSOBAQASINI O‘TKAZISHGA JALB QILINGAN KUCH VOSITALARNING OMMAVIY TADBIR QATNASHCHILARIGA PSIXOLOGIK TA’SIR KO‘RSATISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Mardanov Jahongir Qahramon o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi unverseteti magistratura tinglovchisi,
leytenant

Annotatsiya: Mazkur tezisda futbol musobaqalarini o‘tkazishda jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb etiladigan kuch va vositalarning ommaviy tadbir qatnashchilariga psixologik ta’sir ko‘rsatish usullarini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Ommaviy sport tadbirlarida yuzaga keladigan yuqori emotsional muhit, guruh psixologiyasi va deindividuatsiya jarayonlarining xavfsizlikni ta’minlashga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, profilaktik kommunikatsiya, deeskalatsiya strategiyalari, axborot

oqimini boshqarish va xodimlarning psixologik tayyorgarligini kuchaytirishning ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqot natijasida ommaviy futbol musobaqalarida ijtimoiy-psixologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: futbol musobaqasi, ommaviy tadbir, jamoat xavfsizligi, psixologik ta’sir, guruh psixologiyasi, deindividuatsiya, emotsional zo‘riqish, deeskalatsiya, profilaktik kommunikatsiya, konfliktologiya, axborot boshqaruvi, ijtimoiy-psixologik barqarorlik.

Аннотация: В тезисе рассматриваются вопросы совершенствования методов психологического воздействия сил и средств, привлекаемых к обеспечению общественной безопасности при проведении футбольных соревнований. Анализируется влияние эмоциональной напряжённости, групповой психологии и процессов деиндивидуализации, характерных для массовых спортивных мероприятий. Особое внимание уделяется профилактической коммуникации, стратегиям деэскалации, управлению информационными потоками и повышению уровня психологической подготовки сотрудников. В результате исследования разработаны практические рекомендации по обеспечению социально-психологической стабильности при проведении массовых футбольных мероприятий.

Ключевые слова: футбольное соревнование, массовое мероприятие, общественная безопасность, психологическое воздействие, групповая психология, деиндивидуализация, эмоциональная напряжённость, деэскалация, профилактическая коммуникация, управление конфликтами, управление информацией, социально-психологическая стабильность.

Abstract: This thesis analyzes the issues of improving psychological impact methods used by security forces and organizational units involved in ensuring public safety during football competitions. It examines the influence of emotional intensity, group psychology, and deindividuation processes typical of mass sporting events on security management. Particular attention is given to preventive communication, de-escalation strategies, information management, and the enhancement of psychological

training for personnel. The study develops practical recommendations aimed at ensuring socio-psychological stability during large-scale football events.

Keywords: football competition, mass event, public safety, psychological impact, group psychology, deindividuation, emotional tension, de-escalation, preventive communication, conflict management, information control, socio-psychological stability.

KIRISH. Hozirgi globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda ommaviy kommunikatsiya vositalarining kengayishi sharoitida sport tadbirlari, xususan futbol musobaqalari, jamiyat hayotining muhim ijtimoiy hodisasiga aylangan. Futbol nafaqat sport turi, balki keng ommani birlashtiruvchi, kuchli emotsional ta’sirga ega ijtimoiy-psixologik jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Stadionlarda minglab muxlislarning jamlanishi, jamoaviy identifikatsiya, raqobat muhiti va yuqori hissiy zo‘riqish xavfsizlikni ta’minlash jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ommaviy futbol musobaqalari davomida inson xulq-atvori ko‘pincha guruh psixologiyasi qonuniyatlari asosida shakllanadi. Deindividuatsiya, ya’ni shaxsning olomon ichida o‘zini alohida subyekt sifatida his etish darajasining pasayishi, javobgarlik hissining susayishiga olib kelishi mumkin. Natijada kichik konflikt yoki provokatsiya ham tezkor ravishda ommaviy tartibsizlikka aylanish ehtimoli mavjud. Shu bois, jamoat xavfsizligini ta’minlashga jalb etiladigan kuch va vositalarning faoliyati nafaqat huquqiy va tashkiliy, balki chuqur psixologik yondashuvga asoslanishi zarur[22].

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ommaviy sport tadbirlarida xavfsizlikni ta’minlashda faqat ma’muriy choralar yoki kuch ishlatish mexanizmlariga tayanish yetarli samara bermaydi. Aksincha, profilaktik kommunikatsiya, deeskalatsiya strategiyalari, tezkor va ishonchli axborot yetkazish, shuningdek, xavfsizlik xodimlarining psixologik tayyorgarligi muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy yondashuv xavfsizlikni “kuch bilan boshqarish” emas, balki “ijtimoiy-psixologik boshqaruv” tamoyillari asosida tashkil etishni talab etadi[23].

• kiberbulling va onlayn tazyiq;

• zararli va zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi kontent;

• radikal va ekstremistik g‘oyalar propagandasi;

• shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash;

• internetga qaramlik.

Psixologik nuqtai nazardan, o‘smirlik davrida identifikatsiya jarayoni faol kechadi. Shaxsning o‘z “Men”ini shakllantirish bosqichida tashqi axborot ta’siri kuchli bo‘ladi. Salbiy kontent uzoq muddatli stress, xavotir, agressiya yoki ijtimoiy chekinishga olib kelishi mumkin. Ayrim hollarda bu holat deviant xulq-atvor shakllanishiga sabab bo‘ladi. Raqamli muhitdagi anonimlik omili ham psixologik xavfni kuchaytiradi. Anonim muloqot javobgarlik hissini susaytirib, tajovuzkor xatti-harakatlarni osonlashtiradi. Natijada kiberbulling holatlari ortadi.

2. Voyaga yetmaganlar xavfsizligini ta’minlashning huquqiy asoslari

Voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Milliy qonunchilikda bolalar huquqlarini himoya qilish, axborot xavfsizligini ta’minlash va kiberjinoyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha qator normalar mavjud.

Huquqiy mexanizmlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1.Voyaga yetmaganlarning axborotdan xavfsiz foydalanish huquqini kafolatlash;

2. Zararli kontent tarqatganlik uchun javobgarlik belgilash;

3. Kiberjinoyatlar uchun ma’muriy va jinoiy javobgarlik choralarini qo‘llash;

4. Profilaktika va nazorat institutlarini rivojlantirish.

Biroq amaliyotda ayrim muammolar mavjud:

• raqamli platformalarning transmilliy xususiyati;

• tezkor monitoring tizimlarining yetarli darajada emasligi;

• ota-onalarning huquqiy savodxonligi pastligi.

Shu sababli huquqiy normalarni takomillashtirish bilan bir qatorda, ularning ijrosini ta’minlash mexanizmlarini ham kuchaytirish zarur.

3. Psixologik va huquqiy yondashuvlarning integratsiyasi

Voyaga yetmaganlar xavfsizligini ta’minlashda alohida-alohida chora-tadbirlar yetarli emas. Psixologik profilaktika va huquqiy nazorat o‘zaro uyg‘un holda qo‘llanilishi lozim. Kompleks model quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Profilaktik bosqich – raqamli savodxonlikni oshirish, axborot tanqidiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish.
2. Monitoring bosqichi – zararli kontentni aniqlash va cheklash.
3. Reabilitatsiya bosqichi – zarar ko‘rgan voyaga yetmaganlarga psixologik yordam ko‘rsatish.
4. Huquqiy javobgarlik bosqichi – huquqbuzarlarga nisbatan qonuniy choralar qo‘llash.

Ta’lim tizimida “Raqamli xavfsizlik madaniyati” fanini joriy etish, ota-onalar uchun seminarlar tashkil etish hamda psixologik maslahat markazlarini kengaytirish samarali mexanizm bo‘lishi mumkin.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, voyaga yetmaganlar xavfsizligini ta’minlashda quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega:

• psixologik barqarorlikni rivojlantirish;

• normativ-huquqiy bazani zamonaviylashtirish;

• davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligini kuchaytirish;

• ta’lim tizimida raqamli madaniyatni shakllantirish.

Raqamli tahdidlarga qarshi kurashishda faqat jazolash choralariga tayanish yetarli emas. Preventiv, tarbiyaviy va psixologik yondashuv ustuvor bo‘lishi lozim.

Xulosa.

Raqamli tahdidlar sharoitida voyaga yetmaganlar xavfsizligini ta’minlash ko‘p qirrali va kompleks masaladir. Psixologik himoya va huquqiy mexanizmlarning uyg‘unligi samarali tizim yaratish imkonini beradi. Voyaga yetmaganlarning raqamli muhitdagi xavfsizligini ta’minlash — jamoat barqarorligi va milliy xavfsizlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish,

xalqaro tajribalarni o‘rganish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun.
3. “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun.
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. – T.: 2020.
6. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 2010.
7. Livingstone S. Children and the Internet. – Cambridge: Polity Press, 2017.

PSIXOLOGIK KORELLYATSION TADQIQOTLAR

Turdiyeva Moxinur
Jizzax davlat pedagogika universiteti II-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada korrelyatsion tadqiqotlarning mohiyati, ularning ilmiy izlanishlardagi o‘rni vaqo‘llanish sohalari tahlil qilinadi. Korrelyatsion tahlil yordamida o‘zgaruvchilar orasidagi bog‘liqlikni aniqlash imkoniyati mavjud bo‘lib, bu metod ko‘plab psixologik, pedagogik vaijtimoiytadqiqotlarda keng qo‘llaniladi. Maqolada korrelyatsion koeffitsientlar turlari va ularni talqinqilish usullari haqida ham ma’lumotlar beriladi.

Kalit so‘zlar: korrelyatsiya, statistik tahlil, bog‘liqlik, o‘zgaruvchilar, psixologik tadqiqotlar, empirik usullar,sun’iy intellekt,prognoz qilish,tarmoqli korrelyatsiya.

Ilmiy tadqiqotlarda o‘zgaruvchilar orasidagi bog‘liqlikni aniqlash ko‘plab muhim savollarga javob topishda yordam beradi. Korrelyatsion tadqiqotlar aynan shu vazifani bajaradi. Bu uslub eksperimental emas, balki kuzatuv asosida olib boriladi. Tadqiqotchi faqat mavjud holatni o‘rganadi va o‘zgaruvchilar orasidagi statistik bog‘liqlikni aniqlaydi.Korrelyatsion tadqiqotlar ikki yoki undan ortiq o‘zgaruvchilar orasidagi

bog‘liqlik darajasini o‘lchashga xizmat qiladi. Misol uchun, insonlarning stress darajasi bilan ularning ish unumdorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish mumkin. Korrelyatsion koeffitsient orqali bog‘liqlikkuchi va yo‘nalishi aniqlanadi: : bog‘liqlik yo‘q : ijobiy bog‘liqlik : salbiy bog‘liqlik Korrelyatsion tahlil turli shakllarda amalga oshiriladi: Pearson korrelyatsiyasi: interval yoki nisbatli o‘lchovlar uchun.Spearman rank korrelyatsiyasi: tartiblangan ma’lumotlar uchun Kendall's Tau: kichik namunalar uchun Korrelyatsiya sabab-oqibat munosabatini ifodalamaydi, bu esa ularning asosiy cheklovlaridan biridir.

Korrelyatsion tadqiqotlar — bu ikki yoki undan ortiq o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqot usulidir. Bu turdagi tadqiqotlar orqali o‘zgaruvchilar o‘rtasida ijobiy, salbiy yoki umuman bog‘liqlik yo‘qligi aniqlanadi. Muhimi, korrelyatsion tadqiqotlar sabab-oqibat munosabatini emas, balki faqat o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi statistik bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Asosiy xususiyatlari:O‘lchanadigan bog‘liqlik: O‘zgaruvchilar orasidagi bog‘liqlik korrelyatsiya koeffitsienti (odatda r) orqali baholanadi. Bu koeffitsient -1 dan +1 gacha qiymat oladi:

r = +1 — kuchli ijobiy bog‘liqlik

r = -1 — kuchli salbiy bog‘liqlik

r = 0 — bog‘liqlik yo‘qligi

Sabab-oqibatni aniqlamaydi: Masalan, muzqaymoq sotilishi bilan cho‘milish holatlari o‘rtasida ijobiy korrelyatsiya bo‘lishi mumkin, lekin bu muzqaymoq cho‘milishga sabab bo‘ladi degani emas — har ikkisi ham yoz fasli bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Afzalliklari:

Oddiy va tezkor ma’lumot olish imkonini beradi.

Eksperimental sharoitda o‘lchash imkoni bo‘lmagan holatlarda foydalidir.

Katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilishga yordam beradi.

Kamchiliklari:

Sabab-oqibatni ko‘rsatmaydi.

Soxta yoki uchinchi omillar ta’sirini aniqlash qiyin.

Korrelyatsion tadqiqotlar o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashda muhim vositadir. Ular orqali ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish mumkin, biroq natijalar har doim ehtiyotkorlik bilantalqin qilinishi kerak. Tadqiqot natijalari sabab-oqibat munosabatini emas, balki mavjud munosabat darajasini ko‘rsatadi.

Korrelyatsion tadqiqotlar statistika sohasida ikkita yoki undan ortiq o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'lanishni o'rganish uchun foydalaniladigan usuldir. Bu usul yordamida ma'lumotlar orasidagi munosabatlar aniqlanadi, lekin sabab-natija munosabatlarini aniqlashni maqsad qilmaydi. Korrelyatsion tadqiqotlar ko'plab sohalarda qo'llaniladi, masalan, iqtisodiyot, psixologiya, sotsiologiya va tibbiyotda. Korrelyatsion tadqiqotlarning asosiy jihatlari.

- Korrelyatsiya koeffitsienti: O'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'lanishni ifodalovchi raqam. Eng mashhur koeffitsient Pearson koeffitsienti bo'lib, -1 dan 1 gacha bo'lgan qiymatga ega bo'ladi. 1 to'liq musbat bog'lanishni, -1 to'liq manfiy bog'lanishni, 0 esa bog'lanish yo'qligini anglatadi.

- Korrelyatsion grafiklar: O'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rish uchun grafiklar ishlatiladi. Bu grafiklar yordamida ma'lum bir o'zgaruvchilar orasidagi tendentsiyalar aniqlanishi mumkin.

- Maqsadlar: Korrelyatsion tadqiqotlar, asosan, o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish, prognoz qilish va tushunishga yordam beradi.

- Cheklovlar: Korrelyatsion tadqiqotlar sabab-natija munosabatlarini aniqlamaydi, shuning uchun natijalarni ehtiyotkorlik bilan talqin qilish zarur. Korrelyatsiya har doim to'g'ri sababni anglatmaydi, qo'shimcha faktlar va o'zgaruvchilar hisobga olinmasligi mumkin. Korrelyatsion tadqiqotlar yordamida ko'plab muammolarni yechish va o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni tushunish imkoniyati yaratiladi.Korrelyatsion tadqiqotlar — bu psixologiya va ijtimoiy fanlarda real hayotdagi hodisalar o‘rtasidagi statistik munosabatlarni aniqlash va prognoz qilish uchun ishlatiladigan muhim empirik usullardan biridir.

Psixologik korrellyatsion tadqiqotlar psixologiya fanida eng muhim va keng qo‘llaniladigan ilmiy yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot turi turli psixologik hodisalar, jarayonlar va xulq-atvor ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik

darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Korrellyatsion tadqiqotlar orqali tadqiqotchilar inson psixikasida sodir bo‘ladigan murakkab jarayonlarni chuqurroq tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu usul ayniqsa sabab-natija aloqasini aniqlash qiyin bo‘lgan holatlarda juda foydali hisoblanadi, chunki u o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi statistik bog‘liqlikni aniqlashga yordam beradi. Psixologiyada inson xulqi ko‘plab omillar ta’sirida shakllanadi, shuning uchun ham turli omillar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganish ilmiy tadqiqotlarning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Korrellyatsiya tushunchasi ikki yoki undan ortiq o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi bog‘liqlik darajasini ifodalaydi. U statistik ko‘rsatkich sifatida korrellyatsiya koeffitsienti orqali aniqlanadi va bu ko‘rsatkich −1 dan +1 gacha bo‘lgan qiymatni oladi. Agar korrellyatsiya koeffitsienti musbat bo‘lsa, o‘zgaruvchilar bir yo‘nalishda o‘zgaradi, ya’ni biri ortsa ikkinchisi ham ortadi. Agar koeffitsient manfiy bo‘lsa, o‘zgaruvchilar qarama-qarshi yo‘nalishda o‘zgaradi. Nolga yaqin qiymat esa o‘zgaruvchilar o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik yo‘qligini bildiradi. Bu ko‘rsatkich psixologik tadqiqotlarda juda muhim ahamiyatga ega, chunki u tadqiqotchiga o‘rganilayotgan hodisalar o‘rtasidagi munosabat darajasini aniq baholash imkonini beradi.

Psixologik korrellyatsion tadqiqotlarning asosiy maqsadi inson psixikasi va xulq-atvoriga ta’sir qiluvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashdan iborat. Masalan, shaxsning motivatsiyasi bilan uning akademik muvaffaqiyati o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish orqali ta’lim jarayonini yanada samarali tashkil etish mumkin. Shuningdek, stress darajasi bilan sog‘liq holati o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Psixologik tadqiqotlarda ko‘pincha shaxs xususiyatlari, emotsional holatlar, kognitiv jarayonlar va ijtimoiy omillar o‘rtasidagi munosabatlar o‘rganiladi. Korrellyatsion tadqiqotlar o‘tkazish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat bo‘ladi. Avvalo tadqiqot muammosi aniqlanadi va o‘rganilishi kerak bo‘lgan o‘zgaruvchilar belgilanadi. Keyin ma’lumot yig‘ish bosqichi amalga oshiriladi. Ma’lumotlar odatda psixologik testlar, so‘rovnomalar, intervyular yoki kuzatuv orqali to‘planadi. To‘plangan ma’lumotlar maxsus statistik dasturlar yordamida tahlil qilinadi va korrellyatsiya koeffitsienti hisoblanadi. Oxirgi bosqichda esa natijalar

talqin qilinib, ilmiy xulosa chiqariladi. Bu jarayon ilmiy izchillikni ta’minlaydi va tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshiradi.

Psixologik korrellyatsion tadqiqotlarda turli statistik usullar qo‘llaniladi. Eng keng tarqalgan usul Pearson korrellyatsiya koeffitsienti bo‘lib, u interval va nisbat o‘lchovdagi ma’lumotlar uchun qo‘llaniladi. Bundan tashqari Spearman rang korrellyatsiyasi ham keng qo‘llanadi, u tartibli ma’lumotlar uchun mos keladi. Kendall tau koeffitsienti esa kichik tanlanmalar bilan ishlashda samarali hisoblanadi. Ushbu statistik usullar tadqiqot natijalarining aniqligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

Korrellyatsion tadqiqotlarning afzalliklaridan biri shundaki, ular tabiiy sharoitda o‘tkaziladi va inson xulq-atvorini real hayotga yaqin sharoitda o‘rganish imkonini beradi. Bundan tashqari, bu usul yordamida katta hajmdagi ma’lumotlarni qisqa vaqt ichida tahlil qilish mumkin. Korrellyatsion tadqiqotlar prognoz qilish imkoniyatini ham beradi, ya’ni bir o‘zgaruvchining qiymatiga qarab ikkinchi o‘zgaruvchining ehtimoliy qiymatini taxmin qilish mumkin. Bu xususiyat ta’lim, tibbiyot va mehnat psixologiyasida keng qo‘llaniladi.

Shu bilan birga korrellyatsion tadqiqotlarning ayrim cheklovlari ham mavjud. Eng asosiy kamchiligi shundaki, u sabab-natija munosabatini aniqlay olmaydi. Ya’ni ikki o‘zgaruvchi o‘rtasida bog‘liqlik mavjud bo‘lsa ham, bu ulardan biri ikkinchisining sababi degani emas. Bundan tashqari, yashirin yoki uchinchi omillar natijaga ta’sir qilishi mumkin. Shuning uchun tadqiqot natijalarini talqin qilishda ehtiyotkorlik zarur.

Psixologiyada korrellyatsion tadqiqotlar ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi. Ta’lim psixologiyasida o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi, qiziqishi va akademik natijalari o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganiladi. Ijtimoiy psixologiyada shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy xulq omillari tahlil qilinadi. Klinik psixologiyada esa stress, depressiya va boshqa psixologik holatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganiladi. Mehnat psixologiyasida xodimlarning ishga qoniqishi va mehnat samaradorligi o‘rtasidagi munosabat aniqlanadi.

Zamonaviy psixologiyada korrellyatsion tadqiqotlar katta ma’lumotlar (big data) va kompyuter texnologiyalari yordamida yanada rivojlanmoqda. Statistik dasturlar yordamida murakkab matematik tahlillarni amalga oshirish mumkin bo‘lib, bu tadqiqot

natijalarining aniqligini oshiradi. Shuningdek, onlayn so‘rovnomalar va raqamli platformalar orqali katta miqdorda ma’lumot yig‘ish imkoniyati paydo bo‘lgan.

Psixologik korrellyatsion tadqiqotlar nazariy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Ular psixologik qonuniyatlarni aniqlash, nazariyalarni tekshirish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tadqiqotlar natijalari ta’lim sifatini oshirish, psixologik yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish va inson salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Inson psixikasini chuqurroq tushunish va ijtimoiy muammolarni hal etishda korrellyatsion tadqiqotlar muhim ilmiy vosita bo‘lib qolmoqda.

Korrelyatsion tadqiqotlar zamonaviy ilmiy izlanishlarda o‘ziga xos o‘rin egallagan, keng ko‘lamli va foydali tahlil usulidir. Bu usul yordamida tadqiqotchilar turli o‘zgaruvchilar o‘rtasida mavjud bo‘lgan bog‘liqliklarni aniqlab, murakkab ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy va tibbiy muammolarni chuqurroq tushunishlari mumkin.

Korrelyatsion tahlilning eng katta afzalligi – bu usul orqali haqiqiy hayotda tajriba o‘tkazish imkoni bo‘lmagan holatlar ustida tahlil yuritish imkonidir. Masalan, bolalikdagi travmalar bilan kattalikka kelganda yuzaga kelgan ruhiy muammolar o‘rtasidagi bog‘liqlikni faqat korrelyatsion yondashuv orqali o‘rganish mumkin. Bu esa tadqiqotchilarga inson hayotidagi uzoq muddatli ta’sirlarni aniqlash va tushuntirish imkonini beradi.Zamonaviy texnologiyalar, xususan, Big Data, sun’iy intellekt, interaktiv ilovalar va psixometrik platformalar bu usulni yanada mukammal darajada rivojlantirdi. Endilikda millionlab insonlarning hayoti, faoliyati, ruhiy holati va ijtimoiy aloqalari asosida global darajadagi muhim korrelyatsiyalar aniqlanmoqda. Bu esa sog‘liqni saqlashdan tortib, ta’lim, biznes va jamiyat rivojiga oid qarorlar qabul qilishda muhim vositaga aylanmoqda. Shuningdek, korrelyatsion tadqiqotlar empirik asosli qarorlar qabul qilishga yordam beradi. Masalan, biror maktab o‘quvchilarining darsdan tashqari mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishi va ularning baholari orasidagi bog‘liqlik tahlili, ta’lim siyosatini shakllantirishda asos bo‘lishi mumkin.Shuni alohida ta’kidlash lozimki, korrelyatsiya har doim ham sabab-oqibatni bildiravermaydi. Ya’ni, ikki o‘zgaruvchi o‘rtasida bog‘liqlik bo‘lishi, birining ikkinchisiga sababchi ekanligini anglatmaydi. Bu

korrelyatsion tadqiqotlarning asosiy chegarasi hisoblanadi. Shu sababli, bunday tahlillarni tafsir qilishda ehtiyotkorlik zarur.

Xulosa qilib aytganda, korrelyatsion tadqiqotlar – bu nafaqat ilmiy izlanishlarning kuchli asosi, balki real hayotdagi murakkab muammolarni anglash, bashorat qilish va oldini olishga xizmat qiluvchi zamonaviy ilmiy quroldir. Bu usul yordamida inson hayotining turli sohalarida samaradorlikni oshirish, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, ta’lim sifatini yaxshilash va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gravetter, F. J., & Wallnau, L. B. (2014). Statistics for the Behavioral Sciences.

2. Coolican, H. (2018). Research Methods and Statistics in Psychology.

3. Shodmonov Sh. Sh. (2011). Psixologiyada ilmiy tadqiqot asoslari.

4. Gravetter, F. J., & Forzano, L. B. Research Methods for the Behavioral Sciences. – Cengage Learning, 2020. (Ingliz tilida, korrelyatsion dizayn, koeffitsientlar, grafik ko‘rinishlar haqida keng tushuntirish.)

5. Coolican, H. Research Methods and Statistics in Psychology. – Psychology Press, 2017.

(Psixologik tadqiqotlarda statistik tahlillar, korrelyatsiya va regressiya usullari.)

6. Tabachnick, B. G., & Fidell, L. S. Using Multivariate Statistics. – Pearson Education, 2019. (Advanced statistik tahlillar, shu jumladan partial korrelyatsiya va tarmoqli modellash.)

«ТРАНСФОРМАЦИЯ БУЛЛИНГА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ: НОВЫЕ ВЫЗОВЫ И МЕТОДЫ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОРРЕКЦИИ ДЕВИАЦИЙ»

Мунарова Раъно Усаровна

и.о. доцент кафедры Педагогики факультета Педагогики-психологии и инклюзивного образования ДжГПУ

Аннотация: В данной статье рассмартирвается проблема возникновения буллингга. Буллинг рассматривается как вариант агрессии. Анализируются взаимосвязи между содержанием подростковых страхов и тревог и

агрессивностью. Выясняется, в какой мере риск агрессивного поведения связан с враждебностью как негативной смысловой установкой личности. Согласно экспертным оценкам учителей и результатам включенного наблюдения, являются жертвами как агрессоров, так и «наблюдателей». Можно обоснованно предположить дальнейшее превращение жертв в агрессоров.

Ключевые слова: буллинг, травля, феномен, девиантное поведение, жертва, агрессия, насилие, тревога, кибербуллинг, издевательство, проблема легитимизации.

Annotation: This article addresses the problem of bullying. Bullying is considered as a variant of aggression. The relationship between the content of adolescent fears and anxieties and aggressiveness is analyzed. It is revealed to what extent the risk of aggressive behavior is associated with hostility as a negative semantic attitude of the individual. According to expert assessments of teachers and the results of participant observation, they are victims of both aggressors and “observers.” One can reasonably assume a further transformation of victims into aggressors.

Key words: bullying, bullying, phenomenon, deviant behavior, victim, aggression, violence, anxiety, cyberbullying, bullying, problem of legitimization.

В условиях современной трансформации общества проблемы девиантного поведения молодежи приобретают особую остроту. Одним из наиболее деструктивных проявлений таких девиаций является буллинг (от англ. bully — хулиган, драчун) — систематическое физическое или психологическое давление, осуществляемое индивидом или группой в отношении лица, неспособного защитить себя в данной ситуации. Буллинг как форма девиации. Девиантное поведение подразумевает поступок или действия человека, не соответствующие официально установленным или фактически сложившимся в данном обществе нормам. Буллинг выделяется среди других девиаций следующими признаками:

- Намеренность: действия агрессора осознанны и направлены на причинение вреда.
- Регулярность: это не разовый конфликт, а длительный процесс.

Дисбаланс власти: явное физическое или численное превосходство преследователей над жертвой.

Буллинг — это не просто «трудности взросления», а серьезная девиация, разрушающая личность как жертвы, так и агрессора. Своевременное выявление латентных форм травли и формирование культуры взаимного уважения являются приоритетными задачами современной педагогической психологии.

В наше время множество исследователей – эксперты в области психологии, социологии, педагогики – обращают внимание на увеличение случаев буллинга (подросткового хулиганства, школьной травли) среди подростков и детей предподросткового возраста. Проблема школьных трудностей рассматривается на различных этапах обучения исследователями различных научных дисциплин. Поведенческие и эмоциональные аспекты школьных трудностей анализируются с точки зрения "цены адаптации", включая проявления девиантного поведения. Агрессивные поступки, совершаемые детьми и подростками, еще не достигшими возраста уголовной ответственности, вызывают значительный общественный резонанс. Буллинг, как феномен девиантного поведения, является острой социально значимой проблемой в подростковом возрасте

Почти в каждом учебном классе есть ученики, отличающиеся от других своими особенностями. Эти отличительные черты могут привести к издевательствам и насмешкам со стороны одноклассников. Эпизодические притеснения и школьная травля в наше время получили название "буллинг" (от английского bullying - издевательство, запугивание). Проблема буллинга, проявляющаяся в форме словесного насилия, запугивания или даже физической агрессии, стала особенно актуальной в последние годы. Несмотря на относительную новизну этого термина, подобные проявления неуважения к другим людям были известны и раньше. Пострадать от таких нападок можно в любом месте: в школе, рабочем коллективе, в интернете, но чаще всего жертвами являются школьники. Педагоги и психологи бьют тревогу, осознавая, что эта проблема намного серьезнее, чем может показаться.

Проблема буллинга является актуальной в наше время, её следует изучать во взаимосвязи с проблемой психологического климата в образовательной среде. Несмотря на то, что факты насилия в школе отмечаются уже долгое время, на данном этапе в системе научного знания ещё нет конкретных, общепризнанных профилактических, регулирующих и корректирующих программ. Д.А. Лэйн пишет о том, что проблема разрешения школьной травли имеет сложность, так как это комплексное явление и затрагивает многие аспекты взаимодействия детей друг с другом.[29] Буллинг классифицируется также как агрессия: физический, эмоциональный, сексуальный, устный. Косвенная агрессия – тоже буллинг. По результатам недавних исследований, остро стоит проблема легитимизации агрессии. [30]Другими словами, агрессоры уверены, что агрессия – норма поведения. Некоторые подростки не стесняются сказать преподавателю: «Я имею право ломать столы – мои родители за это заплатят». Кроме того, жертвы школьной травли имеют, к сожалению, высокий шанс со временем превратиться в агрессоров. Добавим, что такие жертвы часто импульсивны и склонны к гневу. Не исключено и влияние биологических процессов на готовность к агрессивному поведению.

Буллинг — это проявление агрессии, насилие, угрозы и преследование. И он может иметь разные формы. Так, среди них она выделила:

- **скрытый буллинг.** Когда ребенка не бьют, не причиняют ему вред открыто, а, например, провоцируют на агрессию долго и планомерно — доводя, что называется, до белого каления. В результате такого буллинга человек срывается, взрывается, теряет контроль над своими чувствами, ведет себя агрессивно, вследствие чего его обвиняют в неадекватности;
- **пассивная агрессия.** В этом случае травлю тоже трудно распознать, ведь обидчик или группа обидчиков не выдают себя конкретным неприемлемым поведением, но могут делать или говорить неоднозначные и неприятные конкретному человеку вещи. Также буллеры могут утрировать факты из биографии

[29] Лэйн, Д.А. Школьная травля (буллинг) [Электронный ресурс] / Д.А. Лэйн. – Режим доступа: https://www.psyoffice.ru/3548-ljejjn-djevid-a.-shkolnaja-travlja-bulling..html (дата обращения: 24.11.2017)
[30] Ениколопов С.Н. Экологическая модель исследования насилия // Тезисы докладов 6-й Российской конференции по экологической психологии. – М., 2012. – С. 136–138.

жертвы, делать акцент на событиях, которые унижают достоинство и портят репутацию. Обычно такой буллинг приводит к исключению из коллектива, человек становится буквально изгоем и не может себя защитить;

- **психологический буллинг.** Это прямая агрессия в сторону жертвы — обзывательства и унижения. Обычно такой вид травли связан с желанием подчинить себе другого человека. Сделать его удобным, послушным, использовать в своих целях;
- **физический буллинг.** Это самое настоящее физическое насилие: избиения, сексуализированные домогательства, другие применения силы. Иногда может быть по-настоящему опасным для здоровья и жизни;
- **кибербуллинг.** Очень распространенное в современном мире явление, человека травят в онлайн-пространстве: в социальных сетях, играх, чатах. Жертву провоцируют, запугивают, ею манипулируют и в конечном итоге выживают ее из сообщества.

Насилие в подростковом возрасте в виде буллинга приводит к негативным последствиям, отражающимся на всех участниках процесса. Наиболее неблагоприятным является влияние на жертв буллинга, впоследствие которого такие воздействия могут привести ребенка к суициду.

Комплексная профилактика и предотвращение буллинга способствует наилучшему разрешению проблемы насилия в школьной среде.

Важным в обеспечении предотвращения буллинга является активное участие большего количества людей – участников образовательного процесса. Для получения поддержки с их стороны, необходимо обучить их программе и информировать об особенностях ситуации буллинга в школе.

Все сотрудники школы могут иметь большое значение в предотвращении травли и защите детей от случаев насилия. Наиболее влиятельными фигурами являются педагоги, которые должны поддерживать исполнение этических правил школы; одобрять доброжелательное поведение учеников; однозначно реагировать на случаи агрессивного поведения; информировать родителей и относиться к ним как к партнерам. Показывая

свою приверженность конструктивному взаимодействию с учениками и коллегами согласно этическим правилам школы, педагоги подают положительный пример ученикам и показывают модели правильного поведения.

Педагоги школы должны также привести свое поведение и общение с учениками в соответствие с этическими правилами и нормами. Они не должны грубо выражаться, запугивать и угрожать детям, не должны использовать физического и психологического давления как метод пресечения неподобающего поведения. Так как сам учитель может стать человеком действия, которые привели к буллингу, он должен понимать, что не дозволено предвзятое или предпочтительное отношение к ученикам на основе их особенностей (пол, социально-экономическое положение, национальность, особенности здоровья и др.).

Таким образом, именно комплексный подход к изучению деструктивных тенденций личности и агрессивного поведения представляется перспективным с точки зрения своевременной оценки тревожности и агрессивности. Проблему можно решать психологическими, психотерапевтическими методами. Агрессия в целом, и буллинг как вариант агрессии являются результатом взаимодействия индивидуальных, социальных, культурных и экономических факторов. Принципиально важной является психолого-педагогическая работа не только с агрессором или жертвой, но и с социальным окружением.

Литература

1. Гриненко, Д.Н. Взаимосвязь условно допустимой агрессии и развитие личности участников буллинга [Текст] / Д.Н. Гриненко // Психология и педагогика: Методика и проблемы практического применения. – 2014. - № 41. – 70 с.

2. Ениколопов С.Н. Экологическая модель исследования насилия // Тезисы докладов 6-й Российской конференции по экологической психологии. – М., 2012. – С. 136–138.

ABU NASR FOROBIYNING IJTIMOIY-MA’RIFIY YUKSAK G’OYALARIDAN XOZIRGI DAVR PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANINI RIVOJLANTIRISHDAGI AXAMIYATI

Jizzax davlat pedagogika universiteti.Pedagogika va psixologiya fakulteti Pedagogika kafedrasi katta o’qituvchisi O’ralova Odina Ravshanovna.

Аннотация. В данной статье представлен всесторонний анализ педагогических и психологических идей Фораби и подчеркивается их важность для современной системы образования.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of Forabi's pedagogical and psychological ideas and highlights their importance in today's education system.

Annotasiya. Mazkur maqolada Forobiyning pedagogik-psixologik fikrlari keng tahlil qilinadi hamda uning bugungi ta’lim tizimidagi ahamiyati yoritiladi.

Keywords: Farabi, virtuous person, pedagogy, psychology, analysis, "Muallim as-Saniy", universal, education, upbringing, spirituality.

Ключевые слова: Фараби, добродетельный человек, педагогика, психология, анализ, «Муаллим ас-Сани», всеобщее, образование, воспитание, духовность.

Kalit so’zlar: Forobiy, fozil inson, pedagogika, psixologiya,tahlil, , “Muallim as-soniy”, umumbashariy, ta’lim, tarbiya , ma’naviyat.

Sharq uyg‘onish davri mutafakkirlari orasida Abu Nasr Forobiy (873–950) alohida o‘rin egallaydi. U o‘zining chuqur falsafiy, pedagogik va psixologik qarashlari bilan nafaqat o‘z davriga, balki keyingi asrlardagi ilmiy tafakkur rivojiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Forobiy inson kamoloti, jamiyat taraqqiyoti va ta’lim-tarbiya masalalarini o‘zaro uzviy bog‘liq holda talqin qiladi. Sharqning buyuk faylasufi, “Muallim as-soniy” (Ikkinchi muallim) nomi bilan mashhur bo‘lgan alloma. U nafaqat falsafa, balki ta’lim-tarbiya va inson psixologiyasi haqida ham chuqur fikrlar bildirgan. Mavjud ma’lumotlarga qaraganda, Farobiy 160 dan ortiq asar yozgan. Lekin ularning aksariyati

bizgacha yetib kelmagan. Shunga qaramay, mavjud risolalarining o'ziyoq uning bugok olim ekanligidan dalolat beradi.

Farobiyning asosiy asarlari: «Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida», «Falsafiy savollar va ularga javoblar», «Entsiklopediyadan mantiq bo'limining bir qismi», «Taliqot» (sharhlar), «Inson a'zolari haqida risola», «Bo'shliq haqida maqola», «Donolik asoslari», «Falsafaning ma'nosi va kelib chiqishi», «Hayvon a'zolari, funktsiyasi va potentsiyasi», «Mantiq to'g'risidagi risolaga muqaddima», «Mantiq ilmiga kirish», «Ilmlarning kelib chiqishi haqida», «Musiqa haqida katta kitob», «Baxtsaodatga erishuv haqida», «Masalalar mohiyati», «Buyuk kishilarning naqllari», «Ihso alulum», «Hikmat ma'nolari», «Aql to'g'risida», «Ilmlar va san'atlar fazilati», «Qonunlar haqida kitob», «Substantsiya haqida so'z», «Falak harakatining doimiyligi haqida», «She'r va qofiyalar haqida so'z», «Ritorika haqida kitob», «Hajm va miqdor haqida so'z», «Musiqa haqida so'z», «Fizika usullari haqida kitob», «Fazilatli xulqlar», «Fozil shahar aholisining fikrlari», «Jismlar va aktsidentsiyalarning ibtidosi haqida», «Aristotelь «Metafizika» kitobining maqsadi to'g'risida» va boshqalar. Farobiy asarlari 20-asrning 70—80-yil larida Toshkent va Olmaotada «Falsafiy risolalar», «Mantiqiy risolalar», «Matematik risolalar», «Ijtimoiy axloqiy risolalar», «Tadqiqotlar va tarjimalar» nomlari ostida rus tilida nashr etilgan.

U bilishni quyidagi bosqichlarda tushuntiradi:

1. **Sezgi (hissiy bilish)** — tashqi dunyoni sezgi organlari orqali qabul qilish.
2. **Tasavvur** — sezilgan narsalarning ongda saqlanishi.
3. **Aql** — eng oliy bilish bosqichi.

Farobiy aqlni, bir tomondan, ruhiy quvvat, ya'ni tug'ma, 2tomondan, ta'lim tarbiyaning mahsuli ekanligini ta'kidlaydi. Farobiy davlatni boshqarishda, qonunlarga amal qilishda, kishilararo munosabatda, axloq va xulqodob qoidalariga rioya qilishda, ta'limtarbiyada akl hukmidan kelib chiqqan holda harakat qilish kerak, deb hisoblaydi. Farobiyning qimmatli fikrlaridan biri uning dunyoviy ruh va dunyoviy aql, ularning barhayotligi haqidagi ta'limotning talqinidir. Mutafakkirning nazarida kishining ruhi va aqli o'lganidan keyin yo'q bo'lib ketmaydi, balki dunyoviy ruh va akl bilan qo'shiladi. Demak, odamning ruhi va akli abadiylikka ketadi. Lekin ular hech vaqt qaytib kelmaydi

va namoyon bo’lmaydi. Ular tanani tashlab ketgandan so’ng bir butunlikni tashkil etadi, akl va ruh yashash davomida orttirgan barcha ma’naviy boylik to’planib barhayot dunyoviy ruh va aklni tashkil etadi. Mutafakkirning bu ta’limotida dunyoning abadiyligi, inson zotining o’lmasligi, inson bilimlari va aqlining uzluksizligi, insoniyat ma’naviy madaniyatining taraqqiyoti haqidagi purma’no g’oyalar mavjud. Uning talqinida akliy bilish koinot akli yordamida haqiqiy ilmga aylanadi. Farobiy bilishning ratsional usulini asoslagan buyuk mutafakkirdir. U falsafiy taraqqiyotda, kuzatuv, bahsmunozara, bilish usullari, hissiy mushohada to’g’risida o’z davri uchun e’tiborga molik fikrlarni ilgari surdi. Farobiy ilgari surgan fikrlar 16—20 asrlarda ham musulmon mamlakatlari olimlari tomonidan katta qiziqish bilan o’rganildi. Mutafakkir qoldirgan meros faqat Sharq mamlakatlarida emas, balki Yevropada ham tarqaldi va ijtimoiyfalsafiy fikr taraqqiyotida sezilarli ta’sir ko’rsatdi. Farobiy aqlli inson haqida gapirib bunday yozadi:”Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o’tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishga zo’r iste’dodga ega, yomon ishlardan o’zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar. Yomon ishlarni o’ylab topish uchun zehn-idrokka ega bo’lganlarni aqlli deb bo’lmaydi, ularni ayyor, aldoqchi degan nomlar bilan atamoq lozim”. Farobiy dunyoqarashining shakllanishiga asosan Sharqning qadimgi ilg’or madaniyati an’analari, arab xalifaligiga qarshi xalq harakatlari, o’rta asr tabiiy-ilmiy tafakkur yutuqlari, Yunonistonning falsafiy merosi ta’sir ko’rsatdi. Farobiy avvalambor Aristotel ta’limotini tiklash, asoslash va ilg’or tomonlarini so’nggi ilmiy yutuqlar asosida rivojlantirishga harakat qilib, Sharq aristotelizm oqimini vujudga keltirdi. Bu oqimning uslubi, muhim masalalari, kategoriyalarini ishlab chiqdi.

Xullas, Forobiyning fozil jamiyati, komil insonning baxt-saodat, o’zaro yordam, dono boshliq, tenglik haqidagi fikrlari real hayotga nisbatan bir qadar xayoliy tuyuulsa-da, lekin insonni ma’naviy ozod etishga, uning imkoniyatlarini ochishga, gumanistik yo’nalishni asoslashga qaratilgan bu ta’limot ilg’or ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga buyuk hissa bo’lib qo’shildi. Umumbashariy intilishlarni ifodaladi. Uning ijtimoiy-ma’rifiy yuksak g’oyalari keyingi davr ilm-fani rivojiga munosib zamin yaratdi. Buyuk mutafakkirlar: Abu Rayhon Beruniy, ibn Sino, ibn Rushd, Baxmanyor, Nizomiy, Sa’diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bedil, Iqbol, Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat,

Abdulla Avloniy va boshqalarning ilmiy-ijodiy faoliyati orqali rivojlantirib borildi. Bu buyuk allomaning bir necha asr ilgari yaratgan ilmiy-ma’naviy merosi, yuksak insonparvarlik g’oyalari, axloqiy-ta’limiy qarashlari hamisha o’z dolzarbligini saqlab, tadqiqotchilarini chorlab qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зуннунов А. Педагогика тарихи. // Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Т.: “Шарқ”, 2004.
2. Форобий А.Н. Фозил одамлар шаҳри. –Т.: “Халқ мероси”, 1993.
3. Форобий А.Н. Рисолалар. –Т.: “Фан”, 1995.
4. Хайруллаев М. Маънавият юлдузлари. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси

нашриёти, Тошкент, 1999.

5. Хасанбаева О. Педагогика тарихидан хрестоматия. –Т.: “Ўқитувчи”, 1993.
6. 1.Абу Наср Форобийнинг педагогик карашлари. AKADEMICIA An International Muitidisciplinary Research Jornal (Doble Blind Refereed & Peer Reviewed Journal) ISSN 2249-7137 Vol 10 Issue 11 November 2020 Impakt Faktor SJIF 2020= 7.13 -
7. Абу Наср Форобий маънавий ахлокий таълимотининг педагогик ахамияти Педагогика илмий–назарий ва методик журнал.2019/6-сон. JDPU.O’ralova .O.R

TALABALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA ABDULLA AVLONIY ASARLARIDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Pardayeva K.U.-JDPU

Pedagogika ta’limi nazariyasi

kafedrasi katta o’qituvchisi,PhD

Annotatsiya.Maqolada talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida Abdulla Avloniy asarlaridan foydalanishning psixologik asoslari tahlil qilinadi. Avloniy pedagogik qarashlarining shaxs kamoloti, milliy identitet, axloqiy ong va fuqarolik mas’uliyatini shakllantirishga ta’siri ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqotda nazariy tahlil, qiyosiy yondashuv va psixologik umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Natijalar Avloniy merosining zamonaviy oliy ta’lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasini samarali tashkil etishda muhim metodologik manba ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: vatanparvarlik, milliy identitet, axloqiy ong, interiorizatsiya, motivatsiya, Avloniy merosi.

Аннотация.В статье анализируются психологические основы использования произведений Абдуллы Авлони в воспитании студентов в духе патриотизма. Научно обосновывается влияние его педагогических взглядов на формирование личности, национальной идентичности и гражданской ответственности. В исследовании использованы методы теоретического анализа и психологического обобщения. Делается вывод о высокой эффективности наследия Авлони в современной системе высшего образования.

Ключевые слова:патриотизм, национальная идентичность, нравственное воспитание, мотивация, личность.

Annotation. The article analyzes the psychological foundations of using Abdulla Avloniy’s works in fostering patriotism among students. It substantiates the influence of his pedagogical ideas on personality development, national identity formation, and civic responsibility. The study employs theoretical analysis and psychological generalization methods. The findings confirm the effectiveness of Avloniy’s heritage in modern higher education.

Keywords: patriotism, national identity, moral education, motivation, personality.

Globallashuv sharoitida yoshlarning milliy o‘zligini anglash darajasi va fuqarolik mas’uliyatini oshirish dolzarb ijtimoiy-pedagogik vazifalardan biridir. Talabalik davri shaxs rivojlanishining muhim bosqichi bo‘lib, aynan shu davrda qadriyatlar tizimi va ijtimoiy identitet shakllanadi.O‘zbek ma’rifatparvarlik maktabining yirik namoyandasi Abdulla Avloniy o‘zining Turkiy Guliston yoxud axloq asarida tarbiya masalasini millat taraqqiyoti bilan bevosita bog‘laydi. Uning pedagogik qarashlari bugungi kunda ham yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan kamol toptirishda muhim nazariy manba hisoblanadi.Mazkur maqolada quyidagi metodlardan foydalanildi:

nazariy tahlil;

tarixiy-qiyosiy yondashuv;

psixologik umumlashtirish;

pedagogik kuzatuv elementlari.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxs rivojlanishi nazariyalari, ijtimoiy identifikatsiya konsepsiyasi hamda motivatsiya nazariyalari tashkil etadi.

Psixologik nuqtai nazardan vatanparvarlik shaxsning o‘z Vatani va millatiga nisbatan ijobiy emotsional munosabati, ijtimoiy mas’uliyati va faol fuqarolik pozitsiyasida namoyon bo‘ladigan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisadir.U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Kognitiv komponent– tarix, til va milliy qadriyatlar haqidagi bilimlar;

Emotsional komponent– faxr, sadoqat va daxldorlik hissi;

Xulq-atvor komponenti – ijtimoiy faollik va mas’uliyat.

Talabalik yoshida identitet shakllanish jarayoni faollashadi. Bu jarayon Erik Erikson tomonidan “identiklik inqirozi” bosqichi sifatida tavsiflangan. Abdulla Avloniy tarbiyani inson hayotining hal qiluvchi omili deb hisoblaydi. Uning pedagogik konsepsiyasida quyidagi psixologik g‘oyalar mujassam:

1. Ijtimoiylashuv va muhit ta’siri.
2. Shaxs kamolotida ijtimoiy muhitning roli Lev Vygotsky nazariyasiga hamohang tarzda talqin etiladi. Avloniy ham muhit va ta’limni asosiy omil sifatida ko‘rsatadi.
3. Interiorizatsiya mexanizmi.

Axloqiy qadriyatlarning ichki e’tiqodga aylanishi jarayoni shaxs barqarorligini ta’minlaydi. Bu jarayon talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usining ustahkamlanishiga xizmat qiladi.Ilm olish va jamiyatga foyda keltirish g‘oyasi ichki motivatsiyani shakllantiradi. Bu jihat Abraham Maslow ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasi bilan uyg‘unlashadi. Avloniy merosidan foydalanish quyidagi yo‘nalishlarda samarali hisoblanadi:

refleksiv o‘qish va tahlil;

muammoli vaziyatlar asosida munozara;

tarixiy-madaniy kontekstni ochib berish;

ijtimoiy loyiha va tashabbuslar tashkil etish.

Bu metodlar talabalarning bilish jarayonlari, emotsional tajribasi va xulq-atvorini kompleks rivojlantiradi.

Avloniy asarlaridan foydalanish ,milliy identitetni mustahkamlaydi, fuqarolik mas’uliyatini oshiradi, ichki motivatsiyani rivojlantiradi,ijtimoiy faollikni kuchaytiradi.Psixologik jihatdan bu jarayon identifikatsiya, interiorizatsiya va ijtimoiy o‘rganish mexanizmlari orqali amalga oshadi.Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Abdulla Avloniy asarlaridan foydalanish chuqur psixologik asosga ega. Uning pedagogik qarashlari zamonaviy oliy ta’lim tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiyani samarali tashkil etish uchun muhim nazariy va amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Avloniy merosini ta’lim jarayoniga tizimli integratsiya qilish yosh avlodni milliy qadriyatlarga sodiq, ijtimoiy faol va mas’uliyatli shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulla Avloniy. “Turkiy Guliston yoxud axloq”. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.
2. Abdulla Avloniy. “Tanlangan asarlar”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
3. Erik Erikson. “Identity: Youth and Crisis”. – New York: Norton, 1968.
4. Lev Vygotsky. “Mind in Society”. – Cambridge: Harvard University Press, 1978.
5. Abraham Maslow. “Motivation and Personality”. – New York: Harper & Row, 1954.

TALABALARDA AXLOQ KO`NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Soibnazarova Muqaddas Norpo‘latovna
katta o‘qituvchi JDPU

Annotatsiya: Maqolada Yoshlarning odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida oila, Vatan, yaxshilik va boshqalar kabi axloqiy qadriyatlarning mazmunini o'zlashtirish jarayoni yoritilgan. Shuningdek, yoshlarda odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini belgilovchi omillar aytib o'tilgan.

Tayanch so'zlar. Odob-axloq qadriyatlari, ijtimoiy me'yorlar, hayotiy tamoyillarning shakllani- shi, shaxsiy e'tiqod, inson xulq-atvori, rahm-shafqat, fazilatlar, ma'naviy yuksalish, rivojlanish.

В статье освещен процесс освоения нравственных ценностей, таких как семья, Родина, добро и др. Также учащимся были озвучены факторы, определяющие особенности процесса развития этических навыков.

Ключевые слова. Формирование нравственных ценностей, социальных норм, жизненных принципов, личные убеждения, человеческое поведение, милосердие, качества, духовный подъем, развитие.

The article highlights the process of mastering moral values, such as family, homeland, goodness, etc. Also, primary voiced the factors that determine the features of the process of developing ethical skills.

Key words: The formation of moral values, social norms, life principles, personal beliefs, human behavior, mercy, qualities, spiritual recovery, development.

Yoshlarning odob-axloq ko'nikmalari rivojlanishi har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga, ya'ni aqliy rivojlanishga, mehnat tarbiyasiga, jis-moniy rivojlanishga, estetik tuyg'ular va qiziqishlarni tarbiyalashga katta ta'sir ko'rsatadi. Odob-axloqli sifatning kuchi va barqarorligi uning qanday shakllanganiga, qaysi mexanizm pedagogik ta'sirning asosi bo'lganiga bog'liq.

Odob-axloqli asoslar: madaniyat bilan tanishish jarayonida inson o'zini o'zi bosh-qarish mexanizmlarini rivojlantiradi, bu keng ko'lamli drayvlar, instinktlar va boshqalarni tartibga solish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Bu o'z-o'zini nazorat qilish mohiyatan ijtimoiy nazoratdir. U ushbu ijtimoiy guruh uchun qabul qilinmaydigan impulslarni bostiradi va jamiyat hayoti uchun zarur shartni tashkil qiladi. Insoniyat qanchalik jadal rivojlansa, ta'lim va tarbiya, shaxsni shaxsiyat sifatida shakllantirish muammolari shunchalik murakkab bo'ladi.

"Odob-axloq ko'nikmalari" tushunchasi yana bir muhim tushuncha - "odob-axloq qadriyatlari"ni aks ettiradi.

Odob-axloq qadriyatlari ijtimoiy me'yorlar va ideallarni hayotiy tamoyillarning shakllanishiga hissa qo'shadigan shaxsiy e'tiqodlarga aylantirishga yordam beradi. Bu jarayonning asosini ham shaxsning ma'naviy dunyosi tashkil etadi. Odatda, universal deb ataladigan qadriyatlar inson xulq-atvorini yaxshilash, kundalik hayotda do'stlik, halollik, rahm-shafqat, yordam va boshqalarga nisbatan sezgirlikka yo'naltirish uchun mo'ljallangan. Bu fazilatlar shaxsiy yutuqlarga aylanib, asta-sekin shakllanishi kerak. Chunki ma'naviy yuksalish va rivojlangan shaxsga yo'l juda uzoq va qiyin. O'z-o'zini anglash insonning odob-axloqli va ma'naviy rivojlanishini shakllantirishda juda muhim rol o'ynaydi.

M. Veberning ijtimoiy konsepsiyasiga ko'ra, qadriyat ijtimoiy subyekt uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy normadir. Qadriyatlar ijtimoiy jarayon bilan bog'liq ijobiy muhim voqea va hodisalarni o'z ichiga oladi. Insoniyat jamiyati rivojlanishining turli bosqichlarida qadriyatlar doimiy bo'lib qoladi.

M. Veberning ijtimoiy konsepsiyasiga ko'ra, qadriyat ijtimoiy subyekt uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy normadir. Qadriyatlar ijtimoiy jarayon bilan bog'liq ijobiy muhim voqea va hodisalarni o'z ichiga oladi. Insoniyat jamiyati rivojlanishining turli bosqichlarida qadriyatlar doimiy bo'lib qoladi.

Insoniy qadriyatlarning psixologik xususiyatlari nuqtayi nazaridan K. Xabibullin tomonidan taklif qilingan qiziqarli tasnif ahamiyatga ega. Qadriyatlar u tomonidan quyidagicha bo'linadi:

- faoliyat predmetiga qarab - qadriyatlar individual bo'lishi yoki guruh, sinf, jamiyatning qadriyatlari sifatida harakat qilishi mumkin;
- faoliyat oby'ektiga ko'ra - inson hayotidagi va sotsiogenik moddiy qadriyatlar ajratilgan;
- inson faoliyati turiga qarab - qadriyatlar kognitiv, mehnat, ta'lim va ijtimoiy-siyosiy bo'lishi mumkin.

Umuminsoniy qadriyatlar vaqt va makonda eng ko'p odamlar tomonidan tan oli- nishi bilan tavsiflanadi. Bularga eng muhim kundalik haqiqatlar, jahon san'atining barcha durdonalari, barqaror axloq normalari (qo'shniga muhabbat va hurmat, halollik, rahm-shafqat, donolik, go'zallikka intilish va boshqalar) kiradi. Ko'pgina odob-axloq ko'rsatmalari islom dini asoslariga to'g'ri keladi va insonning asosiy huquqlarida o'ziga xos tarzda aks etadi.

Milliy qadriyatlar har qanday millat va shaxs hayotida eng muhim o'rinni egallaydi. Umuminsoniy qadriyatlardan farqli o'laroq, milliy qadriyatlar yanada aniqroq va moddiyroqdir.

Mulkiy qadriyatlar alohida sinflar va ijtimoiy guruhlarning qiziqishlari va munosabatlari bilan bog'liq.

Mahalliy-guruh qadriyatlari - yashash joyi va yoshi bo'yicha nisbatan kichik guruhlarni birlashtiradi. Ular madaniyat sohasidagi va afsuski, ko'pincha madaniyatga qarshi sohadagi ba'zi ijtimoiy tipik imtiyozlarni aks ettiradi.

Oilaviy qadriyatlar. Oila yer yuzidagi eng oliy qadriyat bo'lib, u har bir insonning hayotini baxtli, to'laqonli va samarali qiladi. Oila inson munosabatlarining haqiqiy instituti bo'lib, u yerda inson o'sadi, rivojlanadi va yaxshilanadi, shuning uchun hatto qadimgi lotinlar ham shunday ishonishgan: "Kuchli oila kuchli davlatdir". Oila, V. Gyugoning so'zlari bilan aytganda, jamiyatning gavhari, uning asosidir. Oilaning jismoniy va ma'naviy salomatligi butun insoniyatning farovonligiga bog'liq. Demak, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan oilaviy qadriyatlar odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirishda kata rol o'ynaydi. Individual-shaxsiy qadriyatlarga, ayniqsa, bitta odamga yaqin bo'lgan g'oyalar oby'ektlar kiradi. Ular atrofdagi ijtimoiy-madaniy muhitdan olinishi yoki individual jodkorlik mumkin.

Ta’lim qadryatlari muammosini o’rganib chiqib B.T.Lixachev asosiy milliy dav- lat-jamoat, ijtimoiy-moslashuvchan, axloqiy-estetik va ekologik, individual-shaxsiy riyatlarni nomlaydiaxsning odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayoni qadriyatlarni sonda gumanistik tamoyillarning o'sishi va kamoloti, uning har doim muhim bo'lgan qadriyatlardan xabardorligi.

Yoshlarning odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida biz oila, Vatan, yaxshilik va boshqalar kabi axloqiy qadriyatlarning mazmunini o'zlashtirish jarayonini tushunamiz.

Standartga muvofiq, odob-axloq ko'nikmalari rivojlanishi ta'limning dastlabki bosqichida amalga oshiriladi, bu axloqiy me'yorlar va munosabatlarni, milliy qadriyatlarni qabul qilishni o'z ichiga oladi.

Yoshlarning quyidagi shaxsiy xususiyatlari muhim ahamiyatga ega:

- mustaqil harakat qilishga va o'z xatti-harakatlari uchun oilasi va jamiyati oldida javobgar bo'lishga tayyor;
- do'stona, suhbatdoshni tinglash va eshitish, o'z pozitsiyasini oqlash, o'z fikrini bildirish;
- qiziquvchan, faol va dunyoni bilishga qiziqadi;
- o'z xalqini, yurtini va vatanini sevish;
- oila va jamiyat qadriyatlarini hurmat qilish va qabul qilish.

O'quv dasturini o'zlashtirishning shaxsiy natijalariga yoshlarning shaxsiy pozitsiyalarini, shaxsiy fazilatlarini aks ettiruvchi qiymat-semantik munosabatlari kiradi.

"O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy rivojlantirish va tarbiyalash dasturi" tahririda A.Yu. Danilyuk, A.A. Loginova ta'limda namoyon bo'ladigan odob-axloq ko'nikmalari rivojlanishining quyidagi yo'nalishlari va qadriyat asoslarini ochib beradi:

* fuqarolik, vatanparvarlik, inson huquqlari, erkinliklari va burchlarini hurmat qilish (o'z xalqiga, o'z yurtiga muhabbat, Vatanga xizmat qilish va boshqalar.);

* axloqiy tuyg'ular va axloqiy ong (axloqiy tanlov, umr va hayotning ma'nosi, adolat, rahm-shafqat, sharaf, inson qadr-qimmati, tenglik, mas'uliyat va burch hissi, g'amxo'rlik va yordam, odob, halollik, oqsoqollar va o'smirlarga g'amxo'rlik va boshqalar.);

* mehnatsevarlik, ta'limga, mehnatga, hayotga ijodiy munosabat.;

Qadriyatlar: ta'lim, mehnat, ishchilarga hurmat, ijodkorlik va kreativlik, bilim va haqiqatga intilish, maqsadlilik va qat'iyatlilik, tejamkorlik, mehnatsevarlik.; tabiatga, atrof-muhit qadriyatiga asoslangan munosabat (ekologik ta'lim). Qadriyatlar: ona yurt, qo'riqlanadigan tabiat, yer sayyorasi, ekologik ong. go'zallikka bo'lgan munosabat, estetik ideallar va qadriyatlar (estetik tarbiya) haqidagi g'oyalarni shakllantirish (go'zallik, uyg'unlik, insonning ma'naviy dunyosi, estetik rivojlanish, ijodkorlik va san'atda o'zini namoyon qilish).

1. Oila.
2. Vatan.
3. Xush kelibsiz.

Shunday qilib, shuni ta'kidlashimiz mumkinki, yoshlarning odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirishda uning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olish, bolaning ongi va faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan ta'lim usullari va shakllarini to'g'ri tanlash kerak.

Pedagogika fanida shaxsiyatning rivojlanishi deganda, atrof-muhit, irsiyat, ta'lim va tarbiya ta'siri ostida uning o'zgarishi jarayoni va natijasi; insonning ichki va tashqi potensial imkoniyatlarining rivojlanishi tufayli fiziologik, aqliy va ijtimoiy neoplazmalarning ko'payishi tushuniladi.

Yuqoridagi tushunchalarga asoslanib, biz "Oila", "Vatan", "Xush kelibsiz" kabi odob-axloq qadriyatlarining mazmunini o'zlashtirish va o'zlashtirish jarayoni bo'lgan "shaxsning odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish" kabi atamani aniqladik. Shaxsning rivojlanishi uning qadriyatlarni qabul qilish jarayonida sodir bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini belgilovchi omillar shakllantirildi:

- odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish yoshlar tafakkurining mantiqiy va hissiy-majoziy tarkibiy qismlarining birlashishi asosida amalga oshiriladi;
- odob-axloq ko'nikmalarini hissiy idrok etishni oqilona idrok etish bilan birgalikda hissiyotlarning mantiq bilan bog'liqligini o'zida mujassam etadi va odob-axloq ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga olib keladi;

- odob-axloq ko'nikmalarini rivojlantirish uchun o'quvchilar tafakkurining yosh xususiyatlarini, ma'lum bir jamiyatga tegishli axloqiy qadriyatlarni hisobga olgan holda axloqiy tushunchalarni tanlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil 30-aprelda respublika refe- rendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan). www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi "Bola huquqlarining ka- folatlari to'g'risida"gi Qonuni. www.lex.uz
3. Ma'naviyat: asosiy tushunchalar va izohli lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi. nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010. -447-b.
4. Usmonov M. Avestoda inson madhi. // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gaze- tasi, 5. 24.000 yil 20 dekabr.
5. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. – T.: “Universitet", 1998. 6. 43-b.

ЖИЗЗАХ ВОҲАСИ АҲОЛИСИНИНГ БОЛА ТАРБИЯСИ БИЛАН БОҒЛИҚ АНЪАНАЛАРИ

Жуманазарова Дилноза Умирзақовна
ЖДПИ, п.ф.н., доц.

Асрлар давомида шаклланган бой моддий маданий меросимиз, миллий қадриятларимизни халқимизнинг бетимсол бойлиги сифатидаги ўрни ва аҳамиятини инобатга олиб, бугунги глобаллашув даврида инсон онги ва тафаккурини эгаллаш учун курашлар авж олаётган бир шароитда уларни кўз қорачиғидай асраш ва келажак авлодларга етказиш вазифаси янада долзарб аҳамият касб этмоқда.

Дарҳақиқат, президентимиз таъкидлаганларидек, “агар жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи - маънавиятдир. Биз янги

Ўзбекистонни барпо этишда ана шу иккита мустаҳкам устунга, яъни, бозор тамойилларига асосланган кучли иқтисодиётга ҳамда аждодларимизнинг бой мероси, миллий ва умуминсоний қадриятларга асосланган кучли маънавиятга таянамиз”[Мирзиёев Ш.М. 2021. 4 б]. Шу боисдан, кенг жамоатчиликка қадимдан шаклланиб келган миллий урф-одат ва анъаналаримизни бой тарихимизнинг улкан маънавий қадрияти сифатидаги ўрни ҳамда аҳамиятини, унинг жамият ижтимоий-маънавий ҳаётидаги мавқеини кўрсатиб бериш муҳим ҳисобланади. Бу борада ўзбек оилаларидаги фарзанд тарбияси, унинг жамият аъзолари билан муносабатга киришишидаги қоидаларга тайёрлаб борилиши инсон камолотида долзарб аҳамият касб этади.

Инсоният тарихий тараққиётида оиланинг энг муҳим амалиётларидан бири-зурриёт қолдиришдир. Шунинг учун ҳам аёлнинг бебаҳо ҳислатларидан бири унинг фарзанд кўриши деб ҳисобланган. Болага меҳр қўйиш, кўп болали оилаларни ҳурмат қилиш, оилага серфарзандликни тилаш каби эзгу ниятлар ўзбеклар миллий руҳиятининг ифодаси бўлиб, халқимизда қадимдан фарзанд кўриш бахти энг юксак саодат ҳисобланади.

Шу туфайли фарзаднинг кишига чексиз қувонч ва катта маънавий куч бағишлашини ифода этувчи жуда кўп мақол, қўшиқ, эртак ва достонлар яратилган[Миртурсунов З. 1973. 54 б]. Жумладан, “Болаликнинг бели чинор, боласизнинг бели синар”, “Болалик уй бозор, боласиз уй мозор”, “Ўнта бўлса ўрни бошқа, қирқта бўлса қилиғи” каби мақоллар халқимизнинг фарзандга бўлган муносабати, меҳр-муҳаббатини ўзида мужассам этади.

Жиззах воҳаси ўзбекларининг бола тарбияси билан боғлиқ анъаналарини кузатар эканмиз, бунда оиладаги ёши улуғ кишилар нафақат боланинг вояга етиши билан боғлиқ ҳолатдаги тарбия усуллари асосида, балки оилада туғилган чақолоқнинг келажакда қандай инсон бўлиб етишишлари унга қўйилган исмга боғлиқ, - деган халқона қарашлар асосида унга исм танлаш билан бошлайдилар. Болага исм қўйишда мутаносиблик - муносиблик нуқтаи назарига амал қилинган ҳолда воҳа халқлари орасида қадим замонлардан исмда тақдирга ишорат бор деган

ғоя ҳанузгача яшаб келмоқда. Бинобарин, чақалоққа муваффақиятли танланган ва берилган ном унинг тақдирини ўзида мужассам этади, киши ўз исмига ўхшайди, деб ишонилади. Натижада воҳа халқлари “хосиятли” (қутли) ва “хосиятсиз”, яхши ва ёмон исмлар бор, деб тасаввур қиладилар. Шу сабабли чақалоқнинг турли касалликларга чалинавериши ёки оилада болаларнинг нобуд бўлавериши, бола баданида турли нуқсонлар мавжуд бўлиши, қолаверса фарзанднинг келгуси бахти унинг исмига боғлиқ деб тасаввур қилинади. Натижада чақалоққа берилувчи исм одамни ўзаро фарқлаш, аташгина эмас, балки уни турли бало - қазолардан асрайдиган, муҳофаза этадиган, қутқарадиган воситага айланган. Шу туфайли ҳам Жиззах воҳаси халқларида болага исм бериш ишига азалдан ўзига хос масъулият билан ёндашилган. Оилада фарзанд бирин - кетин нобуд бўлаверса фарзандга Турсун, Ўлмас, Ўнғар, Турғуной, Маҳкам каби исмлар қўйилган.

Баъзи чақалоқлар баданидаги қандайдир ортиқча белгилар билан: хол, тож, ортиқча бармоқ ва бошқа белгилар билан туғилган. Бу нуқсон ва белгилар болаларга исм беришда ҳисобга олинмаса улар боланинг соғлиги, ҳаёти, келажак турмушига хавф туғдиради, деб тушунилган. Бундай норасидаларни ўз номи билан туғилган бола, деб ҳисоблашган ва уларга ўша ортиқча белгилар номидан ясалган исмлар қўйилган. Чунончи, Холбой, Анора, Тожибой, Ортиқвой, Бувизиёда, Ўрол, Норбой ва бошқалар[дала ёзувлари. 8.].

Жиззах воҳаси аҳолисида бошқа минтақаларда яшовчи ўзбеклар ва тожикларда бўлгани сингари муқаддас қадамжо ва зиёратгоҳларда назр - ниёз қилиниши натижасида туғилган чақалоқларга ҳам махсус исм қўйилган бўлиб, улар болани келгуси ҳаётида турли бало - қазолардан ҳимоя қилинишига ишонишган. Бундай исмларга мисол сифатида Хазратқул, Пиримқул, Хўжамберди, Пирниёз кабиларни келтириш мумкин.

Умуман олганда, юқорида келтирилган исмларнинг аксариятида дунёга келган гўдакни маълум бир илоҳий қудрат билан туғилганлик тушунчасига урғу берилиши билан бир қаторда уларни тарбиясида ҳам муҳим аҳамият касб этган.

Бола парвариши ва тарбиясида катта авлоднинг масъулияти юқори бўлиши ўзбек халқига хос хусусиятдир. Бу чақалоқнинг чилла давриданоқ уни

парваришлаш билан бошланади. Туққан она ва чақалоқнинг “чилла” сақлаш удумлари Жиззах воҳасида яхши сақланиб келмоқда. Шуни таъкидлаш керакки, хомиладор аёл кўзи ёриганидан сўнг ёш она ва янги туғилган чақалоқни алоҳида парваришлаш мақсадида дунёнинг кўпгина халқларида муайян вақт мобайнида ҳимоялаш ва асраб-авайлаш урф-одатлари мавжуд бўлган. Бинобарин, ўзбекларда туққан аёл ва унинг чақалоғини қирқ кун давомида парваришлаш ва эҳтиётлашга қаратилган “чилла” даври мавжуд[Аширов А. 2007. 79 б][31]. Бу анъана маҳаллий аҳолининг таъкидлашларича боланинг жисмонан ва руҳан соғлом бўлиб вояга етишида муҳим ўрин тутади.

Жиззах воҳаси оилаларида ёш болалар бир ярим -икки ёшгача бешикда парвариш қилинади. Узоқ йиллар мобайнида ўқитувчилик фаолиятини олиб борган 8 фарзандли онахонинг айтишича, унинг фарзандлари 2 ёшгача бешикда ётган ва болаларининг парвариши ҳамда тарбияси кўпроқ қайнонасининг зиммасида бўлган[дала ёзувлари. 6.]. Қисқаси, қайноналар ўз неваралари олдида катта масъулиятга эга бўлган ва шунинг учун болалар аввало уларга тегишли ҳисобланган. Ёш оналар қайнона ёки қайнота олдида ўз фарзандларини уришишга ҳадлари сиғмаган. Лекин, қайнона яъни бувиларнинг болаларни тергашлари одатий ҳол бўлган. Буви ёки бувалар танбеҳ берганда ота-оналар буни кўнгилларига олмаган. Ёш ота-оналар ҳам гарчи болани дунёга келтирган бўлишларига қарамай, катта авлод вакилларини ўз фарзандлари тарбияси учун кўпроқ маъсулиятли, деб ҳисоблашган ва уларнинг бола олдида хақлари ҳам кўпроқ эканлигини тан олганлар.

Жиззах воҳасида болани парвариш қилиш билан боғлиқ бўлган инитсиатсион мазмундаги кўплаб маросимий иримлар энди унитилган бўлсада, бола тарбияси билан боғлиқ анъаналарда яъни, кўпроқ болаларга меҳнат тарбиясини беришда, уларни одоб ва ахлоққа ўргатишда ҳамда оила аъзолари ўртасида иерархик мувозанат сақланишида кўзга ташланади. Маълумки, шарқ халқларида нафақат муомалада балки, шу билан бирга инсоннинг ўтирган ўрни, унга берилган таом

[31] Марказий Осиёнинг кўплаб халқлари каби ўзбекларда ҳам чилла инсон ҳаётидаги масъулиятли давр ҳисобланиб, нафақат чақалоқ туғилганида, балки никоҳ тўйи ҳамда мотамдан сўнг ҳам унга амал қилинади.

таркиби ва бошқа шу каби кўп ҳолатларга қараб ҳам унинг мавқеи белгиланади. Аксарият оилаларда катталар ва болалар бир жойда ўтиришмайди. Айниқса серфарзанд оилаларда бундай ҳолатни кўп кузатиш мумкин. Кузатишлар бунда шарт-шароит муҳим ўрин тутишини кўрсатмоқда. Бундай шароит бўлмаганда барча оила аъзолари бир дастурхон атрофида йиғилган. Ахборотчининг маълумот беришича, улар оилада 12 фарзанд бўлгани учун ёз пайтида катталар алоҳида кичиклар алоҳида ўтиришган. Лекин қиш пайтида ҳамма бир жойда тўпланган[дала ёзувлари. 4.].

Болаларни катталардан алоҳида ажратиш аслида тарбиявий мазмунга эга бўлиб, бу айниқса, меҳмонлар келганида кузатилади. Кузатишларимизда аниқланишича, меҳмонлар олдига болалар қўйилмаслигининг сабаби, “болаларнинг шўхлиги меҳмонни безовта қилиши бўлса, бошқа томондан, катталар меҳмон билан ҳар хил масалада гаплашишади, бу эса болаларнинг ёшига тўғри келмаслиги билан боғлиқдир”[дала ёзувлари.7.].

Ўзбек анъанавий тарбиясида болалар токи ўсмирлик ёшигача этгунча ўғил ва қиз болаларга ётоқ учун алоҳида хона ажратилмаган. Фақат ўсмирлик пайтидан ўғил болалар иложи борича қизлардан ажратилган. Воҳа бўйлаб олиб борилган тадқиқотлар оилавий тарбияда исломий ўгитлар болага ёшлигидан сингдириб борилганини кўрсатмоқда. Масалан, “увол”, “савоб−гуноҳ” деган тушунчалар болаларнинг кичик ёшларидан турли матал, ривоятлар орқали тушунтириб борилган. Бунда бобо ва бувиларни роли катта бўлган.“Увол”–бу деярли муқаддас саналган бирон бир нарса ёки жонзотга бекорга зарар этказиш. Масалан, мусичани ўлдириш “увол”. Нонни оёқ ости қилиш “увол” ва ҳ.к. Савоб–бу эзгу ишлар. Бу эзгу ишларни бажариш кишини жаннатга элтади. Аксинча, гуноҳ − бу бажариш мумкин бўлмаган ёмон ишлар. Гуноҳи кўп бўлган кишилар дўзаҳга тушадилар. Кўпчилик анъанавий оилаларда болаларга “калимаи шаҳодат”, “фотиҳа”, “ихлос” ва бошқа шу каби энг муҳим кичик суралар оғзаки тарзда ёдлатилган. Бу эса уларда нафақат диний тарбия, балки умуминсоний қадриятларга содиқ бўлиб вояга етишларига хизмат қилади.

Ўзбек халқи тарбия анъаналарида болаларни, айниқса, ёш болаларни жисмоний жазолашга салбий муносабатда бўлинади. Халқ орасида “ақли этмаганнинг қўли этади” деган нақл ҳам бор. Қиз болаларни жисмоний жазолаш ҳам қаттиқ қораланади. Кўпчиликнинг фикрича, агар ота қизини хатто бир шаполоқ урса ҳам у бахтсиз бўлар экан. Лекин халқ тарбиясида жазо ҳам тарбия усулига киради, шу боис 5-6 ёшдан ошган ўғил болаларни нотўғри иши учун энгилгина жисмоний жазолаш кўп учраб турган. Айрим пайтларда гарчи калтаклашмаса-да хивичдан “пўписа” сифатида фойдаланган ҳолатлар бўлган[дала ёзувлари.5.].

Умуман, Жиззах воҳаси аҳолиси анъанавий оилаларида жисмоний жазо қораланган ва аксариятида жазо калтаккача этиб бормаган. Масалан, Назаровлар оиласида она фарзандларини доим сизлаб гапирган. Фақат жаҳли чиққанда сенсираган. Бу болаларга қаттиқ таъсир қилган. Агар болалар бирон ишни бажаришни истамасалар она уни урушмаган, “майли болажоним сен қилмасанг, буни синглингга қилдираман, лекин сен бемалол чой ичоласанми, нон эя оласанми” деганда бола уялганидан ўша ишни бажарган[дала ёзувлари.7.]. Бу эса ўзбек оилавий тарбиясида болани виждонини уйғотиш, ғурур, уят туйғусини шакллантириб боришга эътибор қаратилганлигидан далолат беради.

Хулоса сифатида шуни таъкидлаш жоизки, фарзанд тарбияси инсониятнинг асосий хатти-ҳаракатларидан, ҳаётий орзуларидан бири бўлган ва шундай бўлиб қолмоқда. Халқимизнинг урф-одат ва анъаналари замон талабига мослашиб ўзгариб бораётган бўлишига қарамай, олиб борилган шахсий кузатувларимиз ва социологик тадқиқотлар натижасида шу аён бўлдики, Жиззах воҳаси халқлари орасида ёш авлодни дунёга келтириш ва тарбиялаш масалаларида этнопедагогик тенденсиялар сақланиб келинмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш.М. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – миллий ғоямизнинг пойдеворидир. Тошкент, 2021 й.

2.Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Тошкент, 2007.

3.Миртурсунов З. Ўзбек халқ педагогикаси.–Т.: 1973.

4.Дала ёзувлари Ғаллаорол тумани Хонимқўрғон қишлоғи. 2021 й.
5.Дала ёзувлари. Жиззах вилояти туманлари 2020 й.
6.Дала ёзувлари. Жиззах вилояти Ш.Рашидов тумани 2020 й.
7.Дала ёзувлари. Жиззах шаҳри Наврўз маҳалласи. 2020 й.
8.Дала ёзувлари. Ш.Рашидов тумани. Олмачи маҳалласи. 2020 йил.

THE ROLE OF INTEGRATION IN RUSSIAN LANGUAGE AND LITERATURE LESSONS

Abdumuminova Makhliyo Okmirza qizi
Lecturer at Jizzakh State Pedagogical University (JSPU) Faculty of Philology

Annotation: The article analyzes the significance of the concept of "integration" as one of the most perspective methodological directions of modern education; it highlights the issue of the relationship between the concepts of "integration," "pedagogical integration," "convergence," and "interdisciplinary connections."

Keywords: teaching process, integration, integrated lessons, problem, emotional sphere, potential, knowledge, think, didactic tool.

Аннотация: В статье анализируется значимость концепции «интеграции» как одного из наиболее перспективных методологических направлений современного образования. Рассматривается вопрос взаимосвязи между понятиями «интеграция», «педагогическая интеграция», «конвергенция» и «междисциплинарные связи».

Ключевые слова: процесс обучения, интеграция, интегрированные уроки, проблема, эмоциональная сфера, потенциал, знания, мышление, дидактическое средство.

Modern educational standards in literature require students to engage in creative self-expression, formulate their life position, become aware of their place in contemporary society, understand and express the moral and social role of individuals in today's realities. Literature lessons cannot do without implementing students' original

ideas. Teaching students to think and feel, to nurture the soul - these are the tasks of the literary educational process. Establishing interdisciplinary connections contributes to students' involvement in a systemic method of thinking, forms systems of scientific knowledge, skills, and worldview in students, develops the ability to generalize knowledge across different subjects, to see the common in the individual, and to evaluate the individual from the perspective of the general. Systematic subject connections assist in solving purely educational tasks, consolidating subject knowledge and skills in students by constantly applying them in learning different subjects.The integration method is a didactic tool that creates unique conditions for the development and realization of students' creative potential in various fields of art and stimulates their activity in various types of activities. Preparation for an integrated lesson helps to build a conflict-free pedagogy, to experience the inspiration of creativity with children again and again, to transform the process of teaching and learning into result-oriented creative work, to implement an orientation-personal approach to each student, allowing them to realize their individual qualities[2, c. 68].

The dream of every teacher is to educate a student who knows how to think independently, ask themselves questions, and find answers, to pose problems and seek ways to solve them, while not forgetting about the emotional sphere. Educating a person who is not only knowledgeable and broad-minded but also sensitive, moral, capable of seeing, appreciating, and multiplying the wealth of the surrounding world will be facilitated by integrated learning.

Furthermore, Johann Heinrich Pestalozzi asserted that the process of teaching should be structured in a way that, on the one hand, distinguishes individual subjects from each other, and on the other hand, unites similar and related subjects in our consciousness, thereby bringing immense clarity to our consciousness and raising them to clear concepts after their complete clarification. Konstantin Ushinsky, through the integration of writing and reading, developed and implemented an analytic-synthetic method of teaching literacy. The novelty and essence of this method initially lay in integration, as envisioned by the author, allowing for the adaptation and merging of separate elements of two types of speech activities - writing and reading into a unified whole.

An excellent example of conducting integrated lessons was the experience of V.O. Sukhomlinsky, with his "thinking lessons in nature," which he conducted at the Pavlysh school for six-year-old children. This involved integrating the main types of cognitive activities (observation, thinking, speech) with the aim of educating, nurturing, and developing children.

"Integration is a deep interpenetration, merging, as far as possible, of generalized knowledge in a particular area into a single educational material."

There are three levels of integration:

- intra-subject integration - integration of concepts within individual subjects;
- interdisciplinary integration - the synthesis of facts, concepts, principles, etc., from two or more disciplines, which the educator should utilize when preparing an integrated lesson;
- transdisciplinary integration - the synthesis of components of the main and additional educational content.

Integration should run as a "common thread" through all school subjects, and only at a certain moment, when students themselves show increased interest in this approach and material comprehension, should it culminate in a separate integrated lesson.

The need for integrated lessons arises due to several reasons. Firstly, the world that children perceive is diverse yet unified, and often the school subjects, aimed at studying individual phenomena of this unity, do not provide an understanding of the holistic phenomenon, breaking it down into fragmented pieces. Secondly, integrated lessons develop the potential of the students themselves, prompting active exploration of the surrounding reality, understanding and identifying causal relationships, and developing logic, thinking, and communicative abilities[1, c. 268]..

Thirdly, the form of conducting integrated lessons is non-standard and interesting. The use of various work methods throughout the lesson maintains students' attention at a high level, allowing for the recognition of the lessons' effectiveness. Integrated lessons unfold significant pedagogical possibilities. These lessons alleviate students' fatigue and strain by diverting them to diverse activities, sharply increasing cognitive interest, promoting the development of students' imagination, attention, thinking, speech, and memory.

Fourthly, in modern society, the integration explains the necessity of integration in education. High-class, well-prepared specialists are needed in contemporary society. To meet this need for educated and well-prepared specialists, it is essential to start from the elementary grades, which is facilitated by integration in primary school.

Fifthly, by strengthening interdisciplinary connections, educational hours are freed up, which can be used for foreign language study, in-depth study of visual arts, music, for developing students' activities, and for additional practical lessons.

Sixthly, integration provides opportunities for self-realization, self-expression, and creativity for teachers, contributing to the development of their abilities. Education integration implies a substantial development and deepening of interdisciplinary connections, which are analogous to inter-scientific connections, transitioning from coordinating the teaching of different subjects to their profound interaction. Knowledge integration from various subjects is achieved through an integrated lesson.

An integrated lesson is a specially organized lesson whose goal can only be achieved by combining knowledge from different subjects, aimed at examining and resolving a bordering issue. This allows students to achieve a holistic, synthesized perception of the researched question, harmoniously combining the methods of various sciences, maintaining practical orientation.

The pedagogical and methodological technology of integrated lessons can vary, but in any case, their modeling is necessary. The independent search for new optimal (according to Babansky) model schematics is a demonstration of the teacher's creative activity [2, c. 68].

The Regularities of an Integrated Lesson:

- the entire lesson is based on the author's concept;
- the lesson is united by the main idea (the core of the lesson);
- the lesson forms a whole, with its stages being fragments of the whole; the stages and components of the lesson are in logical-structural dependency;
- the didactic material selected for the lesson corresponds to the concept; the sequence of information is organized as both "known" and "new" and reflects not only structural but also semantic coherence; structural coherence is achieved sequentially but does not exclude parallel connectivity.

An integrated lesson requires careful planning since students will create a generalized picture of a specific theme, which demands certain intellectual efforts.

References

1. Kulnevich S.V., Lakotsenina T.P. Modern lesson. Parts 1 and 2, Rostov-on-Don: Uchitel Publishing House, 2006.
2. Sukharevskaya E.Yu. Integrated lesson technology. Rostov-on-Don: Uchitel Publishing House, 2006.

KURSANTLAR IJTIMOIY MOSLASHUVIGA TA’SIR ETUVCHI O‘ZIGA XOS PSIXOLOGIK OMILLAR

podpolkovnik Dusboyev A.T.
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti 2-bosqich magistranti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy harbiy ta’lim muassasalarida kursantlarning ijtimoiy moslashuvi jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi shaxsiy, ijtimoiy va muassasa sharoiti bilan bog‘liq psixologik omillar, ularning mazmun-mohiyati hamda har bir kurslarning o‘ziga xosligi haqida batafsil ma’lumotlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. shaxs, inson, kursant, harbiy, ta’lim, muassasa, omil, moslashuv, stress, xulq-atvor, trening.

Аннотация. В данной статье подробно описаны психологические факторы, связанные с личными, социальными и институциональными условиями, непосредственно влияющие на процесс социальной адаптации курсантов в высших военных учебных заведениях, их содержание и специфика каждого курса.

Ключевые слова. личность, человек, курсант, военный, образование, учреждение, фактор, адаптация, стресс, поведение, обучение.

Annotation. This article describes in detail the psychological factors related to personal, social, and institutional conditions that directly affect the process of social adaptation of cadets in higher military educational institutions, as well as their content and specific features for each course.

Keywords. personality, individual, cadet, military, education, institution, factor, adaptation, stress, behavior, training.

Har qanday jamiyatda shaxsning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va baxtli hayot kechirish tarzining asosiy va muhim shartlaridan biri, uning ijtimoiy muhitga tezda moslasha olishidadir. Inson qayerda bo‘lishi va qayerga borishidan qat’iy nazar shu joy, muhitga va jamoaga asta moslashib boradi. Ijtimoiy moslashuv (adaptatsiya) – bu shaxs va ijtimoiy muhit o‘rtasidagi uzluksiz o‘zaro ta’sir jarayoni bo‘lib, unda individ yoki shaxs o‘zining xulq-atvorini, qadriyatlarini va ichki pozitsiyasini jamiyat qoidalari,

talablari va normalariga muvofiqlashtiradi [1]. Bu nafaqat jamiyatda “o‘z o‘rnini topish”, balki shaxsning ruhiy salomatligi, faoliyat samaradorligi va hayotdan umumiy qoniqish darajasini belgilovchi murakkab psixologik hodisa hisoblanadi. Biroq, bu moslashuv jarayoni har doim ham bir maromda kechavermaydi. Uning moslashuviga ko‘plab omillar, eng avvalo, insonning o‘ziga va uni o‘rab turgan muhitga oid bo‘lgan psixologik omillar ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu omillarni tizimlashtirish va tahlil qilish shaxsning moslashuv jarayonidagi muammolarining asl sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish strategiyalarini ishlab chiqish uchun fundamental ahamiyatga egadir.

Zamonaviy ta’lim tizimida, ayniqsa, oliy harbiy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan kursantlarning ijtimoiy moslashuvi muammosi alohida ahamiyat kasb etadi va o‘ziga xos dolzarblikka ega. Kursantlar o‘z uyidagi sharoitdan keskin farq qiluvchi, qattiq tartib intizom va qoidalar hukmron bo‘lgan muhitga kirib keladilar. Bu jarayon har bir shaxs uchun nafaqat jismoniy, balki hissiy va kuchli psixologik stress manbai ham hisoblanadi.

Ijtimoiy moslashuv jarayoni – kursantlarning yangi harbiy jamoa (guruh, vzvod, otryad, bo‘linma kabi) orasida o‘z o‘rnini topishi, o‘quv faoliyatining o‘ziga xos talablariga javob berishi hamda o‘z shaxsiy xususiyatlarini saqlab qolgan holda ta’lim muassasasining ijtimoiy normalari va qadriyatlariga mos keladigan xulq-atvor shakllarini egallash jarayoni [2] tushuniladi.

Kursantlar harbiy ta’lim muassasasiga o‘qishga kirish bilan birga, butunlay yangi, cheklangan va yuqori intizomli ijtimoiy muhitga moslashishni talab qiladi. Oddiy talabalardan farqli o‘laroq, kursantlar uchun moslashuv jarayoni yanada qiyinroq kechadi.

Shu nuqtai nazardan kursantlarning ijtimoiy moslashuviga ta’sir etuvchi o‘ziga xos psixologik omillar, ayniqsa, harbiy jamoa sharoitida quyida muhim bo‘lgan bir necha omillarni misol keltiramiz.

Shaxsiy psixologik omillar:

Kasbiy motivatsiya va maqsadga intilish. Ya’ni, kasb tanlashning to‘g‘riligi va ongliligi – bu kursantning tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishi, e’tiqodi va kelajakdagi faoliyati haqida aniq tasavvurga egaligi; Ta’lim muassasasi talablariga mos keladigan shaxsiy fazilatlar – bunga intizom, mas’uliyat, chidamlilik, stressga bardoshlilik, qat’iyatlilik darajasini misol qilish mumkin.

O‘z-o‘zini anglash va baholash. Ya’ni, o‘z kuchiga ishonch, o‘z-o‘zini qadrlash darajasi – bu yangi sharoitlarda paydo bo‘ladigan qiyinchiliklarni yengishga bo‘lgan ishonch; Tashvish (xavotir) darajasi – noaniqlik va yangi talablar oldida yuzaga keladigan hissiy zo‘riqish [3].

Hissiy-irodaviy sifatlar. Ya’ni, emotsional barqarorlik – qiyin vaziyatlarda o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olish qobiliyati; Irodaviy sifatlar – sabr-toqat, o‘zini majburlay olish, qiyinchiliklarga qaramay harakatni davom ettirish.

Ijtimoiy-psixologik omillar:

Muloqot va guruhga integratsiya. Ya’ni, muloqotchanlik va aloqa o‘rnatish qobiliyati – kursdoshlar, komandirlar va o‘qituvchilar bilan samarali munosabatlarni yo‘lga qo‘yish; Jamoadagi o‘rni va qabul qilinishi – yangi guruhga (guruh, vzvod, otryad, bo‘linma) kirishib borish va o‘zini qulay his qilish; Ziddiyatlarni yechish usullari – nizoli vaziyatlarni konstruktiv hal qilish qobiliyati [3].

Yetakchilik va hamkorlik. Ya’ni, guruhda ishlash ko‘nikmalari – jamoaviy faoliyatda ishtirok etish va hamkorlik qilish; Munosabatlarning o‘ziga xosligi – rasmiy (hizmat) munosabatlari va norasmiy (do‘stona) munosabatlarni farqlay olish.

Ta’lim muassasasi sharoiti bilan bog‘liq psixologik omillar (moslashuv krizisi jarayoni):

Hayot tarzining keskin o‘zgarishi. Ya’ni, qattiq tartib qoidaga (reglamentga) moslashish – uy sharoitidagi erkinlikdan harbiy tartib intizomiga o‘tish (kazarma holati, qat’iy kun tartibi); Avvalgi ijtimoiy aloqalarning o‘zgarishi – oila va do‘stlardan uzoqlashish.

O‘quv faoliyatining xususiyati. Ya’ni, mustaqil o‘qish ko‘nikmalarining yetishmasligi – maktab yoki kollejdan keyin oliy harbiy (maxsus) ta’lim tizimiga o‘tish; O‘quv yuklamasining yuqoriligi – o‘quv faoliyati bilan xizmat vazifalarini birlashtirish zaruriyati.

Professional o‘z-o‘zini belgalashdagi shubhaga tushish. Qiyinchiliklar tufayli tanlangan kasbning to‘g‘riligiga shubha paydo bo‘lishi, motivatsiyaning pasayishi.

Kursantlarning muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuvi yuqoridagi psixologik omillarni o‘zida mujassam etgan “yashovchanlik (yashashga qobiliyatlilik)”, ya’ni qiyin sharoitlarda o‘zini saqlay olish va faol harakat qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi bilan chambarchas bog‘liq [4].

Kursantlarning ijtimoiy moslashuv jarayonini yengillashtirish va psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tavsiyalar va yondashuvlar mavjud.

Kursantlarning o‘qish jarayonidagi har bir bosqichida (kurslar oralig‘ida) ularning ijtimoiy moslashuviga ta’sir etuvchi psixologik omillar o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘ladi [6]. Bu o‘zgarishlar kursantning roli, yuklamasi va shaxsiy rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Psixologik o‘ziga xoslik	Ta’sir etuvchi asosiy omillar
1	**2**
Boshlang‘ich adaptatsiya davri (1-bosqich) Bu davrda asosiy psixologik omil keskin o‘zgarishlarga moslashish (adaptatsiya krizisi) bilan bog‘liq jarayonlar kuzatilishi mumkin	
Moslashuv shoki	Tartib intizomga moslashish jarayonida oldingi fuqarolik erkin hayotidan keskin ravishda qat’iy intizom, belgilangan kun tartibi va cheklangan erkinlik sharoitiga o‘tish stressi kuzatilishi yuqori bo‘ladi.
Ijtimoiy izolyatsiya	Yaqin aloqalarning uzilishi natijasida oila, do‘stlar va avvalgi ijtimoiy muhitdan uzoqlashish natijasida yolg‘izlik, emotsional to‘yinganlikning yetishmaslik hissi ortadi.
Yangi guruhga integratsiya	Yangi jamoadagi o‘rinni topishi, ya’ni begona bo‘lgan kursdoshlar orasida (bo‘linmada) o‘zini anglash, qabul qilinish, muloqot o‘rnatish. Konformizm (guruhga bo‘ysunish) yoki aksincha, rad etish holatlari.
Kasbiy motivatsiyani sinovdan o‘tkazish	Birinchi qiyinchiliklar ro‘y berishi natijasida jismoniy va aqliy yuklamalarning og‘irligi kasb tanlashning to‘g‘riligiga nisbatan shubha (motivatsiya krizisi) tug‘dirishi mumkin.
Asosiy integratsiya davri (2-bosqich) Bunda asosiy psixologik omil birinchi davrda olingan ko‘nikmalarni mustahkamlash va shaxsiy o‘rinni aniqlash bilan bog‘liq bo‘ladi	
“Eskilik” hissi va rivojlanish pallasi	Bir xillikdan zerikish – birinchi bosqichning qiyinchiliklari ortda qolgan, lekin professional o‘sish hali sezilmayotgan davrni o‘z ichiga oladi. Tartibga to‘liq moslashish natijasida o‘qishga bo‘lgan qiziqish pasayishi kuzatilishi mumkin.
Ichki guruhning shakllanishi	Munosabatlarning qat’iylashuvi – jamoa (bo‘linma) ichida doimiy kichik guruhlar (klanlar) va norasmiy liderlar shakllanishi boshlanadi. Bu holat ba’zi kursantlarning ijtimoiy doiradan tashqarida qolib ketishiga sabab bo‘lishi mumkin.
O‘zini anglashning kengayishi	O‘z qobiliyatlarini realistik baholash – kursant o‘zining zaif va kuchli tomonlarini obektiv baholay boshlaydi. Bu holat o‘z-o‘zini tanqid qilish yoki haddan tashqari o‘ziga bo‘lgan ishonch ortib borishi kuzatilishi mumkin.

Psixologik o‘ziga xoslik	Ta’sir etuvchi asosiy omillar
1	**2**
O‘quv yuklamasining ortishi	Maxsus (kasbiy) fanlarga o‘tish – talablar o‘zgaradi, maxsus bilimlar chuqurlashadi. Bu esa intellektual stress va akademik muvaffaqiyatsizlik xavotirini oshishiga olib kelishi mumkin.
Kelajak rejalari	Mutaxassislikni tanlash – o‘qishni tugatgandan keyin qaysi soha (qo‘shin)ga borish masalasini hal qilish. Karera xavotirlari va tanlov bosimi kuchayadi.
Professional etnos shakllanish davri (3-bosqich) Bu davrda asosiy psixologik omil kasbiy identifikatsiya va mustaqillikni xohlash bilan bog‘liq bo‘ladi	
Tashqi o‘zgarishlarga tayyorgarlik	Amaliyotga tayyorgarlik – ilk marotaba ta’lim muassasasidan tashqarida (qo‘shinlarda) amaliy faoliyatga kirishish davri shakllanadi. Bu kursantda muvaffaqiyatsizlikdan qo‘rquv yoki professional ambitsiyalarning kuchayishini keltirib chiqaradi.
Rolni qabul qilish	Komandirlik sifati – bo‘ysunuvchilarga nisbatan rahbarlik rolini bajarish zaruriyatining tug‘ilishi. Bu kursantdan mas’uliyat va yetakchilik qobiliyatlarini, nazariy bilimlarni amalda qo‘llash mahoratini talab qiladi.
Axloqiy-hissiy charchoq	Uzoq muddatli intizom ta’siri – 3 yil davomidagi cheklovlar va tartibdan hissiy charchoq yuzaga kelishi, ba’zi qoidalarga nisbatan tanqidiy munosabat kuchayishi kuzatilishi mumkin.
Yakuniy integratsiya (bitiruv bosqichi) Bu davrda asosiy psixologik omil bitiruv (dissotsiatsiya, ajralish) va yangi mustaqil hayotga chiqishga tayyorgarlik bilan bog‘liq	
Alohida yolg‘on stabilizatsiya	O‘quv faoliyatining tugashi – muassasa ichidagi hayotning yaqinlashayotgan tugashini his qilish kuchayadi. Guruh (kursdoshlar)ning tarqalib ketishidan qo‘rqish va ba’zida bir-biriga yanada bog‘lanib qolish tendensiyasi sezilishi mumkin.
Mustaqil qaror qabul qilish mas’uliyati	Kelajakdagi vazifalarning murakkablashuvi – o‘qishdan keyingi xizmat joyiga, lavozimni qabul qilishga tasavvur. Bu kuchli mas’uliyat hissi va yuqori darajadagi o‘z-o‘zini boshqarishni talab qiladi.
Sinovlarga hissiy	Bitiruv imtihonlari, diplom va kurs ishlari –

Psixologik o‘ziga xoslik	Ta’sir etuvchi asosiy omillar
1	**2**
tayyorgarlik	yuqori o‘quv va hissiy stresslar yuzaga kelishi. Bu bosim tashvish darajasini maksimal darajada oshishiga olib kelishi mumkin.
Professional o‘z-o‘zini tasdiqlash	Yangi ijtimoiy rol – kursant statusidan rasmiy ofitserlik (mutaxassis kadr) statusiga o‘tishga psixologik tayyorgarlik. O‘zining bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llashga bo‘lgan ishonch muhimdir.

Bu omillarning har biri, mos ravishda, muassasa psixologlari va bo‘linma komandirlari tomonidan o‘z vaqtida va bosqichma-bosqich tahlil qilinishi va profilaktik choralar ko‘rilishi talab etiladi.

Umumiy xulosa shuki, kursantlarning ijtimoiy moslashuvi bir qator o‘ziga xos psixologik omillar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu omillar faqatgina shaxsiy xususiyatlar (motivatsiya, o‘z-o‘zini baholash, emotsional barqarorlik) bilan cheklanib qolmay, balki jamoaviy muhit (guruhga integratsiya, muloqot) va institutsional sharoit (tartib-intizom, yuklama) tomonidan ham belgilanadi.

Har bir bosqichda moslashuvning o‘ziga xos muammolari mavjud bo‘lib, bular:

1-bosqichda, adaptatsiya shoki va qattiq tartib intizomga moslashish jarayoni kuzatiladi.

2-bosqichda, ichki guruhning shakllanishi hamda o‘quv yuklamasining ortishi bilan bog‘liq bo‘lgan motivatsiya pasayishiga olib kelishi mumkin.

3 va 4-bosqchilarda esa, kasbiy identiikatsiya, mustaqil rolga o‘tish va bitiruv oldi kuchayadigan stresslarni to‘g‘ri boshqarishdan iborat.

Kursantlarning ijtimoiy moslashuvini muvaffaqiyatli ta’minlash uchun yagona universal yondashuv emas, balki bosqich (kurs)lar oralig‘idagi dinamik o‘zgarishlarni hisobga oluvchi bosqichma-bosqich psixologik va pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimi talab etiladi. Ushbu omillarni nazariy va amaliy jihatdan o‘rganish kursantlarning o‘qishni tashlab ketish xavfini kamaytiradi va kelajakda yuqori malakali mutaxassislar sifatida shakllanishiga asos yaratadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sirliyev B.N va boshqalar. Ijtimoiy psixologiya. Ma’ruzalar kursi / B.N.Sirliyev, R.X.Dushanov, I.X.Kalonov. T.: O‘R IIV Akademiyasi, 2019. – 633 b.

2. Jo‘rayev T.S. Jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitni o‘rganish metodikasi. Uslubiy qo‘llanma. Termiz. Termizlat universiteti, 2011. – 216 b.

3. Bandura, A. Teoriya sotsialnogo naucheniya. Sankt-Peterburg: Yevraziya, 2000. – 320 b.
4. Kazanskaya, V. Podrostok: sotsialnaya adaptatsiya. Kniga dlya psixologov, pedagogov i roditeley. Sankt-Peterburg: Yevraziya, 2000. – 320 b.
5. https://slib.uz/oz/journal/view?id=305. “Ijtimoiy moslashuv jarayonlarini nazariy ko‘rib chiqish obekti sifatida” maqola Sharq tarix, siyosat va huquq jurnali, Vol.04, Issue 05, 2024.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ijtimoiy_moslashuv. Murojaat sanasi – 22.00., 11.11.2025 y.

HARBIY XIZMATCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISHDA SUZISH MASHQLARINI DIFFERENSIAL O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Urazimbetov Islombek Ashirbayevich
Jamoat xafsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda suzish mashqlarini differensial o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalasi yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi – harbiy xizmatchilarning individual jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda suzish mashqlarini tashkil etishning samarali usullarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tahlil, kuzatish va pedagogik tajriba metodlaridan foydalanildi. Natijada differensial yondashuv asosida tashkil etilgan suzish mashqlari harbiy xizmatchilarning jismoniy chidamliligi, tezkorligi va umumiy jismoniy tayyorgarligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: Harbiy xizmatchilar, jismoniy tayyorgarlik, suzish mashqlari, differensial o‘qitish, jismoniy rivojlanish, pedagogik metodika, harbiy sport tayyorgarligi, innovatsion yondashuv, jismoniy chidamlilik, harbiy ta’lim.

Kirish. Hozirgi davrda harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini yuqori darajada tashkil etish Qurolli Kuchlar samaradorligini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Harbiy xizmat jarayonida jismoniy chiniqish, chidamlilik, tezkorlik va epchillik kabi sifatlarni rivojlantirish harbiy xizmatchilarning kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, harbiy xizmatchilarni jismoniy tayyorlash tizimida suzish mashqlarining o‘rni alohida e’tiborga loyiqdir. Suzish mashqlari

organizmning umumiy jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, yurak-qon tomir hamda nafas olish tizimini mustahkamlaydi, shuningdek, ekstremal vaziyatlarda harbiy xizmatchilarning harakatlanish qobiliyatini oshiradi.

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jismoniy tayyorgarlikni oshirishda suzish mashqlaridan foydalanish bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Biroq harbiy xizmatchilarning individual jismoniy imkoniyatlari, tayyorgarlik darajasi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda suzish mashqlarini differensial o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu bois, harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda differensial yondashuvga asoslangan suzish mashqlari metodikasini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda suzish mashqlarini differensial o‘qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida suzish mashqlarining jismoniy tayyorgarlikka ta’sirini o‘rganish, differensial o‘qitish tamoyillarini tahlil qilish hamda ularning samaradorligini aniqlash belgilandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi harbiy xizmatchilarning individual jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda suzish mashqlarini tashkil etishning differensial metodikasini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalari harbiy ta’lim muassasalarida jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning obyekti harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligi jarayoni bo‘lsa, predmeti esa jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda suzish mashqlarini differensial o‘qitish metodikasidir. Tadqiqot natijalari harbiy sport tayyorgarligi tizimini yanada takomillashtirish va harbiy xizmatchilarning jismoniy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi sohasida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ilmiy manbalarda jismoniy tayyorgarlikni oshirishda turli sport mashqlari, jumladan suzish mashqlarining samaradorligi keng yoritilgan.

Tadqiqotchilar suzish mashqlari inson organizmining umumiy jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, ayniqsa yurak-qon tomir tizimi, nafas olish faoliyati va mushaklar tizimining rivojlanishida muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydilar.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ham suzish mashqlarining jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishdagi ahamiyati alohida qayd etilgan. Jumladan, bir qator tadqiqotlarda suzish mashqlarini tizimli ravishda tashkil etish jismoniy chidamlilik, tezkorlik va koordinatsiya qobiliyatlarini oshirishga xizmat qilishi ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar orasida differensial o‘qitish metodikasi muhim o‘rin egallaydi. Bu yondashuv o‘quvchilarning individual imkoniyatlari, jismoniy tayyorgarlik darajasi hamda psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etishni nazarda tutadi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham harbiy xizmatchilarni jismoniy tayyorlash tizimini takomillashtirish, jismoniy mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalari o‘rganilgan. Biroq suzish mashqlarini differensial yondashuv asosida tashkil etish orqali harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi yetarli darajada tadqiq etilmaganligi kuzatiladi. Shu bois, mazkur yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi. Jumladan, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, pedagogik kuzatish, pedagogik tajriba va natijalarni statistik tahlil qilish metodlari qo‘llanildi. Tadqiqotning amaliy qismi harbiy xizmatchilar ishtirokida tashkil etilgan tajriba-sinov mashg‘ulotlari asosida olib borildi.

Tajriba-sinov ishlari bir necha bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda mavzuga oid ilmiy manbalar o‘rganildi va suzish mashqlarining jismoniy tayyorgarlikka ta’siri tahlil qilindi. Ikkinchi bosqichda harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi aniqlanib, suzish mashqlari differensial yondashuv asosida tashkil etildi. Uchinchi bosqichda o‘tkazilgan mashg‘ulotlarning samaradorligi tahlil qilinib, olingan natijalar umumlashtirildi.

Mazkur metodlar orqali suzish mashqlarini differensial o‘qitish metodikasining harbiy xizmatchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishdagi samaradorligi aniqlab berildi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda suzish mashqlarini differensial o‘qitish metodikasidan foydalanish yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Differensial yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar harbiy xizmatchilarning individual jismoniy imkoniyatlari, tayyorgarlik darajasi va funksional holatini hisobga olgan holda amalga oshirilgani sababli mashg‘ulot jarayonining samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Natijada harbiy xizmatchilarda jismoniy chidamlilik, tezkorlik, muvofiqlashtirish qobiliyati hamda umumiy jismoniy salohiyat ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi kuzatildi.

Ilmiy adabiyotlarda ham jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda suzish mashqlarining muhim o‘rin tutishi ta’kidlangan. Ayrim tadqiqotlarda suzish mashqlari organizmning umumiy funksional holatini yaxshilashi, mushaklar faoliyatini faollashtirishi hamda jismoniy chidamlilikni oshirishga xizmat qilishi qayd etilgan. Mazkur tadqiqot natijalari ham ushbu ilmiy qarashlarni tasdiqlaydi va suzish mashqlarining harbiy xizmatchilar jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishdagi ahamiyatini yana bir bor ko‘rsatib beradi.

Shuningdek, differensial o‘qitish metodikasidan foydalanish mashg‘ulot jarayonini yanada tizimli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Chunki ushbu yondashuv harbiy xizmatchilarni jismoniy tayyorgarlik darajasi bo‘yicha guruhlarga ajratish, mashqlar yuklamasini individual tarzda belgilash hamda mashg‘ulot jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etishga xizmat qiladi. Natijada mashg‘ulotlarda qatnashayotgan harbiy xizmatchilarning jismoniy rivojlanish sur’ati oshib, mashg‘ulotlarning umumiy samaradorligi ta’minlanadi.

Muallifning ilmiy pozitsiyasiga ko‘ra, harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda suzish mashqlarini differensial yondashuv asosida tashkil etish nafaqat jismoniy ko‘rsatkichlarni yaxshilashga, balki mashg‘ulot jarayonining pedagogik samaradorligini ham oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, harbiy ta’lim muassasalari hamda harbiy qismlarda jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlarini tashkil etishda differensial o‘qitish metodikasidan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari suzish mashqlarini differensial o‘qitish metodikasini takomillashtirish harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda muhim pedagogik va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Natijalar. Tadqiqot davomida harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda suzish mashqlarini differensial o‘qitish metodikasining samaradorligi aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi. Tajriba jarayonida harbiy xizmatchilar tajriba va nazorat guruhlariga ajratilib, tajriba guruhida suzish mashqlari differensial yondashuv asosida tashkil etildi, nazorat guruhida esa an’anaviy metodlardan foydalanildi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, differensial o‘qitish asosida olib borilgan mashg‘ulotlar harbiy xizmatchilarning suzish tezligi, jismoniy chidamliligi va umumiy jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining sezilarli darajada yaxshilanishiga olib keldi. Xususan, tajriba guruhida suzish tezligi o‘rtacha 12–15 foizga, jismoniy chidamlilik ko‘rsatkichlari esa 18–20 foizga oshgani kuzatildi, nazorat guruhida esa bunday o‘sish nisbatan past darajada qayd etildi. Ushbu faktik natijalar suzish mashqlarini differensial o‘qitish metodikasi harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda suzish mashqlarini differensial o‘qitish metodikasidan foydalanish yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida suzish mashqlarini harbiy xizmatchilarning individual jismoniy imkoniyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda tashkil etish jismoniy chidamlilik, tezkorlik hamda umumiy jismoniy salohiyatning oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Shuningdek, differensial yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar jismoniy tayyorgarlik jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqot natijalari harbiy ta’lim muassasalarida jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlarini takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, kelgusida suzish mashqlarini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida yanada rivojlantirish va keng joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-6099-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PQ-5280-son Qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari: Armiya sportini rivojlantirish sohasiga oid hujjat (lex.uz). – Elektron manba. – Kirish sanasi: 10.05.2024.
4. Bobomuratov I.B. Harbiy professional faoliyatda suzishning sog‘liq uchun ahamiyati. – 2022.
5. Hasanov A.T., Akzamov S.D., Abduraimov D.T. Pedagogical technology in professional-practical physical training of students of the faculty of military education. – 2022.
6. Платонов В.Н. Теория и методика спортивной тренировки. – Киев: Олимпийская литература, 2015. – 656 с.
7. Bompa T.O., Haff G.G. Periodization: Theory and Methodology of Training. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2019. – 412 p.
8. Maglischo E.W. Swimming Fastest. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2003. – 790 p.
9. Introduction to the Swimming Specialty: Textbook. – O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishlari uchun o‘quv qo‘llanma.

ONTOGENETIK RIVOJLANISH BOSQICHLARIDA AYOLLAR EMOTSIONAL BARQARORLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OPTIMIZM OMILLARINING PSIXOLOGIK TAHLILI

Dilfuza Pulatova Baxramovna

"Oila va gender" ilmiy- tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada turli ontogenetik rivojlanish bosqichlaridagi ayollarning emotsional barqarorligi va optimistik dunyoqarashi o'rtasidagi psixologik bog'liqlik nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda optimizmning kognitiv, emotsional va ijtimoiy komponentlari, shuningdek, ularning ayollarning hayot davrlari bo'yicha emotsional boshqaruv mexanizmlariga ta'siri ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari psixologik amaliyot va profilaktik ishlar uchun nazariy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: optimizm, emotsional barqarorlik, ontogenez, ayollar psixologiyasi, kognitiv baho, psixologik moslashuv, yosh xususiyatlari

Аннотация. В данной статье теоретически проанализирована психологическая взаимосвязь между эмоциональной устойчивостью и оптимистическим мировоззрением женщин на различных этапах онтогенетического развития. В исследовании рассмотрены когнитивные, эмоциональные и социальные компоненты оптимизма, а также их влияние на механизмы эмоциональной регуляции женщин в разные периоды жизни. Результаты исследования могут служить теоретической основой для психологической практики и профилактической работы.

Ключевые слова: оптимизм, эмоциональная устойчивость, онтогенез, психология женщин, когнитивная оценка, психологическая адаптация, возрастные особенности.

Abstract. This article provides a theoretical analysis of the psychological relationship between emotional stability and an optimistic worldview in women at different stages of ontogenetic development. The study examines the cognitive, emotional, and social components of optimism, as well as their influence on women's emotional regulation mechanisms across various life periods. The research findings may serve as a theoretical foundation for psychological practice and preventive work.

Keywords: optimism, emotional stability, ontogenesis, women's psychology, cognitive appraisal, psychological adaptation, age characteristics.

KIRISH

Zamonaviy psixologiya fanida shaxsning emotsional sohasini o'rganish alohida ahamiyat kasb etmoqda, chunki emotsional barqarorlik individning ijtimoiy moslashuvchanligi, psixologik salomatligi va hayot sifatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ayollar psixologiyasining o'ziga xos jihatlari, jumladan, emotsional sezgirlik, empatiya qobiliyati va ijtimoiy rollarning murakkabligi bu masalani yanada dolzarb qiladi. Optimizm esa shaxsning hayotiy qiyinchiliklarga munosabatini shakllantiruvchi va emotsional holatni tartibga soluvchi muhim psixologik resurs sifatida tan olingan [1]. Shu bois, optimizm va emotsional barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni ontogenetik rivojlanish nuqtai nazaridan o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Ontogenetik yondashuv shaxs psixikasining yosh davrlari bo'yicha o'zgarishlarini tizimli tahlil qilish imkonini beradi. Ayollarning turli hayot bosqichlarida — o'smirlik, yoshlik, o'rta yosh va keksalik davrlarida — emotsional tajribalar, stressga javob berish usullari va kognitiv baholar sezilarli darajada farq qiladi [2]. Ushbu farqlar optimizmning shakllanishi va uning emotsional barqarorlikka ta'sir etish mexanizmlarini ham belgilaydi. Tadqiqotning maqsadi ontogenetik rivojlanish bosqichlarida ayollar emotsional barqarorligiga ta'sir etuvchi optimizm omillarini nazariy jihatdan tahlil qilish va ularning psixologik asoslarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, ushbu muammo o'zbek psixologiyasida kompleks tarzda kam o'rganilgan

bo'lib, mavjud xorijiy va mahalliy tadqiqotlarning sintezi asosida yangi nazariy xulosalar shakllantirish imkoniyati mavjud.

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqotda nazariy tahlil metodi qo'llanilgan bo'lib, optimizm va emotsional barqarorlik muammosiga bag'ishlangan o'zbek, rus va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarini tizimli o'rganish amalga oshirilgan. Metodologik asos sifatida M. Seligmanning pozitiv psixologiya nazariyasi, C. Carver va M. Scheierning dispozitsion optimizm konsepsiyasi, shuningdek, L.S. Vigotskiyning rivojlanish psixologiyasi tamoyillari xizmat qilgan [3]. Optimizm tushunchasi psixologiya fanida ko'p qirrali hodisa sifatida talqin qilinadi. M. Seligman optimizmni o'rganilgan xulq-atvor sifatida ta'riflab, uning shakllanishida bolalikning dastlabki tajribalari, tarbiya uslubi va ijtimoiy muhitning hal qiluvchi rolini ta'kidlaydi [1]. C. Carver va M. Scheier esa optimizmni barqaror shaxsiy xususiyat — dispozitsiya sifatida ko'rib chiqib, uning kelajakka ijobiy kutishlar bilan bog'liqligini asoslaydilar [4]. Ushbu yondashuvlar sintezi shuni ko'rsatadiki, optimizm ham genetik moyillik, ham ijtimoiy ta'sir natijasida shakllanadi va hayot davomida ma'lum darajada o'zgarishi mumkin.

Emotsional barqarorlik tushunchasi psixologiyada shaxsning emotsional holatini muvozanatda saqlash, stress omillariga moslashish va emotsional reaktsiyalarni boshqarish qobiliyati sifatida tushuniladi. Rus psixologi L.M. Mitina emotsional barqarorlikni kasbiy faoliyat samaradorligining muhim sharti sifatida ko'rib chiqib, uning tarkibiy komponentlarini — emotsional reaktsiyalarni boshqarish, emotsional holatni o'z-o'zini tartibga solish va ijobiy emotsional fonni saqlash qobiliyatini ajratib ko'rsatadi [5]. O'zbek psixologlari E. G'oziyev va boshqalar shaxsning emotsional sohasini milliy-madaniy kontekstda o'rganib, an'anaviy qadriyatlar va oilaviy muhitning emotsional rivojlanishga ta'sirini ta'kidlaydilar [6].

Ontogenetik rivojlanish nuqtai nazaridan ayollarning emotsional sohasi bir qator muhim o'zgarishlarga uchraydi. O'smirlik davrida gormonal o'zgarishlar, identifikatsiya jarayonlari va ijtimoiy rollarning shaklanishi emotsional beqarorlikka olib kelishi mumkin. E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bu davrda shaxs o'z-o'zini anglash va ijtimoiy moslashish vazifalarini hal qiladi, bu esa emotsional sohaga

sezilarli ta'sir ko'rsatadi [7]. Yoshlik davrida ayollar kasbiy faoliyat, oila qurish va onalik rollarini o'zlashtirishda yangi emotsional sinovlarga duch keladilar. O'rta yoshda esa hayotiy tajriba to'planishi, ijtimoiy mavqening barqarorlashuvi va menopauza davri bilan bog'liq fiziologik o'zgarishlar emotsional barqarorlikka ikki tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Keksalik davrida esa hayotiy donishmandlik, qadriyatlarning qayta baholanishi va ijtimoiy rollarning o'zgarishi emotsional sohadagi yangi moslashuvlarni talab qiladi [2].

Optimizm va emotsional barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik mexanizmlari bir nechta psixologik nazariyalar orqali tushuntiriladi. Kognitiv yondashuv nuqtai nazaridan optimistik shaxslar stressli vaziyatlarni kamroq tahdidli deb baholaydilar, bu esa emotsional reaktsiyalarning pasayishiga olib keladi [8]. Resurslarni saqlash nazariyasiga ko'ra esa optimizm psixologik resurs sifatida stress ta'sirida sarflanadigan emotsional energiyani tejash imkonini beradi. Shuningdek, optimistik shaxslar ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni faolroq izlaydilar va undan samarali foydalanadilar, bu esa emotsional barqarorlikni mustahkamlaydi [9].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, optimizm va emotsional barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik ayollarning turli ontogenetik bosqichlarida o'ziga xos xususiyatlarga ega. O'smirlik davrida optimizmning shakllanishi asosan oilaviy muhit, ota-ona bilan munosabatlar va tengdoshlar bilan ijtimoiy o'zaro ta'sir orqali amalga oshadi. Bu davrda optimistik dunyoqarash emotsional beqarorlikning salbiy oqibatlarini yumshatuvchi muhim himoya omili sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, optimistik o'smir qizlar depressiv simptomlar va tashvishlanishga kamroq moyil bo'lib, ijtimoiy moslashuvda yuqori natijalarni ko'rsatadilar [3]. Biroq bu davrda optimizmning barqarorligi nisbatan past bo'lib, u tashqi vaziyatlar ta'sirida tez o'zgarishi mumkin.

Yoshlik davrida optimizm va emotsional barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik yanada murakkab xarakter kasb etadi. Bu davrda ayollar kasbiy o'z-o'zini realizatsiya qilish, romantik munosabatlar va onalik kabi hayotiy muhim qarorlar bilan duch keladilar. Optimistik yosh ayollar ushbu hayotiy o'tish davrlarida emotsional barqarorlikni saqlashda yuqori moslashuvchanllikni namoyon etadilar. Shu bilan birga, haqiqatga mos kelmaydigan ortiqcha optimizm ba'zan muvaffaqiyatsizliklar oldida kuchli emotsional

tushkunlikka olib kelishi mumkin [4]. Shuning uchun bu davrda "haqiqatbinlik bilan muvozanatlangan optimizm" — ya'ni ijobiy kutishlarni real imkoniyatlar bilan uyg'unlashtirish — emotsional barqarorlik uchun eng samarali strategiya hisoblanadi.

O'rta yosh davrida ayollarning optimizmi va emotsional barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlik eng barqaror ko'rinishga ega bo'ladi. Bu davrda to'plangan hayotiy tajriba, shakllangan ijtimoiy mavqe va qadriyatlar tizimi optimizmning puxta asoslarini yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'rta yoshdagi optimist ayollar keksalik oldidan psixologik tayyorgarlikda, kasalliklar va yo'qotishlar bilan kurashishda yuqori emotsional barqarorlikni namoyon etadilar [10]. Biroq bu davrda menopauza bilan bog'liq fiziologik o'zgarishlar emotsional sohaga ta'sir ko'rsatishi va optimistik kayfiyatni pasaytirishi mumkin. Shuning uchun bu davrda jismoniy salomatlik va psixologik farovonlikning o'zaro bog'liqligi alohida ahamiyat kasb etadi.

Keksalik davrida optimizm va emotsional barqarorlik o'rtasidagi munosabatlar yangi sifat kasb etadi. Bu davrda "gerotranstsendensiya" — ya'ni hayotiy tajribaning ma'naviy umumlashtirilishi — optimizmning asosiy manbai sifatida namoyon bo'ladi. Keksa optimist ayollar o'tgan hayotini qoniqarli deb baholaydilar, mavjud muammolarni qabul qilishda yuqori moslashuvchanllikni ko'rsatadilar va hayotning ma'nosini saqlashda muvaffaqiyatli bo'ladilar [7]. Emotsional barqarorlik bu davrda ko'pincha "emotsional donishmandlik" shaklida namoyon bo'lib, u emotsiyalarni chuqurroq tushunish va ularni muvozanatli boshqarish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, optimizmning emotsional barqarorlikka ta'sir etish mexanizmlari yosh davrlari bo'yicha farqlanadi. O'smirlik va yoshlik davrlarida bu ta'sir asosan kognitiv-baholovchi mexanizmlar orqali amalga oshadi — ya'ni vaziyatlarni ijobiy talqin qilish emotsional reaktsiyalarni yumshatadi. O'rta yosh va keksalik davrlarida esa motivatsion va ma'naviy-ma'noli mexanizmlar birinchi o'ringa chiqadi — optimizm hayotiy maqsadlarni saqlash va qiyinchiliklarni yengish uchun ichki motivatsiyani ta'minlaydi [5]. Shuningdek, barcha yosh davrlarida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash optimizm va emotsional barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytiruvchi muhim vositachi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Ayollarning emotsional barqarorligiga ta'sir etuvchi optimizm omillarini tahlil qilishda madaniy-ijtimoiy kontekstning rolini alohida ta'kidlash lozim. O'zbekiston sharoitida ayollarning optimistik dunyoqarashi shakllanishida an'anaviy oilaviy qadriyatlar, jamoa bilan hamjihatlik va ma'naviy-axloqiy tarbiya muhim o'rin tutadi. Sharqona mentalitetda sabr-toqat, qanoat va kelajakka ishonch tuyg'ulari optimizmning o'ziga xos shakli sifatida namoyon bo'lib, ular ayollarning emotsional barqarorligini mustahkamlovchi ichki resurslar vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, zamonaviy globallashuv jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va gender rollarining transformatsiyasi ayollarning psixologik moslashuviga yangi talablar qo'ymoqda. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, an'anaviy va zamonaviy qadriyatlarni muvozanatli o'zlashtirggan ayollar yuqori darajadagi optimizm va emotsional barqarorlikni namoyon etadilar, chunki ular turli ijtimoiy kontekstlarda moslashuvchan xulq-atvor strategiyalarini qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar [6]. Shuning uchun milliy-madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda optimizmni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Optimizm va emotsional barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlikda individual-tipologik farqlarning roli ham e'tiborga loyiqdir. Temperament xususiyatlari, xususan, ekstraversiya va neyrotizm darajasi optimizmning shakllanishi va emotsional reaktsiyalarning xarakteriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ekstravert ayollar tabiatan ijobiy emotsiyalarga moyil bo'lib, ular optimistik munosabatni osonroq shakllantiradilar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdan faol foydalanadilar [9]. Introvert ayollarda esa optimizm ko'proq ichki refleksiya, ma'naviy qidiruvlar va shaxsiy qadriyatlar tizimi orqali namoyon bo'ladi. Neyrotizmning yuqori darajasi emotsional beqarorlikka moyillikni oshiradi, biroq rivojlangan optimistik kognitiv uslub bu moyillikning salbiy oqibatlarini sezilarli darajada kompensatsiya qilishi mumkin [8]. Shunday qilib, optimizmni rivojlantirish va emotsional barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha psixologik ishlar individual-tipologik xususiyatlarni hisobga olgan holda differentsial yondashuv asosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

XULOSA

Ontogenetik rivojlanish bosqichlarida ayollar emotsional barqarorligiga ta'sir etuvchi optimizm omillarining psixologik tahlili bir qator muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi. Birinchidan, optimizm va emotsional barqarorlik o'rtasidagi bog'liqlik dinamik xarakterga ega bo'lib, ayollarning turli yosh davrlarida turlicha namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, optimizmning shakllanishi va rivojlanishi ko'p omilli jarayon bo'lib, unda biologik, psixologik va ijtimoiy-madaniy omillar o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, optimizmning emotsional barqarorlikka ta'sir etish mexanizmlari kognitiv, motivatsion va ijtimoiy komponentlarni o'z ichiga oladi va ular yosh davrlari bo'yicha o'zgaradi. To'rtinchidan, ayollarning emotsional salomatligini ta'minlashda optimizmni rivojlantiruvchi psixologik dasturlar yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi zarur. Tadqiqot natijalari psixologik konsultatsiya, psixoprofilaktika va ayollar psixologik salomatligini qo'llab-quvvatlash amaliyotida qo'llanilishi mumkin. Kelgusida ushbu muammoni empirik tadqiqotlar orqali chuqurroq o'rganish va O'zbekiston sharoitida ayollarning emotsional barqarorligi va optimizmini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Seligman, M.E.P. Learned Optimism: How to Change Your Mind and Your Life / M.E.P. Seligman. — New York: Vintage Books, 2006. — 319 p.
2. Крайг, Г. Психология развития / Г. Крайг, Д. Бокум. — 9-е изд. — Санкт-Петербург: Питер, 2012. — 940 с.
3. Гордеева, Т.О. Психология мотивации достижения / Т.О. Гордеева. — Москва: Смысл, 2015. — 334 с.
4. Carver, C.S. Optimism / C.S. Carver, M.F. Scheier, S.C. Segerstrom // Clinical Psychology Review. — 2010. — Vol. 30. — P. 879–889.
5. Митина, Л.М. Психология профессионального развития учителя / Л.М. Митина. — Москва: Флинта, 2014. — 200 с.
6. Ғозиев, Э.Ғ. Умумий психология / Э.Ғ. Ғозиев. — Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2010. — 480 б.

7. Erikson, E.H. The Life Cycle Completed / E.H. Erikson, J.M. Erikson. — New York: W.W. Norton, 1998. — 144 p.

8. Lazarus, R.S. Stress, Appraisal, and Coping / R.S. Lazarus, S. Folkman. — New York: Springer, 1984. — 456 p.

9. Леонтьев, Д.А. Личностный потенциал: структура и диагностика / Д.А. Леонтьев. — Москва: Смысл, 2011. — 680 с.

10. Нартова-Бочавер, С.К. Психология личности и межличностных отношений / С.К. Нартова-Бочавер. — Москва: ЭКСМО-Пресс, 2001. — 416 с.

I L M I Y - A M A L I Y R E Z O L Y U T S I Y A

Toshkent shahri, 2026-yil 27-fevral

Zamonaviy globallashuv jarayonlari, harbiy sohadagi texnologik transformatsiyalar va axborot-psixologik tahdidlarning ortib borishi harbiy mutaxassis shaxsiga nisbatan yangi talablarni ilgari surmoqda. Bugungi kunda harbiy faoliyat faqat intizom va buyruq ijrosiga asoslanib qolmay, balki tezkor fikrlash, noan’anaviy vaziyatlarda samarali qaror qabul qilish, moslashuvchanlik va kreativ yondashuvni talab etmoqda.

Harbiy ta’lim muassasalarida kursantlarning **psixologik barqarorligini shakllantirishga yo‘naltirilgan maxsus o‘quv-trening dasturlarini** joriy etish, ekstremal vaziyatlarga tayyorgarlik jarayonida **koping-strategiyalarni rivojlantirish**, stressni boshqarish va emotsional o‘zini nazorat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish, Axborot-psixologik urush sharoitida shaxs ongiga bo‘ladigan salbiy ta’sirlarni kamaytirish uchun **tanqidiy fikrlash, axborot immuniteti va psixologik himoya mexanizmlarini rivojlantirish** bo‘yicha mashg‘ulotlar tashkil etish tavsiya etiladi.

Harbiy xizmatda ham reabilitatsiya tizimini rivojlantirish muhim yo‘nalish hisoblanadi. Xizmatdan qaytgan harbiy xizmatchilar uchun psixologik maslahat, guruhiy terapiya, ijtimoiy moslashuv dasturlari va oilaviy maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish zarur. Posttravmatik stress buzilishining oldini olish yoki uning salbiy oqibatlarini kamaytirish uchun kompleks yondashuv — tibbiy, psixologik va ijtimoiy yordamni birlashtirish lozim. Shuningdek, harbiy qismlarda psixologik xizmatning institutsional maqomini mustahkamlash zarur. Psixologlar sonini ko‘paytirish, ularning moddiy-texnik bazasini yaxshilash va rahbariyat bilan hamkorlikni kuchaytirish psixologik xizmat samaradorligini oshiradi.

Mazkur ilmiy-amaliy konferensiya doirasida barcha to‘plangan ilmiy materiallar natijalariga asoslanib, quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Harbiy xizmatchilar uchun maxsus psixologik tayyorgarlik dasturlarini joriy etish — konfliktologiya, stressni boshqarish, guruh psixologiyasi va deeskalatsiya bo‘yicha muntazam treninglar tashkil etish.

7. Profilaktik kommunikatsiya tizimini takomillashtirish-stadion hududida aniq, tushunarli va tezkor axborot berish mexanizmlarini rivojlantirish.

8. “Yumshoq kuch” tamoyillarini keng qo‘llash-ochiq muloqot, hurmat va hamkorlikka asoslangan xavfsizlik modelini shakllantirish.

9. Ijtimoiy-psixologik monitoring tizimini yaratish-muxlislar kayfiyati va xavf darajasini baholash uchun tahliliy guruhlar tashkil etish.

10. Axborot xavfsizligini kuchaytirish-soxta va provokatsion xabarlarning oldini olish maqsadida rasmiy tezkor axborot platformalarini yo‘lga qo‘yish.

11. Volontyorlik institutini rivojlantirish-muxlislar bilan muloqot qiluvchi vositachilar orqali ijtimoiy muhitni yumshatish.

Psixologik ta’sir jamoat xavfsizligini ta’minlashda samarali vosita hisoblanadi.

6. Harbiy sohada psixologik xizmat ko‘rsatishning huquqiy me’yorlar bilan mustahkamlash lozim.

7. Har bir ta’sir turi bo‘yicha metodik qo‘llanmalar ishlab chiqilishi zarur.

8. Xodimlarning psixologik savodxonligini oshirish tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilishi kerak.

4. Biopsixoijtimoiy yondashuv qo‘llaniladi. Xorijiy tizimlarda inson holati faqat “ruhiy” emas, balki uch omilda baholanadi:

- fiziologik (charchash, uyqu, yuklama);
- psixologik (stress, emotsiya);
- ijtimoiy (jamoa, oilaviy qo‘llab-quvvatlash).

Bu uch omil o‘z o‘rnida kompleks muhofaza tizimini yaratadi hamda kasbiy degradatsiyani oldini oladi.

Xulosa qilib aytganda, **harbiy xizmatchilarni psixologik qo‘llab-quvvatlashning asosiy shartlaridan biri** - yuqori xavf, yuqori stress va noaniqlik bilan tavsiflanadigan sharoitlarda samarali faoliyat yuritishga psixologik jihatdan tayyorlashdir. Bu jarayon kognitiv, emotsional va ijtimoiy-psixologik kompetensiyalarni shakllantirish, stressga

chidamlilikni oshirish va ekstremal vaziyatlarda ongli qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Yuqoridagi ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar mamlakatimizda harbiy psixologiyani rivojlantirishga, xorij tajribasi asosida harbiy sohani isloh qilishga, milliy tajribani esa jahonga namoyon etishga xizmat qiladi.

MUNDARIJA

Kirish so‘zi…….……..…….....4-5

Saydjanov F.M Axborot-psixologik hurujlarga qarshi kurashishda harbiy xizmatchilarni asab-psixik barqarorligini ta‘minlashning psixologik omillari…….……..…….....6-13

Xolikov N.T Bo‘lajak ofitserlarda kompetentlikni rivojlantirish talablari ……..14-21

Shermatov F.T Harbiy xizmatchilarda jangovar kasbiy tayyorgarlik va shaxs individual xususiyatlarning aloqadorligi ….…….…….…21-28

Кулдашева Г.Д Современные проблемы и перспективные задачи развития военной психологии…….……....28-32

Abdumo‘minov Q.K Yosh harbiy xizmatchilarning kasbga moslashuv jarayoning psixologik jihatlari…….33-39

Maxmudov Q.A Jangovar stress: taktik tibbiyotdagi o‘rni va ahamiyati…..….40-45

Зохиров Н.У Психологические механизмы нравственно-волевой регуляции личности военнослужащего и эмпирический анализ их оптимизации…….…….…….……..45-51

Ishboboyeva G.R, Allonova R.Q Gender tengligini ta’minlashning huquqiy va psixologik omillari…..……..……..…52-59

Tursunov B.S Harbiy boshqaruv tizimida shaxslararo munosabatlar va muloqot……..…….……59-64

Ishboboyeva G.R, Jabborova Sh.M O‘qituvchilarning gender kompetentligini rivojlantirishda pedagogik-psixologik yondashuvlar……..…….…….…….64-71

Nahalboyeva N, Baxronova P Harbiy psixologiyani rivojlantirish istiqbollari: muammo va yechimlari……..……...72-75

Ishboboyeva G.R, Rixsiboyeva R.Q Ota-ona munosabatida gender tenglik va ularning bolalar tarbiyasiga psixologik ta’siri…..……...……..76-82

Qodirova M.K Uzoq muddatli xizmatning oilaviy munosabatlarga ta’siri.....83-87

Ishboboyeva G.R, Saydulloxo‘jayeva Y Gender tenglik va uning jamiyat ongida psixologik qabul qilinishi bilan bog‘liq muammolar…….....……87-93

Mullajonov I.Y Zamonaviy harbiy psixologiyaning nazariy-amaliy asoslari va operativ faoliyatdagi roli……..……..……94-98

Ishboboyeva G.R, Yuspova M.B Gender tenglik va oilaviy qadriyatlar tizimining psixologik aloqadorligi….....98-104

Tojiboyeva N Oilada farzandlarning shaxsiy va xulqiy identitetiga ta’sir etuvchi ijtimoiy munosabat va omillar…..……...……...104-110

Ishboboyeva G.R, Qurbonaliyeva Sh Gender sterotiplarni kamaytirishning psixologik usullari.……..……..….110-116

Qobilova N.I Himoya mexanizmlarining ijobiy va salbiy tomonlarini inson psixologik salomatligiga ta’siri……...……...…116-121

Ishboboyeva G.R, Turdiboyeva H Gender tengligining shaxs psixologik barqarorligiga ta’siri……..…….....121-127

Qovlonbekov A Sportchilarning taktik harakatlarida kuzatuvchanlik va diqqatchanlikni rivojlantirish……...…..……128-131

Ishboboyeva G.R Bikaryer oilalardagi harbiylarning xizmat sharoitlariga moslashuvida psixologik qo‘llab-quvvatlashning o‘rni……...……..131-136

Qo‘ldosheva S.Sh Ekstremal sharoitlarda xizmat qiluvchi xodimlarning psixologik chidamliligini oshirish masalalari ……....…137-142

Sotvoldiyeva N.M Harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini shakllantirishda oilaviy qadriyatlarning roli:ilmiy-nazariy va empirik tahlil...……143-148

Fayziyeva N.S, Turobova M.T Urush va jangovar sharoitlarda psixologik reabilitatsiya: muammolar va yechimlar…….……...148-152

Nurullayev F.Sh Qurolli kuchlar tizimida psixologik xizmat samaradorligini oshirishning zamonaviy imkoniyatlari……..…….153-156

Jumanova N.Sh Harbiylarni psixologik tayyorlashning asosiy jihatlari…...157-159

O‘razboyeva M.J Harbiy psixologiyada zamonaviy yondashuvlar va rivojlanish tendensiyalari.....160 -163

Sotvoldiyeva N Harbiy xizmatchilarning psixologik barqarorligini shakllantirishda oilaviy qadriyatlarning roli: ilmiy-nazariy va empirik tahlil…….....163-167

Axmedova L.K Qurolli kuchlar tizimida psixologik xizmat samaradorligini oshirish: muammolar, tahlil va yechimlar.....….....167-172

Fayziyeva N.S, Turobova M.T Harbiy xizmatchilarning oilaviy psixologik holati va uning xizmatga ta’siri……..……..……..…..173-176

Qo‘ldosheva S.Sh, Azimmurodova M.A Harbiy xizmatchilarda stessga qarshi psixologik immunitet.....177-183

Baratov N.K Harbiy ta’lim tizimida psixologik tayyorgarlikni takomillashtirishning pedagogik mexanizmlari…….....….183-187

Qo‘ldosheva S.Sh, Qurdosheva M Harbiy xizmatda shaxsiy intizom va psixologik barqarorlik…….....188-193

Shermatov F.T, Badalova V.N Oilada huquqiy madaniyat va tenglikni ta’minlashning ilmiy-nazariy asoslari….....….193-199

Shermatov F.T, Azimova Z.B Talaba yoshlarni destruktiv ta’sirlardan himoyalashning nazariy-psixologik asoslari……...….....199-207

Qobilova N.I Psixologik himoya mexanizmlarining nazariy asosi....….....208-211

Qovlonbekov A.A Para sportchilarni qo‘llab quvvatlashning ijtimoiy psixologik determinatlari (o‘smir yoshidagi parasportchilar misolida)……...212-217

O‘risheva P.G‘ O‘smirlarga xos emotsional o‘zgarishlar va ularning sabablari…….217-222

Qo‘chqorov N.G‘ Masofaviy ta’lim – oliy harbiy ta’lim tizimida o‘qitishning zamonaviy usuli …….....222-226

Jumanazarov B.B Zamonaviy jamiyatda liderlikning dinamik xususiyatlari .....….226-234

Zohirov N.U Psixologiyada shaxs irodasi mavzusini o‘qitishda “Zinama-zina” texnologiyasidan foydalanish……....…234-242

Ergashev A.T Jangovar va jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlarida o‘quv-tarbiyaviy ishlarning psixologik aspektlari ……..……..……....242-248

Obloqulova Sh.X Harbiy xizmatchilar ruhiy barqarorligini ta'minlashning psixologik mexanizmlari……..……..……248-252

Odiljonova X.Z Talabalarda ijtimoiy ta’sir ostida irodaviy sifatlar va emotsional intellektning o‘zaro bog‘liqligi……...252-260

Maxmudov R.M Harbiy psixologiya fanining genezisi: Bugungi holati va istiqboli…….……...261-268

Абдуллажанова Д.С. Перспективы развития цифровой психологии в военно-служебной деятельности……...269-272

Alimardonov Z.Sh Bo‘lajak ofiserlarda metakommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish muammolari……...273-280

Ikmatullayev G‘.Z Harbiy xizmatchilar adaptatsiya jarayonining ijtimoiy-psixologik determinantlari…….……...281-287

Mamatkulov D.M Xitoyning axborot-psixologik tajribasi: mafkuraviy tarbiya va vatanparvarlik…….……...……...287-292

Saipova M.L Harbiy xizmatchilarda stressga bardoshlilikning psixologik determinantlari…….……...292-297

Mamatkulov D.M Jangovor vaziyatlarda ruhiyatga ta’sir ko‘rsatishning tarixiy vositalari…….……...……...297-303

Rejametova I.I Harbiy xizmatchilarda agressiya: pedagogik-psixologik muammo sifatida…….……...……...304-310

Абдуллажанова Д.С., Поянова Р, Зулфанов Ш Особенности применения проективных методов для психокорреции в военной супервизии ……...311-316

Rejametova I.I Harbiy xizmatchilarda agressiv xulq-atvor muammosini pedagogik-psixologik jihatlari…….……...……...317-321

Yangiboyeva D.R Harbiy distant oilalarda shaxslararo munosabatlarning psixologik indikatorlari…….....322-327

Qarshibayv M.Q *Addiksiya namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari*.....328-332

Qoraboyev A.A Harbiy psixologiyada sun’iy intellekt va virtual reallikni qo‘llash istiqbollari…….....…..……...332-340

Qiyomxo‘jayeva M.R Harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyatiga ta’sir etuvchi psixosotsiar prediktorlar…….....340-347

Ashurmatov M.K Harbiy xizmatchilar psixologik barqarorligini ta’minlashning tarixiy asoslari …….……...347-353

Xaydarov I.M Oliy harbiy ta’lim muassasalari kursantlarini vatanparvarlik ruhida tartiyalashning psixologik jihatlari…….……...353-358

Сирлиев Б. Н Психологическое сопровождение служебной деятельности овд как базовый элемент системы профессиональной подготовки…….358-364

Ravshanov A.R, Shermatov F.T Zamonaviy urushlar sharoitida harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligini rivojlantirish mexanizmlari……...364-371

Shermatova N.S Kursantlarning shaxsiy barkamolligi va ruhiy mustahkamligini ta’minlashning psixologik jihatlari…….....……...371-379

Kushbayev S.K Kursantlarning ekstremal vaziyatlarda psixologik barqarorligini shakllantirish: ilmiy asoslar va amaliy mexanizmlari ……...379-385

Muqumova D.I Oliy xarbiy talim muassasalari kursantlarida sinergetik yendashuv asosida kreativ kobiliyatlarni rivojlantirishning zarurati…….....386-389

Кадиров А.А, Усманов Р.М Психологическое сопровождение участников боевых действий, их реабилитация и реадаптация…….……...390-400

Ergashev A.A Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etishda psixologok ta’sir o‘tkazish taktikasi…….....401-405

Kosimov M.X. Jamoat xavfsizligiga tahdid va xavf-xatarlarga qarshi kurashishning psixologik omillari…….....406-418

Soxiboyev Z.E, Mirabdullayev D.X Harbiy ta'limda "soft skills" ko'nikmani rivojlantirishda stress holatlarini diagnostikasi va korreksiyasi.....419-423

Farfiyev Y.A Ichki ishlar organlari xodimlarining axloqiy-ruhiy tayyorgarligini psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi…….…….....423-429

Usmanov R.M, Soxiboyev Z.E Agressiv xulq – zamonaviy jamiyatning dolzarb muammosi sifatida…….....……..…….....430-436

Bosimov B.I O'zbekiston sharoitida probatsiya nazorati ostidagi shaxslarning psixologik portretini shakillantirishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari…….……..…….....436-439

Xasonboyev B.V Zamonaviy tahdidlar sharoitida harbiy xizmatchilarni axloqiy – ruhiy himoyalashning ahamiyati…….…….....…….....440-444

Mirabdullaeva Sh.A Harbiy-kasbiy faoliyat sharoitlariga samarali moslashuv davomida shaxs sifatlarining namoyon bo'lishi…….....444-451

Кодиркулов А. С, Юлдашев Ф.Р Профессиональная адаптация сотрудников органов внутренних дел: теоретический анализ……..…….....452-456

Кодиркулов А. С, Умарова С.С Профессиональное выгорание в правоохранительной деятельности: причины, динамика развития и профилактические стратегии…….....457-460

Кодиркулов А. С, Маюсупова Ш. Ш Психологическая диагностика в системе подготовки кадров органов внутренних дел как механизм отбора, сопровождения и предупреждения профессиональных рисков……..…….....461-464

Shermatov F.T, Jafarov A.A Xorijiy davlatlar qutqaruv tuzilmalarida qutqaruvchilarning axloqiy-ruhiy holatini baholash tajribalari…….....465-472

Бекбергенов Р. К Проблема академической и служебной прокрастинации в процессе подготовки кадров: риски снижения образовательной эффективности и меры предупреждения…….....…….....472-476

Сирлиев Б.Н, Убайдуллаев Н.Н Теоретические основы изучения стрессоустойчивости сотрудников органов внутренних дел……....476-479

Sattorov F.A Jamoat xavfsizligini jangovar ta’minlash amaliyotida psixologik ta’sir o‘tkazish usullari…….....…….…….....480-485

Абдумуминова М.О Психологические аспекты формирования характера в эпических произведениях гафура гуляма и марка твена: гуманистическая парадигма и поэтика …….……..…….....486-489

Кодиркулов А.С, Максудов Т.Р Роль эмоционального интеллекта сотрудников овд в обеспечении качества профессиональной подготовки: развитие коммуникативной компетентности, саморегуляции и риск-менеджмента..490-495

Уткуров Б.Н Психологическое благополучие сотрудников органов внутренних дел как фактор профессиональной эффективности ……....495-500

Haydarov A.A Xalq pedagogikasi orqali kursantlarda ma’naviy immunitet va g‘oyaviy barqarorlikni ta’minlash……..…….....501-509

Фарфиев Ё. А, Юлдашева С. А Конфликтность в служебных коллективах овд: влияние на эффективность деятельности и стратегии профилактики…….....510-516

Ковеев Р.Р Коммуникативная компетентность сотрудника органов внутренних дел как условие формирования положительного имиджа правоохранительных органов……..……...….....516-523

Ковеев Р.Р, Рахимберганов С.Г Психологические механизмы и специфика служебного общения сотрудников органов внутренних дел…….....523-530

Кодиркулов А.С Контрпродуктивное поведение сотрудников правоохранительных органов как вызов легитимности: зарубежные подходы к оценке, объяснению и предупреждению……..…….....530-536

Zamonov A.A Gibrid urushlar davrida harbiy xizmatchilarning psixofiziologik tayyorgarligining asosiy mexanizmlari……..……...…….....536-542

Бекбергенов Р.К, Атабаев Д.Д Психологические принципы и закономерности установления эффективного взаимодействия с гражданами в рамках профилактической деятельности органов внутренних дел….....542-548

Jo‘rayev Q.O Harbiy xizmatchilarning voyaga yetmagan farzandlarini zamonaviy tahdidlardan himoya qilishning huquqiy asoslari va harbiy psixologiyaning o‘rni……..……...……...…….....548-553

Nahalboyeva N.T, Po‘latova R.D Harbiy xizmatchilar oilalarida emotsional barqarorlik shakllanishining psixologik mexanizmlar…….……554-560

Mardanov J.Q Futbol musobaqasini o‘tkazishga jalb qilingan kuch vositalarning ommaviy tadbir qatnashchilariga psixologik ta’sir ko‘rsatish usullarini takomillashtirish masalalari…….....560-566

Ziyayev J.N Jamoat xavfsizligini ta’minlashda harbiy infratuzilmani rivojlantirishda psixologiyaning o‘rni……..……..…….....566-572

Po‘lotova R.D Harbiy psixologiyani rivojlantirish istiqbollari: muammo va yechimlar……..…….....572-578

Mavlonov A.N Jamoat tartibini saqlash bo‘linmalarida psixologik ta’sirni legallashtirish: nazariy-huquqiy va amaliy asoslar……..…….....578-583

Кодиркулов А.С, Закирова Л.Э Развитие творческого мышления сотрудников овд как условие повышения качества подготовки кадров: ресурсы и ограничения……...583-587

Мунарова Р. У Гендерные аспекты девиантного поведения и профилактика буллинга в контексте военной психологии: проблемы и перспективы…....587-593

Sanaqulova Z.A Harbiy psixologiyada o‘z-o‘zini anglash tartibi va bosqichlari.....593-599

Кодиркулов А.С, Қаршибаева З. Ш Психологическое здоровье сотрудников как фактор эффективности подготовки кадров в системе органов внутренних дел……..……...…….....600-604

Кодиркулов А.С, Аитов А.Т Интегративная модель оценки когнитивных и личностных параметров сотрудников органов внутренних дел…….....605-609

Xazratqulov J.P Raqamli tahdidlar sharoitida voyaga yetmaganlar xavfsizligi: psixologik va huquqiy yondashuv…….……...…….....610-613

Turdiyeva M Psixologik korellyatsion tadqiqotlar……...…….....613-619

Мунарова Р. У Трансформация буллинга в цифровой среде: новые вызовы и методы педагогической коррекции девиаций …….…….....619-624

O‘ralova O.R Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-ma’rifiy yuksak g’oyalaridan xozirgi davr pedagogika va psixologiya fanini rivojlantirishdagi axamiyati…….....625-628

Pardayeva K.U Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda abdulla avloniy asarlaridan foydalanishning psixologik asoslari……...…...…….....629-631

Soibnazarova M.N Talabalarda axloq ko`nikmalarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari……..……...…….....632-637

Жуманазарова Д. У Жиззах воҳаси аҳолисининг бола тарбияси билан боғлиқ анъаналари……...…...…….....637-643

Abdumuminova M.O The role of integration in russian language and literature lessons……..643-647

Dusboyev A.T Kursantlar ijtimoiy moslashuviga ta’sir etuvchi o‘ziga xos psixologik omillar ……...647-653

Urazimbetov I.A Harbiy xizmatchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda suzish mashqlarini differensial o‘qitish metodikasini takomillashtirish…….……..653-658

Pulatova D.B Ontogenetik rivojlanish bosqichlarida ayollar emotsional barqarorligiga ta’sir etuvchi optimizm omillarining psixologik tahlili……..……..659-666

Ilmiy-amaliy rezolyutsiya……..…...667-669

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“XIZMAT FAOLIYATINI TARBIYAVIY-PSIXOLOGIK TA’MINLASH” KAFEDRASI

“Harbiy psixologiyani rivojlantirish istiqbollari: muammo va yechimlar” mavzusidagi

respublika ilmiy-amaliy konferensiya

TO‘PLAMI

2026-yil 27-fevral

Konferensiya materiallari to‘plami

Mas’ul muharrir: podpolkovnik Z.Sh.Alimardonov

Texnik muharrir: katta leytenant N.U.Zohirov